



ISSN: (E) 2181-1784
SJIF 2024 = 7.404
ASI-Factor = 1.7



TOGETHER WE REACH THE GOAL



ORIENTAL RENAISSANCE:

*Innovative, educational,
natural and social sciences*

www.oriens.uz

Exact sciences

Natural sciences

Engineering sciences

Pedagogical sciences

Social and Human sciences

Philological sciences

Philosophy sciences

Economic sciences

VOLUME 4

№05

2024





**ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL,
NATURAL AND SOCIAL SCIENCES
SCIENTIFIC JOURNAL**

VOL. 4 / ISSUE 5

ISSN 2181-1784

Impact Factor: 7.404

ASI Factor = 1.7

May

2024

**ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL,
NATURAL AND SOCIAL SCIENCES
SCIENTIFIC JOURNAL**

EDITOR-IN-CHIEF

Dr. KADIROV MUKHAMMADJON

Candidate of philosophical sciences, Associate professor of the department of
“Oriental philosophy and culture” of Tashkent state university of oriental studies

EDITORIAL BOARD

DSc. NODIRAKHON R. NISHONOVA

Doctor of Philosophy,
Head of the Department “Philosophy and
National idea” of Tashkent State Technical
University

PhD. LAZIZ A. TURAEV

Doctor of Philosophy (PhD) in Historical
Sciences, Head of the Department for the
organization of research activities of students of
TSUOS

**Dr. KHOLMUMINOV JAFAR
MUHAMMADIEVICH**

Doctor of Philosophical Sciences (DSc)
Professor of the department of "Source Studies
and Hermeneutics of Sufism" of Tashkent State
University of Oriental Studies. Professor at the
Antique World International Academy of
Sciences

PhD. FARHOD L. USMONOV

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical
Sciences, Senior lecturer of the Department of
Social Humanities of Tashkent State University of
Economics

Dr. AZAMAT B. KHAYRIDDINOV

Candidate of Economic Sciences
Associate professor of Karshi Institute of
Engineering and Economics

Prof. Dr. ULFATKHON MUHIBOVA

Doctor of Philological Sciences
Head of the department of South and Southeast
Asian Languages of Tashkent State University of
Oriental Studies

Prof. Dr. SULTON F. AMIROV

Doctor of technical sciences
Head of the department of Electricity Supply of
Tashkent State University of Transport

Prof. Dr. TULKIN M. TOGAEV

Doctor of Philological Sciences
Head of the Department of Uzbek Linguistics of
Tashkent State University of Uzbek Language and
Literature named after Alisher Navoi

PhD. AZIZA A. SHAYUSUPOVA

Candidate of Pedagogical Sciences Associate
professor of the department of Pedagogy and
Psychology of Tashkent State University of
Oriental Studies

Dr. IMAM K. WAHYUDI

Doctor of Philosophy (PhD)
in Philological Sciences
Head of Office of International Affairs and
Faculty Member, Faculty of Teacher Training and
Education of Universitas Islam Malang, Indonesia

Dr. AZIZ KH. KHUDOYBERDIEV

Candidate of Historical Sciences, Associate professor of the department of Eastern countries and Anthropology of Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. SAYYORA N. KHAMRAEVA

Doctor of Philosophy (PhD) in economics
Head of the department of Innovative Economics of Karshi Institute of Engineering and Economics

Dr. ALISHER N. NAZAROV

Doctor of Philosophy in Political Sciences (PhD), Senior Lecturer of the Department of Oriental Politics and International Relations, Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. ERKIN A. RAKHMATOV

Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Head of the Department of Oil and Gas Processing Technology, Karshi Engineering and Economics Institute

Dr. PHOOL BADAN

Doctor of Philosophy in Political Sciences (PhD), Professor of the School of International Studies, Jawaharlal Nehru University

Dr. SIROJIDDIN S. NURMATOV

Candidate of Philological Sciences
Associate professor of Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. METIN ORBAY

Doctor of physics and mathematical science (DSc), Professor of Faculty of Education of Amasya University

Prof. PhD. SAO FEY

Professor of Hangzhou Normal University, Linguist.

Prof. Dr ASIF MAHBUB KARIM

Doctor of Philosophy in Business administration (PhD), Dean, professor Binary Graduate School, Binary University of Management & Entrepreneurship

Prof. YALCHIN KAYALI

Ankara University, Faculty of Languages and History-Geography, Department of Eastern Languages and Literatures, Sub-Department of Indology, Faculty Member.

Dr. NIGORA Z. SAYDALIEVA

Candidate of Philosophical Sciences
Senior Lecturer of the department of Oriental Philosophy and Culture of Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. K.K. KHAKBERDIEV

Doctor of Philosophy (PhD) In Economics
Director of the Center for Scientific analysis of the study of the development of Eastern Countries at the Tashkent State University of Oriental Studies

PhD. CHJAN KONG

School of Humanities and Communication, Zhejiang University of Finance and Economics

Dr. NAUMENKO A. OLEG

Candidate of Philosophical Sciences Associate Professor of the Department of Social Sciences and Technologies, National Research Technological University MISIS, Moscow, Russia

QO‘QON ADABIY MUHITIDA MUQUMIY VA FURQAT FENOMENI

Temirova Orasta Tulkin qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Filologiya fakulteti 2-kurs magistranti

@orastatemirova56@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolamizda o‘z davrining muhim shaxslari qatorida bo‘la olgan ikki buyuk siymo Muqumiy va Furqat fenomeni haqida baholi qudrat qalam tebratdik. Ular o‘zlaridan qoldirgan beqiyos katta va kichik lirik merosidan tashqari, bizga ma‘lum bo‘lgan devonlar ham tartib berganliklari bugungi kun adabiyotshunoslariga ham muhim manba bo‘lib kelmoqda. XIX asrda yashab ijod etgan ijodkorlar Muqumiy va Furqat haqidagi yirik manba Po‘latjon Qayyumovning “Tazkirai Qayyumiy” asari orqali tahlilni amalga oshirdik.

Kalit so‘zlar: *Muqimiy, Furqat, tazkira, g‘azal, muxammas, Ibrat, Ho‘qand, muhit, XIX asr, shuaro.*

ABSTRACT

In this article, we have written about the phenomenon of Muqumi and Furqat, two great figures who were among the important figures of their time. Apart from the incomparable great and small lyrical heritage they left behind, the fact that the divans known to us are also an important source for today's literary scholars. We analyzed the work of Polatjon Qayyumov's "Tazkirai Qayyumiy", a major source about the artists Muqumiy and Furqat who lived and created in the 19th century.

Key words: *Muqimi, Furqat, tazkira, ghazal, mukhammas, Ibrat, Hoqand, environment, XIX century, shuaro.*

KIRISH

Bu yorug‘ olam bunyod bo‘libdiki, inson zoti nimagadir intilib, kurashib yashaydi va bu kurashlar goh g‘oliblik, gohida esa mag‘lubiyat bilan tugaydi. Shunday kurashlardan birida butun bir davlat xonliklarga va amirliklarga parchalanib ketdi. Bunday kurashlar, asosan, ilm-fan insonlariga ham ruhiy, ham moddiy ziyon keltiradi. Shunday bo‘lsa ham ta‘bi nozik ilm-fan insonlari adabiyotshunoslar, shoirlar va yozuvchilar yo‘q bo‘lib ketmadi va ular o‘zlarining o‘lmas asarlari bilan bugungi kun shoirlariga ma‘naviy ustoz bo‘lib kelmoqda. Nafaqat bugungi kun shoirlari, balki o‘zi yashab turgan davr shoirlari ham bu insonlarni o‘zlariga faxr bilan ustoz deb bilgan. Ba‘zilari bevosita ustoz-shogirdlikka kirishgan bo‘lsa, ba‘zilari esa bilvosita ularni o‘zlariga ustoz deb bilgan. Bu shoirlarga el orasida

hurmat ortishiga sabab bo'lgan. Bilaks, ushbu maqolamizda o'z davrining muhim shaxslari qatorida bo'la olgan ikki buyuk siymo Muqumiy va Furqat fenomeni haqida baholi qudrat qalam tebratdik. Ular o'zlaridan qoldirgan beqiyos katta va kichik lirik merosidan tashqari, bizga ma'lum bo'lgan devonlar ham tartib berganliklarni bugungi kun adabiyotshunoslariga ham muhim manba bo'lib kelmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

XIX asrda yashab ijod etgan ijodkorlar Muqumiy va Furqat haqidagi yirik manba Po'latjon Qayumovning "Tazkirai Qayyumiy" asarining II jildidan ishonchli va xolis ma'lumotlar keltiringan. Bizga ma'lumki, mazkur tazkirada qamrab olingan shoir va ijodkorlar o'zlari yashagan davriga ko'ra tasnif qilingan. Tazkirada ushbu ikki shuaro oldinma ketinlikda o'rin olgan va ular haqida bir qancha ma'lumotlar berib o'tilgan. Jumladan, bu shoirning nomi Muhammad Amin xo'ja bo'lib Ho'qand shahrida Xo'jan dahasida Bekbachcha mahallasida kosib, nonvoy oilasida dunyoga kelganligi va boshlang'ich maktabni mahallasidagi masjidida tamom etganligi va keying bosqichni madrasada Mullahomluhammad domladan taxsil ko'rgan so'ngra Buxoroga borib itmot etib kelganligi keltirilgan. Muqumiyni Buxoroda she'riy quvvati paydo bo'lib mashhur shoir bo'lib qaytadi va bu haqida Qayumov Mulla Abdulqodir kotibdan eshitganligini ta'kidlaydi. Muqumiy Ho'qandga qaytgach Madrasai Hazratdan bir hujra olib umrini oxirigacha shul hujrada yashaydi. Qayumovning aytishicha, onasi juda erta vafot etgan va otasi undan so'ng bir ayolga uylangan, Muqumiy Buxorodan Xo'qandga qaytguncha otasi ham haqning rahmatiga qovishganligi va ikki dona hamshirasi bo'lganligi va bir ayolga uylanganligi u ayol garchand o'zi xohlab Muqumiya tegsa ham, ammo ta'biga uning to'g'ri kelmaganligi sababli tark aloqa etib qo'yganligi va ularda bir o'g'il farzandning borligini, uning ismini Nishonxo'ja qo'yganligi, bolaning oyoq bosh barmoqlaridan birining qo'shaloq bo'lganligi sababli shu nomni berganligi aytib o'tgan. Muqumiy bu o'gilchasiga sunnat to'y ham qilib elga osh berganligini jiyani Ro'zi Muhammad xoji so'zlaydi. Muqumiyning Xayriniso ismli hamshirasi bo'lganligi va Muqumiy Madinayi Munavvarda turib qolgan Qori Rahmatilla (nazmda taxallusi Maxzun) Muqumiya ayni tog'a emas, o'gay tog'a bo'lib Xayrinisoga tog'ayi aynnidur, deydi Muqumiyning jiyani xoji Ro'zi Muhammadxon.

Antalogiyada Muqumiy 1850-yilda iyun oyida tug'ilganligi haqida ma'lumot keltirilgan. Bunga sabab esa "Muallim Abdulqorining bog'chasida Mulla Ismoil Jumaboyev, Havz labida nastaliqni mashq qilib o'lturardim, Muqumiy kirib keldilar, soat o'n birlar edi. Muallim qori tut qoqishni buyurdi. Tut qoqish uchun men daraxtga chiqdim. Jabbor qori soatsoz ham bor edilar. Ular choyshab ushlab turdilar va keyin to'rtalamiz o'ltirib tut yedik", "Men tutni juda yaxshi ko'raman- chunki meni o'zim

ham tut pishig‘ida tug‘ilgan ekanman”, hazil ila aytdi-mi, to‘g‘ri so‘zladi-mi noma‘lum, deydi Mulla Ismoli Jumaboyev. Mulla Ro‘zi Muahammad qorining so‘zicha, tog‘asi 53 yoshida o‘lganligiga ishonmaydi. Oltmishga kirmagan, ammo ellikdan oshgandi. O‘limidan ikki yil oldin ko‘rdim, soqoli qora erdi. 56 yoshlar deb seza olmayman, deydi. Muqumiy o‘limidan 15 kun oldin Shayhon qabristoning mudiri Mulla G‘ofurjon nomli go‘rkovga: ”Mavlabiy Jabbaliyning dahmasining sahnidan men uchun bir go‘rkovlashing mumkin-mi? Faqir orzuyim shudir, uzoqroq muddad qabrim el ko‘ziga ko‘rinib turib fotihalaridan umid tutar edim”, deydi. Muqumiyning tashqi ko‘rinishi haqida Mulla Ixson Xo‘jamqul o‘g‘li bunday deydi: “Muqumiy Muhammad Alixon madrasasida o‘qiganda, men ham talaba edim, Xomush, indamas qotmaroq bug‘doy rangli kishi edi. Guldestaga chiqib olib dars tayyorlab o‘lturganini ko‘p ko‘ra edim”.

Tazkirada Muqumiyning bir nechta g‘azal va muxammaslari va bir she‘ri keltirilgan. Quyida: “Keldim” radifli g‘azalidan

Ko‘p erdi xasratim jono qilay izhori deb keldim,
Muqumiy kunji g‘am erdim, sani g‘amxo‘r deb keldim.
Xatingmi rasta-rasta sabzai rayhoni jannatmu,
Yuzing ko‘rib tomosho aylayin gulzor deb keldim.

Ushbu g‘azal 9 baytdan iborat va tazkirada to‘liq holda berilgan. Ya‘na tazkirada 6 baytdan iborat “Ham”, “Qachongacha”, “Ayladim” kabi g‘azallari va Navoiy va Amiriyning g‘azallariga ham muxammaslar bog‘lagan. Namangondagi do‘sti Nodimga Ro‘zadan shikoyat qilib “Tasviri ro‘zadoron” [1,210] nomli she‘rni maktub qilib jo‘natganligi haqida ham tazkirada keltirilgan. Tazkirada yana shunday manbalar ham keltirilganki, Roniq taxallusida ijod qilgan va Muqumiya xosroq qilib bir muxammas yozgan, mazkur muxammasda zamonadan shikoyat qilgan [3,463]

Yuqorida qayd etganimizdek, Muqumiyni o‘ziga ustoz deb bilganlar va bu bilan el orasida mashhurlikka erishmoqchi bo‘lganlardan yana biri G‘aribiydir. Ushbu shoir Ho‘qand shahrida Xo‘jand dahasiga dohil bo‘lgan Bekbachcha II mahallasida 1885-yilda kosib oilasida dunyoga kelgan va juda faqirlikda hayot ko‘rgan. Biroz ilm chiqargach diniy lavozimlarda xizmatda bo‘lib, o‘rta holroq tirikchilik qilgan. Elga o‘zini Muqumiyning shogirdi deb ko‘rsatsa-da, adabiy borada Muqumiyan bahralanganlik ko‘rinmaydi. Yozgan she‘rlari so‘z yig‘indilaridan iboratdir. [3,627] Quyida ijodidan parcha:

**Ey Muqumiy, yashnadi gulzoringiz
Ochdi davron g‘uncha gul ruxsoringiz.**

Baxtu iqboli zabun tole baland

Bir quyosh yanglig‘ to‘lib anvoringiz

**Javri charx barbod tegirmon tosh sinib
Bo‘ldi rohatga mubaddal chekdigi ozoringiz**

**Tanasidan siynasiga o‘t tushib
Rashkdin kuygan kuygan hama ozoringiz**

**Furqati, Zavqiy yaqin do‘stlar muhib
Sevgida hamdardi, ham asroringiz**

**Siz tarafdori edingiz faqir elil
Zulum etuvchiga nafrat erdi koringiz**

**Qiymatin topdi asrlar pur baho
Xush ahlidir ahli yoringiz**

**Kuylaringiz dilga baxsh etgay safo
Mutrib ahli sozidin ash‘oringiz**

**To‘tiyo aylar o‘zingizni g‘arib
Mavzuningiz naqdijon aysoringiz.**

G‘aribiyning ushbu she‘ri Muqumiyning yubileyiga atab yozilgan. She‘rdan angashilgan mazmunga ko‘ra Muqumiy Furqat va Zavqiylar bilan hamdard, hamnafas bo‘lgan.

O‘z davrida eng sermahsul ijod qilgan, xalqni tasvishini qila olgan va uning dardini o‘zirikidek his etgan shoirlar, yozuvchilar zamonlar o‘zgarsa ham, avlodlar o‘zgarsa ham o‘zining kitobxonini va muxlisini yo‘qotmaydi. Chunki ular haqiqat uchun kurashgan xalq farzandlaridir. Furqatning umrining eng gullab-yashnagan davri vatanjudolikda o‘tdi. Turkuston general-gubernatorligidagi mustamlaka amaldorlar Furqatni ahvolini xalqdan sir tutgan, xalqning nazarida bu ulug‘, jonkuyar shoir sayohatda yallo qilib yuribdi, deb bildirganlar. Ammo tarixdan va o‘zining yaqin do‘stlari bo‘lmish Zavqiy bilan ham nasriy, hamda nazmiy xat almashganlar. Yozishmalaridan shu ma‘lum bo‘ladiki, Furqat o‘zining 18 yillik umrini vatandan ayro o‘tkazgan va Qo‘qonni juda ham qumsab yashagan. Bunga isbot tariqasida “Ahvolot” nasriy asaridan parcha keltiramiz: “Chun yoshim soati umr gabro‘zida yigirma to‘rt shumorig‘a yeti, ul vaqt Ho‘qand viloyatidag‘i fozili

rasotabe kishilar bilan birga ittihad aylab, alarning suhabatidin ko‘p bahralar topdim va asr shuarolarikim, Mavlono Muhiy, Mavlono Muqumiy, Mavlono Zavqiy, Mavlono Nisbatdurlar hamisha majlisi bunyod aylab, zodai tabilarimizdin mushaira qilur erduk. Va bir g‘azaldan tatabbu’ ko‘rguzib bir mazmun har nav ifoda topar erdi. Goh hamd gulshanidin gul uzub, goh na’t naxlistonidin samarchin bo‘lur erdik. Va ba’zi vaqt ishq tavsifi va husn tarifida g‘azal mashq aylab va gohi qadimiy shuarolar devonlaridin bir sho‘x g‘azalni tofib, anga har qaysimiz alohida muhammas bo‘glar erdik”[2,225] Shundan ma’lum bo‘ladiki, Furqat o‘zidan yosh jihatidan ancha buyuk va ijodda pesh qadamroq bo‘lgan ustozlari, hamda do‘stlar ila bo‘lgan bu mushoira kechalarini sargardonlikda qattiq qumsab yurgan. Shu o‘rinda Qo‘qon adabiy muhiti haqida eng ishonchli manba bo‘lgan “Tazkirai Qayyumiy”ga ham bir nazar solsak, Furqatning hayoti va ijodiy faoliyati haqida shoirning ismi Firqat shaklida keltirilgan. Bu shoir Qo‘qon shahridan Xo‘jand dahasidagi Beshariq mahallasida Xolmuhammad ismli mayda savdogar oilasida tug‘ilgan. Ilk ta’limni mahallasidagi masjidida usuli qadim maktabida oladi. Bu maktab 1901-yilda yopiladi. Xat savodli bo‘lgach madrasai Muhammad Alixonda davom ettiradi. Muqumiy bilan ham shu davrda tanishadi. Abbasxo‘ja o‘g‘li Kalonxo‘ja Firqatni shunda xotirlagan 25 yoshgacha bo‘lgan davr hayoti feodalizm davri edi. 27 yoshlarida shoir bo‘lib tanilgan edi, Xudoyorxon shahardan chiqib ketib O‘rinburg‘ga nazorat ostida turagda feodallarga maqbul tarzda Xudoyor tilidan bir muxammas yozadi. Bu o‘sha zamon ruhiga mos tushadi:

Qabul aylab xudo bu tavba birla oxu zorumni

Yana Farg‘onaga bir yo‘l o‘taygaymi gulzorimni

Quvonsa notavon ko‘nglim ko‘rib yoru diyorumni

Duogo‘ylar ichinda yaxshi bilgay e‘tiborimni

Darig‘o Firqatiydek diyda giryonlar qayon qoldi

Ushbu muxammasi xalq orasida ancha mashhur bo‘ladi. Insonlar uni aytib yuragaligini va bu chor hukumatining ham qulog‘iga yetib borganligi ehtimoldan holi emas, ammo hukumat xalqning taniqli shoirini jazolab, xalqni g‘azablantirmaslik uchun indamagan bo‘lishi mumkin.[3,227] Furqat yurtidan uzoqda bo‘lgan davrlarida ham ijod qilganligi va ijod namunalarini Qo‘qondagi do‘stlariga yuborganligini tazkirada o‘rin olgan yana bir shoirida ham ko‘rishimiz mumkin. “*Bu shoir asl Marg‘ilondan bo‘lib Toshbolta Muhammad Ibrohim o‘g‘lidir Firqat ila do‘st Roiq taxallusi bilan shuhratlansa ham yozgan ashorlarida Ibrat tahallusini ixtiyor etgan to‘la g‘avdali inson bo‘lgan*” [3,456] Ibrat taxallusida Furqatning bir g‘azaliga muxammas bitgan.

Qoshi mexrobinda qilg‘an jilvasidur Firqatiy

*Nisbatiy, zavqiy, Muqimiy shevasidir Firqatiy
Ibratiyning hayrat etgan hadisidir Firqatiy
Bir kamon abru shahidi g'amzasiydir Firqatiy
Qabrimi ko'rsata har kim qon oqar barmog'idin*

Tazkirada Roiqni Furqat bilan madrasaning bir hujrasida birga turganligi va uning yana boshqa g'azallariga ham muxammaslar bitganligini ko'rishimiz mumkin: "Ko'k mozor madrasasida Furqat bilan birga turatdik. U rastada choyfurushtlik ham qilardi."

Furqat "Kashmirda", "Tafsirada", "Taqdirda" radifli g'azallarini aynan shu kishiga berib yuborganligi va uni Muqumiyga ham berib qo'yishi kerakligini aytgan [3,465-b]. Furqat bir muddat Marg'ilonda turgan kezlarda Ibrat bilan ham birga turganligi va birgalikda ashula aytib xofizlik qilishar erdi, deydi shoir Mufazza. [3,466-b] Furqat ketgandan so'ng esa uni sog'inib "Ketding, ketding" radifli bir g'azal ham yozgan quyida g'azaldan parcha:

*Yig'lamoqdin bir pari hajrinda ey ahboblar,
O'ng ko'zimdin oqdi qonu so'ngidin zardoblar.*

Xulosa qilib aytganda, bu ikki o'z davrining mashhur shaxslari xonliklar va mustamlakichilar davrida yashab ijod etgan bo'lsa-da o'z atrofiga, o'zi yashagan ijtimoiy sharoitiga qaramasdan yaxshi bir adabiy maktab va o'ziga xos ijod qilgan fenamenlardir. Bu zotlarni fenomenlar deyishimizdan maqsad yuqorida ham keltirdikki, ular atroflarida bir qancha tabi nazmni jamlaganligi va ularga shogirdlik tushish istagi baland bo'lgan shoirlarni ham ko'rdik. Alalxusus, Muqumiy va Furqatni o'z davrning eng yorqin vakillari ekanligidan dalolat bo'ladi. Nafaqat ijodda balki ijtimoiy va siyosiy sohada ham faol ishtirok etgan. Bunga misol tariqasida Furqatning Xudoyorxon va uning avlodlari bilan bo'lgan munosabati va yozishmalarini va hatto general gubernator bilan ham muzokaralar olib borgan, xalq farzandlar deb atasak xato qilmagan bo'lamiz, chunki bular o'sha davrning ahvolini ya'ni oddiy xalqning turmush tarzini ham o'z ijodida garchand hazil mutoyiba shaklida bo'lsa-da baralla kuylay olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muqimiy, Ikki tomlik asarlar to'plami. II-tom -Toshkent, 1960, B-199
2. Qayyumov P. Tazkirayi Qayyumiy 1-jild -Toshkent, 1997, B-244
3. Yusupov Sh . Xudoyorxon va Furqat - Toshkent, Sharq,1995 , B-69-67
4. Муҳиддинов, М. Қ. (2023). СЎЗ ГУҲАРИ... *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 786-793.

O‘ZBEK TILI IQTISODIY TERMINLARINING TARIXIY- ETIMOLOGIK XUSUSIYATLARI

Durdona Muxtorovna Xamidova

Tadqiqotchi - o‘qituvchi, O‘zDJTU

dhamidova10@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola ingliz va o‘zbek tillari iqtisodiy terminlarning tarixiy-etimologik jihatdan olib borilgan tahlil natijalarini yoritib, soha terminologiyasida terminlarning kelib chiqishi, vujudga kelishi va tarixiy taraqqiyotini qamrab oladi, xususan, qadimgi turkiytil, eski turkiy til manbalari tadqiqetiladi. Maqoladan ko‘zda tutilgan maqsad maxsus lug‘at tizimida etimologik tadqiqotni amalga oshirishdan iborat.

***Kalit so‘zlar:** termin, terminologiya, iqtisodiy terminlar, etimologiya, olinma terminlar, terminlashuv jarayoni.*

HISTORICAL-ETYMOLOGICAL FEATURES OF UZBEK ECONOMIC TERMS

Durdona Mukhtorovna Khamidova

Researcher - teacher, UzSWLU

ABSTRACT

This article discusses the the results of historical-etymological analysis of English and Uzbek economic terms and studies the origin and historical development of economic terms. The purpose of the article is to investigate the ways through which they were borrowed or derived from. It set the aim of carrying a research out in a special vocabulary system.

***Key words:** term, terminology, economic terms, etymology, derivation, derived terms, terminisation.*

ИСТОРИКО-ЭТИМОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УЗБЕКСКИХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ

Хамидова Дурдона Мухторовна

Научный сотрудник – преподаватель, УзГМЛУ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются результаты историко-этимологического анализа английских и узбекских экономических терминов, а также изучается происхождение и историческое развитие экономических

терминов. Цель статьи - исследовать пути, посредством которых они были заимствованы или получены. Была поставлена цель провести исследование в специальной словарной системе.

***Ключевые слова:** термин, терминология, экономические термины, этимология, деривация, производные термины, терминизация.*

KIRISH

Turkiy xalqlar istiqomat qilgan hududlarda xalqlar o'rtasida tovar ayirboshlash va savdo munosabatlari eramizdan avvalgi II asrlardayoq paydo bo'lgan edi. U davrlarda ham qabilalararo siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy-madaniy aloqalarni mustahkamlashda savdo-sotiq ishining roli katta ahamiyat kasb etgan. Savdo-sotiq munosabatlari qadimiy bo'lganidek, o'zbek tili iqtisodiy leksikasining taraqqiyot tarixi ham uzoq o'tmishga borib taqaladi.

Ma'lumki, XX asrning ikkinchi choragida o'zbek tili terminologiyasini ilm-fan tarmoqlari bo'yicha to'plash va tadqiq qilishning ilmiy me'yorlarini ishlab chiqish borasida qator tadqiqot ishlari olib borilgan. S. Nazarov [1,46], U. Tursunov [2,21], S.Ibrohimov[3,69], Oybek[4,58], Qori Niyozov [5], E. Musin [6], M. Solihov [7], N. Alimuhamedovlar[8] yozgan risola va maqolalar ushbu harakatning yorqin misolidir.

Tilshunos olimlar R.Doniyorov va H.Dadaboyevlar terminlarning o'zbek tilida paydo bo'lishi va rivojlanish tarixini tadqiq etib, "XI –XIV asr eski turkiy til manbalaridagi ijtimoiy siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminologiya" [Doniyorov,1976] nomli izlanishi qayd etilgan terminologik tizimni diaxron aspektda turkiyshunoslikda ilk bor tadqiq etgani bilan xarakterlanadi. Ilmiy faoliyatini leksikografiya va terminografiya masalalarini o'rganishga bag'ishlagan A.Madvaliyevning "O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari"[10, 136] kitobi terminologiya va lug'atchilikning dolzarb muammolariga bag'ishlangani bilan ahamiyatli. Unda o'zbek tili leksikasi va terminologiyasining rivojlanish masalalari, o'zbek lug'atchiligi tarixi, uning bugungi taraqqiyoti tamoyillari, so'z o'zlashtirish, terminlarni tartibga solish kabi mavzulardagi tadqiqotlar joy olgan [10, 384].

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Tarixiy nuqtai nazardan iqtisodiy terminlarning shakllanishi va rivojlanishi N.A. Baskakov tomonidan ikki katta davrga bo'lib o'rganilgan:

- Oktyabr revolyutsiyasigacha bo'lgan davr;
- Revolutsiyadan keyingi davr [11,110].

H.Dadaboyev o'zbek tili terminologiyasini davrlashtirgan holda tadqiq etish usulini ilgari surib, bu orqali terminlarning tilimizda baydo bo'lish omillari va rivojlanish bosqichlari haqida batafsilroq tasavvurga ega bo'lishimizga yordam

bergan. Terminosistemaning tarixiy-etimologik taraqqiyotini davrlashtirib o‘rganishning bu usuli “...salkam o‘n to‘rt asrlik vaqt mobaynida terminologik leksika tizimida intralingvistik va ekstralingvistik omillar negizida sodir bo‘lgan jarayonlarni anglab yetish imkonini beradi”[12, 12].

O‘zbek tili iqtisodiy terminlarning tarixiy etimologiyasini tadqiq etish maqsadida bu borada olib borilgan izlanishlar, yurtimiz davlatchiligining tarixiy taraqqiyot yo‘li va unda yuz bergan siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, demografik o‘zgarishlarni inobatga olgan holda o‘zbek iqtisodiy terminologiyasi rivojlanish bosqichlarini quyidagicha davrlashtirdik:

–VII asrdan 1917-yil (Oktyabr inqilobi)gacha bo‘lgan davr iqtisodiy terminologiyasi;

–1917-yildan yurtimiz mustaqilligigacha bo‘lgan davr iqtisodiy terminologiyasi;

–istiqlol davri o‘zbek tili iqtisodiy terminologiyasi.

Har qanday til tarixiy-etimologik rivojlanishning turli bosqichlarda o‘z resurslarini turli til vositalari yordamida boyitib boradi. Har bir davrning tilga ta’sir ko‘rsatuvchi omillari o‘ziga xos bo‘lib, ular tilda nafaqat umumadabiy so‘zlarni, balki, maxsus tushunchalarni ifodalovchi lug‘aviy birliklardan tashkil topgan terminosistemani shakllanishida har biri alohida ahamiyatga ega. Har bir davrda til rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar turlicha bo‘lgan. Jumladan, qadimgi turkiy til terminologik leksikasi tarkibi ham barcha tillar kabi umumadabiy til so‘z va maxsus termin yasash modellari vositasida shakllangan bo‘lib, undagi iqtisodiy terminlar asosini asl turkcha so‘zlar (*čičğay – kambag‘al*), so‘g‘d (*xazne – ombor, g‘azna*), xitoy (*bau – pul, teang – xazina*) va sanskrit (*sart – tojir, savdogar*) tillaridan o‘zlashgan. Lekin bu terminlarning asosiy qismi vaqt o‘tishi bilan arxaizmlar qatoridan joy oldi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, o‘zbek tilining hozirgi zamon iqtisodiy terminlari tarkibida zamonaviy neologizmlar bilan bir qatorda qadimgi turkiy til va eski o‘zbek adabiy tili manbalarida uchraydigan terminlar ham mavjud: alim – qarz olish; berim – qarz to‘lovi, to‘lov.

Qadimgi turkiy til, undan keyin eski turkiy tilda mavjud bo‘lgan iqtisodiy terminlarning rivojlanish tarixini tadqiq etishda asosiy tarixiy manbalardan biri sifatida Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asariga murojaat etish lozim. Ushbu lug‘at turkiy xalqlar madaniy hayotida, xususan tilshunoslikda alohida ahamiyatga egadir. Muallif yirik lug‘atchi sifatida IX–X asr umumturkiy tilining lug‘aviy boyligini to‘laligicha namoyon etgan.

MUHOKAMA.

“Devon”da o‘z ifodasini topgan ba’zi iqtisodiyotga oid terminlar hozirgi o‘zbek tilida ham muayyan fonetik yoki orfografik o‘zgarishlar bilan qo‘llanmoqda: tavar (tovar), satig‘ (sotuv), berim (oldi-berdi). **Satig‘** (trade) termini Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida “oldi-sotdi, savdo-sotiq” ma’nosini bildiradi [13,32]. Asarda “oldi-sotdi” ma’nosidagi *satīy* istilohi ishlatilgan. “Qutadg‘u bilig” matnida narsa-buyumlar bahosini ifodalaydigan *qijmāt* istilohi bugungi kunda ayni shaklda qo‘llanadi: *Bilir bolsa qijmāt ol arsiqmasa, satīyda tavīyda neq alsiqmasa* – bahoni biladigan bo‘lsa toki aldanmasa, oldi-sotdida mol orttirib olishga intilmasa.

Savdo (*trde*) so‘zi fors-tojikcha bo‘lib, “oldi-sotdi muomalasi” ma’nosini anglatadi. O‘zbek so‘zlashuv nutqida bu leksema “*sovda*” shaklida ham ishlatiladi: shunga ko‘ra o‘zbek tilida yasalgan “*savdolash*” termini ham “*sovdolash*” tarziga ega. **Savdogar** (*tradesman*) termini forscha “*savdo*” otiga -*gar* qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan bo‘lib, “savdo bilan shug‘ullanadigan kishi” ma’nosini anglatadi. Fors-tojikcha “*savdogar*” otiga o‘zbekcha -*chilik* qo‘shimchasi qo‘shilib, “savdo-sotiq ishi bilan shug‘ullanuvchi kasb” ma’nosidagi so‘z hosil bo‘lgan [15, 204]. “Qissasi Rabg‘uziy”da esa sotuvchi, savdogar tojar – “*satıyğ‘chı: tojir*” ma’nosi asl turkcha hamda fors-tojikcha “*bāzırgān*” [16, 45] istilohlari bilan ifodalangan.

Pandnoma matnida “savdogar, tojir”(merchant) ma’nosini anglatgan sanskritcha *sart* so‘zi bilan birgalikda sof turkiy *satīyçī* so‘zi ham qo‘llangan. *Negü ter eşitgil bu sartlar başı, azun tezginip neğgä tegmiş kişi* – savdogarlar boshi nima deydi eshitgin, olam kezib mol dunyoga erishgan kishi. O‘zlashma “Devonu lug‘otit turk”da ham shu ma’noda qo‘llangan: *Sartniñ azuqıarıy bolsa, jol üzä jer*– savdogarning moli toza, beshubha bo‘lsa, yo‘l ustida yeydi [13,54].

Mazkur terminlarning ba’zilari esa vaqt o‘tishi bilan iste’moldan tushib hozir arxaizmga aylanib qolganligini qayd etish lozim: alim- ayıchı – xazinachi, sart – savdogar, jarmaq – pul, darb – hisob, saqış – hisob-kitob, ayır – qimmat, üjüz – arzon, kebit - do‘kon [13,47], *oto ‘nch* – qarz [14,450], *o ‘ro ‘nch* – pora [14, 451], yıyz - jo‘n, arzon-baho [14,88], *yomg‘a* – mollarni saqlovchi va ularni yig‘uvchi amaldor [14, 451], *terchi* – ish haqi oluvchi [14,394] va h.k.

Turkiy tilda qo‘llangan terminlar hozir ham yo‘qolib ketishda davom etmoqda, ularning ba’zilari yurtimizning ba’zi hududlari dialektlarida, asosan, yoshi ulug‘ vatandoshlarimiz tilida saqlanib qolgan. Misol tariqasida mulkchilik bilan bog‘liq qadimgi turkiy til terminlaridan biri **enchi** lug‘aviy birligini oladigan bo‘lsak, *ota farzandlariga tirikligida bo‘lib bergan mol-mulk* [O‘TIL, E] ma’nosini beruvchi

bu termin hozirgi zamon o‘zbek tilida nafaol qatlamga mansub, mulozamat iboralarida uchraydi:”...*hamma yoq enchi*”. B.A.Rahmonov bu termini yo‘qolib borayotgan etnografizmlar qatorida bergan [Rahmonov, 2021].

O‘zbek tilining naqadar boy til ekanligi barchamizga ma’lum. Juda ko‘plab so‘zlar tarixiy va arxaik so‘zlarga aylanib ketgan. Albatta, zamon o‘tmoqda, sezishga ham ulgurmas darajadagi rivojlanish bo‘lmoqda. Bugunga kelib, vazifasi ham, nomi ham yo‘qolib ketayotgan yoki boshqa nom bilan atalayotgan istilohlarni tarixiy qo‘lyozmalarda, bitiklarda va albatta, tarixiy asarlar matnida uchratish mumkin. Bugungi kunga qadar O‘rxun-enasoy va Ko‘k turk yozuvlarida bir qancha iqtisodiy matnlar topilgan bo‘lib, ular davlatchilik tarixida amalda bo‘lgan qadimgi tilning kelib chiqishi va tarixiy rivojlanishi haqida yetarlicha ma’lumotlar beradi.

Misol sifatida o‘tgan asr boshlarida ingliz sharqshunosi A.Steyn boshchiligidagi ekspeditsiya tomonidan qo‘lga kiritilgan rasmiy yozishmalar, Mug‘ qal’asi xarobalaridan topilgan bitiklar, A.Gryunvedel boshchiligidagi nemis ilmiy ekspeditsiyasi tomonidan Sharqiy Turkistondan topilgan vasiqa, rus sharqshunosi S.F. Oldenburg ekspeditsiyasida Turfonda topilgan yuridik hujjatlarni keltirish mumkin. Mazkur topilmarani tadqiq qilgan olimlar ularni VII–VIII yuzyilliklarga tegishli ekanini aytadilar. 1911- yili Yorkent yonidagi Robul qo‘rg‘onidan Qoraxoniylar davriga oid 15ta matn topilgan bo‘lib, ular asosan turkiy yozuvda, to‘rttasi uyg‘ur va bittasi arab yozuvida bitilgan. Rasmiy matnlarda qayd etilgan *sotuvchi, oluvchi, guvoh* leksemalari odamlar ismi – Ali, Ahmad, Usmon, Hasan, Is’hoq, Yaqub, Sulaymon, Mekoyil, Muhammad singari musulmoncha otlar bilan atalgan [Sodiqov, 2004,6]. Bundan ko‘zlangan maqsad savdo munosabatiga kirishgan kishilarning xato qilishlarini oldini olish bo‘lgan va ularning arab yozuvida berilganlari o‘qilishda ham adashmasliklari uchun harflar harakatlari qo‘yib ketilgan. Ular *tilxat, garovga qo‘yish, omonatga berish, xo‘jalik yuritish, xarajatlar, qarz, ijara, oldi-sotdi* kabi faoliyatlar bilan bog‘liq yozishmalar mavjud. Shu o‘rinda mazkur yozishmalarda iqtisodiy aloqalarni ifdalovchi terminlarni ko‘rib chiqamiz:

Satig‘ – sotuv; savdo-sotiq ma’nosini anglatadi. Bu so‘z o‘z o‘rnida “baho, narx”ni ham bildiradi: yer *satig‘i* “yerning bahosi” degani;

Tut – “tutmoq”, “ishlamoq”; sotilayotgan qul yoki yerga nisbatan ishlatiladi; taplasar, o‘zi tutsun, taplamasar, adin kisika o‘tkuru satsun – “(yerni) istasa, o‘zi ishlatsin, istamasa, boshqa birovga sotib yuborsin”;

Asig‘ – “foyd” ma’nosida; *asig‘i bila koni berurman* – “foydasi bilan to‘liq qaytaraman”. Hujjatlarda **asig‘** bilan **tus** o‘zaro sinonim sifatida ishlatiladi.

Alim – olim, olinadigan narsa, qarz; **alimchi** – qarz beruvchi;

Uluslug‘ – ulushli; hissali.

Muhim jihati, ilk o'rta asr jamiyatining iqtisodiy munosabatlari narsa-buyum ishlab chiqarish, hunarmandchilik, to'qimachilik, dehqonchilik bilan bir qatorda, savdo-sotiq, oldi-berdi, ayirboshlashga ham tayanadi.

Terminlarga etimologik talqin berishda ularning tovush tarkibi jihatidan, mazmun jihatidan o'zgargan yoki o'zgarmagani, hozirgi o'zbek tiliga qadar ro'y bergab modifikatsiyalarni bilish ahamiyatlidir. Qadimgi turkiy tilda, shuningdek, unilarning qisqa yoki cho'ziqligi ham so'z ma'nolarini o'zaro farqlashga xizmat qiladi.

Ayirboshla – *ayir* + *bosh* + *la* < az – alohida bo'l + iyr – orttirma nisbat qo'shimchasi > *azîr* > *ayîr* > *äyir* – alohida qil. Bu termin orfoepik va orfografik jihatdan *î* unlisi qattiqligining yo'qolishi hamda *z* unlisi *y* unlisi bilan almashishi kabi o'zgarishlarga uchragan, shuningdek, *a* unlisi cho'ziq *ä* ga almashgan. Mazmun jihatdan *azîr* + *bash* > *äyir* + *bosh* > *äyirbosh* – *boshma bosh almash degan* ma'noni anglatib, o'sha davrda bir xil qiymatdagi narsalarni o'zaro almashish orqali amalga oshirilgan savdoning asosiy turi hisoblangan. Garchi shu shakli bilan ham hozirgi ma'nosini ifodalagan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan unga *-la* fe'l yasovchi qo'shimchasi qo'shilgan;

Navbatda keltiriladigan terminlarda ham ma'no saqlanib qolgan holda yozilishida o'zgarishlar bolgan: *Tovar* – talab, ehtiyojni ta'minlovchi barcha narsa, mahsulot; sotuvchilar va xaridorlar o'rtasida oldi-sotdi, bozor munosabatlari obyektii [O'TIL, 2006, IV; 13], ayirboshlash, sotish uchun ishlab chiqarilgan mahsulot [Rahmatullayev, 2000; 343]. Bu ot qadimgi turkiy tilda *tavar* tarzida talaffuz qilingan. *Tavar* boylik ma'nosida ham kelgan: tamu qapuyin a'ar tavar – boylik do'zahning darvozasini ochadi; olar ikki tavar satisyan alisyanlar ol – ular ikkisi bir-birlari bilan savdo qilishadi [17]. O'zbek tilida *a* unilari *ä(o)* unililariga, almashgan: *tavar* – *tävär*. Bu so'z dastlab *uy hayvonlari, mol-ho* [Sevortyan, 2003;115] ma'nosini anglatgan umumiste'mol so'zi bo'lgan. "Qisasi Rabg'uziy [Rabg'uziy, 1991]"da ham *tovar* – *tavar, mal* – *tovar, mol* ma'nosida kelgan [Abdushukurov, 2008; 45]. Bu termin bugungi kunda rus tilida ham faol qo'llanadi.

Hozirgi zamon iqtisodiy termini sifatida *tovar* – sotish uchun ishlab chiqarilgan mahsulot. Tovar ehtiyojlarni qondirish mumkin bo'lgan va bozorda sotib olish, foydalanish yoki iste'mol qilish uchun taklif etiladigan hamma narsa ma'nosini ifodalaydi [Mamanazarov, 2012; 404].

Boy – *ba:y* > *bay* > *boy* [Devon III 173] – keyinroq bu termindan boylik termini hosil qilingan; *ish* – qadimgi turkiy tilda *i:sh* deb cho'ziq talaffuz qilingan har qanday mehnatni nazarda tutgan; *olibotar* – qadimgi turkiy tilda bu so'z sifatdosh bo'lgan va keyinroq otga ko'chgan. *älib sätädi* > *älibsätär* > *olibotar; soliq* – *aholidan*

davlat foydasiga to'lanadigan mablag' – **saldī** so'zi qadimgi turkiy tilda *chiqar* degan ma'noni bergan [Devon II, 32], *sal* fe'liga *-ig'* qo'shish bilan yasalgan: **sal + ig' = salig' > saliq > soliq**.

Sot – *kelishilgan pul evaziga berish* ma'nosida qo'llanadigan bu termin pul paydo bo'lishidan avval *biror narsa evaziga ber* degan ma'noni anglatgan. **Sat** so'zi [*sad*] deb talaffuz qilingan, vaqt o'tishi bilan *sot* shakliga o'zgargan. Bu so'zga *-ig'* qo'shib **satig'** (*sotiq*) – *savdo muomalasi* termini yasalgan; shuningdek, **sotuvchi** termini ham shu o'zakdan yasalgan otdan kelib chiqqan bo'lib, qadimgi turkiy tilda *sat* fe'liga *-g'u* sifatli yasovchi hamda *-chi* shaxs oti yasovchi qo'shimchalarni qo'shish bilan yasalgan. **satg'uchi** termini **satig'**dan tasalgan **satig'chi** terminiga variantdosh hisoblanadi [Devon, II, 342]. Shuningdek, Devonda **satildi** – *sotildi* fe'li **tavar satildi** – *tovar(mol) sotildi* birikmasi bilan qayd etilgan va uning *satilur*, *satilmoq* shakllari berilgan [Devon, II, 137].

Quyidagi terminlarda esa ham ma'noda ham yozilishida o'zgarishlar bo'lgan:

yalan (yalang) – *hech narsasi yo'q* – **yal** (hech narsasi yo'q) + **in** (bo'l) = **yalin** > **yalan** > **yalon** – *hech narsasi yo'q bo'l* – qadimgi turkiy tilda kambag'allikning eng past darajasini belgilagan bu termin hozir determinizatsiyaga uchrab, **yalang** shaklida (1) *kiyimsiz*; (2) *nech narsa o'smagan tekis yer* kabi ma'nolarda umumxalq tilida qo'llanadi;

yig'im – *xalqdan hokimiyat foydasiga olinadigan pul yoki buyum*, M.Qoshg'ariy bu so'zni **jig'im topraq** – *yig'ilgan tuproq* birikmasida sifat tarzida keltiradi va **n** tovushi **m** ga almashganini aytadi. Bu so'z tarkibidagi qattiq unlilar ham o'z qattiqligini yo'qotgan.

Asli yasama bo'lgan terminlarga hozirgi o'zbek tilida tub deb qarash termin tarkibidagi o'zak va qo'shimchalar orasidagi chegaraning davrlar o'tib bilinmay ketgani sababdir. Asli qo'shma so'z bo'lgan ba'zi hozirgi zamon terminiga sodda o'zakli birlik deb qarashga ham yuqorida aytilgan holat sabab bo'lgan.

Qadimgi turkiy tilda quyidagi kabi pul birliklarini ifodalovchi terminlar mavjud bo'lgan:

So'm – *yuz tiyinga teng pul birligi*, talaffuzida o'zgarish bo'lmagan bu so'z ummumxalq tiliga tegishli bo'lgan metal *parchasi*, *quyma* ma'nolarin ifodalagan, pul birligi ma'nosida ishlatilmagan.

Tiyin – *chaqa, bir so'mning yuzdan biriga teng pul birligi*; lekin qadimgi turkiy tilda bu o'lchov nazarda tutilmagan, asli "*teyiq*" – "*olmaxon* sozidan kelib chiqqan. O'sha davrlarda savdod-ayirboshlashda olmaxon terisidan vosita sifatida foydalanilgan. Bu so'z pul birligi ma'nosini olganda talaffuzida ham o'zgarishlarga uchragan: **teyiq > tiyin**;

Paqir – ikki tiyinlik qiymatga ega bo‘lgan pul miqdori, qadimgi turkit tilda *mis* ma’nosini anglatgan **baqir** so‘zidan kelib chiqqan. O‘TILda **bir paqirga qimmat** iborasi – *juda past arzimas* ma’nosini ifodalashi qayd etilgan. Hozirgi o‘zbek tilida **bir tiyinga qimmat** shakli ommalashgan.

Turkiy xalqlarning tili muntazam ravishda O‘rta Osiyoda azaldan yashab kelgan va qardosh bo‘lmagan eroniy tillar bilan ham aloqada bo‘lgan. Forscha-tojikcha o‘zlashmalar qadim davrlrdanoq tilimiz lug‘at boyligining o‘shishiga hissa qo‘shgan asosiy tashqi manbalardan biri hisoblanadi.

Fors-tojik tilidan umumiste’molso‘zlari qatorida iqtisod sohasi terminlari ham turli shakllarda kirib kelgan:

Sodda o‘zakli terminlar: **arzon** – qimmat emas; **guzar** – qishloq markazidagi savdo rastalari joylashgan maydon; **daromad** – olingan sof foyda; **tim** (t) – usti yopiq bozor; **tovon** (t) – evaz, badal sifatida to‘lanadigan mablag‘; **xarid** – sotib olingan tovar; **savdo** – oldi-sotdi jarayoni; **rasta** – savdo qilish peshtaxtasi;

Murakkab o‘zakli terminlar: **dastmoya** (t. dast – birlamchi + moya – asos, kapital) – biror faolliyatni boshlash uchun asos bo‘ladigan mablag‘; **sarmoya** (t. sar – bosh + moya – asos) – biror faoliyat uchun tikilgan yirik mablag‘, kapital; **sarmoyador** – biror faoliyatga foyda olish maqsadida pul tikkan shaxs, investor; **sarkor** – (t. sar – bosh + kor – ish) – ish boshqaruvchi, menejer; **sudxo‘r** – (t. sud – qarzga berilgan pul evaziga olinadigan foiz, savdodan tushadigan foyda + xo‘r – yemoq) – *sud* termining brinchi ma’nosi nazarda tutiladi qarzga berilgan pul evaziga katta foiz olib boylik orttiragan kishi, **tannarx** – (t. tan – tana, gavda + narx – qiymat) mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlar bahosi; **mardikor** (mard – erkak + kor – ish izofali birikma) – yollanib mehnat qiladigan ishchi;

Savdo-sotiq, savdo karvonlariga aloqador yana ko‘plab terminlarni “Qissasi Rabg‘uziy” asarida ham uchratishimiz mumkin: *arqyish* “karvon”, *karavan* – “karvon”, *rabat* – “karvonsaroy”¹. Savdo karvoni ma’nosidagi *qafila* so‘zi turk tiliga arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, dastavval XIV asr Xorazm manbalarida uchraydi. *Hijaz qafilasynda bir faqir bizim birla yoldash edi. Bir qach ayyamdyn son qafila ittifaq qyldilar.* Alisher Navoiy asarlarida bu so‘z “karvon” ma’nosidan tashqari “yo‘lga tushgan insonlar guruhi” ma’nosida ham keladi [Dadaboyev, 1991;84].

XULOSA.

Turkiy tilning o‘z qatlamiga mansub bo‘lgan *boy bitim, chegirma, ishchi, ishbay, kirim, kimoshdi, kunbay, olibsotar, yo‘qsil, chiqim, soliq, sotiq, sotuv, sotuvchi tejam, tekin, tushum, tiyin, tovar, ulgurji, ustama* kabi terminlar hanuz iste’molda

¹Rabg‘uziy Nosiruddin Burhonuddin. Qissasi Rabg‘uziy. (ma’sul muharrir N.A.Asilova).

bo'lgani holda, ayni shu davrda tilimizda qo'llanilmay, arxaizmga aylanib qolgan terminlar hamtalaygina: daftardor(xon oilasi xarajatlariga mas'ul amaldor), dafina (yerga ko'milgan boylik), istefoda, mutavalli(soliq yig'imiga mas'ul amaldor), musarrif/sarrof(pul maydalovchi), masrif(sarf-xarajat).

Ko'p hollarda o'z qatlamga tegishli so'zlardan foydalanib yangi terminlar hosil qilinadi: kunbay, *moliyaci, sanoatchi, raqobatbardosh, xo'jalik, ijarachi, iqtisodchi, vositachi va boshqalar. Hozirgi kunda ham bu metod o'z samaradorligini saqlab kelmoqda*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nazarov S. Istiloh masalasi// Til – imlo masalalari, – Toshkent-Samarqand. 1929,- B 46
2. Tursunov U. O'zbek terminologiyasi masalalari, – Toshkent, 1933; O'sha muallif. Terminologiya masalalari. –Toshkent, 1938; O'sha muallif . Til – terminologiyada burjuaziya intilishlariga qarshi// Науч. Работы УзНИИИС. Т.1. Вып. I. – Ташкент. 1933,- Б 21
3. Tursunov U. O'zbek terminologiyasi masalalari, – Toshkent, 1933; O'sha muallif. Terminologiya masalalari. –Toshkent, 1938; O'sha muallif . Til – terminologiyada burjuaziya intilishlariga qarshi// Науч. Работы УзНИИИС. Т.1. Вып. I. – Ташкент. 1933,- Б 21
4. Oybek. Falsafa terminlari ustida bir qancha so'z //Kitob va inqilob. – 1933, – 1-son B 58
5. Кары-Ниязов Т.Н. История создания узбекской математической терминологии//Материалы к первому съезду ученых Узбекистана. – Ташкент, 1937, - Б 35
6. Musin E. Falsafa terminlari // Kitob va inqilob. Toshkent. 1932. – 2-son. B 112
7. Solihov M. Adabiy til va istiloh // Til - imlo masalalari. – Toshkent–Samarqand, 1929. B 152
8. Almuxamedov N. Til va atamachilik to'g'risida // Kitob va inqilob. – 1932. – 3-son. B 76
9. R.Doniyorov. Rus tili – o'zbek tili texnikaviy terminologiyasini boyituvchi muhim manba. // O'zbek tili va adabiyoti, 1976. 2-son.
10. Madvaliyev A. O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. To'plam. –Toshkent. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017
11. Н.А.Баскаков.Современное состояние терминологии в языках народов СССР. Институт языкознания. М., 1959
12. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, Nodirabegim. 2020

13. Mahmud qoshg'ariy. (1967). Devonu lug'otit turk. Indeks lug'at.–Toshkent.
14. Mahmud qoshg'ariy.. (1960 – 63). Devonu lug'otit turk.. I-III. – Toshkent
15. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. I jild, Toshkent. Universitet. 2009. B 204.

O'ZBEK ADABIYOTIDA AYOLLAR NUTQINING KOMMUNIKATIV JIHATLARI

Bobokalonov Ramazon Rajabovich

BuxDU professori, filologiya fanlari doktori

a-mail : boboramazon@yahoo.fr

Nurmatova Ma'mura Fayzullo qizi

Buxoro Davlat Universiteti 1-bosqich magistranti

a-mail : nurmatovamamura780@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ayollar nutqining lingvomadaniy, psixolingvistik, etnolingvistik, sotsiolingvistik va lingvodidaktik jihatlari tahlil qilinadi. O'zbek mentaliteti va madaniyatida ayollar nutqi o'ziga xos tarzda namoyon bo'lib turadi. Shunga ko'ra, badiiy asarlardagi ayollar nutqidan misollar keltirilgan va qahramonlar nutqidagi ijobiy hamda salbiy jihatlarga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, maqolada tilshunoslikning muayyan yo'nalishlari – psixolingvistika, etnolingvistika, lingvodidaktika, sotsiolingvistika, kompyuter lingvistikasi kabi sohalarga aloqador kommunikativ nutq muammolari yuzasidan umumiy mulohazalar jamlangan.

***Kalit so'zlar:** lingvodidaktika, psixolingvistika, etnolingvistika, sotsiolingvistika, kompyuter lingvistikasi, ayollar nutqi, nutqning tarbiyaviy ahamiyati, psixolingvistika, intonatsiya, urg'u, geminatsiya, leksik qatlam, ma'no ko'chishi, diskurs, psixologik va fiziologik jarayonlar, sintaktik va paralingvistik vositalar, frazeologizmlar, morfologik ko'rsatkichlar, olamning lisoniy manzarasi.*

COMMUNICATIVE ASPECTS OF WOMEN'S SPEECH IN UZBEK LITERATURE

Bobokalonov Ramazon Rajabovich

professor of BukhSU, doctor of philology

a-mail : boboramazon@yahoo.fr

Nurmatova Ma'mura Fayzullo kizi,

A graduate student of the 2nd stage of Bukhara State University

a-mail : nurmatovamamura780@gmail.com

ABSTRACT

This article analyzes the linguocultural, psycholinguistic, ethnolinguistic, sociolinguistic and linguodidactic aspects of women's speech. In the Uzbek mentality and culture, women's speech is manifested in its own way. Accordingly, examples of

women's speech in works of art are presented, and attention is paid to the positive and negative aspects of the characters' speech. Also, the article contains general comments on the problems of communicative speech related to certain areas of linguistics - psycholinguistics, ethnolinguistics, linguodidactics, sociolinguistics, computer linguistics.

Key words: *linguodidactics, psycholinguistics, ethnolinguistics, sociolinguistics, computer linguistics, women's speech, educational value of speech, psycholinguistics, intonation, stress, gemination, lexical layer, meaning transfer, discourse, psychological and physiological processes, syntactic and paralinguistic tools, phraseologisms, morphological indicators, linguistic landscape of the universe.*

KIRISH

Manbalarda ta'kidlanishicha, til-ijtimoiy hodisa, kishilar, jamoalar o'rtasidagi eng muhim aloqa vositasi ekanligi asrlar davomida Sharq va G'arb olim-u shoirlari, mutafakkirlari tomonidan o'rganilib kelinadi. Mir Alisher Navoiy hazratlari e'tirof etganidek: "Odam tili bilan boshqa mavjudotlardan imtiyozlidir. Uning tili orqali boshqa odamlardan afzalligi bilinadi. Til shuncha sharafi bilan nutqning quolidir. Agar nutq noma'qul bo'lib chiqsa, tilning ofatidir". Har bir milliy adabiyotda ayol obrazini tasvirlashga keladigan bo'lsak, u o'sha xalqning tabiatiga, zamon ruhiga mos tarzda aks ettirilganligini ko'ramiz. Shuningdek, ayollar nutqiga ularning qaysi millat vakilasi ekanliklari ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Masalan, G'arb ayollari savol berib suhbatni davom ettirishga suhbatdoshiga dalda berishga, suhbatni qisqa javoblar bilan qo'llab turishga moyil bo'ladilar. Sharq ayollarining nutqi G'arb ayollari nutqidan ba'zi xususiyatlari bilan farqlanadi. Kattalarga hurmat, shirin muomalalilik, andisha, hayo va hamiyatlikning beqiyos darajasi ularning nutqini bezovchi xususiyatlar hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

O'zbek nasrida ayol obrazi talqini mumtoz va zamonaviy adabiyotda ko'p uchraydi. XX asrning dastlabki yillarida ayollar obrazlari mahorat bilan yoritilgan asarlar soni yanada oshdi va ular orasida aynan nasriy janrda yozilgan asarlarni alohida ko'rsatish mumkin. Misol uchun, Kumushbibi, Zaynab (O'tkan kunlar), Zebi (Kecha va kunduz), Unsin (Dahshat), Gulnor (Qutlug' qon), Saida (Sinchalak) obrazlari o'zbek nasrida yaratilgan ayol siymosi mohirlik bilan ochib berilgan asarlar sirasiga kiradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ayollar nutq madaniyligida bir holat borki, ayollar qarshi jins vakillariga nisbatan bo'ysinuvchanlik xarakteriga egadirlar. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi Oftoboyim nutqida bu holat yaqqol namoyon bo'ladi:

-Siz muvofiq ko'rgan bir ishka qarshi tushib ra'yingizni qaytarolmayman, chunki nima bo'lganda ham sizning otaliq ismingiz bor, ham ko'broq ixtiyor sizning qo'lingizdadir,'' - deya Mirzakarim qutidorning qizlarini Otabekka berish taklifiga ko'nadi. Ayollar nutqidagi ushbu xususiyat turg'un emasligi bilan ham ajralib turadi. Aynan shu romandagi Otabekning validasi O'zbek oyim obrazi bo'ysinuvchanlik xususiyatidan ancha yiroq qahramondir. Zero, Otabekni ikkinchi bor uylashga majburlar ekan, Yusufbek hojining shoshma deyishiga qaramay:

- Siz shu kungacha barcha ixtiyorni o'g'lingizga topshirib, bolani bola qilmadingiz bir xudbin qildingiz. O'g'ul o'stirish bir turda bo'lmas, deya keskin fikr bildirishi yuqoridagi bo'ysinuvchanlik omilining tamoman ziddidir. Bundan kelib chiqilsa, bo'ysinuvchanlik omili ham fe'l-atvorga va ayolning oiladagi mavqeyiga ham bog'liq ekanligini ko'rishimiz mumkin (Qarang: Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar, "Yangi asr avlodi". Toshkent, 2018).

Shu bilan bir qatorda o'zbek ayollari nutqiga xos aylanay, girgitton, o'rgilay, qoqindiq kabi so'zlar ijobiy ma'no nozikligini ifodalovchi leksik vositalar sanaladi. Ular ko'proq keksa ayollar tomonidan qo'llanadi. Chunonchi, O'lmas Umarbekovning "Odam bo'lish qiyin" romanida Abdullaning buvisi nutqida shunday so'zlar ishlatilgan:

"Voy, o'la qolay! Abdullamisan? Voy, bo'yingga qoqay! Voy, sadag'ang ketay! Sen keladigan kun ham bor ekan-ku. Voy, men o'lay seni tanimay! Indamay termilib o'tiribman-a. Esonmisan, omonmisan? Nechuk, bolam, nechuk? O'zing keldingmi? Oying, dadang eson-omonmi? Voy, kel, bolam, kel!" (Umarbekov O'. Odam bo'lish qiyin. Yangi asr avlodi – T.: 2018).

Ayollar ko'pincha his-hayajon bilan emotsiyaga berilgan holda o'z gaplarini yetkazib bera oladi. Yuqoridagi asardan olingan parchada ham ayol o'z nutqida ko'proq undov so'zlardan foydalangan va bu gaplardan taajublanish, xursandchilik, so'roq ohangi kuchli.

O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asaridagi "Kaltakesakning dumi" hikoyasi shunday so'zlar bilan boshlanadi:

Ertalab tong otishi bilan onam darvozani lang ochib qo'yadi: farishta kirarmish. Hali uyg'onmasimdan gangur-gungur suhbat boshlanadi.

- Yaxshi o'tiribsizmi, poshsha oyi?

- Shukur aylanay. O'g'lingizdan xat bormi?

- *Ikki haftadan buyon xat kelmayapti, ko'nglim g'ash.*

- *Unaqa bo'lsa erta-indin o'zi kirib keladi. Meni aytdi dersiz (Qarang: Hoshimov O'tkir. Dunyoning ishlari, "Yangi asr avlodi". Toshkent, 2018).*

Ushbu misol ham yuqoridagi fikrimizga yorqin dalil bo'la oladi.

Hamma ishlari joyida bo'lgan paytda farzandlarini erkalab, oila a'zolari yoki boshqalar bilan suhbat jarayonida imkon qadar muloyimlik va nafosat bilan, munosabatda bo'ladilar. Aksincha, turmush o'rtog'I yoki boshqa birov bilan arazlashib, asabiylashib turganda esa, buning tamoman aksi, ya'ni suhbatdoshiga qo'pollik bilan javob beradilar va hatto bunday hollarda ayollar nutqidan qarg'ish so'zlar ham o'rin egallashi mumkin. " – *Maniki bo'lsa bir paqir suv olib kelmaydi, qo'lgining sinib akashak bo'lib qolgur. Uyim-joyim deb bo'ynini egmaydi, bo'yniginang kesilgur eshshak! Xudoyo bo'yniginang Hazrat Alining qilichida kesilmasa, u dunyo-bu dunyo rozimasman!*" (O'.Hoshimov "Dunyoning ishlari").

XULOSA

Adabiyotshunoslikda ayol obrazini yoritishga qaratilgan asarlar juda ko'p, deyarli har bir asarda ayol xarakterini, ayolning ichki kechinmalarini to'laqonli ochib beruvchi qahramonlar mavjud. Ayollar nutqining turli xususiyatlarini o'rganishda ular nutqidagi alohida jihatlarga e'tibor qaratish lozim. Xulosa sifatida aytish mumkinki, ayollar nutqi insonni shaxs sifatida tarbiyalashi va uning ruhiyatiga ijobiy ta'sir o'tkazishi bilan ham har qanday sohaning o'rganilishi zarur bo'lgan dolzarb mavzularidandir. Ayolning ayolligi ham so'z sehrini bilishida va har qanday tarang vaziyatni ijobiy tarafga o'zgartira oladigan nutqiy salohiyat yetukligining sohibasi ekanligidadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Benveniste, Émile. Problèmes de linguistique générale, 1, 1966; 2, 1974./ Бенвенист Э. - Общая лингвистика / Под ред. Ю.С. Степанова. М., "Прогресс".1974. Изд.3. УРСС. 2009
2. Bobokolonov R. O'zbekcha-fransuzcha semantik-funksional shakllangan gaplarning differentsiyasi va kommunikativ neyropsixolingvistika tadqiqi. Filol.fan. dokt. dissert. Buxoro, 2022, -3-284 b.
3. Bobokalonov R. R. Erkatoyini erkalatsin onasi. Sog'lom avlod uchun.3-4 son, 1997, 47-48 b.
4. Bobokalonov R.R. Sayfullayeva R.R. Neyropsixolingvistika: lingvistik shaxs va xarizmalı inson. Globe Edit,2023

5. Butayeva U.A. Shaxs psixologiyasi. Samarqand davlat universiteti, Samarqand – 2021.
6. Бобокалонов Р. Р. Нутқий ҳосила, семиотик белги, дискурс ва нейропсихоллингвистик ҳолат. Монография, GlobeEdit, Chisinau, Moldavia-Europe, 2023234 с. ISBN 978-620-0-64729-0.
7. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar, "Yangi asr avlodi". Toshkent, 2018
8. Umarbekov O`. Odam bo`lish qiyin. Yangi asr avlodi – T.: 2018
9. Hoshimov O'tkir. Dunyoning ishlari, "Yangi asr avlodi". Toshkent, 2018

МОДАЛЬНОСТЬ ГАЗЕТНО-ПУБЛИЦИСТИЧЕСКОГО ДИСКУРСА В АРАБСКОМ ЯЗЫКЕ

Мирахатова Диёра Миразим кизи

Докторант ТГУВ

+998903373301

mirakhatova@gmail.com

Модальность является одной из основных категорий естественного языка – языковой универсалией, выражающей виды отношений высказывания к действительности и виды субъективной оценки информации. Категория модальности – активная ментальная деятельность, производимая субъектом (автором) по оценке его представлений (модус) о фактической информации (диктум). Поскольку модальность служит выражению оценки, она может быть объективной: на средствах выражения рациональной оценки в плане реальности объекта, и субъективной, связанной с выражением собственного отношения автора к высказываемому смыслу. Содержательный объем модальности включает не только значения возможности, необходимости и действительности, но и значения реальности / ирреальности, достоверности, вероятности, желательности, а также утверждение / отрицание, эмоциональность, авторизация, оценка, волеизъявление, прагматика контекста, вопрос/ ответ.

Значительный интерес представляет модальность газетно-публицистического дискурса, являющегося идейным и семантико-стилистическим центром публицистического произведения и обладающего целенаправленным социальным действием. При этом важно подчеркнуть, что изучение модальности текста не может быть полным без анализа авторской модальности, «скрепляющей все единицы текста в единое смысловое и структурное целое»². Публицистический текст, таким образом, становится каналом передачи информации и определенного видения действительности. В то же время в тексте фиксируются события и характеры, вызывающие у автора (=лица, ведущего повествование), различные оценочные реакции³.

Важной особенностью газетно-публицистического дискурса является «чередование экспрессии и стандарта»⁴, обусловленное функцией воздействия на адресата и функцией сообщения. В зависимости от преобладания той или

² Валгина Н.С. Теория текста. Москва: изд-во МГУП «Мир книги», 1998. – С. 96.

³ Романова Т.В. Модальность. Оценка. Эмоциональность. Нижний Новгород. 2008. – С. 18

⁴ Костомаров В.Г. Русский язык на газетной полосе: Некоторые особенности языка современной газетной публицистики. Москва. Российская государственная библиотека. 1971. С. 68.

иной функции в газетных текстах выделяются информационные и воздействующие аналитические тексты⁵. При этом текстовая модальность проявляется по-разному: «в одних текстах доминирует или является единственно возможной объективная оценочность (прежде всего в научных, деловых, новостных текстах), в других, напротив, превалирует личностная, индивидуальная оценочность (особенно в художественных, рекламных, аналитических текстах)»⁶.

Поскольку характерной чертой современного газетно-публицистического дискурса является не просто информирование читателя, а формирование у него определенного отношения к полученной информации, то воздействующая функция нередко приобретает явный оттенок манипуляции, что выделяет ее на фоне любого другого речевого воздействия.

Именно эта ярко выраженная прагматическая направленность современных газетных текстов определяет и специфику отбора модальных средств, максимально усиливающих прагматический потенциал журналистского текста.

В газетных и журнальных текстах реализуются как объективная и субъективная модальности, но и полимодальность, с помощью вербальных, так и невербальных средств. Эта категория имеет значение при создании научно-популярного текста – через своё отношение к описываемым событиям автор формирует отношение к ним читателя, при этом мнение автора не будет навязано – читатель, скорее всего, согласится с оценкой более компетентного в данном вопросе журналиста. Для объективной модальности денотатом является окружающий, реальный мир, а для субъективной он заключается в осмыслении этого мира и явлений, происходящих в нём. Основными модальными характеристиками событий в текстах газетного дискурса является их действительность или недействительность, по отношению к ним верна только оппозиция «действительность – недействительность». Модальность действительности и модальность недействительности могут относиться и к прямому высказыванию, и к косвенной речи – частому способу оформления высказывания в газетном тексте.

В тексте изложению фактов противопоставляются мнения различных исследователей по поводу описываемой проблемы и мнение автора текста. Каждый вид модальности, таких как необходимости, возможности, побуждения, желания, разрешения или запрета, чужого высказывания, некатегоричного

⁵ Потсар А.Н. Речевая структура персонажа в массовом тексте. СПбГУ. СПб. 2007. С. 82-83

⁶ Анисимова Е.Е. Лингвистика текста и межкультурная коммуникация. Академия. Москва. 2003. С. 30

высказывания – семантический инвариант, реализуемый через модальные значения и соответствующие формы выражения. Модальность – понятийная категория «со значением отношения говорящего к содержанию высказывания и отношение содержания высказывания к действительности, выражаемую различными лексическими и грамматическими средствами (формы наклонения, модальные глаголы, т. п.)». Самым распространённым является «широкое» понимание модальности как «сложного комплекса значений, характеризующих с точки зрения говорящего отношение основы содержания высказывания к действительности по доминирующим признакам реальности/ирреальности». Отношение к этим признакам представлено в значениях:

- актуальности/потенциальности;
- оценки достоверности;
- коммуникативной установки высказывания;
- утверждения/отрицания;
- засвидетельствованности.

Категория модальности реализуется в газетном тексте с помощью следующих лексических средств: местоимений, наречий, кратких прилагательных, глаголов, частиц, междометий, союзов и вводных слов с модальным оттенком, фразеологических единств, структур модуса эмоциональной оценки (обратный порядок слов, эмоционально окрашенных выражений). С этими средствами взаимодействуют единицы синтаксиса, морфологии, невербальные средства выражения субъективной модальности.

По мнению исследователей В. В. Дружининой и К. Келер, при рассмотрении модальных отношений следует учитывать:

- 1) отношение субъекта действия к описываемому действию, которое выражается инфинитивом (необходимость или возможность действия);
- 2) отношение говорящего к высказыванию с точки зрения степени вероятности соответствующего действия;
- 3) отношение говорящего к высказыванию с точки зрения его реальности или нереальности;
- 4) модальные конструкции, с помощью которых оформляется чужое высказывание.

Модальность имеет большое значение при создании научно-популярного текста – через своё отношение к описываемым событиям автор формирует отношение к ним читателя (причём мнение автора не будет навязано – читатель, скорее всего, согласится с оценкой более компетентного в данном вопросе журналиста). Для объективной модальности денотатом является окружающий,

реальный мир, а для субъективной он заключается в осмыслении этого мира и явлений, происходящих в нём. Поскольку модальность служит выражением оценки, она может быть объективной, базирующейся на средствах выражения рациональной оценки в плане реальности объекта, и субъективной, связанной с выражением собственного отношения автора к высказываемому смыслу. Субъективная модальность - «функционально-семантическая категория, служащая воплощению оценки со стороны говорящего степени достоверности передаваемой информации»⁷. Основными модальными характеристиками событий в научно-популярных текстах является их действительность или недействительность, по отношению к ним верна только оппозиция «действительность - недействительность».

Субъективная модальность реализуется и с помощью модальных глаголов, хотя их основной функцией и является выражение объективной модальности. Субъективно-модальное значение предположения имеют глаголы с модальной семантикой. Они выступают как средства синтаксического уровня и реализуют субъективно-модальный смысл частей текста в составе вводных модальных предложений. Эти предложения указывают на отношение автора к ситуации, выражающееся помощью модальных слов, частиц и конструкций с вспомогательными глаголами. Посредством субъективной модальности создаются подзаголовки. Полимодальность широко задействуется в газетных текстах – в них одновременно происходит информирование читателя и формирование его оценки при помощи предоставляемой ему информации. Она проявляется в большой степени с помощью невербальных средств – фотографий.

Поскольку характерной чертой современного газетно-публицистического дискурса является не просто информирование читателя, а формирование у него определенного отношения к полученной информации, то воздействующая функция нередко приобретает явный оттенок манипуляции, что выделяет ее на фоне любого другого речевого воздействия (М.А. Кормилицына, Н.С. Володина, Н.Е. Петрова, Л.В. Рацибурская и др.). Именно эта ярко выраженная прагматическая направленность современных газетных текстов определяет и специфику отбора модальных средств, максимально усиливающих прагматический потенциал журналистского текста.

⁷ Рымкевич О.Е. Текстобразующий статус категории субъективной модальности в немецком языке. АКД, Минск, 1991. – С. 12.

Главным свойством современного газетно-публицистического стиля является обязательное осуществление в нем одновременно двух функций: информативной и социального воздействия. Причем из этих двух функций

на первое место выходит воздействующая, так как язык газетных текстов отражает внутреннее состояние автора, его эмоции, настроения, заменяя тем самым информацию о факте и его интерпретацию.

Основные лексико-стилистические особенности публицистического жанра арабского языка: широкое использование приема лексической замены, насыщенность текстов эпитетами, образный характер выражения идеи, богатая синонимия, широкое использование оксюморона и гиперболы, особенности синтаксиса, использование стилистических средств, основанных на социокультурных реалиях, большое количество метафор и религиозных фразеологизмов, повышенная эмоциональность текстов и частое употребление модальных конструкций.

В качестве примера мы рассматривали газету Объединенных Арабских Эмиратов «الإتحاد» («Аль-иттихад», в переводе означает «Союз») – это старейшая и наиболее продолжительно издающаяся газета Эмиратов на арабском языке, ее первый номер был издан 20 октября 1969 года. В переводе на русский ее название означает «Союз». Первое время она печаталась на 12-ти страницах как еженедельник и распространялась бесплатно, с 1971 года — каждый день. Классический номер «Al-Ittihad» состоит из 30-ти страниц. Газета распространяется во всех крупных городах Эмиратов, включая Абу-Даби и Дубай, а также в других странах Персидского Залива, в Ливане (Бейрут), Египте (Каир). У газеты есть собственные типографии в Дубае и Абу-Даби, считающиеся самыми крупными на всем Среднем Востоке⁸.

Так как газета является новостной, в ней изобилуют модальные обороты и модальные глаголы. Например, очень часто употребляется модальный глагол:

وأكد الدكتور محمد عتيق الفلاحي، أمين عام هيئة الهلال الأحمر، أن جهود "الهلال" تنطلق من نهج دولة الإمارات في تقديم مختلف أشكال الدعم الإنساني والخبري و التتموي الى الدول و الشعوب المحتاجة في جميع المجالات⁹.

«Д-р Мухаммад Атик Аль-Фалахи, Генеральный секретарь Управления Красного Полумесяца, подчеркнул, что усилия «Полумесяца» проистекают из подхода ОАЭ к предоставлению различных форм гуманитарной, новостной и дополнительной поддержки нуждающимся странам и народам. во всех областях.»

⁸ <http://mrtranslate.ru/smi/uae/al-ittihad/>

⁹ الإتحاد 8 ديسمبر 2020 م. ص 3

و أكد تلك الرؤية دبلوماسيون في تصريحاتهم ل "الإتحاد"¹⁰.

«...Это видение было подтверждено дипломатами в их заявлениях «Аль-Иттихад»»

و في ختام الاجتماع أكد الجانبان حرصهما على استمرار تعزيز العلاقات الثنائية¹¹

«В завершение встречи стороны подтвердили свою заинтересованность в дальнейшем укреплении двусторонних отношений.»

С тем же значением «подтверждать» помимо глагола أكد употребляется выражение **جدد الثقة**:

جدد الشيخ راشد بن حميد النعيمي رئيس مجلس إدارة اتحاد الكرة، **الثقة** في لاعبي المنتخب¹² الوطني خلال الجلسة الودية، التي دعا إليها صباح أمس،

«Шейх Рашид бин Хумайд Аль Нуайми, председатель совета директоров Футбольной ассоциации, подтвердил уверенность в игроках национальной сборной во время товарищеской встречи, на которую он созвал вчера утром.»

Так же часто употребляются модальные глаголы возможности, например:

و تتولى ألمانيا حالياً الرئاسة الدورية للاتحاد الأوروبي و مدتها ستة أشهر، و **يمكنها** أن تحدد ما إذا كانت العقوبات ستمضي قدماً¹³

«Германия в настоящее время председательствует в ЕС в течение шести месяцев, и она **может решить**, будут ли введены санкции.»

В следующем примере-цитате использованы различные глаголы с разными оттенками модальности, например глагол предположения **وجد** , модальный глагол становления **ظل** и глагол долженствования, выраженное причастием страдательного залога **مجبورون**:

لم **أجد** جملة شاملة، قاطعة مانعة جامعة، مثل مثلنا القديم؛ «محمول و يترفس»، حين ينعنون شخصاً يكون محمولاً على الأكتاف أو على كفوف الراحة، ولا يرضى بذلك، ولا يشكر، بل **يظل** يرفس و يترفس، محملاً

¹⁰ الإتحاد 8 ديسمبر 2020 م. ص 3

¹¹ الإتحاد 8 ديسمبر 2020 م. ص 3

¹² الإتحاد 8 ديسمبر 2020 م. ص 4

¹³ الإتحاد 8 ديسمبر 2020 م. ص 4

الآخرين أنه سمح لهم بحمله، وأنه متفضل عليهم أن أعطاهم تلك البركة، وأنهم مجبورون على رضاه كيفما فعل¹⁴

«Я не нашел окончательного, исчерпывающего предложения, как наша старая поговорка; «Несется и лягает», когда описывают человека, который носится на плечах или на ладонях от комфорта, и не удовлетворяется этим, и не благодарит, а продолжает брыкаться и брыкаться, неся других, что он позволил им нести его, и что для них лучше дать им это благословение, и что они обязаны принять его, каким бы он ни был.»

أصر رئيس الاتحاد على الانفراد بجميع اللاعبين دون حضور أي عضو من أعضاء مجلس الإدارة¹⁵

«Президент федерации настоял на том, чтобы все игроки были одни без присутствия кого-либо из членов совета администрации»

Как видим, в арабском газетном дискурсе модальность обычно носит формальный и объективный характер. Новостные статьи обычно пишутся в простой и фактической манере с упором на предоставление читателям точной информации. Язык часто является точным и ясным, избегая чрезмерно эмоциональных или предвзятых высказываний. Заголовки краткие и информативные, резюмирующие основные положения статьи. Кроме того, газеты на арабском языке также могут использовать цитаты из источников, чтобы повысить достоверность своих сообщений. В целом модальность газетного дискурса на арабском языке направлена на профессиональное и беспристрастное информирование и обучение читателей. Арабоязычный газетный текст обладает не только признаками, сближающими его с текстами других типов, но и присущими только ему специфическими особенностями. Такие текстовые категории как целостность, завершенность, связность информативность, логичность и др. обнаруживают в тексте газеты качественно новое своеобразное проявление, что позволяет отличить газетный текст от других текстов, как с точки зрения содержания, так и с точки зрения структуры и формы.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Анисимова Е.Е. Лингвистика текста и межкультурная коммуникация. Академия. Москва. 2003.

¹⁴ الاتحاد 8 ديسمبر 2020 م. ص 7

¹⁵ الاتحاد 8 ديسمبر 2020 م. ص 4

2. Валгина Н.С. Теория текста. Москва: изд-во МГУП «Мир книги», 1998.
3. Костомаров В.Г. Русский язык на газетной полосе: Некоторые особенности языка современной газетной публицистики. Москва. Российская государственная библиотека. 1971.
4. Потсар А.Н. Речевая структура персонажа в массовом тексте. СПГУ. СПб. 2007.
5. Рымкевич О.Е. Textoобразующий статус категории субъективной модальности в немецком языке. АКД, Минск, 1991.
6. <http://mrtranslate.ru/smi/uae/al-ittihad/>

URDU TILIDA MAQOLGA NISBATAN QO‘LLANILUVCHI ATAMALAR

Yusupova Mohira

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
“Urdu tili, adabiyoti, Pokiston tarixi va madaniyati”
kafedrasi o‘qituvchisi
mohraxon9@gmail.com
(894)6959442

ANNOTATSIYA

Maqolada maqolning boshqa atamalardan farqi hamda urdu tilida qaysi atamalar maqolga nisbatan qo‘llanilishi, ularning bir-biridan farqli jihatlari ochib berilgan.

***Kalit so‘zlar:** maqol, kahavt, masal, zarbulmasal, matal, ibora, hikoya, lo‘kokti, aforizm, maqula, kehnaut, proverb.*

АННОТАЦИЯ

В статье объясняется разница между пословицей и другими терминами, а также какие термины используются для пословиц на урду и их различия.

***Ключевые слова:** пословица, кахавт, басня, зарбулмасал, притча, фраза, рассказ, лококоти, афоризм, макула, кехнаут.*

ABSTRACT

The article explains the difference between a proverb and other terms, and which terms are used for proverbs in Urdu and their differences.

***Keywords:** proverb, kahavt, fable, zarbulmasal, saying, idiom, story, lokokti, aphorism, maqula, kehnaut.*

KIRISH

Maqollar bizning ham do‘stimiz, ham ustozimiz, ham tabibimiz, ham rahbarimiz. Biron masala paydo bo‘lganda birona maqol uni hal qilishga tayyor bo‘ladi. Shu shart bilan ular bizning esimizda qoladi. Ba‘zan ularning ishlatilinishi qiziq yoki uyatli ham bo‘lishi mumkin.

Mazmuniga ko‘ra “maqol – qisqa masal shakliga ega; uning o‘zi “oddiy gap maqol emas”ligini aytib turadi. Bu – kinoya bilan aytilgan va xalq tomonidan sayqallanib, iste‘molga kirgan hukm, muhokama, nasihatdir”¹⁶.

“Maqolga eng yaqin janr matal hisoblanadi. Xalq tili bilan aytganda, matal – gul, maqol – uning mevasidir”¹⁷.

¹⁶ Даль В.И. Пословицы русского народа. Т.1. М., Русская книга. 1984.- С.13.

¹⁷ Там же произведение. С.9.

“Matal - maqol va masalga aylanishga ulgurmagan element hisoblanadi”¹⁸.

“Matal – ko‘chma ma‘nodagi ibora, oddiy kinoya, lekin unga biron hikoyat, hukm, hayotiy tajriba xos emas u maqolning birinchi yarim qismidir”¹⁹.

Maqol va matallar xalq og‘zaki ijodi mahsuli sifatida V.P.Anikin va Yu.G.Kruglovlar tomonidan batafsil o‘rganilgan. Tadqiqodchilar maqolga quyidagicha ta‘rif beradilar: “Maqol – nutqda qo‘llaniladigan qisqa, barqaror, ritmik shakllangan obrazli ibora bo‘lib, so‘zlashuvda ko‘p ma‘noda qo‘llanilish xususiyatiga ega. Bu ta‘rifda keltirilgan qisqalik, ko‘p ma‘nolilik, barqarorlik va ritmga ega bo‘lish xususiyatlari ko‘p hollarda boshqa xususiyatlarni ham o‘z ichiga qo‘shib oladi²⁰. Qolaversa, maqol deganda xalqning ijtimoiy-tarixiy va turmush tarzidagi orttirgan tajribasini o‘zida mujassam qilgan hodisa tushuniladi”²¹. Ularning fikriga ko‘ra, “agar maqol muayyan xalqning turmush tarzi, uning tili va urf-odatlarining natijasi sifatida ko‘rilsa, uni adabiy janr deb atash mumkin”²².

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Maqollarda muayyan hukmni mantiqiy izchillikda, keskin qutbiylikda ifodalash yetakchilik qiladi. Shuning uchun ham maqolda voqelik yo izchil ijobiy, yo keskin salbiy jihatdan baholanadi. Fikr keskin qutbiylikda ifodalanganligi uchun ham har bir maqolda ikki mantiqiy markaz mavjud. Bu markazlar mazmunan bir-biriga yo o‘xshatiladi, yo taqqoslanadi, yoki butunlay zid qo‘yiladi.²³ Masalan, urducha

" تلوار کا زخم بھر جاتا ہے، بات کا نہیں بھرتا "

“**Qilich yarasa bitadi, so‘z yarasi bitmaydi**” maqolida zid qo‘yish orqali gap jarohati bitishiga ko‘p vaqt kerakligi va ba‘zi vaqtlar bu ham yetarli bo‘lmasligi ifodalanyapti.

“Xalq og‘zaki janrlari orasida hajmi, tashqi shakliy xossalari hamda voqelikni aks ettirish tarzi jihatidan maqollarga yaqin turuvchi matal, topishmoq kabi janrlar mavjud bo‘lib, bu janrlar orasidagi o‘xshash jihatlarning ko‘pligi tufayli ular orasidagi farqlarni anglash biroz muammo tug‘dirishi mumkin”²⁴.

Xuddi o‘zbek tilidagi singari boshqa tillarda, jumladan, urdu tilidagi maqollarda ham shu muammoga duch kelamiz. Ba‘zi olimlar tomonidan masal, matal, aforizm, zarbulmasal atamaları maqolning sinonimi sifatida qo‘llaniladi va o‘z navbatida bu ularning bir-biridan farqlarini ajratish joizligiga ishora qiladi.

¹⁸ Потебня А.А. Эстетика и поэтика. М.: «Искусство», 1976.-С.527.

¹⁹ Даль В.И. Пословицы русского народа. Т.1. М., Русская книга. 1984.-С.14.

²⁰Аникин В.П. Ю.Г. Круглов Русское народное творчество. Л., Просвещение., 1983.-С.11.

²¹Там же произведение. С.117.

²² Там же произведение. С.116.

²³ Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T.: “O‘qituvchi” 1990 - B. 92.

²⁴Imomov K., Mirzayev, T. Sarimsoqov, B. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T.: “O‘qituvchi” 1990. - B.92.

O‘zbek, rus, ingliz olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda matal, masal va maqol so‘zi o‘rnida qo‘llaniluvchi yana bir qator atamalarning ishlatilishidagi umumiylik va farqlar deyarli yakdildir. Ammo urdushunos olimlarning qarashlari ularga zid nazariyalarni ilgari suradi. Urdu tilida maqol uchun "ضرب المثال" zarbulmasal, "کہاوت" kahavt, "مثل" masal, "مقوله" maqula va yana boshqa atamalar ham qo‘llaniladi.

Hindistonlik professor Imran Shehzadi o‘zining "عربی اور اردو ضرب الامثال" nomli maqolasida maqolni zarbulmasal atamasi bilan qo‘llagan. Uning fikricha, zarbulmasal arab tilidan olingan "ضرب" ismi va "مثل" dan oldin ال artiklining qo‘shilishi bilan yasalgan. Masal o‘xshashlik, hadis, sifat, bir xillik degan ma’nolarda qo‘llaniladi. Urdu tilida zarbulmasalning ma’nosi "کہاوت" kahavt yoki "کہنوت" kehnutni anglatadi²⁵.

Mazhar Husayn Go‘ndal ham o‘zining "كتاب القواعد" nomli asaridagi "Ilmi bayan" bo‘limida "ضرب المثال" asosan zarbulmasal terminini keltiradi va uning inglizcha varianti sifatida "Proverb" ni qo‘llash bilan bir vaqtda sinonim sifatida "کہاوت" kahavt ishlatadi.

Olimning fikricha, zarbulmasalning ma’nosi "misol keltirmoq", "biron namuna keltirmoq" hisoblanadi. U shunday jumla, avlodan-avlodga o‘tuvchi inson tajribasining qiyomi va unda biron-bir axloqiy saboq yoki ibrat bo‘lsa, uni zarbulmasal deb atashadi²⁶.

پاک رہ، بے پاک رہ۔

So‘zma-so‘z tarjimasi: Halol yasha, qo‘rqmay yasha.

Izohi: Halol va dindor inson hech narsadan qo‘rqmasa ham bo‘ladi.

O‘zbekcha muqobili: Oshing halol bo‘lsa, ko‘chada ich.

Professor Anvar Jamal adabiy janrlar borasidagi "ادبی اصطلاحات" nomli asarida maqol mavzusiga alohida urg‘u bergan.

Olimning fikricha, "کہاوت" ning qayta-qayta qo‘llanilishidan keng yoyilgani "ضرب المثال" hisoblanadi²⁷.

Hindistonlik olim Yunus Agaskar maqollarni batafsil yoritib bera oladigan "اردو کہاوتیں اور ان کے سماجی و لسانی پہلو" nomli asarida asosan maqolga nisbatan "کہاوت" atamasini qo‘llagan bo‘lsa-da, asarda "ضرب المثال"، "مقوله"، "مثل" so‘zlaridan ham keng foydalanilgan.

انور جمال ادبی اصطلاحات اسلام آباد نیشنل بک فاؤنڈیشن ۲۰۱۲ ص ۲۲۳ –

انور جمال ادبی اصطلاحات اسلام آباد نیشنل بک فاؤنڈیشن ۲۰۱۲ ص ۲۲۳ –

مظہر حسین گوندل کتاب القواعد اردو مطالعہ پاکستان ص ۲۹۷ –

Olimning ta'kidlashicha, "كهوت" so'zi hindiy tiliga oid so'z hisoblanib hindiy tilidagi "ك" so'zidan yasalgan. Unga ma'nodosh sifatida "كهوت", "كهوتى", "مثل" "so'zlari ham kiritilgan²⁸.

"كهوت" so'zi zamonaviy hind-oriy tillarida ancha mashhur. Lekin uning ko'rinishi har bir tilda bir xil emas. Urdu, hindiy, nepaliy tillarida bir xil aytiladi va bir xil ma'noda qo'llaniladi. Masalan, urdu tilida "كهوت" kahavtga sinonim sifatida "ضرب المثال" va "مثل" qo'llanilsa, hindiy tilida maqol "كهوت", "كهوت" deya ifodalanib, ularga sinonim sifatida "اپ كهان", "لوکوکتی" so'zlaridan foydalaniladi. Sharif Ahmad Qurayshiyning "اردو كهوتی" "Urducha maqollar" nomli asarida boshqacha talqinni ko'rish mumkin. Odatda kahavt, lo'kokti va zarbulmasal yoki masalni bir-biriga sinonim yoki ma'nodosh deb o'ylashadi, aslida esa bunday emas. Zarbulmasal so'zi yoki masal va lo'kokti xususan savodli yoki oliy ta'limga ega tabaqadan kelib chiqqan. Kahavt so'zi esa xalqqa tegishli yoki to'liq jamiyatdan olingan. Bironta savodsiz, o'qimagan, kam ta'lim olgan va qishloqlik odamning og'zidan odatda zarbulmasal so'zi yoki lo'koktini eshitish uchramaydi. Ko'plab o'qimagan yoki qishloqliklar zarbulmasal yoki lo'koktini tushunishmaydi ham. Ha, ba'zi odamlar masal so'zidan albatta voqif, lekin kahavat so'zi kam ta'lim olgan, savodsiz, o'qimagan, madaniyatsiz, shaharlik, qishloqlik boshqa har tabaqadagi odamlardan olingan. Barcha odamlar ushbu so'zni qo'llaydi, tushunishadi va ishlatishadi. Boshqa tomondan gap shundaki, bironta yozma-yu og'zaki yoki biron ma'lum shaxslarning og'zidan chiqqan muhim jumlar, gaplar, hikmatli so'zlar ko'p ishlatilishi sabab xalq merosi paydo bo'lganda va saroy jihatdan ishlatila boshlanganda zarbulmasal yoki kahavt shaklini ixtiyor qiladi, lekin kahavt oddiy xalqqa tegishlidir. Uning rivojlanishi yoki tashkil topishi oddiy xalq yoki noma'lum shaxslar orqali bo'ladi²⁹. Olimning e'tiroficha, kahavtga aloqador كتهاورت، كتهوستو، كتهاپینت، كتهاپیتیه، كتهاورتا، كتهاورتا، كتهاپیتیه، كتهاپینت، كتهوستو، كتهاورت، كتهاورت sanskrit so'zlar bo'lishi kerak. Ularning orasida eng yaqin so'z kathavt كتهاورت dir. Undan kahavt so'zi yasalgan. Agar biz kahavtning yasaliishi كتهاورت bilan aloqadorligini tan olsak, ishonch bilan ayta olishimiz mumkinki, kahavat so'zining ishlatilishi butunlay lo'kokti va zarbulmasal uchun emas, balki faqat ularning kelib chiqishidagi bironta hikoya, hikoyat, qissa, talmeh yoki bironta voqea tomonga ishora qilishi ularni birlashtirishi mumkin. Shu sababli odatda kahavt, zarbulmasal va lo'koktini bir-biriga sinonim yoki ma'nodosh degan fikrni ilgari surishadi. Shuning uchun bugungi kunda ularning ishlatilishidagi farqini va chegarasini belgilash to'g'ri emas. Hozirgi davrda biz uni faqat kahavt deb atashimiz ham mumkin emaski, ulardagi qissa yoki hikoyatni yaratuvchisi oddiy xalq yoki noma'lum shaxslar bo'lsa

²⁸ Rasul S.. Gender and Power Relationships in the Language of Proverbs: Image of a Woman// FWU Journal of social Sciences. – 2015. – No 2 (9). – P. 53-62.

²⁹ شریف احمد قریشی اردو كهوتی بک کارنر ۲۰۱۶ ص ۲۰۴

ham. Bu bilan ko‘plab kahavtlarni kahavtlar sirasidan chiqarishga to‘g‘ri keladi. Masalan, "بنوز دلی دو راست ہے", "انگور کھٹے ہیں", "So‘ngra zarbulmasal va kahavtni osonlik bilan ikki turga taqsimlash mumkin. Ularni kahavt deyish mumkin, qachonki, uning zamirida biron hikoya, qissa, hikoyat, voqea yoki talmeh bo‘lsa, ya‘ni hikoyatli zarbulmasalgina kahavtdir. Lo‘kokti va zarbulmasal doirasiga esa barcha zarbulmasal va kahavtlarni kiritish mumkin, garchand ularga aloqador bironta hikoya, hikoyat yoki talmeh va boshqalar xoh bo‘lsin, xoh bo‘lmasin. So‘zlarga boy boshqa barcha kahavtlar zarbulmasaldir, lekin barcha zarbulmasal kahavt bo‘la olmaydi.

Olim Surur Alimzar esa yuqoridagi urdushunos olimlarning qarashlariga zid bo‘lgan nazariyani ilgari suradi. Uning fikricha, odatda odamlar "کہاوت" va "محاورہ" iboraning farqini yaxshi tushunishadi, lekin "ضرب المثال" va "کہاوت" ning farqi borasida ko‘pincha odamlarning fikrida noaniqlik bor³⁰.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, maqollar frazeologik birlik emas, balki paremiya sifatida tadqiq etiladi va har bir tilning ko‘rkini ta‘minlovchi manba bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, matal, masal, aforizmlarning maqollardan farqli va o‘xshash xususiyatlari borasidagi qarashlar o‘zbek, rus, ingliz tillarida deyarli mushtarakdir. Urdu tilida "کہاوت", "ضرب المثال", "مثل", "مقولہ" atamalarining barchasi maqol ma‘nosida qo‘llaniladi. Bu jihatdan urdu tilida maqol borasidagi nazariyalarning o‘zbek tilidan farqini anglash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Алефиренко Н. Ф. Фразеология и паремология. Учеб. Пособие для бакалаврского уровня филол. образования. М.: Изд-во Флинта, 2009. – 600 с.
2. Аникин В.П., Круглов Ю.Г. Русское народное творчество. Л.: Просвещение., 1983. – 250 с.
3. Барли Н. Структурный подход к пословице и максиме// Паремнологические исследования. М.: 1984. – 45 с.
4. Бутенко Е.Ю. «Лингвокультурология» М.: Изд-во «Флинта», 2014.-125 с.
5. Даль В.И. Пословицы русского народа. Т.1. М.:Русская книга.1984.-300 с.
6. Imomov K., T. Mirzayev, B. Sarimsoqov, O. Safarov. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T.: “O‘qituvchi”, 1990. - 240 b.
7. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. T.: “Musiqqa”, 2010.- 220 b.
8. Uluqov. N. Tilshunoslik nazariyasi. T.: “Barkamol fayz mediya”, 2016. –300 b.
9. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. T.: 1990. – 523 b.
10. Rasul S. Gender and Power Relationships in the Language of Proverbs: Image of a Woman// FWU Journal of social Sciences. 2015. – 170 p.

³⁰ ۲۰۱۷ حصہ اول - سرور عالم راز، کھاوتیں

11. یونس اگاسر "اردو کہاوٹیں اور ان کے سماجی و لسانی پہلو" کالگ ۱۹۸۸ ص ۳۵۵
12. شریف احمد قریشی اردو کہاوٹیں بک کارنر ۲۰۱۶ ص - ۲۵۴
13. مظہر حسین گوندل کتاب القواعد اردو مطالعہ پاکستان ص - ۲۹۷
14. انور جمال ادبی اصطلاحات اسلام آباد نیشنل بک فاؤنڈیشن ۲۰۱۲ ص - ۲۲۳

ДИЗАЙН СОҲАСИ РИВОЖИДА КОНЦЕПТУАЛ КОСТЮМ ТЎПЛАМЛАРИНИНГ ЎРНИ

Зарипова М.

К. Бехзод номли МРДИ

Либос дизайни кафедраси катта ўқитувчиси

Абдуллаева Ф.

К. Бехзод номли МРДИ

Либос дизайни кафедраси катта ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Сўнги йилларда концептуал костюм тўпламлари мазкур соҳанинг ривожланиш тамойилларида ўзига хос ўринга эга бўлмоқда.. Мақолада концептуал моданинг шаклланиши, ривож ва ҳозирги кундаги актуал принциплари ёртиб берилган.

***Калит сўзлар:** концептуал мода, тамойил, деконструктивизм, сюрреализм, функционалик, замонавий мода тенденциялари*

АННОТАЦИЯ

В последние годы концептуальная мода в развитии современного дизайна одежды является одним из направлений, оказывающих наибольшее влияние на принципы развития этой области. В статье описаны становление, развитие и современные принципы концептуальной моды.

***Ключевые слова:** концептуальная мода, тенденция, сюрреализм, современные тенденции моды*

ABSTRACT

In recent years, conceptual fashion in the development of modern clothing design is one of the areas that have the greatest impact on the principles of development of this area. The article describes the formation, development and modern principles of conceptual fashion.

***Keywords:** conceptual fashion, trend, surrealism, modern fashion trend*

КИРИШ

Сўнги йилларда дизайн соҳаларининг ривожланиш тамойилларида замонавий технологиялар ривож беқиёс аҳамият касб этиб келмоқда. Бу жараёнда нафақат технология ва ихтироларнинг дизайн соҳалари, хусусан либос дизайни соҳасига бўлган таъсири балки, ахборот алмашинув воситаларининг ўрни ҳам актуаллик касб этмоқда.

Ўзбекистонда дизайн соҳаларининг ривожига ўз таъсирини кўрсатган тарихий анъаналар ва замонавий тенденцияларни ўзида акс эттириб келаётган концепцияларга доир илмий тадқиқотларни олиб бориш кун тартибидан ўрин олмоқда. Хусусан, мамлакатимиз мода соҳасига кириб келаётган ёш мутахассисларни концептуал мода талаблари билан таништириш ва уларга амалий йўл йўриқлар кўрсатиш нечоғлик аҳамиятли эканлигини таъкидлаш ўринли албатта.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОД

Концептуал мода доирасида костюм лойиҳалаш методларининг назарий асослари, унинг келажакда амалий лойиҳалашдаги вазифа ва мақсадларини аниқлаш жараёнларига таъсир кўрсатади. Масалан, мутахассис ўз олдида миллий анъаналардаги замонавий либос тўплами яратишни мақсад қилган бўлса, лойиҳанинг илк босқичи ўзида ушбу тўпلام либослари учун концепция танлашдан иборат бўлади. Мазкур йўналишдаги эътиборли илмий тадқиқот сифатида К.Шверованинг “Концепция и методы проектирования в дизайне одежды” номли тадқиқотини келтириш мумкин.

Манбада таъкидланишича, дизайнерлар томонидан лойиҳаланган тўпلامларда фойдаланилган ҳар бир концептуал метод ўзида эстетик ёки функционал талабларни мужассамлаштиради. Масалан, инсонларни ҳайратда қолдириш мақсади асосида (авангард услуби) лойиҳаланаётган тўпلام учун костюм лойиҳалашнинг антифункционаллик тамойилидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ бўлса, прет-е-порте йўналиши учун лойиҳаланаётган либослар учун функционаллик концепцияси мос келади.

МУҲОКАМА

Либос дизайни соҳаси ривожига мода концепцияларининг ўрни ҳақида айтиш мумкинки, ҳозирги кунда юқори суратларда ривожланаётган мода брендлари фаолиятида улар томонидан танланган бренд фалсафаси ва ушбу йўналиш учун фойдаланилган концепциялар ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлиб келмоқда. Хусусан, мазкур концепцияларда дизайнерларнинг жамиятдаги ижтимоий, иқтисодий ва маънавий соҳаларда бўлаётган воқеъликларга нисбатан дунё қараши, индивидуал фикр доираси ўз аксини топган. Шу билан бирга уларда лойиҳалаш маданиятининг жамиятда ҳукм сураётган замонавий тенденцияларга доир факторларининг ҳам мужассамламтира олинганлигини кузатиш мумкин.

Юқорида таъкидлаб ўтилган муаллифлик ижодий концепциялари таниқли дизайнер Viktor & Rolf — 1993 йилда Виктор Хорстинг (1969 йилда туғилган,

Гелдроп) ва Ролф Сноерен (1969 йилда туғилган, Донген) томонидан асос солинган голландиянинг авангард от-кутюр модалар уйи. [1] Йигирма йилдан ортиқ вақт давомида Виктор ва Ролф мода ҳақидаги олдиндан ўйланган тушунчаларга қарши чиқишга ва мода ва санъат ўртасидаги тафовутни бартараф етишга интилишди. Viktor & Rolf мода уйи ҳам юқори мода, ҳам тайёр либослар коллекцияларини яратиб келадилар. Бу дуэт ўзининг авангард дизайнлари яъни, концептуал коллекциялари билан машҳур бўлиб, улар асосан театр ва сахна кўринишидаги мода махсулотларини эслатади. (1-расм).



1-расм. Виктор ва Ролф либос тўпламлари


Концептуал мода йўналишида ижод қилган илк мутахассис - XX асрнинг ёрқин кутьюреларидан бири бўлган Эльза Скиапареллидир. У яратган либослар ўз даврига нисбатан бир неча 10 йилликларга илгарилаб кетган концептуал тамойиллар асосида яратилган. Кутьюре ижодий концепцияларини шакллантириш жараёнида машҳур санъаткор, rassom Салвадор Дали билан коллаборациялари маълум бир маънода у яратган либосларнинг мода оламида барча даврлар учун юксак ҳисобланиб келинадиган либос тўпламлари яратишига замин бўлган (2-расм).



2-расм. Э.Скиапарелли яратган комтјом шакллари

Ушбу икки новатор ижодкорлар сюрреалистик принципларга хос бўлган либос тўпламларида акс этган жиҳатлар – фукси ранги (*shoking pink*), нашр этилган матнларни газламаларга принт сифатида тушириш ва яна кўплаб ихтиролари замонавий мода оламида актуал бўлган концептуал тамойиллар доирасида дизайнерлар фойдаланадиган ёрқин либос намуналари сифатида аҳамиятли.

Япониялик машҳур дизайнерларнинг концептуал мода шаклланиши ва ривожига ўзига хос ўринлари бор. Уларнинг 1980 йиллар мобайнида Париж Модалар ҳафталигида намоиш этган либос тўпламлари европа мода намоёндаларининг мода ҳақидаги қарашларини ўзгаришига сабаб бўлган. Р.Кавабуко, И.Мияке, Й.Ямомото сингари мутахассислар ўзларининг ноодатий концептуал ғоялари билан жаҳон модаси йўналишларининг том маънодаги инқилобини шакллантира олганлар десак муболаға бўлмайди. Масалан, ушбу дизайнерлар либос тўпламларидаги япон халқининг миллий либосига бўлган ўзгача ёндошув, костюмлардаги шакл ва принт уйғунлиги, монохром ва контраст рангларининг ноодатий қўлланилганлиги мазкур либос намуналарини концептуалликни қадрлайдиган, оммадан ўзгача бўлишни истайдиган мода ихлосмандлари гуруҳини шаклланишига сабаб бўлган. Шунингдек, мазкур мутахассисларнинг ўзига хос йўналиши мода оламида “япония йўналиши” деб аталадиган мода анъаналарини шаклланишига хизмат қилган. Ассиметрияга хослик, тугалланмаганлик, иллюзияга хос деталлар, метафораларга мурожаат қилиш сингари Япония халқининг фалсафасига монанд образлар юқорида номлари келтирилган санъаткор-дизайнерларнинг жаҳон мода саноатида концептуал мода анъаналарининг илк қалдирғочлари десак муболаға бўлмайди. Хусусан, ушбу концептуал мода намуналарини миллий анъаналар ҳамда энг сўнгги замонавий технологиялар уйғунлигида яратилганлиги костюм шакллариининг ноънанавий ва ёрқин кўринишлари сифатида талқин этиш мумкин (3-расм).



3-расм. Р.Кавабуко. Дизайнер яратган концептуал комтјом шакллари

Миллий костюм анъаналари асосида концептуал мода шакллари яратиш бўйича XX аср бошларида ижод қилган кутюреларнинг ҳам салмоқли меҳнатлари бор. Хусусан, рус миллий кўйлаги (рубaha) шакли асосида ўзига хос костюм коллекцияларини Ж.Ланвен, К.Шанель, П.Пуаре, Ж.П.Готье, К.Лагерфелдлар яратганлар. Ҳозирги кунда эса мазкур йўналишдаги концептуал ғоялар асосида Dolce&Gabbana, Kenzo, Roberto Cavalli, Valentino сингари таниқли мода брендлари либос тўпламларини ихлосмандлар эътиборига ҳавола этиб келмоқдалар.

Шу ўринда юртимиз мода соҳасида ҳам концептуал метод ва тамойиллар ўзининг ёрқин интерпретациясини топган ҳолда, мазкур соҳанинг ривожига ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлиб келмоқда. Ана шундай дизайнерлар қаторига Dildora Kasimova ва Lali брендларини киритиш мумкин. Шунингдек, ушбу тажрибали дизайнерларимиз сафига Мах Fardan ва ArtAnsar брендлари остида фаолият юритаётган дизайнерларимизни ҳам киритиш мумкин. Ушбу икки дизайнер тўпламларида концептуаллик аввало либосларнинг ноодатий бичимлари ҳамда контраст ранглар гаммаси асосида намоён бўлади. Улар ўзида ёшликнинг чегараланмаган орзу-мақсадлари, индивидуалликка интилиш, оммадан ажралиб туриш каби принципларга монандликни очиб бера олганлиги билан эътиборлидир.

Dildora Kasimova брендининг либос тўпламларида эса концептуаллик миллийлик тамойиллари билан шунчалар моҳирона қўлланилганки, уларни бир биридан алоҳида тасаввур этиб бўлмайди. Шу боис, ушбу либос тўпламлари нафақат юртимиз балки, чет давлатлар мода ихлосмандларининг шахсий гардеробидан муносиб ўрин эгаллаб келмоқда (4-расм).



4-расм. Д.Касимова яратган концептуал комтјом намуналари

Концептуал мода белгилари доирасида либос шаклини ҳосил қилиш қўйидаги воситалар ёрдамида амалга оширилади. Яъни, либос дизайнери тўплам ғоясига мос ҳолда лойиҳанинг концептуал ва модификациялаштирилган йўналишларидаги амалий фаолият доирасида:

- либосларнинг концептуал мода тенденцияларидаги шакли, силуэти ва бичимини яратиш;

- инсон қоматига пропорционал жиҳатларни ўз ичига олган концептуал мода тенденцияларида хос бўлган ўзига хосликларини аниқлаш, уларнинг умумий характеристикасини таҳлил қилиш ва чиқарилган хулосаларни шакл ҳосил қилиш жараёнларида амалга ошириш;

- либослардаги конструктив ва декоратив воситалардаги ритм ташкил қилиш қонуниятига мос ҳолда дизайн ечимлар ғояларини таклиф қилиш ва уни амалда қўллаш. Шу билан бир қаторда концептуал мода намуналарини яратишга доир шакл ҳосил қилиш жараёнларида дизайнерлар учун муҳим бўлган яна бир жиҳат бу амалга оширилиши зарур бўлган ижодий ва технологик вазифаларнинг уйғун ҳолдаги ечимини яратишда кўзга ташланади.

ХУЛОСА

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, нафақат миллий анъаналар асосида яратилган либос тўпламлари, балки замонавий мода тенденциялари асосида яратилган ҳар бир либос тўплами концептуал жиҳатдан мукамал шакллантирилган бўлса ушбу либос тўпламини муваффақиятли деб айта олиш мумкин. Сабаби, концепция доирасида чуқур ва асосли фикр юритиш малакасига эга бўлган дизайнер мутахассислари либос тўпламининг қолган жиҳатларини ҳам моҳирона кўрсатиб бера оладилар. Натижада эса, бир неча мавсумлар давомида уфда қоладиган индивидуал муаллифлик тўпламлари шакллантирилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати (REFERENCES)

1. Волевич Г. Красиво и модно: Одежда для молодежи. –М.: Молодая гвардия, 1981. -175 с.
2. Вейль Г. Симметрия. –М.: Мир, 1968.
3. Зайцев В. Этот многоликий мир моды. М.: Советская Россия, 1982. -80 с.
4. Зайцев В. Такая изменчивая мода. –М.: Молодая гвардия, 1980. 206 с.

**MARKAZIY OSIYO TASAVVUF TARIQATI ALLOMASI
BAHOUDDIN NAQSHBAND VA UNING ILMIY MEROSI TO'G'RISIDA
MA'LUMOT BERUVCHI MANBALAR TAHLILI**

Abdurasulov Shahzod

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

“Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari”

mutaxassisligi 2-kurs magistranti

abdurasulovshahzod944@gmail.com

94 602 2399

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'rta Osiyolik so'fiy olim Bahouddin Naqshband haqidagi ko'plab manbalardagi muhim ma'lumotlar va uning ilmiy merosi tahlil qilinadi. Bu manbalar Xojagon Naqshbandiy tasavvufini chuqur tahlil qilishda katta yordam beradi. Bundan tashqari, ushbu manbalar orqali naqshbandiya tariqatining jamiyat ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotiga ta'siri o'rganiladi.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, manbalar, islom, tasavvuf, tariqatlar, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy, Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul uns” asari, Alisher Navoiyning “Nasoim ul-muhabbat” asari, Muhammad Porso.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются важные сведения из многих источников о Бахауддине Накибанде, исследователе суфизма из Центральной Азии, и его научном наследии. Эти источники оказывают большую помощь в углубленном анализе мистицизма Ходжагона Накибанди. Кроме того, через эти источники рассматривается влияние порядка Накибанди на социальную, политическую и культурную жизнь общества.

Ключевые слова: Центральная Азия, источники, ислам, суфизм, секты, Бахауддин Накибанд, Ходжа Ахрар Вали, произведение Абдурахмана Джами «Нафахот ул унс», произведение Алишера Навои «Насаим уль-Мухаббат», Мухаммад Порсо.

ABSTRACT

This article analyzes important information from many sources about Bahauddin Naqshband, a scholar of Sufism from Central Asia and his scientific heritage. Such sources are of great help in the in-depth analysis of Khojagon Naqshbandi mysticism. In addition, through these sources, the impact of the Naqshbandi order on the social, political and cultural life of the society is considered.

Key words: *Central Asia, sources, Islam, Sufism, orders, Bahauddin Naqshband, Khwaja Ahrar Vali, Abdurrahman Jami's work "Nafahot ul uns", Alisher Navoi's work "Nasayim ul-Muhabbat", Muhammad Porso.*

KIRISH

XI– XII asrlarga kelib, Markaziy Osiyoda butun islom olami miqyosida umume'tirof etilgan Yassaviya, Kubraviya, Xojagon Naqshbandiya kabi nufuzli mustaqil tariqatlar vujudga kelgan. Markaziy Osiyodagi tasavvuf tariqatlari shayxlarining faoliyati mintaqaning ijtimoiy, siyosiy va diniy holatiga katta ta'sir ko'rsatgan. Bahouddin Naqshband va uning ilmiy merosi haqida ko'plab manbalarda ahamiyatga molik bo'lgan ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Naqshbandiya tariqatiga oid ma'lumotlar avvalo Bahouddin Naqshbandning shogirdi Muhammad Porsoning "Qudsiya"³¹, Abul Muhsin Muhammad Baqir ibn Muhammad Alining "Maqomoti hazrati Bahouddin Naqshband"³² asarlari hamda o'z davri uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan asarlar Abdurahmon Jomiyning "Nafahot al-uns va hazorot al-quds"³³, Sayyid Sharifning "Tarixi Rokimiy", Amir Hamzaning "Maqomoti Amir Sayyid Kulol", Salohiddin ibn Muborak al-Buxoriyning "Anisul-tolibin va uddatus-solikin"³⁴, «Risolai hazrat Mavlavi Jomi», Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvatnoma", Sayfiddin Ali Safiyning "Rashaxot-ul-ayn-ul hayot"³⁵, Ahmad Sirxindiyning "Maktuboti Imom Rabboniy", "Panj latoifai Nodirai muazzama" va Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat min shamoyimul futuvvat"³⁶ kabi manbalarga asoslangan.

Bu manbalar bilan birga yana quyidagi manbalarda: Xo'ja Ahrorning "Anfosi Nafisa", Abdurahmon Naqshbandi Laxuri Pokistoniyning "Shajarai tayyiba", Jalol Xiraviyning "Risolai digar mansub ba Sohibzoda", Ahmad G'uriyning "Kanzal-ibod fi sharx al-avrod", Irbiliy shayx Muhammadning "Al ijobatul rabboniya li sharx va manofe", Viridi Naqshbandi Shayxul Akbaril Sayyid Muhammad Bahouddin al Husaynining "al-Hasani al-Uvaysi al-Buxoriy Naqshband" va Ahmad al Naqshbandi

³¹ Muhammad Porso. Qudsiya. O'zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida 6546\2 raqami ostida saqlanmoqda.

³² Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali Bahouddin Balogardon /Tahrir hay'ati: A. Rustam va boshq; forsiydan tarj, so'zboshi va lug'at muallifi Mahmudxon Maxdum Xasanxon Maxdum o'g'li. - Toshkent: Yozuvchi, 1993. – 208 b.

³³ Жомий А. Нафаҳотул-унс / таржима қўлэзма маини қўлэзма ЎзРФА ШИ Қўлэзмалар фондида 7286 рақами остида сақланади.

³⁴ Salohiddin ibn Muborak al-Buxoriyning "Anisul-tolibin va uddatus-solikin. O'zRFA SHI Qo'lyozmalar fondida 2520/I raqami ostida saqlanadi.

³⁵ Фахруддин Али Сафий. Рашахоту айнил-хаёт (الحيات عين رشاخات). / Форс тилидан Худойберган ибн Бекмухаммад таржимаси / Нашрга тайёрловчилар: М. Ҳасаний ва Б. Умрзоқ. – Тошкент, 2004. – 536 б.

³⁶ Алишер Навоий. Хожа Баҳауддин Нақшбанд к.т.с. / Насойим ул-муҳаббат. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн еттинчи том. – Тошкент: «ФАН», 2001. –553 б. 133-б.

Xolidiyning “Jami’ al-usul fi al-avliya” naqshbandiylikka oid ma’lumolar borligi aniqlangan.

Bahouddin Naqshbandning “Tuxfatul ansob”³⁷ kitobida Bahouddin nasablari haqida ma’lumot berilgan. Hazrat Bahouddin ota tomondan hazrat Ali ibn Abu Tolibga, ona tomonidan esa sidqiydurlar, ya’ni nasablari Abu Bakr Siddiqa borib taqaladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Manbalarning guvohlik berishicha, Bahouddin Naqshbandning shogirdlari Muhammad Porso va Alouddin Attolar uning nutqlari, hikmatli so‘zlarini yozib, to‘plab yurgan. O‘tmishda yaratilgan “Hazrati Bahovuddin Naqshband maqomotlari”ga kirgan barcha gaplar, ustozning fikrlari, uning dahosi xususidagi ko‘plab mahobatli afsonalar ana shu manbalardan olingan yoki ularga suyanib yozilgan. Xususan, Muhammad Porsoning “Risolai qudsiya” asari Xoja Bahouddin Naqshband qudsiy kalimalarining sharhi hisoblanadi. Bu kalimalar Bahouddin Naqshbandning o‘z og‘zidan eshitilgan bo‘lib, Muhammad Porso ularni jamlab yurgan. Bu haqda uning o‘zi shunday deydi: “Bu so‘zlar (ularning) muborak og‘izlaridan chiqqan so‘zlardan bir tomchisigina bo‘lib, bu zaif banda... bu qudsiy kalimalardan ba’zilarini sadoqat va irodat yuzasidan tabarrukona va irshod sifatida qalamga olib yurardi”³⁸. Muhammad Porso o‘zining bu asarida ustozining qudsiy kalimlarini keltiribgina qolmay, ularni sharhlab ham beradi. Asar Bahouddin Naqshband hayoti, uning xizmatlari va ma’naviy olamini ochib berish hamda Naqshbandiya sulukining asoslari haqida chuqur ma’lumotlarni o‘z ichiga olganligi bilan nihoyatda qimmatlidir.

Bahouddin Naqshbandning zikri holi, sarguzashti va ta’limotiga oid asosiy ma’lumotlar “Maqomati hazrati Bahouddin Naqshband”³⁹ kitobida keltirilgan. Muhammad Boqirning bu kitobi Sharq xalqlari tafakkuri taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan Bahouddin Naqshbandning hayoti va bosib o‘tgan yo‘lini mukammal bayon qiluvchi yagona manbadir. Asarda naqshbandiya sulukining asoslari va uning rivojlanishiga hissa qo‘shgan kishilarning faoliyati hikoyalar orqali bayon qilib berilgan. Mazkur asar Bahouddin Naqshbandning 1993-yilda nishonlangan 675-yillik yubileyi munosabati bilan "Bahouddin Balogardon" nomi ostida nashr qilindi.

³⁷ Elektron manba: <https://kh-davron.uz/kutubxona/islomiy-adabiyot/tasavvuf/sadrid-din-salim-buxoriy-hazrat-bahouddin-naqshband.html>

³⁸ Muhammad Porso. Qudsiya. O‘zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida 6546\2 raqami ostida saqlanmoqda.

³⁹ Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali Bahouddin Balogardon /Tahrir hay’ati: A. Rustam va boshq; Forsiydan tarj, so‘zboshi va lug‘at muallifi Mahmudxon Maxdum Xasanxon Maxdum o‘g‘li. - Toshkent: Yozuvchi, 1993. – 208 b.

“Maqomoti hazrati Bahouddin Naqshband” kitobida naql etilishicha, Sayyid Amir Kuloldan dars olishi tugagach, amakisi Bahouddinni Samarqandga eltadi va mashhur darveshlar huzuriga qo‘yib, ulardan ta‘lim oldirtiradi. Kunlardan bir kun Bahouddinning tushiga hazrati Hizr kirib “agar sen haqiqiy so‘fi bo‘lishni istasang, xotining bilan aloqani uzishing kerak” deydi⁴⁰. Shundan so‘ng Bahouddin oilasi bilan ajrashadi. Bu kabi afsonaviy hikoyalar “Maqomoti hazrati Bahouddin Naqshband” kitobida ko‘plab uchraydi. “Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband” asaridagi naqlarda Bahouddinning Buxoro xalqini tashqi dushman hujumlari, hokimlar zulmi, tabiat ofatlari, hayvonlar hujumi, Qarshi aholisini qurg‘oqchilik ofati va balolardan asraganlari yozilgan. Eng asosiysi Bahouddin Naqshband xalqni nafsni ammora balosidan qutilib, tinch-totuv va baxtli yashashlariga yordam berganlar.

Howard Giles' (1973) theory of speech accommodation delves into the ways in which individuals modify their speech patterns to either align with or differentiate from their conversational partners. This adaptation is shaped by factors such as social identity, interpersonal dynamics, and the aim of accomplishing communication objectives. Convergence, characterized by the adoption of comparable speech patterns, promotes social unity and favorable interpersonal connections. Conversely, divergence, marked by the accentuation of linguistic distinctions, can strengthen social identity and assert personal uniqueness. This theory highlights the flexible nature of communication and its significance in shaping social exchanges (Giles, 1973).

Discussion

The combination of these ideas and rules demonstrates the complex relationship between language structures and social interactions in pragmalinguistics. Speech acts theory showcases the diverse functions of language, illustrating that utterances can serve various communication purposes beyond just exchanging information. Grice's conversational maxims provide a structure for comprehending how speakers and listeners collaborate to achieve successful communication. Politeness theory stresses the significance of social factors, illustrating how speakers balance politeness and efficiency during interactions.

Relevance theory presents a cognitive viewpoint, clarifying how speakers and listeners handle the expectation of relevance in communication. This theory underscores the importance of cognitive processes in understanding and producing language. Speech accommodation theory emphasizes the fluid nature of communication, showing how speakers adapt their speech to match or distinguish themselves from their conversation partners based on social and relational aspects.

These principles have important implications for different fields, such as intercultural communication, language education, and artificial intelligence. In intercultural communication, grasping pragmalinguistic principles can improve cross-cultural interactions by offering insights into how different cultures utilize language in specific contexts. In language teaching, these principles can guide the creation of teaching approaches that focus on pragmatic skills, aiding learners in using language

effectively in real-world scenarios. In artificial intelligence, knowledge from pragmalinguistics can shape the development of natural language processing systems that are better at understanding

Intercultural communication is an area where the principles of pragmalinguistics play a crucial role. Cultural variations can result in misinterpretations and breakdowns in communication if not handled properly. By grasping the pragmalinguistic norms of diverse cultures, individuals can better navigate these discrepancies. For instance, politeness strategies differ significantly among cultures, with some preferring indirectness and formality for politeness maintenance, while others find directness and informality more appropriate. Being aware of these distinctions can help individuals prevent unintended rudeness and foster stronger intercultural connections (Scollon & Scollon, 1995).

The field of language education can greatly benefit from the perspectives offered by pragmalinguistics. While traditional language teaching typically emphasizes grammatical skills, the importance of pragmatic skills for successful communication cannot be overlooked. By integrating pragmalinguistic concepts into language instruction, learners can gain a better understanding of how to use language effectively in various situations. For example, teaching about speech acts can help learners grasp how to properly make requests, offer compliments, or apologize in ways that are culturally appropriate. Similarly, instruction on the cooperative principle and conversational maxims can assist learners in honing their abilities to maintain coherence and relevance in conversations (Kasper & Rose, 2002).

Pragmalinguistics provides valuable insights into language communication, but there are challenges that must be addressed. One issue is accurately modelling the various contextual factors that influence communication, which includes the physical environment, social, cultural, and cognitive backgrounds of the speakers. Developing comprehensive models to account for this complexity is a continuous challenge for researchers. Another challenge is the ever-evolving nature of language use, with new forms like digital communication posing new obstacles for pragmalinguistic research. Understanding how traditional principles apply to these new forms and identifying emerging principles is crucial for future research. For instance, social media and instant messaging have introduced novel ways of managing politeness and relevance, necessitating further exploration. Furthermore, there is a need for more empirical research to validate and refine existing theories. While many pragmalinguistic principles are supported by theoretical arguments and qualitative data, there is an increasing demand for quantitative studies to provide stronger evidence.

Experimental and corpus-based approaches can offer valuable insights into how these principles function in real-life communication.

CONCLUSION

Pragmalinguistics is a theoretical framework that combines pragmatics and linguistics to analyze language communication in social settings. It focuses on concepts like speech acts, conversational maxims, and politeness theory, as well as contextual factors, relevance, and speech accommodation. These principles have important implications for intercultural communication, language teaching, and artificial intelligence, offering practical benefits for communication in various areas.

Future research in pragmalinguistics should explore the dynamic nature of language use, especially in digital communication and new technologies. By addressing challenges and expanding empirical research, researchers can improve our understanding of how language operates in different contexts and generate new insights for both theoretical and practical purposes.

REFERENCES

1. Austin, J. L. (1962). *How to Do Things with Words*. Oxford University Press.
2. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge University Press.
3. Crystal, D. (2006). *Language and the Internet*. Cambridge University Press.
4. Giles, H. (1973). Accommodation theory: Optimal levels of convergence. *Communication Yearbook*, 7, 395-409.
5. Grice, H. P. (1975). Logic and conversation. In P. Cole & J. L. Morgan (Eds.), *Syntax and Semantics* (Vol. 3, pp. 41-58). Academic Press.
6. Jurafsky, D., & Martin, J. H. (2021). *Speech and Language Processing* (3rd ed.). Pearson.
7. Kasper, G., & Rose, K. R. (2002). *Pragmatic Development in a Second Language*. Blackwell Publishing.
8. Scollon, R., & Scollon, S. W. (1995). *Intercultural Communication: A Discourse Approach*. Blackwell Publishing.
9. Searle, J. R. (1969). *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge University Press.
10. Sperber, D., & Wilson, D. (1986). *Relevance: Communication and Cognition*. Harvard University Press.
11. Tannen, D. (1993). *Framing in Discourse*. Oxford University Press.

O‘ZBEK AN‘ANAVIY CHOLG‘ULARI VA MILLIY CHOLG‘U MUSIQIY JANRLARI

Muhammadjonova Mohinur

Farg‘ona davlat universiteti San‘atshunoslik fakulteti

“Musiqqa ta‘limi” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada “Musiqqa cholg‘usi” tushunchasi va uning xususiyatlari, musiqa cholg‘ular tavsifi va ularning xarakterli xususiyatlari bayon etiladi.

***Kalit so‘zlar:** Cholg‘u, membrafonlar, idiofonlar, janr, organologiya, torli cholg‘ular, puflama-damli cholg‘ular*

ABSTRACT

This article describes the concept of "musical instrument" and its characteristics, description of musical instruments and their characteristic features.

***Key words:** Instrument, membraphones, idiophones, genre, organology, string instruments, wind instruments*

KIRISH

Musiqiy cholg‘ular insoniyat ma‘naviyatini ohanglarda tarannum etuvchi vosita, ya‘ni xalq ijodiyoti mahsuli bo‘lib, azal-azaldan omma orasida shakllanib, mohir soz ustalari tomonidan yasalib, tobora mukammallashib kelayotgan mo‘jizaviy va ifodaviy asboblardir. Cholg‘ularda har bir xalqning milliy g‘ururi, an‘anasi, qadriyatlari o‘z ifodasini topganki, ulardan taraladigan ovoz ham shunga moslashgan. Bular barchasi yaratilajak cholg‘ulaming shakliga va milliylik mezoniga asos bo‘lib xizmat qiladi. Tarix davomida doimo musiqiy cholg‘ularga bo‘lgan e‘tibor katta bo‘lishi bilan birga tarbiyaviy tomonlari bilan ham alohida ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Zamonaviy jarayonda o‘tmish an‘analariga yangicha qarash, ilg‘or rivojlangan texnikadan munosib foydalanish hamda komil insonni tarbiyalash kabi omillarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

O‘zbek madaniy merosi musiqiy cholg‘ularga boy va ularning har biri uzoq o‘tmish, tarkibiy rivojlanish va texnikaviy takomillashish jarayonidan o‘tganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ijro mezonlariga ko‘ra o‘zbek xalq cholg‘ulari ikki guruhga bo‘linadi. Birinchi guruhga barcha an‘anaviy xalq cholg‘ulari kiradi. Ikkinchi guruhga XX asr madaniy rivoji bilan bog‘liq bo‘lib takomillashgan, ya‘ni qayta ishlangan (rekonstruksiya qilingan) cholg‘ular kiradi. An‘anaviy xalq cholg‘ulari tarkibidan joy olgan cholg‘u sozlar: tanbur, dutor, sato, rubob, ud, nay, surnay, qo‘shnay, karnay, g‘ijjak, chang, qonun, doira, nog‘ora. Xalq ijodiyotida qo‘llaniladigan sozlarga changqo‘biz, sibizg‘a, safoil kiradi.

Qayta ishlangan cholg‘u asboblariga - rubob, g‘ijjak, dutor va chang sozlarining musiqaning soprano, alt, tenor, bas ovozlari mezonlariga ko‘ra qayta ishlangan namunalari kiradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

An‘anaviy cholg‘u ijrochiligi azaldan xalq ijro amaliyotida shakllanib, ulardan turli ko‘rinish va tarkiblar asosida foydalanish an‘ana bo‘lib kelgan. Avvalo an‘anaviy cholg‘ularning har biri yuqori professional darajadagi individuallik xususiyatiga ega. Xalq ijrochilik amaliyotida shunga mos ijro imkoniyatlari, sharoitlar va ijro uslublari yuzaga kelgan. Ko‘p asrlik ijrochilik amaliyoti esa (xalq va an‘anaviy) cholg‘ularni guruh bo‘lib ijro etilishini ham taqozo etgan. Shunga binoan cholg‘ular sozandalar tomonidan bir-birlariga mos o‘z turlari va ovoz imkoniyatlari doirasida guruhli tarkiblar tuzilib amaliyotda qo‘llanilib kelingan.

Karnay, surnay, nog‘ora va doira tarkibidagi damli va urma cholg‘ular guruhi qadimdan ijro amaliyotida shakllanib, xalqimizning barcha ommaviy tadbirlarining faol ishtirokchisiga aylangan. An‘anaviy cholg‘u sozlar ansambllari esa o‘z xususiyatlaridan kelib chiqib qo‘llanilgan. Ijroda keng ko‘lamli va katta ovoz imkoniyatiga ega bo‘lish maqsadida barcha cholg‘ular yig‘indisidan katta cholg‘ular ansambli tashkil etilgan. Cholg‘u musiqasi ijrochiligi va maqom ijrochilik amaliyotida esa kichik-kichik guruhlar bo‘lib ijro etish ham an‘anaga aylangan. Jumladan: har bir cholg‘u doyra jo‘rligi bilan ijro etish; tanbur dutor bilan; tanbur, dutor doyra jo‘rligi bilan; tanbur, dutor, g‘ijjak doyra jo‘rligida ud, qonun doyra bilan birga va h.k.

O‘zbek an‘anaviy xalq cholg‘ulari tasnifotini ikki yirik olimlar V.Belyayev va F.Karomatovlar, o‘z ilmiy tadqiqotlarida yoritib berganlar. Ushbu tadqiqotlar nashr etilib, o‘quv jarayonida keng qo‘llaniladi.

Tabiiy tuzilish va ijroviy imkoniyatlariga ko‘ra o‘zbek xalq cholg‘ulari uch guruhga tasniflanadi.

Birinchi guruh - torli cholg‘ular;

Ikkinchi guruh - puflama damli cholg‘ular;

Uchinchi guruh - urma-zarbli cholg‘ular.

Har bir guruh cholg‘ulari ichki xususiyatlaridan kelib chiqib turlarga bo‘linadi.

1. Torli cholg‘ular, ijroviy imkoniyatlarini inobatga olib to‘rt turga ajratiladi:

a) torli chertma cholg‘ular (barmoqlar yordamida chertib ijro etiladigan cholg‘ular);

b) torli plektorli (maxsus moslama yordamida ijro etiladigan) cholg‘ular;

d) torli kamonli (kamon yordamida chalinadigan) cholg‘ular;

e) torli urma (maxsus cho‘plar bilan ijro etiladigan) cholg‘ular.

2. Puflama - damli cholg'ular tarkibiy va ijroviy xususiyatlari doirasida uch turga ajratiladi:

- a) naysimon (bevosita havoni puflash orqali ijro etiladigan) cholg'ular;
- b) tilsimon (ovoz manbai cholg'udan ajratilgan tildan hosil bo'ladigan) cholg'ular;
- d) munshtukli (maxsus naycha yoki naypachoqlar bilan ijro etiladigan) cholg'ular.

O'zbek cholg'ulari zamonaviy tasniflanishi umumbashariyat tasnifotiga ko'ra: Maylon, Verkov, Xornbostel, Zaks kabi olimlar cholg'ularning tovush chiqarish xususiyati, sadolanishi bo'yicha nima orqali tovush hosil qilishi kabi xususiyatlar hisobga olgan holda 4 ta asosiy guruhlariga va uning ichidagi turlariga bo'linadi.

3. Urma - zarbli cholg'ular (tovush balandligi aniq va tovush balandligi noaniq bo'lgan cholg'ular)

Torli cholma manbalarida keltirilgan rivoyatlarga ko'ra, birinchi kashf etilgan torli cholg'uning nomi Borbad bo'lgan va ilk bor buyuk yunon olimi Fisog'urs (Pifagor) tomonidan ixtiro etilganligi qayd etiladi. Darhaqiqat, ilk yasalgan (yaratilgan) cholg'u har tomonlama sodda va oddiy bo'lgan so'ngra keyinchalik rivojlangan. Bu haqida maqomshunos olim I.Rajabov yozadi: "Fisog'ursdan so'nggi davrlarda yashagan musiqachilar Borbadni takomillashtiradilar va uning asosida 2-3-4 torli musiqa asboblari yasadilar. Borbadni esa, ko'p manbalarda hamma torli asboblarning yuzaga kelishida asos bo'lgan, deb ko'rsatiladi". Borbad esa udsimon cholg'u ekanligi va ud cholg'usini yasashda Borbad asos bo'lganligi ham ko'p manbalarda bayon etilgan. Ular qadim zamonlardan shakllanib, turli xalqlar amaliyotida o'z ma'naviyati va an'anasi doirasida rivoj topib kelgan musiqiy asboblardan bir turi hisoblanadi. Torli cholg'uning kelib chiqishi tarixiga aniq bir ma'lumot berish mushkul. Inson tafakkuri torli cholg'uni ixtiro etib, uni ma'lum darajada rivojlantirgandan so'ng, uning umumbashariy rivoji har bir xalqda rivoj topadi. Cholg'ularni har bir xalqning o'ziga xos va turli vositalar orqali ijro etiladigan namunalari yuzaga keladi. "Oldiniga torli cholg'ularning shakllari, - deb yozadi. V.Belyayev - yoysimon bo'lgan. Ya'ni, yog'ochli (taxtali) egma Fisog'urs yunoncha ismi Pifagor. Eramizdan oldingi VI asrda yashab ijod etgan buyuk faylasuf alloma. Musiqiy cholg'ular yaratilishiga bog'liq rivoyatlar I.Rajabovning "Maqomlar masalasiga doir" kitobida, musiqada yettita tovush mujassamligi borasida A.Navoiyning "Lison ut-tayr" kitobidagi "Qaqnus" hikoyasida keltiriladi. Tanali (korpusli) bo'lgan va unga bir va bir nechta torlar tortilgan. Vaqt o'tishi bilan ushbu taxtali tana to'g'rilanib borgan va dasta yoki cholg'u asbobi dastasi shakliga kelgan. Shu bilan birga dastaga mos rezonator vazifasini bajaradigan kosaxonalar, avvaliga

jonzodlardan (toshbaqa, zihir) yoki o‘simlik mevalari (qovoq, kakos yong‘og‘i va h.k.) biriktirilgan. Taraqqiyot jarayoni esa har bir xalqning o‘z cholg‘u asboblari yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Cholg‘ularning kosaxonasi qaysi jihozdan va uning katta-kichiklik hajmi, dastasining uzun-qisqaligi hamda torlar soni va nisbati davrlar o‘tishi bilan rivojlanib takomillashib borgan.



O‘zbek xalq cholg‘ulari orasida torli hamda chertib ijro etiladigan cholg‘ularga do‘mbira va dutor kiradi. Ushbu cholg‘ular o‘z ijrochiligi, tabiati, ovoz tarannumi bilan amaliyotda alohida ahamiyat kasb etib kelgan. Shu bilan birga, xalq ijrochilik amaliyotida o‘z o‘rni va yo‘nalishiga ega bo‘lib, baxshi va sozandalar qo‘lida, o‘tmishdan so‘zlovchi cholg‘ular sifatida o‘z mavqei saqlab kelmoqda.

Do‘mbira - torli o‘zbek an’anaviy cholg‘ularidan biri bo‘lib, ayni paytda o‘zbek baxshichilik san’atining yetakchi cholg‘usi hisoblanadi. Cholg‘uning ikki torliligi va turli tovushlarga sozlanib bir paytda ijro etilishidan, uni cholg‘u ijrochiligining

ancha shakllangan davrida yuzaga kelgan asbob, deb qayd

etadi

V.Belyayev. Do‘mbira, tanburga nisbatan kosasi katta, dastasi esa kalta, dutorga nisbatan dastasi kalta, kosasi kichkina ikki torli cholg‘udir. Kosasining shakli ko‘proq tanburga o‘shash bo‘lib, asosan tut, yong‘oq yoki o‘rik daraxtidan o‘yib yasaladi. Uning qopqog‘i tut daraxtidan yupqagina qilib yasalgan. Dastasi esa unchali uzun bo‘lmagan va maxsus pardalar ham bog‘lanmagan. Cholg‘uning ikkita tori bo‘lib kvarta kichik oktava lya-re yoki lya bemol-re bemol yoki lya-mi yoki lya bemol-mi bemol; kvinta - lya-mi yoki lya bemol-mi bemol oralig‘ida sozlanadi. Diapazon ikki oktavani qamrab oladi. Cholg‘uning xarragi ham soz jussasiga mos qilib bag‘ri qattiq tut yoki yong‘oqdan yasaladi. Do‘mbirada ikki tor bir vaqtda chertilishi bilan birga alohida alohida ham ijro etiladi. Bu ijrochi baxshilarning badihasiga bog‘liq. Cholg‘u alohida simlarda chertilganda har ikki toridan keng foydalanilishi mumkin. Shu bilan birga chap qo‘lni “pisikato” usuli bilan ijro etish uslubi ham keng qo‘llaniladi.

Dutor - o‘zbek an’anaviy chertim cholg‘u sozlaridan biri. Uzoq o‘tmishdan xalq ijrochilik amaliyotidan munosib o‘rin egallab kelayotgan dutor, ayni paytga kelib an’anaviy ijro uslubiga xos barcha guruhlar tarkibidan joy oldi. An’anaviy yakkanavoz cholg‘u sifatida shakllandi va yetakchi cholg‘ular qatoriga kirdi. Dutorning tarixiy shakllanishi va boshqa cholg‘ular bilan uyg‘unlik jihatlari uzoq o‘tmishga borib taqalsada, musiqiy risolalarda XV asrdan boshlab ta’riflanib keladi.

“Forobiy ma’lumotlariga qaraganda, Xuroson tanburi o‘zining ko‘plab belgilari bilan zamonaviy dutorni eslatadi”. Lekin, dutorning o‘z nomi va uning barcha (shakliy, tarkibiy, ijroviy) imkoniyatlari bilan ilk bor XV asrda yashab ijod etgan musiqashunos olim Zaynullobiddin al-Husayniy o‘zining musiqa ilmiga bag‘ishlangan “Qonuni ilm va amali musiqiy” nomli risolasida bayon etgan. Darhaqiqat, unda ikkita torli va ularning oralig‘i kvarta intervalini tashkil etuvchi, dastasiga bog‘langan pardalari o‘n bitta bo‘lgan dutor cholg‘u asbobi ta’riflanadi.

Ud – an’anaviy cholg‘ularning eng qadimiysidir. Ijrochilik amaliyotida mashhur bo‘lgan ud turli xalqlarda mavjud bo‘lgan. Ajam xalqlarida - ud, Xitoyda - pipa, Ovrupada - lyutniya, arablarda esa al-ud nomlari bilan atalib kelingan. Cholg‘u arablar mamlakatida o‘sadigan ud daraxtidan yasalgan. Daraxt xushbo‘y hid taratuvchilik xususiyatiga ega bo‘lgan. Ud o‘tmishdan ijrochilikda keng qo‘llanilgan, O‘rta asrlarda Farobiy, Urmaviy kabi olimlarning musiqashunoslik ilmiy-tadqiqotlari uchun asos vazifasini o‘tagan. XVI-XVII asrlarga kelib ud cholg‘usi o‘rnini boshqa cholg‘ular egallaganligi sababli amaliyotda kam uchragan. O‘zbekistonda ud cholg‘u sozi XX asrning 70-80-yillarida ijrochilik amaliyotida qayta tiklandi. Cholg‘ular ansambli qatoridan munosib o‘rin topdi. Yakkanavoz cholg‘u sifatida ham omma orasida keng tarqaldi. Cholg‘uning O‘zbekistonda qayta tiklanishda mohir sozanda Rifatilla Qosimovning xizmatlari e’tiborlidir. Ud cholg‘usining ulkan rezonatorli katta kosa va qisqa pardalar boylanmagan dastasi mavjud. Kosa, odatda, bir-biriga mutanosib holda yopishtirilgan 10-12 ga yagin qovurg‘asimon taxtachalardan tayyorlanib yasaladi va ustki qismiga qopqoq yopishtiriladi. Qopqoqda ovoznining harakatini ta’minlab beruvchi uchta teshiklar bo‘lib, ular naqshlar bilan bezab yasaladi. Cholg‘uning xarragi ham qopqoqqa zich holatda yopishtirib qo‘yiladi. Cholg‘u dastasi kosaga mahkam biriktirib qo‘yiladi. Uning boshlang‘ich qismida quloqlar o‘rnatiladigan qismi mavjud. Unda 11 ta torni tortish uchun mo‘ljallangan quloqlar joylashgan (5 tasi o‘ng va 6 tasi chap tomonida). Ud sozi 5 juft va 1 ta toq torlardan iborat. Uning birinchi, ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi torlarining orasi kvarta intervaliga sozlanadi. To‘rtinchi va beshinchi, beshinchi va oltinchi torlar orasi katta sekunda intervali, ya’ni 1 ton oralig‘ida sozlangan. Zamonaviy o‘zbek ud cholg‘uchiligida esa, maqom kuylarini ijro etishda qulay bo‘lishini inobatga olgan holda to‘rtinchi va beshinchi torlar oralig‘i sekundadan kvartaga o‘zgartirilgan.

Tanbur - musiqiy cholg‘ular orasida qadimiysi va eng zabardasti hisoblanadi. Tarixiy manbalarda ham qadim zamonlardan xalqlar orasida tanbur, tamera nomli cholg‘ular keng ommalashganligi xususida ko‘p ma’lumotlar bayon etilgan. Forobiy, Ibn Sino, Darvish Ali Changiy, Fitrat risolalarida tanburning turli (tarixiy, shakliy, tarkibiy namunalari va ijrochilik) xususiyatlari ifodalangan. Tanbur o‘tmishdan xalq


ijrochilik amaliyotida keng qo‘llanilib kelinganligi sababli uning turlari ham bo‘lgan. O‘rta asrlarda kasbiy musiqaning shakllanishiga tanbur ham o‘zining hissasini qo‘shganligi munosabati bilan amaliyotda yetakchi sozlar qatoriga kira boshlagan. O‘zbek maqom san‘atining shakllanishida ham tanbur asos va yetakchi cholg‘u sifatida e‘tirof etiladi.



Qadimgi ajdodlarimiz inson ovoizidan kuchliroq tovush beradigan, ochiq havoda chalinadigan cholg‘ularni ixtiro qilgan va uni ovda, harbiy yurishlarda, to‘y, sayil, bayram va boshqa turli yig‘inlarda qo‘llash odat tusiga kirgan. Damli cholg‘ular eramizdan avvalgi III-I asrlarda ham naysimon, tilli va karnaysimonlarga tavsiflangan. Qadimgi Misr, Bobil va boshqa Sharq mamlakatlarida damli cholg‘ular haqida ma‘lumot beruvchi tasviriy san‘at asarlari mavjud bo‘lib, ular haykalchalar va arxeologik topilmalarda o‘z aksini topgan. Qadimgi Misr tarixiy yodgorliklaridan ma‘lumki, yuksak qadrlangan harbiy sozandalarga kohinlar qatoridan o‘rin ko‘rsatilgan, hatto jang maydonida sozandalar o‘dirilmas, balki asir olinib, o‘z kasbi doirasida xizmat qilishga buyurilgan. Qadimgi Xorazm hududidagi “Qo‘y qirilgan qal’a” (miloddan oldingi IV-III asr), “Tuproq qal’a” (I-III asr), “Qirq qiz qal’a” (V-VI asr) istehkomlaridan topilgan nay, mizmar, surnay, daf va nog‘oraga o‘shash asl nomlari saqlanmagan cholg‘u sozlari ushlagan mutriba ayol va erkaklar tasvirlangan tangachalar, ganch haykalchalar hamda Ayritomdan topilgan haykalchalardagi cholg‘ular tasviridan biz ularning qaysi turga mansubligini aniqlashimiz mumkin. Ammo ularning o‘sha paytda qanday atalgani ma‘lum emas. Ya‘ni nomlari hozirgacha saqlanib qolmagan.

Qadimdan shu davrgacha xalq orasida quyidagi cholg'ular iste'foda qilingan: G'ajir-nay, cho'pon-nay cholg'usi to'g'ri silindr shaklidagi ikki tomoni ochiq nay bo'lib, cho'l burgutining g'ovak suyagidan ishlanadi. Uzunligi 300 mm. Barmoq bilan bosib chalinadigan 4 ta teshikchadan iborat. Diatonik tovushqatorga ega. U cho'ponlar amaliyotida ko'proq qo'llaniladi va lirik tarzdagi kichik kuylar ijro qilishga qulay. Ushbu nayning besh teshikligi ham mavjud bo'lib, u burgut qanotining gavdasiga yaqin joyidan yasaladi. Ushbu nayning bosh tomonidan tish bilan labning oralig'ida tepa jag'ga joylagan holda puflab chalinadi. U xushtaksimonlar oilasiga kiradi. Ishvalak, ushbullak, loyxushtak - turli qush va jonzotlar shaklida sopoldan yasaladi va har xil bo'yoqlar bilan bezatiladigan xushtaksimon cholg'u. Uning xushtak hosil qiladigan bitta teshigi va barmoq bilan bosiladigan ikkinchi teshikchasi mavjud. Ishvalak asosan bolalar o'yinchog'i sifatida qo'llaniladi. Sibiziq - (bizillovchi ma'nosida) 150 mm, uzunlikdagi g'arov gamishdan yasalgan cholg'u. Uning bosh qismida tilcha kesib ochilgan, barmoq bilan bosiladigan uchta teshigi bor. Tovushqatori diatonik. Sibiziq cho'ponlar cholg'usi bo'lib, unda sho'x - o'ynoqi kuylar chalinadi. Sibiziq turkmanlarning dilli-tuydukiga o'shaydi.

Nay - silindr shaklida 400-600 mm uzunlikdagi yonlama cholg'u bo'lib, mevali yog'ochdan (yog'och - nay), bambukdan (g'arov - nay), oq misdan (mis - nay), latundan (brinj - nay) yasaladi. Nayda barmoq bilan bosiladigan 6 ta asosiy teshik bo'lib, ulardan tashqari puflash uchun teshik, yog'och va g'arov naylarda asosiy teshiklari orasida bitta hamda quyi qismida yana to'rtta teshiklar mavjudki, bularning barchasi nay tovushiga chiroyli tus berish uchun ochilgan. Nayning tovushqatori diatonik bo'lib, ikki yarim oktava (birinchi oktava lya dan to'rtinchi oktava re gacha) tovush ko'lamiga ega.



Qo‘shnay - g‘arov qamishdan yasalgan 220-250 mm uzunlikdagi juft naylardan tashkil topgan cholg‘u bolib, naylarining bosh tomoni yopiq va uchlaridan 5 sm uzunlikda tilchalar kesib ochilgan. Tilchalar ip bilan xomut qilib yuqoriga va pastga (sozlash uchun) suriladigan qilib bog‘langan. Qo‘shnayda barmoq bilan bosiladigan 7 (ba‘zan 8) ta teshik ochilgan. U ikki oktavaga yaqin, birinchi oktava re dan ikkinchi oktava si (uchinchi oktava do gacha) diatonik tovushqatorga ega bo‘lib, ikkinchi oktava tovushlari asosan nafas bosimi natijasida hosil etiladi. Lab boshqaruvi natijasida romatik tovushqator chalish mumkin. Qo‘shnay ikkita qamishni birlashtirib, orasiga ipdan popuk qo‘yiladi. U yasalganda ikkala qamishi ham bir tubdan olinadi. Shundagina ular bir-biriga qoyim soz bo‘ladi. Qo‘shnayning tovushi kuchli, mungli ohangga ega. Asosan yakka, ansambl va o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrida qo‘llaniladi. Hozirgi davrda Xorazm, Toshkent va Farg‘onada keng tarqalgan.

Qayroq - to‘rtta silliqlangan uzunchoq qayroq toshchalardan iborat. U zarbli cholg‘ular tarkibiga kiradi va turli ritmik-usullarni chalish uchun qo‘llaniladi. Xorazm qayroqlarining ikkitasi temirdan va ikkitasi toshqayroqdan yasaladi. Qayroqni ijrochi har qo‘lida bir juftdan (bosh barmog‘iga bittasini va qolgan barmoqlariga boshqasini) ushlaydi va bir-biriga urishi natijasida quruq chaqqillagan tovush hosil bo‘ladi. Qayroq asosan raqs kuylarida asar koloritini boyitish maqsadida ishlatiladi.

Safoyil - zarblilar ichida o‘ziga xos cholg‘u bo‘lib, shaqqildoqlar turiga kiradi. U yuqori tomoniga ikkita katta temir halqa o‘rnatilgan juft tayoqcha bo‘lib, katta temir halqalarning har biriga o‘n oltita temir halqachalar kiygizilgan. Ushbu cholg‘uda tovush uch xil yo‘l bilan amalga oshiriladi: kichik halqachalarni titratish, ijrochining o‘ng yelkasiga safoyilni urish va shuningdek, safoyilni oldinga silkitib, katta halqalarni tayoqchaga urilishini ta‘minlash natijasida tovush hosil qilinadi. Safoyil asosan raqs kuylarida xalq cholg‘ulari ansambliga jo‘rlik qiladi.

Qoshiq - tut yog‘ochidan 160-180 mm hajmida ikkitasi o‘yib yasaladi va teri tasmachalar bilan juft qilib boylanadi. Qoshiqlarni silkitish yoki qo‘lning kaftiga urish natijasida tovush hosil gilinadi. Qoshiqlar o‘zi yakka holda ritmik usullarni chalishi yoki doyraga qo‘shilishi mumkin. Ushbu cholg‘u dunyoning turli mamlakatlarida kastanet yoki ispancha kastanet kabi nomlar bilan raqqoslar raqs tushganda usulni yanada bo‘rttirib ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Hozirgi davrda qoshiq xalq cholg‘ulari ansamblida zamonaviy kuylarni chalishda ishlatiladi.



Inson hayotida musiqa cholgʻularining yaratilishi bevosita ushbu cholgʻu orqali ijro etiladigan kuylarni ijod etishiga undaydi. Bizning xalqimiz xilma-xil cholgʻularga ega boʻlib, oʻziga xos cholgʻu musiqasini yaratgan. Bu cholgʻular tovush chiqarish xususiyatlari boʻyicha torli (torli chertim, torli plektor, torli kamonli va torli urma), puflama-damli (naysimon, tilsimon va karnaysimon) va urma-zarbli (teri bilan qoplangan va oʻzi sado beruvchi) cholgʻular guruhi va turlariga boʻlinadi. Har bir cholgʻu oʻz tuzilishi, tasviriy vositalarining xarakteri xususiyatlari va ijrochilik uslublari bilan ajralib turadi. Oʻzbek musiqa cholgʻulari anʼanaviy (nay, sibizgʻa, qoʻshnay, gʻajir nay, surnay, bulamon, karnay, tanbur, dutor, doʻmbira, qonun, qoʻbiz, sato, changqoʻbiz, doyra, nogʻora, dovul va boshq.) va qayta ishlangan (gʻijjak, qashqar va afgʻon ruboblari, chang, ud) xillariga boʻlinadi. Bu cholgʻularning har biri ijro etiladigan musiqa asari xususiyatlari va vazifalariga qarab yakkasoz yoki maʼlum ansambl tarkibida ishlatiladi. Shu tufayli anʼanaviy yakkasoz va ansambl ijrochiligi yuzaga kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев Р. Байсун. Традиционная музыкальная культура. Ташкент, 2005.
2. Беляев В.М. Музыкальные инструменты Узбекистана. М., 1933.
3. Begmatov S., Matyoqubov M. Oʻzbek anʼanaviy cholgʻulari. Toshkent, 2008.
4. Вызго Т.С. Музыкальные инструменты Средней Азии. Исторические очерки. М., 1980.
5. История узбекской советской музыки, в 3 томах. Ташкент, 1972-1973, 1991.
6. История музыки Средней Азии и Казахстана. М., 1995.
7. Кароматов Ф. Узбекская инструментальная музыка (наследие). Ташкент, 1972.
8. Кароматов Ф. Узбекская домбровая музыка. Ташкент, 1962.

9. Matyoqubov M. An'anaviy cholg'u ijrochilik uslubiyoti. Toshkent, 2015.
10. Toshmatov O'. Cholg'ushunoslik. Toshkent, 2007.
11. Toshpo'latova I. An'anaviy dutor ijrochiligi. Toshkent. 2004.
12. Qosimov R. An'anaviy ijrochilik. Toshkent, 2007.
13. Хожимаматов А. ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА МИЛЛИЙ МУСИҚИЙ МЕРОСГА МУНОСАБАТНИ ЎЗГАРИБ БОРИШ ТЕНДЕНЦИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ. "JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN". JURNALI VOLUME 1, ISSUE 2, 2023. JUNE.
14. Jalilova, R. (2022). TASVIRIY SAN'ATDA QALAMTASVIR TECHNOLOGIYASINI O'QITISHNING DIDAKTIK PRINSIPLARI. *Scienceandinnovation*, 1(C2),
15. Jalilova, R. (2022). THE DEVELOPMENT OF VISUAL ART IN PENCIL DRAWING, PAINTING, COMPOSITION AND INDEPENDENT PAINTING. *Science and Innovation*, 1(3),.
16. Jalilova, R. (2022). HEREDITARYDISEASES. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(11),
17. Jalilova, R. Q. (2022). About identification of one model of nonstationary filtration. *Математическое и компьютерное моделирование естественных и социальных проблем: материалы XVII Всероссийс*, 131.
18. Jalilova, R. Z. (2023). Representation of Human Face, Hands, Clothes in Painting and Pencil Drawing. *Texas Journal of Philology, Culture and History*, 18,
19. Jalilova, R. (2023). EDUCATIONAL METHODOLOGY OF AESTHETIC EDUCATION OF LANDSCAPE PAINTING. *Science and innovation*, 2(C7),
20. Jalilova, R. (2023). HISTORY OF LANDSCAPE IN MIDDLE ASIAN WORKS OF ART, PHILOSOPHICAL AND AESTHETIC METHODOLOGY OF EDUCATIONAL PROBLEMS AND SOLUTIONS. *Science and innovation*, 2(C7),
21. Achildiyeva, M. (2023). PATNISAKI ASHULANING IJTIMOIIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 254-266.
22. Achildiyeva, M. (2023). QADIMGI DAVR CHOLG 'U SOZLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, 14(1).
23. Achildiyeva, M., & Mohinur, M. (2023). O 'ZBEK SAN'ATINING ZABARDAST HOFIZI JO 'RAXON SULTONOV. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, 14(1).

24. Achildiyeva, M., & Sabina, B. (2023). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MUSIQIY ATAMALAR. *GospodarkaiInnowacje.*, 34,
25. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. (2023). O 'ZBEK MILLIY BALETLARINING PSIXO-ESTETIK AHAMIYATI. *Gospodarka i Innowacje.*, 34,
26. Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN'ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O 'RNI VA AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5),
27. Achildieva, M., &Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA" LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. *Science and Innovation*, 1(4),
28. Xojimamatov, A., &Ikromova, F. (2022). PROBLEMS OF PERFORMING MUSICAL STAGE WORKS (ON THE EXAMPLE OF THE OEUVRE OF UZBEK COMPOSERS). *Science and Innovation*, 1(4),
29. Khojimamatov, A., &Ikromova, F. (2022). Look at the Polyphony and Theoretical Heritage of SI Taneev. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 8,
30. Hojimamatov, A. (2022). CHANG CHOLG 'USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2),
31. Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
32. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2),
33. Achildiyeva, M.,& Ikromova, F. THE SCIENCE OF MUSIC IN THE FORMATION OF HUMAN VALUES IN YOUNG PEOPLE'S LIFE. *INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH*, Vol 10 Issue02, Feb 2021ISSN 2456-5083
34. Achildiyeva, M., Xojimamatov, A., &Ikromova, F. (2022). Shashmaqomsaboqlari:" Navo" maqomixususida. *INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH*, 11(01),
35. Achildiyeva M 2021 Academic YunusRajabi and His Scientific Heristage *Annals of Romanian Society for Cyell Biology* 25(4)
36. Achildieva, M., Ikromova, F., Abutolipova, M., &Khaydarova, O. (2021). The third renaissance towards ascending. *European Scholar Journal*, 2(9),

37. Achildiyeva, M., Axmedova, N., Ikromova, F., Haydarova, O., Ibrahimova, G., & Abdurahmonov, A. (2021). TANBUR: ONE OF ANCIENT INSTRUMENTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(6),
38. Achildiyeva, M., & Ikromova, F. (2020, December). THE PLACE OF UZBEK MUSIC IN THE ART. In *Archive of Conferences* (Vol. 10, No. 1, pp. 90-93).
39. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 344-352.
40. Achildiyeva M. Ikromova F. THE BALLET "TOMARIS" IN THE CULTURE OF UZBEK BALLET PLASE AND SIGNIFICANCE SPECTRUM *Journal of Innovation, Reforms and Development* (2022) ISSN (E):2751-1731
41. Achildiyeva M, Butabayeva N, Nosirova M. A GLANCE AT THE SCIENTIFIC AND CREATIVE HERITAGE OF BORBAD MARVAZI *European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE)* Vol. 4 No. 05, May 2023 ISSN: 2660-5643
42. Achildiyeva M. The Role of Music in Forming the Artistic-Aesthetic Taste of Youth *BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT* ISSN: 2835-3579 Volume:2 Issue:7|2023
43. Xojimamatov A Evolution of Philosophical Views on Music and National Musical Heritage *BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT* ISSN: 2835-3579 Volume:2 Issue:7|2023
44. Achildiyeva M. Atkiyoeva R. O'ZBEK VA JAHON SAHNALARIDA KATTA ASHULANING O'RNI VA AHAMIYATI *Journal of Engineering, Mechanics and Modern Architecture* Vol. 2, No. 7, 2023 ISSN:2181-4384
45. Xojimamatov A. Atkiyoeva R. "VODIY BULBULI" TAVAKKAL QODIROVNING IJODIY MEROSI BUGUNGI KUN NIGOHIDA *Journal of Innovation, Creativity and Art* Vol. 2, No. 7, 2023 ISSN:2181-4287
46. Achildiyeva M. Ikromova F. THE BALLET "TOMARIS" IN THE CULTURE OF UZBEK BALLET PLASE AND SIGNIFICANCE *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development* ISSN (E):2751-1731 15-19 bet (Berlin Germany 2022)
47. Maxfuzakhon Karimova, Muyassarkhon Achildiyeva, Farangiz Ikromova (2021) USE FROM REDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MUSIC LESSONS EUROPEAN SCHOLAR JOURNAL "An open accyess, peyer reviyewyed multidisciplinary journal" 2 (4)

48. Achildiyeva M, Ikromova F Choir Art in Uzbekistan BotirUmidjonov *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (Brussel, Belgium 2022)* ISSN 2795-7683
49. Achildiyeva M, Ikromova F (2021) ABOUT MAHMUDJON TOJIBOYEVS PEDAGOGICAL ACTIVITY *GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ)* 9(5)
50. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. XX-АЧИИГ «ХАМНАФАС» ХОФИЗЛАРИ" *ENGLAND" MODERN PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY: PROBLEMS AND SOLUTION* Vol. 10 No. 1 (2023)
51. Хojimamatov A The Process of Changes and Depreciation of the Aesthetic Effectiveness of Musical Values under Globalization *Journal of Creativity in Art and Design* Volume: 2 Issue: 1 Year: 2024 11 <http://journals.proindex.uz>
52. Achildiyeva, M Historical Development of Uzbek Musical Art Stages and Ways of Improvement *Journal of Creativity in Art and Design* Volume: 2 Issue: 1 Year: 2024 20 <http://journals.proindex.uz>

QADIMGI HIND XALQINING FALSAFASIDA MAHABXORAT DOSTONINING AHAMIYATI

Nizomova O.Sh.

Toshkent Davlat transport universiteti tayanch doktoranti
nizomovaodina96@gmail.com

ANNOTATSIYA

Hindiston qadimdan o'ziga xos madaniyatga, diniy, falsafiy qarashlariga ega bo'lgan eng qadimgi davlatlardan biridir. Mahabxorat dostoni qadimgi hind xalqi madaniyati, falsafiy qarashlari haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi.

Kalit so'zlar: Qadimgi Hindiston, "Mahabxorat", "Ramayana", Bharata sulolasi, dharma, inson, abadiylik, buyuk qonun.

ЗНАЧЕНИЕ ЭПОСА МАХАБХОРАТ В ДРЕВНЕ-ИНДИЙСКОЙ ФИЛОСОФИИ

АННОТАЦИЯ

Индия – одна из древнейших стран со своей уникальной культурой, религиозными и философскими воззрениями. Эпос Махабхарата дает ценную информацию о культуре и философских воззрениях древнего индийского народа.

Ключевые слова: Древняя Индия, «Махабхарат», «Рамаяна», династия Бхарата, дхарма, человек, вечность, великий закон.

SIGNIFICANCE OF MAHABHORAT EPIC IN ANCIENT INDIAN PHILOSOPHY

ABSTRACT

India is one of the oldest countries with its own unique culture, religious and philosophical views. The Mahabharata epic provides valuable information about the culture and philosophical views of the ancient Indian people.

Key words: Ancient India, "Mahabhorat", "Ramayana", Bharata dynasty, dharma, man, eternity, great law.

KIRISH

Ming yillik tarixga ega Hindiston falsafasini o'rganar ekanmiz, avvalo, uning o'chmas tarixiga nazar tashlamog'imiz lozim. Hindiston tarixini batafsil yoritib beradigan ikkita muhim epik asar mavjud. Bular biri "Mahabxorat" (महाभारत), ikkinchisi "Ramayana" (रामायण) dostonidir. "Mahabxorat" ning shakllanishi (miloddan avvalgi 1-ming yillikning ikkinchi yarmi) Qadimgi Hindistonning ijtimoiy hayotidagi keng va ancha tub o'zgarishlarning davri edi. Qabilaviy tuzum sinfiy tartib

bilan almashtirildi, qishloq xo‘jaligi iqtisodiy tartibning asosiy tarkibiy qismi sifatida chorvachilik o‘rnini egalladi, hokimiyat monarxlar qo‘lida to‘plandi va din va falsafa sohasida Vedik qarashlar asta-sekin “mashhur” dinlar - buddizm va hinduizm bilan almashtirildi. Ilgari diniy ta‘lim ko‘proq metafizik xususiyatga ega bo‘lsa, yangi bosqichda axloqiy tabiat tushunchalari diqqat markaziga o‘tdi. Ularning eng muhimi dharma tushunchasi - axloqiy qonunlar, adolat, haqiqat, fazilat va burchning mohiyati bo‘lib qoldi. Ushbu konsepsiya o‘z rivojlanishini jarayonida hind xalqi tafakkuriga, shu jumladan, “Mahabxorat” ning barcha g‘oyaviy muammolariga ta‘sir ko‘rsatdi.

Mahabxorat” - qadimgi Hindistonning ikkita asosiy sanskrit dostonlaridan biri 74 mingdan ortiq misralar, shuningdek, uzoq nasriy parchalar yoki jami 1,8 million so‘zdan iborat bo‘lib, bu dunyodagi eng uzun epik she‘r (“Iliada” va “Odissey” ning taxminan 10 barobar kattaligi) edi”. “Mahabxorat” (महाभारत) nomi “Bharata sulolasining buyuk ertagi” deb tarjima qilinishi mumkin. “An‘anaga ko‘ra “Mahabxorat” Rishi Vyasaga tegishli. O‘zining ulkan uzunligi tufayli olimlar uning tarixiy o‘sishi va kompozitsion qatlamlarini yechishga urinib ko‘rganlilari uzoq tarixga ega. Oxirgi shakliga, milodiy III-V asrlarda qurilgan, uning markaziy asosi miloddan avvalgi 500 yilgacha bo‘lgan deb taxmin qilinadi”.

Hikoya voqealarining tarixiyliigi aniq emas. Ko‘plab tarixchilar buni badiiy asar deb hisoblashadi. Eposning sozlanishi Vedik Hindistonda tarixiy voqelikka ega, u yerda Kuru qirolligi ikkinchi ming yillikning oxiri va birinchi ming yillikning boshlarida siyosiy hokimiyatning markazi bo‘lgan.

Boshqa ko‘plab dostonlar singari, “Mahabxorat” ham insonning iroda erkinligi va taqdir irodasi o‘rtasidagi munosabatlar masalasini hal qilishga urinish atrofida qurilgan. P. A. Grintser ta‘kidlaganidek, birinchi qarashda dostonning asosiy g‘oyasi taqdirning qudratliligi va inson o‘z yo‘lida biron narsani o‘zgartira olmasligi haqidagi g‘oyadir; ammo dharma tushunchasi va dostonda sezilarli darajada to‘ldirilgan va karma haqidagi ta‘limot, asarning axloqiy dominantini tashkil etadigan, birinchi navbatda burchga oid ba‘zi axloqiy g‘oyalarni shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Garchi, mualliflarning fikriga ko‘ra, inson kelajakni o‘zgartira olmasa ham, unga hayotning mazmuni va qadr-qimmatini belgilaydigan axloqiy tanlov ham berilgan - boshqacha qilib aytganda, taqdirning irodasi ham, insonning axloqiy javobgarligi ham tan olinadi.

Bizning davrimizda “Mahabxorat” tarixiy hikoya sifatida qabul qilinadi, axloqiy ta‘limotlarga to‘la va tabiatning g‘oyat sezgir rejalari to‘g‘risida bilim olishga intilganlar uchun chindan ham oltin koni hisoblanadi. Epos tarixchi uchun ulkan ahamiyatga ega, axloqshunos va hatto shogird-teosofist uchun yanada katta ahamiyatga ega, chunki unda odamlarning pastki va yuqori “men” lari o‘rtasidagi

urush batafsil tasvirlangan. Eposning yana bir karakterli jihat qahramonlar o'zlaridagi ruhiy odam bilan moddiy odam o'rtasida jangni keltirib chiqaradi. Asardagi Dhritarashtraning o'g'li Duryodhona ko'r va moddiy kuchlarining markaziy nuqtasi bo'lib tasvirlanadi. U va uning taxtga bo'lgan da'volari, ya'ni inson ustidan hokimiyat o'rnatishga harakat qilishi ruhiy odam bilan moddiy odam o'rtasida, jism va ruh o'rtasida jangni keltirib chiqaradi. Yorug'lik kuchlarining markazida esa, Arjun turadi. Arjun haqiqat va adolat posboni sifatida ifodalanadi. Bu ikki qarama-qarshi kurashining markaziy bog'lovchi nuqtasi taqdiring irodasi bilan raqiblar tomonida harakat qiladigan Karna obrazi bilan ifodalanadi.

“Mahabxorat” dostonida ham inson tushunchasi alohida e'tiborga molikdir. “Mahabxorat” falsafasida Dharma tushunchasi asosiy qismi bo'lsada, uning bajaruvchisi dharmani dharma buyuk qonun holiga keltirgan insondir. Dharma oliy qonun burch, vazifa uning bajaruvchisi inson. Inson hayoti davomida shu dharmalar asosida harakat qiladi. Inson koinotga bevosita bog'langan hamda bu koinotdan qonunlardan chiqib ketishga harakat qiladi. Abadiylikka mukammalikka intilib yashaydi. Bunga erishishda albatta o'z dharmasini chuqur anglashi va uni bajarishi lozim. Insonning hayotida asosiy tushuncha bu karmadan halos bo'lib nirvanaga yetishishdir. “Mahabxorat” qadimgi hindiston xalqining butun bir falsafiy qarashlari haqida bir bilimlar to'plami deyishimiz mumkin. Qadimgi jamiyatlar, tuzumlar haqida ham ko'pgina ma'lumotlar berilgan.

“Mahabxorat”da tasvirlangan manzaralar, jang epizodlarining, asar personajlarining badiiy ifodasi asrlar mobaynida hind adiblarini ilhomlantirib keldi. Qadimda butun bir hind xalqining eposi bo'lgan “Mahabxorat” bugungi kunda Hindiston xalqining o'z “Mahabxorat” ini yaratishga zamin bo'ldi. Bugungi kunda Hindistonda har bir millatning o'z “Mahabxorat” i mavjuddir. Jumladan, Andhra Pradesh xalqining “Andhra Mahabharati” eposi buyuk “Mahabxorat” ning tarjimai emas, balki andhra xalqining “Mahabxorat” eposidan ta'sirlanib yaratgan yangi asaridir, shu bois uning nomi ham “Mahabxorat” nomi bilan bog'liq.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ko'rib turganimizdek, Mahabxorat dostoni bir mukammal falsafaning hamma jihatlarini mujassamlashtirgan asar sifatida hayotning, falsafaning turli jihatlarini o'rganishga, ochib berishga harakat qiladi. Har bir ilm fan deymizmi, yoki ta'limotmi, dinmi barchasida inson tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. Tabiat, jamiyat va inson tushunchalarini o'zaro bog'lab ularning ma'no mazmuni ochib berishga harakat qilamiz.

“Mahabxorat” ijtimoiy-falsafiy masalalarga to'xtalar ekan, jamiyatlarning aylanma harakatini ko'rishimiz mumkin. bir jamiyat yaxshi rivojlanadi, so'ngra

tanazzulga yuz tutadi, yana odamlar birlashib rivojlantiradi, vaqt o'tib yana tanazzulga uchraydi. Yuqorida aytganimizdek, axloq tushunchasi hind falsafasida alohida ahamiyat kasb etadi, shu jumladan, ijtimoiy qarashlarida ham. Inson yomon ishlardan o'zini tiyishi, axloqiy me'yorlarga amal qilishi, yana bir asosiy jihat bu tirik jonlarga ozor yetkazmasligi lozim. "Mahabxorat"da mardlik, jasorat, oila, er va xotin munosabatlari, farzand tarbiyasi haqidagi masalalar ham yoritilgan. mahabxoratda ijtimoiy falsafiy qarashlar tub asosida ham dharma yotadi. inson hayoti davomida dharmaga amal qilib, yashasa jamiyat ham rivojlanadi.

"Mahabxorat" dostonining yaratilishi bevosita shu davrdagi hind tafakkuri namunasi sifatida, hind xalqining ijtimoiy, falsafasiy qarashlarini bayon etadi. Ko'rinib turganidek, tashqi qiyofasi va mazmunining o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan qadimgi hind eposining yaratilish tarixi uzoq, murakkab va g'ayrioddiydir. "Mahabxorat" va "Ramayana" Hindiston va qo'shni Osiyo mamlakatlari adabiyoti va madaniyatiga ko'rsatgan chuqur va ko'p qirrali ta'siri hali ham tugamagan.

REFERENCES

1. Austin, Christopher R. Pradyumna. Lover, Magician, and Son of the Avatara. – Oxford: Oxford University Press, 2019. – 320 p.
2. Sharma R.K. Elements of Poetry in the Mahābhārata. – Berkeley: University of California Press, 1964. –177 p.
3. Gonzalez R.L. The Mahabharata and the Yugas. N.Y.: Cambridge University, 2002. – 323 p.
4. Брамин Ч.О. Размышления о Гите. – Москва: Наука, 1883. – 256 с.
5. Гринцер П. Великий эпос Индии Махабхарата, Рамайна. – Москва: Академия наук СССР, 1974. – 421с.
6. Смирнов Б.Л. Санкхья и Йога Махабхарата. Книга Двенадцатая, Шантипарва. Мокша-Дхарма (Основа освобождения). – Москва: Древнее и Современное, 2012. – 211 с.
7. Кальянов В.И., Баранников А.П. Махабхарата. Книга Первая. Адипарва / Пер. с санскр. и ком- мент. – Москва: Академия наук СССР, 1950. – 738 с.

UO‘K: 821+811.512+141.31

“MAHBUB UL QULUB” ASARINING MUQADDIMASI

Sayidolimov Javoxirbek Baxtiyorjon o‘g‘li

FarDU adabiyotshunoslik kafedrası o‘qituvchisi

javoxirsayidolimov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada Alisher Navoiyning so‘nggi asari hisoblangan “Hayrat ul-abror”ning muqaddima qismi haqida qisqacha so‘z yuritilgan. Makur asarda muallif jamiyatning turli qatlamlarining o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr bildiradi. Yoshlik chog‘ida boshlab umrining so‘nggi damlarigacha bo‘lgan oraliqda boshdan kechirganlarini badiiy usulda tasvirlaydi. Asarning muqaddima qismi esa ijodkorning ijodiy niyati aks ettirish bilan birga asosiy qismning kitobxon uchun tushunarli bo‘lishini ta‘minlaydi. Muqaddima qismidagi hamd, nat’, asar yaratilishi bilan bog‘liq jarayonlar ijodkor tomonidan ta‘kidlab o‘tiladi. “Hayrat ul-abror”ning muqaddimasi asarni tushunish yo‘lidagi dastlabki qadam hisoblanadi.

***Kalit so‘zlar:** muqaddima, ijodiy niyat, hamd, nat’, ijtimoiy hayot, tajriba, ibrat, nasr.*

ПРЕЛЮДИЯ К ПРОИЗВЕДЕНИЮ “МАХБУБ УЛЬ КУЛУБ”

АННОТАЦИЯ

В статье кратко рассказывается о предисловии к “Хайрат уль-аброр”, считающемся последним произведением Алишера Навои. В работе автор высказывает мнение об особенностях различных слоев общества. Он художественно описывает то, что он испытал, начиная с юности и заканчивая последними моментами своей жизни. Предисловие к произведению, с другой стороны, гарантирует, что основная часть будет понятна читателю, отражая творческие намерения создателя. Похвала в предисловии, нат, процессы, связанные с созданием произведения, будут отмечены создателем. Предисловие к “Хайрат уль-аброру” считается первым шагом на пути к пониманию произведения.

***Ключевые слова:** предисловие, творческое намерение, похвала, Нат, общественная жизнь, опыт, поучение, проза.*

PREAMBLE OF “MAHBUB UL QULUB”

ABSTRACT

The article briefly mentions the preamble to “Hayrat ul-abror”, considered the last work of Alisher Nawai. In the work Makur, the author comments on the

peculiarities of different layers of society. Artistically describes what they experience in the interval from youth to the end of their lives. And the preamble part of the work, along with the reflection of the creative intention of the creator, ensures that the main part is understandable to the reader. Praise in the preamble part, nat', the processes associated with the creation of the work are insisted on by the creator. The preface to the "Hayrat ul-abror" is an early step towards understanding the work.

Keywords: *preface, creative intention, praise, nat, social life, experience, lesson, prose.*

KIRISH

Alisher Navoiyning chuqur falsafiy ma'nolar, hayotiy tajriba va kuzatishlar natijasida yaratilgan "Hayrat ul-abror" asari ijodkorning kelajak avlod uchun qoldirgan "hikmatnomasi" hisoblanadi. Muallif uzoq yillik tajribalari asosida jamiyatdagi turli qatlamlarning o'ziga xos xususiyatlarini ta'riflab o'tgan. Alisher Navoiy mazkur asarida ma'lum bir toifa haqida so'z yuritgan vaqtida ularning ijobiy va salibiy jihatlarini kitobxonga yetkazishga harakat qiladi. Bu orqali o'quvchini mushohada qilish va xulosa chiqarishga undaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbek adabiyotshunosligida ko'plab tadqiqotlarga uchun asos bo'lgan "Hayrat ul-abror" asari olim va tadqiqotchilar tomonida anchayin keng o'rganilgan. Hamid Sulamon, Aziz Qaumov, Suyma G'aniyeav, Shuxtar Sirojiddinov singari yetuk olimlar tomonidan asarning tanqidiy matnlar, tabdillari ryaratilgan. Yuqoridagi olimlarning asarlariga, maqolalariga murojaat qilingan holda "Hayrat ul-abror" asari muqaddimasining badiiy va falsafiy jihatlariga e'tior qaratildi.

NATIJAR VA MUHOKAMA

Alisher Navoiy nafaqat Sharq she'riyati, balki nasrining rivojiga ham munosib hissa qo'shgan hamda yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqa olgan. "Mahbub ul-qulub" asrida bu yaqqol ko'zga tashlanadi. Navoiy o'zigacha yaratilgan mazkur turdagi manbalarni sinchiklab o'rgangan va ulardan farqli ravishda mumtoz adabiyotimizda takrorlanmas asar yaratdi. Muallifgacha bo'lgan davrda pandnoma ruhida yaratilgan asarlarda ijtimoiylikka kam e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari ma'lim bir mavzu haqida so'z yuritilganda faqat yaxshi jihatlar ayrim vaqtda yomon tomonlari haqida fikr bildirilgan. Shu bilan bir qatorda jamiyatning quyi tabaqalari haqidagi qarashlar bayon etilgan. "Mahbub ul-qulub" asarida esa buning aksini ko'rishimiz mumkin. Alisher Navoiy mazkur asarda jamiyatning ham quyi, ham yuqori tabaqalari haqida so'z yuritish barobarida ulardagi ijobiy va salbiy jihatlarini

ochib beradi. Eng asosiysi esa bunday ta'riflar muallifning boshdan kechirganlari – hayotiy tajribalari va kuzatishlari natijasida reallikdan uzilmagan holda ijodkor yashagan davrdagi ijtimoiy hayotni namoyon etadi. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asari muqaddimasida buni quyidagicha izohlaydi: “... bu xoksor parishon ro‘zgor shabob avonining bidoyatidin kuhulat zamoning nihoyatig‘acha davron voqeotidin va sipehr gardon hodisotidin va dahri fitnaangiz buqalamunlig‘idin va zamonayi rangomiz gunogunlig‘din muddati madid va ahdi baid har nav shiq va suratda aqdom urdim va tavr suluk va kisvatda yugurdum va o‘zumni yaxshi-yamon xizmat va suhbatig‘a yetkurdim. Goh mazzalat va ano vayronida shevan ko‘rguzdum va goh izzat g‘ino bo‘stonida anjuman tuzdum” [1. 5]. Yoshlik chog‘laridan to umrining oxirgi damlarigacha bo‘lgan vaqtda muallif boshidan turli sinovlar o‘tganligini va hayotiy tajribalarining oshganligini alohida e’tirof etadi. Bu hayoti tajribalarda muallif qalbida dog‘lar qoldirganligini ham unutmazlik kerak. Shu sababda asar muqaddimasini Alisher Navoiy quyidagicha yakunlaydi: “Umid ulkim, chun o‘qug‘uvchilar diqqat va e’tobor ko‘zi bila nazar solg‘aylar va har qaysi o‘z fahm-u idkorlarig‘a ko‘ra bahra olg‘aylar, bitguchiga ham bir duo bila bahra yetkurgaylar va ruhini ul duo futuhi sevundurgaylar” [1. 8]. Muallif o‘quvchidan asarni o‘qigach to‘g‘ri xulosa chiqarishini umid qiladi. O‘z navbatida asarni mutolaa qilgan kitobxon ma’lum bir toifaning sifatlarini atroflicha bilib oladi va hayotda duch keladigan qiyinchilikarni bartaraf etish mazkur asardan olgan xulosalari asosida fikr yuritadi. Shuning uchun ham mazkur asarni anglagan kitobxon o‘zgalarga o‘rnak bo‘lish, yaxshilik va yomonlikni anglash, chirkin illatlardan uzoq bo‘lish, din va e’tiqoddan sobit turish, ezgulikka intilish, poklikni saqlash, tinchlikni ezozlash kabi insoniy tushunchlarning aslida balandparvoz gap emasligini asarga amal qilganlar yaxshi anglashni tushunib yetadi. “Inson o‘zining ma’naviy dunyosi bilan boshqa mavjudotlardan ajralib turar ekan, har bir kishining insonlik darajasi ham uning ma’naviy boyligi bilan belgilanadi. Ma’naviy yetuklik kishini ezgu amalga boshlab, yovuzliklardan saqlaydi” [2. 15]. Alisher Navoiy ma’naviy dunyosini anglashimizda “Hayrat ul-abror” asari ahamiyatlidir.

Alisher Navoiy asarda keltirilgan toifalarning sifatlarini ta'riflar ekan mazkur tasnifni ma’lum ma’noda muqaddimadan boshlaydi. Ya’ni hamda qismida Yaratganning sifatlarini bayon etish chog‘ida bandalariga nisbatan mehribon ekanligini takidlash barobarida haq yo‘ldan adashganlar uchun jazo berishiga ham e’tibor qaratadi. Shu o‘rinda Yaratganning bandalariga nisbatan “jazo berishi”ni ham to‘g‘ri anglash lozim, ya’ni adolatli zot ekanligi nazarda tutilmoqda. Chunki asarda keltirilgan tabaqalarning yomon qilmishlari, xususan, yuqori tabaqadagilar uchun Yaratganning o‘zi adolatli hukm chiqarish quyi tabaqalarning qalbiga taskinlik

berishiga ishora borday taassurot qoldiradi. “Qahorlig‘i sarsari uchururga sobit va sayyor, nastarinning sochilg‘on yafrog‘lari jabborlig‘ quyuni sovurg‘a dahri g‘addor. Bayt ul-hazanning to‘kulg‘on tufrog‘lari yo‘qni bor qilmoq va borni yo‘q qilmoq aning qudratig‘a oson, bor-u yo‘q va yo‘q-u bor aning ehsonidin umidvor va qahridin haroson.” Makur jumlalarda Yaratganning “Qahor” va “Jabor”lik sifatleri bejizga keltirilmagan. Quyidagi jumlalarda esa bu yanada ochiqroq bayon etiladi. “Bir ovuch tufrog‘ini malakut xaylida xilofot taxtig‘a o‘lturmoq anga yarashur va yillar maloyikayi muqarrabing‘a peshvolik qilg‘onning bo‘ynig‘a la‘nat tavqi ul solur”.

Nat‘ qismda ham asarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda keyingi o‘rinlarga ishora borligini ko‘rishimiz mumkin. Mazkur qismda Muhammad alayhissalomning sifatleri haqida so‘z yuritilib bashariyat uchun namuna ekanligiga e‘tibor qaratiladi. “Xujasta tiynati ruhi pokdin tohir va varxunda, xilqati anosir tarkibidin pok erkani zohir. Anosirning yeli Masih anfosi va tufrog‘i Ya‘qub ko‘zining to‘tiyosi va suyi Xizr chashmasining zuloli va o‘ti Kalim daraxtining nori ishti‘oli”. Muallif Muhammad alayhissalomda barcha payg‘ambarlarning xulqi mujassamlashganligini ul zotning o‘zi ham ruhi ham pok ekanligini ta‘kidlaydi. Bundan tashqari Muhammad alayhissalomgacha bo‘lgan payg‘ambarlarning qissalari Muhammad alayhissalom ummatiga ibrat ekanligi, ya‘ni oldingi ummatlar xatosini takrorlamaslik uchun bayon qilingan. Alisher Navoiy ham hayotiy kuzatishlari orqali kelajak avlodning to‘g‘ri yo‘lda sobit bo‘lishlari uchun o‘ziga xos dasturilamal sifatida mazkur asarni yaratdi. Bizningcha Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”da keltirilgan tabaqalarning afolini umumlashtirib ularning yaxshi xulqlarini o‘zlashtirganlarning jisman va ruhan poklanishligiga ishora qilganday. Chunki asarda keltirilgan tabaqalarning yaxshi fe‘llari islomiy qadriyatlar asosida shakllanganligini ham unutmashlik lozim.

Nat‘ qismidan so‘ng muallif asar yozish sabablarini bayon etadi. Alisher Navoiyning badiiy mahorati tasvir etilayotga voqealarni ham nasrda, ham nazmda ta‘sirchan usulda berishidir. Quyidagi to‘rtlikda buni ko‘rishimiz mumkin.

Gahe topdim falakdin notavonlig‘,
Gahe ko‘rdim zamondin kamronlig‘,
Base issig‘, sovug‘ ko‘rdim zamonda,
Base achchig‘, chuchuk tottim jahonda.

“Alisher Navoiy tarix zarvaraqlarida mangu naqshlanishiga uch asos sababligini yaxshi bilamiz. Bular: uning benazir istedodidan darak beruvchi buyuk asarlari, mashhur davlar arbobi bo‘lgani va nihoyat, ulug‘ pir maqomiga ko‘tarilgan xulq-atvori” [3. 68]. Shu jihatdan ham mazkur asar Navoiy shaxsiyatini o‘rganishda ahamiyatli, sababi “Hayrat ul-abror” asarida akademik Sh.Sirojiddinov takidlab

o'tgan uch xislatni o'zida namoyon etadi. Alisher Navoiy boshdan kechirgan barcha mushkulotlarda ilm orqali najot topganligini alohida e'tirof etadi. "Iflos va notavonlig'hangomida, ya'ni falokat va nomurodlig' ayyomida goh ilm madorisida safi niolda yer tuttum, goh ulamo majlisida ilm nuridin ko'ngullni yoruttum". Asarda keltirilgan tabaqalarning ulug'likka erishishlariga ilm sabab bo'lgan bo'lsa, yomon illatlar ilmga amal qilmaslik natijasida yuzaga kelganligi mahorat bilan tasvirlangan. Bundan tashqari ijodkor ayrim vaqtlarda fe'li yomon insonlar tufayli aziyat chekkanligini ham takidlaydi: "Va goh laimlar ollida xorlig'li va goh arzollar ollida bee'tiborlig' ko'rdim". Navoiy mansab pilapoyalaridan yuqori ko'tarilgan chog'larida bir dam bo'lsa-da, xalq ahvoliga e'tiborsiz bo'ladi. "Ammo shug'ul va kamronliq chog'ida va ko'ngul mulki xalq hujumi bulg'og'ida va goh amorat masnadida o'lturdim va hukm va hukumat mahkamasida dodxoh so'rdim va goh podshoh nayobatida taqarrub tuzdum va nazororagar elga o'zumni komrom ko'rguzdim". Bunday hayotiy tajribaga – yo'qsillik hamda amaldorlikni ko'rgan ijodkor asardagi barcha voqealarni haqqoniy tasvirleydi. Og'ir kunlar boshiga tushganda atrofida sodiq do'stlari qolgan, mol-davlat, mansab nasib qilganda esa parvonalar ko'payganligi, odamlarning yaxshi-yomon xislatlarning guvohi bo'lgan. Xalq ko'nglini topa olgan Navoiy siyosiy kurashlar, harbiy urushlar davrida hayotiy tajribalari asosida bir-biriga qarshi tomonlarni ham murosaga keltirgan. "Va goh salotin muxolafatlarida arog'a kirdim va munozaatlarni muvafaqatg'a qaror berdim. Goh harb ma'rakasig'a o'zumni soldim va jahl va nodonliq tuhmatin bo'ynumga oldim". Alisher Navoiy hari bir narsadan yaxshi xulosa chiqarganligi va hayoti davomida qo'llaganligi yuqoridagi fikrlarda ham ko'rishimiz mumkin. Shunday bo'lsa ham muallif o'zini har vaqt kamtarlikni o'ziga kasb qilib olganligi mazkur asar muqaddimasida namoyon bo'ladi. "Ammo ba'd: fuqoroning gadoyi va g'aroyib masturalarning chehrakushoyi al-faqir ul-haqir Alisher al-mulaqqab bin-Navoiy". Alisher Navoiy boshqa asarlarida farqli ravishda mazkur asarni uch qismga ajratadi:

1. Har xil toifa odamlar fe'l atvori va ahvoli kayfiyati.
2. Yaxshi fe'llar va yomon xislatlar xosiyati.
3. Xilma-xil foydalar va hikmatli so'zlarning ko'rinishi.

Bunday qismlarga bo'linish ma'lum ma'noda asar g'oyasini ham namoyon etadi. Alisher Navoiy muqaddimada jamiyat a'zolarining barchasi bir xatoni takror qilmasliklariga e'tibor qaratadi. Aql egalar boshqalarning ishidan o'rnak olishlarini ta'kidlaydi. "Va har nav el suhbat va xususiyatiki, alarg'a havas bo'lg'ay, bu faqirning tajribasi alarg'a bas bo'lg'ay". Shunda kelib chiqqan holda muallif asarga "Mahbub ul-qulub" deya nom berilganligini aytib o'tadi.

Asarning asosiy qismiga e'tibor qaratsak, barcha tabaqalarning avval yaxshi xislatlari haqida so'z yuritilgandan so'ng insonni insoniylikdan begona qiladigan sifatlar bayon etiladi. Bu ham ijodkor shaxsiyatini tushunishimizda katta ahamiyatga ega. "Shoirning badiiy mahoratini va ijodiy muvaffaqiyatini to'liq anglash uchun uning estetik prinsiplarini aniqlash kerak. Buni bilish uchun esa san'atkorning borliq, jumladan, inson haqidagi fikrlarining falsafiy asoslarini bilish zarur" [2. 7]. Hazrat Navoiy har qanday holatda ham birinchi navbatda xalq mafaatlari ko'zlagani, hamisha insonlarni tushungan, ularga nisbatan chiroyli xulq bilan muomala qilgan. Xondamirning "Makorim ul-axloq" asari bilan tanish kitobxon buni holni yanada yaxshiroq anglaydi.

XULOSA

Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" asari ijodkorning hayotiy tajribalariga kuzatishlari natijasida yaratilgan. Asar muqaddimasi asar mohiyatini ochish va voqelikni baholashda kitobxon uchun o'ziga xos dastur vazifasini bajaradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.
2. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1979.
3. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy. Manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. – Toshkent: Akademnashr, 2011

O‘ZBEKISTON VA HINDISTON MADANIY ALOQALARINING TARIXIY ILDIZI (ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR MISOLIDA)

Mahliyo Turdixo‘jayeva Muqimxo‘ja qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

tayanch doktorant

E-mail: turdixujayevamakhliyo@gmail.com

ORCID-ID:0009-0008-5599-9647

ANNOTATSIYA.

Maqola O‘zbekiston va Hindiston madaniy aloqalarining qadim o‘tmishiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda Buyuk Ipak yo‘lida joylashgan Farg‘ona vodiysining qadimgi shahri Quva topilmalari tahlil etilgan. Undagi arxeologik artefaktlar orqali vodiyning qadimda Hindiston bilan o‘zaro iqtisodiy-madaniy, san‘at, hunarmandchilik aloqalari va almashuvlari yaxshi yo‘lga qo‘yilganligi tahlil etilgan. Quva topilmalari Hindistonda aniqlangan arxeologik topilma materiallarga solishtirish orqali ikki mdaniyatning aynan o‘xshashligi, o‘rta asrlarda ikki hudud madaniy-iqtisodiy aloqalarining yanada rivojlanganligi haqida fikrlar bildirilgan.

***Kalit so‘zlar:** Qadimgi Farg‘ona, buddaviylik, Quva, Hindiston, Quva ibodatxonasi, Shri Devi.*

ABSTRACT

The article is devoted to the ancient past of the cultural relations between Uzbekistan and India, in which the findings of the ancient city of Kuva, located on the Great Silk Road, in the Fergana Valley, are analyzed. Through the archeological artefacts in it, it is analyzed that the valley had good economic-cultural, art, handicraft relations and exchanges with India in ancient times. By comparing the finds of Kuva with the archaeological finds found in India, opinions were expressed about the exact similarity of the two cultures and the further development of the cultural and economic relations between the two regions in the Middle Ages.

***Key words:** Ancient Ferghana, Buddhism, Kuva, India, Kuva temple, Sri Devi.*

KIRISH

Bugungi kunda davlatlararo munosabatlarning tarixiy ildiziga nazar solish o‘zaro munosabatlarda muhim xususiyatlardan hisoblanadi. O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini kengaytirish har ikki davlatning uzoq muddatli manfaatlariga javob beradi va Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalarining tarixiy o‘zaro bog‘liqligini qayta tiklashga hizmat qiladi. Bugungi kunda O‘zbekiston–Hindiston munosabatlarida, ikki tomonlama hamkorlikning maqsadli yo‘nalishlarini belgilab beruvchi 100 dan ortiq davlatlar, hukumatlar va

idoralararo hujjatlar qabul qilinganligi bejiz emas. Ikki mintaqada o'rtasidagi umumiy tarixiy meros, xalqlar o'rtasidagi yaqinlik qadim tarixga borib taqaladi. Tarixga nazar tashlaganimizda ham arxeologik tadqiqotlar bergan ma'lumotlar qadimgi davrlarda Hindiston va O'zbekiston, xususan Farg'ona vodiysi o'rtasidagi iqtisodiy-madaniyat, san'at, hunarmandchilik aloqalari va almashuvlari yaxshi yo'lga qo'yilganidan darak beradi. Farg'ona vodiysining arxeologik obyekti hisoblanmish Quva topilmalari Hindistonda aniqlangan arxeologik topilma materiallarga aynan o'xshashligi, o'rta asrlarda ikki hudud madaniy-iqtisodiy aloqalarining yanada rivojlanganini, madaniyat va san'atni yuksalganini ko'rsatadi. Quva o'ziga xos yirik iqtisodiy, savdo-sotiq shahri bo'lganligi ham barchamizga birdek ma'lum. Shu bilan birga Quva madaniy markazlardan biridir. U karvon yo'llari tutashgan chorrahadagi shahar edi. Bundan tashqari Quvada dunyodagi yirik dinlar –otashparastlik, budda va musulmonlik kabilar ildiz otgan edi. Buddizmning keng yoyilishi ushbu shaharning Hindiston sivilizatsiyasiga yaqin elementlar bera olishini anglatadi. Taniqli arxeolog V.A. Bulatova rahbarligidagi arxeologik ekspeditsiya Quvada Markaziy Osiyoda yagona budda ibodatxonasi bo'lganligi aniqlangan. Budda madaniyatiga oid bu namunalarda Toshkent muzeylarida saqlanadi va ular VII asrga oid deb taxmin qilingan[5:51]. Buddizm O'rta Osiyoga o'zining kelib chiqish markazi bo'lgan Hindistondan Baqtriya orqali kirib kelgan. Buddistlar ibodatxonasining me'moriy detallari va Ayritomdagi musiqachilar ishtirokidagi mashhur friz topilmalari, Qoratepa g'or monastirida olib borilgan qazishmalar Baqtriyaning ham katta rol o'ynaganiga shubha tug'dirmaydi. Buddizmning tarqalishi va buddizm madaniyati va san'atining gullab-yashnashida. Qoratepadagi arxeologik materiallar Baqtriya monastiri rohiblarining kushon va hind tillari va yozuvlarini bilishlari haqidagi yozma manbalardan olingan ma'lumotlarni tasdiqlaydi. Ular O'rta Osiyoning turli hududlariga–Choch, So'g'd, Farg'ona, Marg'iyona, Sharqiy Turkistonga buddizm ta'limotini targ'ib qilish uchun borib, u yerda monastir va ibodatxonalar, tashkil etgan, ularning ba'zilar sovet arxeologlari tomonidan topilgan va o'rganilgan[1:58].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ibodatxonadan topilgan budda dini ilohlari (xudolari) bilan bog'liq siymolarning haykallari va tasvirlari shunga guvohlik bermoqda. Bunga ikki odam bo'yi bilan barobar keladigan haybatli budda haykalini va budda dinidagi Shri-devi, Manchjushri ilohlari siymolari haykallari kiradi. Haykallarni yuz tuzilishi yoki boshqa belgilarida O'rta Osiyo budda yodgorliklaridagi ana shunday topilmalar bilan umumiy o'xshashlik bor. Lekin Quvadagi budda obrazlarini siymolarida ozgina bo'lsada turkiylashgan tip tasviri berishga harakat qilingan. Bu Quva budda ibodatxonasigagina xos bo'lgan narsadir. Bu ibodatxona Farg'ona vodiysi uchun

noyob topilmadir. Sababi hozirga qadar vodiya budda dini ibodatxonasi topilganicha yo'q. Qolaversa, Quva Farg'ona aloqalari savdo yo'li bo'yidagi yirik shahar edi. Bu shaxarda g'arbdan, sharqdan va janubdan kelayotgan savdo karvonlari qo'nim topganlar. Balkim, bir tomondan Quva budda ibodatxonasi xuddi shu yo'lovchi dindorlarga mo'ljallab qurilgan bo'lishi extimoldan xoli emas[6:53]. T.K.Mkrtichev bu yo'nalishda Quva majmuasida ishlagan, ammo bu bo'yicha batafsil tahlil hali mavjud emas. Qiyosiy tahlilga kelsak, budda yodgorliklarini qazish bo'yicha bir qator nashrlar mualliflari qo'shni mamlakatlarning budda san'ati bilan taqqoslashdi[2:196]. Mintaqalararo aloqalarning mustahkamlanishi Markaziy Osiyo mintaqalari iqtisodiyotining rivojlanishiga turtki bo'ldi. Hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ayirboshlash markazlari paydo bo'ldi. Uzoq mamlakatlar bilan savdo aloqalari mavjudligini Baqtriya, Marg'iyona va Farg'onadan topilgan oltin va kumushdan yasalgan idishlar, Mesopotamiya, Elam, Eronning shimoli-sharqida, Balujiston va Xarappada yasalgan bronza buyumlari dalolat beradi. Biroq ular G'arbiy Osiyo aholisi va Hind sivilizatsiyasi vakillarining O'rta Osiyoga ko'chishi natijasida mintaqaga kirib kelishi mumkin edi[4:75-83].

Quvani arxeologik o'rganishda B.A.Latinin, V.D.Jukov, A.N.Bernshtam, V.A.Bulatova, I.A.Axrarov va Yu.A.Zadneprovkiylarning hizmatlari katta[5:44]. Bundan tashqari turli yo'nalishlar bilan Quvani o'rgangan tadqiqotchilar talaygina ularning ishlari ham arxeologik tadqiqotlar bilan birgalikda o'rganilmoqda. Buddizmning teskari yo'nalishda tarqalishining ikkinchi to'lqinini ko'rsatadigan artefaktlar mavjud. Ular orasida peshonasida uchinchi ko'zi bo'lgan mo'ylovli Buddaning boshi bo'lgan haykalning tanasi bor. Farg'ona vodiysidan Xitoy uslubi ta'sirida mahalliy hunarmandlar tomonidan yasalgan bu haykal VII asrga oid Quva buddistlar ibodatxonasini qazish jarayonida topilgan. Quva ibodatxonalari masalalari ham yuqoridagi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan bo'lib, T.K. Mkrtinchevning 1997-yilda nashr etilgan ilmiy tadqiqoti ushbu muammoga bag'ishlangan Bundan tashqari Tigran Konstantinovichning doktorlik ilmiy ishida budda ibodatxonalari va ularning joylashuvi xususida ham fikrlar beriladi. X-XI asrlarga tegishli madaniyat o'chog'i ostida budda ibodatxonasi qoldiqlari topilgan. U tabiiy bo'rtib chiqqan tepalikka qurilgan bo'lib, eng cho'qqisiga toshdan qilingan zina-poya yetaklaydi va mahalliy aholi yashash joyidan balandlikda turib, shaharning uzoq nuqtalaridan ko'rinib turadi. Shaharchaning aholi yashovchi dahalaridan u zina-poyali poydevor ustidagi paxsadan qurilgan devor bilan ajratilgan. Shahristonning shimolida VII asrga oid ibodatxona yoki ibodatxona majmuasi bo'limlari qazilgan bo'lib, ular qator kirish xonalari, markaziy hovli va ikkita katta zaldan iborat bo'lgan. Quvadagi qazishmalar natijasida butun turar-joy maydoni topilgan, ammo ekspeditsiyaning

asosiy kashfiyoti buddaviylik ibodatxonasi edi. Buddistlar majmuasining qoldiqlari keyingi davrlar qatlami ostida, shu jumladan X–XI asrlarga oid uch qavatli dafn marosimlari ostida yashiringan. Ibodatxonani qurish paytida paxsa va loy g‘ishtlardan foydalanilgan, pollari yog‘och bo‘lgan. Uning qudratli devorlari ikki metr dan oshmagan balandlikda saqlanib qolgan, shunga qaramay bu topilma tadqiqotchilarga buddistlar majmuasini qayta qurish imkoniyatini berdi. Ibodatxonaning janubiy qismida, chuqur joyida, yog‘och soyabon ostida ayvon mavjud bo‘lgan. Ayvon devorida haykallar uchun fon bo‘lib xizmat qilgan rasm qoldiqlari topilgan. Ikki otlilik haykalning parchalari va ularga hamroh bo‘lgan askarlar ham bor edi. Ibodatxonada monumental haykallarning parchalari, turli xudolarning haykallari mavjud bo‘lib, ular Farg‘ona vodiysida buddizmning tarqalganini tasdiqladilar. Kirish eshigi yaqinida, bo‘yi ikki yarim bo‘lgan Buddaning loydan yasalgan haykali ko‘milik qolgan. Yaqin atrofida boshqa buddaviylikka oid haykallar parchalari, shu jumladan buddaviylik himoyachisi, qora rangga bo‘yalgan Shri Devi ma‘budasining boshi topilgan. Olimlar ibodatxonaning ayvondagi haykaltaroshlik kompozitsiyasida Shri Devi boshchiligidagi Mara iblisleri rahbarlari Buddaning dushmani bilan bo‘lgan ezgu kuchlarning kurashi tasvirlangan deb taxmin qilishmoqda. Tadqiqotlarda Maheshvara (“Buyuk Xudo”) va Budda Vajraharaning tasvirlari topilgan. Ko‘rinishidan, dastlabki o‘rta asrlarda Quvada Vajrayana yo‘nalishi bilan bog‘liq budda ibodatxonasi bo‘lgan – bu mustaqil qarash, xulq-atvor va meditatsiya amaliyoti bilan Buyuk Mahayana yo‘lining motivatsiyasi va falsafasiga asoslangan tezkor o‘zgartirish usuli. Mutaxassislarining tadqiqotlariga ko‘ra, Quvada buddaviy ibodatxonaning bunyod etilishi buddaviylikning yangi yo‘nalishi–Vajrayana bilan bog‘liq bo‘lib, uning shakllanishi I ming yillik o‘rtalariga borib taqaladi.

Quva ibodatxonaidagi haykallar Baqtriyada keng tarqalgan loy ganch plastikasi texnikasi asosida ishlangan, o‘ziga xos jihati ko‘zlar o‘rniga qora va oq toshlar qadalishidadir. Quvada buddaviylik majmuasi qurilishining aniq sanasi hali aniqlanmagan. Uning gullab-yashnagan davri VII asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri kelganligi va VIII asrda ibodatxona arablar tomonidan vayron qilinganligi aniqlangan. Ibodatxona xarobalarida inshootni yo‘q qilgan yong‘inning aniq izlari bor. Boshida toj kiygan itoatkor ma‘buda Shri Devi obrazi ham prototiplarga ega: Hindiston, Shinjon, Afg‘onistonda bir vaqtda va Markaziy Osiyoda undan kattaroq - ona ma‘buda Markaziy Osiyoning kichik koroplastikasi buni bizga mahalliy yoki “yunon-baqtriya madaniyatiga xos” degan talqinda beradi. O‘rta Osiyoda arablargacha bo‘lgan me‘morchilik yodgorliklarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, paxsa inshootlari keng tarqalgan. Xorazm, So‘g‘d, Choch, Toxariston saroylari va qal‘alarining poydevorida mustahkam tayanch platformasi bo‘lgan. Ularning balandligi turlicha

bo'lib, ba'zan 15–16 m ga yetgan (Varaxsha, Bolalik-tepa, Panjikent va boshqalar). Binoning arxitekturasi va rejalashtirish texnikasi yangi emas va asrlar davomidagi an'analarga ega. Baland platformalardagi ibodatxonalar Eron, Hindiston va Sharqiy Turkistonda ma'lum. Xatto A.Gryunvedel Hindistondagi buddist me'morchiligining eng qadimiy shakli ayvonlardagi ibodatxona ekanligini ta'kidlagan. Platformaning sharqiy tomonida, polda, dumba yaqinida matoga o'ralgan va oyoqlarigacha ko'p burmalar bo'lib tushgan odam haykalining pastki qismi topilgan. Burmalar va pardalarning shakli, ularning plastik ifodasi bizga Hindiston va Sharqiy Turkistonning buddist haykalidan tanish. Chor-xon tipidagi shiftlar O'rta Osiyo, Hindiston va Afg'onistonda keng tarqalgan. Ular turar-joy va diniy qurilishda ishlatilgan va hozir ham qo'llanilmoqda.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bu aloqalar shunday qadimiy an'anaga aylanganiki ularni bugungi kunda bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Ikki mintaqa o'rtasidagi madaniy aloqlarning tarixiy ildizini birgina Farg'ona vodiysi arxeologik topilmalari yaqqol tasdiqlab turibdi. Mintaqalararo aloqalarning rivojida tarixiy bilimlar rivojini inobatga olish ikki tomonlama hamkorlik munosabatlarida tayanch vazifasini o'taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Булатова В.А. Древняя Кува. Т., 1972
2. Литнинский Б.А. Буддизм в Средней Азии (проблемы изучения) //Критика и библиография –М., 2001
3. Мкртычев Т.К. Кувинский храм: проблемы интерпретации //Верования и культуры домусульманской Средней Азии. –М., 1997.
4. Мавланов У.М., Эшов Б.Ж. Из истории формирования и развития древнейших путей Средней Азии // Tractus Aevorum –Т., 2019
5. Матбобоев Б.Х. Қадимги Қува (Қубо) //Ўзбекистон тарихида Қадимги Фарғона –Т.,2001.
6. Матбобоев Б.Х., Шамсутдинов Р.Т, Мамажонов А. Буюк ипак йўлидаги Фарғона шаҳарлари. –А., 1994.

“БИР МАКОН, БИР ЙЎЛ” ЛОЙИХАСИДА КОРЕЯ РЕСПУБЛИКАСИНИНГ ИШТИРОКИ

Душаева Гулбахор Зоҳиджон қизи

Тошкент шаҳридаги Аджу университети Илмий котиби

Тошкент давлат шарқшунослик университети мустақил тадқиқотчиси

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Жанубий Кореянинг “Бир макон бир йўл”га муносабати кўриб чиқилиб, собиқ президент Пак Кин Хенинг “Евросиё ташаббуси” ва президент Мун Чжэ Иннинг “Янги Шимолий сиёсати”га ҳамда ҳозирги президент Юн Сок Ёль сиёсатига эътибор қаратилади. Кореянинг ушбу лойиҳага бўлган қизиқиши транспорт коридорларининг Шимолий ҳудудларга яъни Россия, Моғулистон, Марказий Осиё ва Европагача очилишига ҳамда Корея ярим оролини унга жалб этишига интилишига асосланади. Ҳозирги кундаги дунёдаги зиддиятли вазиятлар пайтида Жанубий Корея учун энг яхши йўл “Бир камар ва йўл”ни ўзининг ташқи сиёсий ташаббуслари билан боғлаш йўллари излаш бўлиб қолмоқда.

Калит сўзлар: *“Бир макон бир йўл”, “Евросиё ташаббуси”, “Янги Шимолий сиёсати”, транспорт коридорлари, Хитой, Корея ярим ороли, Евросиё, Марказий Осиё.*

АННОТАЦИЯ

В этой статье рассматривается реакция Южной Кореи на программу «Один космос, один путь», уделяя особое внимание Евразийской инициативе бывшего президента Пак Кын Хе и новой северной политике президента Мун Чжэ Ина, а также политике нынешнего президента Юн Сок Ёля. Интерес Кореи к этому проекту основан на открытии транспортных коридоров в северные регионы, то есть в Россию, Монголию, Среднюю Азию и Европу, и желании привлечь к нему Корейский полуостров. В современном мире конфликтов лучшим курсом действий Южной Кореи остается поиск способов связать инициативу «Пояс и путь» с ее внешнеполитическими инициативами.

Ключевые слова: *«Одно пространство, один путь», «Евразийская инициатива», «Новая северная политика», транспортные коридоры, Китай, Корейский полуостров, Евразия, Центральная Азия.*

ABSTRACT

This article examines South Korea's response to the One Space, One Road program, focusing on former President Park Geun-hye's Eurasian Initiative and President Moon Jae-in's New Northern Policy, as well as the policies of current

President Yoon Seok-yeol. Korea's interest in this project is based on the opening of transport corridors to the northern regions, that is, to Russia, Mongolia, Central Asia and Europe, and the desire to attract the Korean Peninsula to it. In today's world of conflict, South Korea's best course of action remains to find ways to link the Belt and Road Initiative to its foreign policy initiatives.

Key words: “One Space, One Road”, “Eurasian Initiative”, “New Northern Policy”, transport corridors, China, Korean Peninsula, Eurasia, Central Asia.

КИРИШ

Жанубий Кореянинг “Бир макон бир йўл” билан ҳамкорлиги собиқ президент Пак Кин Хенинг “Евросиё ташаббуси” ва президент Мун Чже Иннинг “Янги Шимолий сиёсати”га ҳамда ҳозирги президент Юн Сок Ёль сиёсати билан боғлиқлиги Кореянинг ушбу лойиҳага бўлган позициясини кўрсатиб беради. Пекиннинг ҳам ички, ҳам қўшни мамлакатлардаги сиёсий ва ижтимоий барқарорлик билан бандлигини ҳисобга олсак, Пекин учун иқтисодий мақсадлар кенгроқ миллий мақсадларнинг қуйи таркибий қисмлари эканлигига шубҳа йўқ, бу эса ўз навбатида геосиёсий ҳисоб-китоблар учун асос яратади. БМБЙ Пекин раҳбариятининг ўз хоҳиш-истакларини яхшироқ акс эттириш учун атрофдаги худудларни тартибга солувчи қоидалар ва меъёрларни шакллантиришга уринишини англатади. 2013 йилда Си Цзиньпин БМБЙ лойиҳасини эълон қилгандан сўнг, Сеул Эвроосиё ташаббусини (ЭОТ) Шарқ ва Ғарб алоқаси бўйича ўз қарашлари сифатида эълон қилди. Қадимги Ипак йўлини қайта тиклашга чақирар экан, Президент Паркнинг асосий мақсади Корея ярим оролини Марказий Осиё ва Европа билан иқтисодий, сиёсий ва ижтимоий ўзаро алоқалар оқимини қўллаб-қувватлаш эди. Унинг сиёсати, биринчи навбатда, ярим оролнинг бўлиниши билан боғлиқ сиёсий ва хавфсизлик мақсадларига асосланган эди. [1] Паркнинг вориси Президент Мун Хитойнинг БМБЙ лойиҳасини қўллаб қувватлаган ҳолда, ўзининг ташқи сиёсатида “Янги шимолий сиёсат” (ЯШС) эълон қилди, у Эвроосиё давлатлари ўртасида ўзаро ҳамкорликни ривожлантиришни ўз ичига олган “Янги Шимолий сиёсат”ни амалга ошириш орқали ўзаро ҳамкорликнинг истиқболлари тўғрисида ўз қарашларини таклиф қилган. Тинчлик ва умумий фаровонлик манфаатлари учун шимолий иқтисодий ҳамжамиятни шакллантиришни кўзда тутди. Ушбу лойиҳага Корея Республикаси 2018 йилнинг 1 майида расман кирган ҳисобланади. Ҳозирги кунда ҳам Кореянинг ташқи сиёсатида президент Юн бошчилигида БМБЙга нисбатан ижобий муносабатда ва бунда Корея ҳам

ўз ташаббуслари билан ҳамкорлик қилиб келаётганлигини гувоҳи бўлимиз мумкин.

Асосий Қисм

2013-йил сентябрь ойида Хитой икки йўналиш – Ипак йўли иқтисодий камари ва XXI аср денгиз ипак йўлини ўз ичига олган “Бир макон, бир йўл” ташаббуси бошланганини эълон қилганида, Пак Кин Хе маъмурияти Хитой ташаббусини кўллаб-қувватлади ва ўша йилнинг октябрь ойида бошланган ва Евроосиёда интеграцияга оид Жанубий Корея қарашларини ифодаловчи Евроосиё ташаббуси (Евроосиё ташаббуси Жанубий Кореяни Шимолий Корея, Россия, Хитой, Марказий Осиё ва Европа билан боғлайдиган “Ипак йўли” экспресс йўналишини қуриш ва шу орқали Евроосиё электр тармоқларини интеграциялаш ва нефт ва газ қувурларини қуриш орқали энергия тармоғини яратишни назарда тутди.) билан боғланиш йўллари излаш йўллари белгилаб берди. [2] Шу билан биргаликда “Бир макон бир йўл” ташаббуси Кореяга нима фойда бериши ҳам аҳамиятлидир. Сабаби шундан келиб чиққан ҳолда Хитой ва Жанубий Кореянинг ташаббуслари уйғунлигида ҳамкорлиги ривожланиб бориши муҳимдир. Аслида ушбу ташаббус Корея ярим ороли ва Шимолий-Шарқий Осиё учун иқтисодий имкониятлар яратишига ҳам кўзда тутилган. “Кўриш ва ҳаракатлар” режасига кўра, учта шимоли-шарқий вилоятлар (Лиаонинг, Жилин ва Жеилонгжианг) Россия, Мўғулистон ва Узоқ Шарқдаги бошқа ҳудудларни боғловчи денгиз-қуруқлик “деразаларига” айланади. [3] Шу нуқтаи назардан, Корея ҳукуматининг Евроосиё ташаббуси билан ҳамкорлик қилишнинг кўплаб нуқталари ва “Бир макон, бир йўл” Шимолий-Шарқий Осиё ҳамда марказий Осиё билан иқтисодий зонасини барпо этишга қаратилган йўналишларни ўз ичига олади. Шунингдек, Евроосиё ташаббусининг асосий лойиҳаларидан бири Корея ярим оролида тинчликни мустаҳкамлаш учун асосий ўқлари сифатида транс-Корея темир йўли ва қитъалараро темир йўллари ўз ичига олган Ипак йўли экспрессини қуриш ҳисобланган. Хитой аллақачон Шимолий Кореяда транспорт инфратузилмаси билан боғлиқ бир нечта бизнес лойиҳаларини, масалан, автомобил ва темир йўллари илгарисурган, шунинг учун Жанубий Кореянинг ушбу лойиҳаларда иштирок этиш имконияти мавжуд бўлган.

Икки ташаббус орқали ҳамкорликни ривожлантиришда Пак Кин Хе маъмуриятининг (2013–2017) ХХРга нисбатан ижобий муносабати, шунингдек, изчил олиб борилаётган Евроосиёга чуқурроқ кириб бориш сиёсати муҳим рол ўйнади. Жанубий Корея маъмурияти томонидан ўзининг ва хитойлик

ташаббусларини бирлаштириш натижасида синергия эффектига ишонди. [4] Пак Кин Хе ҳукумати Корея ярим оролини ядросизлантириш ва КХДРни минтақавий иқтисодий ҳамкорликка жалб этишда Хитойдан ёрдам олишга интилди. Сеул Пекин билан икки томонлама эркин савдо шартномасини яратиш тўғрисида битим тузишдан манфаатдор эди, бу хитойликлар томонидан иккала давлатнинг Эвросиё ташаббусларини боғлаш учун асос сифатида белгиланган. [5]

2015 йил октябрь ойида Корея Республикаси Президенти Пак Кин Хе ва Хитой ҳукумати раҳбари Ли Кетсян ўртасида бўлиб ўтган саммит чоғида томонлар Жанубий Кореянинг Евроосиё ташаббуси ва Хитойнинг “Бир макон, бир йўл” лойиҳаси ўртасидаги ўхшашликни қайд этиб, минтақавий ривожланиш ташаббуслари ва ташқи бозорни ривожлантириш бўйича ўзаро англашув меморандумини имзоладилар. Бироқ Шимолий Корея ҳукумати 2016 йил февраль ойида узоқ масофали ракетани синовдан ўтказди кейин эса Жанубий Корея раҳбариятининг 2017 йилда узоқ масофали ракетани синовдан ўтказган КХДРдан келаётган ракета таҳдидини зарарсизлантириш учун ўз ҳудудида АҚШнинг (ТНААД) ракетага қарши мудофаа тизимларини жойлаштириш тўғрисидаги қарори туфайли қўшма режаларни муҳокама қилиш ва амалга ошириш тез орада тўхтатилди. Ушбу қарор Хитойнинг кескин салбий муносабатига сабаб бўлди, у Жанубий Кореянинг маданият, кўнгилочар ва туризм соҳаларига қарши иқтисодий санкциялар киритди. Шу билан биргаликда, Шимолий Кореянинг тўртинчи ядровий синови туфайли Жанубий ва Шимолий Корея ўртасидаги муносабатлар кескинлашгани сабабли, “Ипак йўли экспреси” (Silk Road Express) амалга ошириб бўлмайдиган орзу бўлиб қолди. [3]

Шунга қарамай, Жанубий Корея ҳам, Хитой ҳам “Бир макон, бир йўл” ва “Евросиё ташаббуси”ни боғлаш истагига бўлган. Шимолий Кореянинг ядровий ривожланиш муаммоси туфайли Транскорея темир йўли қурилиши амалга оширилмаса ҳам, Жанубий Корея-Хитой ҳамкорлигининг бошқа кўплаб усуллари мавжуд бўлиб, Корея нафақат ривожланаётган мамлакатларда инфратузилмани қуришда иштирок этиши, балки Хитой билан тақсимлаш, ресурсларни ривожлантириш ва янги саноат соҳаларида саъй-ҳаракатларни бирлаштириши мумкин. Бундай ҳамкорлик ҳар икки томон учун ҳам фойдали ҳисобланади. [6]

Жанубий Корея ва Хитой муносабатларидаги кутилган илиқлашув пайти президент Мун келгандан сўнг содир бўлди. 2017 йилнинг май ойида Корея Республикаси Президенти лавозимида Пак Кин Хе ўрнига келган Мун Чже Ин

Хитой билан муносабатларни нормаллаштириш, АҚШ ва Хитойга нисбатан мувозанатли сиёсат куриш йўналишини белгилаб берди. Мун Чже Ин “Бир макон, бир йўл” ташаббусини қўллаб-қувватлади ва уни Евроосиё ташаббуси ўрнини босувчи “Янги Шимолий” ва “Янги Жануб сиёсати” – мамлакат янги раҳбариятининг икки томонлама йўналиши билан боғлаш йўналишида ҳамкорлик қилиш имкониятларини излашдан манфаатдорлигини билдирди. [7] Мун Чже Иннинг муносабати Хитойда ижобий қабул қилинди.

“Янги Шимолий сиёсат” доирасида йўналишлар саноат ва иқтисодий хусусиятлари бўйича уч гуруҳга бўлинган бўлиб, Евроосиё мамлакатлари билан иқтисодий ҳамкорликни ривожлантириш режалаштирилган: Россия, Хитой (биринчи навбатда, учта шимоли-шарқий вилоят) ва Марказий Осиё. “Янги Шимолий сиёсат” Корея ярим оролининг “иқтисодий бирлашуви” - Жанубий Корея ва Шимолий Корея ўртасидаги иқтисодий алоқаларни ривожлантириш ва умумий ўзаро ҳамкорликни яратишга қаратилган “Корея ярим оролининг янги иқтисодий харитаси” концепцияси билан чамбарчас боғлиқ. Амалда ушбу концепция Корея ярим оролининг жануби ва шимолини боғлайдиган ва Шимолий-Шарқий Осиё мамлакатлари иқтисодиётига интеграциялашган учта минтақавий иқтисодий камарни яратиш орқали амалга оширилиши режалаштирилган. [8] Агарда ушбу ташаббуслар орқали Корея ярим ороли бирлашса ёки икки Кореянинг муносабатлари яқинлашса ҳамда режалаштирилган транспорт коридорлари амалга ошса, бу Марказий Осиё учун ҳам савдо-сотик айланмасини ошиши ва энергетика бўйича ҳамкорликни ривожланишига олиб келади.

Мун Чже Ин Корея ярим оролининг шимолида жойлашган давлатлар (жумладан, Россия, Мўғулистон ва Марказий Осиё давлатлари) билан янада фаол ҳамкорлик қилишни ва ўзаро боғловчи “тўққиз кўприк” куришни назарда тутувчи Янги Шимолий сиёсати орқали Корея ярим оролининг транспорт, логистика ва энергетика инфратузилмасини Евроосиё куруқликнинг қолган қисмига етказиш. Транскорея иқтисодий ҳамкорлик лойиҳаларини (Россия, КХДР ва Корея Республикаси иштирокида) амалга ошириш кўзда тутилган. Мун Чже Ин ташаббуси Хитойнинг “Бир макон, бир йўл” ташаббуси билан ҳам қўллаб ҳамкорлик нуқталарига эга. Хусусан, у “Бир макон, бир йўл” билан боғлиқ лойиҳаларни ва Хитойнинг учта шимоли-шарқий провинциясини қамраб олган кўп томонлама ҳамкорлик лойиҳаларини илгари суриш; Осиё инфратузилма инвестиция банки ва Катта Тумен ташаббуси ёрдамида Хитой-Мўғулистон-Россия иқтисодий коридори ташаббуси билан боғлиқ лойиҳаларни ишлаб чиқиш ва илгари суриш (Хунчунда халқаро логистика мажмуасини

ривожлантириш каби тўхтатилган лойиҳаларни қайта тиклаш имкониятларини кўриб чиқиш); Транс-Хитой темир йўли ва Транс-Мўғул темир йўлидан фойдаланишни кўпайтириш ва натижада Корея Республикаси ва Шимолий Корея темир йўллари қайта боғлаш».

Умуман олганда, Мун Чже Ин олдинги маъмуриятнинг “Бир макон, бир йўл” бўйича сиёсатини давом эттирди. 2018 йилда Сеул ва Пекин Жанубий Кореянинг Евроосиё ташаббуси ва Хитойнинг “Бир камар, бир йўл” ташаббуси бўйича аввал тузилган англашув меморандумини кўриб чиқиш ва такомиллаштиришга келишиб олдилар. [9] Корея Республикаси “Бир камар, бир йўл”га доимий равишда қизиқиш кўрсатиб келмоқда ва Хитой билан мумкин бўлган ўзаро ҳамкорлик вариантлари бўйича давлат идоралари, илмий-тадқиқот институтлари ва ишбилармон доиралар даражасида фаол мулоқот олиб бормоқда. 2019 йилда Жанубий Кореяда “Бир макон, бир йўл” хусусий тадқиқот маркази очилди, у ташаббус бўйича тадқиқот олиб бориш билан шуғулланиб, уни “Бир макон, бир йўл” мавзусидаги илмий конференциялар ва семинарлар, жумладан, “Бир макон, бир йўл” халқаро ёшлар форумини ташкил этиш орқали тарғиб қилади. [10]

Президент Мундан сўнг Корея Республикаси давлат раҳбарлигига келган Юн Сок Ёль ўзининг ташқи сиёсат бўйича йўналишларини эълон қилди. Бу ерда албатта АҚШ, Япония каби давлатлар билан ҳамкорликдан ташқари корея ярим ороли масаласи, Хитой, Марказий Осиё ва бошқа минтақа, мамлакатлар билан алоқаларга тўхталиб ўтган. [11] Шу ўринда Корея ташқи сиёсатида Хитойнинг “Бир макон, бир йўл” лойиҳаси доирасидаги ҳамкорлиги динамикасининг ўзгарганлигини кузатишимиз мумкин. Буни аввало бор мамлакат “Давлат хавфсизлиги стратегияси”да биров муҳимлиги жиҳатидан давлатларнинг ўрни ўзгарганлигини кўришимиз мумкин. [12] Олдинги ҳукуматлар (Парк ва Мун) даврида АҚШ, Хитой ва Япония бўлган бўлса, ҳозир эса АҚШ, Япония ва Хитой бўлиб турибти. Бироқ Корея ва Хитой муносабатларини ижобий даражадалигини гувоҳи бўлишимиз мумкин. 2022 йилда икки мамлакатнинг дипломатик алоқаларининг ўрнатилганига 30 йил тўлди ва Юн Сук Ёл ҳукумати “ишбилармонлик алоқалари гуллаб-яшнаши” суръатига асосланиб, “Бир макон, бир йўл”га қўшилишига катта умид билдиришди. “Бир макон, бир йўл” Жанубий Кореянинг қитъалараро Евроосиё шу жумладан Марказий Осиёда ҳам логистика тармоғини яратишда иқтисодий режаси билан уйғунлашади, шу билан бирга юқори технологияли sanoat занжирларини чуқурроқ интеграциялашувига ёрдам беради ва икки қўшнининг учинчи бозорларни биргаликда ўрганишига йўл очади. [13]

Таҳлилчиларнинг таъкидлашича, Вашингтоннинг “Бир макон, бир йўл” устидан кўрқув уйғотаётгани ва Пекингга қаратилган босимнинг кучайиши фонида Жанубий Кореянинг “Бир макон, бир йўл”да иштирок этишидан улуш жуда юқори, чунки бу икки томонлама муносабатларда “миқдорий юксалиш”га олиб келади ва ўзаро ишончни янада мустаҳкамлайди. Кўпчилик Сеул “эҳтиёткорлик билан” ўзининг иқтисодий ривожланиш ҳаракатларига асосланган прагматик қарор қабул қилаётгани ва “фаол кириш”ни ўз ичига олган “Бир макон, бир йўл”га тегишли лойиҳаларни амалга оширишдан бошлаши ҳақида фикр билдиришган. [13]

“Бир макон, бир йўл”нинг афзалликлари ҳақида китоб нашр этган Жон Хонг-жиннинг таъкидлашича “Агар Жанубий Корея ҳукумати иқтисодий сиёсатни олға сурмоқчи бўлса ва ўз иқтисодиётини ривожлантиришга интилса, “Бир макон, бир йўл”да иштирок этиш ва ташаббус доирасида Хитой билан ҳамкорликни чуқурлаштириш зарурдир”. [13]

Бугунги кунга қадар Юн ҳукумати “Бир макон, бир йўл” бўйича аниқ позицияни эълон қилмади. Аммо Мун Чже Иннинг мега инфратузилма ташаббусига қатъий ва ижобий нуқтаи назарга эга эканлиги ва у 2019 йилда Хитой олий раҳбарияти билан бўлиб ўтган учрашувда Жанубий Корея “Хитой томони билан биргаликда “Бир макон, бир йўл” қуришга ва учинчи томон бозорларини кенгайтиришда ҳамкорлик қилишга тайёр” эканлигини позициясида турганлигини кузатимиз мумкин.

“Бир макон, бир йўл” лойиҳасида Жанубий Кореянинг фаоллашгаинини 2017-йилда бўлиб ўтган биринчи форумда Жанубий Корея ташқи ишлар вазири ўринбосари ва ҳукмрон партиядан нуфузли депутатлар, 2019-йилда бўлиб ўтган иккинчи тадбирда делегацияга Бош вазирнинг иқтисодиёт масалалари бўйича ўринбосарининг иштироки орқали кўришимиз мумкин. 2023 йил 17-18 октябрь кунлари учинчи форумда эса Корея иштирокини кузатмадик. Бу эса Корея ҳукуматининг ташқи сиёсатдаги йўналишларини ўзгариб бораётганлигидан даолатдир. Бироқ Корея Республикаси Хитой билан ўзаро ҳурмат, ўзаро манфаат ва умумий манфаатлар асосида ҳамкорликни давом эттиришини билдириб ўтган.

“Бир макон, бир йўл” Жануби-Шарқий Осиё ва Шимоли-Шарқий Осиёда иқтисодий интеграцияни тезлаштиради. Шунингдек, “Бир макон, бир йўл” доирасида Хитой Марказий Осиё ва Европа ўртасида муқобил транзит йўлини очиб, Хитой-Мўғулистон-Россия иқтисодий коридори ташкил этилиши мумкин. “Бир макон, бир йўл” Кореянинг иқтисодий ривожланиш учун катта имкониятлар беради. Ҳозирги кундаги вазиятдан келиб чиққан ҳолда Жанубий

Кореянинг “Бир макон, бир йўл” лойиҳасида нейтралигини сақлаган ҳолда катта лойиҳаларда иштирок этади.

Умуман олганда, Жанубий Корея Хитойнинг “Бир макон, бир йўл” ташаббусида иштирок этиш бўйича мувозанатли позицияни сақлаб қолишдан манфаатдор. Икки давлат манфаатларига Марказий Осиё, Жануби-Шарқий Осиё ва бошқа худудларда инфратузилмани биргаликда ривожлантириш, шунингдек, Шимолий Кореянинг минтақавий иқтисодий ҳамкорликка жалб этилишидан манфаатдордир. Корея Республикасининг стратегик вазифаси, маъмуриятнинг қайси партияга мансублигидан қатъи назар, Евроосиёда иқтисодий фаолият майдонини кенгайтириш бўлиб қолмоқда. Шу жумладан, “Бир макон, бир йўл” лойиҳаси орқали Марказий Осиё мамлакатлари билан ҳамкорликни кенгайтириш ва ушбу минтақа билан ўзаро инвестициялар бўйича эркин савдо зонасини яратиш тўғрисидаги битимни тузишга, шунингдек, энергетика ва транспорт инфратузилмаси соҳасидаги лойиҳаларни амалга оширишга катта қизиқиш билдирмоқда. Шу боис, Корея Республикаси Евроосиёда транспорт тармоғини ривожлантиришга кўмаклашувчи ташаббус сифатида “Бир камар ва йўл”ни қўллаб-қувватлайди ва Корея ярим оролини унга жалб этишга интилади. Шундай қилиб, Жанубий Корея учун энг яхши йўл “Бир камар ва йўл”ни ўзининг ташқи сиёсий ташаббуслари билан боғлаш йўллари излаш бўлиб қолмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

- [1] А. П. О. Пугачева, “ПОЛИТИКА ЮЖНОЙ КореИ В ОТНОШЕНИИ КИТАЙСКОЙ ИНИЦИАТИВЫ “ПОЯС И ПУТЬ”,” *МИРОВАЯ ЭКОНОМИКА И МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ*, %1-tom65, %1-son10, pp. 81-90, 2021.
- [2] “Korea and China Select Eurasia Initiative and 'One Belt and One Road' as Focus for Bilateral Cooperation This Year,” *Ministry of Economy and Finance*, 29.01.2015.
- [3] Т. Н. Lee, “One Belt, One Road strategy and Korean-Chinese cooperation,” *International Institute for Asian Studies*, 2016.
- [4] J. Hwang, “China’s ‘One Belt, One Road’ project can sync up with Korean trade efforts,” 25.08.2015.
- [5] R. Yuanzhe, “China’s Perspective on the China-ROK Strategic Partnership: Developments, Debates, and Difficulties,” *CHINESE PERSPECTIVES: Towards the Korean Peninsula IN THE AFTERMATH OF NORTH KOREA’S FOURTH*

NUCLEAR TEST, 01.06.2016.

- [6] C. He-suk, “[Hwang’s China and the World] Chinese thoughts on Belt and Road Initiative, its shine and shade,” *The Korea Herald*, 30.06.2022.
- [7] K. Rahn, “Moon calls for joint economic expansion between South Korea, China,” 16.12.2017.
- [8] “Realizing the “New Economic Map” Initiative and economic unification of the Korean Peninsula,” *Ministry of Unification*.
- [9] “Korea and China Agree on Strengthening Economic Cooperation,” *Ministry Economy and Finance*, 05.02.2018.
- [10] S.-H. Park, “The Belt and Road Initiative’s Silent Infiltration of South Korea,” 19.06.2021.
- [11] “Эксперты обсудили внешнюю политику нового правительства Республики Корея,” *Санкт-Петербургский государственный университет*, 09.10.2022.
- [12] О. Кирьянов, “Южная Корея обнародовала новую внешнеполитическую стратегию,” 08.06.2023.
- [13] L. Xuanmin, “South Korea expected to make pragmatic decision on BRI as initiative set to align with its economic plan, facilitate third-market cooperation,” *Global Times*.

THE ROLE OF IMMERSIVE EXPERIENCES IN DEVELOPING LINGUACULTURAL COMPETENCE AMONG PRE-SERVICE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS

Kholmatova Elnura Sherali kizi

Fergana State University

ABSTRACT

This article explores the significance of immersive experiences in fostering linguacultural competence among pre-service foreign language teachers. By examining the cultural values of Uzbeks and their reflection in communicative behavior, the study aims to highlight the importance of immersive experiences in developing a deep understanding of the target language and culture. The findings suggest that immersive experiences play a crucial role in enhancing pre-service teachers' ability to navigate cultural nuances and effectively communicate in the target language. The article concludes with recommendations for incorporating immersive experiences into foreign language teacher education programs.

Keywords: *immersive experiences, linguacultural competence, pre-service teachers, foreign language education, communicative behavior.*

CHET TILI O'QITUVCHILARI O'RTASIDA LINGVA MADANIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA IMMERSIV TAJRIBALARNING O'RNI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola chet tili o'qituvchilari orasida lingua madaniy kompetentsiyasini rivojlantirishdagi immersiv tajribalarning ahamiyatini o'rganadi. Tadqiqot o'zbeklarning madaniy qadriyatlari va ularning kommunikativ xulq-atvorda aks etishini o'rganib chiqib, maqsadli til va madaniyatni chuqur tushunishni rivojlantirishda immersiv tajribalarning ahamiyatini ta'kidlashga qaratilgan. Topilmalar shuni ko'rsatadiki, immersiv tajribalar xizmat oldidan o'qituvchilarning madaniy nuanslarni boshqarish va maqsadli tilda samarali muloqot qilish qobiliyatini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Maqola chet tili o'qituvchilarini o'qitish dasturlariga immersiv tajribalarni kiritish bo'yicha tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: *immersiv tajribalar, lingua madaniy kompetentsiyasi, xizmatdan oldingi o'qituvchilar, chet tili ta'limi, kommunikativ xulq-atvor*

РОЛЬ ИММЕРСИВНОГО ОПЫТА В РАЗВИТИИ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ, ПОДГОТОВЛЕННЫХ К РАБОТЕ ДО НАЧАЛА ОБУЧЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

В этой статье исследуется значение иммерсивного опыта для развития лингвокультурной компетентности у преподавателей иностранных языков, готовящихся к работе. Изучая культурные ценности узбеков и их отражение в коммуникативном поведении, исследование направлено на то, чтобы подчеркнуть важность иммерсивного опыта для развития глубокого понимания изучаемого языка и культуры. Полученные результаты свидетельствуют о том, что иммерсивный опыт играет решающую роль в повышении способности учителей ориентироваться в культурных нюансах и эффективно общаться на изучаемом языке. В заключение статьи даются рекомендации по включению опыта погружения в учебные программы для учителей иностранных языков.

***Ключевые слова:** опыт погружения, лингвокультурная компетентность, подготовительные курсы, иноязычное образование, коммуникативное поведение.*

INTRODUCTION

The development of linguacultural competence is a critical aspect of foreign language teacher education [1]. Immersive experiences, such as study abroad programs and cultural exchanges, have been recognized as valuable tools in fostering this competence [2]. This article investigates the role of immersive experiences in developing linguacultural competence among pre-service foreign language teachers, with a specific focus on the cultural values of Uzbeks and their reflection in communicative behavior.

METHODS AND LITERATURE REVIEW

The study employs a mixed-methods approach, combining linguistic pragmatics comparisons [3], communication acts analysis [4], and the discourse completion test [5]. The research draws upon the work of Blum-Kulka, House, and Kasper [6] in cross-cultural pragmatics and utilizes their framework for analyzing communication strategies. A comprehensive literature review was conducted to identify key concepts and theories related to immersive experiences and linguacultural competence development.

RESULTS

The results of the study indicate that immersive experiences have a significant impact on pre-service teachers' linguacultural competence. Participants who engaged in immersive experiences demonstrated a deeper understanding of the target language and culture, as evidenced by their ability to navigate cultural nuances and employ appropriate communication strategies. The discourse completion test revealed differences in communication strategies between Uzbek and Russian participants, highlighting the influence of cultural values on communicative behavior.

ANALYSIS

The analysis of the collected data suggests that immersive experiences provide pre-service teachers with authentic opportunities to engage with the target language and culture. Through these experiences, participants gain first-hand knowledge of cultural norms, values, and communicative practices. The linguistic pragmatics comparisons and communication acts analysis further support the notion that cultural values shape communicative behavior and underscore the importance of developing linguacultural competence.

DISCUSSION

The findings of this study align with previous research on the benefits of immersive experiences in foreign language teacher education [7]. By engaging in immersive experiences, pre-service teachers develop a more nuanced understanding of the target language and culture, which enhances their ability to teach effectively [8]. The study highlights the need for foreign language teacher education programs to prioritize immersive experiences as a means of fostering linguacultural competence.

CONCLUSIONS

In conclusion, immersive experiences play a vital role in developing linguacultural competence among pre-service foreign language teachers. The study confirms the hypothesis that communication strategies differ due to cultural values and emphasizes the importance of understanding these differences in effective cross-cultural communication. Foreign language teacher education programs should integrate immersive experiences to better prepare pre-service teachers for the challenges of teaching in diverse cultural contexts.

REFERENCES

1. Byram, M. (1997). Teaching and assessing intercultural communicative competence. *Multilingual Matters*.
2. Uktamovna, B. L. (2023). Modern Methods of Teaching Monologue and Dialogue Speech in Foreign Language.

3. Буранова, Л. (2024, April). ЗНАЧЕНИЕ ТОНА В УСТНОЙ И ПИСЬМЕННОЙ ФОРМАХ МОНОЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 379-382).
4. Буранова, Л. (2023). The peculiarities of monologue speech in teaching foreign language. *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*, 1(5), 74-78.
5. Буранова, Л. У. (2023). FORMING THE SKILLS OF MONOLOGUE AND DIALOGUE SPEECH IN FOREIGN LANGUAGE. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 6(3).
6. Buranova, L. U. (2017). THE USE OF DEFINITE PHONETIC FEATURES IN THE CULTURE OF THE TARGET LANGUAGE. *Гуманитарный трактат*, (20), 38-39.
7. Buranova, L. U. (2017). TEACHER'S ROLE IN THE READING CLASSROOM. *Гуманитарный трактат*, (8), 49-51.
8. Буранова, Л. У. (2016). Хамлет монологи ва унинг таржималари хақида. *Евразийский научный журнал*, (5), 503-504.
9. Uktamovna, B. M., & Uktamovna, B. L. COMMUNICATIVE-ORIENTED TEACHING AT FOREIGN LANGUAGE LESSONS. *Chief Editor*.
10. Муртазоев, Б. (2019). Жомий ва Навоий.«Межлитературные связи и взаимопроникновение культур». In *Материалы Международной научно-практической конференции*.
11. Sirojova, Z. (2022). INGLIZ TILIDAGI QOSHMA GAPLARDA SINTAKTIK MUNOSABATLAR SINKRETIZMINING FUNKSIONAL TADQIQI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 25(25).
12. Sirojova, Z. (2023). INGLIZ, OZBEK VA RUS TILLARIDA RAVISHDOSH VA UNING SINKRETLASHUVI. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(19).
13. Тагаева, Т. Б. (2023). US MAUGHAM BADIY USLUBINING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 6(3).
14. Тагаева, Т. (2022). Индивидуальные особенности художественного стиля УС Моэма. *Общество и инновации*, 3(11/S), 132-137.
15. Тагаева, Т. Б. (2018). ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКАЯ ИНФОРМАЦИЯ В СЕМАНТИКЕ АНГЛИЙСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ. In *Культурные инициативы* (pp. 205-207).
16. Rasulova, S., & Husanova, M. (2024, April). DESCRIPTION OF THE GENRE OF FICTION IN THE WORKS OF WASHINGTON IRVING. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 539-542).
17. Rasulova, S., & Khamiddinov, O. (2024, April). ARTISTIC ROMANCE OF THE AMERICAN PAST IN THE WORK OF WASHINGTON IRVING (AS AN

- EXAMPLE OF RIP VAN WINKLE). In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 547-549).
18. Rasulova, S. (2024, April). AMERIKA ADABIYOTIDA ILK ROMANTIZM PROZASINING TILI VA BADIY XUSUSIYATLARI. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 557-562).
19. Rasulova, S. U., & Khamiddinov, O. (2023). LEARNING STRATEGIES FOR ENGLISH LANGUAGE PROFICIENCY. *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, 1(9), 44-47.
20. Saidov, S. (2023). IKKINCHI TIL O'RGANISHDA EKSTRAVERSIYANING FOYDALARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 27(27).
21. Karimova, D. (2024). VARIATION AND INVARIANCE OF MEANS OF EXPRESSION. *American Journal of Innovation in Science Research and Development*, 1(3), 71-77.
22. Halimovna, K. D. (2024). Comparative Analysis of German and Uzbek Fairy Tales (As the Example of the Translation of Grimms Fairy Tales). *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(3), 422-425.
23. Каримова, Д. (2023). АКА-УКА GRIMM ERTAKLARI O'ZBEKCHA TARJIMA VARIANTLARINING DAVRIY STATISTIKASI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 32(32).
24. Tagayeva, T., & Kabridinova, K. (2024, April). INDIVIDUAL FEATURES OF ARTISTIC STYLE OF WM THACKERAY. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 543-546).
25. Bobomurodova, N., & Jabborova, I. (2024, January). BERUNIYNING HINDISTON ASARI. In *Международная конференция академических наук* (Vol. 3, No. 1, pp. 103-107).
26. ТАШЕВА, З. И. (2024). РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ФОРМИРОВАНИИ КОРПОРАТИВНОЙ КУЛЬТУРЫ И ВОВЛЕЧЕННОСТИ СОТРУДНИКОВ. *АКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ*, (4), 9.
27. Tasheva, Z. Upskilling And Reskilling In The Age Of Digital Transformation: The Role Of Hr In Facilitating Continuous Learning And Development In The Oil And Gas Industry.
28. Tasheva, Z., & Karpovich, V. (2024). SUPERCHARGE HUMAN POTENTIAL THROUGH AI TO INCREASE PRODUCTIVITY THE WORKFORCE IN THE COMPANIES. *American Journal of Applied Science and Technology*, 4(02), 24-29.
29. Буранова, Л. У. (2016). Хамлет монологи ва унинг таржималари хакида. *Евразийский научный журнал*, (5), 503-504.

30. Uktamovna, B. M., & Uktamovna, B. L. COMMUNICATIVE-ORIENTED TEACHING AT FOREIGN LANGUAGE LESSONS. *Chief Editor*.
31. Buranova, L. U. (2017). THE USE OF DEFINITE PHONETIC FEATURES IN THE CULTURE OF THE TARGET LANGUAGE. *Гуманитарный трактат*, (20), 38-39.

MIRZA G‘OLIB SHE‘RIYATINING FALSAFIY MOHIYATI

Abdusalimov Abror Vali o‘g‘li

SamDU Urgut filiali Xalqaro hamkorlik bo‘lim boshlig‘i

ANNOTATSIYA

Maqolada Mirza G‘olibning hayot yo‘li, she‘riyati, g‘azallarida ifodalangan falsafiy fikrlar, ularning shakllanishiga sabab bo‘lgan omillar, ijtimoiy va siyosiy qarashlarining shakllanishi, uning jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy va siyosiy jarayonlarga munosabati, tarbiyaviy hamda ta‘limga oid qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada Mirza G‘olib she‘riyatiga mahalliy hamda xorijiy olimlarning munosabati ham o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: *Mirza G‘olib, Asad, saljuqiylar, urdu tili, falsafa, tasavvuf falsafasi, vahdat-ul-vujud, G‘olib Akademiyasi, g‘azal, maktublar, ta‘lim, o‘quv dasturi, dunyoviy qadriyatlar, Ralf Rassel, Pankaj K. Deo.*

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются жизненный путь, поэзия, философские мысли, выраженные в газетах Мирза Галиба, факторы, способствовавшие их формированию, формирование его социальных и политических взглядов, его отношение к социальным и политическим процессам, происходящим в обществе, его взгляды на воспитание и образование. В статье также отражено отношение как отечественных, так и зарубежных ученых к поэзии Мирза Галиба.

Ключевые слова: *Мирза Галиб, Асад, сельджуки, урду, философия, философия суфизма, Вахдат-уль-вуджуд, Академия Галиба, газель, письма, образование, учебная программа, светские ценности, Ральф Рассел, Панджа к к. Deo.*

ABSTRACT

The article analyzes the philosophical thoughts expressed in Mirza Ghalib's life path, poetry, ghazals, the factors that led to their evolution, the formation of his social and political views, his attitude to public and civic processes taking place in society, moral and educational views. The article also includes the perception of domestic and foreign scholars to Mirza Ghalib's poetry.

Keywords: *Mirza Ghalib, Asad, Seljuks, Urdu, philosophy, philosophy of Sufism, Wahdatul-wujud, Ghalib Academy, ghazal, letters, education, curriculum, secular values, Ralph Russell, Pankaj K. Deo.*

KIRISH

Mashhur hind shoiri Mirza beg Asadullaxon 1797 yil 27 dekabrda Agra shtatining Kala-mahal shahrida tugʻilgan. 19-asrda Hindiston yarim orolida urdu va fors tillarida ijod qilgan eng mashhur shoirlardan biri edi. U Mirza Gʻolib va Asad taxalluslari ostida ijod qilgan. U saljuqiylar hukmronligi agʻdarilgandan keyin Samarqandga kelib oʻrnashgan turkiy xonadanga (Manbalarda mugʻul xonadoni shaklida keltirilgan) mansub boʻlgan. Oʻsha davrdagi oʻzgaruvchan siyosiy vaziyat Gʻolibning hayoti va sheʼriyatida yaqqol aks etgan. Uning asarlari Buyuk Britaniyaning Sharqiy Hindiston (East India) kompaniyasi nazorati ostida Boburiylar imperiyasining qulashi va 1857 yilgi Hindiston qoʻzgʻoloniga aloqador voqealarni tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

Mirza Gʻolib Urdu tilida ijod qilgan eng taniqli va koʻp qirrali shoiri sifatida qaraladi. U shuningdek, adabiy sohadagi fors tilidan ham yaxshigina xabardor edi. U kuchli va qizgʻin ravishda hayot kechirdi. Shafqatsiz haqiqatgoʻy, oshkora samimiy, umuminsoniy xayrixohlik xislatlari va liberal dundyoyarashga ega Mirzo Gʻolib oʻz-oʻzini hurmat qilishning himoyachisi edi. Bundan tashqari, u fikr va harakatda mustaqil, yangilikka ishtiyoqmand va boshqalar yurib oʻtgan yoʻldan yurishni xohlamas, oʻz yoʻliga ega boʻlishni xohlar edi.

Nihoyatda taʼsirchan boʻlish bilan birga Gʻolib, yetuk va yuksak salohiyatga ega edi. U oʻzi tasavvur qilgan va boshidan kechirgan boy tajriba va mukammal dunyoqarashga ega inson edi. Gʻolib sheʼriyatida uning falsafiy qarashlari ochib berilgan. Uning falsafasi koʻpincha Vandat-ul-vujud, yaʼni Xudoning mavjudligidan boshqa hamma narsa yoʻq boʻlishga mahkum, oʻzgarmas va haqiqiy mavjudlik faqatgina Xudoga xos deb talqin qilinadi.

Gʻolibning sheʼriy ifodalarining goʻzalligidan taʼsirlangan odamlar uni shoir sifatida tushunishgan va qadrlashgan. Gʻolib sheʼrlarini falsafiy nuqtai nazardan talqin qilish va ushbu falsafiy talqinlar asosida yashirin tarbiyaviy fikrlarni yoritish boʻyicha tizimli ishlarini kamdan kam hollarda uchratish mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Gʻolib buyuk va taniqli shaxs boʻlib, odatda buyuk shaxslar nafaqat ichki, balki oʻzlari yashayotgan muhit taʼsiri ostida rivojlanishgan. Gʻolibning shaxsiyati ham oʻzi yashagan davr va muhit taʼsirida rivojlangan. Bugungi kunda ham odamlar Gʻolibni ommaviy darajada oʻqiydilar. Dehlida Gʻolib haqidagi kitoblar va jurnallar markazi boʻlgan Gʻolib Akademiyasi tashkil etildi. Deyarli har yili dunyo boʻylab Gʻolib toʻgʻrisida milliy va xalqaro seminarlar oʻtkaziladi.

Mirza Gʻolib hayot yoʻlini kuzatar ekanmiz, u boshidan koʻplab qiyinchiliklarni kechirganligini guvohi boʻlamiz. Jumladan, yosh bolalik chogʻidayoq otasining

o‘limi, oradan ko‘p o‘tmay vasiy amakisidan judolik, ukasi, o‘zining yeti farzandi va bu ham yetmagandik asrab olgan farzandining ham o‘limi, doimiy ravishda qarzarlar sabab qamoqa tushish xavfining mavjud bo‘lishi, adabiy munozaralarda u tomonidan ilgari surilgan diqqatga sazovor fikrlarning tan olinmasligi va qo‘pol tarzda qattiq haqorat qilinish, qimorbozlar qamoqxonasining sharmandali qiynoqlari, ko‘plab kasalliklarning og‘rig‘i va azoblari va hammasidan ham yomoni o‘g‘ir hayot tarzi - G‘olib kabi ta‘sirchan odam uchun achinarli holat edi. Ammo G‘olib azob-uqubatlarga yengilmadi, aksincha boshiga tushgan qiyinchiliklarni o‘zidan zeriktirdi, g‘azallar yozishdan to‘xtamadi.

G‘olibning borliq haqidagi qarashlari Allohdan (Xudodan) boshqa hech narsa mavjud emasligini ta‘kidlovchi tasavvuf falsafasi Vahdat-ul-Vujud bilan bog‘liq edi. Bu shoir yashagan davrda keng tarqalgan falsafa bo‘lib, unga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi. Uning shaxsiy va ijtimoiy hayotidagi vaziyatlar uni Xudodan tashqari dunyoviy narsalar, shu jumladan insonning mavjudligi ham haqiqiy emas, aksincha aldanchi va xayoliy ekanligiga ishonishga undaydi. Uning fikricha, har bir jonzot aniq hayot davomiyligi va aniq faoliyat doirasi ega, shunday ekan ularning mavjudligi doimiy emas, balki o‘tkinchi ekanligi aniq.

Vahdat-ul-Vujud sirlaridan xabardor bo‘lishiga qaramay, G‘olib hayotdan qochib qutula olmaydi. Aksincha, u hayotning har bir rang va shakllariga ishtiyoq va sabrsizlik bilan boqadi. U hayotdan qochmaydi, aksincha unda ishtirok etadi va u bilan qo‘shilib ketadi. Bundan tashqari, G‘olib xudojo‘y gumanist edi. Uning ko‘plab maktublari va baytlari uning insonparvarlik haqidagi qarashlarini aks ettiradi. Biz uning asarlarini tahlil qilsak, ularda ko‘plab dunyoviy va gumanistik fikrlarni topishiz mumkin.

Mirza G‘olib ijodiy ishlarining tarbiyaviy xulosalarini, ta‘limning maqsadlari, o‘quv dasturi, o‘qitish metodikasi, o‘qituvchi va o‘quvchilarning ahamiyati va maktabdagi tartib-intizom kabi tushunchalarni o‘zining falsafiy fikrlari orqali ifodalagan.

Shoir o‘z-o‘zini hurmat qilishning muhimligiga alohida e‘tibor qaratganligi bois, ta‘lim bolaga o‘z-o‘zini hurmat qilish va o‘zidan faxrlanishga erishish uchun imkon berishi kerak degan xulosaga kelishimiz mumkin. Shuningdek, u bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini rivojlantirishga ham yordam berishi kerak. G‘olib ilgari surgan ta‘limning yana bir maqsadi bolani o‘limni zavq bilan kutib olishga tayyorlash bo‘lishi mumkin, chunki uning fikriga ko‘ra, o‘lim nafaqat salbiy ko‘rinishga ega, balki uning ijobiy tomoni ham bor, chunki o‘limni anglash insonning hayotdan zavqlanishiga sabab bo‘ladi. G‘olib ilgari surgan ta‘limning yana boshqa bir muhim jihati talabalar o‘rtasida dunyoviy qadriyatlarni rivojlantirish bo‘lishi mumkin. Biz

G‘olibning insonlarni terisining rangi, e‘tiqodi, irqi yoki dinidan qat‘iy nazar boshqalarga nisbatan sevgi va muhabbat, umumiy birodarlikka chorlaganligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘quv dasturiga kelsak, har bir shaxs o‘zning shaxsiy salohiyatiga ega bo‘lgani sababli, har birining alohida o‘z o‘quv dasturi bo‘lishi kerak. Shuning uchun o‘quv dasturi bir xil emas va talabalarning imkoniyatlariga qarab turlicha bo‘ladi.

G‘olib o‘z she‘riyatida shuningdek axloqiy tarbiyaning ahamiyatiga ham katta e‘tibor qaratadi. Shuning uchun axloqiy tarbiya ham o‘quv dasturiga kiritilishi kerak.

G‘olibning maktublarini o‘rganganimizda, biz uni masofaviy va sirtqi ta‘lim shakllarini qo‘llaganligini ko‘rishimiz mumkin. Uning rahbarligi ostida she‘riy asarlari shoir tomonidan tuzatilgan ko‘plab shogirdlari bor edi. G‘olib undan tuzatib berishlarini so‘rab yozilgan shogirdlarining asarlarini o‘z ichiga olgan xatlarni qabul qilar va tuzatishlar kiritar hamda ularning xatlariga javob berish orqali ko‘rsatmalar berar edi.

G‘olibning maktublarini o‘rganar ekanmiz, uning asosan o‘qitishning masofaviy va sirtqi o‘qitish usullarini qo‘llaganini ko‘rishimiz mumkin. Uning qo‘l ostidagi shogirdlari ko‘pchilikni tashkil qilar edi, ularning ishlarini tuzatishda G‘olib she‘rdan foydalangan. G‘olib odatda tuzatishlarni so‘ragan o‘quvchilarning asarlarini o‘z ichiga olgan xatlarni qabul qilar edi va odatda ushbu xatlarga javob berishda tuzatishlar va ko‘rsatmalarini she‘rlar orqali ifodalab berar edi.

Dunyoda nafaqat keng o‘qiladigan va o‘rganiladigan, balki kundalik hayotda istisnosiz hamma narsadan iqtibos keltiradigan shoirlar kamdan kam. Mirza G‘olib ana shunday shoirlardan biridir. Dunyoga mashhur Shekspir, Sofokl boshqa yozuvchilar singari, uning she‘riyati ham yashashni davom ettiradi va barcha yuraklarning nozik torlarini chertib turadi. G‘olib she‘riyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, u bizga hayotning son-sanoqsiz soyalarini ochib beradi. Hayotning bu son-sanoqsiz soyalari uning she‘rlarida va maktublarida aks etgan. Ralf Rassel G‘olib haqidagi kitobni sharhlaganida, u haqida quyidagilarni ta‘kidlaganda haq edi. “Mirza G‘olibni tushunish uchun nafaqat dunyoni, balki butun koinotni ham qamrab olish kerak”. Bu G‘olibning she‘riyatining ko‘p o‘lchovli va plyuralistik tabiatiga nisbatan munosib fikr edi. U shu qadar boy shoirki, uning she‘riyatida hali ham tushunilmagan ko‘plab soyalar mavjud. G‘olibning o‘zi sir-sinoat, hali to‘liq hal qilinmagan jumboq, aynan shu narsa uning buyukligini yanada oshiradigan narsa. Rassel G‘olibning ko‘plab baytlari barcha biladigan mavqega erishganligi va odamlar ulardan iqtibos kiltirishi, yod olganliklari, hatto vaqti-vaqti bilan uning g‘azallari ular tomonidan kuylanishini haqida gapirganda haq edi. Mirza G‘olib g‘azallarining ko‘p qirrali tabiati, paradokslar orqali dialektik burilishlari

ularni doimo jozibali qilib, barcha uchun qadrlı bo‘lishini ta‘minlaydi. Uning asarlari kastasi, terisining rangi, e‘tiqodi, jinsi va dinidan qat‘iy nazar barcha uchun dahldordir. Shu sababdan ham, Mirza G‘olib kabi shoir hech qachon eskirmaydi va har bir o‘tgan kun sayin unga bo‘lgan talab ortib boraveradi. Pankaj K. Deo “G‘olib: barcha davrlar shoiri” maqolasida shunday deydi:

“G‘olib har qanday kayfiyat, har qanday vaziyat va har bir inson uchun she‘r yozgan va shuning uchun urdu tilida eng ko‘p misol qilib keltiriladigan shoirligicha qolmoqda. Eng yaxshi tomoni shundaki, siz har safar uning she‘rlarini o‘qiganingizda, undan yangi ma‘no kelib chiqadi. Ajablanarlisi shundaki, har bir avlod G‘olibni o‘ziga xos tarzda talqin qilgan va bu uning tabiatining o‘zgaruvchanligidandir va aynan shu narsa uni barcha davrlarga aloqadorligini ta‘minlaydi. Barcha davr o‘quvchilari G‘olibning she‘rlarida o‘zlarining his-tuyg‘ulari va istaklarini ko‘rishadi va shoir ularni hech birini ko‘nglini qoldirmaydi, chunki u minglab shunday hayajonli she‘rlar yozgan”.

Hayotiylik davrida u o‘zini hali mavjud bo‘lmagan bog‘ning bulbuli deb atagan, ammo xuddi shu bog‘ qisman allaqachon mavjud edi, chunki biz hech bir mubolag‘asiz aytishimiz mumkinki, G‘olib maqomiga mos keladigan boshqa shoirni topish juda ham mushkil. U o‘zining she‘riyatiga shunchalik ishonganki, uni farishtaning ovozi bilan taqqoslagan.

ADABIYOTLAR

1. Beg., abdulla Anvar. The Life and Odes of Ghalib. – Lahore: Urdu Academy Lohari, 1940. P.206.
2. Mulmule N.M. Mirza Ghalib: A Self-Actualizing Poet with Poetry of Nihilism. – Indian J Psychol Med. 2022;44(5) p.504–509.
3. Tasleem A. War. Myriad Shades of Life in Mirza Ghalib. – Newcastle: Cambridge Scholars Publishing, 2021. P.160.

BAG‘RIKENGLIK TUSHUNCHASINING GLOBAL AHAMIYAT KASB ETISHI

Pardayev Abdurahim Chori o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy universiteti

Falsafa va mantiq kafedrası stajyor-o‘qituvchisi

e-mail: choriyevich94@mail.ru

tel: 97 140 06 00

ANNOTATSIYA

Butun yer yuzida diniy bag‘rikenglik, diniy konfessiyalararo o‘zaro hurmat, bir-birini tushunish asosiy hayotiy tamoyilga aylanmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asl mohiyati ham millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo‘naltirilgan, mamlakatimizning xalqaro nufuzini yanada oshirishga qaratilgan. Globallashuv hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni ob‘yektiv tan olish kerak – bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo‘shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog‘lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emasdir.

***Kalit so‘zlar:** Globallashuv, diniy erkinlik, bag‘rikenglik, tolerant- tolerare, e e‘tiqod, vijdon, xavfsizlik, baynalmilal, do‘stlik, qadriyatlar, ma‘naviyat, dinlararo totuvlik, milliy g‘oya.*

ABSTRACT

Religious tolerance, inter-religious respect, and mutual respect have become vital conditions all over the world. The regenerating state implemented in our country will also help to further strengthen its international prestige, which is aimed at conducting policies in an international, beneficial and practical spirit. The main factor and reason for its rapid and deep penetration into our global life should be objectively recognized when talking about the movement - the development and level of any country today is a natural close and close relationship with its near and far neighbors, but also with other favorable and close ties on a global scale. the country is being left out of the process.

***Key words:** Globalization, religious freedom, tolerance, tolerance, faith, conscience, situation, international, friendship, values, spirituality, interreligious harmony, national idea.*

АННОТАЦИЯ

Религиозная толерантность, межрелигиозное уважение и взаимное уважение стали жизненно важными условиями во всем мире. Возрождающееся государство, реализованное в нашей стране, также будет способствовать дальнейшему укреплению ее международного престижа, который направлен на проведение политики в международном, полезном и практическом духе. Говоря о движении, объективно следует признать главный фактор и причину его быстрого и глубокого проникновения в нашу глобальную жизнь - развитие и уровень любой страны сегодня - это естественная тесная и тесная связь со своими ближними и дальними соседями, но и с другие благоприятные и тесные связи в мировом масштабе остаются за рамками этого процесса.

Ключевые слова: *Глобализация, свобода вероисповедания, толерантность, толерантность, вера, совесть, ситуация, интернационализм, дружба, ценности, духовность, межрелигиозное согласие, национальная идея.*

KIRISH

Globalashuv sharoitida diniy soha rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Hozirda tezkorlik, ochiqlik, erkinlik tamoyillariga asoslangan integrasiya jarayonlarining chuqurlashib borayotgani barcha sohalarning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlarni vujudga keltirmoqda. Shuningdek, bir tomondan, yangi tashkil topgan davlatlarda milliy va diniy o'z-o'zini anglash jarayonlari kechayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, madaniyatlararo o'zaro ta'sir kuchayib, jamiyat sohalari doirasida global yaxlitlashish tendensiyasi vujudga kelmoqda.

Globalashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni ob'yektiv tan olish kerak – bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emasdir.

Ma'lumki, globalashuvning vujudga kelishi haqida turli-tuman qarashlar, yondashuvlar mavjud. Ularning birida globalashuvda siyosiy omilning o'rniga alohida e'tibor berilgan bo'lsa⁶², boshqasida iqtisodiy jihatlar⁶³ yoki demografik

⁶² Гаджиев К.С. Введение в геополитику. М.: ЛОГОС, 2000. С. 432.; Глобализация и моделирование социальной динамики. М.: Институт социальных наук, 2001. С. 237.; Крылова И.А. Проблема безопасности России в контексте глобализации. М: Институт философии РАН, 2001. С. 94.; Глобализация и моделирование социальной динамики. \ Отв. ред. Николаев В.Р. М.: Институт социальных наук, 2001. С. 212

jarayonlarga ⁶⁴ urg‘u berilganini ko‘rish mumkin. Shuningdek, ular orasida globallashuv axborot texnologiyalarining mislsiz takomillashuvi natijasi ekani haqidagi yondashuv nihoyatda ustuvordir. Albatta, ushbu yondashuvlarning har biri o‘zining rasional izohlariga ega.

Shunday bo‘lsa-da, “globallashuv – bu avvalo hayot sur‘atlarining beqiyos darajada tezlashuvi...”⁶⁵ ekani haqidagi fikrdan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, real voqelik jahon sahnidagi mavjud dinlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning ham intensivlashib borayotganini ko‘rsatmoqda. Bu esa, diniy yo‘nalishdagi o‘zaro aloqalarda barqarorlikka erishish zarurligini anglatadi. Globallashuv jarayonlarining tez sur‘atlarda rivojlanishini ta‘minlovchi asosiy omil zamonaviy axborot kommunikasiya texnologiyalari ham buzg‘unchi kuchlar tomonidan g‘arazli maqsadlar doirasida keng foydalanilmoqda. Jumladan, manbalarda keltirilishicha, so‘nggi yillarda terroristik tashkilotlar va ularning g‘oyalarini targ‘ib-tashviq qilishga qaratilgan veb-saytlarning soni bir necha barobarga oshgan. Xususan, 10 yil avval bunday saytlar 20 ta bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib turli segmentlarda joylashtirilgan ushbu vayronkor resurslarning soni 5000 dan ortib ketgan⁶⁶.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Dinlararo muloqotga ko‘maklashuvchi turli nohukumat xalqaro tashkilotlar orasida Diniy erkinlik xalqaro Assosiasiyasi (MARS) hamda uning mamlakatlardagi bo‘limlari alohida o‘rin tutadi. Ushbu Assosiasiya turli diniy e‘tiqod egalarining o‘zaro hamkorligini ta‘minlash maqsadida ochilgan bo‘lib, hozirda diniy konfessiyalarning o‘zaro teng muloqoti uchun qulay sharoitlarga ega keng miqyosdagi forumlar shaklida faoliyat olib boradi. Umuman olganda, diniy sohadagi global o‘zgarishlar turli sivilizasiyalar qadriyatlarini muvofiqlashtirish va keng miqyoslarda dinlararo muloqotni ta‘minlashga konstruktiv yondashuv modelini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Ushbu dolzarb vazifani samarali bajarishda BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarning sa‘y-harakatlari bilan birga jahon dinlarining ham bu jarayonda faol ishtiroki talab etiladi.

Shu o‘rinda bunday sharoitda bag‘rikenglik masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

⁶³ Қаранг: Геогенезис: философия и методология геоэкономики и геофинансов. Научный альманах высоких гуманитарных технологий. \ Под. ред. Ивановой Г.М. М.: НАВИГУТ, 2003. С. 250

⁶⁴ Қаранг: Практическая демография \ Под. ред. Л.Л.Рыбаковского. М.: ЦСП, 2005. С. 164.; Рыбаковский Л.Л. Миграция населения. Три стадии миграционного процесса. (Очерки теории и методов исследования). М.: УФН, 2000. С. 164.

⁶⁵ Каримов И.А. Юксақ маънавият – энгилмас куч. Т.: Маънавият, 2008. Б. 111.

⁶⁶Количество террористических сайтов за 10 лет выросло на 2 порядка <http://www.securitylab.ru/news/308574.php>.

“Tolerant” atamasining lugʻaviy maʼnosi lotincha “tolerare”(chidamoq) soʻzidan olingan. “Bagʻrikenglik” soʻzi deyarli barcha tillarda bir xil yoki toʻldiruvchi mazmunga ega. Ularni umumlashtirib “bagʻrikenglik” Tolerantlik biror narsani oʻzgacha fikr yoki qarashni, oʻz shaxsiy tushunchalaridan qatʼi nazar, imkon qadar bagʻrikenglik va chidam bilan qabul qilishni anglatadi. Diniy bagʻrikenglik vijdon erkinligi va maʼnaviyat jihatdan katta ahamiyat kasb etadi, u boshqa shaxs yoki dinga hurmatni bildiradi. Turli din hamda konfessiya vakillari eʼtiqodida aqidaviy farqlar boʻlishiga qaramay, ularning yonma-yon va oʻzaro tinch-totuv yashashni anglatadi.

“Tolerant” tushunchasi dastavval tibbiyotda qoʻllanilgan boʻlib, organizmning chidamliligi, oʻz muhitiga kirib olgan tashqi narsalarga toqat qila olishini bildiradi. Yangi davrga kelib bu tushuncha oʻzgacha fikr, eʼtiqod, dinlarga nisbatan toqatlilik maʼnosida qoʻllanila boshlandi⁶⁷.

XX asrning ikkinchi yarmidan rasmiy hujjatlarda “tolerantlik” oʻzbekchada bagʻrikenlik deb tarjima etildi. Bu tushuncha turli dinlarga mansub kishilarning bir muhitda tinch-totuv, oʻzaro hurmat bilan yashashini bildira boshladi. Xalqaro bagʻrikenlik kuni (16 noyabr) eʼlon qilindi, koʻplab anjuman va muloqotlar oʻtkazildi, tashkilotlar tuzila boshlandi.

YUNESKO ustavida taʼkidlanganidek, oʻzaro bir-birini tushunmaslik butun insoniyat tarixi davomida oʻzaro shubhalanish va ishonchsizlikning ildiz otishiga sababi boʻlgan, bu esa oqibatda turli ixtiloflar va nizolarga olib kelgan⁶⁸. Shu nuqtai nazardan qaraganda, buyuk ajdodimiz Abu Rayhon Beruniyning “Odamlar bilmagan narsalariga dushmanlik koʻzi bilan qaraydilar”⁶⁹ degan fikrlari chuqur mazmunga egaligini qayd etish lozim.

Bagʻrikenglik - boshqa fikr va qarashga toqatli boʻlish, oʻziga maʼqul va maqbul boʻlmagan eʼtiqod va ibodatlarni cheklamaslik, qoralamaslik kabilarda namoyan boʻladi. Halimlik, kechirimlilikning mumtoz namunasi- paygʻambarimiz Muhammad (s.a.v) dirlar.

Mahatma Gandining, “faqat kuchlilargina kechirimli boʻladi” degan gʻoyasi bagʻrikenglik va kuchlilik orasidagi uzviylikning yorqin ifodasidir”. Bagʻrikenglikning chegarasi bor va boʻlishi kerak. Bagʻrikenglik meʼyordan oshsa - prinsipsizlikka, oʻz qadriyatlarini va tartiblaridan voz kechishga olib keladi. Meʼyoriga etmagan tolerantlik har qanday yangilikka, chetdan boʻladigan taʼsiriga qarshilik kayfiyatini yuzaga keltirgani kabi, meʼyoridan oshgan bagʻrikenglik tashqi taʼsiriga

⁶⁷ Диншуносликнинг долзарб муаммолари. Т.: Тошкент ислом унверситети, 2011. -б 60

⁶⁸ Таълим, фан ва маданият масалалари бўйича Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Устави. //ЮНЕСКО Халқаро меъёрий ҳужжатлари. –Т.: Адолат, 2004. – Б.5.

⁶⁹ Беруний Абу Райҳон. Тарвихалар.-Т.: Мерос, 1991.-Б. 38.

tez berilishi, yangilik qiyofasida kirib kelayotgan ma'naviy xatarga e'tiborsizlik ruhiyatini tug'diradi.

Bag'rikenglikning mezoni bitta - bu milliy manfaat. Mamlakat istiqloli va millatning istiqboliga xizmat qilmaydigan har qanday yangilik va ta'sirga nisbatan bag'rikenglik prinsipi qo'llanilmaydi.

Xalqaro hujjatlarda ta'kidlanganidek, "Hozirgi dunyoda bag'rikenglik o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Biz iqtisodning globallashuvi va yanada tezlashuvi, kommunikasiyalarning tez rivojlanishi, integrasiya va o'zaro bog'liqlik, keng miqyosli migrasiya va aholining ko'chib yurishi, shaharlashuv hamda ijtimoiy tuzilmalarning yangidan o'zgarishi asrida yashamoqdamiz. Har bir mintaqa xilma-xildir va shuning uchun toqatsizlikni va nizolarni kuchaytirish dunyoning barcha hududlariga birdek tahdid soladi. Bunday tahdiddan milliy chegaralar ortiga berkinib bo'lmaydi, chunki u umumbashariy hususiyatga egadir"⁷⁰.

Bag'rikenglik mohiyat e'tibori bilan "boshqalari" va "o'zgacha" qadriyatlar haqidagi bilimlar, baholar va unga asoslangan amaliy faoliyat tizimini o'z ichiga oladigan ijtimoiy-madaniy hodisadir⁷¹.

O'zbek xalqi o'zining butun tarixi davomida, hamma vaqt boshqa xalqlar, millat va din vakillariga hurmat bilan yondashishini namoyon etib kelgan. Etnik, madaniy va diniy xayrixohlik o'zbek xalqining eng go'zal fazilatlaridan biriga aylangan. Shu bois ham O'zbekiston YUNESKO bosh konferensiyasi tomonidan 1996 yil 16 noyabrda "Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi"ning qabul qilinishini faol qo'llab-quvvatladi. ushbu deklaratsiyaning 1-moddasida qayd etilganidek: "Bag'rikenglik — bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni o'zini ifodalashning, insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmatlash, qabul etish va to'g'ri tushunishni anglatadi. Buni esa bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hur fikr, vijdon va e'tiqod vujudga keltiradi".

Darhaqiqat, Deklaratsiyada ta'kidlanganidek, bag'rikenglik turli-tumanlikdagi birlikdir. O'zbekistonda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar, erishilgan natijalar I.Karimovning YUNESKO ijroiya kengashi sessiyasining Toshkentda bo'lib o'tgan 155 yakunlovchi majlisida aytgan quyidagi so'zlarida ham o'z ifodasini topgan: "Men sizlarning e'tiboringizni bizning xalqimiz misolidagi noyob voqelikka, qimmatli tajribaga qaratmoqchi edim. YUNESKO yordamida bu ibratli tajribani butun dunyoga namoyish etsa arziydi. Bu — turli dinga mansub bo'lgan xalqlarning ko'p millatli davlat sharoitida ham tinchlik va totuvlikda yashay olishi tajribasidir.

⁷⁰ Бағрикенглик тамойиллари Декларацияси. // ЮНЕСКО халқаро меъёрий ҳужжатлари. Т.: Адолат, 2004. Б. 92.

⁷¹ Очилдиев А. Бағрикенглик — барқарорлик ва тараққиёт омили.Т.:Тошкент ислом университети, 2007. Б. 9.

Bu yaqin sharqda o‘n yillar mobaynida turli millat va diniy qarash vakillari o‘rtasida muhosasiz kurash to‘xtamayotgan, etnik va diniy qarama-qarshilik mintaqaviy mojarolarning avj olishiga manba bo‘lib xizmat qilayotgan hozirgi zamonda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lur edi... Etnik, madaniy va diniy hayrixohlik va ochiq ko‘ngillik o‘zbek xalqining o‘ziga xos tug‘ma fazilatlaridan biriga aylangan.

O‘ylaymanki, turli diniy e‘tiqod, konfessiyalarga mansub kishilarning tinchtotuv yashashidan iborat bo‘lgan bizning tajribamizni millatlararo, diniy va etnik asosdagi turli-tuman ichki va mintaqaviy mojarolarni bartaraf etishda muvaffaqiyat bilan qo‘llash mumkin».

“Bag‘rikenglik bo‘yicha Bibliyadagi qarashlar yuzasidan savollar (A Biblical Perspective on Tolerance) maqolasida quyidagicha keltiriladi: “Bu atama ushbu din doirasida oliyjanob ish ekanligidadir. Biroq endilikda bu tushuncha “ma’siyat” so‘zi bilan hamfikir bo‘lib qoldi. Bu shuni anglatadiki biz bag‘rikeng bo‘la olamizmi yoki yo‘q buning chegarasi gunoh ish qilish yoki qilmaslik bilan o‘lchanadi. Bag‘rikenglik biror kimsaning kayfiyati va odati bilan o‘lchanmaydi. Hurmat qilish nafaqat boshqa xilqat yoki harakterni hurmatlash, balki gunohkor odamni ham o‘z chegarasida hurmatlash demakdir. Bu bag‘rikenglik nuqtai nazaridan yangicha qarashlarni ham gavdalantiradi. Inson qo‘li bilan bajariladigan yaxshi yoki yomonlikni belgilash bu inson bilan emas balki yaratganning o‘zi hal etishi bilan belgilanadi⁷² (Ikkinchi qonun 5:32). So‘nggi yillarda bag‘rikenglik muammosi doirasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda bu tushunchaning ta‘riflari ishlab chiqilmoqda. Ulardan biriga ko‘ra, “bag‘rikenglik bu fuqarolik jamiyatining barcha fuqarolarning turlicha bo‘lish huquqida namoyon bo‘ladigan qadriyatlar va sotsial me‘yorlaridir. Shuningdek, u turli konfessiyalar, siyosiy, etnik va boshqa sotsial guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro barqaror uyg‘unlikning ta‘minlanishini, dunyodagi turli madaniyatlar, sivilizasiyalar va xalqlar xilma-xilligini hurmat qilishni, tashqi ko‘rinishi, tili, e‘tiqodi, an‘analariga ko‘ra farqlanuvchi odamlar bilan hamkorlik qilishga tayyorlikni ham anglatadi”⁷³.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda dunyo hamjamiyati murakkab taraqqiyot jarayonini boshdan kechirayotgan bir paytda diniy bag‘rikenglik, turli dinlarga mansub xalqlar o‘rtasidagi muloqot va hamkorlikni kengaytirish nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu boisdan, diniy bag‘rikenglikning xalqimiz o‘tmishi, hozirgi hayotidagi o‘rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan ochib berish dolzarb mavzudir.

Globalashuv sharoitida turli dinlardan iborat millat vakillari istiqomat qiluvchi jamiyatda tinchlik va barqarorlikni saqlash masalalari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib

⁷² By Rebecca S. May A Biblical Perspective on Tolerance. Distributed by www.relationalconcepts.org

⁷³ Очилдиев А. Бағрикенглик — барқарорлик ва тараққиёт омили. Т.:Тошкент ислом университети, 2007. Б.121.

borish tadqiqotchilar oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi. Shu jihatdan, bag'rikenglik tushunchasining mazmun mohiyatini ochib berish, uning O'zbekiston misolida ko'rinishlari hamda jahon dinlarining asl manbalari asosida xolislik nuqtai nazaridan tahlil qilinishi mavzuning dozarbligini belgilaydi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasini 2017–2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi Prezident Farmoni PF–47-49-son. 07.02.2017.
2. Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 19-maydagi “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” [PF–50-46-son. 19.05.2017.]gi Farmoni
3. N. Alimova, Sh. Asqarov, R. Haydarov, Sh. Amirjo'jaye'v “Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar”. 2014. – B. 222
4. Очилдиев А. Бағрикенглик — барқарорлик ва таракқиёт омили. Т.:Тошкент ислом университети, 2007. Б.121
5. Геогенезис: философия и методология геоэкономики и геофинансов. Научный альманах высоких гуманитарных технологий. \ Под. ред. Ивановой Г.М. М.: НАВИГУТ, 2003. С. 250
6. Практическая демография \ Под. ред. Л.Л.Рыбаковского. М.: ЦСП, 2005. С. 164.; Рыбаковский Л.Л. Миграция населения. Три стадии миграционного процесса. (Очерки теории и методов исследования). М.: УФН, 2000. С. 164.
7. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т.: Маънавият, 2008. Б. 111.
8. By Rebecca S. May A Biblical Perspective on Tolerance. Distributed by www.relationalconcepts.org

XORAZM TANBUR CHIZIG‘I

Kamola Xasanova

Farg‘ona davlat universiteti “San‘atshunoslik” fakulteti
“Musiqqa ta‘limi” yo‘nalishi 1-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Xorazm tanbur chizig‘i xususida so‘z boradi. Shuningdek, Sharq mazkur nota yozuvining shakllanish debochalari, rivoji atroflicha tarixiy dalillar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *Tabulatura, cholg‘u, nota, ud, zir, masna, hadd, maslas, bam*

ABSTRACT

This article is about Khorezm tanbur line. Also, the preliminaries of the formation of this Eastern notation, its development are analyzed on the basis of historical evidence.

Key words: *Tablature, instrument, note, ud, zir, masna, hadd, maslas, bam*

KIRISH

“Tabulatura” — biron-bir cholg‘u soziga moslangan maxsus nota yozuvi demakdir. Masalan, oldinlari Sharqda ud asbobi negizidagi yozuv qo‘llanilgan. U ud torlari (bam, maslas, masna, zir, hadd) va cholg‘uning dastasida parda bosadigan barmoqlar (sabboba, vusto, binsir, xinsir)ning nomlari belgi qilib olinishiga asoslangan. Komil Xorazmiy tabulaturaning tanburga moslangan maxsus navini yaratdi. Unda tanbur pardalariga ko‘ra 18 chiziq olinadi. Ba‘zan 18 chiziqning hammasi yozib o‘tirilmaydi va sharoitga qarab faqat tegishlilari yonboshida raqam bilan ko‘rsatiladi. Chiziqning osti-ustita nuqtalar qo‘yilib, ularning ustma-ust yoki yonma-yon joylanishi tanbur zarblari (“yakka zarb”, “qo‘sh zarb”lar)ga ishora deb bilinadi. Pauza (jimlik) alomati “sukun” sifr (nol) belgisi (o) bilan ifodalanadi. Doyra usullari uzun-qisqa zarblarni anglatuvchi bo‘g‘inlar harakatida ko‘rsatiladi: “gul”, “taq”, “ta-qa”, “taq-qa” vahokazo. Kuy bo‘laklari “xona”, “bozgo‘y”, “hang” iboralari; to‘xtov (jumla ohiri) yoyli chiziq (strelka) ishorasi vositasida belgilanib boriladi. Tanbur chizig‘ida she‘riy matnlar ham beriladi. Ular to‘liq yoki lavha tarzida kuy yo‘lini anglatuvchi nuqtalardan alohida, bir chekkada yoziladi. Aksariyat hollarda she‘rlar-ning faqat boshlang‘ich misralari keltiriladi. Unga qarab ashulachilar g‘azalning qolgan qismlarini esga solib oladilar. Tanbur notasi arab yozuviga o‘xshab, o‘ngdan chapga o‘qiladi.

Tanbur chizig‘idan ko‘zlangan asosiy maqsad, Xorazm maqomlarining kuy, usul va ijro asoslarini qonunlashtirish bo‘lgan. Zero, saroyda rasm etilgan mumtoz maqom yo‘llari, el orasidagi kuy va ashulalardan farkli ravishda, qonun-qoidalarga

bo'ysungan holda mukammal ijro etilishi taqozo qilinadi. Feruz sozandani koyib "Bizni uyni (uy-xona, kuy bo'lagi ham "xona" deyiladi) buzishga qanday jur'at qildingiz" deganda, aynan shu tanbur chizig'ida rasmiylashtirilgan musiqiy nizomlar ko'zda tutilgan.

Bu yozuv maqomlarni ommalashtirish yoki musiqaga endi kirib kelayotgan shogirdlarga kuy o'rgatish vazifasidan holi. Tanbur notasi maktab ko'rgan sozandalarga maqom matnlari va uning qat'iy nizomlarini esga solish uchun ishlangan. Unga qarab ustozlar maqom yo'llarining qonun-qoidalari va butun boshli yirik turkumlarining kuy hamda usullarini joy-joyiga qo'yib, muvofiqlashtirib borganlar.

Notaga olingan kuy yo'llari qat'iy nizom, erkin ijod etish uchun asos. Qulog'i qotmagan ijrochi undan natija chiqara olmaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tanbur chizig'ining ixtirosi Komil Xorazmiy va o'g'li Muhammad Rasul nomlari bilan bog'liq bo'lsada, uning vositasida Xorazm maqomlarining mukammal matnlari yozib olinishida ko'plab sozandalar ishtirok etishgan. Ustozlarning gapiga qaraganda maqomlarning notaga olinish tartibi quyidagicha bo'lgan: turli maqomlarni notaga yozish har xil sozandalarga buyurilgan. Ular ishlagan variantlar Xon boshchiligida nufuzli hay'at tomonidan ko'rib chiqilgan. Yozuv ma'qullangandan keyin, kuy matnlarini oqqa ko'chirish tajribali xattotlarga buyurilgan. Ularning eng mukammallari jamlanib, kitob holiga keltirilgan.

Ana shunday puxta ishlangan nushalardan biri Muhammad Yusuf Bayoniy tomonidan tuzilgan. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, u eng to'liq va ishonchli variat deb topilgan. Mazkur to'plam 448 betdan iborat yagona kitob shaklida ishlangan. U uch xil xat bilan yozilgan har bir bo'lagining sanalari ham alohida qayd etilgan: (1299 (1881-82 y.), 1300 (1882-83y.), 1301 (1883-84 y.). To'plam oxiridagi tarixga ko'ra u 1920-yilda, yuqorida zikr etilgan nushalardan jamlangan).

Bugungi kunda tanbur chizig'ining yigirmaga yaqin nushalari ma'lum. Ularning aksariyati maqom ilmidan yaqindan xabardor bo'lgan ixtisosli xattotlar tomonidan bitilgan. Mavjud nota to'plamlarining ko'pchiligi bir-biriga o'xshab ketadi. Ba'zi holatlarda esa ular muayyan matnning ko'chirmalari sifatida namoyon bo'ladi. Ilyos Akbarov olib borgan dastlabki qiyosiy kuzatishlardan ma'lum bo'ladiki, tanbur chizig'i asosan mumtoz doiradagi Olti yarim maqom: Rost, Buzruk, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq va Panjgoh turkumlarining matnlarini yozib olishga qaratilgan. Ammo tabulaturaning yangi nushalari topilishi, unda olti yarim maqom tizimidan tashqaridagi turkumlar ham qog'ozga tushirilganligi ma'lum bo'ladi. 2002-yilda hazorapslik Hofiz Ollanazarovda 168 betdan iborat tanbur chizig'ining noma'lum bir

nushasi borligi ma'lum bo'ldi. Afsuski, bu noyob manbaning qachon va kim tomonidan tuzilganligini hali aniqlay olmadik. Aytishlaricha, to'plam Muhammad Rahimxon Feruzning nazariga tushgan mashhur hazorasplik go'yanda Iskandar mahzum iste'molida bo'lgan (Hofiz Ollanazarov - Iskandar mahzumning chevarasi). Uning har bir betida tag'iz qilib ikki-uch qator ashula yo'llari xatga tushirilgan. Maqomlarning cholg'u kuylari esa to'plamga kiritilmagan. Nushaning musiqiy va she'riy matnlari juda puxta ishlangan. Barcha ashulalarning nomlari, doyra usullari, kuy unsurlari (xona, bozgo'y va ohanglar) boshdan oxirigacha maxsus ishora vositasida belgilab chiqilgan. She'riy matnlar ham kuy jumllariga muvofiqlashtirilib to'la-to'kis keltirilgan.

Eng muhimi, bunda avvalgi manbalardan bizga tanish bo'lgan Rost, Navo, Segoh, Dugoh va Buzruklardan tashqari yana yettita maqom - Zihiy Nazzora, Qaddim xamliqi (Urganjiy), Miskin, Rahoviy, Sadri Iroq, Oxyor, Choki giribon deb nomlanuvchi aytim yo'llardagi turkumlar yozib qoldirilgan. Bu yerda Olti yarim maqom tizimidagilardan tashqari yana alohida Dutor maqomlari (ya'ni dutor jo'rligida aytiladigan mumtoz yo'llar) xatga tushirilgandir.

Mazkur nushaning favqulodda ahamiyati shundaki, unda tanbur va dutor maqomlarining ashula yo'llari to'la she'riy matnlar bilan yozib olingan. Bizga ma'lum bo'lgan o'ndan ortiq oldingi ro'yxatlarning birontasida ham she'riy matnlar to'la berilmagan, Dutor maqomlari esa umuman uchramaydi. Bu noyob manbaning asl nushasi endilikda O'zbekiston davlat konservatoriyasida saqlanmoqda.

Tanbur chizig'i Xorazmdan tashqarida ham tarqalgan. Xususan, uning nushalari Buxoro sozandalarining qo'lida bo'lganligi ma'lum. 1923-yilda V.A.Uspenskiy Shashmaqomni notaga yozish paytida Buxoroda Dugoh maqomining Saqili Ashkullo qismini ustozlar eslay olmagan. Shunda tanbur chizig'iga qarab Saqili Ashkullo tiklanganligini V.Uspenskiyning o'zi yozib qoldirgan.

Tanbur chizig'iga rus va yevropa tadqiqotchilari ham murojaat etganlar. Birinchi bo'lib bu ishni V.M.Belyayev boshlagan. Bu noyob manba xususida u matbuotda axborot ham bergan. 40-yillarda V.Belyayev Xorazm tabulaturasining matnini 5 chiziqlik yevropa nota yozuviga ko'chirgan. Keyinchalik bu ishni Ilyos Akbarov davom ettirib, yettita qo'lyozma asosida matnning yig'ma variantini ishlab chiqdi. Bu tadqiqot hozirda O'zbekiston davlat konservatoriyasining kutubxonasida saqlanmokda.

So'nggi yillarda tanbur chizig'ini bevosita maqom amaliyoti bilan qiyoslab o'rganishga kirishgan xorazmlik sozanda Ozod Bobonazarov bo'ldi. Uzoq yillar davomidagi izlanishlar evaziga, u birmuncha muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi. Yangi topilgan "Hazorasp nushasi" ustida Urganch universitetida musiqashunos Botir

Rahimov rahbarligida bir qancha malakali yosh maqomchilar Rustam Boltayev, Samandar Xudoyberganov, Matrasul Matyoqubovlar ilmiy-ijodiy izlanishlarni boshlagan. Ularning samarasi Xorazm maqom an'analari haqidagi taassurotlarni ancha kengaytirishga imkon beradi.

Shunday qilib, Feruz Xiva taxtida 47 yildan ziyod xonlik qildi. Uning hukmronlik davri rus istilosiga to'g'ri kelib, katta siyosiy qiyinchiliklar tug'ilganligiga qaramasdan, Xiva tarixida madaniy-ma'rifiy yuksalish davri sifatida belgilanadi. Xususan, musiqa sohasida o'ziga xos uyg'onish to'liqlini bo'ldi. Feruz rahnamoligida Xorazm klassik musiqasining yangi tarixiy shakli - maqomotning mustaqil ko'rinishi "Olti yarim maqom" deyilgan tushuncha yuzaga keldi. Umuman olganda esa, XIX-XX asr boshlarida Buxoro Shashmaqomiga o'xshab, XIX asr o'rtalaridan sarhisob etish mumkin. Xorazm maqomlarining taraqqiyotida yangi burilish yasagan ustoz sozanda Niyozjon Xo'janing nomi ko'plab yozma hamda og'zaki manbalarda e'tirof etiladi. Aytishlaricha, XIX asrning boshlarida yetuk ustoz bo'lib shakllangan Niyozjon Xo'ja maqom o'rganish uchun Buxoroga kelgan. Bunda "maqom o'rganish" deganda mumtoz doiradagi kuy va ashulalar emas (ular oldindan Xorazmda mavjud bo'lganligi shubhasiz), balki Shashmaqom tamoyillari, ya'ni maqom yo'llarining "navbat" tarzida uyg'unlashgan tizimi nazarda tutiladi. Keyinchalik navbat majmualarini shakllantirishni Niyozjon Xo'jadan ta'lim olgan Muhammadjon sandiqchi, Abdusattor Mahram, so'ngra Usto Xudoybergan etikchi, Pahlavon Mirzaboshi (Kamil Xorazmiy) va ularning shogirdlari davom ettirgan. Xullas, Xorazm maqomlarining muayyan barqaror turkumlarga uyg'unlashish jarayoni hamda unga xizmat etgan mashhur ustozlar shajarasi yozma manbalarda va sozandalar xotirasida aniq tasavvur etiladi.

Shu tariqa XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Xorazmda navbat shaklidagi "Rost", "Buzruk", "Navo", "Dugoh", "Segoh", "Iroq" va "Panjgoh"lardan iborat "Olti yarim maqom" tizimi hamda oddiyroq navba tarzidagi el sozandalari orasida "dutor maqomlari" deb nom olgan ma'muliy qatlamlar qaror topganligini e'tirof etish mumkin.

Feruz zamonida yuksalishga yuz tutgan musiqiy jarayon, keyinchalik asta-sekin tanazzulga uchray boshladi. 20-yillardan e'tiboran xos saroy uslubiga aloqador maqom ustozlarining ba'zilari: Xudoybergan Muhrkan, Rasul Mirzaboshi, Matyoqub Pozachi, Qalandar Do'nmaslar hayotdan ko'z yumdilar. Qolganlari yangi ijtimoiy sharoitda kun ko'rish choralari axtara boshladilar. Eng achinarlisi, maqom san'atiga bo'lgan e'tibor keskin ravishda pasayib ketdi. Chunki o'tmish merosiga nisbatan ochiqdan-ochiq salbiy munosabatda bo'lgan sho'ro siyosati to'la-to'kis yangi sotsialistik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. I.Rajabov. “Maqomlar masalasiga doir” T. 1963 y.
2. O.Matyaqubov. “Og‘zaki an‘anadagi professional muzikaga kirish” T. 1983 y.
3. O.Matyaqubov. “Maqomot” T. 2004 y.
4. M.Xarratov. “Xorazm musiqa tarixchasi”. T. 1998 y.
5. Хожимаматов А. ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА МИЛЛИЙ МУСИҚИЙ МЕРОСГА МУНОСАБАТНИ ЎЗГАРИБ БОРИШ ТЕНДЕНЦИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ. “*JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN*”. *JURNALI VOLUME 1, ISSUE 2, 2023. JUNE*.
6. Jalilova, R. (2022). TASVIRIY SAN‘ATDA QALAMTASVIR TECHNOLOGIYASINI O‘QITISHNING DIDAKTIK PRINSIPLARI. *Scienceandinnovation, 1(C2)*,
7. Jalilova, R. (2022). THE DEVELOPMENT OF VISUAL ART IN PENCIL DRAWING, PAINTING, COMPOSITION AND INDEPENDENT PAINTING. *Science and Innovation, 1(3)*,
8. Jalilova, R. (2022). HEREDITARYDISEASES. *Евразийский журнал академических исследований, 2(11)*,
9. Jalilova, R. Q. (2022). About identification of one model of nonstationary filtration. *Математическое и компьютерное моделирование естественно-научных и социальных проблем: материалы XVI Всерос, 131*.
10. Jalilova, R. Z. (2023). Representation of Human Face, Hands, Clothes in Painting and Pencil Drawing. *Texas Journal of Philology, Culture and History, 18*,
11. Jalilova, R. (2023). EDUCATIONAL METHODOLOGY OF AESTHETIC EDUCATION OF LANDSCAPE PAINTING. *Science and innovation, 2(C7)*,
12. Jalilova, R. (2023). HISTORY OF LANDSCAPE IN MIDDLE ASIAN WORKS OF ART, PHILOSOPHICAL AND AESTHETIC METHODOLOGY OF EDUCATIONAL PROBLEMS AND SOLUTIONS. *Science and innovation, 2(C7)*,
13. Achildiyeva, M. (2023). PATNISAKI ASHULANING IJTIMOIIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(2)*, 254-266.
14. Achildiyeva, M. (2023). QADIMGI DAVR CHOLG ‘U SOZLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, 14(1).
15. Achildiyeva, M., & Mohinur, M. (2023). O ‘ZBEK SAN‘ATINING ZABARDAST HOFIZI JO ‘RAXON SULTONOV. *DENMARK" THEORETICAL*

AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY", 14(1).

16. Achildiyeva, M., & Sabina, B. (2023). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MUSIQIY ATAMALAR. *GospodarkaiInnowacje.*, 34,
17. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. (2023). O 'ZBEK MILLIY BALETLARINING PSIXO-ESTETIK AHAMIYATI. *Gospodarka i Innowacje.*, 34,
18. Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN'ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O 'RNI VA AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5),
19. Achildieva, M., &Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA" LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. *Science and Innovation*, 1(4),
20. Xojimamatov, A., &Ikromova, F. (2022). PROBLEMS OF PERFORMING MUSICAL STAGE WORKS (ON THE EXAMPLE OF THE OEUVRE OF UZBEK COMPOSERS). *Science and Innovation*, 1(4),
21. Khojimamatov, A., &Ikromova, F. (2022). Look at the Polyphony and Theoretical Heritage of SI Taneev. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 8,
22. Hojimamatov, A. (2022). CHANG CHOLG 'USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2),
23. Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
24. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2),
25. Achildiyeva, M.,& Ikromova, F. THE SCIENCE OF MUSIC IN THE FORMATION OF HUMAN VALUES IN YOUNG PEOPLE'S LIFE. *INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH*, Vol 10 Issue02, Feb 2021ISSN 2456-5083
26. Achildiyeva, M., Xojimamatov, A., &Ikromova, F. (2022). Shashmaqomsaboqlari:" Navo" maqomixususida. *INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH*, 11(01),
27. Achildiyeva M 2021 Academic YunusRajabi and His Scientific Heristage *Annals of Romanian Society for Cyell Biology* 25(4)

28. Achildieva, M., Ikromova, F., Abutolipova, M., &Khaydarova, O. (2021). The third renaissance towards ascending. *European Scholar Journal*, 2(9),
29. Achildiyeva, M., Axmedova, N., Ikromova, F., Haydarova, O., Ibrahimova, G., &Abdurahmonov, A. (2021). TANBUR: ONE OF ANCIENT INSTRUMENTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(6),
30. Achildieva, M., &Ikromova, F. (2020, December). THE PLACE OF UZBEK MUSIC IN THE ART. In *Archive of Conferences* (Vol. 10, No. 1, pp. 90-93).
31. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO‘LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 344-352.
32. Achildiyeva M. Ikromova F. THE BALLET “TOMARIS” IN THE CULTURE OF UZBEK BALLET PLASE AND SIGNIFICANCE SPECTRUM *Journal of Innovation, Reforms and Development* (2022) ISSN (E):2751-1731
33. Achildieva M, Butabayeva N, Nosirova M. A GLANCE AT THE SCIENTIFIC AND CREATIVE HERITAGE OF BORBAD MARVAZI *European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE)* Vol. 4 No. 05, May 2023 ISSN: 2660-5643
34. Achildiyeva M. The Role of Music in Forming the Artistic-Aesthetic Taste of Youth *BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT* ISSN: 2835-3579 Volume:2 Issue:7|2023
35. Xojimamatov A Evolution of Philosophical Views on Music and National Musical Heritage *BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT* ISSN: 2835-3579 Volume:2 Issue:7|2023
36. Achildiyeva M. Atkiyoeva R. O‘ZBEK VA JAHON SAHNALARIDA KATTA ASHULANING O‘RNI VA AHAMIYATI *Journal of Engineering, Mechanics and Modern Architecture* Vol. 2, No. 7, 2023 ISSN:2181-4384
37. Xojimamatov A. Atkiyoeva R.“VODIY BULBULI” TAVAKKAL QODIROVNING IJODIY MEROSI BUGUNGI KUN NIGOHIDA *Journal of Innovation, Creativity and Art* Vol. 2, No. 7, 2023ISSN:2181-4287
38. Achildiyeva M. Ikromova F. THE BALLET “TOMARIS” IN THE CULTURE OF UZBEK BALLET PLASE AND SIGNIFICANCE *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development* ISSN (E):2751-1731 15-19 bet (Berlin Germany 2022)
39. Maxfuzakhon Karimova, Muyassarkhon Achildiyeva, Farangiz Ikromova (2021) USE FROM REDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MUSIC LESSONS EUROPEAN SCHOLAR JOURNAL “An open accyess, peyer reviyewyed multidisciplinary journal” 2 (4)

40. Achildiyeva M, Ikromova F Choir Art in Uzbekistan BotirUmidjonov *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (Brussel, Belgium 2022)* ISSN 2795-7683
41. Achildiyeva M, Ikromova F (2021) ABOUT MAHMUDJON TOJIBOYEVS PEDAGOGICAL ACTIVITY *GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ)* 9(5)
42. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. XX-АЧИИГ «ХАМНАФАС» ХОФИЗЛАРИ" *ENGLAND" MODERN PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY: PROBLEMS AND SOLUTION* Vol. 10 No. 1 (2023)
43. Хojimamatov A The Process of Changes and Depreciation of the Aesthetic Effectiveness of Musical Values under Globalization *Journal of Creativity in Art and Design* Volume: 2 Issue: 1 Year: 2024 11 <http://journals.proindex.uz>
44. Achildiyeva, M Historical Development of Uzbek Musical Art Stages and Ways of Improvement *Journal of Creativity in Art and Design* Volume: 2 Issue: 1 Year: 2024 20 <http://journals.proindex.uz>

KORPORATSIYALARDA YIRIK BITIMLARNI TUZISH TO'G'RISIDAGI QAROR QABUL QILISH VA MA'QULLASH TARTIBI

Xusanova Muxlisa Xayrullo qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Xo'jalik jamiyatining yirik bitimini tuzish to'g'risidagi qarorining xo'jalik jamiyati boshqaruv organlari tomonidan qabul qilinishi tartibi masalasini O'zbekiston Respublikasi hamda xorijiy davlatlar qonunchiligi asosida tahlil qilib o'tamiz.

***Kalit so'zlar:** yirik bitim; korporatsiya; kuzatuv kengashi, umumiy yig'ilish, ko'pchilik ovozi, qaror qabul qilish.*

PROCEDURE FOR DECISION-MAKING AND APPROVAL OF MAJOR TRANSACTIONS IN CORPORATIONS

ABSTRACT

We will analyze the issue of the decision on the conclusion of a major transaction of company by the management bodies of company based on the legislation of the Republic of Uzbekistan and foreign countries belonging to the common law system.

***Keywords:** major transaction; company; supervisory board, general meeting, majority vote, decision-making.*

KIRISH

Har qanday korporatsiya o'z faoliyatini amalga oshirishi jarayonida turli xil bitimlarga kirishadi, muayyan bitimlarni tuzish fuqarolik qonunchiligining umumiy qoidalari bilan bir qatorda xo'jalik jamiyatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarining maxsus normalari bilan ham tartibga solinadi. Bunday bitimlarni amalga oshirishning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan alohida tartibi jamiyatning mulkiy holatini sezilarli darajada o'zgartirishga qaratilgan harakatlarni ishtirokchilar yoki aksiyadorlar tomonidan jamiyatning ijro etuvchi organlari tomonidan amalga oshirilishi ustidan nazorat o'rnatish zarurati bilan izohlanadi⁷⁴. Ushbu turdagi bitimlardan biri sifatida yirik bitimni tuzish to'g'risidagi qarorni qabul qilish hamda ma'qullash masalasini tahlil qilib o'tamiz.

⁷⁴ Корпоративное право. Ответственный редактор - доктор юридических наук И.С. Шиткина. Учебный курс. Второе издание, переработанное и дополненное. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова юридический факультет

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog‘liq bitim (shu jumladan qarz, kredit, garov, kafillik va boshqalar) yoki o‘zaro bog‘langan bir nechta bitim, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati bunday bitimlarni tuzish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinayotgan sanada oxirgi hisobot davri uchun buxgalteriya hisobotlari ma‘lumotlari asosida jamiyat sof aktivlari miqdorining o‘n besh foizidan (mas‘uliyati cheklangan jamiyatda yigirma besh foizidan) ortig‘ini tashkil etadigan bitimlar yirik bitim hisoblanadi⁷⁵. Balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining o‘n besh foizidan ellik foizigachasini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to‘g‘risidagi qaror jamiyat kuzatuv kengashining a‘zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishini ko‘rishimiz mumkin. Ya‘ni bitimning qiymati 15-50% gacha bo‘lgan taqdirda ushbu bitimni tuzish to‘g‘risidagi qaror jamiyat kuzatuv kengashi a‘zolarining barchasi tomonidan ma‘qullangan bo‘lishi – bir ovozdan qabul qilinishi lozim. Agar bunday yakdillikka erishilmagan taqdirda yirik bitim tuzish to‘g‘risidagi masala kuzatuv kengashining qaroriga ko‘ra aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi hal qilishi uchun olib chiqiladi.

Shu o‘rinda jamiyat kuzatuv kengashining yirik bitimni tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun o‘tqaziladigan majlisi xususida so‘z yuritadigan bo‘lsak. “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 78-moddasida jamiyat kuzatuv kengashining majlisi kuzatuv kengashining raisi tomonidan uning o‘z tashabbusiga ko‘ra, jamiyat kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi (taftishchisining), ijroiya organi a‘zosining, shuningdek jamiyat ustavida belgilangan boshqa shaxslarning talabiga ko‘ra chaqirilishi ko‘rsatilgan. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisini o‘tkazish uchun kvorum jamiyat ustavida belgilanadi, biroq u jamiyat kuzatuv kengashiga saylangan a‘zolarining yetmish besh foizidan kam bo‘lmasligi kerak.

Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida kuzatuv kengashining har bir a‘zosi bitta ovozga egalik qiladi.

Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritilib, u majlis o‘tkazilganidan so‘ng o‘n kundan kechiktirmay tuziladi. Majlis bayonnomasida quyidagilar ko‘rsatiladi:

- majlis o‘tkazilgan sana, vaqt va joy;

⁷⁵ O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. 06.05.2014- yildagi O‘RQ- 370-son.

•majlisda ishtirok etadigan, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etadigan shaxslar;

•majlisning kun tartibi;

•ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari;

•qabul qilingan qarorlar⁷⁶.

Jamiyat kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan jamiyat kuzatuv kengashining har bir a'zosi tomonidan imzolanib, ular kuzatuv kengashi majlisi bayonnomasining mazmuni va to'g'ri rasmiylashtirilganligi bo'yicha javobgar bo'ladi.

Jamiyat kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi u imzolangan kunda jamiyatning ijroiya organiga majlisda qabul qilingan qarorni ijro etish uchun topshiriladi. Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda mazkur qaror haqidagi axborot jamiyatning ijroiya organiga kuzatuv kengashining majlisi o'tkaziladigan kuni topshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 84-moddasi 3-qismida balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining ellik foizidan ortig'ini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Ushbu normadan ko'rishimiz mumkinki, yirik bitim predmetini tashkil etuvchi mol-mulkning qiymatiga ko'ra, bunday bitimni tuzish to'g'risidagi qaror jamiyatning u yoki bu organi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Umumiy qoidaga ko'ra, ovozga qo'yilgan masala bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori, agar Qonunda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalari egalari bo'lgan, yig'ilishda ishtirok etayotgan aksiyadorlarning ko'pchilik (oddiy ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilinishi nazarda tutilgan. Shu o'rinda ko'pchilik va oddiy ko'pchilik tushunchalariga biroz izoh berib o'tamiz.

"Oddiy ko'pchilik" ko'pchilikning o'ziga xos turi bo'lib, unda boshqa har qanday tanlovga qaraganda ko'proq ovoz talab qiladi, lekin umumiy ovozlarning yarmidan ko'pini olish shart emas. Boshqacha aytganda, umumiy ovozlarning ellik foizidan oshmasa ham, eng ko'p ovoz to'plagan variant g'alaba qozonadi.

⁷⁶ O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. 06.05.2014- yildagi O'RQ- 370-son. 78-modda

Shunday qilib, "ko'pchilik" va "oddiy ko'pchilik" boshqa variantlardan ko'ra ko'proq ovozga ega bo'lish orqali g'alaba qozonishni nazarda tutsa-da, birinchisi umumiy ovozlarning yarmidan ko'pini talab qiladi, ikkinchisi esa mavjud variantlar orasida eng ko'p ovozni talab qiladi.

Biroq, Qonunning 60-moddasida yirik bitimni tuzish bo'yicha qaror aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning to'rtidan uch qismidan iborat ko'pchilik (*malakali ko'pchilik*) ovozi bilan qabul qilinishi belgilab qo'yilgan.

Qonunda umumiy yig'ilishda aynan yirik bitim tuzish bo'yicha masalalarni hal etish yuzasidan aksiyadorlarning malakali ko'pchilik ovozi talab qilinganini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni aksiyadorlarning $\frac{3}{4}$ qismi rozilik bergan taqdirda qaror qabul qilinishi mumkin.

Bu qoida mas'uliyati cheklangan jamiyatlar uchun biroz farqli ko'rinishda ishlaydi. Ya'ni, odatda qiymatidan qat'iy nazar yirik bitimni tuzish to'g'risidagi qaror jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

Lekin, jamiyatda jamiyatning kuzatuv kengashi tuzilgan taqdirda, qiymati jamiyat mol-mulki qiymatining yigirma beshdan to ellik foizigachasini tashkil etadigan mol-mulki olish, tasarrufdan chiqarish yoki jamiyat bevosita yoxud bilvosita tasarrufidan chiqarishi ehtimoli bilan bog'liq bo'lgan yirik bitimlarni tuzish to'g'risidagi qarorlarni qabul qilish jamiyatning ustaviga binoan jamiyat kuzatuv kengashining vakolatiga kiritilishi mumkin. Bunda kuzatuv kengashining aybi bilan yirik bitim tuzilishi natijasida yetkazilgan zarar uchun jamiyatning kuzatuv kengashi umumiy yig'ilish oldida javobgar bo'ladi⁷⁷.

Shuningdek, yirik bitimlarni tuzish to'g'risida qaror qabul qilishning anglo-sakson huquq oilalariga mansub xorijiy davlatlarda belgilangan tartibi bilan tanishib chiqadigan bo'lsak. Delaver umumiy korporatsiya qonunining (*DGCL*) 271-moddasida har bir korporatsiya direktorlar kengashi yoki boshqaruv organining har qanday yig'ilishida o'zining butun yoxud mol-mulki hamda aktivlarining muhim qismini jamiyat aksiyadorlari yoki tegishli korporatsiya aksiyadorlik jamiyat bo'lmagan taqdirda jamiyat ishtirokchilarining ko'pchilik ovozi bilan agar kuzatuv kengashi bunday shartnoma kompaniya manfaatlari uchun maqsadga muvofiq deb topsa, sotishi, ijaraga berishi yoki ayirboshlashi mumkin⁷⁸. Bunda ahamiyat qaratishimiz muhim bo'lgan jihati shundaki, kompaniyaning sotilayotgan, ijaraga berilayotgan yoki ayirboshlanayotgan barcha yoki deyarli barcha aktivlarini

⁷⁷ O'zbekiston Respublikasi "Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonuni. 06.12.2001-yildagi O'RQ-310-II-son.

⁷⁸ <https://delcode.delaware.gov/title8/c001/sc10/index.html>

miqdorini aniqlashga oid aniq mezonlar yoki boshqa ko'rsatmalar mavjud emas. Bunday holatlarda sudlar tomonidan miqdoriy va sifat omillarning kombinatsiyasiga asoslangan holda bitim korporatsiyaning mavjudligi va maqsadlariga ko'rsatgan ta'siri aniqlanadi⁷⁹. Shuningdek, jamiyat ishtirokchilarining ko'pchilik ovozi bitim tuzishda qaror qabul qilish uchun yetarli hisoblanib, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida o'rnatilganidek malakali ko'pchilik ovozi talab qilinmaydi.

Rossiya qonunchiligiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2016-yilgacha bo'lgan holatga ko'ra xo'jalik jamiyati o'z ustavida yirik bitimlar direktorlar kengashi yoki ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlashni talab qilmasligini ko'rsatishi mumkin bo'lgan. Bu xo'jalik jamiyatning ustavida ushbu turdagi jamiyat faoliyatini ixtiyoriy tartibga solishni aks ettiruvchi qonunda nazarda tutilgan yirik bitimlarni tasdiqlash rejimini rad etishi mumkinligini anglatardi. Hozirda bu normaga o'zgartirish kiritilib, kuzatuv kengashi va umumiy yig'ilish roziligi talab qilinishi bilan bir qatorda yirik bitimlar uchun qonunda belgilangan miqdordan yuqori miqdorni belgilash cheklab qo'yilgan⁸⁰.

Rossiya Federatsiyasining "Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risida"gi federal qonuni 78-moddasida yirik bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish va ma'qullash bo'yicha alohida modda nazarda tutilgan bo'lib, unga muvofiq, yirik bitimni tuzish to'g'risidagi qaror qonun talablariga javob berishi zarur. Ushbu qarorda, quyidagi ma'lumotlar majburiy ravishda ko'rsatiladi: tomonlar, foyda oluvchilar, narx, bitim predmeti va boshqa muhim shartlar. Yirik bitimni tasdiqlash to'g'risidagi qoidalarga rioya etilishini baholashda quyidagilarni hisobga olish kerak:

1) bitimni tasdiqlash to'g'risidagi qarorda uning taraflari (tomonlari), naf oluvchi bo'lgan shaxs (shaxslar), shuningdek uning asosiy shartlari (narx, predmet va boshqalar) ko'rsatilishi kerak;

2) agar uning asosiy shartlari uni tasdiqlash to'g'risidagi qarorda yoki ushbu qarorga ilova qilingan bitim loyihasida aks etgan ushbu bitim to'g'risidagi ma'lumotlarga mos keladigan bo'lsa, tuzilgan bitim tasdiqlangan deb hisoblanadi;

3) bitimni tasdiqlash to'g'risidagi qarorda tegishli bitimning asosiy shartlarining muqobil variantlari ko'rsatilishi mumkin;

4) bitimni tasdiqlash to'g'risidagi qarorda u bir vaqtning o'zida faqat bir nechta bitimlarni amalga oshirishga ruxsat berilganligi, masalan, garov yoki kafillik shartnomasini tuzishda faqat kredit berish mumkinligi ko'rsatilishi mumkin⁸¹.

⁷⁹ <https://corp.gov.law.harvard.edu/2023/07/15/what-constitutes-a-sale-of-all-or-substantially-all-of-a-companys-assets/>

⁸⁰ Шиткина Ирина Сергеевна, Новый режим совершения крупных сделок «ЭЖ-Юрист», №09 (960) 2017
Источник: <https://www.eg-online.ru/article/338221/>

⁸¹ <http://kodeks.karelia.ru/api/show/420349838>

XULOSA

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, yirik bitimlarning asosiy xususiyati bu jamiyatning tabiati yoki yo'nalishini sezilarli darajada o'zgartirishi mumkinligi hisoblanadi. Ya'ni korporatsiya yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilishi orqali o'zining faoliyati va maqsadlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababdan ham, korporatsiya tomonidan tuziladigan boshqa bitimlardan farqli ravishda yirik bitimlarni tuzish to'g'risida qaror qabul qilish va ma'qullashning alohida tartibi belgilab qo'yilgan. Bunda yirik bitimni tashkil etuvchi mol-mulk miqdoridan kelib chiqib bunday qaror kuzatuv kengashi yoki umumiy yig'ilish tomonidan qabul qilinishini aksiyadorlik jamiyati va mas'uliyati cheklangan jamiyatlar misolida ko'rib chiqdik. Shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish natijasida shunga guvoh bo'lishimiz mumkinki, qaror qabul qilish hamda ma'qullash tartibi bilan bir qatorda, qarorga nisbatan muayyan talablar, ya'ni unda taraflar, narx kabi muhim shartlarning aks ettirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. X.P. Raḥmonqulov. S.C. Guļyamov. Korporativ huquq. Huquqshunoslik oliy ŷquv yurtlari uchun darслиk. – T.: TDЮИ, 2007. 277-б.
2. V.Umarov, X.Atajanov. Korporativ huquq. O'quv qo'llanma. TOShKENT-2021.
3. Корпоративное право. Ответственный редактор - доктор юридических наук И.С. Шиткина. Учебный курс. Второе издание, переработанное и дополненное. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова юридический факультет
4. <https://www.eg-online.ru/article/338221/>
5. <https://delcode.delaware.gov/title8/c001/sc10/index.html>
6. <https://corpgov.law.harvard.edu/2023/07/15/what-constitutes-a-sale-of-all-or-substantially-all-of-a-companys-assets/>
7. <http://kodeks.karelia.ru/api/show/420349838>

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARIDA SHARTNOMA BO ‘YICHA HARBIY XIZMAT QILISH MUNOSABATLARI

Y.S.Po‘latov

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizlik universiteti professori, yu.f.d.

V.E.Umaraliyev

O‘zMU, “Huquqiy fanlar” kafedrasida dotsenti, yu.f.n.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qonun hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini asosan shartnoma asosidagi harbiy xizmatchilar bilan ta’minlash masalasi ko‘rib chiqildi.

***Kalit so‘zlar:** asos, uskunalar, shartnoma Qurolli Kuchlar, O‘zbekiston Respublikasi, afzalliklari, harbiy xizmatchilar, qonun, me’yoriy hujjat, lavozim, yo‘nalish.*

ABSTRACT

In this article, the issue of providing the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan with military personnel mainly on the basis of contracts was considered on the basis of legal documents and other normative legal documents.

***Key words:** base, equipment, contract Armed Forces, Republic of Uzbekistan, advantages, military personnel, law, regulatory document, position, direction.*

*Fuqarolar harbiy yoki muqobil bo‘lishlari shart qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xizmat ko‘rsatish.
(O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasi)*

Qurolli kurash vositalari, shakllari va usullarini ishlab chiqish harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligiga yangi talablarni qo‘yadi. Jangovar qo‘mondonlik va boshqaruvning asosiy bo‘linmalariga, qurol-yarog‘ va harbiy texnikaga ilg‘or axborot texnologiyalarining joriy etilishi, resurslar cheklangan sharoitida ham harbiy qismlarning, ham har bir harbiy xizmatchining jangovar salohiyatini sezilarli darajada oshirish zarurati muqarrar ravishda harbiy xizmatni professionallashtirish masalasini ko‘taradi.

Mazkur muammoni hal etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentabrdagi PQ-4447-son qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizom” tasdiqlandi [1].

Serjantlar tomonidan to‘ldiriladigan harbiy lavozimlarga, Qurolli Kuchlarning doimiy jangovar shay holatda bo‘lgan qo‘shin va harbiy qismlarga ishga o‘tishini ta’minlashdan iborat. O‘zbekiston Respublikasi chegara qo‘shinlari va qo‘riqlash

qo‘shinlarining harbiy qismlari belgilangan harbiy pozitsiyalarni shaxsiy tarkib bilan to‘ldirishning yangi usuliga o‘tkazilmoqda, ko‘rsatilgan qo‘shinlar va harbiy qismlarning jangovar shayligini oshirmoqda [2].

Ushbu maqsadga erishish quyidagi tadbirlarni amalga oshirish orqali ta'minlanadi [3]:

1) kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilar, askarlar va serjantlar tomonidan to'ldiriladigan, yangi tarkibga o'tkazilgan harbiy qismlarda harbiy lavozimlar asosida professional armiyaga o'tish;

2) shartnoma bo'yicha harbiy xizmatning jozibadorligini oshirish maqsadida choraklik shartlarini takomillashtirish va jangovar tayyorgarlikning alohida shartlari uchun tabaqalashtirilgan nafaqani joriy etish;

3) harbiy qismlarni taqvim va safarbarlik kadrlarini tayyorlash va to'plash tizimiga tegishli o'zgartirishlar va tegishli tuzatishlar bo'yicha ishga qabul qilishning yangi usuliga o'tkazish;

4) kontrakt bo'yicha xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligi va kasbiy mahoratini oshirish orqali ishga qabul qilishning yangi usuliga o'tkazilgan harbiy qismlarning jangovar tayyorgarligini oshirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu yo'nalishdagi qarori qoidalari ikki yo'nalishda amalga oshirilmoqda:

- askarlar va serjantlar tomonidan to'ldiriladigan harbiy lavozimlarda shartnoma asosida harbiy xizmatni ijtimoiy ta'minlash va jozibadorligini oshirish;

- chaqiruvning yangi usuliga o'tgan harbiy qismlarning jangovar tayyorgarligini oshirish.

Birinchi yo'nalishni amalga oshirish quyidagilar bilan ta'minlanadi:

- harbiy lavozimlarda kontrakt bo'yicha xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarni to'g'ridan-to'g'ri joylashtirish shartlariga o'zgartirishlar kiritilishi, harbiy qismlarda askar va serjantlar bilan almashtirilishi shart bo'lgan harbiy xizmatga qabul qilishning yangi usuliga o'tkazilgan;

- kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarning askarlar va serjantlar tomonidan to'ldiriladigan harbiy lavozimlarda, ishga qabul qilishning yangi usuliga o'tkazilgan harbiy qismlarda ijtimoiy holati va moddiy ahvoli o'zgarishi.

Yuqorida ko'rsatilgan huquqiy hujjatning shartnoma bo'yicha harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarni joylashtirish shartlarini o'zgartirishga qaratilgan chora-tadbirlari:

a) kazarmalarni soddalashtirilgan turdagi harbiy yotoqxonalarga rekonstruksiya qilish (konvertatsiya qilish);

b) yangi harbiy yotoqxonalar qurish;

v) kazarma zonasi ob'ektlarini belgilangan me'yorlarga muvofiqlashtirish;

d) kazarma zonasida mavjud va foydalanishga topshirilayotgan ob'ektlarning ishlashini ta'minlash uchun ijtimoiy va muhandislik infratuzilmasini rivojlantirish.

Shartnoma bo'yicha harbiy xizmatning jozibadorligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarga quyidagilar kiradi:

1) jangovar tayyorgarlikning alohida shartlari uchun tabaqalashtirilgan mukofot to'lash;

2) oilali ko'rsatilgan harbiy xizmatchilarga O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan me'yorlar bo'yicha qo'shimcha ijaraga olingan uy-joy uchun kompensatsiya to'lash;

3) ko'rsatilgan harbiy xizmatchilarning kiyim-kechak bilan ta'minlanish darajasini O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan me'yorlarga yetkazish;

4) ushbu harbiy xizmatchilarning huquqlarini amalga oshirishni ta'minlash:

- tibbiy yordam uchun, shu jumladan sanatoriy-kurortda davolanish uchun oylik kompensatsiya belgilash;

-harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarining yangi navbatchilik joyiga borishi, shu jumladan ta'til joyiga va qaytib kelishlari uchun har oylik kompensatsiya to'lovlarini to'lash;

5) maxsus (dala) sharoitlarda jangovar topshiriqlar va jangovar tayyorgarlik vazifalarini bajarishni rag'batlantirish;

6) bepul oliy ma'lumot olish huquqini berish yoki o'rta maxsus ta'lim.

Ikkinchi yo'nalishni amalga oshirish quyidagilar bilan ta'minlanadi:

- harbiy qismlarning jangovar tayyorgarligi va moddiy-texnik ta'minotini yaxshilash;

- harbiy qismlarning texnik jihozlarini saqlash;

- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari, boshqa qo'shinlar, harbiy tuzilmalar va harbiy xizmatchilar bilan shartnoma bo'yicha xizmatni o'tayotgan organlarni jalb etish tizimining barqaror ishlashini ta'minlaydigan shart-sharoitlarni yaratish.

Yuqorida qayd etilgan hujjatning harbiy qismlarning jangovar tayyorgarligini va moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlari quyidagilarni nazarda tutadi:

a) harbiy lavozimlarda kontrakt bo'yicha xizmat qilayotgan, harbiy xizmatchilar va serjantlar bilan almashtirilishi shart bo'lgan, ishga qabul qilishning yangi usuliga

o'tkazilgan harbiy qismlarda harbiy xizmatchilarni jangovar (maxsus) tayyorgarlik bilan bog'liq bo'lmagan vazifalarni bajarishdan va ularning mehnat majburiyatlarini bajarishdan ozod qilish;

b) jangovar tayyorgarlikning o'quv, moddiy-texnik bazasini takomillashtirish;

v) talablarga muvofiq jangovar tayyorgarlikni tashkil etish;

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan;

d) jangovar tayyorgarlikning o'quv, moddiy-texnika bazasi va infratuzilma ob'ektlari sonini ko'paytirishni ta'minlash;

e) jangovar tayyorgarlikning yuqori shakllarini o'tkazishni ta'minlash.

Ushbu qonunning harbiy qismlarni texnik jihozlarini saqlashga qaratilgan chora-tadbirlari quyidagilarni nazarda tutadi:

- qurol-yarog' va harbiy texnikaning tegishli texnik holatini saqlash (jangovar mashg'ulotlar paytida ish intensivligi oshishi sababli qurol va harbiy texnikaga joriy texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash);

- harbiy qismlarning infratuzilma ob'ektlarini jangovar tayyorgarlik va jangovar tayyorgarlikni takomillashtirishni ta'minlaydigan darajada saqlash.

Yuqorida qayd etilgan huquqiy hujjatning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari, boshqa qo'shinlari, harbiy tuzilmalari va organlarini shartnoma bo'yicha harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilar bilan to'ldirish tizimining barqaror ishlashini ta'minlaydigan shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan chora-tadbirlari:

1) rejalashtirilgan tadbirlarni ilmiy ta'minlash;

2) ishga qabul qilishning yangi usuliga o'tgan harbiy qismlarda askar va serjant sifatida harbiy lavozimlarni egallab turgan harbiy xizmatchilarning shartnoma bo'yicha harbiy xizmatni o'tashini me'yoriy-huquqiy jihatdan ta'minlashni takomillashtirish;

3) kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarni ishga qabul qilishning yangi usuliga o'tgan harbiy qismlarda askar va serjantlar tomonidan to'ldiriladigan harbiy lavozimlarga jalb qilishga o'tishning tashkiliy masalalarini hal qilish;

4) rejalashtirilgan tadbirlarni axborot bilan ta'minlash;

5) O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari, boshqa qo'shinlari, harbiy tuzilmalari va organlarini jalb etishning barqaror va markazlashgan tizimini yaratish.

Harbiy qismlarni chaqirishning yangi usuliga o'tish sharoitida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari, chegara va qo'riqlash qo'shinlarining jangovar va safarbarlik shayligini oshirishni ta'minlaydigan shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan yuqoridagi chora-tadbirlarda :

- qo'shimcha texnik xavfsizlik va signalizatsiya tizimlarini sotib olish va o'rnatishni ta'minlash;

- harbiy xizmatga shartnoma asosida harbiy xizmatga kirgan harbiy xizmatchilarni askar va serjantlar tomonidan to'ldiriladigan harbiy xizmatga qabul qilishning yangi usuliga o'tgan harbiy qismlarda, o'quv markazlari va harbiy tayyorgarlik bo'linmalarida dastlabki tayyorgarlikdan o'tkazish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida qayd etilgan qarori va Vazirlar Mahkamasining ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha qarori ijrosi kelgusi yillarda harbiy xizmatga qabul qilishning yangi usuliga o'tkazilgan harbiy qismlarni harbiy xizmatchilar bilan to'ldirish uchun sharoit yaratadi. askar va serjantlar tomonidan to'ldiriladigan harbiy lavozimlarda shartnoma bo'yicha harbiy xizmatni o'tash.

Ushbu normativ-huquqiy hujjatlarni amalga oshirish natijalari quyidagilar bo'ladi:

- harbiy xizmatni kontrakt bo'yicha o'tayotgan harbiy xizmatchilarni ishga olishning yangi usuliga o'tkazilgan harbiy qismlarda (birinchi navbatda, Afg'oniston bilan chegarada joylashgan va (yoki) topshiriqlarni bajaruvchi harbiy qismlarda) askar va serjantlar tomonidan to'ldiriladigan harbiy lavozimlar bilan muntazam ravishda almashtirish; ;

- kontrakt bo'yicha muddatli harbiy xizmatga kirayotgan fuqarolarning ishga qabul qilishning yangi usuliga o'tgan harbiy qismlarda askar va serjantlar tomonidan to'ldiriladigan harbiy lavozimlarga dastlabki shartnomalar tuzishi uchun shart-sharoit yaratish va shartnoma bo'yicha xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar sonini ko'paytirish; bu lavozimlarda.

Yuqorida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish natijasida quyidagilarga erishiladi:

- muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarni, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari, boshqa qo'shinlar, harbiy tuzilmalar va organlarga jalb etish va ushbu harbiy xizmatchilarni Afg'oniston bilan chegarada harbiy xizmatga jo'natishning amaldagi tizimidan jamiyatda hukm surayotgan past qoniqishni kamaytirish; ;

- muddatli harbiy xizmatni bir yilgacha davom ettirish.

Shartnoma asosidagi harbiy xizmatchining kasbiy mahoratining ajralmas sharti uning harbiy burchini ongli ravishda bajarishiga yordam beradigan yuksak huquqiy madaniyati va mustahkam huquqiy bilimi, shuningdek, o'z huquq va qonuniy manfaatlarini mustaqil himoya qilish va himoya qilish qobiliyatidir. Ushbu kitob shartnoma bo'yicha harbiy xizmatchilarning huquqiy bilimlarini oshirish va kundalik

mehnat faoliyatida huquqiy vositalardan foydalanish ko'nikma va ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berish uchun mo'ljallangan [4].

ADABIYOTLAR

1. Qarang: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2019-yil 13-sentabr, № 07/19/4447/3747. Mazkur normativ-huquqiy hujjat O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrda 436- II- son "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonunlari qoidalarini ham o'z ichiga oladi. //Vedomosti Oliy O'zbekiston Respublikasi Majlisi , 2002 yil, 12-son, m. 217 (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan); 2003 yil 25 aprelda 478- II- son "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervida xizmat qilish to'g'risida" // Oliy Vedomosti. O'zbekiston Respublikasi Majlisi , 2003 y., 5-son, m. 65 (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda "2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni 1-moddasi 7-bandi ham ana shu maqsadlarga erishishga qaratilgan // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., No 06/22/60/0082, 18/03/2022, № 06/22/89/0227.
3. "Respublika Qurolli Kuchlarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3898-son Farmonida ham belgilangan. O'zbekiston" // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2018 yil 13 avgust, 32-son, m. 656.

MINTAQA IQTISODIYOTINI OSHIRISHDA INFRATUZILMANING O'RNI

Nurullayev Baxrom Botirovich

Urganch Ranch texnologiya universiteti,

Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada iqtisodiyotni rivojlantirishda infratuzilmalarni rivojlanishi haqida yozilgan bo'lib, bunda xalqaro va mintaqaviy kesimdagi infratuzilmalar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *Infratuzilma, ijtimoiy, iqtisodiy, ishlab chiqarish, iqtisodiy infratuzilma, umumiy ishlab chiqarish shartlari.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье написано о развитии инфраструктур в развитии экономики, в которой выделены международные и региональные инфраструктуры.

Ключевые слова: *Инфраструктура, социальная, экономическая, производственная, экономическая инфраструктура, общие условия производства и др.*

ABSTRACT

This article is written about the development of infrastructures in the development of the economy, in which the international and regional infrastructures are highlighted.

Key words: *Infrastructure, social, economic, production, economic infrastructure, general production conditions*

KIRISH

Mintaqa iqtisodiyotida infratuzilmaning o'rnini aniqlashda dastlab mintaqqa iqtisodiyoti va infratuzilma atamalarining mazmun-mohiyatini tushunib olish zarur. Mintaqaviy iqtisodiyot mintaqqa taraqqiyotining ob'ektiv shart-sharoitlari va omillarini, ishlab chiqarish tarkibi, ijtimoiy soha va aholining turmush sharoitini, aholi va xo'jalikning joylashishini, iqtisodiyotning faoliyat ko'rsatishi va uning boshqarish mexanizmini, mazkur mintaqaning boshqa mintaqalar va mamlakatlar bilan o'rnatgan iqtisodiy aloqalarini tadqiq etadi.

Mintaqa (region) bu ma'lum hudud bo'lib, u boshqa hududlardan qator belgilar bo'yicha farq qiladi va o'ziga xos bir butunlik, tarkibiy elementlari o'rtasida o'zaro aloqadorlik mavjudligi bilan ifodalanadi. «Region» lotincha so'z bo'lib (regio),

tarjima qilinganda mamlakat, o'lka, oblastma'nosini anglatadi. «Region» so'ziga sinonim qilib «rayon» tushunchasi ko'pchilik olim va tadqiqotchilartomonidan qabul qilingan.

Infratuzilma esa (lotincha: “infra”— pastda, ostida va “structura”— tuzilma, joylashuv)—ishlab chiqarishga va butun iqtisodiyotga xizmat qiladigan, ular uchun go'yoki umumiy poydevor, tayanch yaratadigan tarmoqlar va faoliyat turlari majmuidir.

Iqtisodiyot infratuzilmasi transport va aloqa vositalari, omborxonalar, energiya va suv ta'minoti va boshqalarni o'z ichiga oladi. Iqtisodiyot infratuzilmasi sifatida tasniflangan tarmoqlar doirasi turli mamlakatlarda turlicha belgilanadi. Ularning umumiy maqsadi sotuvchilar va xaridorlar o'rtasidagi tovar va xizmatlar oqimini soddalashtirish va samaraliroq qilishdir. Ayrim mualliflar iqtisodiyotning infratuzilmasi sifatida fan, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimini ham kiritib, ularni iqtisodiyotning noishlab chiqarish (ijtimoiy) infratuzilmasi deb ataydilar.

Shuningdek, infratuzilma tushunchasiga ta'rif berilganda ayrim tadqiqotchilar uni tovarlar shakli va ishlab chiqarish jarayonlariga bevosita aloqador bo'lmagan, shuningdek, ishlab chiqaruvchiga to'g'ridan-to'g'ri foyda (yoki daromad) keltirmaydigan “jamiyat sarf xarajatlari” sifatida baholasalar, ayrim tadqiqotchilar ishlab chiqarish amalga oshirilishini va samaradorligini ta'minlashning zaruriy xarakterdagi shartlar (yo'llar va kommunikatsiyalar tarmog'i, transport vositalari va qatnovi, yer qurilishi va boshq.) majmuasi, deya e'tirof etadilar. Xuddi g'arb iqtisodiy tadqiqotchilik tizimida bo'lgani kabi, yaqin xorij, jumladan, rossiyalik bir qator olimlar ilmiy ishlarida ham, qolaversa, milliy tadqiqotchilikda ham infratuzilmalarga yagona, umumiy fikrdagi qarash mavjud. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, infratuzilmalarga berilayotgan tavsiflarning xilma-xillik ko'p hollarda tadqiq etilayotgan obyekt yoki faoliyat sohasining yetakchiligini ta'minlashga bo'lgan bo'lgan moyillik ta'siriga uchraydi. Ya'ni, ayrim tadqiqot ishlarida moddiy ishlab chiqarish sektorini o'rganilish jarayonida ularda kechadigan munosabatlardagi infratuzilmalarning o'rni tadqiq etiladi va bunda tabiiyki, infratuzilmalar tarmoqosti soha sifatida baholanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Infratuzilma masalalarini o'rganish ancha uzoq tarixga ega bo'lib, u mahalliy iqtisodiyot fanida D.I.Mendeleyev, A.I.Chuprov, shuningdek, sovet iqtisod fanida K.Myuller-Byulov, A.Yu.N. Xomyanskiy, S.S. Nosova nomlari bilan bog'liq. Chet el iqtisodiyotida K. Marks, J. Marksning asarlarida infratuzilma muammolari muhokama qilingan.

A.V. Chuprov infratuzilma masalalarini asosan temir yo‘l transporti misolida o‘rgandi^[1]. K.Marks infratuzilma, birinchi navbatda, transport va kommunikatsiyalar haqida gapirdi. Shuningdek, zamonaviy „infratuzilma“ tushunchasini ifodalash uchun ishlatiladigan atamalarning ko‘pligini ta’kidlash kerak. Masalan, K. Marks o‘z asarlarida „mehnatning umumiy shartlari“^[2], „umumiy ishlab chiqarish shartlari“^[3] atamalarini ishlatgan.

Infratuzilmaga kiritiladigan sarmoyalarni xalqaro darajada ko‘radigan bo‘lsak, infratuzilmaga sarmoya kiritish bo‘yicha jahon yetakchisi Xitoy bo‘lib, u yalpi ichki mahsulotlarning o‘rtacha 8,5 foizini sarflaydi. Rossiya har yili yalpi ichki mahsulotlarning 3,2 foizini shu kabi maqsadlarga sarflaydi^[4].

So‘nggi yillarda dunyo bo‘yicha infratuzilmaga kiritilgan investitsiyalar: AQShda-yalpi ichki mahsulotning 1,0%, Xitoyda-yalpi ichki mahsulotning 10,9%, Germaniyada-yalpi ichki mahsulotning 1,3%. Investitsiya kiritishda ayrim muammolar sifatida ko‘pincha pul bo‘lmagan ekvivalentda o‘lchanadigan ushbu turdagi investitsiyalarga qaytishni baholashni misol qilish mumkin. Masalan, amerikalik ekspertlarning fikricha, AQSHda transport inshootlari qurilishiga 1 million dollarlik sarmoya kiritilishi 35 ming ish o‘rni yaratish imkonini beradi^[5].

Mintaqada iqtisodni rivojlantirishda infratuzilmaning o‘rnini aniqlashda Xorazm viloyati kesimida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, joriy yilning 5 - yanvar kuni Urganch shahridagi studiyadan Xorazm viloyatining jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini rag‘batlantirish bo‘yicha monitoring ishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari S. Umurzoqov rahbarligida videokonferensiya shaklida uchrashuv bo‘lib o‘tdi^[6].

Yig‘ilishda vazirliklar, idoralar, sanoat birlashmalari, tijorat banklari rahbarlari, mahalliy hokimiyat organlari, to‘rtta sektor rahbarlari, shuningdek Xorazm viloyatining barcha tuman va shaharlari 519 ta mahalla rahbarlari ishtirok etishdi.

Yig‘ilishda iqtisodiy salohiyatni, aholini ish bilan ta‘minlashning muhim yo‘nalishlarini, infratuzilmaning hozirgi holatini va har bir mahallaning ijtimoiy sohasining rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi zarurligi ta’kidlandi. Ma’lum bo‘lishicha, hozirgi paytda Xorazm viloyatida umumiy qiymati 9,8 trillion so‘m bo‘lgan 686 ta investitsiya loyihalarini amalga oshirish rejalashtirilgan bo‘lib, ular 15 mingga yaqin yangi ish o‘rinlarini yaratishga imkon beradi.

Qo‘shimcha ravishda shuni aytish lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni ijrosini ta‘minlash, Xorazm viloyati hududlarida sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohasining kelgusi besh yildagi istiqbollari hamda har bir tuman va

shaharning “o’sish nuqtalari”ni belgilash, ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali aholi salomatligi hamda turmush darajasini yanada yaxshilash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori mavjud bo’lib, unga ko’ra:

-hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo’yicha o’rnatilgan yangi tartib asosida Xorazm viloyatining tuman va shaharlaridagi mavjud muammo va imkoniyatlar chuqur o’rganilgan holda, hududlar kesimida muhim loyihalar shakllantirilganligi va mahalliy jamoatchilik ishtirokida keng muhokama qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilish;

-Xorazm viloyatida 2022 — 2026-yillarda yalpi hududiy mahsulot hajmini 1,4 baravarga, sanoat mahsulotlari hajmini 1,4 baravarga, qishloq xo’jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni 1,1 baravarga, xizmatlar hajmini 3,1 baravarga hamda qurilish ishlari hajmini 1,2 baravarga oshirishni nazarda tutuvchi shahar va tumanlar kesimidagi maqsadli ko’rsatkichlar parametrlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanishi nazarda tutilgan.

Shuningdek, 2022-yilda Xorazm viloyatida muhandislik-kommunikatsiya, ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish infratuzilmasini rivojlantirish hamda ijtimoiy soha obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash bo’yicha kompleks tadbirlar, iqtisodiy taraqqiyot va kambag’allikni qisqartirish vazirligi va Moliya vazirligi ushbu qaror doirasida respublika budjetidan ajratiladigan mablag’lar o’z vaqtida ajratib borilishi keltirilgan.

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag’allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi joriy yilda ilovaga kiritilgan obyektlarning loyiha hujjatlarini ishlab chiqish uchun zarur mablag’larni 2022-yilgi ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida loyiha-qidiruv ishlari uchun nazarda tutilgan mablag’lar hisobidan moliyalashtirish hamda 2023-yilga mo’ljallangan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritish orqali viloyatda sezilarli darajada iqtisodiy o’zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Xorazm viloyatida 2022 — 2026-yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar parametrlari								
T/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Jami	Yillar kesimida				
				2022	2023	2024	2025	2026
Xorazm viloyati								
1.	Yalpi hududiy mahsulot (YaHM)	hajmi (trln so'm)	1,4 baravar	33,4	39,5	46,7	55,2	65,4
1.1	aholi jon boshiga	o'sish (%)	-	107,3	107,1	107,4	107,6	107,7
		ming so'm	-	17 047,0	19 811,3	23 023,7	26 797,1	31 207,0
2.	Sanoat mahsulotlari	hajmi (trln so'm)	1,4 baravar	15,3	17,1	19,2	21,6	25,3
2.1	aholi jon boshiga	o'sish (%)	-	107,8	107,4	107,9	108,1	112,4
3.	Hududiy sanoat mahsulotlari	hajmi (trln so'm)	1,3 baravar	6,0	6,7	7,3	8,2	9,5
3.1	aholi jon boshiga	o'sish (%)	-	104,3	105,7	105,4	107,2	111,5
4.	Iste'mol tovarlari	hajmi (trln so'm)	-	9,6	10,7	12,1	13,7	16,0
4.1	aholi jon boshiga	o'sish (%)	-	105,3	106,2	105,7	107,8	111,5
5.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	hajmi (trln so'm)	-	25,2	25,9	26,7	27,7	28,7
5.1	aholi jon boshiga	o'sish (%)	-	103,2	103,2	103,5	103,6	103,7
6.	Xizmat ko'rsatish	hajmi (trln so'm)	-	13,1	17,9	23,3	29,0	34,9
6.1	aholi jon boshiga	o'sish (%)	-	150,0	134,5	127,2	122,0	119,0
7.	Qurilish ishlari	hajmi (trln so'm)	-	5,5	6,5	7,8	9,4	11,3
7.1	aholi jon boshiga	o'sish (%)	-	104,4	104,2	105,2	105,2	105,5
8.	Mahalliy budjet daromadlari	mird so'm	12 153	1 913,6	2 029,2	2 358,7	2 729,1	3 122,4
9.	Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratiladigan kreditlar	mird so'm	5163,0	695,0	834,0	998,0	1198,0	1438,0
10.	Noqishloq yerlarni aqsiyonga chiqarish	birlik	-	5440	1218	1153	1088	1023
11.	Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritilgan loyihalarni bo'yicha o'zlashtirish hajmi va loyihalar soni	mird so'm	4 429,2	663,1	761,6	865,3	995,1	1 144,1
		birlik	X	89	X	X	X	X
12.	"Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida bajariladigan ishlar hajmi	mird so'm	2 212,5	367,1	369,6	425,0	488,8	562,1
13.	Aholini bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari asosida uy-joy bilan ta'minlash	mird so'm	3 333	505	513	625	784	906
		birlik	485/11556	93/2192	83/1972	93/2172	105/2500	111/2720
14.	Ichimlik suv tarmoqlarini tortish va rekonstruksiya qilish	km	2 973,7	800,4	711,3	603,5	443,2	415,3
15.	Aholining ichimlik suv bilan ta'minlanish darajasi	foiz	95,8	86,9	89,3	91,9	94,3	95,8
16.	Oqova suv tizimi bilan qamrov darajasi	foiz	11,5	8,2	9,2	9,9	10,8	11,5
		dona	485	93	83	93	105	111
17.	Ko'p qavatli uy-joylar qurish	xonadon soni	11 556	2 192	1 972	2 172	2 500	2 720
18.	Ipoteka kreditlari hisobiga yakka tartibdagi uy-joylarni qurish	dona	3100	500	650	650	650	650
19.	Elektr ta'minotini yaxshilash:							
19.1	elektr tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish	km	5 129,3	1 005,3	1 010,5	1 020,7	1 041,2	1 051,6
19.2	transformatorlarni qurish va ta'mirlash	dona	1 077	217	215	215	215	215
19.3	podstanyalarni yangilash	dona	10	5	3	0	1	1
20.	Avtomobil yo'llarini qurish va ta'mirlash	km	4713,40	544,10	1004,02	1046,92	1052,22	1066,12
20.1	umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini:	km	1195,0	201,10	213,5	246,9	259,8	273,7
	asfalt bilan qoplash	km	1195,0	201,10	213,5	246,9	259,8	273,7
20.2	ichki xo'jalik yo'llarini:	km	3256,4	319,0	734,52	734,02	734,42	734,42
	qum-shag'al aralashmasi bilan qoplash	km	2940,5	202,0	684,62	684,62	684,62	684,62
	asfalt bilan qoplash	km	257,9	59	49,9	49,4	49,8	49,8

XULOSA

Yuqorida keltirilgan fikrlarni va ma'lumotlarni o'rganib chiqish natijasida shuni xulosa qilib aytish mumkinki, mintaqada iqtisodni rivojlantirishda iqtisodiy infratuzilmani to'g'ri shakllantirish muhim rol o'ynaydi. To'g'ri tashkil etilgan infratuzilmaga amal qilgan holda hududda ko'plab o'zgarishlar amalga oshirilishi, kamchiliklar sezilishi va bartaraf etilishi mumkin. Shuningdek, hududda yaxshi rivojlanishi mumkin bo'lgan sohalar yaqqol namoyon bo'lishi va unga e'tibor qaratish natijasida ish soni ko'payishi va aholi daromadlarini ham oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Кокурин Д.И., Назин К.Н.. *Формирование и реализация инфраструктурного потенциала экономики России*. М.: Транслит, 2011
2. Маркс К., Энгельс Ф.. *Сочинения*. М.: Гос. изд-во политической литературы, 1955
3. Маркс К., Энгельс Ф.. *Сочинения*. М.: Гос. изд-во политической литературы, 1955

4. Альбер Еганян. *Инвестиции в инфраструктуру: Деньги, проекты, интересы. ГЧП, концессии, проектное финансирование.*, 2015.
5. Назин К.Н. Влияние логистической инфраструктуры на состояние экономики: межрегиональный аспект“, *Интеграция и координация логистических процессов в цепях поставок*, 2012
6. <https://brightuzbekistan.uz/uz/xorazm-viloyati-mahallalari-tumanlari-va-shaharlarini-ijtimoiy-iqtisodiy-rivojlantirish-boyicha-kompleks-dasturni-tayyorlash-boyicha-ishlarning-borishi-korib-chiqildi/>

ЭЛЕМЕНТЫ КОМБИНАТОРИКИ

Зайнолобидинова Х.Р.

Ферганский государственный университет

xzaynolobidinova@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье приведены некоторые примеры решаемые с помощью классического определения теории вероятности, геометрического определения теории вероятности.

***Ключевые слова:** вероятность, полная группа, элементарные исходы, равновозможные события, размещение, сочетание.*

ABSTRACT

This article provides some examples that can be solved using the classical definition of probability theory and the geometric definition of probability theory.

***Key words:** probability, complete group, elementary outcomes, equally possible events, placement, combination.*

Комбинаторика – это раздел математики, который занимается подсчетом возможных вариантов расположения, комбинаций или выбора объектов, а также поиском закономерностей или структур, возникающих в результате такого расположения.

Комбинаторика может, к примеру, ответить на такие вопросы:

Какова вероятность того, что при бросании монеты выпадет герб?

Сколькими способами можно посадить 5 студентов на 5 стульев?

Сколькими способами можно посадить 4 студентов на 9 стульев.

В сувенирном магазине продаются 6 видов кружек, Сколько есть способов выбрать 4 разные?

Пусть m – число элементарных исходов испытания, благоприятствующих появлению события A ; n – общее число возможных элементарных исходов испытания.

Определение. Вероятность события A равна отношению числа элементарных событий благоприятствующих событию A , к общему числу равновозможных элементарных событий.

При классическом определении вероятность определяется равенством

$$P(A) = m/n$$

Предполагается, что элементарные исходы образуют полную группу и равновозможны.

1. При перевозке ящика, в котором содержались 21 стандартная и 10 нестандартных деталей, утеряна одна деталь, причем неизвестно какая. Наудачу извлеченная (после перевозки) из ящика деталь оказалось стандартной. Найти вероятность того, что была утеряна:

а) стандартная деталь; б) нестандартная деталь[1-3].

Решение. а) Извлеченная стандартная деталь, очевидно не могла быть утеряна; могла быть потеряна любая из остальных 30 деталей

($21-1+10=30$), причем среди них было 20 стандартных ($21-1=20$). Вероятность того, что была потеряна стандартная деталь,

$$P(A) = 20/30 = 2/3.$$

б) Среди 30 деталей, каждая из которых могла быть утеряна, было 10 нестандартных. Вероятность того, что потеряна нестандартная деталь,

$$P(B) = 10/30 = 1/3.$$

Ответ: а) $P(A) = 2/3$; $P(B) = 1/3$.

Определение. Перестановки – это специальный случай размещений, когда выборка так же велика, как данное множество.

Размещения по n элементов из n называются перестановками из n элементов.

Вычисляя перестановки, определяем, сколькими способами можно переупорядочить элементы множества, не меняя их количество.

Количество перестановок обозначается как P_n , где n – количество элементов множества.

Перестановки вычисляется по формуле:

$$P_n = n!$$

Перестановки с повторениями вычисляется по формуле:

$$\bar{P}_n(k_1, k_2, \dots, k_l) = \frac{n!}{k_1! * \dots * k_l!}$$

2. Сколькими способами можно посадить 5 студентов на 5 стульев?

Решение. Так как количество студентов и количество стульев равны, воспользуемся формулой перестановки. $n = 5$, так как число стульев и студентов равно пяти.

$$P_5 = 5! = 1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 4 \cdot 5$$

$$\text{Отсюда, } P_5 = 120$$

$$\text{Ответ: } P_5 = 120.$$

Определение. Размещением из n элементов по m элементов ($m \leq n$) называется упорядоченная выборка элементов m из данного множества элементов n .

Количество размещений из n элементов по m элементов обозначается A_n^m (читается как «размещение из n элементов по m элементов»).

Число m показывает количество элементов размещения (сколько элементов выбирается).

Число n показывает количество элементов данного множества.

Два размещения из n элементов считаются различными, если они отличаются самими элементами или порядком их расположения.

Размещения вычисляется по формуле:

$$A_n^m = \frac{n!}{(n-m)!} \text{ или } A_n^m = n \cdot (n-1) \cdot (n-2) \cdot \dots \cdot (n-m+1)$$

Размещения с повторениями вычисляется по формуле:

$$\bar{A}_n^k = n^k$$

3. В пассажирском поезде 9 вагонов. Сколькими способами можно рассадить в поезде 4 человека, при условии, что все они должны ехать в различных вагонах?

Решение. Так как все пассажиры должны ехать в разных вагонах, требуется отобрать 4 вагона из 9 с учетом порядка (вагоны отличаются номерами), эти выборки – размещения из n различных элементов по m элементов, где $n = 9$, $m = 4$. Число таких размещений находим по формуле:

$$A_n^m = n \cdot (n-1) \cdot (n-2) \cdot \dots \cdot (n-m+1).$$

Получаем: $A_9^4 = 9 \cdot 8 \cdot 7 \cdot 6 = 3024$.

Ответ: 3024 способами можно рассадить в поезде 4 человека.

Определение. Сочетанием из n элементов по m элементов ($m \leq n$) называется выборка элементов m из данного неупорядоченного множества

Количество сочетаний обозначается как C_n^m (читается: сочетания из n по m).

Сочетания вычисляется по формуле:

$$C_n^m = \frac{n!}{m!(n-m)!}$$

Сочетания с повторениями вычисляется по формуле:

$$\bar{C}_n^k = C_{n+k-1}^k = \frac{(n+k-1)!}{k! \cdot (n-1)!}$$

4. Найти вероятность того, что при бросании трех игральных костей шестерка выпадет на одной (безразлично какой) кости, если на гранях двух других костей выпадут числа очков, на совпадающие между собой (и не равные шести) [4-5].

Решение. Общее число элементарных исходов испытания равно числу сочетаний из шести элементов по три, т. е. C_6^3 .

Число исходов, благоприятствующих появлению шестерки на одной грани и различного числа очков (не равного шести) на гранях двух других костей, равно числу сочетаний из пяти элементов по два, т. е. C_5^2 .

Искомая вероятность равна отношению числа исходов, благоприятствующих интересующему нас событию, к общему числу возможных элементарных исходов: $P(C) = C_5^2 / C_6^3 = 1/2$.

Ответ: $P(C) = 1/2$.

Вывод: При решении задач важно применить одну из формул сочетания, размещения и перестановки. Если порядок выбранных элементов не важен, то применяем формулу сочетания. Если порядок выбранных элементов важен, то применяем либо формулу перестановки, либо размещения. Формула перестановки применяется, когда выбираются все n элементов, если наоборот, то размещения. Формула сочетаний с повторениями, размещений с повторениями, перестановки с повторениями используются когда среди выбранных элементов есть повторения.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Гнеденко Б. В. Курс теории вероятностей. – М.: Физматгиз, 1988.
2. Гмурман В. Е. Руководство к решению задач по теории вероятностей и математической статистике – М.: Высш. Школа, 1979.
3. Yusupova, A., & Gafforov, R. (2021). The role of student attentiveness in the classroom of probability theory and mathematical statistics in higher education. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 11(11), 72-76.
4. Yusupova, A. K., & Gafforov, R. A. (2021). Refining One Theorem For The Romanovsky Distribution. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, 3(06), 103-108.
5. Абдулатипова Зарнигор Алишер кизи, Юсупова Анора Каримовнаю. Комбинаторные задачи о шахматах. LXXVIII международная научно-практическая конференция "Химия, физика, биология, математика: теоретические и прикладные исследования". 17.11.2023с.17-25.

YOZYOVON HUDUDIDA QAYD ETILGAN EREMIAS (REPTILIA:SQUAMATA) URUG'I VAKILLARINING SISTEMATIKASI

Shohruh Yo'ldashev

Magistrant, zoologiya va umumiy biologiya kafedrası, Farg'ona davlat
universiteti, Farg'ona, 150101, O'zbekiston

shohruhbahtiyarvich@gmail.com

ANNOTATSIYA

Tadqiqotning maqsadi Yozyovon hududi gerpetofaunasining xilma-xilligini o'rganish va tarqalish arealini hududlar kesimida tahlil qilishdan iborat. Maqolada Yozyovon gerpetofaunasini o'rganish maqsadida Farg'ona viloyatining Yozyovon hududida 2023-yilning sentabr-oktabr oylarida olib borilgan kuzatish va tadqiqotlar natijalari taqdim etilmoqda. Kuzatuv tadqiqotlarimiz "Yozyovon tabiat yodgorligi" va Yangiobod cho'llarida olib borildi. Tadqiqot natijasida 1 oila 1 urug'ga mansub 4 tur aniqlanganini ma'lum qilamiz:

Kaltakesaksimonlar (Lacertilia) kenja turkumiga oid 4 tur: chiziqli kaltakesakcha (Eremias lineolata Nikolskii, 1897), o'rtacha kaltakesakcha (Eremias intermedia Strauch, 1876), ildam kaltakesakcha (Eremias velox Pallas, 1771) va tojik kaltakesakchasi (Eremias regeli Bedriagai, 1905).

Kalit so'zlar: Yozyovon tabiat yodgorligi, reptilia, squamata, lacertilia, eremias.

АННОТАЦИЯ

Цель исследования — изучить разнообразие герпетофауны Язьяваны и проанализировать ареал распространения в разрезе регионов. В статье представлены результаты наблюдений и исследований, проведенных в сентябре-октябре 2023 года в Язьяванском районе Ферганской области с целью изучения герпетофауны Центральной Ферганы. Наши наблюдательные исследования проводились на территории «Памятника природы Язьяван» и Янгиабадской пустыни. Сообщаем Вам, что в результате исследований выявлено 4 вида, принадлежащих к 1 семейству и 1 роду:

4 вида, принадлежащих к подсемейству ящериц (Lacertilia): линейчатая ящурка (Eremias lineolata Nikolski, 1897), средняя ящурка (Eremias intermedia Strauch, 1876), быстрая ящурка (Eremias velox Pallas, 1771), таджикская ящурка (Eremias regeli Bedriagai, 1905).

Ключевые слова: «Памятник природы Язьяван», рептилии, чешуйчатые, ящерицы.

ABSTRACT

The purpose of the study is to study the diversity of the herpetofauna of Yazyavan and to analyze the area of distribution in a cross-section of regions. The article presents the results of observations and research conducted in September-October 2023 in the Yazyavan region of Fergana region in order to study the herpetofauna of Central Fergana. Our observation studies were conducted in "Yozyovon Nature Monument" and Yangiabad deserts. We inform you that 4 species belonging to 1 families and 1 genera were identified as a result of the research:

4 species belonging to the subfamily of lizards (Lacertilia): striped racerunner (*Eremias lineolata* Nikolskii, 1897), Aralo-Caspian racerunner (*Eremias intermedia* Strauch, 1876), rapid racerunner (*Eremias velox* Pallas, 1771) and tajik racerunner (*Eremias regeli* Bedriagai, 1905)

Key words: Yazyavan natural monument, reptilia, squamata, lacertilia, eremias.

KIRISH

O'zbekistonning gerpetofaunistik ro'yxati so'nggi bor 2006-2021 yillarda shakllantirilgan bo'lib, gerpetofaunaning 14 oilaga mansub 62 turi (shundan *eremias* spp.ga oid 9 tur) qayd etilgan (Ananjeva va boshq., 2006; Martin va boshq., 2017; Showler, 2018;). Farg'ona viloyatida esa 27 tur sudralib yuruvchilar mavjudligi tadqiqotlar natijasida aniqlangan (Nazarov va boshq., 2023).

Markaziy Farg'ona hududi o'zining boy flora va faunasi bilan uzoq asrlar davomida olimlar va ilmiy tadqiqotchilarning qiziqishini o'ziga jalb etib kelmoqda. Jumladan, so'ngi yillarda mamlakatimizda bioxilma-xillikni saqlashga qaratilgan chora-tadbiralarning ko'rilishi hudud flora va faunasini chuqurroq tadqiq etish zaruratini vujudga keltirdi. Jumladan, Farg'ona vodiysida cho'l majmualarining tabiiy bioxilma-xilligini saqlab qolish uchun 1994-yilda tashkil etilgan Yozyovon tabiat yodgorligining maydoni yetarli emas (1962,9 ga) va muhofaza qilinadigan hududlar tarmog'ini yaratish maqsadga muvofiqdir (Bondarenko, 2020). Chunki, Farg'ona vodiysidagi 27 turdan 8 tasi (30%) noyob hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan bo'lsa, 5 turi (18,5%) IUCN Qizil kitobiga kiritilgan va 3 tasi (11%) CITES tomonidan himoyalangan (Nazarov et al., 2023).

Shu sababli, Farg'ona vodiysi gerpetofaunasini chuqur tadqiq etish, hududda tarqalgan turlar ro'yxatini shakllantirish, muhofazaga molik turlarning holatini aniqlash dolzarb masalalardan hisoblanadi. Yozyovon hududi misolida turlar tarkibini aniqlash va muhofazaga molik turlar ro'yxatini shakllantirish mazkur yo'nalishdagi muammolarga yechim bo'lishi mumkin.

Tadqiqotning material va metodikasi. Kuzatishlarimiz 2023-yilning kuz oylarida Farg'ona viloyatining Yozyovon va Qo'shtepa tumanlari hududida joylashgan

Yozyovon tabiat yodgorligi va Yangiobod cho‘llarida olib borildi (1-rasm). Yozyovon hududi gerpetofaunasini o‘rganish maqsadida olib borilgan kuzatuv tadqiqoti natijasida *eremias spp.* ga oid 17 ga yaqin individlar ro‘yxatga olindi. Ro‘yxatga olingan individlarning taksonomik o‘rni aniqlandi. Kuzatuv natijasida qayd etilgan individlar *eremias* urug‘iga oid 4 tur ekanligi taksonomik jihatdan tahlil qilindi. Ushbu hududdan gerpetofaunaning tangachalilar turkumiga mansub na‘munalari yig‘ib olindi va ularni keyinchalik morfologiyasini va tur tarkibini o‘rganish maqsadida ho‘l preparatlar tayyorlandi. Buning uchun namunalar anestiziya qilingandan so‘ng 10 foizli formalin eritmasida fiksatsiya qilindi. Formalin eritmasida 7 kun saqlangan namunalar suvda (H_2O) yuvildi va 75 foizli spirt (C_2H_5OH) eritmasiga olindi (Pisani, 1973). Sudralib yuruvchilarning turlarini aniqlashda va ularning morfologik jihatdan tahlil qilishda O‘zbekiston umurtqali hayvonlar aniqlagichidan (Laxanov, 2015) foydalanildi.




1-rasm.

Gerpetofaunistik kuzatuv amalga oshirilgan hudud [40.69N, 71.47E]

NATIJALAR

Yozyovon hududi bo‘ylab o‘tkazilgan kuzatuv-tadqiqot ishlari hudud gerpetofaunasining holati, tur tarkibi haqidagi dastlabki ma‘lumotlarni olish imkonini berdi. Yig‘ilgan va o‘rganilgan namunalar natijasida kaltakesaksimonlar kenja turkumining (*Lacertilia*) 4 vakili aniqlandi. Turlar morfologik nuqtai nazardan identifikatsiya qilindi (2-rasm).



2-rasm.

Yozyovon hududida qayd etilgan *eremias* urug‘i vakillari (19.10.2023-yil, rasmlar muallifi: Yo‘ldashev Sh.)



1. *Eremias intermedia*
2. *Eremias velox*.
3. *Eremias lineolata*
4. *Eremias regeli*.

3.

4.

Eremias urug‘i vakillarining sistematik o‘rni aniqlagich yordamida aniqlandi:
Turkum (Order) : Tangachalilar turkumi — Squamata Opper, 1811

Kenja turkum (Suborder) : Kaltakesaksimionlar kenja turkumi — Sauria
Macartney, 1802

Oila (Family) : Asl kaltakesaklar oilasi — Lacertidae Opper, 1811

Urug‘ (genus) : Kaltakesakchalar — *Eremias* Fitzinger, 1834

1. Tur (Species) : Ildam kaltakesakcha — *Eremias velox* Pallas, 1771

2. Tur (Species) : Tojik kaltakesakchasi — *Eremias regeli* Bedriagai, 1905

3. Tur (Species) : O‘rtacha kaltakesakcha — *Eremias intermedia* Strauch,
1876

4. Tur (Species) : Chiziqli kaltakesakcha — *Eremias lineolata* Nikolskii,
1897

Hududda sudralib yuruvchilardan 4 turga mansub 17 individ tadqiqotlar natijasida ro‘yxatga olindi va 13 individ morfometrik tahlil uchun tutilib, ho‘l preparat tayyorlandi (1-jadval).

1-jadval

Tadqiqot kundaligi (Ro‘yxatga olindi/Namuna olindi)

2023-yil sentabr- oktabr oylari	17.09.2023 Yozyovon tabiat yodgorligi	24.09.2023 Yozyovon tabiat yodgorligi	08.10.2023 Yangiobod cho‘li	15.10.2023 Yozyovon tabiat yodgorligi	22.10.2023 Yozyovon tabiat yodgorligi	29.10.2023 Yozyovon tabiat yodgorligi
<i>E.intermedia</i>	1/0	—	—	1/1	—	1/1
<i>E.lineolata</i>	—	—	1/1	—	1/1	—
<i>E.velox</i>	2/0	—	1/1	4/1	—	2/1
<i>E.regeli</i>	1/0	—	—	—	1/1	1/1

Yuqoridagi ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki hududda *eremias velox* (Ildam kaltakesak) eng yuqori foiz ko‘rsatkichi (53%) bilan dominant tur maqomini olayotgan bo‘lsa, urug‘ning ikki turi: *e.intermedia* (o‘rtacha kaltakesakcha) va *e.regeli* (tojik kaltakesakcha) 17 % ulushni tashkil etdi. *E. lineolata* (chiziqli kaltakesakcha) 13 % ulush bilan qayd etildi (2-jadval).

2-jadval

Eremias urug‘i vakillarining statistik ko‘rsatkichlari

Turlar	<i>E.Velox</i>	<i>E.Intermedia</i>	<i>E. Lineolata</i>	<i>E.Regeli</i>	<i>Eremias spp.</i>
Ro‘yxatga olingan individlar soni	9	3	2	3	17
%	53%	17%	13%	17%	100%

MUHOKAMA

Tadqiqotlar natijasida Yozyovon hududidagi *eremias* spp.ning dastlabki holati shakllantirildi. Bu tadqiqot ishi gerpetoxilma-xillikning viloyat-tuman kesimidagi kuzatuv ishi hisoblanadi. Aniqlangan namunalar xalqaro qidiruv bazalaridagi ma’lumotlarga (The Reptile Database (www.reptile-database.org), Global Biodiversity Information Facility (www.gbif.org) va bundan avvalgi tadqiqotchilarning tur ro‘yxatiga (D.A.Showler, 2018) mosligi solishtirildi (3-jadval).

3-jadval

Eremias urug‘i vakillarining sistematik ro‘yxati. (Showler bo‘yicha)

N.	Species	Synonyms	English version	Uzbek (Rus) version
1.	<i>Eremias velox</i> (Pallas, 1771)	<i>Eremias (Aspidorhinus) velox</i>	Rapid racerunner	Ildam kaltakesakcha (Быстрая ящурка)
2.	<i>Eremias regeli</i> Nikolsky, 1905	<i>Eremias bedriagai, Eremias (Dimorphea) regeli.</i>	Tajik racerunner	Tojik kaltakesakchasi (Таджикская ящурка)
3.	<i>Eremias intermedia</i> (Strauch, 1876)	<i>Eremias transcaspia, Ommateremias intermedia, Scapteira intermedia.</i>	Aralo-Caspian racerunner	O‘rtacha kaltakesakcha (Средняя ящурка)
4.	<i>Eremias lineolata</i> (Nikolsky, 1897)	<i>Rhabderemias lineolata, Scapteira lineolata.</i>	Striped racerunner	Chiziqli kaltakesakcha (Линейчатая ящурка)

Ildam kaltakesakning ro‘yxatga olingan 9 individidan 8 tasi Yozyovon tabiat yodgorligi hududidan qayd etilgan bo‘lsa, 1 tasi u yerga yaqinroq boshqa hudud (Yangiobod cho‘li)dan aniqlandi. Bu esa Yangiobod hududining so‘nggi 20 yil ichida aholi tomonidan o‘zlashtirilishi va sholi plantatsiyalarining tashkil etilishi tufayli

uzoq asrlik cho‘l ekotizimini buzilishiga, tur xilma-xilligining kamayishiga sabab bo‘lganligining yorqin misolidir.

Tojik kaltakesakchasi (*e.regeli*) Yozyovon tabiat yodgorligi va unga yaqin hududlardan qayd etildi. Cho‘l ekotizimi buzilgan Yangiobod hududida bu turga mansub individlar aniqlanmadi.

Eremias lineolata hududda eng kam uchragan tur (faqatgina 2 dona individ) sifatida ro‘yxatga olindi. Bu tur Yozyovon tabiat yodgorligi hududining bir nuqtasida va Yangiobod cho‘li hududining bir nuqtasida qayd etildi.

Xulosa qilib aytganda, Yozyovon hududining tabiiy cho‘l mintaqalarining aholi tomonidan yillar davomida o‘zlashtirilishi mazkur hudud ekosistemasiga o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatmay qolmayapti. Tabiiy cho‘l senozlarining sholi plantatsiyalari va boshqa turdagi agroekosistemalar uchun o‘zlashtirilishi hudud faunasiga ta‘sir qilmoqda. Birgina *eremias* urug‘i vakillarining turli hududlardagi uchrash chastotasi antropogen omilning tabiiy ekosistemaga jiddiy ta‘sir etuvchi omil ekanligini ko‘rsatmoqda. Ammo, Yozyovon tabiat yodgorligi muhofaza qilinuvchi hudud bo‘lsa ham, mazkur hudud himoyasi yetarli darajada tashkil etilmagan va inson omili to‘liq cheklanmagan.

Yozyovon tabiat yodgorligiga yaqin hududda joylashgan katta Yozyovon cho‘li ham muhofaza qilinuvchi hudud hisoblanadi. Mazkur hududda barpo qilingan “Markaziy Farg‘ona suv ombori” inshooti strategik obyekt bo‘lib, cho‘l hududida barpo qilingan sun‘iy antropoekosistema hisoblanadi. Suv omborining tabiiy cho‘l ekosistemasiga, hususan sudralib yuruvchilar olamiga ta‘sirini baholash zarur va bu sohada chuqur ilmiy-tadqiqot ishlarini o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki, katta Yozyovon cho‘li o‘ziga xos sudralib yuruvchilar olamiga ega bo‘lib, hududdagi ayrim turlar endemik yoki muhofazaga molik turlar hisoblanadi. Mazkur hududning tur tarkibini shakllantirish, o‘zgargan muhitning reptilialar hayot faoliyatiga ta‘sirini o‘rganish ekologik vaziyatni baholashga imkon beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

7. Ananjeva N.B., Orlov N.L., Khalikov R.G., Darevsky I.S., Ryabov S.A. and Barabanov A. The Reptiles of Northern Eurasia: taxonomic diversity, distribution, conservation status. Pensoft Publishers, Sofia, Bulgaria, 2006 pp. 245. [Originally published in Russian, 2004].
8. D. A. Showler. A Checklist of the Amphibians and Reptiles of the Republic of Uzbekistan with a review and summary of species distribution . www.lacerta.de (murojaat etilgan sana: 12.10.2023)
9. Д. А. Бондаренко. Население пресмыкающихся песчаных местообитаний Ферганской долины (Узбекистан) и проблема сохранения эндемичных видов //

СОВРЕМЕННАЯ ГЕРПЕТОЛОГИЯ. 2020. Т. 20. Сtr–15
<https://doi.org/10.18500/1814-6090-2020-20-1-2-3-15>

10. George R.Pisani. A Guide to Preservation Techniques for Amphibians and Reptiles // Society for the Study of Amphibians and Reptiles. Kansas (USA), 1973. – P.26

11. Global Biodiversity Information Facility (murojaat etilgan sana: 14.01.2024)

https://www.gbif.org/occurrence/taxonomy?country=UZ&has_coordinate=true&has_geospatial_issue=false&taxon_key=11592253&occurrence_status=present

12. J.L.Laxanov. O‘zbekistonning umurtqali hayvonlar aniqlagichi. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2013 – 38-44 b.

13. Nazarov R.A, Abduraupov T.V et.all. The Ferghana Valley Is an Isolate of biodiversity:A discussion of the endemic herpetofauna and description of two species of *Alsophylax* (Sauria:Gekkonidae) from Eastern Uzbekistan // Animals,2023. – №13

14. Thomas Edward Martin, Mathieu Guillemin, Valentin Nivet-Mazerolles, Cecile Landsmann, Jerome Dubos, Rémy Eudeline, and James T. Stroud. The herpetofauna of central Uzbekistan // Amphibian & Reptile Conservation,2017. – №11. – P.93-107.

15. The Reptile Database. (murojaat etilgan sana: 14.01.2024)

<https://reptile-database.reptarium.cz/search?search=uzbekistan&submit=Search>

АГРОСЕРВИС ХИЗМАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Кудратова Ирода Турдибаевна

Тошкент давлат иқтисодий университетини

Самарканд филиали ассистенти

АННОТАЦИЯ

Мақолада агросервис хизматларини ривожлантиришнинг институционал йўналишидаги тадбирлар қишлоқ хўжалик товар ишлаб чиқарувчилар ва агросервис субъектлари ҳуқуқлари, қишлоқ хўжалигида сервис хизматини кўрсатишни ривожлантиришга таъсир этувчи омилларга алоҳида тўхталиб ўтилган.

Калит сўзлар: агросервис, қишлоқ хўжалиги, бозор муносабатлари, давлат, бош ислоҳатчи, иқтисодий ислоҳот, хизмат.

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ АГРОСЕРВИСА

Кудратова Ирода Турдибаевна

ассистент Самаркандского филиала Ташкентского государственного

экономического университета

АННОТАЦИЯ

В статье меры институционального направления развития агросервиса ориентированы на права сельхозпроизводителей и субъектов агросервиса, факторы, влияющие на развитие предоставления услуг в сельском хозяйстве.

Ключевые слова: агросервис, сельское хозяйство, рыночные отношения, государство, главный реформатор, экономическая реформа, сервис.

INSTITUTIONAL DIRECTIONS FOR AGRO SERVICE DEVELOPMENT

Kudratova Iroda Turdibaevna

assistant of the Samarkand branch of the Tashkent State Economic University

ABSTRACT

In the article, measures of the institutional direction of development of agricultural services are focused on the rights of agricultural producers and subjects of agricultural services, factors influencing the development of service provision in agriculture.

Key words: agroservice, agriculture, market relations, state, main reformer, economic reform, service.

КИРИШ

Барқарор иқтисодий ривожланиш илмий сифими юқори бўлган маҳсулотлар тайёрлашни, иқтисодиёт тармоқларида ишлаб чиқаришни модернизация қилиш, техник ва технологик жиҳатдан янгилашни, доимий равишда замонавий технологиялар ҳамда инновацияларни жорий этишни талаб қилади.

Бизнингча иқтисодий барқарор ривожланиш – бу бозор шароитида кенгайтирилган такрор ишлаб чиқариш учун хўжалик юритувчи субъектлар томонидан ижтимоий–иқтисодий фаолиятини тўлиқ таъминлаши учун етарлича маблағ ишлаб топиши ва ундан самарадорли фойдаланиш ҳамда бозор ўзгаришларига мослаша олиш қобилияти тушунилади.

Шу нуқтаи назардан миллий иқтисодиётни барқарор ривожлантириш кўп жиҳатдан иқтисодиётни бозор шароитида бошқариш ва унинг йўналишлари ҳамда соҳаларини техник ва технологик жиҳатдан янгилаш, юқори технологияли қайта ишлаш тармоқларини барпо этиш, ер ва бошқа ресурслардан унумли фойдаланиш бўйича қулай шарт-шароитларни яратиш билан бевосита боғлиқ. Шу боис, мамлакатимизда иқтисодиётнинг барқарор ривожланиши учун унинг тармоқлари ролини, айниқса юқори қўшимча қийматли тайёр маҳсулот ишлаб чиқариш салоҳиятини оширишга алоҳида эътибор қаратилмоғи зарур.

Республикамиз иқтисодиётининг асосий тармоқларидан бири ҳисобланган қишлоқ хўжалигини босқичма-босқич бозор муносабатларига ўтказишда давлат бош ислоҳатчи ва изчил иқтисодий ислоҳотларни амалга оширувчиси ҳисобланади. Айниқса, қишлоқ хўжалиги тармоғининг мавсумий характерга эга эканлиги ва унинг табиий иқлим шароитига боғлиқлиги, шунингдек тармоқнинг республикамиз саноати учун асосий хом-ашё етказиб берувчи ва аҳолини эса зарурий озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминловчи соҳаси сифатида табиий равишда давлат томонидан қўллаб-қувватлашни тақозо этади.

Тадқиқот методологияси. Изланишларимиз натижасида агросервис хизматларини ривожлантириш асосида аҳоли турмуш даражасини ошириш бўйича илмий хулосалар ва таклифлар берилган. Тадқиқотни олиб бориш жараёнида абстракт фикрлаш, иқтисодий-статистик таҳлил каби усуллардан кенг фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар.

Агросервис хизматларини ривожлантиришнинг институционал йўналишидаги тадбирлар қишлоқ хўжалик товар ишлаб чиқарувчилар ва агросервис субъектлари ҳуқуқлари, қишлоқ хўжалигида сервис хизматини кўрсатишни ривожлантиришга қаратилган қонунлар ва қонун ости меъёрий ҳужжатлар, шунингдек амалдаги бошқа ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатларни такомиллаштириш масалаларини ўз ичига олади. Айниқса, бундай йўналишдаги тадбирларни амалга оширишда агросервис хизматлари бозорида эркин рақобат муҳитини шакллантиришга имкон берувчи хизмат кўрсатиш билан шуғилланадиган хусусий тадбиркорлик корхоналарини, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлаш, истеъмолчига етказиб беришга доир хизматларни амалга оширувчи субъектлар бўйича меъёрий ҳужжатларни мукаммаллаштирилиши мақсадга мувофиқдир.

Қишлоқ хўжалигида агросервисни ривожлантиришни ҳукумат томонидан қўллаб-қувватловчи иқтисодий йўналишларга молия, кредит, солиқ, суғурта, шартномавий муносабатлар, моддий-техника ресурслари таъминоти, ҳамда агросервис субъектларини иқтисодий эркинлик ва мулкий ҳуқуқларни таъминлаш (хусусий хизмат кўрсатувчи субъектлар) бўйича амалга ошириладиган иқтисодий вазифалар киради.

Давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг агротехнологик йўналиши агросервис хизмат кўрсатиш орқали амалга ошириладиган илмий-технологик чора-тадбирлар, жумладан, ерни ҳайдаш, экинлар селекцияси ва уруғчилик тизимини ривожлантириш, зооветеринария, наслчилик тизими ва ем-хашак таъминоти хизматини такомиллаштириш каби вазифаларда ўз аксини топади.

Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 24 февралдаги ПҚ-5006-сон қарорида қатъий вазифаларни, жумладан “Қишлоқ хўжалиги ерлари билан боғлиқ муносабатларнинг барқарорлигини таъминлаш, давлат мониторинги, қишлоқ хўжалиги ерларидан фойдаланиш ва уни муҳофаза қилиш тизимини тубдан такомиллаштириш ва соҳага ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этиш”⁸² зарурий масалалардан бири эканлигини белгилаб берган.

Ҳозирги табиий-иқлим шароитларининг глобал миқёсда ўзгариши экологик муҳофаза йўналишидаги масалаларни республикамизда агросервис хизматларини амалга оширишда ҳам долзарб муаммога айлантиради. Шу сабабли, экология билан боғлиқ вазифаларни маҳаллий бошқарув органлари

⁸² ПҚ-5006-сон 24.02.2021. Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлардан фойдаланиш ва муҳофаза қилиш тизимини такомиллаштиришга доир кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида (lex.uz)

иштирокида давлат томонидан ҳал қилиш бўйича қуйидаги махсус чора-тадбирлар ишлаб чиқилиши зарур. Жумладан:

- қишлоқ хўжаликда агросервисни амалга оширувчи бир қатор субъектларда заҳарли химикатлар ва ўғитлардан белгиланган меъёр ва муддатларда фойдаланишни назоратга олиш;

- ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш бўйича мелиорация ва ирригация хизматларини амалга оширишда ҳамда сув, шамол эрозиясидан сақланишда мақсадли инвестиция маблағларидан тўғри фойдаланиш;

- суғоришда СИУ хизматлари фаолиятини амалга ошириш жараёнида атроф муҳитни ифлосланиш, шурланишдан муҳофаза қилишга йўналтириш ва назорат қилиш;

- чорва моллари ва қишлоқ хўжалиги экинларини турли тез тарқалувчан юқумли касалликларнинг олдини олиш ва уларга қарши курашиш хизматларининг самарали фаолиятини йўлга қўйиш;

- республиканинг ҳар бир ҳудудда табиатни асрашга имкон яратувчи турли экологик хизматларни муқобил шакллари (давлат, нодавлат)ни самарали тизимини яратиш.

Бироқ, давлат томонидан экология билан боғлиқ бўлган чора-тадбирларни амалга ошириш ва экологик мувозанатни сақлаш масаласини ҳал этиш жараёнида ҳар бир агросервис хизматларини амалга оширишда шу соҳада банд бўлган ишловчиларни фаол қатнашиши, уларни доимо ўзининг экологик саводхонлигини ошириши асосий вазифалардан бири сифатида эътироф этилиши зарур.

Ижтимоий йўналишдаги агросервисни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш чора-тадбирларига сервис хизмат кўрсатиш тузилмаларини ривожлантириш, аҳоли учун муносиб турмуш шароитини яратиш, қишлоқ хўжалигик корхоналарига хизмат кўрсатишда банд бўлганларни ижтимоий суғурталаш, касаллик ва аёлларнинг ҳомиладорлик даврларида моддий-молиявий ёрдам бериш, маориф ва тиббий хизмат кўрсатиш тизимларини такомиллаштириш каби бир қатор бошқа масалалардан иборат.

Қишлоқ хўжалигида агросервис хизматларини давлат томонидан иқтисодий қўллаб-қувватлаш учун, бизнинг фикримизга кўра, биринчи навбатда аграр тармоқни молиялаштиришнинг салмоқли манбаи бўлган кредит ресурслари билан таъминлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари асосий ўринлардан бирини эгаллайди. Республикада қишлоқ хўжалигида агросервис хизматларини кредитлаш асосан:

- тижорат банкларининг мақсадли кредит маблағлари ва давлат бюджети ҳисобидан ажратиладиган мақсадли маблағлар;
- давлат эҳтиёжи учун харид қилинадиган қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ҳисоб-китоби бўйича ажратиладиган махсус жамғарма маблағлари;
- бошқа турли жамғармалар томонидан ажратиладиган маблағлар;
- кредит уюшмалари ҳисобидан ажратиладиган маблағлар;
- ҳамкорликдаги корхона ёки ташкилотларнинг бўнак маблағлари;
- қишлоқ хўжалиги техника воситаларини лизинг асосида харид қилишда вужудга келадиган маблағлар;
- шахсий, хусусий ва бошқа маблағлар ҳисобидан амалга оширилади.

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР

Бизнинг фикримизча, энг аввало, қишлоқ хўжалигида сервис хизматини такомиллаштириш ва ривожлантириш учун кредит ажратиш режасини республикамиз ҳудудлари бўйича бир хил миқдорда кредит ажратиш режаси ўрнига, Ўзбекистон Республика Қишлоқ ва сув хўжалиги вазирлиги ҳамда Республика Фермер хўжаликлари уюшмаси ва молия институтлари билан ҳамкорликда қишлоқ хўжалик товар ишлаб чиқарувчиларининг моддий-техника таъминоти, асосий воситалар ва айланма маблағларга бўлган талабларини ўрганиш бўйича мониторинг натижаларига асосан кредитлар ажратиш тизимига ўтиш мақсадга мувофиқ.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining 07.01.2021 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasida bayon etilgan takliflar va xulosalardan kelib chiqadigan vazifalar to‘g‘risida” qarori, 681-IV-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni, PF-60-son.
3. “Ўзбекистон – 2030” стратегияси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги PF-158 сонли Фармони.
4. Даль В.И. Толковый словарь великорусского языка. 2-е изд. М., 1882. Т. IV. С.512.
5. Ожегов С.И. и др. Грамматический словарь русского языка. -М.: Русский язык. 1991. -432стр.
6. Котлер Ф. Основы маркетинга. М. Прогресс. 1992.-734с.

7. Ширай В.И. Мировая экономика и международные отношения: Учебное пособие. М.: Дашков И. К.2003. С.226.
8. Котлер Ф. Маркетинг-менеджмент // Экспресс-курс. 2-е изд. С.301.
9. Составлено по кн.: Николайчук В.Е. Маркетинг и менеджмент услуг // Деловой сервис. Спб.: Питер, 2005. С.608.
10. Мирзаев К.Ж. Агросервис хизматлари самарадорлигини оширишнинг методологик асослари. Иқтисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. - Самарканд: 2012. 157 бет.
11. Қ.Ж Мирзаев, Э.Ш. Шавқиев, Б.К. Жанзаков. Инновацион иқтисодиёт. (Ўқув қўлланма - Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи»,2020. - 298 бет.
12. Mirzaev K. The market livestock service of the Republic Uzbekistan // Spanish journal of rural development University of Santiago de Compostela. Volume II, - No 2. Spain. 2011. - P. 97-106.
13. Мирзаев Қ.Ж., Пардаев М.Қ. Хизматлар соҳаси иқтисодиёти. Ўқув қўлланма, -Т.: “Иқтисод-молия”, 2014. Б -111.
14. Mirzaev, K. (2011). Approaches and issues for developing livestock services in Uzbekistan. Perspectives of Innovations, Economics and Business, PIEB, 8(2), 23-25.

ANTIFERROMAGNETIKLAR VA ULARNING QO‘LLANILISHI

S.Zaynolobidinova

FDU, zajsapura@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada antiferromagnitlar va ularning qo‘llanilishi keltirilgan bo‘lib, moddalarning diamagnit, paramagnit va ferromagnit magnit xossalari, kristallga xos bo‘lgan Neel temperaturasidan past temperaturada antiferromagnetiklarda ionlar magnit momentlarining o‘zaro teskari tartiblashuvi amalga oshishi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *Kristall, magnit, ion, magnit momenti, energiy, zaryad, gisterezis, paramagnet, diyamagnetik, temperatura, antiferromagnetik, anizotropiya, rezonans chastota, magnit maydoni, magnit maydon kuchlanganligi.*

ABSTRACT

Antiferromagnets and their application are presented in the article, the diamagnetic, paramagnetic and ferromagnetic magnetic properties of substances, the mutual reverse ordering of the magnetic moments of ions in antiferromagnets at a temperature lower than the Neel temperature characteristic of a crystal are studied.

Key words: *Crystall, magnet, ion, magnetic moment, energy, charge, hysteresis, paramagnet, diamagnetic, temperature, antiferromagnetic, anisotropy, resonant frequency, magnetic field, magnetic field strength.*

KIRISH

Har bir jism ma’lum miqdorda magnit xususiyatiga ega. Shuning uchun jismlarning magnit xususiyatlarini o‘rganishda magnetiklar degan tushuncha kiritiladi. Er, Quyosh va yulduzlar ham magnit xususiyatiga ega. Magnit maydon kosmik fazoda ham mavjudligini kosmik zaryadli zarralarning harakatida ko‘rish mumkin. Magnit hodisalarining kosmik fazodan mikrozaralargacha taaluqli bo‘lishi ularning fan va texnikada ahamiyatining nihoyatda kattaligini bildiradi.


Gaz, suyuqlik va qattiq jismlarning magnit xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish kimyoviy reksiya jarayonlarida bo‘layotgan hodisalarni mukammal yoritish imkonini beradi

TAHLIL VA NATIJALAR

Moddalarda diamagnit, paramagnit va ferromagnit magnit xossalari keng tarqalgan. Lekin boshqa magnit xossalari ham uchraydi. Ularni ochilishida magnit qabul qiluvchanlik χ ni temperaturaga bog‘lanishini o‘rganish ahamiyatli bo‘lgan.

Kyuri qonuniga ko‘ra paramagnetiklar uchun $\chi = C/T$ ga teng, ferromagnetiklar uchun esa, Kyuri T_c temperaturasidan yuqori haroratlarda

$\chi = C'/(T - T_c)$. Keyinchalik antiferromagnetik deb atalgan moddalarda magnit qabul qiluvchanlik $\chi = C''/(T + T_c)$ ko‘rinishga ega ekan [1-4]. 1-rasmda absissa o‘qida T , ordinata o‘qida $1/\chi$ miqdorlar joylashtirilgan. Yuqoridagi uch turli magnit xossalari uchun bunday bog‘lanishlar chiziqli xarakterga ega. Paramagnitlar uchun $1/\chi = T/C$ - (1-chiziq) koordinata boshidan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziqdan iborat. Ferromagnitlar uchun $1/\chi = T/C' - \theta_1$ - (2-chiziq) quyidan o‘tuvchi, antiferromagnetiklar uchun $1/\chi = T/C'' + \theta_2$ - (3-chiziq) yuqorida joylashgan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziqdan iborat.



1-rasm. Magnit qabul qiluvchanlik χ ni temperaturaga bog‘lanishi

Magnit qabul qiluvchanlikni temperaturaga bog‘lanishidagi bunday keskin farq antiferromagnetiklarni yangi magnit xossalarga ega bo‘lgan moddalar guruhi ekanligini ko‘rsatadi. Past temperaturalarda, kristallga xos bo‘lgan T_N kritik temperaturadan pastda, o‘rganilayotgan bog‘lanishda yana yangi xossani ko‘ramiz, χ qabul qiluvchanlikni kristalldagi yo‘nalishga bog‘liqligi namoyon bo‘ladi va bog‘lanish xarakteri o‘zgaradi. Magnit maydonning kristalldagi yo‘nalishga bog‘liq ravishda chegaraviy chiziqlar hosil qilinadi, boshqa yo‘nalishlardagi magnit maydon uchun $1/\chi$ bog‘lanish bu ikki chiziqni orasida yotadi. Shunday qilib kritik temperaturadan pastda $1/\chi$ ni temperaturaga bog‘lanishida kristall anizotropiyasi sezilar ekan.

Antiferromagnetning xossalari, tuzilishi 1930 yillarda rus olimi L.D. Landau va fransuz olimi L.Neel tomonidan tushuntirildi. Yuqori temperaturada ionlarning magnit momentlari oddiy paramagnetiklardagi kabi betartib bo‘ladi, magnit maydon bo‘lmaganda magnitlashuv nolga teng bo‘ladi. Temperatura chegaraviy T_N - Neel temperaturasidan pasaysa, ionlar orasida almashinuv kuchlari ustun kelib, ferromagnetiklardagi kabi ionlar magnit momentlarini tartiblashuvi kuzatiladi [5-8].

Shunday qilib, kristallga xos bo‘lgan Neel temperaturasidan past temperaturada antiferromagnetiklarda ionlar magnit momentlarining o‘zaro teskari tartiblashuvi amalga oshadi. Tashqi magnit maydon bo‘lmaganda magnitlashuv nolga teng bo‘ladi. Magnit maydonda paramagnetiklardagi kabi kuchsiz magnitlashuv

($\chi \approx 10^{-4} - 10^{-6}$) kuzatiladi va u magnit maydonni kristalldagi yo‘nalishga kuchli bog‘liq bo‘ladi.

XULOSA

Antiferromagnitizm mingdan ortiq moddalarda aniqlangan. Ularning ayrimlarida temperatura pasayishi bilan, ikkinchi turdagi faza o'tishi kuzatilib, moddani ferromagnetik holatga o'tishi aniqlangan. Masalan, *Er* kristallari uchun magnitlashuv nolga aylanadigan temperaturalar $85K$ va $20K$ ga teng. Temperatura $20K$ dan pasayganda kristall ferromagnetikka aylanaadi. Modda paramagnetik holatdan antiferromagnetik holatga o'tganda ham, undan ferromagnit holatga o'tganda ham magnit xossalardan tashqari moddaning issiqlik sig'imi va o'tkazuvchanligi, moddadagi tovush tezligi va sochilishi, elektromagnit to'lqinlar uchun sindirish ko'rsatkichi va tarqalish tezligi kabi bir-necha xossalarda anomal (odatdan tashqari) o'zgarishlar sezilgan.

Antiferromagnetiklarning xossalaridan va o'rganish imkoniyatlardan biri ularda elektromagnit nurlarni yutilishi o'rganilganda, yutilishning rezonans chastotalari aniqlangan, bu hodisa antiferromagnit rezonans deb nomlangan. Bu rezonans chastotalar magnit maydon kuchlanganligiga va yo'nalishiga bog'liq bo'lib yutilish ionlarning magnit momentlari bilan bog'liqligini tasdiqlaydi. Elektromagnit to'lqin ionlarning magnit momentlarini tebratib, bunda rezonans amalga oshganda yutilish keskin kuchayadi. Rezonans chastotani o'lchanishi esa ionlararo almashinuv energiyasini va uni magnit maydonga bog'liqligini aniqlash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Zaynolobidinova, S. M., & Raxmatullayeva, F. U. (2023, November). **MAGNIT MATERIALLAR ULARNING QO'LLANILISHI**. In Fergana state university conference (pp. 159-159).
2. Атакулов, Ш. Б., Зайнолобидинова, С. М., Набиев, Г. А., Набиев, М. Б., & Юлдашев, А. А. (2013). Теория явлений переноса в поликристаллических пленках халькогенидов свинца. Подвижность. Невырожденная статистика. Физика и техника полупроводников, 47(7), 869-873.
3. Онаркулов, К. Э., & Зайнолобидинова, С. М. (2023, October). **ИССЛЕДОВАНИЕ ЗАВИСИМОСТИ ПРОЗРАЧНОСТИ ПОТЕНЦИАЛЬНОГО БАРЬЕРА ОТ ТЕМПЕРАТУРЫ**. In Fergana state university conference (pp. 219-222).
4. Атакулов, Ш. Б., Зайнолобидинова, С. М., Отажонов, С. М., & Тухтаматов, О. А. (2010). Особенности рассеяния носителей тока межкристаллитными потенциальными барьерами, образованными электронными поверхностными состояниями в поликристаллических полупроводниках. Фізична інженерія поверхні, (8, № 4), 365-370.

5. Zaynolobidinova, S. M. (2023). POLIKRISTALL YUPQA PARDALAR XUSUSIYATLARIGA CHET KIRISHMALARINING TA'SIRI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(3), 283-288.
6. Onarqulov, K. E., Rahmanqulov, M. K., Zaynolobidinova, S. M., & Omonov, B. U. ON THE KINETICS OF THE ELECTRICAL CONDUCTIVITY OF POLYCRYSTALLINE FILM STRUCTURES. *Annotation*, 293, 2.
7. Atakulov, S. B., Zainolobidinova, S. M., Nabiev, G. A., & Tukhtamatov, O. A. (2012). Effect of the structural features of polycrystalline semiconductor films on the formation of anomalous photovoltage: I. Phenomenon mechanism. *Semiconductors*, 46(6), 708-713.
8. Atakulov, S. B., Zainolobidinova, S. M., Nabiev, G. A., & Tukhtamatov, O. A. (2012). Effect of the structural features of polycrystalline semiconductor films on the formation of anomalous photovoltage: II. Comparison with experiment. *Semiconductors*, 46(6), 714-718.

IKKI O'LCHOVLI DINAMIK TIZIMLARDA GRAFIK TAHLIL VA FAZALI PORTRET

Kutlimuratov Ravshanbek Rozboyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o'qituvchisi

ravshanbektdiutf@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Grafik tahlil va fazali portret ikki o'lchovli dinamik tizimlarni o'rganish uchun muhim vosita bo'lib va bu usulning tutgan o'rni yuzasidan fikr va mulohazalar yuritiladi. Shuningdek soha rivoji uchun o'z hissamizni qo'shish maqsadida, maqolada turli mulohazalar va takliflar taqdim etildi.

Kalit so'zlar: *dinamik tizim, fazali portret, nuqtaning harakatini, traektoriy, ishlab chiqarish.*

АННОТАЦИЯ

В этой статье графический анализ и фазовый портрет являются важными инструментами исследования двумерных динамических систем, и обсуждается роль этого метода. Также в целях содействия развитию отрасли в статье представлены различные комментарии и предложения.

Ключевые слова: *динамическая система, фазовый портрет, движение точки, траектория, производство.*

ABSTRACT

In this article, Graphical analysis and phase portrait are important tools for the study of two-dimensional dynamic systems, and the role of this method is discussed. Also, in order to contribute to the development of the industry, various comments and suggestions were presented in the article.

Key words: *dynamic system, phase portrait, point movement, trajectory, production.*

KIRISH

Fazali portret - bu tizim holatini tavsiflovchi miqdorlar (dinamik o'zgaruvchilar deb ham ataladi) bir-biriga qanday bog'liqligini ko'rsatadigan grafik tasvirdir. Bu bizga tizimning vaqt va makondagi xatti-harakatlarini tasavvur qilish imkonini beradi.

Matematika nuqtai nazaridan har qanday dinamik tizim fazodagi nuqtaning harakatini tavsiflaydi, bu fazoviy traektoriyadir. Haqiqiy ob'ektlarning fazaviy

portretlarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, bu usul ishlab chiqarish jarayonlarining barqarorligini qiyosiy ishlab chiqarish uchun ishlatilishi mumkin.

Tizimning fazali portretini qurish uchun x, y tekislikning har bir nuqtasida tizim traektoriyalarining yo'nalishlarining vektor maydonini qurish kerak. Bu qiyin vazifa, shuning uchun sifatli yondashuv qo'llaniladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, grafik tahlil va fazali portretlar dinamik tizimlarni o'rganish uchun qo'llaniladigan ko'plab vositalardan faqat bittasi bo'lib, ularning qo'llanilishi aniq tizim va muammoga qarab farq qilishi mumkin.

MUHOKAMA

Bizga berilgan ikki o'lchovli ixtiyoriy akslantirish $Q_{c_1c_2} = \begin{cases} x' = f_1(x, y, c_1) \\ y' = f_2(x, y, c_2) \end{cases}$

uchun grafik analiz metodini kiritamiz. Grafik analiz metodi deganda tekislikda olingan ixtiyoriy nuqtani $Q_{c_1c_2}$ orqali akslantirsak berilgan nuqtaning orbitasi qanday bo'lishini grafik usulda tekshirishni tushunamiz. Masalan bir o'lchovli dinamik sistema uchun Kyonigsa – Lameraya diagrammasi nomli [Sharkovski] grafik analiz metodi mavjud. Ikki o'lchovli ixtiyoriy akslantirish $Q_{c_1c_2}$ uchun grafik analiz metodini quyidagicha kiritamiz. XOY tekislikda ixtiyoriy (a, b) berilgan nuqtaning $Q_{c_1c_2}$ akslantirishda orbitasi haqida nima deya olamiz? Bitta koordinatalar sistemasida XOY tekisligida $x = f_1(x, y, c_1)$ va $y = f_2(x, y, c_2)$ funksiyalarning grafigini chizamiz. (a, b) nuqtadan $x = f_1(x, y, c_1)$ funksiyaning grafigi bilan kesishguncha OX o'qiga parallel chiziq chizamiz va shu kesishish nuqtasidan OY o'qiga parallel vertikal chiziq chizib uni V_1 orqali belgilaymiz. Keyin (a, b) nuqtadan $y = f_2(x, y, c_2)$ funksiyaning grafigi bilan kesishguncha OY o'qiga parallel chiziq chizamiz va shu kesishish nuqtasidan OX o'qiga parallel gorizantal chiziq chizib uni G_1 orqali belgilaymiz. V_1 va G_1 chiziqlarning kesishish nuqtasi (a, b) nuqtaning tasviri bo'ladi va uni (a_1, b_1) orqali belgilaymiz. Keyin (a_1, b_1) nuqta uchun huddi shunday amal bajarib V_2 va G_2 chiziqlarni chizib ularning kesishish nuqtasi ya'ni (a_1, b_1) nuqtaning tasviri bo'lgan (a_2, b_2) nuqtani topamiz va hokazo... .

NATIJA

Bu usulda bajarilgan grafik analiz metodiga bitta misol keltiraylik

$$Q_{c_1c_2} = \begin{cases} x' = y^2 + c_1 \\ y' = x^2 + c_2 \end{cases}$$

Bitta koordinatalar sistemasida XOY tekisligida $x = y^2 + c_1$ va $y = x^2 + c_2$ funksiyalarning grafigini chizamiz. Tekislikdagi ixtiyoriy (a, b) nuqtadan $x = y^2 + c_1$ parabola bilan kesishguncha OX o'qiga parallel chiziq chizamiz va shu kesishish nuqtasidan OY o'qiga parallel vertikal chiziq chizib uni V_1 orqali belgilaymiz. Keyin (a, b) nuqtadan $y = x^2 + c_2$ parabola bilan kesishguncha OY o'qiga parallel chiziq chizamiz va shu kesishish nuqtasidan OX o'qiga parallel gorizantal chiziq chizib uni G_1 orqali belgilaymiz. V_1 va G_1 chiziqlarning kesishish nuqtasi (a, b) nuqtaning tasviri bo'ladi va uni (a_1, b_1) orqali belgilaymiz. Keyin (a_1, b_1) nuqta uchun huddi shunday amal bajarib V_2 va G_2 chiziqlarni chizib ularning kesishish nuqtasi ya'ni (a_1, b_1) nuqtaning tasviri bo'lgan (a_2, b_2) nuqtani topamiz va hokazo... Agar (a, b) nuqta $y = x^2 + c_2$ parabolada bo'lsa, (a_1, b_1) nuqta $x = y^2 + c_1$ parabolada, (a_2, b_2) nuqta esa $y = x^2 + c_2$ parabola va hokazo...

Grafik analiz metodi yordamida $Q_{c_1c_2} = \begin{cases} x' = y^2 + c_1 \\ y' = x^2 + c_2 \end{cases}$ akslantirish orqali

tekislikda uchlari (a, b_1) va (a, b_2) nuqtalarda bo'lgan gorizantal kesma uchlari $(b_1^2 + c_1, a^2 + c_2)$ va $(b_2^2 + c_1, a^2 + c_2)$ nuqtalarda bo'lgan vertikal kesmaga akslanadi va uzunliga $(b_1 + b_2)$ marta o'zgaradi. Lekin gorizantal kesmaning proobrazi bitta yoki ikkita yoki to'rta vertikal kesma bo'ladi, bitta vertikal kesmaning proobrazi esa bitta yoki ikkita yoki to'rta gorizantal kesma bo'ladi.

Huddi shuningdek tomonlari koordinata o'qlariga parallel bo'lgan to'gri to'rtburchakning tasviri ham yana tomonlari koordinata o'qlariga parallel bo'lgan to'gri to'rtburchak bo'ladi, tomonlari qizqarishi yoki uzayishi mumkin.


Lekin to'gri to'rtburchakning proobrazi bitta yoki ikkita yoki to'rtta to'gri to'rtburchakdan iborat bo'ladi.

Grafik analiz metodidan ko'rinadiki agar $y = x^2 + c_2$ va $x = y^2 + c_1$ parabolalar umumiy nuqtaga ega bo'lmasa, tekislikdan olingan ixtiyoriy nuqta

$Q_{c_1c_2} = \begin{cases} x' = y^2 + c_1 \\ y' = x^2 + c_2 \end{cases}$ akslantirish orqali cheksizlikka intiladi. Keling $y = x^2 + c_2$

va $x = y^2 + c_1$ parabolalar bitta umumiy nuqtaga ega bo'lgan holda grafik analiz

metodini tekshirib ko'ramiz. Parabolalarning urinish nuqtasi (a, b) bo'lsin u holda bu nuqta $Q_{c_1c_2}$ akslantirish uchun qo'zga'mas nuqta bo'ladi.



XULOSA

Xulosa qilib aytganda bugungi kunga kelib dunyoda aniq fanlar, axborot, matematik iqtisodiyot, internet va raqamlashtirish kabi zamonaviy sohalar izchil rivojlanmoqda. Tabiiyki zamon bilan hamnafas holda, iqtisodiyotimizning ravnaqi va yuksalishi yo'lida yuqoridagi sohalar rivojini yurtimizda ham taminlashimiz zarur. Zero bu bilan mamlakatimiz iqtisodiyoti rivoji uchun o'z hissamizni qo'shibgina qolmay, aholi farovonligi, yurtimiz osoyishtaligida ham naf keltirgan hisoblanamiz. Endi siz "Ikki o'lchovli dinamik tizimlarda grafik tahlil va fazali portret" haqida

yaxshiroq tushunganingizdan so'ng, ularni iqtisodiy faoliyhatingizda qo'llash imkoniyatiga egasiz.

REFERENCES

1. Ganikhodzhayev R.N., Narziyev N.B., Seytov Sh.J. Multi-dimensional case of the problem of Von Neumann- Ulam. *Uzbek Mathematical Journal* Vol. 3, Issue 1, 11-23 (2015).
2. Devaney R. L. *An Introduction to Chaotic Dynamical Systems*. New York, (1989).
3. Seytov Sh. J., Ganikhodzhayev R.N. The method of graphical analysis for some two dimensional dynamical systems. *Bulletin of the Institute of Mathematics*. Vol 2. Issue 4, 22-26 (2020.)
4. Seytov, Sh.J., Narziyev, N.B., Eshniyozov, A.I., Nishonov, S.N. The algorithms for developing computer programs for the sets of Julia and Mandelbrot. *AIP Conference Proceedings* 2023, 2789, 050021.
5. Seytov, S.J., Eshniyozov, A.I., Narziyev, N.B. Bifurcation Diagram for Two Dimensional Logistic Mapping. *AIP Conference Proceedings*, 2023, 2781, 020076.
6. Seytov, S.J., Nishonov, S.N., Narziyev, N.B. Dynamics of the Populations Depend on Previous Two Steps. *AIP Conference Proceedings.*, 2023, 2781, 020071.
7. Seytov, S.J., Sayfullayev, B.Sh., Anorbayev, M.M. Separating a Finite System of Points from each Other in Real Euclidean Space. *AIP Conference Proceedings.*, 2023, 2781, 020043.
8. Seytov, S.J., Eshmamatova, D.B. Discrete Dynamical Systems of Lotka–Volterra and Their Applications on the Modeling of the Biogen Cycle in Ecosystem. *Lobachevskii Journal of Mathematics.*, 2023, 44(4), страницы 1471–1485.
9. Eshmamatova, D.B., Seytov, S.J., Narziyev, N.B. Basins of Fixed Points for Composition of the Lotka–Volterra Mappings and Their Classification. *Lobachevskii Journal of Mathematics.*, 2023, 44(2), страницы 558–569.
10. Ganikhodzhaev, R.N., Seytov, S.H.J. Coexistence chaotic behavior on the evolution of populations of the biological systems modeling by three dimensional quadratic mappings. *Global and Stochastic Analysis.*, 2021, 8(3), страницы 41–45.
11. Ganikhodzhayev, R., Seytov, S. An analytical description of mandelbrot and Julia sets for some multi-dimensional cubic mappings. *AIP Conference Proceedings.*, 2021, 2365, 050006.

THE ROLE OF FREE ECONOMIC ZONES (FEZS) IN ATTRACTING FOREIGN DIRECT INVESTMENT (FDI): THE CASE OF SOUTH KOREA

Valiev Oybek Shuhrat-ugli

Faculty of Tashkent Chemical Technology Institute

Shakhrisabz branch

oybekjon.valiev@gmail.com

ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0005-1573-938X>

Umrzoqov Jonibek Baxtiyor ugli

Undergraduate student of Tashkent Chemical Technology Institute

Shakhrisabz branch

ABSTRACT

This paper explores the role of Free Economic Zones (FEZs) in attracting Foreign Direct Investment (FDI) in South Korea. FEZs are designated areas that offer preferential policies and incentives to foreign investors, such as tax preferences, regulatory support, and advanced infrastructure. This study investigates the effectiveness of these zones in enhancing FDI inflows and their impact on the South Korean economy. Through an analysis of policy frameworks, economic data, and specific case studies, FEZs have contributed to increased foreign investments, job creation, export growth, and regional development were studied in this paper. Despite these successes, the study also highlights challenges such as competition from other countries, and sustainability concerns. The findings suggest that while FEZs have been instrumental in driving economic growth, further policy enhancements are necessary to sustain their attractiveness and effectiveness in a competitive global environment.

Key words: *Free Economic zones (FEZ), Foreign Direct Investment (FDI), export, economic growth*

ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDAGI ROLI: JANUBIY KOREYA MISOLIDA

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Janubiy Koreyada to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni (TTXI) jalb qilishda erkin iqtisodiy zonalarning (EIZ) rolini o‘rganadi. Erkin iqtisodiy hududlar xorijiy investorlarga soliq imtiyozlari, ma‘muriy qo‘llab-

quvvatlash va ilg'or infratuzilma kabi imtiyozlarni taklif qiluvchi belgilangan maxsus tartib amal qiluvchi hududlardir. Ushbu tadqiqot ushbu zonalarining to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini oshirishdagi samaradorligini va ularning Janubiy Koreya iqtisodiyotiga ta'sirini o'rganadi. Ushbu maqolada erkin iqtisodiy hududlarning ma'muriy-huquqiy asoslari, iqtisodiy ma'lumotlar va aniq misollarni tahlil qilish orqali xorijiy investitsiyalar, yangi ish o'rinlari yaratish, eksport o'sishi va mintaqaviy rivojlanishga hissasi o'rganiladi. Ushbu maqolada erishilgan natijalar bilan birgalikda, boshqa mamlakatlarning raqobati va barqarorlik muammolari kabi muammolarga ham e'tibor qaratiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, EIZlar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim rol o'ynagan bo'lsa-da, raqobatbardosh global muhitda ularning jozibadorligi va samaradorligini saqlab qolish uchun iqtisodiy siyosatni yanada takomillashtirish zarur.

Kalit so'zlar: *Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ), to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI), eksport, iqtisodiy o'sish*

РОЛЬ СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН (СЭЗ) В ПРИВЛЕЧЕНИИ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ (ПИИ): НА ПРИМЕРЕ ЮЖНОЙ КОРЕИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье исследуется роль свободных экономических зон (СЭЗ) в привлечении прямых иностранных инвестиций (ПИИ) в Южную Корею. СЭЗ — это обозначенные территории, которые предлагают преференциальную политику и стимулы для иностранных инвесторов, такие как налоговые преференции, нормативная поддержка и развитая инфраструктура. В этом исследовании изучается эффективность этих зон в увеличении притока прямых иностранных инвестиций и их влияние на экономику Южной Кореи. Посредством анализа политических рамок, экономических данных и конкретных тематических исследований в этой статье были изучены СЭЗ, которые способствовали увеличению иностранных инвестиций, созданию рабочих мест, росту экспорта и региональному развитию. Несмотря на эти успехи, исследование также выдвигает на первый план такие проблемы, как конкуренция со стороны других стран и проблемы устойчивого развития. Результаты показывают, что, хотя СЭЗ сыграли важную роль в стимулировании экономического роста, необходимы дальнейшие улучшения политики для поддержания их привлекательности и эффективности в конкурентной глобальной среде.

Ключевые слова: свободные экономические зоны (СЭЗ), прямые иностранные инвестиции (ПИИ), экспорт, экономический рост.

INTRODUCTION

Foreign Direct Investment (FDI) is a vital driver of economic growth, providing capital, technology transfer, and managerial expertise that can significantly enhance the productive capacities of a host country. Recognizing the importance of FDI, many nations have implemented various strategies to attract foreign investors, with Free Economic Zones (FEZs) being one of the most prominent tools. FEZs are specially designated areas within a country where businesses benefit from preferential policies, including tax incentives, streamlined regulations, and superior infrastructure, aimed at creating a conducive environment for foreign investment.

South Korea, an exemplar of rapid industrialization and economic advancement, has effectively utilized FEZs as part of its broader economic strategy. The country's transition from a war-torn economy in the mid-20th century to a global industrial powerhouse by the early 21st century is largely attributed to its open economic policies and strategic investment initiatives. As of today, South Korea hosts several FEZs, each with its unique focus and advantages, such as the Incheon Free Economic Zone (IFEZ), the Busan-Jinhae Free Economic Zone (BJFEZ), and the Gwangyang Bay Area Free Economic Zone (GFEZ).

The purpose of this paper is to delve into the role of FEZs in attracting FDI to South Korea, examining how these zones contribute to the nation's economic objectives. The analysis will cover the policy frameworks that underpin the establishment and operation of FEZs, the economic impacts they generate, and the specific advantages they offer to foreign investors. Additionally, this study will identify the challenges FEZs face and propose recommendations to enhance their effectiveness.

By investigating the South Korean model, this paper aims to provide valuable insights into the efficacy of FEZs as a mechanism for attracting FDI and fostering economic development. The findings could serve as a useful reference for other countries looking to implement or improve their own FEZ strategies to better compete in the global market. Through a detailed exploration of South Korea's FEZs, this paper will highlight both the successes and the areas requiring further improvement to ensure sustained economic growth and competitiveness.

LITERATURE REVIEW

The concept of FEZs is rooted in economic theories related to spatial economics, agglomeration economies, and trade liberalization. FEZs aim to create a favorable

investment climate by reducing barriers to trade, offering fiscal incentives, and providing superior infrastructure. According to Ghazalian (2023) the creation of such zones can foster competitive advantages by concentrating resources and economic activities in specific regions, thus benefiting from agglomeration economies. These zones serve as testing grounds for broader economic reforms and can enhance a country's overall investment climate. Johansson and Nilsson (1997) argue that FEZs can reduce operational costs and risks for foreign investors, thereby increasing their attractiveness compared to non-FEZ regions.

xususiyatlarini ko'rsatib berishga olib keladi. Bu esa har bir tilning umumiylik va o'ziga xoslik dialektikasini ochishga imkon tug'diradi. Shuning uchun ham sintaktik birliklarning shakl va mazmun munosabati bir qator o'zbek tilshunoslarining diqqatini jalb etdi. Bu sohada prof. N.Mahmudov, A.Berdaliyev singari olimlarning ishlarini alohida ta'kidlash lozim. Avvalo, sintaktik birliklarning shakl va mazmun o'rtasidagi munosabati haqida fikr yuritilganda, dastlab uning qaysi tomonini asos qilib olish mumkin, degan masala ko'ndalang bo'lishi tabiiy. Bu masalani hal etishda hozirgacha bo'lgan tilshunoslikda ikki yo'nalish maydonga keldi: 1) semasiologik yo'nalish; 2) onomasiologik yo'nalish. Semasiologik yo'nalish tarafdorlari shaklni asos qilib oladilar va har bir shakl qanday ma'nolarni ifodalashini ochib berishga harakat qiladilar. Onomasiologik yo'nalish tarafdorlari esa, aksincha, ma'noni asos qilib oladilar va muayyan ma'no qanday yo'llar bilan ifodalanishini yoritishga ahamiyat beradilar. Tilshunoslikda mavjud bo'lgan har ikki yo'l bir-birini inkor etmaydi, balki birbirini to'ldiradi. Onomasiologik yo'nalish muayyan ma'noning qanday ifoda vositalari bilan ifodalanishi masalasini o'rganishga e'tiborni qaratarkan, xuddi mana shu yo'nalish turli sistemadagi tillarni tipologik planda o'rganishga, bu tillarning umumiy, turli nuqtalari qayerdayu, xususiy, o'ziga xos tomonlari qayerda ekanligini yoritishda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham bu usul turli sistemadagi tillarning tipologik tadqiqotlarida ham katta ahamiyatga ega. Onomasiologik yo'nalishda tayanch nuqta mazmun, sintaktik birliklarning mazmuniy tuzilishi deb qaralar ekan, avvalo, ana shu mazmuniy tuzilish birliklari qanday belgilanadi, degan masalani hal etish eng zaruriy masalalardan sanaladi. Bu masalani hal etishga e'tiborni qaratgan olimlar falsafadagi propozitsiya atamasini tayanch nuqta qilib oldilar. Propozitsiya tushunchasi har bir nutq egasining ongida mavjud bo'lgan obyektiv reallikning in'ikosi, nutq vaziyatidir. Ma'lum nutq vaziyati elementlari obyektiv borliqda o'zaro munosabatda bo'lgan va inson sezgi a'zolariga ta'sir etadigan elementlarning umumlashgan obrazlarining ongda aks etishidir. Inson ongida aks etgan ana shu borliq elementlarini ayrim tilshunoslar signifikat atamasi bilan ham nomlaydilar. Bundan ko'rinadiki, signifikat elementlari shakliy elementlar bilan qiyoslashga asos bo'lib xizmat qiladi. Bir signifikativ ma'no tuzilishi bir necha shakliy tuzilish birliklari orqali ifodalanishi mumkin. Bu sintaktik sinonimiyani vujudga keltiradi. Aksincha, bir necha signifikativ ma'no bir sintaktik shakl tuzilishi bilan ifodalanishi mumkin. Natijada sintaktik omonimiya vujudga keladi. Demak, sintaktik birliklarning shakl va mazmun dialektikasi mazmuniy birliklarning to'liq yoki noto'liq shakliy ifodasini topishi masalasini o'rganishdan, bu ikki struktura o'rtasida mutanosib (simmetrik) va nomutanosib (asimmetrik) munosabat mavjudligini aniqlashdan tashqari, sintaktik sinonimiya, sintaktik omonimiya va

sintaktik polisemiya masalalarini ham qamrab oladi. Shuning uchun ham sintaktik sinonimiya, sintaktik omonimiya va sintaktik polisemiya masalalarini sinchiklab o'rganish sintaktik birliklarning shakli va mazmuni o'rtasidagi munosabatni chuqurroq yoritishga qulay imkoniyat yaratib beradi. Ko'rinadiki, nutqiy jarayonda mazmuniy birliklar bilan shakliy birliklar o'rtasida ko'pincha nomutanosiblik mavjud bo'ladi. Chunki nutq jarayonida so'zlovchi oz moddiy vositalardan foydalangan holda, ko'proq ma'noni ifodalashga harakat qiladi, so'zlovchining obyektiv olamdan olgan taassuroti to'lig'icha o'z shakliy ifodasini topmaydi. Faqat eng muhim jihatlari fikran ajratiladi va ana shu eng muhim deb ajratilgan jihat o'z shakliy ifodasiga ega bo'ladi. Qolgan tomonlar so'zlashuvchilarning oldindan bilish fondiga va til ko'nikmasiga ko'ra ma'lum bo'ladi. Masalan, bironbir qalam ma'lum bir xontaxta ustida turganligi vaziyatini ko'raylik. Bunda qalamning rangi, shakli, uchining holati, xontaxtaning shakli, rangi, estetik ko'rinishi va boshqa jihatlari bor. So'zlovchi shu vaziyatning axborot tashishi uchun eng muhim jihatlarni tanlaydi va ana shu tanlangan qismlarga mos shakllarni belgilaydi. Shuning uchun mashhur nemis olimi V.Gumboldt nutqda so'zlashuvchilar o'rtasida bir vaqtning o'zida ham tushunish bor va ham tushunmaslik bor, deydi. Shakl bilan mazmunning nisbiy mustaqilligini shunda ham ko'rish mumkinki, ayni bir mazmun turli shakllarga kirishi mumkin (sintaktik sinonimiya). Bir shaklning o'zi esa bir necha mazmunga ham ega bo'lishi mumkin (sintaktik omonimiya). Sintaktik sath birliklaridagi ana shunday shakl va mazmun dialektikasi ayrim asarlarni e'tiborga olmaganda, hali tilshunoslar diqqatini yetarli ravishda jalb etgani yo'q. Bu esa bugungi o'zbek tilshunosligi uchun ushbu mavzuning naqadar dolzarb ekanligini ko'rsatadi. Gapning shakli va mazmuni o'rtasidagi aloqa to'g'risida fikr yuritgan D.Lutfullayeva «gapning mazmuni o'ziga muvofiq shaklni taqozo etar ekan, bu ikki tomonning butunlay nomuvofiqligi haqida gapirib bo'lmaydi. Shakl va mazmuni butunlay muvofiq kelmaydigan gapning o'zi yo'q» ekanini ta'kidlaydi. Lisoniy birliklarning shakl va mazmuni o'rtasidagi munosabatni ifodalashda umumiylik xususiylik dialektikasini ham e'tiborga olamiz. Chunki har qanday lisoniy birlik bevosita kuzatishda xususiy birliklar sifatida namoyon bo'ladi. Xususiy birliklarni qiyoslash, ular o'rtasidagi umumiy jihatlarni topish orqali xususiyliklar ma'lum umumiyliklarga fikran birlashtiriladi. Shunday qilib, har qanday umumiyliklar bevosita kuzatish bosqichida xususiyliklar orqali namoyon bo'ladi.

XULOSA

Gap bo'laklari sathida umumiylik xususiylik dialektikasi morfologik shakl va sintaktik shakl, morfologik ma'no va sintaktik ma'no munosabati orqali ifodalanadi. Morfologik shakl va ma'no sintaktik shakl va ma'noning ichki tomonini, nimadan

tashkil topishini, strukturasi belgilaydi. Funktsional tomoni esa gap tarkibida qanday pozitsiyasini egallashni nazarda tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бердиалиев А. Эргаш гапли қўшма гап конструкцияларида семантик-сигнификатив парадигматика. – Т.: Фан, 1989.
2. Гегель. Энциклопедия философских наук. – М.: Мысль, 1974.
3. Нурмонов А., Йўлдашев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. – Т.: Шарқ. 2001.
4. Лутфуллаева Д.Э. Тасдиқ гапларда инкор ва шаклий мазмуний номувофиқлик: Филол. Фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Т., 1997.
5. Маҳмудов Н.М. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. – Т.: Ўқитувчи, 1984.
6. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1995.
7. Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. – Т., 1988.
8. Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. –М., 1988.

TURK MAQOLLARIDA FARZAND OBRAZINING METAFORIK TALQINI

Altinboyev Nuriddin Abdumannonovich

JOKU katta o'qituvchisi

nuriddinaltinbaev@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada turk xalqi madaniyatida farzand obrazining talqini, tutgan o'rni maqollardagi metaforalar tahlili orqali yoritiladi. Bunda ushbu konseptning xalq lingvomadaniyatida o'ziga xos lisoniy vositalar orqali namoyon bo'lishi va turli metaforalar yordamida yuzaga chiqishi tahlilga tortilgan.

***Kalit so'zlar:** lingvomadaniyatshunoslik, konsept, lisoniy manzara, maqol, farzand, metafora*

KIRISH

Madaniyat xalqning ijtimoiy va tarixiy jarayonida vujudga kelgan, jamiyat taraqqiyotida tarixan erishilgan, sivilizatsiya bosqichini xarakterlaydigan moddiy va ma'naviy xususiyatlarning majmuidir⁹⁴. Til madaniy ma'lumotlarni uzatish vositasi sifatida xalqlarning madaniyati, dunyoqarashi, moddiy va ma'naviy turmushining xususiyatlarini yaqqol namoyon qiladi. Til – madaniyat ko'zgusi, unda xalqning o'z-o'zini anglashi, mentaliteti, milliyligi, hayot tarzi, an'analari, urf-odatlar, axloqiy me'yorlari, qadriyatlar tizimi, dunyoqarashi, olamga munosabati aks etadi⁹⁵. Bu esa tilshunoslikka shaxsni shakllantiruvchi gumanitar bilimlarning majburiy qismi sifatida qarash imkonini beradi.

Lingvomadaniyatshunoslik V. Teliya boshchiligidagi iboralar maktabi tadqiqotlari asosida Y. Stepanov, N. Arutyunova, V. Vorobyev, V. Shaklein, V. Maslova kabi izlanuvchilarning ishlari bilan bog'liq ravishda rivojlandi⁹⁶. V. Maslova xalqning o'tmish asrlarga oid qarashlari tildagi maqollarda, frazeologik birliklarda, metaforalarda va madaniy ramzlarda hozirgi kunimizga qadar saqlanib qolishini bayon qilib, mazkur fanning tadqiqot doirasini belgilab berishini ta'kidlaydi.⁹⁷ Maqollar har bir xalq madaniyatida muhim o'rin tutadi. Turk tilida oilaga oid maqollar juda ko'pchilikni tashkil qiladi va hayotiy tajribalar mahsuli bo'lgan

⁹⁴ Мардиев Т.К. Инглиз ва ўзбек тилларида инсон туйғулари ифодаланишининг концептуал таҳлили, PhD илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация, Самарқанд.:2019, 11 б.

⁹⁵ Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М., 2000. – С.14.

⁹⁶ PAŞAOĞLU, Canan, Rus ve Türk Dil Dünya Görüşlerinde Aile Konsepti, Avrasya Uluslararası Araştırmalar Dergisi, C.8, Sayı:25, s.165

⁹⁷ Маслова, В.А., Лингвокультурология, Москва, Academia, 2001, с.17

maqollarni bugungi kun kishilariga yo‘l-yo‘riq ko‘rsata oladigan “donishmand maktabi” deb atash mumkin. Maqollarga shu kundga qadar ko‘p va xo‘p ta‘riflar berilgan. Masalan, “qanotli so‘z”, “nasihat”, “javohir so‘z”, “ibratli so‘z”, “oltin so‘z”, “tilning bo‘stoni”, “xalq maktabi”, “xalq hikmati”, “ruh tabibi”, “aqlning ko‘zi” kabi juda ixcham iboralar bilan ataladi⁹⁸. Umuman, xalq og‘zaki ijodi va bu adabiyotni tashkil etuvchi janrlar ham shakliy, ham ichki tuzilish jihatidan butun bir xalqning his-tuyg‘ularini, fikr-mulohazalarini, hayotiy qarashlarini ifodalaydi. Ushbu janrlar yaxlit fikrlay oladigan, baholay oladigan va voqealarni yo‘naltiruvchi tushunchaga ega bo‘lgan donolikning mahsuli⁹⁹ hisoblanadi, Bunday asarlar jamiyatning dunyoqarashi, didini ifodalash, shu boisdan ham jamiyatning psixologiyasi, xarakteri va asosiy ruhiy tuzilmalarini o‘qib, xulosalar chiqarish orqali ba‘zi xulosalarga kelish jihatidan nihoyatda qimmatlidir¹⁰⁰. Ifoda qudrati va nutqdagi jozibasi bilan maqollar o‘zining ulg‘ayib kelayotgan avlodning shaxsini kamol toptirishda, shaxs bo‘lib yetishishida oila, ona, ota, ayol kabi tushunchalarning o‘rni va rolini didaktik usulda taqdim qiladi. Maqollar ba‘zan yoshi ulug‘ insonning yoshlarga pand-nasihatini, ogohlantirishi mazmunida ifodalansa, ba‘zan erkak kishining boshqa jinsdoshiga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishini, ta‘qiqlar haqida xabarini beradi, ba‘zan esa ayol kishining dunyoqarashidan kelib chiqqan holda uning tilidan bayon qilinadi.

Metaforik talqin

Erkaklar va ayollar turli tillardan foydalanishlari sotsiolingvistikada yillar davomida o‘rganilayotgan asosiy masalalardan biridir. Ayol ishlatadigan til erkak ishlatadigan tildan farq qilishidan tashqari, Lakoff jamiyatda ayollar va erkaklarga nisbatan qo‘llaniladigan til ham turlicha ekanligini ta‘kidlaydi. Til jins vakillarining fikrlarini qadrsizlantirishi yoki jamiyatdagi o‘rnini pasaytirishi mumkin. U jinsga asoslangan ijtimoiy stereotiplar majmuini yaratadi. “Erkaklar shafqatsiz” yoki “Ayollar matematikani tushunmaydilar” kabi. Jamiyatda ayollar va erkaklarga nisbatan qo‘llaniladigan tilni o‘rganish ana shu stereotiplarni ochishga yordam beradi¹⁰¹. Aristotel davridan beri faqat adabiy tilning bir qismi sifatida ko‘rilgan va ritorikadagi ritorikadan biri bo‘lgan metafora san‘ati kundalik tilning ajralmas qismi bo‘lib, madaniy xulq-atvorni ochib berish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Metaforik so‘z – bu o‘xshash tushunchani ifodalash uchun ishlatiladigan bir yoki bir nechta so‘zlarning odatiy, an’anaviy ma’nosidan tashqari, tushuncha uchun

⁹⁸ Çobanoğlu, Ö. Türk Dünyası Ortak Atasözleri Sözlüğü. Ankara: AKM Yayınları, 2004, 3.s.

⁹⁹ Öztürk, A. Türk Anonim Edebiyatı. İstanbul: Bayrak Yayıncılık, 1986, 9s.

¹⁰⁰ Akbalık, E. Türk Atasözlerinde Cinsiyet Algısı, Dumlupınar Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi – Sayı 36 – Nisan 2013, 81.s

¹⁰¹ Alagözlü, N. Dil ve Cins: Türkçe Atasözlerinde ve Deyimlerinde Kadın Üzerine Eğretilmeler ve Toplum-Bilişsel Yapı, International Journal of Central Asian Studies, Volume 13, 2009, 38.s.

ishlatiladigan lingvistik elementlardir. Bu bir semantik maydonni boshqa semantik maydon bilan aniqlashdir. Metaforalar nafaqat fikrni tasvirlash va insonning xohish-istaklari, his-tuygʻulari va fikrlarini yoritish uchun emas, balki ijtimoiy xulq-atvor modellari va munosabatlarini ham ochib beradi. Til va madaniyat oʻrtasidagi bogʻliqlik yoki tilning madaniyatni aks ettirish kuchi yangi nuqtayi nazar emas. Ushbu gʻoya va uning asosidagi jarayonlarni chuqur oʻrganishni birinchi boʻlib Lakoff va Jonson oʻzlarining “Biz bilan yonma-yon yashayotgan metafora”¹⁰² asarida amalga oshirgan. Ular ilgari surgan “Konseptual metafora nazariyasi” bilan metafora nafaqat til bezaklari, balki tafakkur tizimi va madaniyatining ifodasi ekanligini ham taklif qildilar.

Lakoff va Jonsonning kontseptual metaforalari ikki qismdan iborat: manba kontseptual soha va maqsadli kontseptual soha. Ushbu ikkita kontseptual soha uchun ikkita asosiy vazifa mavjud: metafora ifodalari uchun “manba domen” (source domen) va biz tushunishga harakat qilayotgan “nishon domen” (target domen). Xarita deb ataladigan tasvir maqsad va manba maydonlarini tashkil etuvchi elementlar oʻrtasidagi tizimli aloqalar seriyasidir. Maqsadli hududning koʻplab elementlari manba hududidan keladi. Oʻxshashning barcha xilma-xil tomonlari bu taqsimotda oʻxshash va oʻxshatish oʻrtasidagi munosabatda taqdim etiladi va uni har tomonlama tavsiflaydi. Ushbu taqsimotni miyadagi kontseptual metaforalarga misol sifatida keltirish mumkin, Lakoff va Jonson ishidagi “vaqt” tushunchasi. Vaqt tushunchasini “pul” tushunchasi yordamida tushuntirish yoki tushunish mumkin¹⁰³. Masalan, u sarflanadigan, qimmatli narsa. Yana “hayot” tushunchasi sayohat tushunchasi bilan izohlanadi. “Hayot - bu sayohat”. “Uning boshlanishi va oxiri bor”, “Bu jarayon”, “Uning maqsadi bor”, “Bu harakat” kabi.

Metafora va idrok oʻrtasidagi taxminiy munosabat metafora va mafkura (dunyoga qarash) munosabatini ham koʻrsatadi va nutqning gʻoyaviy tuzilishini tizimli ravishda oʻqishni taʼminlaydi. Metafora til dunyoqarashini aks ettirishda katta rol oʻynaydi. Taʼriflanayotgan yoki tavsiflanadigan tushuncha bilan bogʻliq boʻlgan boshqa tushunchalar turkumining ijobiy yoki salbiy maʼnolarni yuzaga keltirishi tasvirlanayotgan tushunchaga munosabat va qarashlarni ochib beradi.

Mazkur fikrlardan kelib chiqqan holda ushbu maqola doirasida turk xalqi madaniyatida farzand obrazi maqollarda qay tariqa berilganligini tahlil qilamiz.

Farzand obrazining metaforalar orqali ifodalanishi

Farzand turk madaniyatida oila mavjudligini belgilab beruvchi asosiy omil sanaladi. Turk jamiyatida farzand er-xotin aloqalarning mustahkamlovchi, ayolning

¹⁰² Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live by*, The University of Chicago Press, Chicago – 1980

¹⁰³ Lakoff G., Johnson M. *Koʻrsatilgan asar*, Chicago – 1980, p.9

oiladagi o'rnini belgilovchi, otaning jamiyatdagi mavqeyini ko'rsatuvchi asosiy faktor hisoblanadi. Farzand, ega bo'linishi kerak bo'lgan va hayotning go'zalligini oshiradigan qadriyat sifatida qaralib, uning yo'qligi qat'iy qoralanadi va tanqid qilinadi: *Çocuksuz kadın meyvesiz ağaç gibidir* (Befarzand ayol mevasiz daraxtga o'xshaydi), *Oğlanı kızı olmayan avrattan, eski hasır yeğdir* (O'g'il qizi yo'q xotindan eski bo'yra yaxshi), *Çocuk evin meyvesidir* (Bola uyning mevasidir), *Çocuklu ev pazar, çocuksuz ev mezar* (Bolali uy bozor, bolasiz uy mozor), *Evlâdı olmayanda merhamet olmaz* (Bolasi yo'qning shafqati bo'lmaydi). Farzand meva, bozor, shafqat so'zlari bilan turk madaniyatidagi o'z o'rnini aniq ko'rsatib bergan. Farzandsiz insonlar, asosan, ayollarga nisbatan salbiy qarashni kuzatish mumkin.

O'g'il farzand ko'rish istagining nisbatan ustunligi haqida gapirish mumkin bo'lsa-da, qiz farzand ko'rish ham talab qilinadigan holat: *Bir anaya bir kız, bir kafaya bir göz* (Bir onaga bir qiz, bir boshga bir ko'z), *Kızı kim istemez, kımız kim içmez* (Kim qiz istamas, qimiz kim ichmas) kabi maqollar buni tasdiqlasa ham, qiz farzandli bo'lish ko'p qiyinchiliklar va muammolarga duchor bo'lishni talab etuvchi holatdir. Boshga ko'z qanchalik kerak bo'lsa, qiz farzand ona uchun shunday ahamiyatlidir. Oiladagi yumushlarni, odatda, xotinidan keyin qiz farzandlar o'z zimmasiga oladi. Qiz bola otasiga sidqidildan xizmat qiladi (qimiz keltirib beradi). Shunday bo'lishiga qaramasdan, qizlarni har jihatdan himoya qilish, ularga g'amxo'rlik qilish, ularning tarbiyasi, odob-axloqi, or-nomusi, turmush qurishi, turmush o'rtog'ini to'g'ri tanlashi kabi masalalar har tomonlama ota-onaning zimmasida bo'lganligi sababli qiz farzandli bo'lish "og'ir" sanaladi: *Oğlan doğuran övünsün, kız doğuran dövünsün* (O'g'il tug'gan maqtansin, qiz tug'gan tizzasin mushtlasin), *Kız doğuran tez kocar* (Qiz tug'gan tez qatiydi), *Kızın var, sizin var* (Qizing bor, muammong bor), *Bir ev (gemi) donanır, bir kız (çıplak) donanmaz* (Bir uy (kema) jihazlanishi mumkin, qiz esa yo'q). Qizlar o'g'il bolalardan ham jismonan, ham ruhiy jihatdan zaifroq hisoblanganligi sababli, ular himoya va yashirinishga muhtoj bo'lib ko'riladi. Shu ma'noda qizlarning ta'lim-tarbiyasi va nazorati katta ahamiyatga ega. Qizlar to'g'ri qaror qabul qilishda, irodasidan to'g'ri foydalanishda qiynaladi. Shuning uchun turk xalqi nazdida ular har doim oila nazorati va himoyasida bo'lishlari kerak: *Kızını dövmeyen dizini döver* (Qizini urmagan, tizzasin mushtlar), *Kızı kendi gönlüne bırakırsan ya davulcuya varır ya zurnacıya* (Qizning ko'ngliga qarasang, yo do'mbirachini, yo surnaychini tanlaydi), *Oğlun pazar aşu tatmasın, kızın komşu evinde yatmasın* (O'g'ling bozor oshi totmasin, qizing qo'shni uyida yotmasin).

Endi farzand bilan bog'liq metaforik o'xshatishlarni ko'rib chiqamiz. Farzand bilan bog'liq umumiy tushunchalar qismida bularga aslida biroz to'xtalib ham o'tdik.

Yegulik: *Evlət kısmı şirin lokmadır, ne iyisinden geçilir, ne kötüsünden* (Bola degani shiringina luqmadir, na yaxshisidan, na yomonidan kecha olasan), *Herkes pişirdiğini soğutsun, doğurduğunu büyütsün* (Hamma o'zi pishirganini sovutsin, tug'ganini katta qilsin), *Çocuk evin meyvesidir* (Farzand uying mevasidir), *Armut dalının dibine düşer* (Nok shoxining tagiga tushadi), *Evladın hamı tatlı olur* (Bolaning pishmagani(xomi) shirin bo'ladi), *Oğlanı doğuran ana sevinmesin de, ekmeğini yiyen sevinsin* (O'g'il tug'gan ona emas, nonini yegan ona suyunsin), *Oğlanınki oğul balı, kızınki bahçe gülü* (O'g'ılıniki asil asal, qızıniki hovli guli) *Anasız çocuk evde çürür, babasız çocuk çarşıda* (Onasiz bola uyda chirydi, otasiz bola – bozorda) maqollarida farzand luqma, pishgan narsa, meva, nok, xomi, non, asal kabi obrazlar orqali beriladi.

O'simlik: *Ekin ekdim yel aldı, değirmen yaptım sel aldı, oğul yetiştirdim el aldı* (Ekin ekdim yel oldi, tegirmon qurdim sel oldi, o'g'il o'stirdim el oldi), *Karpuz kökeninde büyür* (Taruuz tubida o'sadi), *Karpuz sulandıkça büyür* (Taruuz suvlagan sari o'sadi), *Kız büyür bahtı beraber büyür* (Qiz o'sadi, baxti o'zi bilan birga o'sadi), *Ağaç yaş iken eğilir* (Daraxt novdaligida egiladi), *Oğlanınki oğul balı, kızınki bahçe gülü* (O'g'ılıniki asil asal, qızıniki hovli guli) maqollarida farzand o'stirmoq (*yetiştirdim*), tarvuz (*karpuz*), o'smoq (*büyür*), daraxt (*ağaç*), hovli guli (*bahçe gülü*) obrazlari oqali tasvirlangan.

Narsa-buyum: *Bir ev donanır, bir kız donanmaz* (Bir uy jihazlanadi, qiz jihazlanmaydi), *Bir evde ikki kız, biri çuvaldız, biri biz; bir evde iki oğlan, biri devlet biri mihnet* (Bir uyda ikki qiz, biri juvaldi(katta igna), biri bigiz, bir uyda ikki o'g'il, biri davlat, biri mashaqqat),

Tashvish, dard, muammo, qiyinchilik: *Çocuğu olanın bin, olmayanın bir derdi var* (Bolasi borning ming, bolasi yo'qning bir dardi bor) yoki *Evladın varsa bin derdin var, evladın yoksa bir derdin var* (Farzanding bo'lsa, ming darding bor, farzanding yo'q bo'lsa, bir darding bor), *Evladın var mı, derdin var* (farzanding bormi, darding ham bor), *Bir evde ikki kız, biri çuvaldız, biri biz; bir evde iki oğlan, biri devlet biri mihnet* (Bir uyda ikki qiz, biri juvaldi(katta igna), biri bigiz, bir uyda ikki o'g'il, biri davlat, biri mashaqqat), *Çocuk büyütme taş kemirmek* (Bola katta qilish tosh kemirish), *Çocuk isteyen belasını da istemesi gerek* (Bola tilagan balosini ham tilashi kerak), *Kızı olan tez kocar* (Qizi bor odam tez qariydi), *Kızın var, sizin var* (Qizing bor bo'lsa, o'g'rig'ing ham bor), maqollarida farzand dard (*derdin var*), mashaqqat (*mihnet*), tosh kemirish (*taş kemirmek*), tez qarish (*tez kocar*), o'g'riq (*sızın var*) obrazlari orqali talqin qilingan.


Qimmatbaho buyum: *Kız ile altın gizli gerek* (Qiz bilan oltin yashirilishi kerak), *Çocuk kari koca arasında altın toptur* (Bola er-xotin orasidagi oltin to‘p) maqollarida farzand oltin (*altın*), oltin to‘p (*altın toptur*) obrazlarida namoyon bo‘ladi.

Xarajat, to‘ymas “mavjudot”: *Oğlanın karası para kesesi, kızın karası can tasası* (O‘g‘ilning yomoni – hamyonga jabr, qizning yomoni joningga jabr), *Bir kaz doymaz, bir kız* (Bir g‘oz to‘ymaydi, bir qiz), *Kız boğazı kırk boğum olur* (Qiz tomog‘i qirq bo‘g‘im bo‘ladi), *Yavru kuşun ağzı büyük olur* (Polaponning og‘zi katta bo‘ladi) *Eşeğe ‘sıpan oldu’ demişler, ‘sırtındaki yükümü atacak değil ya, önümdeki yemimi alacak’ demiş* (Eshakka “xo‘tikchali bo‘lding” deyishibdi, “ustimdagi yukni olmaydi, oldimdagi yemni oladi” debdi) maqollarida esa hamyon (*para kesesi*), to‘ymaydi (*doymaz*), qirq bo‘g‘im (*kırk boğum*), og‘zi katta (*ağzı büyük*), yem (*yemimi alacak*) so‘zlari orqali metafora hosil bo‘lgan.

Do‘st-dushman: *Yılana yavrusu düşman olur* (Ilonning bolasi o‘ziga dushman bo‘ladi), *Oğul babaya, kız anaya yar olur* (O‘g‘il otaga, qiz onaga do‘st bo‘ladi), *Çocuk kısmı hem ağlatır, hem güldürür* (Bola ham kuldiradi, ham yig‘latadi), *Çocuk kısmı hem dost, hem düşman* (Bola ham do‘st, ham dushmandir), *Çocukla çıkma yola, düşersen güler, düşerse ağlar* (Bola bilan yo‘lga chiqma, yiqilsang kuladi, yiqilsa yig‘laydi) maqollarida farzand dushman (*düşman*), do‘st (*yar, dost*), kuldiradi (*güldürür*), yig‘latadi (*ağlatır*), yiqilsang kuladi (*düşersen güler*) so‘z va birikmalar orqali talqin qilingan.

Ishonchsizlik va xavf: *Oğluna güvenme, koluna güven* (O‘g‘lingga ishonma, bilagingga ishon), *Büyükler evde söyler, çocuklar damda söyler* (Kattalar uyda gapirishadi, bolalar tomda aytishadi), *Çocuğa emniyet olmaz* (Bolaga ishonib bo‘lmaydi), *Çocuğun bulunduğu yerde dedikodu olmaz* (Bola bor joyda mish-mish bo‘lmaydi), *Kadına, çocuğa, sarhoşa sırrını açma* (Ayolga, bolaga, sarxushga siringni aytma) maqollarida farzand ishonma (*güvenme*), aytib qo‘yadi (*damda söyler*), ishonch yo‘q (*emniyet olmaz*), mishmish bo‘lmaydi (*dedikodu olmaz*), siringni aytma (*sırrını açma*) kabi so‘z va so‘z birikmalari yordamida ifodalangan.

Haq so‘z: *Haberin doğrusunu oğlandan al* (Xabarning to‘g‘risini o‘g‘londan ol), *Çocuktan al haberi* (Boladan xabarni(haqiqatni) bilib ol) maqollarida rost xabar (*haberin doğrusunu*) va haqiqat, xabar, ma‘lumot (*haber*) so‘zlari orqali bolalar yolg‘on gapirmasliklari, haqiqatni yashirmasliklari bayon qilingan.



XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, turk madaniyatida farzand oilaning eng asosiy omillaridan biri bo‘lishiga qaramay, farzand bilan bog‘liq maqollarning aksariyati bolaning salbiy jihatlarni ko‘rsatgan. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, turk xalqi “ming dardni bir darddan” afzal ko‘radi. Oila konseptini ochib berishda farzand obrazi muhim rol o‘ynaydi. Turk xalqining lisoniy manzarasida farzand ramziy tarzda narsa-buyum, yegulik, o‘simlik, haq so‘z, boylik, dard, tashvish, xarajat(chiqim) kabi bir qator tushunchalarni ifodalab keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мардиев Т.К. Инглиз ва ўзбек тилларида инсон туйғулари ифодаланишининг концептуал таҳлили, PhD илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация, Самарқанд.:2019
2. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М., 2000
3. Paşaoğlu, Canan, Rus ve Türk Dil Dünya Görüşlerinde Aile Konsepti, Avrasya Uluslararası Araştırmalar Dergisi, C.8, Sayı:25
4. Маслова, В.А., Лингвокультурология, Москва, Academia, 2001
5. Çobanoğlu, Ö. Türk Dünyası Ortak Atasözleri Sözlüğü. Ankara: AKM Yayınları, 2004
6. Öztürk, A. Türk Anonim Edebiyatı. İstanbul: Bayrak Yayıncılık, 1986
7. Akbalık, E. Türk Atasözlerinde Cinsiyet Algısı, Dumlupınar Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi – Sayı 36 – Nisan 2013

8. Alagözlü, N. Dil ve Cins: Türkçe Atasözlerinde ve Deyimlerinde Kadın Üzerine Eğretilmeler ve Toplum-Bilişsel Yapı, International Journal of Central Asian Studies, Volume 13, 2009
9. Lakoff G.,Johnson M. Metaphors We Live by, The University of Chicago Press, Chicago – 1980
10. Aksoy, Ömer Asım. Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü. İstanbul 2016

“TARIXI RASHIDIY” ASARINING MARKAZIY OSIYO TARIXINI YORITISHDAGI AHAMIYATI

Sharipova Dilnavoz

Xalqaro islom akademiyasi magistranti

+998906072544

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XIV-XVI asrlarda Markaziy Osiyo tarixini o'rganishda tarixchi va sarkarda Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asarining ahamiyati hamda asarda keltirilgan noyob va qimmatli ma'lumotlar keltirilib o'tilgan. Shuningdek, Mavaraunnahr, Xuroson,, Mo'g'uliston hududlaridagi harbiy-siyosiy vaziyatlarni ochib beradi.

Kalit so'zla: *Muhammad Haydar, “ Tarixi rashidiy”, Mo'g'uliston, chig'atoylar, o'zbeklar, Amur Temur harbiy yurishlari, islom.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье раскрывается значение труда «История Рашиди» историка и полководца Мирзы Мухаммада Хайдара в изучении истории Средней Азии XIV-XVI веков и уникальные и ценные сведения, представленные в работе. Упоминается.раскрывается военно-политическая обстановка в районах Иллистана.

Ключевые слова: *Мухаммад Хайдар, «История Рашиди», Монголия, чигатайцы, узбеки, военные походы Амур-Тимура, ислам.*

ABSTRACT

In this article, the significance of the work "History of Rashidi" by the historian and general Mirza Muhammad Haydar in the study of the history of Central Asia in the 14th-16th centuries and the unique and valuable information presented in the work are mentioned. Reveals the military and political situations in the regions of Movarounnahr, Khurasan, Mongolia.

Key words: *Muhammad Haydar, "History of Rashidi", Mongolia, Chigatays, Uzbeks, Amur Timur's military campaigns, Islam.*

KIRISH

XIII-XV asrlarda Markaziy Osiyo ko'plab hukmdorlarga va ijtimoiy-siyosiy voqealarga guvoh bo'ldi. Bu davrlardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, hukmron sulolalar, harbiy yurishlar, siyosiy aloqalar va madaniy hayot haqida juda ko'plab asarlar yozildi. Shunday asarlardan biri tarixchi va sarkarda Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asaridir. Bu asar fors tilida yozilgan bo'lib, tarixchilar uchun qimmatli manba hisoblanadi. Chunki, asardagi ko'plab ma'lumotlar va tarixiy

faktlar muallifning o‘zi qatnashgan hamda guvoh bo‘lgan voqea-hodislarga tayanadi. Asar Movarounnahr, Xuroson, Hindiston va Sharqiy Turkistonda hukmronlik qilgan olti sulolalar -Temuriylar, boburiylar, shayboniylar, mo‘g‘ul xonlari, qozoq xonlari va safaviylar shajaralari keng va uzviy holda yoritilgan. Shuningdek, asarda Tug‘luq Temur, Amir Temur, Shayboniyxon, Zahridin Muhammad Bobur, Yunusxon va boshqa bir qancha o‘zbek xonlari, mo‘g‘ul xonlari va boburiylardan bo‘lgan hukmdorlar haqida anchagina mufassal tarzda bayon etilgan. Asarning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, unda mo‘g‘ul hukmdorlarining islomni qabul qilish tarixi, jarayonlari va shart- sharoitlari keltirilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tarixan Mirzo Muhammad Haydar Ayoziyning “Tarixi Rashidiy” asaridagi nafaqat milliy, balki ko‘pgina jahon adabiyoti namoyondalarining nazarida bo‘lgan. Bugungi kunga qadar asar rus, turk, xitoy, qozoq, uyg‘ur kabi ko‘pgina Sharq va G‘arb tillariga tarjima qilingan. Xususan, 1940-yilda E.Denison Ross va Neil Elias tomonidan ingliz tiliga o‘g‘irilgan. “Tarixi Rashidiy” ni ingliz tiliga ilk marta britaniyalik sharqshunos olim Eduard Denison Ross (1871-1940) tarjima qilgan edi. Dastlab, “Tarixi Rashidiy” asari Emin Vongning evarasi Mir Tohirning o‘g‘li, Qashqar hokimbegi Zuhuriddin hokimbekning farmoniga binoan Xoja Muhammad Sharif tomonidan fors tilidan turkiy tilga tarjima qilingan.

Britaniya “Qirollik geografiya jamiyati”ning oltin medal sohibi, Britaniya qirolichasining XuRosson va Seyistonga tayinlagan konsul-general, geograf, sayyoh olim Ney Elias (1844-1897) esa tarjimini tahrir qilib, izohlar va xarita bilan boyitib, Londonda 1895 yili “Sampson Lou, Martson and Company, Ltd.”da bosib chiqargan[1;796].

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar xazinasida Mirzo Muhammad Haydar (1499-1551)ning fors tilida yozilgan mashhur asarining bitta turkiy tarjima nusxasi 10191/II raqamda saqlanmoqda.

Shuningdek, asar turkiy tarjimasining to‘liq va to‘liqsiz 10 ta qo‘lyozma nusxalari bizgacha yetib kelgan bo‘lib, ularning 7 ta nusxasi Rossiya Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo‘limida saqlanmoqda. Ko‘plan olimlar bu asarni o‘rganganligi sababli ko‘plab tillarga tarjima ham qilingan. Jumladan: Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy, Mullo Muhammad Niyoz Abdulg‘afur o‘g‘li, fransuz olimi Rene Grosse, ingliz olimlari Uilyam Erksin, Tomas Arnold, amerikalik Uiler Tekston, eronlik Husayn Razmjo, Qozi Ahmad Tataviy, o‘zbek olimi Hamidulla Hasanov, Bo‘ribov Ahmedov, Asomiddin O‘rinboev va yana

boshqa olimlar. Shuningdek, rus olimlardan V.V.Bartold, V.V.Velyaminov Zernov o‘z tadqiqotlarida ushbu asardan asosiy manba sifatida foydalanishgan. 1996-yilda U.Takston asarni inglizchaga to‘liq o‘giradi, kirish so‘zi yozib, izohlar, ko‘rsatkichlar, xarita ilova qiladi va Harvard universitetidagi Yaqin Sharq tillari va madaniyati fakultetida nashr etadi. Ushbu nashr “Mirza Haydar Dughlt’s Tarikhi-i-Rashidi:A History of the Khans of Moghulistan” deb nomlangan. 2008-yil esa asarning inglizcha nusxasi beshinchi marta, Nyu- Yorkda chop etildi va u “A History of Moghuls of Central Asia: The Tarikh-i” deb nomlandi. Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asari yozilganidan keyin 1 asr o‘tar-o‘tmas sharq geograflari va tarixchilari tmonidan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

XIII-XV asrda Movarounnahr ko‘plab hukmdorlarning boshqaruvi guvohi bo‘ldi. Hukmron sulolalar va ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta’siri to‘g‘risida ko‘plab asarlar yozildi. Shunday asarlardan biri “Tarixi Rashidiy” dir.

Asarning birinchi fasli hazrati Odam alayhissalomdan to hazrati Muhammad Rasulullohgacha o‘tgan podshohlari haqida qisqacha ma’lumot berilgan bo‘lib, asarning 2-7 fasllarida Temuchin Chingizxonning nasabi, uning avlodilari to‘g‘risida ma’lumot berilsa, 8-faslida asarning yozilishi va uning “Tarixi Rashidiy” deb atalishi sabablari bayon etiladi[2;30].

Shuningdek, asar 2 qismdan iborat bo‘lib, u daftar ham deb ataladi. Asarning birinchi daftari Qoshg‘ar, Qozog‘iston, shuningdek, Movarounnahr va Turkistonning XIV-XVI asr boshlaridagi siyosiy tarixini mukammal qamrab oladi. Ikkinchi daftar esa birinchisidan keskin farq qilib, muallifning esdaliklaridan, ya’ni voqealarga boy jo‘shqin hayoti davomidagi ko‘rgan-kechirgan xotiralarining jonli va ta’sirli bayonidan iborat. Bu ma’lumotlar Qoshg‘ar, Movarounnahr, Afg‘oniston hamda Shimoliy Hindistonning XVI asrning birinchi yarmidagi tarixini o‘rganishda asosiy va qimmatli manbalardan hisoblanadi. Asarning qimmatli tomoni ham shunda, ya’ni asar aniq faktlarga tayangan. Bunda muallif odatda o‘zi ishtirok etgan yoki zamondoshlaridan aniq eshitgan hodisalarini bayon qiladi. Mirzo Haydar asarning ko‘p joylarida “Mo‘g‘ullarning ishonchli kishilari og‘zidan eshitganim va otam hamda amakim (Alloh taolo ularga behisht bog‘lardan joy ato qilsin)ning hikoya qilishlaricha “-deya e’tirof etishi ham asarning qanchalik aniq ma’lumotlarga tayanishini bildiradi.

Asarning birinchi daftari turli naql-rivoyatlar, shuningdek, Yoqut Hamaviyning «Mujam ul-buldon», Juvayniyning «Tarixi Jahonkushoy», Rashididdinning «Jome ut-tavorix», Jamol Qarshiyning «Mulhaqot us-suroh», Sharafuddin Ali Yazdiyning

«Zafarnoma», Mirzo Ulug'bekning «Tarixi arba' ulus» va nihoyat Abdurazzoq Samarqandiyning «Matla' us-sa'dayn» kitoblaridagi ma'lumotlar asosida yozilgan. Lekin, unda ham Markaziy Osiyoning XIV-XV asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid yangi, yuqoridagi manbalarda bo'lmagan ma'lumotlar ko'p. Qolaversa, birinchi daftar Qoshg'ar, Qozog'iston, shuningdek, Movarounnahr va Turkistonning XIV-XVI asr boshlaridagi siyosiy tarixini mukammal qamrab olishi bilan qimmatlidir[3;29].

Asarda mo'g'ul hukmdorlari haqida juda keng va qimmatli ma'lumotlar bor. Xususan, asarning birinchi qismida mo'g'ullarning islom dinini qabul qilish tarixi quyidagicha yoritilgan; “Tug'luq Temurxon xon bo'ldi. Bu xabar Mavlono Arshadiddinga etgan zahoti u Oqsuvdan Mo'g'ulistonga jo'nadi. Xon ulug'vor hukmdor edi, Mavlono u bilan uchrashishga va muloqot qilishga qancha urinmasin, bunga muyassar bo'la olomadi. Shunda u xon qarorgohiga yaqin joyda har tongda azon ayta boshladi. Bir kuni tongda xon o'z mulozimlaridan birini chaqirib:”Mana bu tovushni eshityapsanmi? Ancha kundan beri tong mahali kimdir mana shunday qichqiradi. Borib uni keltir”, -dedi. Mavlono janoblari hali azonni to'xtatmay o'sha mo'gul paydo bo'ldida, Mavlono giribonidan tutib, xon qoshiga sudrab keldi. Xon un yoniga chorlab: “Sen qanday odamsanki, har kuni tongda, uyquning eng shirin paytida dod solasan?” deb so'radi. “Men bir vaqtlar sen musulmon bo'laman, deb va'da bergan odamning o'g'li bo'laman” dedi va yuqorida zikr qilingan hikoyani aytib berdi. Xon esa “ Yaxshi, nega sen kelding, otang qayerda?” deb so'radi. Mavlono: “Otam vafot etdi va bu ishni menga vasiyat qildi” dedi. Xon aytdiki: Xon ko'tarilganimdan buyon shunday so'z berganimni doimo yodga olaman, o'sha odam esa kelmasdi, sen endi xush kelibsan. Nima qilish kerak?”.

O'sha tong hidoyat oftobi inoyat mashrig'idan chiqib, kofirning qorong'u kechasini yoritdi. Mavlono janoblari xonni g'usl qildirib, iymon mohiyatini tushuntirdi. Xon musulmon bo'ldi. Bundan tashqari, ular islomni oshkora targ'ib qilish va yoyish rejasini tuzdilar”[4.9]

Bundan tashqari, “Tarixi Rashidiy” asarida Amir Temur shaxsiga ham alohida to'xtalgan va uning harbiy yurishlari, hokimiyati shaxsiyatiga aslohida e'tibor qaratilgan. Amir Temurning hokimiyat tuzishi, mo'g'ullar bilan munosabati, adolatli qarorlari barchasi mufassal bayon qilingan. Mirzo Haydar asardagi Amir Temur bilan bog'liq ma'lumotlar uchun Sharafiddin Ali Yazdiyning “ Zafarnoma” asaridan foydalangan.

“Tarixi Rashidiy”ning boshqa tarixiy asarlardan farq etuvchi xususiyati shundaki, unda hukmdorlar tarixi talqini bilan uzviy ravishda turli davrlardagi diniy-ruhoniylar peshvolik vakillari - pir-murshidlarining ham o'ziga xos sulolalari faoliyati

o‘z aksini topgandir.[5;7]. Chingiz tomonidan Qoraqurumga ko‘chirilgan Mavlono Shujo‘iddin Mahmuddan boshlab, Tug‘luq Temurxonni islomga keltirgan Mavlono Arshadiddin, uning avlodidan Xoja Tojiddin, Xoja Muhammad Yusufargacha bu tarixda ma‘lumotlar bor. Ularning eng mashhurlari Xoja Ubaydulloh Ahror va Xoja Nuro bo‘lib hisoblanadilar. Xoja Ubaydullohning sodiq muridi - Xoja Nuro nafaqat diniyruhiy jabhaning buyuk arbobi, ayni paytda o‘z zamonining mislsiz hoziq tabibi ham bo‘lib hisoblanadi. Chunki u Sharq mamlakatlarning ilm-fan markazlarida bo‘lib, tibbiyot sohasining eng mo‘tabar ustozlaridan saboq olgan va birga xizmat ham qilgan. Muhammad Haydar Mirzo u kishining karomatu tabobati haqida juda ko‘tarinki ruhda fikr yuritadi. “Tarixi Rashidiy” muallifi o‘z kitobida ko‘pgina diniy arboblardan va ularning asarlariga o‘rin ajratadi. Ularning faoliyatini elyurt xaloskorligini ta‘minlashda, ma‘naviy-ma‘rifiy jabhada shohu gadoga teng ta‘sir o‘tkazishda kuzatadi. O‘z e‘tiqodi manbai va shaxsiy yutuqlarini shu piri murshidlar faoliyatlari sharofatidan ko‘radi.[6;174].

XULOSA

Tarixchi olim asarni yozish davomida bevosita o‘sha davr jonli muhitini kitobxonlarga his qildirishga harakat qilgan. Tarixiy yurishlar bilan birgalikda mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol va ra‘iyatning ahvoli ham bayon etilgan. Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asarlari qator tarixchi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Asar yaratilgandan beri o‘tgan davr mobaynida ko‘plab turli saviyadagi kotiblar nusxalar ko‘chirishgan, tarjimonlar bir necha marotaba turkiy tilga o‘girganlar. Ana shu jarayonda nusxalararo farqlar tobora ko‘paya borgan. Ko‘plab olimlar tomonidan ushbu asar o‘rganilib o‘z ona tillariga tarjima qilingan. O‘zbekiston va jahon tarixchi olimlari “Markaziy Osiyo haqidagi yagona mukammal asar” deb bir og‘izdan tasdiqlagan. “Tarixi Rashidiy” nafaqat Mo‘g‘uliston, ayni paytda O‘rta Osiyoning o‘sha davrdagi yirik shaharlari Andijon, Toshkent, Xo‘jand, Sayram, Turkiston, O‘ratepa,

Buxoro, Qarshi, Hisor, Qunduz, Marv va boshqa mamlakatlar: Afg‘oniston, Pokiston, Hindiston, Sharqiy Turkiston va Kashmirning XV-XVI asrlardagi tarixini o‘rganishda birlamchi asosiy manbalardan bo‘lib xizmat qiladi.

Muhammad Haydar va uning “Tarixi Rashidiy” asari o‘tgan asrning o‘rtalaridan beri ilmiy jamoatchilikning diqqat-e‘tiborini jalb etib keladi. Uning ayrim qismlari uyg‘ur, o‘zbek va rus tillariga tajjima qilingan. Asarning qisqartirilgan inglizcha tajjimasi bo‘lib, 1895-yili Londonda nashrdan chiqqan. A.O‘rinboyev, R.Jalilova va L.Epifanova ruschaga tajjima qilib, so‘zboshi va zarur izohlar bilan, 1996-yili Toshkentda chop etgan. Kitob qozoq tiliga ham tajjima qilib nashr etilgan. “Tarixi

Rashidiy” asarining qo’lyozmalari Sankt-Peterburg, Toshkent, shuningdek, ko’pgina xorijiy mamlakatlarning kutubxonalarida saqlanmoqda.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Samandarova N. “Tarixi Rashidiy” asari tarixiy manba sifatida/ Innavatsion in technology and science education 2023. 796-bet.
2. Rustamova.M “Tarixi Rashidiy” asari tahlili, 2016.30-bet.
3. Akhmedov B. Source of history of Uzbekistan, - 2001
4. Мирзо Мухаммад Хайдар Аёзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, таъдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.н. О.Жалилов. – Т.: О’zbekiston, 2011. – Б. 38.
5. Xamidov, M. (2023). ON SOME SIMILAR AND DIFFERENT ASPECTS OF PROVERBS AND SUBJECTS. *American Journal of Pedagogical and Educational Research*, 15, 66-68.
6. Xamidov, M. (2023). BADIY MATNLARDA UCHROVCHI O ‘ZBEK SHEVA MAQOLLARINING TRANSFORMATSIYASI. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 3(25), 204-206.

ROSSIYA IMERIYASI TOMONIDAN O'RTA OSIYONI BOSIB OLINISHI VA MUSTAMLAKAGA AYLANIRILISHI MASALALARINING MAHALLIY VA NEMIS TARIXSHUNOSLARI TOMONIDAN O'RGANILISHI

Sayfullayev Samarbek Dilshod o'g'li

Toshkent Xalqaro molyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti Ijtimoiy
gumanitar fanlar kafedrasini (tarix) o'qituvchisi
sayfullayevsamarbek@gmail.com

ANNOTATSIYA

Rossiya imperiyasi keng mustamlakachilik siyosatini O'rta Osiyoni bosib olishga qaratdi. Mazkur maqolada O'rta Osiyo xonliklarning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi bosqichlari va mahalliy aholining rus bosqiniga qarashi kurashi, O'rta Osiyo xonliklarning taslim bo'lishi mahalliy va nemis adabiyotlaridagi talqini tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: *Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo xonliklariga nisbatan olib borgan bosqinchilik siyosati, bosib olish bosqichlari.*

ANNOTATION

The Russian Empire focused its extensive colonial policy on conquering Central Asia. This article analyzes the stages of the conquest of the Central Asian khanate by the Russian Empire, the struggle of the local population against the Russian invasion, the interpretation of the surrender of the Central Asian khanate in local and German literature.

Key words: *the invasion policy of the Russian Empire against the Central Asian khanates, the stages of conquest.*

АННОТАЦИЯ

Российская империя сосредоточила свою обширную колониальную политику на завоевании Средней Азии. В данной статье анализируются этапы завоевания Среднеазиатского ханства Российской империей, борьба местного населения против российского нашествия, трактовка капитуляции Среднеазиатского ханства в местной и немецкой литературе.

Ключевые слова: *захватническая политика Российской империи против среднеазиатских ханств, этапы завоеваний.*

KIRISH

Turkiston o'lkasining uch xonlikka bo'linib ketishi uning nafaqat siyosiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy tanazzulga yuz tutishiga olib keldi, mamlakatni boshqarib boradigan davlatchilik asoslarining zaiflashib ketishiga, bir millat va diniy

e'tiqodga ega bo'lgan mintaqada mahalliychilikni kuchayib ketishiga ham sabab bo'ldi. XIX asrning 50-yillarida Turkiston xar tomonlama inqirozga uchragan hudud edi. Bu inqiroz boshqa mamlakatlar ta'siri ostida emas, balki asta-sekinlik bilan o'zaro ichki nizolar orqali pishib yetilgan edi. Inqiroz o'lkani Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilinishini tezlashtirdi va imkoniyat yaratdi. Rossiya imperiyasining Turkiston boyliklariga qiziqish Pyotr I davrida boshlangan bo'lib, bosqinchilikga tayyorgarlik bir yarim asr davom etdi¹⁰⁴. XIX asr o'rtalarida ikki yirik mustamlakachi imperiya – Buyuk Britaniya va Rossiya davlatlari manfaatlari Turkistonda to'qnashdi. Ularning har biri o'zbek xonliklari bilan savdo-sotiq, diplomatik aloqalar olib borayotgan Buyuk Britaniya Rossiyaning Turkistonga kirib kelayotganidan xavfsiramoqda edi. Buyuk Britaniya hind va eron savdogarlarli orqali Turkistonni bosib olish uchun juda qat'iy harakatlar olib bordi.¹⁰⁵ Rossiya imperiyasining Orta Osiyoni bosib olishi tarixiy nuqtai nazardan unchalik ko'p vaqtga cho'zilmadi. 1865–1895-yillarda kechgan istilochilik jarayoni o'zaro sarxadlari belgilab olinmagan O'rta Osiyo xalqlarini imperiyaga mute bo'lishiga olib keldi¹⁰⁶. Xonliklarning shimoliy-g'arbiy hududida Orenburg General-gubernatori Perovskiy katta qo'shin bilan 1853-yilda Qo'qon xonligining strategik ahamiyatga molik bo'lgan Oqmasjid (hozirgi Qizilo'rda) qal'asini bosib olgan¹⁰⁷.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Rus manbalarida keltirilishicha, Oqmasjid qamalining dastlabki kunlaridanoq qal'a qo'mondoni Muhammad Vali halok bo'lgan. Qal'a himoyachilaridan 230 kishi talofat ko'rdi, 74 kishi asir olindi, 35 kishi yarador bo'ldi. Qamal jarayonida ruslardan jami 106 kishi halok bo'ldi va yaralandi. 1864-yil may oyida Qo'qon xonligi hududiga sharq tomondan Chernyayev qo'mondonligidagi Rossiya qo'shinlari, g'arbdan Verevkin qo'shinlari bostirib kirgan. Ular tomonidan Qo'qon xonligining muhim va tayanch shaharlari: Avliyoota, Suzoq, Turkiston egallangan. Bosqinchilar 1864-yil 14-iyulda Chimkentga yurish boshlagan. Bu orada Qo'qon xoni Sulton Sayyidxon va Alimquli Amirlashkar bor kuchlarini to'plab, Chimket atrofida jangga tayyorlangan. Uch kun davomida qattiq jang bo'lgan. Jangda Alimquli Amirlashkar qo'shinlari g'olib chiqqan, Chernyayev qo'shinlari jangda yengilib, orqaga chekinishga majbur bo'lgan. Alimquli Amirlashkar o'z qo'shinlarini bosqinchilar egallagan shaharlarni ozod qilish uchun jangga tayyorlayotgan bir paytda Buxoro amiri Muzaffarning Qo'qon xonligi hududlariga bostirib kirganligi

¹⁰⁴ Pierce, Russian Central Asia.-L.:1960. B. 17

¹⁰⁵ Pierce, Russian Central Asia.-L.:1960. B. 18

¹⁰⁶ Ahmadjonov F. A. Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyoda. – T.: Sharq, 2002. – B. 24

¹⁰⁷ Das Vordringen des zaristischen Rußlands nach Zentralasien und der Aufbau der russischen Verwaltung von 1865 bis 1890.-B.: 12-13

to'g'risida xabar olingan¹⁰⁸. Alimquli Amirlashkar o'z qo'shinini bosqinchilarga emas, Buxoro amiriga qarshi Qo'qonni himoya qilishga otlantirishga majbur bo'lgan. Vaziyat Chernyayevga qo'l keldi, uning qo'shinlari Orenburg otryadlari bilan Sayramda qo'shib, 1864-yil 14-sentabrda Chimkentga yangidan yurish uyushtirdi va shaharni bosib olgan¹⁰⁹.

Mansab va unvonlarga o'ch Chernyayev 1864-yil 2-oktabr kuni Toshkentga hujum boshladi¹¹⁰. Toshkent Qo'qon xonligining eng yirik, muhim strategik ahamiyatga molik shaharlaridan bo'lib, 100 ming atrofida aholi yashagan. Shahar Shayxontoxur, Sebzor, Beshyog'och va Ko'kcha dahalariga bo'lingan. 12 darvozasi, 189 masjid, 10 madrasasi mavjud bo'lgan. Toshkent uzunligi 25 chaqirim, eni 2-3 metr, balandligi 5-7 metr bo'lgan devor bilan o'rab olingan edi. Toshkent mudofaachilarining mardona harakati tufayli Chernyayev qattiq mag'lubiyatga uchradi, jangda 72 zobit va askarni yo'qotgan. Chimkentga qaytishga majbur bo'ldi. Urush davrida Toshkentning zodogon boylari mudofaachilarni qo'llab turdilar. Toshkentlik Qozoqbek Dodhoh o'g'li mulla Solihbek Oxund (1812–1867-y.) butun boyligini Toshkent mudofasi uchun sarflab, 45 kunlik qamal chog'ida xalqni moddiy jihatdan qo'llab turgan¹¹¹. Chernyayev 1864 – 1865-yil qishini harbiy tayyorgarlik bilan o'tkazgan. Uning qo'shinlari Sibir va Orenburgdan yetib kelgan qurol-yarog', yangi batalyonlar, sapyorlar rotalari bilan to'ldirilgan. 1865-yil bahoridan Chernyayevning yangi hujumi boshlangan. 1865-yil 29-aprelida kuni Niyozbek qal'asi 7 ming qo'qo'n qo'shinlarini taslim bo'lgan¹¹², Toshkentni suv bilan ta'minlab turuvchi Kaykovuz anhoriga Chirchiq daryosidan suv chiqarib beruvchi to'g'ronni buzib tashlab, shahar aholisini suvsiz qoldirilgan. Alimquli Amirlashkar katta qo'shin bilan Qo'qondan Toshkentga yetib kelgan. Toshkent uchun shiddatli janglar bo'lgan. Alimquli Amirlashkar og'ir yaralandi va halok bo'lgan. Nihoyat shahar himoyachilarining qarshiligi sindirilgan, 15-iyun kuni Chernyayev Toshkentni zabt etgan. 17-iyunda Chernyayev Toshkentning nufuzli kishilari bilan muzokara olib boradi va zo'ravonlik bilan shahar o'z ixtiyoriga ko'ra rus qo'shinlariga taslim bo'lgani, shahar aholisi o'z dinida qolishi, ishlar shariat asosida olib borilishi, hovli va bog'lar o'z egallari qo'lida qolishi to'g'risida ikki tomonlama ahdnoma imzolangan. Toshkent Rossiya imperiyasining tarkibiy qismiga aylantirilgan.

¹⁰⁸ Pierce, Russian Central Asia.-L.:1960. B.20

¹⁰⁹ Das Vordringen des zaristischen Rußlands nach Zentralasien und der Aufbau der russischen Verwaltung von 1865 bis 1890.-B.: 31

¹¹⁰ Arxiv hujjatlaridan

¹¹¹ Ahmadjonov F. A. Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyoda. – T.: Sharq, 2002. – B. 24

¹¹² Pierce, Russian Central Asia.-L.:1960. B.23

Natijada Orenburg General-gubernatorligi tarkibida Turkiston viloyati tuzilgan, uning harbiy gubernatori etib general Chernyayev tayinlangan¹¹³.

1866-yil 28-yanvarda Chinozdan Sirdaryo tomonga 14 rota askar, 600 kazak, 16 ta to'pdan iborat harbiy otryad safarbar qilingan¹¹⁴. Lekin Chernyayev boshchiligidagi Jizzaxga uyushtirilgan ushbu hujum mag'lubiyatga uchragan. Shundan so'ng O'zboshimchaligi uchun Chernyayev Sankt-Peterburga chaqirib olingan, o'rniga general Romanovskiy tayinlangan.

Romanovskiy Sibir va Orenburgdan yordam olib Buxoro amirligiga qarshi yurish boshlashga tayyorgarlik ko'rgan. Rossiya imperiyasi qo'shinlari tomonidan Qo'qon hududlari bosib olinayotgan bir paytda Buxoro amiri tomoshabin bo'lib turgan bo'lsa, endi Buxoro amirligi hududlariga hujum boshlangan paytda Qo'qon xoni Xudoyorxon sukut saqlab turgan. 1866-yil 8-mayda general Romanovskiyning boshliq 3600 qo'shin Erjar tomon yurishi Buxoro qo'shining 5 ming jangchi mag'lubiyati va istehkomlashtirilgan o'rdaning qo'lga kiritilishi bilan tugagan¹¹⁵. Amir Jizzaxga qochishga majbur bo'ladi. Romanovskiy yurishni Xo'jand tomonga yo'naltirgan, 1866-yil 19–22 may kunlari bo'lgan qattiq janglar natijasida Xo'jand egallangan. 1866-yil avgustda Orenburgdan General-gubernator Krijanovskiy Toshkentga kelgan va Romanovskiy bilan birgalikda Buxoro amirini tobe qilish harakatini boshlangan. Katta qo'shin yordamida 1866-yil oktabrda O'ratepa viloyati, Zomin qal'asi bosib olingan. Jizzax uchun katta jang bo'lgan. Jizzax shahri balandligi 4 metr va eni 3 metrlik ikki qavat devor bilan o'rab olingan bo'lib, qal'aga o'xshash mudofaga ega edi. Shaharda 10 ming himoyachi askar, 53 to'p bor edi. Himoyachilar shaharga kirib chiqadigan darvozalarni tuproq bilan ko'mib tashlab jang olib borganlar. Nihoyat 11–18 oktyabr kunlari bo'lgan jang natijasida bosqinchilar Jizzaxni egallagan¹¹⁶.

Aleksandr II 1867-yil 14-iyulda Turkiston General-gubernatorligi va Turkiston harbiy okrugini tuzish to'g'risida farmon bergan. General-gubernator va okrug qo'mondoni etib general-ad'yutant K. P. fon Kaufman tayinlangan. Unga urush e'lon qilish, sulh tuzish, harbiy-ma'muriy, moliyaviy-iqtisodiy, fuqarolik ishlarini mustaqil hal qilish huquqlari berilgan. Shu boisdan u "Yarim podshoh" deb etirof etilgan¹¹⁷. Bu tadbir Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishi yo'lidagi harakatida yangi bosqich bo'lgan. Kaufman navbatdagi yurishni Samarqandga tomon boshlagan.

¹¹³ Turkistonning yangi tarixi I tom. – T.: Sharq, 2002. – B. 24

¹¹⁴ O'zbekiston poytahti Toshkent 2200 yoshda (Toshkent shahrining 2200 yillik yubedeyiga bag'ishlangan Xalqaro ilmiy konferentsiya materiyallari). – T.: Fan, 2009. – B. 298.

¹¹⁵ Pierce, Russian Central Asia.-L.:1960. B.24

¹¹⁶ Majid Hasaniy. Turkiston bosqini. – T.: Nur, 1992. – B. 30

¹¹⁷ Das Vordringen des zaristischen Rußlands nach Zentralasien und der Aufbau der russischen Verwaltung von 1865 bis 1890.-B.:37

Портрет соҳасида бадиий образ яратиш намунасини А.Абдуллаевнинг "Назарали Ниёзов" портретини келтириш мумкин. Унда рассом бир қатлам кишиларнинг умумлашма образини яратади. Бир шахснинг ўзига хос образ ечими рассом меҳнати туфайли умумлашма образга айланади.

Тасвирий санат асарида ҳаракатни ифодалаш унинг давр жихатидан ўсиб боришини типиклаштириш қонуниятининг иккинчи хусусияти дейиш мумкин.

Сюжетни ҳаракатда кўрсатадиган бошқа санъат турларидан (театр, кино) фарқли ўларок тасвирий санъат сюжет ривожини лаҳзасини кўрсатади. Шу маънода тасвирий санъатдаги ҳаракат ҳақида гап кетганда ҳаракатни хис қилишни акс эттириш тушунилади. Бу ҳисга эришиш учун тасвир этилаётган ҳолатдан кульминацион нуқтани илгаб олиш зарур. Типиклаштириш қонуниятининг бу хусусияти асарда булмаслиги композицияни қотиб қолган ҳолатига олиб келади, унда ҳаётликни йўқотган.

Ҳаракатгина талқин этилаётгандек бўлади. Айнан шунинг учун ҳам рассомнинг ҳаётни ҳаракатда кўра олиш қобилиятига муҳим аҳамият берилади.

Бир фигурали композицияларда юқоридаги вазифани ҳал этиш анча мушкул, кўп фигуралида эса персонажларнинг турли ҳолат ва ҳаракатлари композицияда очиб берилган кўпгина манавий руҳий алоқалар орқали боғланади.

Ж. Саидовнинг "Аския" асарида томошабин фақат тасвирга олинган лаҳзанигина эътироф этиб қолмасдан асар қаҳрамонлари кўтаринки руҳияти, завқ ва шавқ, характерлари турлилиги ўзига хос ифодаларда тасвирланган бўлиб, воқеъликнинг чуқур ифодали жараёни ёритилган.

Янгиликка хослик типиклаштириш қонуниятининг учинчи хусусияти ҳисобланади. Реалистик санъат воқеъликни фақатгина ҳаққоний тасвирлаб қолмайди. У борликни рассом томонидан эстетик кашф этилишини кўрсатади, рассомнинг оддий ҳаётдан олаётган завқ-шавқини ифодалайди.

Тасвир этилаётган воқеъликни эстетик ўзлаштириш санъатнинг ўзига хос томонларидан бири, бусиз у ўзининг акси санъатсизликни келтириб чиқаради. Табиийки, бадий образ композицион ечимнинг эстетик сифати ва янгилиги, рассом кашфиётини ўзида акс эттиради. Борликни эстетик кашф этиш Микеланджело, Тициан, Рембрандт, А. А. Дейнека, У. Тансиқбаев, Р. Аҳмедов, Б. Жалолов қабиларнинг асарларида сезилади. Уларнинг асарларида янгилик тематикасида ҳам, бадий воситаларида ҳам, композицион кўрилмасида ҳам кўринади. У. Тансиқбоевнинг "Табиат қўшини", Д. Имомовнинг "Зомин манзаралари", Қараҳаннинг тоғ манзаларида янгилик талқинга, янгилик даражасини англаш мумкин.

Композициянинг асосий қонуниятидан ҳисобланадиган контрастлар қонуни бўлиб, у асарнинг таъсир кучини ва ифодавийлигини оширади. Мумтоз санъаткорлар тасвирий санъат ифодавийлигида контрастга катта аҳамият берганлар Леонардо да Винчи "Рангтасвир ҳақида рисолисида ўлчамлар

контрасти ҳақида (каттани кичик, йўғонни ингичка билан), характерлар контрасти, фактура ва ашёлар контрасти ҳақида гапиради:

Микельанджело уз ижодида жисм ва юза контрарастига катта этибор беради. Унинг асарларида асар юзаси йирик (тизимли жуссалар билан тўлдирилиб, маҳобатлилик намоён этади)

Контрастлар орқали санъат асарида ифодалилик кучи ортади. Контрастлар орқали ёруғнинг сояга муносабатида жозибалилик пайдо булади. Ёруғ соя "ўйини" бўлмаган жойда шакл ифодалилиги юзага келмайди. Портретда тон (тус) лар контрасти катта аҳамият касб этади. Қуюқ тўқ муҳитда ёркин жусса ўзига хос ифода ташкил этган.

Ушбу услубдан 19 аср охирларига қадар кўплаб рассомлар фойдаланганлар 20 асрга келиб ранг тасвир янги контрастни кашф этди. Ёркин фонда тўқ жусса силует ифодалигига янги кўринишини яратади.

Тасвирий санъатда контраст тус яни тонда балки ранглар контрастида ҳам ифодавийликнинг муҳим кўринишини ҳосил қилади. Бу иссиқ ва совуқ ранглар контрасти-ранглар табиатан ўзига контраст ташкил этувчи рангларга бўлган нисбий муносабати орқали рангтасвирлилик пайдо бўлади.

Табиий ранглар ўзаро контрасти яшилнинг қизилга сариқнинг мовий рангга, оқнинг қорага нисбатлари асардаги ифодаси ўзига хос жозоба яратади.

3.Иноғомовнинг "Нонуштага" асарида конструктив ғоя асар чеккасидаги йирик аёл жуссаси ва буғдой гарами иккинчи чеккадаги иш қилаётган инсонлар жуссаси мувозанатга тўғри топилганлиги асар ечими муваффақиятини белгилайди.

Маҳобатли рангтасвирда ҳам ифодавийлик контрастлар муносабати орқали амалга оширилади. Ж.Умарбековнинг "А.Темурнинг элчиларни кутиб олиниши" асаридаги ифодалилик айнан шу принципларга асос бўлган. Бу ерда А. Темур ва тарихчи (Али Яздий) жуссалари ва маълум бир масофа узоклигидаги йирик тасвирланганлиги маҳобатлилик хиссиётини туғдиради. Шундай қилиб маҳобатли рангтасвирида асар фазоси олд қисмидаги йирик жуссаларнинг орқалардагисига нисбати контрасти пайдо булади.

Тасвирий санъатда яна бир контраст, ғоялар тўқнашуви контрасти ажойиб рус рассоми Н.Н.Генинг "Сирли оқшом" асарида асар қахрамони пайғамбар Исо унинг рақиб Иуда орасидаги ғоялар кураши ҳам тасвирий воситалар-Исонинг файзли сиймоси ва Иуданинг ғояларидан чекинмас иродаси контрасти, тасвирий воситалар-ижобий қахрамонлар ёркин тасвирлари ва уданинг силуети (куланкали) тасвири берилган.

Демак, композицияда контраст (муқояса)нинг ўрни кўп қиррали, у композициянинг ҳар бир элементларига тегишли. Композициянинг барча воситаларини ғоявий мазмунга боғлиқлиги ўз навбатида рассомни тасвирланаётган воқеъликни яхлит идрок этишга, шакл ифодаларини ғоявий мазмунга бўйсундиришни талаб этади. Бадиий асар бу рассомнинг тасвирланаётган воқеъликка бўлган муносабати унинг ифодаси рассом асарида ўз урнини топган тақдирдагина оддий тасвирдан "бадиий асар даражасига кўтарилади.

Бу қонуният фазо, ранг, тон ва шакл пластика, ва ҳаракат ёки ҳолат симметрия ёки ассиметрия муносабатлари ўзаро гармониясини талаб этади. Асар таъсирчанлигига композициянинг барча ифода воситалари гармоник ечими орқали эришилади.

ХУЛОСА

Композиция барча қонуниятлари ва воситаларини асар ғоясига бўйсундирилиши, рассомнинг онги ва маҳорати юксак эканлигини белгилайди. Рассомнинг дунёқараши асарларида аксини топар экан, унинг манавиятини бойитиш, бунёдкорликка йўналтирилган асарлар яратиш мақсадларини қўймоқлари рассомнинг билим ва дунё, ҳамда жамиятга булган муносабати нафақат тафаккурини, балки ҳиссиётларини ҳам белгилаб бергандагина унинг асарлаби тўлақонли бўлади. Албатта таҳрир асарга айланишида кўплаб қоидаларга бўйсунди, аммо асосийси муаллифнинг воқеъликка бўлган дунёқараши ифодаси маҳсули, эътиборни тортадиган ҳақиқат шундан иборатки, тасвирий санъат дурдона ва нодир асарлари асосан асар яратиш қонун қоидаларидан хабардор, билимдон, шундай қоидалар шаклланишига хизмат қилган ва илмий асослаганлар томонидан яратилган, улар Л.Алберти, Леонардо да Винчи, Пуссен, Д. Рейнольдс, Э.Делакура, Хогарт, Фаворский, К.Абдуллаев, Ч.Ахмаров ва бошқа кўплаб рассомлар. Ҳар қандай тасвирий санъат асари-бу муаллифнинг барча имкониятлари ифодаси, яъни таланти ва професионал сифатлари кўзгуси.

ҲОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ.

1. Э.Делакура. Мысли об искусстве, о знаменитых художниках. М.: Академия Художеств СССР. 1960 г.
2. Б.Виппер. Введение в историческое изучение искусства. М.: Изобразительное искусство. 1985 г.

TALABALARGA KOMPYUTER GRAFIKASI MASHG‘ULOTLARIDA NAQSH ELEMENTLARINI CHIZISHNI O‘RGATISH METODIKASI

Ro‘zmetov Quvondiq Shonazarovich

UrDU, Tasviriy san‘at va muhandislik grafikasi kafedrası katta o‘qituvchisi

Kalandarov Shamsiddin Saidmuhammadovich

UrDU, San‘at kafedrası o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada Amaliy san‘at (badiiy kulolchilik) yo‘nalishi talabalariga kompyuter grafikasi fanidan milliy san‘atimizning zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o‘qitishga mo‘ljallangan bo‘lib unda naqsh elementlarining shakli, ma‘nosi, naqsh kompozitsiyalarini chizish va ranglash bosqichlari haqidagi ma‘lumotlar berildi.

Kalit so‘zlar: *kompyuter grafikasi, elips, kvadrat, shift tugmasi, tezkortugma, yuza, doira, o‘lcham, Xiva naqqoshlik uslubi, naqsh elementi, gul, bargli gul, ko‘p bargli gul, madoxil, qo‘chqor shoxi naqsh elementi, ranglash.*

АННОТАЦИЯ

Статья предназначена для обучения студентов прикладного искусства (художественной керамики) компьютерной графике на основе современных информационных технологий нашего отечественного искусства. В ней даются сведения о форме и значении элементов узора, этапах рисования и раскрашивания узорных композиций.

Ключевые слова: *компьютерная графика, эллипс, квадрат, потолочная кнопка, горячая клавиша, поверхность, круг, размер, хивинский стиль росписи, элемент узора, цветок, листовой цветок, многолистный цветок, мадочил, элемент узора из бараньего рога, раскраска.*

ABSTRACT

The article is designed to teach students of applied art (art pottery) computer graphics based on the modern information technologies of our national art. It provides information about the shape and meaning of pattern elements, drawing and coloring stages of pattern compositions.

Keywords: *computer graphics, ellipse, square, ceiling button, hotkey, surface, circle, size, Khiva painting style, pattern element, flower, leaf flower, multi-leaf flower, madochil, ram's horn pattern element, coloring.*

KIRISH

Respublikamizning Oliy ta‘lim muassasalarida tayyorlanayotgan Amaliy san‘at (badiiy kulolchilik) yo‘nalishining namunaviy o‘quv rejasidagi kompyuterda loyihalash fanining ham ta‘limda alohida o‘rin egallashini ta‘minlash maqsadida


mahalliy naqqoshlik maktabi an'analarini zamonavi axborot texnologiyalaridan foydalanib, talaba tanlovi asosida o'qitiladigan fanlar kiritilib o'rgatishni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega **bo'lib kelmoqda**. Xorazm viloyatida o'z tarixiy yodgorliklarimizni kelajak avlodga o'rganish, shu bilan birga Xiva naqqoshlik maktabi uslublarini milliy an'analarimizni o'rgatishni modernizatsiya qilish zamonaviy amaliy san'at asarlarini yaratuvchi san'atkorlarni web saitalar va dunyo elektron san'at naqqoshligini rivojlantirishda talabalarni zamonimiz bilan ham nafas raqobat barddosh, ko'p tarmoqli kadrlar tayyorlash muhimdir.

Shularni inobatga olgan holda, ko'p yillar davomida Urganch davlat universiteti Amaliy san'at (badiiy kulolchilik) ta'lim yo'nalishida talabalarga mutaxassislik fanlari qatori Xorazm amaliy san'ati fani ham tanlov fani sifatida o'rgatilib kelinadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Quyida ushbu fanning o'rgatish jarayonida to'plangan tajribalar: Xiva naqqoshlik san'ati uslubidagi naqsh elementlarining boshqa naqqoshlik maktablari uslubidagi naqsh elementlaridan farqli jihatlarini, Kompyuter grafikasi Corel draw dasturida naqsh elementlarini, naqsh kompozitsiyalarini chizish va ranglash bosqichlarini ko'rib chiqamiz.


1-bosqich. Biz bu bosqichda daslabki Xiva naqqoshlik san'ati uslubidagi naqsh kompozitsiyalardagi naqsh elementlarining boshqa naqqoshlik san'ati uslublaridagi naqsh kompozitsiyalaridagi naqsh elementlaridan kam qo'llanilishida, ularning tuzilishidagi farqli jihatlarini talabalarga tanishtirib bilim ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantiriladi. Buni quyidagi misollar orqali, oddiy va murakkab shakldagi barglar, bargli gullar va boshqa turkumdagi naqsh elementlarining farqli jihatlarini ko'rib chiqamiz. *(1-5-rasmlar)*.



(1-rasm). Barglar. Xiva naqsh elementlari



(2-rasm.). Barglar. Toshkent naqsh elementlari.




(3-rasm). *Bargli gullar. Xiva naqsh elementlari.*



(4-rasm). *Bargli gullar. Toshkent naqsh elementlari.*

Yana Xiva naqqoshlik san'ati uslubida barchani e'tiborini tortadigan shunday jihatlaridan biri "qo'chqor shoxi", "tugma" (Xorazm shevasida "duyma"), "madohil" kabi naqsh elementlarini ham juda ko'p qo'llanilishini ko'rishimiz mumkin.(5-rasm).



(5-rasm)


2-bosqichda yuqorida ko'rsatilib, o'rganilgan ma'lumotlar asosida naqsh elementlarini chizilishidagi qonuniyatlarga amal qilgan holda talaba chiza oladi.

Dastlab barcha naqsh uslublarida keng qo'llaniladigan **barg** naqsh elementining mazmuni va uni chizilish texnologiyasi haqidagi ma'lumotlar bilan boshlashimiz maqsadga muvofiq. Chunki, barg naqsh elementining oddiy va murakkab shakllarini o'rganib borish, boshqa turdagi naqsh elementlarini tezda o'zlashtirib olishga zamin tayyorlash bilan birga, murakkablashib boradigan naqsh elementlarining chizilishiga asos bo'lib ham xizmat qiladi.

Barg-islmiy (o'simliksimon) naqsh elementi hisoblanib, tabiatda o'sib turgan turli o'simliklardagi barglarni naqqosh tomonidan badiiylashtirilgan tasviridir.


Shunlardan biri naqsh elementini corelDraw dasturi orqali bosqichlar asosida ko'rib chiqamiz. (6-7-rasmlar).

1-bosqich dasturda ishlaganda barcha dasturlar kabi yangi sahifa ochami oddiy




barg naqshini chizish uchun radiusi taxminan ellips instrumenti yoki F7 tezkortugmasidan foydalanib 20 o'lchamidagi aylanani chiziladi.

aylanaga mos instrumenti yoki F6 tezkortugmasidan foydalanib eni va bo'yining 10 o'lchamidagi kvaratni chiziladi.



to'g'ri to'rtburchak

kvadratning chekka burchagiga aylananing markaziy nuqtasi tekizilib




qo'yiladi.




ko'rsatgich instrumenti yordamida shu aylana nusxalanib bu dasturda nusxalash sichqonchani chap tugma yordamida kerak shakl belgilanadi va

ushlab ozroq surib o'ng tugma birgalikda bosiladi.



va ikki doira shift tugmasi bilan belgilanadi


va ushbu tugma




ila
bo'ladi

bosilganda

ushbu oddiy shakldagi barg hosil




a)



b)


(6-rasm) a) holatdagi rasm

tayyor bo'lgandan keyingi holat uchun shaklning tepa qismiga yana shu shakldagi doirani nusxalanadi.




Ushbu tugma yordamida

shu holdan




keyingi




holatga o'tadi

kerakmas qismiga



shaklni qo'yib


kerakmas qismi olib tashlanadi yuqoridagi harakat takrorlanadi.






Shu tugma yordamida

shift tugmasi bilan




ikki shakl




birlashtiriladi.


5 o'lchamda doira chiziladi





Shu tugma





yordamida




shu holatda to'rtburchaklar yordamida



kesiladi.




ikkisi



qo'shiladi

barg ishlash jarayoni tugaydi.



Xiva naqqoshlik maktabi uslubida chizilgan naqsh kompozitsiyalarini pardoqlash bosqichi o‘ziga xosligi bilan ham ajralib turadi. Xiva naqshlarida targ‘il berib pardoshlash qo‘llanilmay, barg, band va gullar chiziqlar bilan chegaralanib qo‘yiladi. Toshkent uslubidagi naqsh kompozitsiyalarda esa pardoqlash bosqichida gul, barg va bandlariga targ‘il berib bezash keng qo‘llanilib kelinadi(13-rasm).



Toshkent naqqoshlik maktabi uslubidagi naqshlarni pardoqlash(targ‘il berish) 13-rasm.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, talabalar Xorazm amaliy san‘ati fanida yuqorida ta’kidlab o‘tilgan ma’lumotlar bilan tanishtirish barobarida o‘zidagi amaliy va malakaviy ko‘nikmalarni egallab olishlari, kelajakda pedagogik faoliyati davomida qo‘llay olishlariga zamin ekanligini anglata olishimiz muhim ahamiyat kasb etadi. Biz ular tomonidan tashkil etiladigan naqqoshlik to‘garaklarida yosh avlodga Xiva naqqoshlik san‘ati uslubini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘rgatishga erishilsa, maxalliy naqqoshlik san‘ati, shu bilan birga ustoz-shogird an‘analarining uzviyligini va davomiyligini ta’minlagan bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. Тошкент “Меҳнат” нашриёти 1991. 284-292 б.
2. Пугаченкова Г.А, Ремпель Л.И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана,- Т.;1958 г. 30-36 стр.
3. Ремпель Л.И.Архитектурный орнамент Узбекистана Т.1961 г.
4. Ro‘zmetov Q, Sh, Ibadullayeva N.E, Safasheva S. S. Characteristics and comparative analysis of the art style of khiva painting. Novateur publications. Journal NX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581-4230.VOLUME 10, ISSUE 2, February -2024

5. Ro‘zmetov Q, Sh,Ibadullayeva N.E, Xiva naqqoshlik san’ati uslubining o‘ziga xos xususiyatlari. “Oriental Art and Culture” Scientific Methodical Journal. VOLUME 4 ISSUE 2. JUNE 2023.
6. Ibadullayeva N.E, Ibadullayev S.E, Xorazm kulolchilik va koshinpazlik san’atidagi an’anaviy texnologiyalarning o‘ziga xos uslublari va estetik ta’sirchanligi. “ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-nazariy, metodik jurnal. 2022 yil.7-son. 132-135.

REKLAMA, BREND VA BOSHQA TARG`IBOT TURLARINING TARIXIY, TADRIJIY RIVOJI

Sharifova Madinabonu Marifdjon qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Tarix fakulteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrası o`qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada reklama, brend va boshqa targ`ibot turlarining tarixiy, tadrijiy rivojini, hozirgi davrda targ`ibot turlari estetikasining jamiyat hayotida tutgan o`rni, ularning jamiyat estetik hayotiga ta`siri masalalari atroflicha yoritishga harakat qilindi. Reklama, brend, branding, rebranding, PR kabi targ`ibot turlari tushunchalari va ularning estetik hodisa sifatida o`ziga xos ko`rinishda namoyon bo`lish shakllari yoritib berildi. Maqsadimiz manbalarga tayanib, reklama, brend va boshqa targ`ibot turlari estetikasining rivojlanish jarayoni va bu jarayonning jamiyat estetik hayotiga ta`sirini tarixiy-tadrijiy nuqtai nazardan tadqiq etish, reklama, brend va boshqa targ`ibot turlarini rivojlantirishda va ulardagi tasvirning shakllanishida estetikaning o`rnini nazariy asoslash hamda hozirgi davrda reklama, brend va boshqa targ`ibot turlarini estetik jihatdan tadqiq etish va rivojlantirishga doir taklif-tavsiyalar, amaliy va nazariy xulosalarni ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so`zlar: reklama, brend, rebranding, reklama estetikasi, targ`ibot turlari, estetik hayot, estetik ehtiyoj.

АННОТАЦИЯ

В статье сделана попытка всесторонне осветить историческое и эволюционное развитие рекламы, бренда и других видов продвижения, их роль в жизни общества в настоящее время, а также их влияние на эстетическую жизнь общества. Рассмотрены такие понятия, как реклама, бренд, брендинг, ребрендинг, PR и их проявление как эстетических явлений. Наша цель - исследовать процесс развития эстетики рекламы, бренда и других видов продвижения с историко-эволюционной точки зрения и их влияние на эстетическую жизнь общества, обосновать теоретическую роль эстетики в развитии рекламы, бренда и других видов продвижения и формировании их образов, а также разработать предложения и рекомендации по теоретическому и практическому исследованию и развитию эстетики рекламы, бренда и других видов продвижения в настоящее время.

Ключевые слова: реклама, бренд, ребрендинг, эстетика рекламы, виды продвижения, эстетическая жизнь, эстетическая потребность.

ABSTRACT

The article attempts to comprehensively elucidate the historical and evolutionary development of advertising, branding, and other forms of promotion, as well as the role of the aesthetics of these promotional forms in contemporary society and their impact on the aesthetic life of society. Concepts such as advertising, brand, branding, rebranding, and PR, along with their manifestations as aesthetic phenomena, are explored. Our aim is to investigate the development process of the aesthetics of advertising, branding, and other promotional forms and their impact on the aesthetic life of society from a historical-evolutionary perspective, to theoretically substantiate the role of aesthetics in the development and formation of imagery in advertising, branding, and other promotional forms, and to develop practical and theoretical conclusions, as well as suggestions and recommendations, for the aesthetic investigation and development of advertising, branding, and other promotional forms in the present era.

Keywords: *advertising, brand, rebranding, advertising aesthetics, types of promotion, aesthetic life, aesthetic needs.*

KIRISH

Reklama - bu inson faoliyatining turli sohalarida aktuallashgan, murakkab ijtimoiy-madaniy hodisa bo`lib, XXI asrda butun dunyo bo`ylab keng tarqalgan va odamlarning hayotida sekin-asta katta rol o`ynay boshlagan. Bu ko`p darajali aloqa jarayoni bo`lib, juda ko`p turli xil nuqtai nazarlarni keltirib chiqaradi va odamlar orasida diskussiyani yaratadi. Ilmiy bilimlarning aniq shakllangan va ajralib turadigan sohasi bo`lmasligiga qaramay, reklama kommunikatsiyalari o`z o`zini rivojlantirish jarayonida mutlaqo boshqa fanlarning ko`plab nazariyalariga amaliy qo`llanishga muvaffaq bo`lgan. Masalan, C. Jung tomonidan ishlab chiqilgan arxetiplar nazariyasi brend arxitekturasini loyihalash va qurishda eng asosiy qoidalarni o`ylab chiqilishida va shu sohaning rivojlanishida katta hissa qo`shgan. Reklama to`g`risida nazariy tushuncha bir vaqtning o`zida har tamonlama va turli fanlar asosida amalga oshiriladi. Estetika bundan mustasno emas, chunki reklama kommunikatsiyalarining kompleks integratsiyalashgan dizayning zamonaviy texnologiyalari estetik toifalarni faol ravishda birlashtiradi. Reklama muayyan masalalar va maqsadlar uchun har qanday san`atdan foydalanadi. Bugungi kunda faqat estetik vositalardan malakali foydalanish iste`molchi bilan samarali muloqot o`rnatish, keyingi tanlovga ta`sir ko`rsatish, hissiy va ongiy sohaga murojaat qilish imkonini beradi. Reklama xabarlarida badiiy asarlarni taqdim etish iste`molchilarning retro-assotsiatsiyalarining keng bazasini (bu allyuziya chaqiruvi

uchun muhim), shaxsiy talqinlarning chuqur chizig`ini va iste`molchi fikrlashining harakatchanligini belgilaydi. Ichki va jahon badiiy madaniyatining boy an`analari ko`r-ko`rona tasvirlarni, intonatsiyalarni va hatto reklama bayonotlarining audial turlarini tanib olishni ta`minlaydi. Reklama xabarining estetik to`yinganligi hissiy hissiyotlarni qo`llab-quvvatlaydi va respondentlarning reklama ta`sirini umumiy kommunikatsiya jarayonida qo`llab-quvvatlaydi va madaniy muhitdagi o`zgarishlarni darhol aks ettiradi.

Mavzu bo`yicha adabiyotlar sharhi

Adabiyotlar tahlili shuni ko`rsatadiki, jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida go`zallik va uni anglashga bo`lgan intilishlar kuzatilgan. Bu o`rinda estetikaning o`rni beqiyosdir. Estetika yunoncha «aisthetikos» so`zidan olingan bo`lib, «his etish, sezishga doir» degan ma`noni bildiradi. Bu fan inson tomonidan voqe`likni estetik o`zlashtirishning qonuniyatlari va tabiati haqidagi, odamning voqelikka estetik munosabatlari va insoniyat badiiy rivojining umumiy qonunqoidalari haqidagi fandır. Ilm-fanning ma`lum sohasini anglatuvchi nom sifatida «Estetika» atamasini ilk bor ilmiy muomalaga XVIII asrning o`rtalarida olmon faylasufi Aleksandr Baumgarten kiritgan, biroq buni estetika fanining ibtidosi deb o`ylash xatodir. Estetikaning tarixi uzoq o`tmishga borib taqaladi, uning kurtaklarini qadimiy afsona va rivoyatlarning matnlarida uchratish mumkin[1].

Bu tushuncha odamlarning yaxshi fe`l-atvori, xush muomalasi, chiroyli nutqi, did bilan kiyinishini ham anglatadi. Estetika fanining asosiy tushunchasi go`zallik zohiriy va botiniy ma`noga ega. Donishmandlar tashqi va ichki go`zallik mutanosibligiga alohida ahamiyat berganlar. Ya`ni, kishining tashqi qiyofasi bilan birga uning botiniy olami - xulqi, fe`l-atvori, mehnatsevarligi, ezgulikka intilishi va boshqa jihatlari go`zallik xislatlari bilan muvofiq, uyg`un bo`lsa, ular mukammal go`zallik sifatini oladi.

Estetik his-tuyg`u, insonni qurshab turgan muhitdagi ruhiy tuyg`u paydo qiluvchi go`zallik va xunuklikni, ulug`vorlik va pastkashlikni, fojaviylik va kulgililikni idrok etish va baholash qobiliyatidir[2].

Estetik ehtiyoj - ezgulikka, go`zallikka intilishdir. Bu ehtiyoj mehnat, san`at, axloqiy munosabatlardagi go`zallikni taqozo etadi. Insonning jamiki faoliyat qirralari borliqqa estetik munosabat orqali namoyon bo`ladi¹.

Estetika mavzui bilan bevosita aloqador bo`lgan estetik munosabatlar, borliqni estetik o`zlashtirish, estetik bilish, estetik tafakkur, estetik faoliyat kabi o`zaro yaqin, ma`nodosh bir qator tushunchalar bor. Ular orasidagi borliqni estetik o`zlashtirish tushunchasi qolgan estetik munosabat, estetik bilish, estetik tafakkur, estetik faoliyat tushunchalarini ham qamrab oladi. Shu bois estetika fani insoniyat tomonidan

borliqni estetik o'zlashtirish mohiyati va qonuniyatlarini o'rganadi, desak to'g'riroq bo'ladi. Borliqni estetik o'zlashtirish san'atning asosiy mazmunini tashkil etadi, ya'ni estetika fani san'atning uslubiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Estetikaning mavzuyi faqat go'zallik bo'lib qolmasdan, ulug'vorlik, olijanoblik, fojiviylilik, xunuklik, pastkashlik, kulgililik, tubanlik va boshqa shu kabi kategoriyalarni ham o'rganadigan fandır.

Estetika an'anaviy ma'noda falsafa va san'at bag'rida rivojlanib kelgan. Biroq jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida badiiylik tushunchasi inson turmushi va ongining turli sohalarini tobora kengroq qamrab olmoqda. Natijada texnik estetika, dizayn, muhitni estetik tashkil etish, sport estetikasi kabi sohalar paydo bo'ldi. Albatta, estetika fan sifatida falsafiy xarakterga ega, biroq uning o'zigagina xos bo'lgan, voqelikni estetik o'zlashtirish qonuniyatlarini tadqiq etish bilan bog'liq alohida mavzusi bor. Olamni estetik idrok etish qonunlari to'laroq, mukammalroq va to'g'ridan-to'g'ri san'atda namoyon bo'lgani bois, estetikani haqli ravishda san'atning mohiyati va qonunlari haqida, badiiy ijodning tabiati xususida bahs etuvchi fan deyish mumkin[4]. Estetik qadriyatlarining yaratuvchisi sifatida san'at, umuman aytganda, estetika rivojiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida estetika san'atga dahldor barcha xususiy fanlarga (adabiyotshunoslik, tasviriy san'at nazariyasi, teatrshunoslik, musiqashunoslik va h.k.) nisbatan umumiy nazariy asos maqomida maydonga chiqadi. San'at rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini o'rganar ekan, estetika bu xususiy nazariyalarni uslubiy tamoyillar bilan qurollantiradi, turli san'atshunoslik sohalarini o'rtasidagi aloqalar va munosabatlarni o'rganadi, tadqiqot usullarini va ularning qo'llanish hududlarini tahlil etadi, san'atshunoslikka doir yangi tushunchalarni joriy etish usullarini taqdim qiladi va h.k. Agar o'tmishda estetik nazariyalar faqatgina san'atga tayanib rivojlangan bo'lsa, endilikda estetika fanining tuzilishi murakkablashdi va bugungi estetika fani quyidagi nisbatan mustaqil nazariyalarni qamrab oladi:

- 1) badiiy ijod nazariyasi;
- 2) soha muhitini o'zlashtirish va dizayn nazariyasi;
- 3) estetik tarbiya nazariyasi.

Estetik tarbiya - Ta'lim-tarbiyaning boshqa shakllari kabi estetik tarbiya ham o'z diqqat-e'tiborini yakka odamga va ijtimoiy guruhga qaratadi. Estetik tarbiya ham umuminsoniy va milliy qadriyatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Ayonki, tarbiya inson ongiga, his-tuyg'ulariga, tasavvuriga, e'tiqodiga, dunyoqarashiga, xatti-qarakatlariga, xulq-atvoriga ta'sir o'tkazishni o'z oldiga maqsad va vazifa qilib qo'yadi. Mavjud adabiyotlar tahlilidan ma'lum bo'lishicha, uzoq o'tmishdan bugungi kunga qadar jahon va mamlakatimiz faylasuflari va turli soha mutaxassislari

tomonidan estetika, uning predmeti, vazifalari, estetik tarbiya vositalari, estetika kategoriyalari, dizayn estetikasi, san'at estetikasi, targ'ibot turlarining inson psixologiyasiga ta'siri kabi ko'plab sohalarda tadqiqotlar olib borilgan, ammo aynan targ'ibot vositalarining estetikasi va milliy madaniyatimiz va mintalitetimizga mos relamalarning estetik jihatlari to'liq tadqiq qilinmagan[5],[6],[7].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Reklamaning sodda ko'rinishlari eramizdan avvalgi asrlarga borib taqaladi. Reklamalar dastlab og'zaki tarzda namoyon bo'lib, chaqiriq, baqiriq, jalb qilish ko'rinishida bo'lgan. Jumladan, qadimiy Sharqda ham reklama dastlab juda tushunarli va kerakli ko'rinishda og'zaki tarzda amalga oshirilgan. Sharq bozorlaridagi «Obqoling, kebqoling», «olganlar darmonda, olmaganlar armonda» qabilidagi iboralar ota-bobolarimizning reklamadan yaxshi foydalanganliklariga dalil bo'ladi. Oldi-sotti ishlarida molning kamchiligini aytib sotish, torozidun urmaslikka, odob-axloq, halollikka rioya qilish ajdodlarimizdan o'tgan ma'naviy qadriyat ekanligini ta'kidlash joiz. Qadimgi bozor peshtaxtalarida mevalarning did bilan terib qo'yilishi, xaridorlarni baqiriq-chaqiriq bilan jalb qilish Sharq bozorlariga fayz kiritgan. Hunarmandlar mahallalardagi do'konlarda mahsulotlarini osib, terib qo'yib xaridorga tavsiya etganlar. Ustalar mijoz bilan muomala qilish odobini ham hunar bilan bir qatorda shogirdlariga o'rgatganlar. Do'konga kirgan xaridorlarga bir piyola choy uzatib, o'z mollarining sifati, narxi haqida suhbatlashganlar. Savdosotiq madaniyati o'rta asrlardan rivojlanib kelgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Dastlabki yozma reklama matni Londondagi muzeyda saqlanadi. U Misr papyrusiga yozilgan bo'lib, qul savdosi to'g'risida bo'lgan. «U yaxshi ko'radi, eshitadi, sog'lom, buyurgan ishlaringizni itoat bilan bajaradi...» degan so'zlar yozilgan. Qadimiy Misrning Memfis shahrida toshga o'yib yozilgan reklama matni topilgan. Unda shunday satrlar bor: «Men Mimos, Gibr orollaridan bo'lib, shu yerda yashayman. Ollohning roziligi bilan tushlaringizni kelishilgan narxda izohlab beraman». Qadimiy Rimda reklama uchun maxsus devorlar qurilgan bo'lsa-da, boshqa devorlarda ham reklamalar to'lib ketgan. Rim ma'muriyati qaror chiqarishga majbur bo'lgan. Qarorda «Devorga yozish ma'n etiladi, kimki yozsa, unga g'am, alam, omadsizlik bo'lsin» deyiladi. Antik alloma faylasuf Lutsiyaning Anney Seneka bundan 2000 yil ilgari o'zining do'stiga yozgan maktubida ko'chadagi chaqiriq va baqiriqlardan bezor

bo`lganini yozadi, chunki u shahar markazida istiqomat qilar edi[8]. XV-XVII asrlardagi Yevropa reklamalari ko`proq import va eksport tovar mahsulotlari haqida bo`lar edi. Masalan, kofe birinchi marotaba 1625 yilda gazetalar orqali reklama qilingan. Kakao 1657yil, choy esa 1658 yildan reklama qilinib, qaysi bozorda xarid qilish mumkinligi ko`rsatilgan. AQShda birinchi reklama 1704 yil 1 mayda «New Little» gazetasida berilgan. Keyinchalik fan-texnika taraqqiy etib borib, radio kashf etilgandan so`ng u asosiy axborot vositasi bo`lib qoldi. Dastlabki radio reklama AQShda 1922 yilning 28 yanvarida 10 minutcha davom etib, 100 dollarga rasmiylashtirilgan. Filodelfiyalik Volni Palmer birinchilardan bo`lib Amerika reklamasiga asos solgan. U 1841 yildan boshlab gazetalarda reklamalarni joylashtirish evaziga gazetadan tushayotgan daromadning 2 %iga ega bo`ladi. XIX asrda Jorj Rayel Amerikada eng kuchli reklama agentligini tashkil etadi. 1869 yilda Rayel birinchi marotaba «Amerikanskiy gazetno`y spravochnik Rayela» ni chop etib, unda 500 dan ortiq Amerika va Kanada gazetalaridagi ma`lumotlarni jamladi. Rayelning bu nashri hozirgi davrdagi «FUEYeR»ning gazeta va jurnallardagi reklama spravochnigi»ga asos bo`ladi. Yana bir reklama kompaniyasining asoschisi Frensis Uelend Eyer reklama ishiga yangilik kiritadi. 1875 yil Eyer reklamadan keladigan daromadning 12,5 % i, keyinchalik 15 % ini nashriyotdan oladigan bo`ldi. Bu kelishuv hozirgi kungacha qo`llanib kelinmoqda. Reklama biznesida bu kelishuv juda mos tushgandir. Nyu Yorkda tashkil etilgan Jorj Beton reklama agentligi jahonda eng nufuzli agentlik bo`lib, uning 1891 yildagi daromadi 3 milliard dollardan oshar edi. Reklama doimiy huquq va iqtisodiyot orasida talash bo`lgan. U har doim ezgu maqsadlarda foyda uchun xizmat qilgan. Reklamaning eng sodda ko`rinishlari uzoq o`tmishga borib taqalsa-da, XIX asrning o`rtalarida juda katta jamoatchilik ehtiyojiga aylandi. XIX asrning oxirlarida AQShda, XX asrning 30-yillarida Fransiyada dastlabki reklama agentliklari faoliyat boshlab, hozirda juda katta taraqqiyotga erishdi. 1839 yilda Lui Dagerning fotografiyaga asos solishi reklama taraqqiyotidagi navbatdagi bosqich bo`lsa, 1920 yili AQShning Pittsburg shahridagi ilk eshittirish, 1941 yili dastlabki televizion ko`rsatuvning efirga uzatilishi reklamaning mislsiz taraqqiyotiga omil bo`ldi. 1969 yilda Internetning kashf etilishi dastlabki reklama hayoti uchun muhim voqea bo`lmasa-da, hozirda bu tarmoq orqali tushayotgan daromad ham salmoqli bo`lmoqda. Aslida reklama so`zi taxminan 1850 yilda paydo bo`lgan bo`lib, u jismoniy shaxslar mahsulot, shu jumladan, tovar belgisi, xizmat ko`rsatish belgisi hamda texnologiyalari to`g`risida har qanday shaklda va har qanday vositalar yordamida qonun hujjatlariga muvofiq tarqatiladigan maxsus axborotdir. XIX asrga kelib yevropada ham reklama ishi rivojlanib ketdi. Reklama agentliklari va kompaniyalari katta pul topa boshladilar, raqobat kuchaya boshladi.

Albert Lasker reklama ishida yangi davrni boshlab berdi. Soʻz ustalarini jalb qilib, shunday reklama matnini tuzadiki, XX asr boshlarida «Lord va Tomas» Yevropadagi eng yirik reklama firmasiga aylanadi. 1923 yili «Lord va Tomas» reklama agentligi xodimlari birinchi marotaba reklama ishi boʻyicha oʻquv uslubiy qoʻllanma yozganlar. Bunday reklama agentligi ishlarining rivojlanishi reklama biznesining va reklama ishining yanada taraqqiy etishiga olib keldi. Bundan bir asrdan ortiqroq muqaddam Atlantada, toʻgʻrirogʻi Jorjiya shtatida farmatseft Jon Pemberton oʻzining iqtisodiy ahvoli unchalik yaxshi boʻlmaganligi sababli oʻzini boshqa jihatdan sinab koʻradi. Uning ishi yurishib ketadi. U dunyoda oʻsha vaqtda yagona boʻlgan mahsulot yaratadi. Yaʼni shu mahsulot Dune reklama va marketingini yuqori pogʻonaga koʻtaradi. U 1886 yili bir oʻsimlik va yongʻoqning hidini beruvchi, jigarrang xushtaʼm sirop yaratdi. Oʻsha yili 1 mayda Pembertonning yaleksiri har stakani besh sentdan yaxob tarzida sotiladi. Muvaffaqiyat ketma-ket kela boshlaydi. 29 may Atlantaning «Djornl» gazetasida mazkur ichimlik katta sahifada reklama qilindi. Shahar aholisi yopirilib kela boshladi. Bu hozirgi maxsus «Koka-kola» ichimligi edi. Muhimi shundaki oʻshanda ham, hozir ham shu ichimlik reklamasi matnida quyidagi soʻzlar uchraydi: Sifatli ichimlik, alkogolsiz, xushtaʼm va mashhur ichimliklar mamlakati, chanqoq vaqtni bilmaydi, Amerika hayot tarzining umumiy ramzi, yoz mobaynidagi moʻjiza. 1949 yili Kanadada boʻlib oʻtgan xalqaro kongressda «Reklama ishining kodeksi» qabul qilindi. Bu kodeksni 14 ta davlat tasdiqlagan. Bu qonunda xalqaro reklamalar normativi, reklama etiketkasi va etikasi toʻgʻrisida gapiriladi. XX asrda Yevropadagi yirik korxonalar va idoralar oʻzlari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni reklama firmalari va agentliklari orqali targʻib qila boshladilar. Reklama ishilarmonlarining eng asosiy va birinchi ish qurollari, yutuqlarining garovigina boʻlib qolmay, oʻsha firma tashkilotining yuzini ochib beradigan keng targʻibot vositasi ham boʻlib qoldi. Rasmiy maʼlumotlarga koʻra hozirgi kunda vatanimizda yuzdan ortiq milliy va xorijiy reklama agentliklari yuksak bosmaxona bazasi va tadqiqot markazlari yordamida faoliyat koʻrsatmoqda. Uzoq tarixiy tajriba asosida sifat oʻzgarishlariga erishiladi. Bu yoʻl oddiy axborot tarqatishdan boshlanib unga nisbatan shartli reflekslarning paydo boʻlishi, axborotni oʻziga singdirish, ongli ravishda unga munosabat uygʻotishgacha boʻlgan yoʻlni bosib oʻtadi. Turli ifodali vositalardan foydalangan holda, reklama obʼyektiv dunyoni estetik jihatdan anglashga, goʻzallikka nisbatan sezgirlikni oshirishga, idrok va did madaniyatini tarbiyalash va rivojlantirishga hissa qoʻshadigan muayyan muhitni yaratadi. Reklama ommaviy madaniyatning bir qismi sifatida uni rivojlantiradi va oʻzgartiradi. Shu bilan birga, reklama aloqalarining samaradorligi faqat sotish darajasi va utilitar maqsadlarga erishish bilan oʻlchaniladi[9].

Reklama faoliyati tadqiqotchilari madaniyatshunoslar va faylasuflarning ishlariga tayanib, reklama ishlab chiqarishda ijodkorlik masalalarini hal qilmoqdalar. Shu asosda, A.R. Degtyarev reklama vizual-majoziy sohasini idrok etishning psixologik jihatlarini o`rganib chiqib, reklama sohasida vizual vositalarning estetik tarkibiy qismiga, kompozitsiyaga va badiiy texnikaga e`tibor qaratadi[10]. E.V. Salnikova reklama sohasidagi motivatsiyani aktuallashtirish va reklama tarkibidagi tasvirlar orqali jamiyat va shaxslarning ongli istaklariga murojaat qilishni ko`rib chiqishni taklif qilgan[11]. Reklama ishlab chiqarish jarayonida san`at asari yaratadigan vositalar, texnikalar va qonunlarni birlashtirish amaliyoti dastlab reklama sifatida tavsiflangan utilitar savdo xabarlarini estetik yetuk qilish tendentsiyasini shakllantirdi. Agar reklama estetikasiga misol keltirsak S.A. Dzikevich ishlarini aytib o`tishimiz zarur. Unda u reklamani estetik aloqaning bir turi sifatida ko`rib chiqadi va uing asosiy xususiyatlariga, shuningdek ma`lumotlarini yetkazib berishning turli usullariga va xabarlar samaradorligining kommunikativ mezonlarini aniqlash usullariga aynan estetik nuqtai nazardan urg`u beradi.

Reklama muayyan masalalar va maqsadlar uchun har qanday san`atdan foydalanadi. Bugungi kunda faqat estetik vositalardan malakali foydalanish iste`molchi bilan samarali muloqot o`rnatish, keyingi tanlovga ta`sir ko`rsatish, hissiy va ongiy sohaga murojaat qilish imkonini beradi. Reklama xabarlarida badiiy asarlarni taqdim etish iste`molchilarning retro-assotsiatsiyalarining keng bazasini (bu allyuziya chaqiruvi uchun muhim), shaxsiy talqinlarning chuqur chizig`ini va iste`molchi fikrlashining harakatchanligini belgilaydi. Ichki va jahon badiiy madaniyatining boy an`analari ko`r-ko`rona tasvirlarni, intonatsiyalarni va hatto reklama bayonotlarining audial turlarini tanib olishni ta`minlaydi. Reklama xabarining estetik to`yinganligi hissiy hissiyotlarni qo`llab-quvvatlaydi va respondentlarning reklama ta`sirini umumiy kommunikatsiya jarayonida qo`llab-quvvatlaydi va madaniy muhitdagi o`zgarishlarni darhol aks ettiradi.

XIX asr oxiri yurtimiz hududida Rossiya kapitali va ishlab chiqarish mahsulotlarining jalb etilishi, yevropacha madaniyatni musulmonlar orasiga kirib kelishi, tadbirkorlikning yetakchi omili bo`lgan reklama san`atining yangi turlarini shakllanishiga turtki bo`ldi[12]. Endilikda reklama ijtimoiy hayotning ajralmas qismiga aylana boshladi. Ijtimoiy, siyosiy hamda tijorat reklamalari ahamiyatining ortishi uni yangi rivojlanish bosqichiga ko`tardi.

Reklama san`atining uzoq o`tmishdagi og`zaki shaklidan yozma shaklga kelishi ham aynan ko`rilayotgan davrga to`g`ri keladi. XIX asrda o`lkada litografik bosmaxona, fotografiya atelyelari, doimiy chop etilgan gazeta va jurnallar shu davrdagi tijorat va ijtimoiy reklamaning shakllanishi va joylarda faol tarqalishiga

sabab bo`ldi. XX asr gazeta va jurnallari, foto va kino arxivlarida bir qancha reklama namunalari saqlanib qolgan.

O`zbekiston Markaziy Davlat arxivi (MDA)da saqlanayotgan hujjatlar shuni ko`rsatadiki, Turkiston o`lkasida litografik bosmaning paydo bo`lishi va turli xildagi hukumat gazetalarining chop etilishi natijasida ijtimoiy-siyosiy va tijorat reklamalari muntazam ravishda xalqqa taqdim etila boshladi.

Reklama tarixiy manba sifatida o`ziga xos xususiyatlarga egadir. Reklamaning asosiy vazifasi axborot berish orqali jamiyat a`zolarini ma`lum bir harakatga chorlash hisoblanadi. Masalan, savdo reklamasidan maqsad mahsulotni sotish bo`lsa, maishiy xizmat reklamasida aholiga xizmat ko`rsatish bo`lgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda reklama turli shakllarda vujudga kela boshlaydi. 1899 yilda «Turkiston viloyatining gazetasi» Toshkentga amerikacha reklama qilish usuli kirib kelayotgani to`g`risida xabar beradi[13]. Xabarda ta`kidlanishicha, shahar ko`chalarida boshdan oyoq o`ziga papiros olib olgan sotuvchilarni ko`rish mumkin edi. Gazetada yozilishicha, bu holat ingliz Sandwichman reklamachilarini eslatar edi. Papiroslarni bepul chekib ko`rishga ham ruxsat berilgan.

XX asr boshlarida Turkiston shaharlarida doska va prizmalar o`rnatilib, uarga tadbirkorlar o`z e`lonlarini osib qo`yganlar. 1909 yilda “Turkestanskiye vedomosti” gazetasi shahar boshqarmasi 5 yil oldin 100 dan ortiq doska va prizmalar sotib olgan bo`lsa-da, kundan kunga reklama kuchayishiga qaramasdan, ularning soni ko`paymadi deb yozadi.

Bu prizmalar shahar bog`i va saylgohida o`rnatilgan edi. Buning ustiga prizmalarning asosiy qismi uch tomonlamalik bo`lib, o`sib borayotgan talabga javob bera olmasdi. Agar Toshkent shahrida bir vaqtning o`zida bir necha truppalar, stirk, spektakl tomoshalari qo`yilsa hamda reklama beruvchi pul to`lagandan so`ng talab qilishga haqli ekanini hisobga olinsa, haqiqiy ahvolni tasavvur qilish mumkin. Bundan tashqari, shahar boshqarmasi to`g`ri kelgan joylarga devorlar va daraxtlardan reklama va e`lonlar uchun foydalanishni ta`qiqqlagan edi. Shunga qaramasdan, reklama qilinadigan maxsus joylar etarli bo`lmaganidan doimiy ravishda o`g`il bolalar va qiz bolalar gimnaziyasi devorlariga turli ranglardagi bo`yoqlarda reklamalar yozilib ketar edi[14]. Gazeta tahririyati o`z tomonidan shahar boshqarmasiga prizmalar sonini ko`paytirib, ularni besh tomonliklari bilan almashtirishni hamda mavjud doskalarining hajmini kattalashtirishni taklif qildi.

Bu davrda matbuotda e`lon qilinayotgan va ko`chadagi reklamalardan tashqari, turli xil ma`lumotnomalar kitob shaklida ham chiqarilgan. Shuningdek, telefon kitoblarida, har xil kalendarlarda ham tadbirkorlar o`z e`lonlarini berib borganlar.

Reklama ijodkorligi mavzusiga va uning samaradorligiga ta`siri bilan bog`liq ko`plab tadqiqotchilar XX asrning buyuk kreatorlarining mashhur nomlariga murojaat qilishadi. Shunday qilib, D. Ogilvi musiqa va boshqa badiiy texnikadan reklamada foydalanishning ahamiyatiga e`tibor qaratdi, shuningdek, hazil har doim va har bir narsani sotishga qodir ekanligiga ishondi. L. Barnet: "reklama - bu biznes yurak urishini so`zlar, qog`oz va siyoh yordamida his qildirish va yetkazish vositasi". Yorqin badiiy tasvirlar va his-tuyg`ular reklamaning asosiy qismidir. U. Bernbax badiiy tasvirni mohirlik bilan o`zgartirib, oddiy odamlar uchun orzu yaratdi va unga ishonishga majbur qildi. Tarixga u "reklama Shekspiri" bo`lib kirdi. XX asrning 60-yillari reklamada ijodkorlikning gullab-yashnashi bilan ajralib turdi va badiiy tasvirli reklama yo`nalishida ko`plab yorqin iste`dodlarni kashf etdi. Buning sababi reklama rolining tarixiy o`zgarishi edi. Bozor to`yinganidan so`ng, o`sha davrdagi jamiyatning aksariyat ehtiyojlari qondirildi. Biroq, jamiyat va iqtisodiyotning rivojlanishi iste`molchiga ushbu ehtiyojlarni qondirishning yangi usullarini ochib beradi. Bu reklamaning yangi ma`nosini ko`rsatdi. Bozor sharoitida juda ko`p to`yintirilgan mahsulotning o`zi ehtiyojni qondirishning yana bir usuli bo`ladi. Bu holda reklama bu usulni namoyon qiladi. Aslida, o`tkan asr 60-yillari reklama sohasida yangi yo`nalishda faoliyat yurituvchi, ya`ni reklamani oddiy axborot ko`rinishidan aholi ehtiyojlari, ularga ta`sir ko`rsatish usullari va foydalanuvchilarga yanada yaqin bo`lishga yordam beruvchi muloqot vositasiga aylantirish ustida izlanuvchi mutaxassislar paydo bo`ldi.

Ushbu o`zgarish tovar yoki brendning jismoniy tushunchasining bozorda haqiqiy qiymatini yo`qotishiga olib keldi. Coca-Cola, Apple yoki Nike kabi yirik brendlarning qiymatini baholash ushbu tovarlarning jismoniy mulkning umumiy qiymatidan oshib ketadi. Aniq va sof hissiy tushunchalar vaqt o`tishi bilan tovarlarning jismoniy xususiyatlarini o`zgartirdi va reklamaning asosiy vazifasi endi haqiqiy sotish emas, balki mahsulotning muayyan estetik qiyofasini yaratishdir.

Postmodernizm vayron bo`ldi, estetik ochlikni boshlagan go`zal va chirkin, kulgili va fojeali o`rtasidagi chegaralar loyqalandi. Iste`molchi dunyosining estetik qiyofasiga ta`sir ko`rsatish masalasini hal qilish reklama sohasi oldiga qo`yilgan ehtiyojga aylandi. Bugungi kunda maqsadli auditoriyani kutish darajasini tushunish uchun agentliklar foydalanuvchi ta`bi va odatlarini o`rganadigan strategik xodimlar guruhlarini tuzdilar. Shunday qilib, reklama kommunikatsiyalari ijtimoiy, psixologik to`siqlarni olib tashlaydi, go`zallik tuyg`usini rivojlantirib, go`zallik haqidagi tasavvurlarni o`zgartiradi va h.k. Yakuniy reklama mahsuloti utilitar maqsadlar bilan bog`liq bo`lgan ijodkorlikning natijasidir. Reklama mahsulotini yaratish jarayonida

badiiy texnika va tasvirlardan foydalanadigan ijodiy texnologiyalar ularga erishish uchun aniq vosita bo`lib qoladi[15].

Ijodiy texnologiyalar mavzusiga to`xtalib, ular keng tarqalgan usullar, ramziylik va o`yin uslublarini qo`llashadi. Mavjud bilim, stereotiplar va taniqli madaniy ob`yektlarga asoslangan holda, reklama taqdim etilgan axborotni estetik jihatdan boyitib, mahsulot yoki xizmat bilan uyg`unlashtiradi, yangi axborot idrokining estetik assotsiatsiyalarining asosi bo`lgan his-tuyg`ularga olib keladigan tanish va notanish hodisalarga moslashtiradi. Bu reklamani bir tomondan san`atdan ajratib turadi va ayni paytda uning estetik jihatini kuchaytiradi. Har bir reklama xabari muayyan estetik vazifaga ega. Reklama xabarlarini maqsadlarini aniqlash va vazifalarni shakllantirish bosqichida estetik vazifa maqsadli auditoriyadan olinadigan istalgan hissiy reaksiya sifatida shakllantiriladi. Muayyan reklama xabarining maqsadi savdo-sotiqni oshirish va mahsulot haqida ma`lumot berish barobarida kutilgan hissiy reaksiyani ham hisobga oladi, ya`ni reklamaning insonlar ongiga ta`siri ham juda muhim factor bo`lib qoldi.

Reklama xabarining evolyutsiyasi estetikaning ahamiyatini miqdoriy va sifat jihatidan o`zgartirib, aloqaning g`oyaviy mazmuniga aylandi. Reklama marketingining asosiy vazifasi reklama kommunikatsiyalari bilan uyg`un holda iste`molchining ehtiyojlarini qondiradigan mahsulotni yaratish va ushbu mahsulot uchun muvaqqat estetik makonni modellashtirishdir. Bu dasturiy ta`minot reklama kommunikatsiyalariga estetik hislarni shakllantirish va uni tuzatish jarayoniga doimiy ta`sir ko`rsatish uchun sharoit yaratishi mumkin. Yuqori badiiy san`atga jalb qilingan ommaviy san`at sifatida reklamaning ta`sirini kengaytirish aloqa kanallarini kengaytirish bilan bog`liq. Inson endi har tomonlama estetik jihatdan boy tasvirlar bilan o`ralgan bo`lib, u qabul qiluvchi bilan muloqot qilib, dunyoqarash, g`oyalar, ulug`vorlik va go`zallik haqida gapiradi. Reklama muloqotining bunday estetik ta`sirining natijasi madaniy-tarixiy kontekstga, iste`molchining estetik aks etishi darajasiga va reklama yaratuvchilarining bilimlariga, professionalligiga, badiiy mahoratiga bog`liq.

XULOSA

Reklama kommunikatsiyalari bir vaqtning o`zida ham jamiyat a`zolari mentaliteti, talablari, ular qiziqqan san`at yo`nalishlari, ularning estetik didlariga mos keluvchi taqdimotni yaratish orqali e`tiborlarini jalb qilish vositasi, ham aksincha ommaviy madaniyatning yangi yo`nalishlari manbai sifatida namoyon bo`ladi, ya`ni u ham oqibat, ham sabab ko`rinishida namoyon bo`la oladigan estetik tarbiya vositasi.

Reklama uzoq tadrijiy va tarixiy rivojlanish bosqichlaridan o`tib, bugunga kelib, insonlar ongida betakror imidj va san`at darajasiga ko`tarilgan reklamani yaratishdan maqsad uni yaxshi narxga sotish va turli tanlovlarda g`olib bo`lish uchun yaratilish bosqichida turibdi. Endilikda reklamalar insonlarning ishonchini uyg`otishdan ko`ra, ularda shubha tug`dirmoqda.

Shu sababli brend (mahsulot yoki ishlab chiqaruvchining o`zigagina xos bo`lgan ramziy tamg`a) va PR (jamo bilan muloqot, ommaviy tadbirlar) kabi targ`ibot turlari samaraliroq bo`lib, reklama faqatgina ularni foydalanuvchilarga eslatib turish vositasi vazifasini o`tamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. M.Xajiyeva, M.Aytboyeva. Estetika asoslari. Uslubiy qo`llanma. Toshkent, 2016.
2. Uzoqov B. Estetika fanidan ma`ruza matni, Jizzax, 2010.
3. Organova O.N. Spetsifika estetcheskogo vospitaniya, Moskva, 1986
4. Abdulla Sher, B. Husanov. Estetika. T., 0`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
5. Borev M.,Estetika, "AST", 2005.
6. Zohidov P. Me'mor olami. T., «Qomus», 1996
7. Aymatov A.Q.Shaxsning tabiatga estetik munosabatini shakllantirishda ekologik ongning roli. Falsafa fanlari doktori disseratsiyasi, Samarqand, 201
8. Ученикс В.В., Старикс Н.В. История рекламы.
9. Дзикевич С.А. Эстетика рекламы.
10. Дегтярев А.Р. Изобразительные средства рекламы.
11. Шодмонова С. Туркистонда илк рекламанинг шаклланиши ва воситалари.

TURKISTONDA 1916-YIL MILLIY-OZODLIK KURASHLARI XUSUSIDA YANGICHA QARASHLAR

Shaymurzayev Jafar Isanmurot o'g'li,

Nizomiy nomidagi TDPU "Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi"
yo'nalishi 2-kurs magistri

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Turkiston o'lkasida 1916-yilda Rossiya imperiyasi tomonidan olib borilgan siyosati natijasida ko'tarilgan qo'zg'olonlar va ularning o'lkaning turli hududlariga yoyilishi, uning sabab va oqibatlari turli manbalar orqali qosqacha tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston, milliy ozodlik qo'zg'aloni, o'lka, mahalliy xalq, urush orti, mardikorlik, uyezd, sabablar, oqibatlar.

NEW VIEWS ON THE NATIONAL LIBERATION STRUGGLES OF 1916 IN TURKESTAN

Shaymurzayev Jafar Isanmurot ugli,

TSPU named after Nizomiy, "Methodology of teaching social and humanitarian sciences", 2st year master

ABSTRACT

In this article, the uprisings that arose as a result of the policy of the Russian Empire in Turkestan in 1916 and their spread to different regions of the country, its causes and consequences are analyzed in detail through various sources.

Key words: Turkestan, national liberation movement, country, local people, post-war, labor, uyezd, causes, consequences.

НОВЫЕ ВЗГЛЯДЫ НА НАЦИОНАЛЬНО-ОСВОБОДИТЕЛЬНУЮ БОРЬБУ 1916 ГОДА В ТУРКЕСТАНЕ

Шаймурзаев Джафар Исанмурат угли,

ТДПУ им. Низоми, «Методика преподавания социальных и гуманитарных наук», магистратура 2-го курса

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе различных источников подробно анализируются восстания, возникшие в результате политики Российской

империи в Туркестане в 1916 году и их распространение на разные регионы страны, их причины и последствия.

***Ключевые слова:** Туркестан, национально-освободительное движение, страна, местное население, послевоенное время, труд, уезд, причины, последствия.*

KIRISH

Rossiya imperiyasining Turkistondagi bosqinchilik siyosati va hukmronligiga qarshi olib borilgan kurashi voqealari mustabid tuzum davrida mafkuraviy bosim va tazyiqlar ostida real hayotga va tarixiy haqiqatga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan rasmiy andozalarda yozib kelindi. Ammo kommunistik mafkuraning barham topishi barcha tarixiy manbalardan xolisona foydalanish, mustaqil ravishda o'z fikrlarini bayon etish imkoniyatini berdi. Endi bu muammoni xolis tarixiylik nuqtai nazaridan haqqoniy va ilmiy tarzda asoslashga imkoniyat yaratildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maqolani yozish davomida nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillari qo'llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

1916-yildagi Turkiston milliy-ozodlik kurashi tarixini ilmiy asoslangan va haqqoniy talqinini yuzaga keltirish imkoni tug'ildi. Bugungi kunga qadar tadqiqotchilar mazkur muammoni o'rganishning quyidagi yo'nalishlarida o'rganishga kirishdi[1]:

Birinchi, Turkistondagi 1916 yilgi qo'zg'olonlarning avval noto'g'ri tarzda aks ettirilgan, haqiqatdan uzoqlashtirilib buzib ko'rsatilgan masalalarini qaytadan ko'rib chiqish. Ikkinchi, mazkur qo'zga'lonlarni Turkistonning bugungi O'zbekiston hududlariga kirgan 3 ta viloyati-Samarqand, Farg'ona, Sirdaryo viloyatlari misolida va butun Turkiston miqyosida batafsil va atroflicha yoritish.

Haqiqatdan ham, yuqorida ko'rsatib o'tilgan birinchi yo'nalishda muammoning buzib noto'g'ri ko'rsatilgan masalalari qayta ko'rib chiqildi. Birinchi navbatda, mutlaqo noto'g'ri bayon etilgan Jizzax qo'zg'oloni haqqoniy talqinini yaratishga alohida urg'u berildi[2]. Matbuot manbalarida aslida milliy-ozodlik uchun olib borilgan Jizzax qo'zg'oloni sovet davri maqolalari va manbalarida "reaksion chiqishlar" sifatida aks ettiriladi. Mana shu hududda olib borilgan qo'zg'olonlar boshlanishi, rivojlanib borishi va boshqa qo'shni hududlarga yoyilishi haqidagi oldin yetarlicha e'tibor berilmagan va yangi ma'lumotlar e'lon qilindi, voqea tafsilotlari aniq va to'g'ri ochiqlandi, uning ayanchli va fojiali oqibatlarini ko'rsatib o'tildi.

Tadqiqotchilar tomonidan bayon etilishicha, sovetlar davri adabiyotlarida Jizzax qo'zg'alonlariga faqat din peshvolari rahbarlik qilgan deyiladi. Lekin aslida esa, Hayitboy Haydarovning ma'lum qilishicha, Rossiya imperiyasi podshosi aholini mardikorlikka safarbar etish to'g'risidagi farmoni e'lon qilingach, Jizzax uyezdidan 10531 nafar kishini mardikorlikka safarbar etish buyurilgan[3]. Ana shu vaziyatda Jizzax shahrining oqsoqollari-Ziyoqori Abdullayev va Muhammadrahim Abdurahimov Nazirxo'ja eshon uyida yig'ilishadi va unda Zomin, Yangiqo'rg'on, Sangzor va Bog'don volostlarida hukumatga qarshi qo'zg'alon uyushtirishga kelishib olishadi va o'sha tunning o'zidayoq shaharning barcha hududlariga o'z odamlarini jo'natib ushbu xabar bilan hammani ogoh qiladilar.

Sovet davri adabiyotlarida yuqorida keltirilganidek, Jizzax qo'zg'alonining asl haqiqati quyidagidan iborat ekanligi ilgari suriladi: "din peshvolari" tomonidan mahalliy aholi ruslarga qarshi "g'azavot" qilishga chorlandi, milliy-ozodlik uchun kurash esa "reaksion qo'zg'alon" sifatida baholandi. Lekin, aslida esa bunga ishonish biroz mushkul[4]. Chunki buni isbotlaydigan aniq dalillar va ma'lumotlar qayd etilmaydi. Aniq dalillarning oshkor etilmasligiga asosiy sabab esa - aniq ma'lumotlar bu harakatlarning ochiqdan ochiq Rossiyadan ajralish uchun olib borilgan kurash ekanligini yaqqol isbotlab qo'yadi. Bunday aniq ochiqdanmagan manbalar qatoriga yozuvchi Nazir Safarovning Jizzax voqealari haqidagi xotiralari, hujjatlari shular jumlasidan bo'lib, ular hali-hanuzgacha to'liq muomalaga kiritilmaganligi achinarli holdir.

1916-yilgi qo'zg'alonlarni atroflicha o'rganish hozircha Sirdaryo va Farg'ona bilan cheklangan. Bugungi kunda ko'plab tadqiqotchi-tarixchilar tomonidan bu yo'nalishda keng tadqiqotlar olib borishga harat qilinmoqda. Sovet manbalarida 1916-yil Sirdaryo viloyati voqealari doirasida ko'proq 1916-yil 11-iyulda Toshkentda bo'lib o'tgan qo'zg'alonlarga urg'u berishga harakat qilingani holda uyezdlarda sodir bo'lgan milliy-ozodlik kurashlariga juda kam e'tibor berilgan[5]. Xususan, O.Suyunovning tadqiqotlariga ko'ra, 1916-yilda shu viloyatda bo'lib o'tgan voqealarga atroflicha to'xtalib, sovet davrida atayin e'tiborsiz qoldirilgan muhim manbalarni aniqlash asosida Sirdaro viloyatida ham boshqa viloyatlardagi kabi 1916-yil qo'zgalonlari nihoyatda keng, ommaviy va keskin-fojiali tus olganligini isbotlab berdi[6].

O.Suyunovning keng tadqiqotlariga ko'ra Toshkent uyezdi-Kelesda 20-iyul kuni 50000 kishilik, 7-8 ming kishilik qo'zg'alon G'ishtko'prikda, Chinozda 6000, Qibrayda esa 4-6 ming kishilik qo'zg'alon harakatlari bo'lib o'tgani, Toshkent-Orenburg yo'nalishida temir yo'llarga hujum uyushtirishga urinishlar bo'lganligi aks ettirilgan. Toshkent, Kazalinsk, Perovskiy uyezdlari, Amudaryo bo'limidagi

qo'zg'olonlar, ularning shafqatsiz bostirilib, qo'zg'olonchilarning og'ir jazolanishi, mardikorlikka safarbarlikning amalga oshirilishi, uning oqibatlari haqida yangi-yangi ma'lumotalarni aniqlab ilmiy muomalaga kiritdi, qo'zg'olon tarixini tiklashga munosib hissa qo'shdi.

1916-yil qo'zg'olon harakatlarining Farg'ona viloyatiga oid o'rganish yo'nalishida e'tiborga sazovor tadqiqotlar olib borilmoqda. Matbuotda mana shu muammoni butun bir viloyat va uning ba'zi uyezdlari misolida talqin etuvchi ilmiy maqolalar 1990-yillarda e'lon qilindi. Mana shu maqolalarning muallifi Jannat Ismoilova qo'zg'olon harakatlarining umumiy harakterini aniq maqsad va yo'nalishlarini to'laligicha ochib berishga izchil yondashdi. Sovet manbalarida keltirilishicha, Farg'ona viloyatidagi g'alayonlarga sinfiy nuqtai nazarida qaraladi va qo'zg'olon mahaliy ma'murlar va mulkdorlarga nisbatan sodir etilganligi bayon etiladi. Aslida esa voqealar buning aksidir. Bunday da'volar mutlaqo asossizdir, g'alayonlarda bazi toifa yoki sinflar manfaatlari emas, umummilliy, umumxalq manfaatlari ilgari surilgan, degan xulosaga kelindi.

1916-yil qo'zg'olonlarining 80 yilligi respublika ilmiy jamoatchiligi tomonidan 1996-yilda keng nishonlandi. O'zR FA tarix institutida o'tkazilgan davra suhbatlari va ilmiy anjumanda H.Ziyoyev, N.Abdirahimova kabi taniqli olimlar va yosh tadqiqotchilar tomonidan qo'zg'olon sabablari, tarixi va tarixshunosligi masalalariga batafsil to'xtalib o'tib bu boradagi o'z fikr va mulohazalarini ilk bor xolisona, erkin bayon etdilar.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda tarixda sodir bo'lgan 1916 yilgi o'lkadagi qo'zg'olonlar aslida xalqning og'ir ahvolidan kelib chiqqan edi. Rossiya imperiyasi hukumatining o'tkazgan mavkuraviy tazyiqlari natijasida mahalliy xalqlar qattiq ozor chekkan. Va bu voqealar o'lka tarixida o'chmas iz bo'lib qolgan. Turkistondagi 1916 yilgi qo'zg'olonlarning yanada yangi manbalar orqali o'rganish unga yangicha qarashlarni, asl haqiqatlarni keltirib chiqaraveradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ziyoyeva D. Turkiston milliy ozodlik harakati. T., G'afur G'ulom nashriyoti, 2000, 6- bet.
2. Validiy A.Z. Bo'linganni bo'ri yer. Turkiston xalqlarining milliy mustaqillik uchun kurashi tarixidan xotiralar. T., Adolat, 1997, 28-bet.
3. Ziyoyev H. Turkiston mustaqillik uchun kurashlar tarixi. Toshkent, 2005, 78-bet.

4. Safarov N. Unutilmas kun (1916-yilgi Jizzax qo'zg'alonidan xotiralarim). Toshkent-Boku: 1932,85-bet.
5. Choriyev Z. Turkiston mardikorlari:safarbarlik va uning oqibatlari (1916-1917), Toshkent, 1999, 45-bet.
6. Istiqlolimizning tarixiy ildizlari. Davra suhbatlari. "Sharq yulduzi".1995, 11-12-sonlari, 3-29-betlar.

TURKISTONDA SANOAT KORXONALARINING VUJUDGA KELISHI VA FAOLIYATI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Ahadov Abdivohid Abdihomid o'g'li,

Nizomiy nomidagi TDPU "Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi"
yo'nalishi 2-kurs magistri

ahadovabdivohid448@gmail.com (77) 702 75 76

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Sovet mustabid tuzumi o'lkada sanoat korxonalari qurish va bu sanoat korxonalarini markaz uchun ishlashini ta'minlash borasidagi chora tadbirlari xususida amalga oshirgan ishlari xususan, paxta ekiladigan yerlarni ko'paytirish va paxtaga dastlabki ishlov beruvchi sanoat korxonalarini qurish va markazdagi to'quvchilik fabrikalari uchun xomashyo yetkazib beruvchi bazaga aylantirilganligi haqida bilib olamiz.

Kalit so'zlar: *Rossiya, Turkiston, sanoat, to'qimachilik, yog'-moy sanoati, Amerika navi, manifaktura, termiy yo'l, ipak, tadbirkorlar.*

SOME CONSIDERATIONS ON THE ESTABLISHMENT AND ACTIVITY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES IN TURKISTAN

Ahadov Abdivohid Abdihomid ugli,

TSPU named after Nizomiy, "Methodology of teaching social and humanitarian sciences", 2st year master

ahadovabdivohid448@gmail.com (77) 702 75 76

ABSTRACT

In this article, the measures taken by the Soviet regime to build industrial enterprises in the country and to ensure the operation of these industrial enterprises for the center, in particular, the increase of cotton cultivation areas and the construction of industrial enterprises that pre-process cotton and textile factories in the center we will learn that it has been turned into a raw material supplier base.

Key words: *Russia, Turkestan, industry, textile, oil industry, American type, manufacture, thermal road, silk, entrepreneurs.*

НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ ПО СОЗДАНИЮ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В ТУРКЕСТАН

Ахадова Абдивохид Абдихомид угли,

ТДПУ им. Низоми, «Методика преподавания социальных и гуманитарных наук», магистратура 2-го курса ahadovabdivohid448@gmail.com (77) 702 75 76

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются меры, принятые советской властью по строительству промышленных предприятий в стране и обеспечению работы этих промышленных предприятий для центра, в частности, увеличение площадей выращивания хлопка и строительство промышленных предприятий, осуществляющих предварительную переработку хлопка. хлопчатобумажные и текстильные фабрики в центре, мы узнаем, что он превратился в базу поставщиков сырья.

***Ключевые слова:** Россия, Туркестан, промышленность, текстильная, нефтяная промышленность, американский тип, мануфактура, тепловая дорога, шелк, предприниматели.*

KIRISH

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan O'rta Osiyo hududlarida yashovchi xalqlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida keskin o'zgarishlar yuz berishiga olib keldi. Rossiya imperiyasi bosqinchilik siyosatining asosiy maqsadi Turkiston o'lkasi boyliklarini talash, uni paxta monopoliyasiga aylantirish va Rossiyada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar uchun yangi bozor tashkil etishdan iborat edi.

METODLAR

Maqolani yozish davomida nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillari qo'llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Rossiya hukumati Turkiston o'lkasini bosib olgan yerlarida shu siyosatni zudlik bilan amalga oshira boshladi, Ayniqsa bu sanoat sohasida yaqqol ko'zga tashlandi. Chor hukumati Turkiston o'lkasiga kirib kelgan rus va chet el sanoatchilarini har tomonlama qo'llab quvvatladi[1].

Bu davrda o'lkaga Rossiya va Yevropaning ko'pgina mamlakatlaridan yangi ishlab chiqarish texnologiyalari kirib kelishi kengaydi. Ko'plab bank va sanoat bo'limlari ish boshladi. Bu o'zgarishlar o'lkada paxtachilik, ko'nchilik, xomashyoga

dastlabki ishlov berish, yog`-moy sanoati kabi sohalarning rivojlanishiga ta`sir ko`rsatdi. Bu davrda ayniqsa, boshqa sohalarga qaraganda sanoatning paxta xomashyosiga dastlabki ishlov berishga mo`ljallangan sohasi rivojlandi. Bu siyosat o`lkadagi boshqa qishloq xo`jaligi mahsulotlarining kamayishiga olib keldi va natijada xalqning bu mahsulotlarga bo`lgan talabini kuchaytirdi.

Rossiya imperiyasi uchun Turkiston paxtasiga erishish, uni qo`lga kiritish azal-azaldan orzu bo`lgan, chunki Turkiston paxtasi Amerika paxtasiga qaraganda 2 yoki 3 barobar arzon edi.

Chor Rossiyasi dastlabki yillardanoq paxtadan yaxshi daromad ola boshladi. Shuning uchun ham ular paxta masalasiga juda kata etibor bergan. Hatto rus matbuotida: “ Turkiston o`lkasining tugamaydigan boyligi bu paxta va ipak bo`lib, ular hozir yaxshi rivojlanmagan bo`lsada, aql-idrok bilan ish tutilsa Rossiyaning fabrikalari paxta va ipak bilan ta`minlanadi” deb bejiz aytilmagan edi[2].

Rossiya imperiyasining Turkistondagi siyosatining bosh rejasi paxtachilikning rivojlantirishga qaratildi. Turkistonni Rossiyaning to`qimachilik sanoati uchun paxta yetishtirib beruvchi asosiy hududga aylantirmoqchi edi. Farg`ona, Sirdaryo va Samarqand hududlari paxta yetishtiruvchi asosiy hududga aylandi. 1884-yildan o`lkamizda yangi paxta navi (Amerika navi) yetishtirila boshlandi. Bu o`lkada paxta yetishtirish samaradorligini yanada yuqori bo`lishiga sabab bo`ldi.

Rossiya manfaatlari uchun zarur bo`lgan paxta yetishtirishning kengayib borishi, o`lkada xomashyoga dastlabki qayta ishlov beruvchi sohalarni vujudga keltirishni taqozo qildi. Shu boisdan ham bu yerda paxtani qayta ishlash bilan bog`liq korxonalar tashkil etildi. 1900- yilga kelib, Turkistonda xomashyoni qayta ishlash bilan bog`liq bo`lgan korxonalar soni 170 tadan oshib ketdi[3].

Chor Rossiyasi o`lkada paxtachilik sohasini rivojlantirish uchun mablag`larni ayamadi, paxtachilikka bo`lgan ehtiyojning ortishi natijasida paxtachilikka o`lka aholisining bor kuchi jalb qilingan, bu esa dehqonlarning moddiy Ahvolini yomonlashishiga xizmat qilgan.

Paxta maydonlarining kengayib borishi don, g`alla, ayniqsa, oziqovqat mahsulotlari masalasi va ta`minotida ham qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Bu vaziyatdan foydalangan rus ma`murlari chetdan keltirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlariga ham narxlarni o`zlari belgilay boshladilar. G`alla va boshqa qishloq xo`jalik mahsulotlarini yetishtirish kamayib, ularning bozordagi narxlari muttasil ko`tarilib bordi. Masalan, 1890-yilning boshlarida bug`doy unining bahosi 5 marta oshdi[4].

Turkiston o`lkasidagi paxta xomashyosi Rossiya o`lkasidagi tadbirkorlarni etiborini tortdi va ular asta-sekinlik bilan bu o`lkada o`z zavodlarini qura boshladilar.

Birinchi paxta tozalash zavodi 1879-yilda Toshkentda S.I.Nazarov tomonida barpo etildi. Keyinchalik S.I.Laxtin va M.I. Nikiforov va boshqa sanoatchilarning ham zavodlari ham ishga tushdi. Ular orasida Yu. Davidov va Katta Yaroslav manifaktura savdo-sanoat shirkatining paxta tozalash zavodlari eng katta sanoat korxonalarini hisoblanadi. Shuni takidlash joizki paxta tozalash zavodlarining baʼzilari paxta hosili boʻlmaganligi sababi muntazam faoliyat koʻrsatmagan[5].

Chunki oʻsha vaqtda qurilgan zavodlar faqat paxta tozalashga ixtisoslashtirilganligidan paxta yigʻim-terimi tugashi bilan oʻz faoliyatini keyingi paxta yigʻimigacha yakunlagan. Ammo vaqt oʻtishi bilan bu zavodlarda paxtaga dastlabki ishlov berish ishlari ham amalga oshirish boshlangan.

Turkistonda paxta yetishtirish va uni Moskvaga tashib ketish kuchli markazlashgan organ orqali amalga oshirildi. Turkistonning XXMK ning Paxta boʻlimi oʻzining butun eʼtiborini paxta ishlab chiqarishni markazlashtirishga qaratdi, boʻlim amalda oliy organ sifatida 1920-yilgacha bu sohani boshqardi[6].

Turkistonda paxta sanoatini rivojlantirish va markazni yetarlicha paxta xom-ashyosi bilan taʼminlash maqsadida qoʻlidan kelgan barcha ishni qildi. Chor Rossiyasi davrida Oʻrta Osiyodagi Avtonom Respublikalar orasida Oʻzbekiston SSR oʻlkadagi iqtisodiy munosabatlarni birlashtiruvchi rolni oʻynadi. Chunki bu davrda turli xil koʻp tarmoqli sanoat korxonalarining qurilganligi, temir yoʻl leniyalarining yetib kelganligi va neft va koʻmir konlarining mavjudligi va bular orasida eng asosiysi shuki, dastlabki paxtaga ishlov beruvchi sanoat korxonalarining mavjudligi va bu hududning paxta yetishtirishga ixtisoslashtirilganligidir. Turkiston hududida yetishtirilgan paxta xom-ashyosining deyarli barchasi markazdagi yengil sanoat korxonalarini uchun tayyor mahsulot sifatida junatilar edi.

Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, 1920-yili Turkistondan Markazdagi toʻqimachilik korxonalariga 8.565 vagonda 4.283.000 pud paxta tolasi joʻnatildi. Bundan tashqari 1919-yilda Rossiyaga 3.150.000 pud, 1920-yilda esa 2.728.000 pud xom paxta ham joʻnatilgan[7].

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish joizki, Rossiyaning Turkiston oʻlkasida mustamlakachilikka asoslangan boshqarish usuli joriy etilgach, bir qator iqtisodiy islohotlar amalga oshirila boshlandi. Bu avvalo oʻlka xalq xoʻjaligining asosan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikka ixtisoslashgan tarmoqlarida jiddiy oʻzgarishlar sodir boʻlishiga olib keldi. Ayniqsa qishloq xoʻjaligi sohasida katta oʻzgarishlar amalga oshirildi, yerlarning katta qismiga paxta yetishtirila boshlandi,

dehqonlarning bor kuch va etibori majburiy ravishda cho`l yerlarni o`zlashtirish va paxta yetishtirishni ko`paytirishga qaratildi.

Bundan tashqari O`rta Osiyo temir yo`llarining qurilishi Turkiston paxtasi va boshqa qishloq xo`jalik mahsulotlarini Rossiyaning Markaziy rayonlariga tashib ketish imkoniyatini ancha kengaytirdi. Bu yerda yetishtirilgan paxtaning tovarlik xususiyati ko`proq bir tomonlama xarakterga ega bo`lib, savdogarlar paxta tolasini asosan chetga chiqarishga harakat qildilar. Chunki, asosiy ko`zlangan maqsad markazdagi to`qimachilik korxonalarini boyitish edi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

7. Jannat Ismoilava. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Toshkentning “Yangi shahar “ qismi tarixi. T.: Fan va texnologiya. 2004,1-qism.
8. Jannat Ismoilava. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Toshkentning “Yangi shahar “ qismi tarixi. T.: Fan va texnologiya. 2004, 2-qism.
9. R.E. Xoliqova. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. O`quv qo`llanma. T.: Fan va texnologiya. 2017, 58-bet.
10. R.E. Xoliqova. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. O`quv qo`llanma. T.: Fan va texnologiya. 2017, 55-bet
11. Jannat Ismoilava. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Toshkentning “Yangi shahar “ qismi tarixi. T.: Fan va texnologiya. 2004, 3-qism.
12. Q. Rajabov va M. Haydarov. Turkiston tarixi (1917-1924-yillar). T.: Universitet. 2002,98-bet.
13. Q. Rajabov va M. Haydarov. Turkiston tarixi (1917-1924-yillar). T.: Universitet. 2002.99-bet.

O'ZBEKISTON HUDUDLARIGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA KO'P QAVATLI YASHIL FERMER XO'JALIKLARINI TASHKIL ETISH

Turdimuratova Aziza Alisherovna

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti,
Agrobiznes, buxgalteriya hisobi va raqamli texnologiyalar kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSİYA

Ushbu maqolada O'zbekistonda chet el investitsiyalarini jalb etish va mintaqaviy barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun ko'p qavatli yashil fermer xo'jaliklarini tashkil etish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Bu qishloq xo'jaligiga xorijiy investitsiyalarning ahamiyati va ko'p qavatli yashil dehqonchilikning noyob imkoniyatlari bilan tanishishdan boshlanadi. Adabiyot tahlili global miqyosda shunga o'xshash loyihalarning muvaffaqiyatli holatlarini o'rganadi. O'zbekistonda mintaqaviy rivojlanishning katalizatori sifatida ko'p qavatli yashil fermer xo'jaliklarining hayotiyiligini ta'kidlaydi va kelgusi harakatlar bo'yicha takliflar bilan birga.

Kalit so'zlar: *O'zbekiston, xorijiy investitsiyalar, ko'p qavatli yashil fermer xo'jaliklari, barqaror qishloq xo'jaligi, mintaqaviy rivojlanish.*

СОЗДАНИЕ МНОГОУРОВНЕВЫХ ЗЕЛЕННЫХ ХОЗЯЙСТВ ПРИ ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ НА ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНА

Турдимуратова Азиза Алишеровна

Термезский институт агротехнологий и инновационного развития,
Преподаватель кафедры агробизнеса, бухгалтерского учета и цифровых
технологий

АННОТАЦИЯ.

В данной статье рассматриваются возможности создания в Узбекистане многоэтажных зеленых хозяйств для привлечения иностранных инвестиций и обеспечения устойчивого регионального развития. Он начинается с знакомства с важностью иностранных инвестиций в сельское хозяйство и уникальными возможностями многоуровневого зеленого земледелия. Анализ литературы исследует успешные случаи аналогичных проектов в глобальном масштабе. Подчеркивает жизнеспособность

многоуровневых зеленых хозяйств как катализатора регионального развития в Узбекистане и вместе с предложениями о дальнейших действиях.

***Ключевые слова:** Узбекистан, иностранные инвестиции, многоуровневые зеленые фермы, устойчивое сельское хозяйство, региональное развитие.*

ORGANIZATION OF MULTI-STOREY GREEN FARMS IN ATTRACTING FOREIGN INVESTMENTS IN THE REGIONS OF UZBEKISTAN

Turdimuratova Aziza Alisherovna

Institute of Termez agrotechnologies and innovative development,
Teacher of the Department of agribusiness, accounting and digital technology

ABSTRACT

This article examines the possibilities of creating multi-storey green farms in Uzbekistan to attract foreign investment and ensure regional sustainable development. It begins with an introduction to the importance of foreign investment in agriculture and the unique possibilities of multi-storey green farming. Literature analysis studies the successful cases of similar projects on a global scale. Highlights the viability of multi-storey green farms as a catalyst for regional development in Uzbekistan, along with proposals for further action.

***Keywords:** Uzbekistan, Foreign Investment, multi-storey green farms, sustainable agriculture, regional development.*

KIRISH

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) dunyo mamlakatlarining, xususan qishloq xo'jaligining iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekiston o'zining boy qishloq xo'jaligi salohiyatiga ega bo'lib, fermerlik amaliyotini modernizatsiya qilish va hosildorlikni oshirish uchun To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardan foydalanishga intilmoqda. Ko'p qavatli yashil fermer xo'jaliklari barqarorlikni ta'minlash va yer cheklovlarini hal qilishda bunday investitsiyalarni jalb qilish uchun istiqbolli yo'lni taklif etadi. Ushbu maqolada O'zbekistonda ko'p qavatli yashil dehqonchilikni amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi va afzalliklari ko'rib chiqiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, vertikal dehqonchilik yoki boshqariladigan qishloq xo'jaligi deb ham ataladigan ko'p qavatli yashil fermer xo'jaliklari resurslarni tejash bilan birga cheklangan joylarda yuqori hosil olish qobiliyati tufayli global miqyosda qiziqish uyg'otdi. Muvaffaqiyatli misollarga Singapur, Yaponiya va Gollandiyadagi vertikal fermer xo'jaliklari kiradi, bu erda gidroponika va aeroponika

kabi innovatsion texnologiyalar shahar qishloq xo'jaligida inqilob qildi. Ushbu korxonalar nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini oshirdi, balki an'anaviy dehqonchilik usullariga nisbatan ish bilan ta'minlandi va atrof-muhitga ta'sirini kamaytirdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekistonda ko'p qavatli yashil fermer xo'jaliklarini amalga oshirish ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Birinchidan, xorijiy investorlar va qishloq xo'jaligi mutaxassislari bilan hamkorlik texnologiyalarni uzatish va moliyaviy qo'llab-quvvatlashni osonlashtirishi mumkin. Ikkinchidan, hukumat siyosati barqaror dehqonchilik amaliyotini rag'batlantirishi va tartibga soluvchi yordam ko'rsatishi kerak. Uchinchidan, salohiyatni oshirish tashabbuslari va ta'lim dasturlari mahalliy fermerlarni vertikal dehqonchilik texnikasiga o'rgatishi mumkin. Bundan tashqari, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish va suvni samarali boshqarish tizimlari kabi infratuzilmaviy o'zgarishlar bunday loyihalarning muvaffaqiyati uchun juda muhimdir.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish maqsadida O'zbekiston hududlarida ko'p qavatli yashil fermer xo'jaliklarini tashkil etish innovatsion va potentsial foydali tashabbusdir. Bu maqsadga erishish uchun qadamlarni ko'rsatadigan batafsil reja:

- Bozor tadqiqotlari va texnik-iqtisodiy asoslash: mamlakat ichida ham, xalqaro miqyosda ham turli qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabni baholash uchun bozor tadqiqotlarini kompleks tahlil qilish. Texnologiya, infratuzilma va bozor salohiyati jihatidan ko'p qavatli yashil fermer xo'jaliklarining maqsadga muvofiqligini baholang.

- Mos joylarni aniqlash: O'zbekistondagi iqlim sharoiti, suv resurslaridan foydalanish imkoniyati, transport infratuzilmasi va bozorlarga yaqin hududlarni aniqlash. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun davlat tomonidan rag'batlantiriladigan hududlarni ko'rib chiqing [3].

- Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish: ko'p qavatli yashil fermer xo'jaliklarini tashkil etishdan manfaatdor bo'lgan xorijiy investorlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish uchun O'zbekiston hukumati bilan hamkorlik qilish. Bunga soliq imtiyozlari, er subsidiyalari va tartibga solishning soddalashtirilgan jarayonlari kirishi mumkin.

- Hamkorlikni rivojlantirish: xalqaro investorlar, qishloq xo'jaligi texnologiyalari kompaniyalari va vertikal dehqonchilik va issiqxona texnologiyalari bo'yicha mutaxassislar bilan hamkorlikni rivojlantirish. Loyihani ishlab chiqish va amalga oshirish uchun ularning tajribasi, kapitali va tarmoqlaridan foydalaning.

•Texnologiya va infratuzilmani rivojlantirish: gidroponik yoki aeroponik tizimlar, LED yoritgichlar, iqlim nazorati tizimlari va avtomatlashtirishni o'z ichiga olgan eng zamonaviy vertikal dehqonchilik texnologiyasiga sarmoya kiriting. Ko'p qavatli issiqxona inshootlari, suv ta'minoti tizimlari va energiya manbalari kabi zarur infratuzilmani rivojlantirish.

•O'qitish va salohiyatni oshirish: mahalliy fermerlar va ishchilarga vertikal dehqonchilik ishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikma va bilimlar bilan jihozlash uchun o'quv dasturlari va texnik yordam ko'rsatish. Bu ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini yaratadi va qishloq xo'jaligi innovatsiyalarida mahalliy salohiyatni oshiradi [1].

•Bozorga kirish va tarqatish kanallari: mahsulotlarni ichki va xalqaro bozorlarga samarali taqsimlashni ta'minlash uchun mahalliy chakana sotuvchilar, ulgurji sotuvchilar va eksport kanallari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish. Mahsulotning jozibadorligi va sotuvchanligini oshirish uchun qo'shimcha qiymatni qayta ishlash va qadoqlash imkoniyatlarini o'rganing.

•Ekologik barqarorlik: suvni tejash, qayta tiklanadigan energiyadan foydalanish va chiqindilarni boshqarish strategiyasi kabi atrof-muhitga ta'sirini minimallashtirish uchun barqaror dehqonchilik amaliyotini joriy etish. Loyihani ekologik toza qishloq xo'jaligida etakchi sifatida joylashtiring.

•Rag'batlantirish va Marketing: mahalliy va xalqaro miqyosda ko'p qavatli yashil fermer xo'jaliklarining afzalliklari to'g'risida xabardorlikni oshirish uchun marketing kampaniyalarini boshlang. Iste'molchilar va xaridorlarni jalb qilish uchun mahsulotning sifati, yangiligi va barqarorligini ta'kidlang.

•Monitoring va baholash: ko'p qavatli yashil fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish samaradorligi, rentabelligi, atrof-muhitga ta'siri va ijtimoiy-iqtisodiy foydalari bo'yicha ish faoliyatini kuzatish uchun mustahkam monitoring va baholash tizimlarini yaratish. Operatsiyalarni doimiy ravishda yaxshilash va optimallashtirish uchun ushbu ma'lumotlardan foydalaning [2].

Ushbu qadamlarni amalga oshirish orqali O'zbekiston o'z hududlarida ko'p qavatli yashil fermer xo'jaliklarini tashkil etish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini yaratish, oziq-ovqat xavfsizligi va barqarorligini oshirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilishi mumkin.

Ko'p qavatli yashil dehqonchilikning afzalliklari aniq bo'lsa-da, bir nechta muammolarni hal qilish kerak. Bularga yuqori boshlang'ich investitsiya xarajatlari, texnologik to'siqlar va malakali ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyoj kiradi. Bundan tashqari, xorijiy texnologiyalarni mahalliy sharoitga moslashtirish va loyihani amalga oshirishda inklyuzivlikni ta'minlash juda muhimdir. Barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirish siyosati orqali davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va bilim almashish

bo'yicha xalqaro hamkorlik ushbu muammolarni bartaraf etish va O'zbekistonda ko'p qavatli yashil dehqonchilik salohiyatini oshirish uchun juda muhimdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR:

Xulosa qilib aytganda, ko'p qavatli yashil fermer xo'jaliklari O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni ko'paytirish va mintaqaviy rivojlanishga ko'maklashishning barqaror yechimidir. Ushbu potentsialni amalga oshirish uchun siyosatchilar qo'llab-quvvatlovchi qoidalarga ustuvor ahamiyat berishlari, xorijiy sheriklar bilan hamkorlikni rivojlantirishlari va mahalliy iste'dodlarni tayyorlashga mablag sarflashlari kerak. Bundan tashqari, vertikal dehqonchilik amaliyotini muvaffaqiyatli qabul qilish uchun manfaatdor tomonlar o'rtasida xabardorlikni oshirish va jamoalar bilan muloqot qilish juda muhimdir. Innovatsiya va barqarorlikni o'z ichiga olgan holda, O'zbekiston qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish bo'yicha yetakchi o'rinni egallab, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolarni hal eta oladi.

ADABIYOTLAR.

1. Report of the President of the Republic of Uzbekistan, I. A. Karimov at the first session of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan of the second convocation. // "People's Word", January 23, 2000
2. "2014 will be the year of the country's development at high rates, the mobilization of all possibilities, the consistent continuation of a self-justified reform strategy". Report of the President of the Republic of Uzbekistan Islam Karimov at a meeting of the Cabinet of Ministers on the results of socio-economic development in 2013 and the most important priority areas of the economic program for 2014. January 20, 2014 // Popular word. January 21, 2014
3. Rasulov N. Direct foreign investment in the economy of Uzbekistan. // Market, money and credit, № 6, 2000
4. Musurmonkulov M. U. Attracting foreign investment is a powerful stimulus for the development of the economy of Uzbekistan [Text] // Economic Science and Practice: materials of the III Intern. scientific conf. (Chita, April 2014). - Chita: Young Scientist Publishing House, 2014
5. Alisherovna A. T. PROCESSES OF PROCUREMENT OF INVESTMENT PROJECTS //Academia Repository. – 2023. – T. 4. – №. 10. – C. 19-22.

ЎЗБЕКИСТОН ТУРКИЯ МУНОСАБАТЛАРИ (1998-2022 йилларда)

Абдухафизов Абдулазиз Фирдавсович

Ориентал университети Магистранти

Телефон:977140200_

Elektron pochta: aabdulkhafizov.aa@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Ўзбекистон республикаси мустақилликга эришгандан сўнг Туркия ва Ўзбекистон давлатлари муносабатлари ривожланиш босқичлари келтириб ўтилган .

***Калит сўзлар:** Алоқаларнинг совуқлашиши, Андижон воқеаларидан сўнг Ўзбекистон Туркия муносабатлари, Икки давлатнинг ярашуви.*

ABSTRACT

This article cites the stages of development of relations of the states of Turkey and Uzbekistan after the Republic of Uzbekistan achieved independence .

***Keywords:** the cooling of relations, Uzbekistan Turkish relations after the events of Andijan, reconciliation of the two states.*

80 йиллар охири, 90 йиллар бошига келганда Совет Иттифоқининг парчаланиши аниқ бўлиб қолди. 1991 йил 19,20 август кунлари Москвада ҳарбий тўнтариш содир бўлди. Шундай бир чигал вазиятда Марказий Осиё Республикалари бирин кетин ўз мустақиллигини эълон қилди.

1991 йил 31 август куни Ўзбекистон мустақиллигини эълон қилиб, ўз суверенитетини қўлга киритди. Ўзбекистоннинг мустақиллигини биринчи бўлиб Туркия тан олди.

1991 йилда Ўзбекистон Компартияси тугатилиб, унинг ўрнига Ўзбекистон Халқ демократик партияси ташкил этилди. Ўша йилнинг 29 декабрь куни Ўзбекистонда президентлик сайлови бўлиб ўтди. Унда Ўзбекистон Халқ демократик партияси номидан Ислом Каримов, Эрк партияси номидан Муҳаммад Солиҳ иштирок этди. Биринчи президентлик сайловида Ислом Каримов 86 фоиз овоз билан ғалаба қозонди.

Ўзбекистон дастлаб ўз мустақиллигини биринчи бўлиб тан олган Туркия билан жадал суратда ҳамкорлик алоқаларини йўлга қўйди. Ўзбекистон раҳбарияти Туркия давлат тузилишининг дунёвий модели ва бозор иқтисодиётига дарҳол қизиқиш билдирди. Биринчи Президент Ислом Каримов

1991 йил 16 декабрь куни Туркияга расмий ташриф билан борди. Ташриф чоғида Ўзбекистон Республикаси билан Туркия Республикаси ўртасида давлатлараро муносабатларнинг асослари ва мақсадлари тўғрисида ҳамкорлик шартномалари имзоланди. Бу шартномада икки давлат ўртасидаги маънавий ҳамда руҳий яқинлик таъкидланди. Бундан ташқари иқтисодий ва савдо соҳасида ҳамкорлик, маданият, фан, таълим соғлиқни сақлаш, спорт, туризм ва бошқа соҳалар бўйича битимлар имзоланди. Шундан кейин Ўзбекистонда турк мактаблари очилиб, турк бизнеси йўлга қўйилди. Ўзбекистонлик талабалар Туркиядаги университетларда ўқиш имкониятига эга бўлди.

Ислон Каримов Туркияга биринчи ташрифи чоғида шундай деган эди:

"Туркия бизни қўллаб-қувватласа, ўзбекларни ҳеч ким бўйсундира олмайди... Отатурк тамойиллари биз Ўзбекистонда яратмоқчи бўлган ислохотларга тўғри келади. Умид қиламанки, Марказий Осиё давлатлари Туркия йўлидан боради. Мен туркий халқлар бирлигини ёқлайман. Бу бирликни амалга ошириш керак".

1992 йилда икки давлат ўртасидаги муносабатлар янги босқичга кўтарилди. Бунда ўша йили Туркия Бош вазири Сулаймон Демирел Ўзбекистонга ташрифи катта рўл ўйнади. Туркларнинг "Интернет", "Ўзтурк", "Ўзюксал", "Догу илаг", "Язекс", "Бурсель" ва бошқа фирмалари Ўзбекистонда кенг фаолият кўрсата бошлади.

1993 йилнинг апрель ойида Туркия Президенти Тургут Ўзал расмий ташриф билан Ўзбекистонга келди. Бу ташриф икки қардош давлат учун самарали бўлди. "Даромад ва мол-мулкка икки томонлама солиқ солмаслик тўғрисида", "Терроризм, ғайриқонуний қурол ва гиёҳванд моддалар тарқалишига қарши кураш тўғрисида" битимлар ва бошқа ҳужжатлар имзоланди. Ўша йили Ўзбекистонга 240 миллион доллар миқдорида турли товарлар келтирилди.

1998 йилнинг октябрь ойида Ислон Каримов Туркияда 1919-1923 йиллардаги Мустақиллик урушидаги ғалабанинг 75 йиллигига бағишланган байрамда қатнашди.

Алоқаларнинг совуқлашиши.

1993 йилнинг охирига келиб Ўзбекистон-Туркия ўртасидаги муносабатларга "кўз тегди". Икки давлат орасида сиёсий зиддиятлар юзага келди. Хусусан, Туркия ўзбек муҳолифатининг асосий вакили Муҳаммад Солиҳга бошпана берди. Бироқ шунга қарамай 90 йилларнинг охиригача муносабатлар бир текисда кетаётган эди. Ҳатто, Ўзбекистон Коллектив

хавфсизлик шартномаси ташкилоти (КХШТ)дан чиқиб, Туркия Республикаси билан ҳарбий ҳамкорликни йўлга қўя бошлади.

1999 йилда Ўзбекистонда террористик хуружлар бўлиб ўтди. Шундан сўнг Ўзбекистон ҳукумати баъзи шахсларга нисбатан қидирув эълон қилди. Бу шахсларнинг аксари Туркияда эди. Ўзбекистон Туркия ҳукуматидан бу шахсларни беришни сўради. Лекин Туркия Инсон ҳуқуқлари бўйича Европа конвенциясидан келиб чиқиб бу инсонларни беролмади. Чунки Туркия узоқ муддатдан бери Европа Иттифоқига аъзо бўлиш учун жадал суратда ҳаракат қилаётган эди. Агар Туркия Ўзбекистон сўраган инсонларни берганида, айрим мамлакатларнинг нафратига учраши мумкин эди. Шундан сўнг Ўзбекистон ҳукумати Анқарани унинг ички ишларига аралаштиришда ва қонуний бўлмаган муҳолифатни қўллаб-қувватлашда айблай бошлади. 2000 йилда Ўзбекистон Туркиядаги элчисини чақириб олди. Шундан сўнг Ўзбекистондаги турк бизнесига босимлар бошланиб кетди. 2001 йилда мамлакатдаги турк мактаблари тамоман ёпилди.

Андижон воқеаларидан сўнг Ўзбекистон Туркия муносабатлари.

2003 йилда Туркия Бош вазири Режеп Тайип Эрдоған Ўзбекистонга келди. Бироқ шунга қарамай икки давлат муносабатлари совуқлашишда давом этди. ХХИ аср бўсағасида Туркиянинг ички сиёсатда ўзгаришлар рўй бера бошлади.

Ўзбекистон-Туркия муносабатларида кескин пасайиш 2005 йилда содир бўлди. Ўша йили Андижонда террорчиликда айбланган шахсларга нисбатан суд ҳукми эълон қилиниши муносабати билан оммавий тартибсизликлар бўлиб ўтди. Бу воқеалар қандай яқунлангани ўзингизга маълум.

Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Андижон воқеаларини шафқатсизларча бостирган Каримов режимини қоралаб, Ўзбекистонга санкциялар пакетини жорий қилди. Туркия ҳам бунга қўшилди. Анқара Ўзбекистон расмийларини инсон ҳуқуқларини бузганликда айблади. Шундан кейин Туркия президентининг Ўзбекистонга режалаштирилган ташрифи барбод бўлиб, ҳарбий алоқалар узилди. Ўша йили Тошкент Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгашида иштирок этишдан бош тортди ва хавфсизлик нуқтаи назаридан Москва билан яқинлашди.

Ўша вақтда турк бизнеси Ўзбекистон бозорида биринчи навбатда тўқимачилик саноати ва банк секторида жиддий мавқега эга эди.

Туркиялик сиёсий таҳлилчи Хоқон Фиданнинг таъкидлашича, Ўзбекистон айрим масалаларда Туркияни қўллаб-қувватламаган. Булар;

Биринчи – Ислом Каримов туркийзабон давлатлар, жумладан Туркия ўртасида ҳамдўстлик типигаги тузилмани институционализация (муносабатларни маълум меъёрлар ва тартибда ташкил этиш) қилган.

Иккинчи – Ўзбекистон Туркиянинг 1990 йилларда Туркия ва Марказий Осиё ўртасида умумий валюта сифатида турк лираси билан умумий бозор яратиш таклифи қўллаб-қувватламаган.

Учинчи – Ўзбекистон Қорабоғ масаласида бўлгани каби (1991–1994 – йилларда Озарбайжон ва Арманистон ўртасидаги кечган Қорабоғ урушида Туркия Озарбайжонни қўллаган эди) Кипр масаласида ҳам Туркияни қўллаб-қувватламаган.

Буларнинг барчаси Ўзбекистонга ташқи сиёсатда Туркия билан яқинлашиш қийинлигини кўрсатди. Бошқа сиёсатчиларнинг фикрига кўра, Туркия ўзининг мавқеи туфайли туркий мамлакатлар орасида ўзини «Катта оға» дек тута бошлаган.

Шундай тариқа тарихи бир бўлган Ўзбекистон ва Туркия ўртасидаги дўстлик иплари узилди. Бу шуни кўрсатдикки, тарихий ва маданий алоқалар ҳар доим ҳам сиёсий муносабатларни олдиндан белгилаб беролмайди.

Икки давлатнинг ярашуви

2016 йилда Ўзбекистонда ҳокимият трансформацияси юз берди. Шавкат Мирзиёев ҳокимият тепасига келиши билан икки давлат ўртасида ҳамкорликнинг янги босқичи бошланди. 2017 йилнинг октабр ойида Шавкат Мирзиёев президент сифатида илк бор Туркияга ташриф буюрди. Ҳақиқатдан ҳам, бу ташриф Ўзбекистон-Туркия муносабатларида янгича динамизм (ривожланишнинг кучли, тезкор, юқори суръатлари) шаклланди. Чунки 1999 йилдан бери икки давлат раҳбари ўртасида расмий ташрифлар тўхтаб қолган эди.

Учрашувда Туркия президенти Режеп Тайип Эрдоған Ўзбекистон халқ шоири Абдулла Ориповнинг шеърдан бир парча ўқиб, барча ўзбек миллатини ҳаяжонлантирган эди. Шунда **"биз қардош ўлка сифатида Ўзбекистоннинг ҳар томонлама ривожланишини қўллаб-қувватлаймиз"**, — деган эди Эрдоған жаноблари.

Шавкат Мирзиёев ҳам қардош халқларимиз фаровонлиги ва тинчлиги йўлида Ўзбекистон анъанавий дўстлик, ҳар томонлама ва узоқ муддатли ҳамкорликни барча соҳаларда ривожлантириш учун барча куч ва воситаларни сафарбар қилишга тайёр эканини таъкидлаган эди.

2018 йилнинг апрель ойида Режеп Тайип Эрдоған Тошкентга расмий ташриф билан келди. Унга саккизта вазир ва бир ярим минг нафар турк бизнес

вакилларидан иборат делегация ҳамроҳлик қилди. Шунда Шавкат Мирзиёев "Ўзбекистон ота юртингизнинг эшиклари сизлар каби яқин қардошларимиз учун доимо очик. Туркия бизнинг стратегик ҳамкоримиз. Биз шерикчилигимизни янада кенгайтириш ва мустаҳкамлашдан манфаатдормиз. Биз бирлашишимиз шарт. Орамизга қандайдир ишончсизлик ва совуқчилик тушиб қолган эди. Лекин иккимиз бир бўлиб, бу музларни эритдик ва бу муз ҳеч қачон бўлмади", деб таъкидлаган.

Ўшанда томонлар яқин келажакда ўзаро савдо ҳажмини 5 миллиард долларга етказишни келишиб олишган. 2019 йилда Ўзбекистон Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгашига қайтди. Бундан ташқари 2020 йилда Туркия ва Ўзбекистон ўртасида ҳарбий ҳамкорлик тўғрисида шартнома имзоланди.

2022 йилнинг 29,30 март кунлари Туркия президенти Ўзбекистонга расмий ташриф билан келди. Бу сафар Режеб Таййиб Эрдоған халқимизнинг севимли шоири Абдулҳамид Сулаймон Чўлпоннинг турк қардошларимиз шарафига ёзган шеърдан мисол келтириб ўтди.

Икки мамлакат ҳукуматлари, вазирлик ва идоралари даражасида кўп қиррали Ўзбекистон-Туркия ҳамкорлигини янада кенгайтиришга қаратилган 9 та ҳужжат имзоланди. Булар;

- Имтиёзли савдо тўғрисидаги битим;
- Давлат чегаралари орқали товарлар ва транспорт воситаларининг ўтиши ҳақида олдиндан ахборот алмашиш тўғрисидаги баённома;
- Меҳнат ва бандлик соҳасида ҳамкорлик тўғрисидаги англашув меморандуми;
- Суд экспертизаси соҳасида ҳамкорлик меморандуми;
- Қурилиш соҳасида англашув меморандуми;
- Соғлиқни сақлаш вазирликлари ўртасида 2022-2023 йилларга мўлжалланган Ҳаракатлар режаси;
- Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги билан Туркиянинг "Анадолу" агентлиги ўртасида ҳамкорлик битими.

Президент Эрдўған давлат даражасидаги учрашувларни икки йилда бир марта эмас, балки ҳар йили ўтказиш орқали ҳамкорликни янада кучайтиришни истаётганини билдирди. Бундан ташқари "Мудофаа саноатидаги имкониятларимизни сиз билан баҳам кўришга тайёрмиз" – дейди Режеп Тайип Эрдоған.

Хулоса қилиб айтганда, бир вақтлар ишончсизлик сабаб Ўзбекистон-Туркия ўрасига совуқчилик тушиб қолган эди. Бугунги кунга келиб тили бир, дини бир, илдизлари бир бўлган Ўзбекистон ва Туркия муҳим стратегик

шерикка айланди. Стратегик шерикликнинг маъноси шуки, томонлар ўртасида ўзаро ишонч ва қўллаб-қувватлаш юқори даражада эканлигини англатади. Албатта бугунги глобаллашув жараёнида ўзлик жуда муҳим аҳамият касб этади. Ўзбекистон ва Туркия мана шу ўзлик асосида қалин биродарга айланди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. – Тошкент: “Маънавият”, 2008
2. Shodiyeva, S. (2022). БУХОРО ВА ТУРКИЯ ЎРТАСИДАГИ ДИПЛОМАТИК МУНОСАБАТЛАР. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 26(26).
3. Jahongirov, B. (2022). Ўзбекистон ва Туркия муносабатлари. *Science and innovation*, 1(C8), 211-215.

O'RTA OSIYO XALQLARINING ENG QADIMGI CHOLG'ULARI

Xujayeva Nasiba Qarshiboy qizi

ORCID: 0009-0009-8565-6191

E-mail: xojayevanasiba921@gamil.com

O'zbekiston Finlandiya Pedagogika instituti

Amaliy matematika va fizika fakulteti tyutori

ANNOTATSIYA

Maqola qadimda O'rta Osiyo xalqlari tomonidan qo'llanilgan eng qadimiy cholg'u asboblari o'rganishga bag'ishlangan. Muallif mintaqadagi musiqa asboblari tarixi va evolyutsiyasini kuzatish uchun arxeologik topilmalar va yozma manbalarni ko'rib chiqadi. Maqolada turli xil asboblari, jumladan torlar, shamollar, zarbli cholg'ular va idiofonlar muhokama qilinadi. Marosimlar va xalq sayillarida ishlatiladigan asboblarga alohida e'tibor beriladi. Maqolada, shuningdek, Markaziy Osiyoning qadimiy cholg'u asboblari Yaqin Sharq, Hindiston va Xitoy kabi boshqa mintaqalarda musiqa rivojiga ta'siri ham o'rganiladi. Muallif O'rta Osiyo xalqlari cholg'u asboblari ko'plab madaniyatlar musiqa an'analari shakllanishida muhim rol o'ynagan, degan xulosaga keladi. Xulosa qilib aytganda, maqolada qadimiy cholg'u asboblari qimmatli madaniy meros sifatida asrab-avaylash ushbu sohada keyingi tadqiqotlarni olib borishga chaqiradi.

Kalit so'zlar: musiqa, cholg'u asbobi, Sharq, O'rta Osiyo, ijrochilar, sozanda.

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена изучению древнейших инструментов, которыми в древности пользовались народы Средней Азии. Автор рассматривает археологические находки и письменные источники, чтобы проследить историю и эволюцию музыкальных инструментов в регионе. В статье обсуждаются различные инструменты, включая струнные, духовые, ударные и идиофоны. Особое внимание уделяется инструментам, используемым в ритуалах и народных гуляниях. В статье также исследуется влияние древних инструментов Центральной Азии на развитие музыки в других регионах, таких как Ближний Восток, Индия и Китай. Автор приходит к выводу, что инструменты народов Средней Азии сыграли важную роль в формировании музыкальных традиций многих культур. Таким образом, в статье сохранение древних инструментов как ценного культурного наследия призывает к дальнейшим исследованиям в этой области.

Ключевые слова: музыка, инструмент, Восток, Средняя ось

ABSTRACT

The article is devoted to the study of the most ancient instruments used by the peoples of Central Asia in ancient times. The author examines archaeological finds and written sources to observe the history and evolution of musical instruments in the region. The article discusses a variety of instruments, including strings, winds, percussion instruments, and idiophones. Special attention is paid to the tools used in ceremonies and folk sayings. The article also explores the influence of the ancient instruments of Central Asia on the development of music in other regions, such as the Middle East, India and China. The author concludes that the instruments of the peoples of Central Asia played an important role in the formation of musical traditions of many cultures. In conclusion, in the article, the preservation of ancient instruments as a valuable cultural heritage calls for further research in this area.

Keywords: *music, instrument, Oriental, Middle Asi*

KIRISH

Musiqqa insoniyat madaniyatining ajralmas qismidir va uning tarixi ming yillarga borib taqaladi. Sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan Markaziy Osiyoda qadim zamonlardan boshlangan boy va rang-barang musiqqa an'analari mavjud. Arxeologik qazishmalar va yozma manbalar O'rta Osiyo xalqlari hayotida musiqaning qadim zamonlardan buyon muhim o'rin tutganligini ko'rsatadi. Bu hududda topilgan qadimiy musiqqa asboblari bizga o'tmishda mavjud bo'lgan musiqqa madaniyati va texnologiyasi haqida tushuncha beradi.

Ushbu maqolada biz Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy musiqqa asboblarini ularning dizayni, materiallari va akustik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'rganamiz. Shuningdek, biz ularning turli madaniy sharoitlarda qo'llanilishi va boshqa mintaqalarda musiqqa rivojiga ta'sirini muhokama qilamiz.

Markaziy Osiyoning qadimiy cholg'u asboblarini o'rganish nafaqat bu hudud musiqqa madaniyatining boy tarixini ochib beradi, balki madaniy xilma-xillik, turli sivilizatsiyalarning asrlar davomidagi o'zaro ta'siri haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

MAVZU YUZASIDAN ADABIYOTLAR TAHLILI

O'rta Osiyo xalqlari musiqqa madaniyatining qadimiy tarixi doimo cholg'u asboblari bilan bog'liq bo'lib, ularning tasvirlari qoyatosh rasmlari, uy-ro'zg'or buyumlari, hashamatli buyumlar, tasviriy san'at va me'morlik yodgorliklarida qayd etilgan. Markaziy Osiyo respublikalari hududidagi arxeologik topilmalarga ko'ra, mukammal cholg'u asboblari tasvirlari cholg'u asboblari qoldiqlari va cholg'u

musiqasining qadimgi asrlardan to hozirgi kungacha boʻlgan katta tarixiy taraqqiyot jarayonidan dalolat beradi [1].

Mashhur “Qobusnoma” kitobida ham san’at qoidalariga bagʻishlangan alohida bob bor. Zaminimizda olib borilgan tarixiy qazishmalar natijasida topilgan cholgʻu asboblari dutor, surnay, koʻnun, toshga oʻyib ishlangan qoyatosh tasvirlari mamlakatimizda sahna san’ati qadimdan taraqqiy etganidan dalolat beradi. Tuprokkal hududidan topilgan ikkita torli cholgʻu (miloddan avvalgi [^]-III asr) dutor, dombra va kubiz shaklida takomillashtirilgan, demak, ular qadimgi davrga mansub dir [2]. Oʻzbek musiqasi tarixining qimmatli manbalaridan biri Darvish Alining “Musiqqa haqida risolasi”dir. Darvish-Ali tarixiy cholgʻu asboblarni oʻrganadigan cholgʻu asboblari boʻlimi katta qiziqish uygʻotadi. Muallifning yozishicha, rubob sulton Muhammad Xorazmshoh davrida keng tarqalgan [3].

Xalq cholgʻu asboblari uzoq oʻtmishda paydo boʻlgan. Mavjud maʼlumotlarga koʻra, birinchi musiqqa asboblari dunyoda miloddan avvalgi 13-ming yillikda paydo boʻlgan. Birinchi marta zarbli cholgʻu asboblari musiqada paydo boʻlgan. Chunki eng qadimiy asar kuyi bevosita asarning ritmik tuzilishi bilan bogʻliq.

Keyin zarbli asboblar paydo boʻlishi. Ijrochilar ovozsiz ritmni taʼkidlab, zarbli asboblarning taʼsirini kuchaytirdilar. Malumotlarga koʻra Oʻrta Osiya hududiga ham zarbli asboblar Hindistondan kirib kelgan. Keyinchalik xalq hunarmandlari qamish yoki bambukdan marmotlar, hushtaklar, biroz vaqt oʻtgach – nay (boʻylama, koʻndalang, koʻp qavatli), hushtak, boshhoq, chiltor (arp, lira) va sitaralar yasadilar. Vaqt oʻtishi bilan u asboblarda yanada rivojlangan (koʻp qatlamli, shuningdek, zamonaviy koʻp tishli). Keyinchalik torli va torli kamonli cholgʻu asboblari paydo boʻldi. Ular saroy marosimlarida va harbiy yurishlarda ishlatilgan.

Oʻzbek xalq cholgʻu asboblari qadimgi Sharq madaniyatida rivojlangan. Ular koʻp asrlik rivojlanish davomida oʻzlarining xususiyatlarini va tovush tonalligini saqlab qoldilar. Oʻziga xos tuzilishi tufayli nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, gʻijjak, qobuz anʼanaviy shakllarda bizgacha yetib kelgan.

Oʻtgan asrning 30—40-yillarida tashkil etilgan arxeologik ekspeditsiyalar (S.L.Tolstov, V.Avyatkin, Masson va boshqalar rahbarligida) Oʻrta Osiyo madaniyatini, jumladan, xalq cholgʻu asboblarni oʻrganishda qimmatli bilimlarga ega boʻldi. Madaniy yodgorliklar topildi, ularda ijrochilarning cholgʻu asboblari nay, rubobsimon cholgʻu, hozirgi doirani eslatuvchi doʻmbira va shunga oʻxshash cholgʻu asboblari tasvirlangan. Bular Afrosiyob, Tuprokkala, Ayratam (Ayratam frizi deb ataladigan) kabi shaharlarda topilgan sopol idishlardan yasalgan haykalchalardir. Ularda turli cholgʻu asboblari: lavta, tanbur, rubasimon cholgʻu, kanun, ud, rud, shemane, chagʻona, chiltor, nay, burgu, surnai, karnay, doira tasvirlangan.

Xalq cholgʻu asboblari Oʻrta Osiyo aholisi hayoti va ijodiga kirib keldi va insoniyat faoliyatining ajralmas qismiga aylandi. Keng koʻlamdagi xalq marosimlarida, oilaviy bayramlarda qoʻshiq va kuylar ijro etilganini bilamiz. Bayramlar koʻproq yil fasllari bilan bogʻliq. “Navroʻz”, “Lola sayli”, “Xosil fasli”, “Qovun sayli”, “Uzum sayli” kabi mavsumiy bayramlar Markaziy Osiyoda keng tarqalgan.

Bunday ommaviy bayramlarni xalq musiqa ansambllari, xonanda va solistlar, shuningdek, raqqosalarsiz tasavvur qilish qiyin boʻlgan. Bayram va madaniy marosimlarda karnay, surnay, doira, nogʻora va chindul kabi cholgʻu asboblari, zarbli cholgʻu asboblari keng qoʻllanilgan.

Oʻrta asrlar musiqa ijrochilik madaniyatining oʻziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, sozandalar musiqa asboblarining bir nechta turlariga ega boʻlibgina qolmay, balki oʻzlari ham musiqa bastalaganlar. Musiqachilar ham oʻz davrining yetuk sozandalari va shoirlari boʻlgan. Oʻrta asrlarda musiqiy ixtisoslashuv maxsus musiqa ustaxonalarining paydo boʻlishiga olib keldi.

Sharq xalqlari musiqa merosining mugʻom, dasgox, navba, ragʻa kabi eng murakkab toifalari avloddan-avlodga ogʻzaki tarzda oʻtib kelgan. Tarixiy manbalar, mashhur ustalarning fikr-mulohazalari va ilmiy tadqiqotlariga koʻra, XIII-XVIII asrlarda Oʻrta Osiyo, Xuroson va Ozarbayjon xalqlari musiqasida oʻn ikki (duvozd) maqom mavjud boʻlgan.

Hozirgi Qozogʻiston va Oʻrta Osiyo hududida yashagan qadimgi xalqlar eramizdan avvalgi 1-ming yillik oʻrtalaridan boshlab jamoalar tashkil qilib, oʻtroq shahar hayotiga oʻtib, bir qancha davlatlarni vujudga keltirgan. Ulkan hududda chorvachilik bilan shugʻullangan xalqlar mavjudligidan esa Yevropa va Osiyo kesishgan joyda koʻchmanchilar sivilizatsiyasi rivojlanib, oʻziga xos sanʼat va madaniyat vujudga kelgan. Tarixdan maʼlumki, sivilizatsiyalar oʻrtasidagi bunday almashuv va oʻzaro taʼsirlar uzluksiz sodir boʻlgan [6].

Солончаки типичные, луговые и болотные	279	-	141	57	32	19	7	23
Солончаки на коренных породах солони	483	306	7	54	Нет	60	55	Нет
Пески	9329	54	644	7928	48	409	176	70
Итого	24599	7290	2328	10808	125	2541	1203	324

Продуктивность пастбищ в зависимости от почвенных условий различна. Почти полностью отсутствует растительность на такырах, солончаках всякого рода, площадь которых в 991 тыс.га исключается из пастбищного фонда. Таким образом, площадь собственно пастбищных угодий определяется 23608 тыс.га.

Некоторая часть территории пастбищных районов по рельефу и свойствам почв пригодна для поливного земледелия и может рассматриваться как

резервный ирригационный земельный фонд той или иной очереди освоения в зависимости от наличия источников орошения и возможности подачи воды.

Таким образом, Пустынная зона Республики Узбекистана занимает значительную его территории и его земельный фонд по площади составляет 27004 тыс.га.

В пустынной зоне развиты две основные отрасли сельского хозяйства, эта поливное земледелия (2405 тыс.га) и пастбищное животноводства (24599 тыс.га) .

Одним из основных характеристик пустынной зоны Узбекистана это его очень жаркий и засушливый климат с незначительным количеством осадков температура воздуха в котором летом поднимается до +45...50 °С, а поверхность песка раскаляется до 80 °С

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Площадь Узбекистана - Карта почв Узбекистана. http://mapexpert.com.ua/index_ru.php?idif=m_p_9&table=new_post
2. Ўзбекистон Республикаси тупроқ қопламалари атласи. Ўзбекистон Республикаси ер ресурслари, геодезия, картография ва Давлат кадастри кўмитаси, Ташкент, 2010 й. 44 б.
3. Кимберг Н.В. Почвы пустынной зоны Узбекистана. Т.3 Ташкент: Издательство Узбекистан, 1974. –198 с.
4. Почвы Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1975. – 224 с. <http://www.cawater-info.net/books/pochvy-uzb/pages/99.htm>
5. Азизов А.А., Убайдуллаев Г.К., Рашидов А.М. Физико-механические характеристики песчанно-грунтовых деформируемых поверхностей // Современная образовательная наука и психология: Сборник материалов международной научно-практической конференции. – Астана: РНПЦ «Білім-Образование-Education», 2018. – С. 510-514.
6. Азизов А.А., Хужахмедова Х.С. Перекатывания колеса по деформируемой опорной поверхности // Современная образовательная наука и психология: Сборник материалов международной научно-практической конференции. – Астана: РНПЦ«Білім-Образование-Education», 2018. – С. 13-16.
7. Азизов А.А., Кенжаев С.Н., Кодиров Р.Х. Тягово-сцепные свойства колеса с деформируемой опорной поверхностью // Сборник материалов I Международной научно-практической конференции “Актуальные проблемы внедрения инновационной техники и технологий на предприятиях по производству строительных материалов, химической промышленности и в смежных отраслях”. – Фергана: ФерПИ, 24-25 мая 2019. Том 1. –С. 269-272.

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI XX ASR BOSHLARIDA XIVA XONLIGIDA IJTIMOYIY-IQTISODIY VAZIYAT

Qushshaqov Ixtiyor Isroilovich

Oriental universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Xiva xonligida kechgan ijtimoiy ahvol ilmiy jihatdan muhokoma qilinadi. Mavzu obyekt doirasida soʻz yuritilayotgan davrdagi Xiva xonligining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli, soliq va majburiyatlar, Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi sharoitida xonlik va uning aholisi ahvoli tadqiq etiladi.

Kalit soʻzlar. *Kengash, xon, devonbegi, yirik shaharlar, solgʻut, zakot, choʻppuli, oʻtov, "afanak puli", yarimchi.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье научно обсуждается социальная ситуация в Хивинском ханстве в конце XIX - начале XX века. В рамках темы изучается общественно-политическое и экономическое положение Хивинского ханства в рассматриваемый период, налоги и повинности, а также положение ханства и его жителей в условиях колонизации Российской империи.

Ключевые слова. *Кенгаш, хан, деванбеги, большие города, солгут, закят, чоппули, отов, «афанак пули», яримчи.*

ABSTRACT

In this article, the social situation in the Khanate of Khiva at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century is scientifically discussed. The socio-political and economic situation of the Khiva khanate in the period in question, taxes and duties, and the condition of the khanate and its inhabitants under the conditions of the Russian Empire's colonization are studied within the scope of the topic.

Keywords. *Kengash, khan, devanbegi, big cities, solgut, zakat, choppuli, otov, "afanak puli", yarhimchi.*

KIRISH

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Xiva xonligi ustidan Rossiya imperiyasi oʻzining protektorat hududi sifatida qattiq nazorat oʻrnatdi. Xiva xoni ichki va tashqi siyosatda kichik oʻzgarishlarni ham Turkiston general-gubernatori bilan maslahatlashgan tarzda amalga oshira olish huquqiga ega edi. Vaziyat xon ustidan nazorat oʻnatiladigan darajaga yetib bordi. Xususan, Xiva xoni harakatlari ustidan

nazorat qilish maqsadida 7 kishidan iborat Kengash (devon) ta'asis etilib, ularning katta qismi – to'rt nafari podsho hukumati vakillari edi.

Bundan oldin Amudaryoning Xiva xonligi tasarrufida bo'lgan va Gandimiyon shartnomasidan so'ng, Rossiya imperiyasi ixtiyoriga o'tgan o'ng qirg'og'i hududida Turkiston general-gubernatorligining Amudaryo bo'limi tashkil qilingan. Uning boshlig'i ayni mahalda Rossiya imperiyasining Xiva xonligidagi vakili sifatida mamlakatni boshqarishda xonning hamma harakatlari ustidan nazoratni amalga oshirar edi. Xonlik ming yillik tarixga ega va o'zbek xalqining madaniy rivojlanishida muhim rol o'ynagan turkiy urug' – qo'ng'irotlarga mansub sulola vakillari tomonidan boshqarilayotgan monarxiya edi. Qo'ng'irot urug'i siyosiy va ijtimoiy hayotda hamda harbiy sohada xonning suyanchig'i hisoblanardi¹³¹.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xon cheklanmagan ma'muriy-sudlov va harbiy hokimiyatga ega edi. U mamlakatni qo'ng'irot urug'i zodagonlari, saroy a'yonlari va oliy ruhoniylar guruhi madadiga tayanib boshqarardi. Xon hokimiyati o'z xalqi manfaatlaridan ko'ra, ko'proq tor doiradagi amaldorlar manfaatidan kelib chiqib ish olib borar edi.

Xiva xonligida qo'shin xalq qarshilik harakatini bostirish va davlat yaxlitligini saqlash uchun kurash vositasi edi. Bu qo'shin yaxshi uyushmagan, harbiy tartib-intizom bo'sh, nihoyatda sodda qurollangandi. Xonning muntazam qo'shini yasovulboshi boshqaradigan 1,5 ming kishidan iborat edi. Harbiy harakatlar davrida shahar, qishloq va ovullardan xalq lashkari hamda harbiy harakatlarda turkman otliq sipohiylari jamlanardi¹³².

Xonlik ma'muriy jihatdan 20 ta beklik yoki viloyatlarga bo'lingan edi. Ulardan eng yiriklari Hozorasp, Urganch, Qiyot, Ko'hna Urganch, Xo'jayli, Qo'ng'irot hisoblangan. Ularning har biriga xon tomonidan tayinlangan bek yoki hokim rahbarlik qilar edi. Xonlikda ikkita kichik viloyatlar ham bo'lib, ularni xon noiblari boshqarardi. Xiva shahri va uning tevaragi bevosita xonning tasarrufida bo'lgan. Mavjud boshqaruv apparatidagi mansabdor shaxslar dehqon va hunarmandlardan yig'iladigan soliqlar hisobidan kun kechirar edi¹³³.

Mehtar (bosh vazir) va devonbegi (devonxona mutasaddisi) xonning oliy amaldorlari va yaqin maslahatchisi bo'lishgan. Xonlikdagi sudlov tizimida hokimiyatga qarshi arzimagan qilmish uchun ham o'lim jazosi qo'llanilar edi.

Islom dini ruhoniylari mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy hayotda katta ta'sirga ega edi. Xiva Buxorodan keyingi islom dini markazlaridan biri sanalardi. Shaharda 160

¹³¹ Tillaboyev S., Zamonov A. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: "Sharq", 2014. – B. 119.

¹³² Йўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер эгаллиги ва давлат тузилиши. –Т.:Ўздавнашр, 1959. –Б. 95.

¹³³ Tillaboyev S., Zamonov A. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: "Sharq", 2014. – B. 119.

dan ortiq masjid va dindorlarning qadamjosiga aylangan 60 dan ziyod avliyoning dahmasi mavjud bo'lgan. Mamlakatda 1,5 mingga yaqin maktablar faoliyat yuritdi. Bu maktabni bitirgan talabalarning ayrimlari oliy (madrasa) o'quv yurtida o'qishni davom ettirib, 10 yilgacha ta'lim olishardi. Bunda asosiy fanlar sifatida arab grammatikasi, islom huquqi va falsafasi, shuningdek, qo'shimcha ravishda elementar arifmetika va geometriya o'qitilardi. Madrasa talabalari imtihon sinovlari topshirganlaridan so'ng bo'shab qolgan qozilik, imomlik yoki boshqa bir nufuzli lavozimlarni egallashlari mumkin edi¹³⁴.

Yer davlat boyligining birlamchi omilidir. Bu boylik dehqonlar mehnati evaziga qo'lga kiritiladi. Dehqonlar mehnati yer unumdorligini oshirish va ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan. Bu borada Xiva xonligi dehqonlari ham mirishkor edilar. Xonlikda g'alla yetishtirish qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i bo'lib, asosan sholi, jo'xori hamda suli ko'plab yetishtirilardi. XIX asrning 90-yillaridan boshlab Rossiya bilan savdo-sotiqning rivojlanishi natijasida paxta yetishtirishga ixtisoslashuv ham jadal kechdi¹³⁵.

Xonlikdagi yerlarning asosiy qismi xon va uning amaldorlariga tegishli edi. Amaldor va a'yonlarga haq sifatida Xiva xonlari ularga davlat yerlari hisobidan ehsonlar qilishardi. Bundan tashqari, xon va uning amaldorlari, qarindoshlari soliqlardan ozod etilgandi¹³⁶.

Yer maydonlarining katta qismi diniy muassasalar tasarrufida bo'lib, xonlikdagi jami sug'oriladigan yerlarning 40% i masjidlar mulki hisoblangan. Xususan, 64 ta masjid va madrasa 19-asrning oxirgi choragida 205 ming tanobdan ziyod yerga egalik qilgan. Bu xonlarning dindorlarga nisbatan hurmat va izzatining ifodasi ham edi. Xususan, vaqf yerlari va 19-asrning oxirida qariyb 4 ming ruhoniylar oilasi barcha soliqlardan ozod etilgandi¹³⁷.

1873-yildan so'ng hosildor yerlarning katta qismi Rossiya tasarrufiga o'tishi oqibatida xonlik ma'muriyati sarf-xarajatlarga bo'lgan ehtiyojni yangi soliqlarni joriy etish yoki ilgari mavjud bo'lganlarini oshirish yo'li bilan qoplay boshladi. Xiva xonligida turli majburiyatlar, doimiy yoki favqulodda soliqlarning qariyb 25 turi mavjud bo'lgan. Dehqonlar **solg'ut** - yer solig'i, **zakot**, **cho'ppuli** - o'tloqlardan foydalanganlik uchun soliq, turar joylardan **o'tov** solig'i kabilarni to'lashgan.

Bunday soliqlardan tashqari, dehqonlar turli-tuman majburiyatlarni ham bajarishgan. Bu majburiyatlar orasida sug'orish tizimini ta'minlash, yangilarini barpo etish eng og'iri edi. Xiva dehqonlari har yili kanallarni tozalashga, ko'tarmalarni

¹³⁴ Садиков А. Экономические связи Хивы с Россией. – Ташкент, 1986. – С. 28.

¹³⁵ Йўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер эгаллиги ва давлат тузилиши. –Т.:Ўздавнашр, 1959. – Б. 95.

¹³⁶ Кушхонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва уракатлар (XIX аср иккинчи ярми - XX аср биринчи чораги). – Тошкент, 2007. – Б. 251.

¹³⁷ Tillaboyev S., Zamonov A. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: "Sharq", 2014. – B. 120.

qurish va qayta tiklashga, to'g'onlar va ko'priklarni ta'mirlashga chiqardi. Bu ishlarga dehqonlar o'z ish qurollari va oziq-ovqati bilan kelardi. Majburiy ishga chiqmaganlar esa muayyan miqdordagi mablag'ni xazinaga to'lashlari shart bo'lgan. Xon farmonlarini e'lon qiluvchi jarchi o'z foydasiga "afanak puli" yig'gan bo'lsa, ishlar nazoratchisi va mutasaddisi ham o'z ulushini olishga harakat qilgan¹³⁸.

Dehqonlar aholining 90% ga yaqinini tashkil etsalar-da, sug'oriladigan yerlarning atigi 5% iga egalik qilishardi. Yersiz va kam yerli dehqonlar esa yirik zamindorlarning va vaqf yerlarida ijarachi sifatida ishlab berishardi. Dehqonlar ulushbay yoki hosilning teng yarmi hisobiga mehnat qilishgan. Ishlar yakunlanganidan keyin odatda yer egasiga hosilning 40-50% i berilgan. Teng yarmiga ishlovchilar esa yarimchilar deb atalgan. Yeri ham, asbob-uskunalari ham, ish hayvoni ham bo'lmagan dehqonlar esa zamindorlar qo'lida turli shartlarga ko'nib ishlashga majbur edilar. Qarzdor dehqonlar o'z qarzlarini uzish uchun ma'lum vaqt davomida tekin ishlab berishlari lozim edi¹³⁹.

Shu zayilda xonlikda yersiz dehqonlar soni yildan yilga o'sib borardi. Ular xonlar, beklar va ularning amaldorlariga tobora qaram bo'lib borishardi. Bu jarayonlarning barchasi Xiva xonligining umumiy iqtisodiy va ijtimoiy ahvoriga o'z salbiy ta'sirini o'tkazdi

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida uy hunarmandchilik ishlab chiqarishi hanuz saqlanib kelayotgan edi. Unda ip yigirish va to'quvchilik, oyoq kiyimlari, gilamlar, kigizlar va hokazolar tayyorlanardi. Har bir dehqon xo'jaligi yordamchi daromad manbasi bo'lgan uy hunarmandchiligi bilan shug'ullanardi. Deyarli har bir qishloqda ko'nchi, etikchi, bo'zchi, bo'yoqchi, juvozchi va boshqalar faoliyat ko'rsatishgan. Hunarmandlar o'z hamqishloqlaridan buyurtmalar olib ishlashar va tayyorlangan buyumlari uchun natura tarzida, mahsulot yoki pul bilan haq olishardi. Ulardan ba'zilari bevosita mahalliy bozorlardagi ustaxonalarda mehnat qilishardi.

O'rta Osiyoning Rossiya, qozoq juzlari, Kavkaz, Eron bilan savdo munosabatlari rivojlanishi ichki savdo-sotiqni jonlantirdi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi tovar-pul munosabatlarining shitob bilan o'sishiga imkoniyat yaratdi. Shaharlarning qishloqlarga nisbatan jadal rivojlanishi yangi shaharlarni vujudga keltirdi va eskilarining rivojlanish jarayonini tezlashtirdi. Bu mamlakat iqtisodiy hayotida shaharlarning ahamiyati ortishiga olib keldi. 20-asr boshlariga kelib Xiva, Yangi Urganch, Qo'ng'iroq, Toshhovuz, Gurlan, Buxoro, Termiz, Chorjo'y, Kogon

¹³⁸ Кушжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва уракатлар (XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr birinchi choragi). – Toshkent, 2007. – B. 251.

¹³⁹ Tillaboyev S., Zamonov A. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: "Sharq", 2014. – B. 121.

singari shaharlar ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markazlarga aylandi. Bog‘ot, Mo‘ynoq, Taxta singari yangi shaharlar vujudga keldi¹⁴⁰.

Ushbu shaharlarda mahalliy va Rossiya qo‘shma korxonalarining idoralari, omborlari, sanoat korxonalari joylashgan edi. Masalan, Yangi Urganch shahrida o‘n bitta paxta tozalash zavodi (ulardan oltitasi mahalliy tadbirkorlarga tegishli edi), ikkita yog‘ zavodi, sovun va ko‘n zavodi, bitta tegirmon bo‘lgan. Bundan tashqari, Yangi Urganchda Rossiya-Osiyo va Sibir savdo bankining bo‘limlari, pochta-telegraf idorasi, komission va sug‘urta jamiyatlarining vakolatxonalari ochilgan edi. Gurlanda ham rossiyaliklarga, ham mahalliy sarmoyadorlarga tegishli kapital jamlangan edi. Bu shaharda asosan paxtani tashib ketish bilan shug‘ullangan Rossiya savdogarlarining 10 ta idorasi va mahalliy tadbirkorlar aka-uka Rizaevlar, P.A.Manuilov, S.Maksum, S.Tojiniyozov, T.Solijonov va boshqalarning jami 9 ta paxta tozalash zavodlari joylashgandi. 1909-yilga kelib Xiva xonligida 81 ta sanoat korxonasi ishlayotgan edi. Sanoat shakllanishi 1910-1915-yillarda yanada jadallashib, kerosin va neft bilan ishlaydigan 40 ta sanoat korxonasi barpo etildi. 1917-yilda Buxoro amirligida 92 ta sanoat korxonasi bo‘lgan¹⁴¹.

Turkiston o‘lkasining mustamlakaga aylanishi jarayonida Rossiya imperiyasi va mahalliy kapital hamkorligi vujudga keldi. Mahalliy tadbirkorlar faoliyati, milliy kapital namoyandalarining sarmoyalari daromadi Rossiya bozori mahsulotlariga bevosita bog‘langan edi. Ular ikki davlat o‘rtasida bozor munosabatlarini rivojlantirish uchun qo‘shma bank uyushmalari tuzishga harakat qilishdi. 1909-yilda Rossiya-Osiyo banki va Madiyorov-Baqqolov kapitalini birlashtirgan «A-Meta» sindikati tashkil qilindi. Sindikat har yili Rossiyaga qariyb 3 ming tonna paxta xomashyosi eksport qilardi va beda urug‘i sotib olish bo‘yicha yakkahukmronlikni o‘rnatgandi. Rossiya kapitali o‘z protektorati bo‘lgan Xiva xonligida o‘zi uchun zaruriy xom-ashyo bazasini yaratdi. Bu yerdagi ishchi kuchining arzonligi va 1873-yildagi Gandimiyon shartnomasi bandlariga ko‘ra, mahalliy bozorda monopol mavqeyi hisobidan ulkan daromad olish faollashdi¹⁴².

Rossiya kapitali amaliyotlari tufayli O‘rta Osiyoda ichki bozor imkoniyatlari ancha kengaydi. Tovar-pul munosabatlari rivojlanib, uning asosida yangi savdo-sanoat markazlari shakllandi. Mayda savdogarlar choy, manufaktura mahsulotlari, shakar, samovar kabi taqchil tovarlarni hatto eng olis qishloqlarga ham olib borib sotardilar. Sanoatning bir yoqlama va sust rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotida yetakchi hunarmand-kasanachilik ishlab chiqarishining salmog‘i nisbatining saqlanib

¹⁴⁰ Кушжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва уракатлар (XIX аср иккинчи ярми - XX аср биринчи чораги). – Тошкент, 2007. – Б. 251.

¹⁴¹ Садиков А. Экономические связи Хивы с Россией. – Ташкент, 1986. – С. 28.

¹⁴² Йўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер эгаллиги ва давлат тузилиши. – Т.:Ўздавнашр, 1959. – Б.98.

qolishiga olib keldi. Mahalliy hunarmandlarning mahsulotlari mamlakat hududidan tashqarida yuqori baholangan. Chunki bu mahsulotlar qadimiy boy hunarmandchilik ishlab chiqarishi an'analari asosida tayyorlanardi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayrim tumanlar hunarmandchilik ishlab chiqarishining u yoki bu sohasiga ixtisoslashuvi jarayoni kuzatildi. Metallni qayta ishlovchi asosiy ustaxonalar Buxoro, Xiva, Yangi Urganch, Chimboy, Hazorasp shaharlarida joylashgan edi. Bu yerda ketmonlar, omoch tishi, belkuraklar, boltalar, taqalar, idish-tovoqlar va hokazolar yasalardi. Ko'nychilik ishlab chiqarishi esa Buxoro, Xiva, Xonqa, Yangi Urganch, Xo'jayli va boshqa markazlarda rivojlangan edi. Qoplar va arqonlar asosan Yangi Urganchda tayyorlangan. Gilam va kigizlar Porsu, Alieli, Ko'hna Urganch, G'azovot kabi hunarmandchilik maskanlarida ishlab chiqarilardi. Ayni mahalda O'rta Osiyoning deyarli barcha shaharlarida to'qimachilik, sopol idishlar va zargarlik buyumlari yasash rivojlangan edi¹⁴³.

1885-yilda Kaspiyorti temiryo'lining qurilishi va 1887-yil oxirlarida Amudaryo flotiliyasining ta'sis etilishi Rossiyaga qaramlikni yanada kuchaytirdi. Avval savdo-sotiq asosan quruqlikdagi karvon yo'llari orqali olib borilgan bo'lsa, endilikda yuklarning katta qismi temiryo'l orqali va paroxodlar bilan Amudaryoning yuqori oqimi bo'ylab tashiladigan bo'ldi. Bu kabi yangiliklar Rossiya imperiyasi foydasiga xizmat qilib, unga mustamlaka bo'lgan davlatning qoloqligiga, qolaversa, hunarmandchilik ishlab chiqarishi bir qator tarmoqlarining inqiroziga olib kelardi.

Iqtisodiyot sohasidagi davlat siyosati ham hunarmandchilik ishlab chiqarishi rivojiga salbiy ta'sir yetkazdi. Xonlik va mahalliy hokimiyat hunarmandlarni har xil soliqlarga ko'mib tashladi. Har bir hunarmandchilik ustaxonalarining egalari amaldorlarga sovg'alar taqdim etishi, daromadlariga mos kelmaydigan soliqlarni to'lashlari lozim edi. Natijada hunarmandlar o'z ishlab chiqarishini ko'paytirishga va yangi texnologiyalarni joriy qilishga qodir bo'lmay qolar edi¹⁴⁴.

XULOSA

Kasanachilikda sex birlashmalari o'rta asrlardagi ko'rinishda saqlanib qoldi. Sex birlashmalariga hunarmandlar kasblariga ko'ra uyushgan edilar. Unga usta, xalfa va shogird kirar edi. Kredit berib turgan boy sexga rahbarlik qilar edi. Hunarmandlar ishlab topgan pullarining anchagina qismini avliyolar va ma'naviy ustozlar sharafiga xayr-ehsonga berishar, xazinaga ko'pdan ko'p soliqlar to'lashardi. Xalfa va shogirdlar ahvoli og'ir bo'lib, ularning ish kuni cheklanmagan edi. Xalfa olgan

¹⁴³ Tillaboyev S., Zamonov A. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: “Sharq”, 2014. – B. 122.

¹⁴⁴ Кушжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва уракатлар (XIX аср иккинчи ярми - XX аср биринчи чораги). – Тошкент, 2007. – Б. 251.

bo‘lagi (avans) evaziga ishlab berishga majbur edi. Olgan avansning hammasini to‘lamaguncha ustaxonadan keta olmas edi.

Rossiya imperiyasidan arzon narxlardagi sanoat tovarlarining kirib kelishining ko‘payishi mahalliy korxonalarining buyumlariga talabni pasaytirdi. Mahalliy matolar, iplar, kulolchilik, cho‘yan va misdan yasalgan buyumlar ba‘zi turlarining ishlab chiqarilishi keskin kamayishiga olib keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tillaboyev S., Zamonov A. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: “Sharq”, 2014. – 158 b.
2. Йўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер эгаллиги ва давлат тузилиши. – Т.:Ўздавнашр, 1959. – 196 б.
3. Кушжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва уракатлар (XIX аср иккинчи ярми - XX аср биринчи чораги). – Тошкент, 2007. – 372 б.
4. Садиков А. Экономические связи Хивы с Россией. – Ташкент, 1986. – 220 с.
5. Rahmanov, A. (2022). SHARQ RENESSANSI DAVRI GUMANIZMINING GNOSEOLOGIK VA ONTOLOGIK ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 668-674.
6. Ergashevich, R. A. (2022). Socio-philosophical significance of the concept of national state sovereignty. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(3), 49-51.
7. Ergashevich, R. A. (2023). TASAVVUF FALSAFASI TARIXIDA NAQSHBANDIYLIK TA’LIMOTINING O‘RNI. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 15, 212-219.
8. Ergashevich, R. A. (2024). THE IDEA OF LIBERALISM IN THE HISTORY OF SOCIOPOLITICAL THOUGHTS.

GLOBAL IQLIM O'ZGARISHINING OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI

Shukurov Alisher Ne'matullaevich

Mustaqil izlanuvchi

a.shukurov@agro.uz

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada global iqlim o'zgarishining oziq-ovqat xavfsizligiga ta'siri haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish haqida aytiladi.

Kalit so'zlar: Agroekologik, resurs, global, emessiya, agrotexnologiya, diversifikatsiya, ekvivalent, bug'lanish, investitsiya, irrigatsiya, iqlim inqirozi.

АННОТАЦИЯ

В этой статье рассматривается влияние глобального изменения климата на продовольственную безопасность. Также говорится о стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан и рациональном использовании природных ресурсов и охране окружающей среды.

Ключевые слова: агроэкология, ресурс, глобальный, выбросы, агротехнологии, дивертификация, эквивалент, испарение, инвестиции, ирригация, климатический кризис.

ABSTRACT

This article discusses the impact of global climate change on food security. It is also said about the strategy of agricultural development of the Republic of Uzbekistan and the rational use of Natural Resources and the protection of the environment.

Keywords: agroecological, resource, global, emessionary, agrotechlogia, diversification, equivalent, evaporation, investment, irrigation, climate crisis.

KIRISH

Iqlim o'zgarishi va agroekologik muammolarning ortiq borishi keng tarqalayotgan global muammolardan biri bo'lmoqda. Buning natijasida yana bir qancha global muammolar, jumladan, oziq-ovqat inqirozi vujudga kelish xavfi ortib bormoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda yer sayyorasida global isish, kuchli shamol, qurg'oqchilik, suv toshqinlari va yong'inlar yanada ko'proq sodir bo'la boshladi, muzliklar erishi kuchaydi. Bu kabi iqlim o'zgarishlari bir qator salbiy oqibatlariga olib kelmoqda.

Shuningdek, harorat ko'tarilishi natijasida suvning bug'lanish koeffitsenti oshishi hududlarda suv resurslari kamayishiga, tanqisligiga ta'sir etmoqda. Ekologik tanglik oqibatida yil davomida umuman yog'ingarchilik bo'lmagan kunlar soni ko'paymoqda. Tuproqning namligi kamayishi hisobiga takroriy qurg'oqchilik xavfi ortmoqda va hosildorlik ko'rsatkichlari tushib ketmoqda. Atmosfera havosida katta maydonlarda changlanish ortmoqda. Isish va sovish kabi anomal hodisalarning o'zgarishi qishloq xo'jaligi mahsulotlari va mevalarning nobud bo'lishiga olib kelayapti.

Dunyo eng yomon iqlim inqirozida deyarli 2 milliard ko'proq odamni to'yib ovqatlanmaslik yoki ochlikka olib kelishi mumkin bo'lgan tez o'sib borayotgan oziq-ovqat narxlarining yangi davriga duch kelmoqda, ammo klasterlar, fermerlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar bo'sh o'tirishmayapti iqlim o'zgarishiga moslashishga harakat qilmoqdalar.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining hisob-kitoblariga ko'ra, kelgusi o'n yilliklarda oziq-ovqatga bo'lgan talab 50 foizga oshishi kutilayotgan bo'lsa ham, iqlim o'zgarishi sababli global hosildorlik yangi agrotexnologiyalarsiz 30 foizga kamayishi mumkin.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi issiqxona gazlari emissiyasi bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi. 2017 yilda u mamlakatdagi umumiy issiqxona gazlari emissiyasining 17,8 foizini, ya'ni 33,7 million tonna CO₂ ekvivalentini tashkil etadi.

Metan emissiyasi (qishloq xo'jaligidagi umumiy emissiyaning 62,7 foizi) issiqxona gazlari ekvivalenti asosida o'lchanadigan azot oksidi emissiyasidan (37,3 foiz) sezilarli darajada yuqori. Qishloq xo'jaligi sohasining emissiyasi quyidagilardan kelib chiqadi:

chorvachilik va sholi etishtirish fermentatsiyasidan metan emissiyasi; go'ng bilan bog'liq faoliyatni boshqarishda metan va azot oksidi emissiyasi;

- azotli o'g'itlar va go'ngni kiritish natijasida boshqariladigan tuproqlardan azot oksidi emissiyasi, o'simlik qoldiqlarining parchalanishi va boshqalarni o'z ichiga qamrab oladi.

2020-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi mamlakatning irrigatsiya va suv xo'jaligiga bog'liqligi yuqori bo'lgan yo'nalishlarda iqlim o'zgarishiga moslashitirish chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlash; davlat boshqaruvining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish, sohani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish, ilm-fan, ta'lim, qishloq xo'jaligida axborot va maslahat

xizmatlari tizimini rivojlantirish, qishloqlarni rivojlantirish, tarmoq statistikasining shaffof tizimini rivojlantirish zarur bo‘lmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Iqlim o‘zgarishi va uning oqibatlarini yumshatish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash uchun barvaqt kiritiladigan va keng qamrovli investitsiyalarning asosiligi hamda iqlimning salbiy oqibatlariga moslashuvchanligi bo‘yicha xalqaro moliya institutlaridan 2023-2027 yillarda 300 million dollar grant mablag‘lari jalb etilishi rejalashtirilgan.

Grant mablag‘larini yaratadigan donorlar bular yashil iqlim jamg‘arma, Yevropa Ittifoqi, Birlashgan millatlar tashkilotining oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti FAO, Birlashgan millatlar tashkiloti taraqqiyot dasturi, Germaniya xalqaro hamkorlik tashkiloti, Global ekologik jamg‘arma, Qishloq xo‘jaligi taraqqiyot jamg‘armasi tomonidan grant mablag‘larini ajratish bo‘yicha kelishuvga erishilgan.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytganda, O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish va iqlim o‘zgarishiga moslashishni milliy va mahalliy miqyoslarda rejalashtirish va byudjetlashtirish jarayonlariga integratsiya qilish uchun institutsional va texnik salohiyatni kuchaytirishga qaratilgan Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha strategiya va Milliy moslashish rejasi hali ishlab chiqilmagan va tasdiqlanmagan.

Iqlim o‘zgarishi va atmosfera havosi tabiiy resurslarning tarkibiy qismi bo‘lib, u umummilliy bo‘ylik hisoblanadi hamda davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Bunday sharoitda yoshlarning atmosfera havosini yaxshilash va himoya qilish texnologiyalarini chuqur o‘rganishi, ularni amaliyotga tatbiq qilishi bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lishi hozirgi global va mintaqaviy ekologik tahdidlar sharoitida o‘ta muhim hisoblanadi.

Shuningdek, ta’sirni yumshatish va unga moslashish choralari orqali uglerod emissiyasini sof nolga teng maqsadlarga erishishning ustuvor yo‘nalishlari va vositalarini yo‘naltirish maqsadida Hukumat 2050 yilga mo‘ljallangan "karbonsizlantirish" (qazib olinadigan yoqilg‘idan voz kechish) bo‘yicha uzoq muddatli strategiyani taqdim qilishi kerak.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 31 maydagi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish

chora-tadbirlari

to'g'risidagi

PQ-171-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/6479134>.

2. Iqlim o'zgarishi sohasida davlat xarajatlari va institutsional tahlili milliy hisoboti. 2023 yil. Toshkent – 97 bet.

3. Before it's here, it's on the Bloomberg Terminal LEARN MORE. 2021 u.

4. 'M. Oppenheimer. Oppenheimer' offers a timely warning on the dangers. The Times of Israel. 8.08.2023 y.

5. Xalq so'zi gazetasi. Iqlim o'zgarishining oldini olish uchun nimalar qilish kerak. 15.05.2020 yil.

“MUNTAXAB AT-TAVORIX” ASARI TARIXIY MANBA SIFATIDA

Omonboyeva Shodiya

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistranti

+998951552444

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XIX asr ikkinchi yarmigacha bo‘lgan davrda O‘rta Osiyo xonliklari tarixini yoritishda Muhammad Hakimxon To‘raning “Muntaxab at-tavorix” asarining ahamiyati va asardagi qimmatli ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan. Asarning o‘rganilish tadqiqotlari ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *Muhammad Hakimxon To‘ra, Muntaxab at-tavorix, Shodmon Vohidov, Buxoro amirligi, Qo‘qon xonligi, Enver Hurshut, Haydarbek Bobobekov.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье приводится значение работы Мухаммада Хакимана Туры “Мунтахаб ат-Таварих” в освещении истории среднеазиатских ханств в период до второй половины XIX века и ценные сведения, содержащиеся в работе. Исследование работы также было освещено.

Ключевые слова: *Мухаммад Хакимхан тура, Мунтахаб ат таварих, Шодмон Вахидов, Бухарский эмират, Кокандское ханство, Энвер Хуршут, Хайдарбек Бобобеков.*

ABSTRACT

In this article, the significance of the work “Muntakhab-ut-Tawarikh” by Mohammad Hakim Khan and valuable information in the work in its coverage of the history of the khanates of Central Asia in the period up to the second half of the 19th century. The studies of the work is also covered.

Key words: *Mohammad Hakim Khan, Muntakhab-ut-Tawarikh, Shodman Vokhidov, emirate of Bukhara, Khanate of Kokand, Enver Khurshut, Khaydarbek Bobobekov.*

KIRISH

XIX asrgacha O‘rta Osiyo ko‘plab ijtimoiy-siyosiy voqealarga va hukmdorlar almashinuviga guvoh bo‘ldi. Bu davrlardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, hukmron sulolalar, harbiy yurishlar, siyosiy aloqalar va madaniy hayot haqida juda ko‘plab asarlar yozildi. Shunday asarlardan biri tarixchi Muhammad Hamkimxon To‘raning “Muntaxab at-tavorix” asaridir. Asar fors tilida yozilgan va tarixchilar tomonidan o‘zbek tiliga o‘girilgan. Asardagi ko‘plab ma‘lumotlar va tarixiy ma‘lumotlat muallifning o‘zi qatnashgan hamda guvoh bo‘lgan voqea-hodislarga tayanadi. Asar 5

bobdan iborat hisoblanib, aynan so'nggi bobida O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan sulolalar safforiylar, somoniylar sulolasi. ol bo'ya hukmronligi. g'aznaviylar. saljuqiylar. xorazmshohlar saltanati, chingiz va chingiziylar xonadoni. temuriylar. shayboniylar. ashtarxoniyalar. mang'itlar sulolasi, minglar sulolasi keng yoritib berilgan. Asarning yana bir ahamiyati hukmdorlarning shaxsiyatlarini, shu davrda yashagan aholining turmush sharoitlari, jang tasvirlari to'g'risida ham ma'lumot keltirib o'tilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

“Muntaxab-at-tavorix” nodir tarixiy, adabiy, geografik asar bo'lib, ensiklopedik xarakterga ega. Shuning uchun ham mazkur asar turli soha mutaxassislari e'tiborini jalb qilgan. Muhammad Hakimxon asarida keltirilgan ma'lumotlar tarixshunoslar, sharqshunoslar, adabiyotshunoslar, geograflar tomonidan ilmiy tadqiqotlar jarayonida keng foydalanilgan. O'zbekistonda mashhur olim Enver Xurshut tomonidan “Muntaxab at-tavorix” maxsus o'rganilgan. E. Xurshut o'z tadqiqotlarida asarning nusxalari, uning manbalari, tarixiy va adabiy manba sifatidagi ahamiyati, memuar janrdagi nodir asar ekani va asar muallifi sayohatlarini keng tahlil qilgan[1;41-45].

Qo'qon xonligi tarixi bo'yicha yirik mutaxassis akademik Haydarbek Bobobekov xonlik tarixiga oid asarlarida Muhammad Hakimxonning shaxsiyati, “Muntaxab at – tavorix”ning ilmiy ahamiyati, XIX asr Qo'qon tarixshunoslik doirasida tutgan o'rni haqida ma'lumot beradi. H. Bobobekoning ta'kidlashicha bu asar o'zining janri bo'yicha o'ziga xos uch janrni mujassamlashtirgan: jahon tarixi, lokal (mahalliy) tarix va memuar (esdaliklar). Asar rejasiga ko'ra tipik jahon tarixidir[2;176].

Yo'lchi Qosimov ham o'z asarida “Muntaxab at-tavorix”-ning Qo'qon xonligi tarixini o'rganishdagi ahamiyati, asarning o'rganilish tarixi va uning nusxalariga doir ma'lumot bergan. Y. Qosimovning ma'lumotiga ko'ra, 1917-yilgacha qo'lyozmaning “Farg'onacha turkiy tilda” ayrim parchalar toshbosma usulida kitob qilib chop etilgan. Hozirda ba kitobning bir nusxasi qo'qonlik adabiyotshunos olim A. Madaminov qo'lida saqlanmoqda[3;65-66].

“Muntaxab at-tavorix”ning qo'lyozma nusxalariga to'xtaladigan bo'lsak, Dushanbeda, Tojikistonda A.A.Semenovning uy muzeyida saqlanayotgan forscha fotonusxasini Ahror Muxtorov 1983-yili ikki kitob holida chop etdi. Asarning o'zbekcha nusxasi ham bo'lib, hozirda O'zR FA Sharqshunoslik instituti xazinasida (raqami № 594) saqlanmoqda. Shuningdek. Muntaxab at-tavorix“ yozilgan yiliyoq nusxa ko'chirish boshlangan. Ya'ni Shahrisabzda Muhammadamin kotib tomonidan 10 nusxa ko'chirilgan. Ayniqsa ulardan S 470-sonli (Rossiya), 63-sonli (Tojikiston), 592-sonli (O'zbekiston) nusxalari juda yaxshi saqlangan Kitobning

ikkinchi jildi tanqidiy matni yaponiyalik olimlar Yayoi Kawahara va Koichi Haneda tomonidan Tokio shahrida 2006-yili e'lon qilindi[6;241].

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

“Muntaxab at-tavorix” (Saylangan tarixlar kitobi) asari muallifi Muhammad Hakimxon ibn Ma'sumxon to'ra Qo'qon tarixnavislik maktabining yirik namoyandasi hisoblanib, muallif haqidagi ma'lumotlar asosan shu yozma yodgorlikning o'zida keltirilgan[4;4].Asarning tuzilishi:

I bob. Payg'ambarlar.

II bob. Qadimiy Eron sulolalari.

III bob. Chin va Farang shohlari.

IV bob. Chahoryorlar, umaviylar va abbosiylar xalifalari haqida.

V bob. 1) Safforiylar, 2) Somoniylar sulolasi. 3) Ol Bo'ya hukmronligi. 4) G'aznaviylar. 5) Saljuqiylar. 6) Xorazmshohlar saltanati. 7) Chingiz va chingiziylar xonadoni. 8) Temuriylar. 9) Shayboniylar. 10) Ashtarxoniylar. 11) Mang'itiya saltanati. 12) Mingiya toifasi[5;5]

Hakimxonning bu asari umumtarixiy asarlardan bo'lib, dunyoning vujudga kelgan vaqtdan boshlab, XIX asrning yarmigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. “Muntaxab at-tavorix”ning birinchi qismi XVIII asrning o'rtalaridan XIX asrning o'rtasiga qadar bo'lgan davrdagi Buxoro amirligi tarixiga taalluqlidir. Bu qismda avtor Buxoro amirlarining yagona markazlashgan davlat qurish uchun olib borgan kurashlari, ularning Xiva va Qo'qon xonlari hamda mustaqil O'ratepa va Shahrisabz o'lkalari bilan bo'lgan aloqalari haqida hikoya qiladi.

Asarning ikkinchi qismi esa Qo'qon xonligi tashkil topganidan boshlab (XVIII asr) XIX asrning yarmiga qadar bo'lgan tarixni o'z ichiga oladi. Bu yerda ham xuddi oldingi qismdagi singari Hakimxon Qo'qon xonligining tashkil topish tarixi, uning qo'shni davlatlar bilan aloqalari, shu jumladan Xitoy bilan munosabatlarini batafsil hikoya qiladi.

Asarning uchinchi qismi, oldingilaridan farqli o'laroq, muallif sayohatlarini tashkil etadi.

“Muntaxab at-tavorix” nusxalaridan Sankt-Peterburg nusxasida (S 470) yana ilova ham bor. Bu ilova xam Muhammad Hakimxon qalamiga mansub bo'lib, unda Sheralixon davri (1842-1845 y.) hamda Xudoyorxonning taxt ustiga chiqishi bayon etilgani (689-707 betlar). “Muntaxab at-tavorix”ning manbalari juda xam ko'p bo'lgan. Qo'qon tarixchilarining asarlari fors-islomiy tarixnavisligi asosida shakllangan bo'lib, ularda umumjahon va lokal (mahalliy) tarixga bag'ishlab yozilgan asarlar uchraydi.

“Muntaxab at-tavorix” asari umumjahon tarixiga bag‘ishlangani bois muallif tarixni olam va odam yaratilishidan boshlab, XIX asrning o‘rtalarigacha bayon qilgan. Shuning uchun taqdim etilayotgan ma‘lumotlarning dastlabki qismi boshqa ko‘plab tarixiy va adabiy manbalar asosida bitilgan. Shu sababli ular originallik kasb etmay, asarning qolgan qismi uchta mavzuga, ya‘ni Buxoro mang‘itlari tarixi, Qo‘qonda hukm surgan minglar sulolasi xamda muallifning chet ellarga sayohati bayoni bo‘yicha taqsimlanar ekan, bu ma‘lumotlarning barchasi Muhammad Hakimxonning o‘z qalamiga mansub qimmatli manba hisoblanadi.

Muhammad Hakimxon o‘sha davr voqealarining bevosita ishtirokchilaridan ham talaygina ma‘lumotlarni eshitgan va muallif bu faktlarni “Muntaxab at-tavorix”da maxsus qayd etib o‘tadi. Minglar va mang‘itlarning hukmronligi, ya‘ni Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligi tarixiga oid ma‘lumotlar o‘ta muhim va birlamchi manba sifatida biz uchun qimmatlidir. Shuning uchun ham mazkur manba Qo‘qon tarixnavislik maktabida (Buxoro tarixnavisligida xam) o‘zining originalligi va rasmiy tarixchi tomonidan yozilmagani bilan ajralib turadi.

“Muntaxab at-tavorix”da muallif uchun manba vazifasini bajargan maktublar (Do‘stmuhammadxonning Hindiston general-gubernatori V.Maknotenning kotibi Lotga maktubi; Sulton Mahmudxonning amir Nasrullohga xati; amir Nasrullohning Qo‘qon xoni Muhammadalixonga xati va boshqalar)ning hujjat sifatida havola etilishi esa asarning tarixiy qiymatini yana ham oshirishga xizmat qilgan. Hatto ular afg‘on, hind tarixchilarining ma‘lumotlarini to‘ldirishga ham yaroqlidir. Bundan tashqari asarda muallif sharq shoir va adiblaridan Ibn Sino, Firdavsiy, Umar Xayom, Sa‘diy, Pahlavon Maxmud, Nizomiy, Alisher Navoiy, Bedil, Xusrav Dehlaviy, Inoyatulloh Kanbu, Ahmad ibn Yusuf, qo‘qonlik shoirlar Fazliy, Akmal Sher Ho‘qandiy, Nusrat, Behjat, Amiriy (amir Umarxon), Xorazm xoni Muxammadrahimxon I she‘rlaridan namunalar keltiradi. Asarning badiiy bezaklari sifatida fors-tojik, o‘zbek, arab xalqlarining maqol va masallaridan unumli foydalanilgan. Hattoki, xitoy xalq maqolini ham keltirib o‘tgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Hakimxonning “Muntaxab at-tavorix” asari O‘rta Osiyo xalqlari va unga qo‘shni bo‘lgan davlatlar tarixi haqida muhim manbalardandir. Bu asar mehnatkashlarning ahvoli, ommaviy harakatlar haqida juda ko‘p materiallarni qamrab olganligi bilan boshqa tarixiy asarlardan alohida ajralib turadi.

Asarning yana bir diqqatga sazovor yeri shundaki, muallif saroy tarixchilaridan bo‘lgan emas. Aksincha, u o‘zining demokratik e‘tiqodi uchun Qo‘qon xonligidan haydab chiqarilgan va butun umrini darbadarlikda o‘tkazgan.

Hakimxon o'z davrining mashhur shoirlaridan bo'lgan Hoziq, Nodira, Sultonxon Adolar bilan shaxsan tanish edi. U o'z asarida yuqorida nomlari tilga olingan o'zbek shoirlarining hayoti va faoliyati haqida qimmatli materiallar berib, ularning bir qancha she'rlaridan namunalar keltiradi. Yana shuni qayd etish kerakki, Hakimxon afg'on xalqining ingliz kolonizatorlariga qarshi kurashini boshqargan Afg'oniston hokimi Do'st Muhammadxon bilan ham shaxsan tanish bo'lgan.

Hakimxon asarida yuqorida ta'kidlab o'tilgan muhim mulohazalarni yozish jarayonida, o'z hayotini ham ta'riflab o'tadi. U XIX asrning birinchi choragidayoq rus tilini bemalol gaplasha olish darajasida o'rganib olgan birinchi o'zbeklardan sanalardi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI (REFERENCES)

1. Хуршут Э. «Мунтахаб ат- таварих» как источник по истории Средней Азии и сопредельных стран XVIII-XIX вв.// *Общественные науки в Узбекистане.*- 1984.- №7.- 41-45 betlar;
2. Bobobekov H.N. Qo'qon tarixi.- Toshkent: Fan, 1996.- 176 bet.
3. Qosimov Y. Qo'qon xonligi tarixi ocherklari.- Tashkent, 1992.- 65- 66 betlar.
4. Э.Хуршут. Ҳақимхоннинг ҳаёти ва саёҳатлари. Тошкент: Узбекистон ССР фан нашриети, 1987.-4-bet
5. Муҳаммадҳақимхон Тўра. Мунтахаб ат-таварих (Хўқанд ва Бухоро тарихи, саёҳат ва хотиралар). Тошкент “Янги аср авлоди” 2010.-5-bet
6. Abdumajid Madraimov.Gavhar Fuzailova.Manbashunoslik.Toshkent, “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti” 2008.-241-bet
7. Abdumannobovich, X. M. (2023). TRANSFORMATION OF PAREMIOLOGICAL UNITS IN SOUTHERN SURKHANDARYA UZBEK DIALECTS. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 3(05), 168-173.
8. Abdukarim Jamoliddin. O'zbek olimlarining Muhammad Hakimxonning “Muntaxab at-tavorix” asarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlari/O'zbekistonda ilm-fan va ta'lim masalari:muammo va yechimlar mavzusida konferebsiya.2020.209-bet

BERUNIY ASARLARIDA IJTIMOY MASALALARNING YORITILISHI

Sh.S.Jumayeva

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM katta o'qituvchisi
jumayevashaxlo507@gmail.com.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Markaziy Osiyolik qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi va undagi jamiyat, ijtimoiy adolat, davlat boshqaruvi haqidagi qarashlari tahlil qilingan va o'rganilgan.

Kalit so'zlar: *jamiyat, faoliyat, shaxs, pedagogik, ijtimoiy adolat, axloq, inson kamoloti, mehnat tarbiyasi.*

COVERAGE OF SOCIAL PROBLEMS IN THE WORKS OF BERUNI

Sh.S. Jumayeva

Senior Lecturer of STM, Economics and Pedagogical University non-state
educational institution

jumaevasaxlo507@gmail.com.

ABSTRACT

This article analyzes and explores the scientific heritage of the Central Asian encyclopedist Abu Raikhan Beruni and his views on society, social justice, and public administration.

Key words: *society, activity, personality, pedagogy, social justice, ethics, human development, labor education.*

KIRISH

Mamlakatimizda ajdodlarimiz xotirasini qayta tiklash va abadiylashtirish, ularning boy merosini chuqur o'rganish va o'sib kelayotgan yosh avlodni munosib voris sifatida tarbiyalash masalasiga davlat siyosati darajasida qaralmoqda. Shu jumladan, prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 3- Rennesans davriga mos avlod tarbiyasi masalasini yetakchi masala sifatida ko'tarib chiqdilar va shu maqsaddan kelib chiqib, mamlakatimizda ta'lim-tarbiya masalasida shiddatli va samarali islohatlar amalga oshirilmoqda. O'rta asrlarda Markaziy Osiyo tuprog'ida tavallud topib, dunyo tamadduniga ulkan hissa qo'shgan olimu mutafakkirlar, buyuk sarkardalar, islom bilimdonlari juda ko'pchilikni tashkil etadi. Sharq Rennesansi davriga sababchi bo'lgan, dunyo tan olgan qomusiy olimlarimizdan biri bo'lgan Abu Rayhon Beruniy

ilm-u fanning turli sohalarida samarali mehnat qilib bizgacha ulkan ilmiy merosni qoldirganlar. Bugungi kunda Beruniyning shaxs, jamiyat, davlat boshqaruvi borasidagi qarashlari muhim ahamiyatga ega.

Abu Rayhon Beruniy o'zining 150 dan ziyod asarlarida inson hayotidagi tabiiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni qamrab olgan. Beruniyning ijtimoiy g'oyalarni aniqlash va tizimlashtirish, ilmiy-ma'rifiy faoliyatini yoritib berish yetakchi masala sifatida qaraldi. Uning jamiyat, davlat boshqaruvidagi haqidagi qarashlari bugungi globallashuv davrida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Beruniy asarlari Yevropalik olimlar J. Reno, E. Zaxau, G. Zuter, E. Videman, K. Nallino, J. Sarton, R. Rayt, M. Meyerxof, Osiyo olimlari S. X. Nasr, M. Kozim, S. Baraniy, M. Nizamuddin, Sh. Yaltkay kabi olimlar tomonidan o'rganildi. Bu tadqiqotchilar Beruniy ijodiga juda yuqori baho berdilar. Amrerialik tarixchi olim J.Sarton Beruniyning merosiga eng oliy baho berish bilan birga, uning o'z davrining jahondagi birinchi donishmandi deb baholaydi. Atoqli sharqshunos V. R. Rozen esa, uning ilmiy qarashlari taajjub qolarli darajada kengligi, unga hozirgi ma'nodagi haqiqiy fanning ruhi xos ekanligini qayd etadi. [1].

Hind olimlari ham Beruniyning Hindiston falsafasi, dini, ilmi, urf-odatlarini tarixini o'rganishga qo'shgan ulkan hissasiga nihoyatda yuqori baho beradilar. Shuningdek, Beruniy merosi rus olimlari. I. Y. Krachkovskiy, S. P. Tolstoy, A. A. Raynov, A. M. Belenitskiy, A. A. Semyonov, B. A. Rozenfeldlar tomonidan o'rganilgan. Mashhur sharqshunos olim I. Y. Krachkovskiy Beruniy merosiga yuqori baho berib, "uning qiziqqan ilm sohalaridan ko'ra qiziqmagan sohalarini sanab o'tish osondir" deb, allomaning qomusiy aqlini yana bir bor ta'kidlab o'tadi.[2]

O'zbekistonda ham uning ijodiga katta e'tibor berib kelinmoqda. H.M. Abdullayev, I. M. Mo'minov, V. Y. Zohidov, Ya. G'. G'ulomov, U. Karimov, S. A. Bulgakov kabi atoqli olimlarimiz Beruniy faoliyati haqida qator risola, asarlar yaratdilar.

NATIJALAR

Mutafakkir jamiyatni shunchaki kishilarning yig'indisi deb emas, balki o'zaro bir-biri bilan ijtimoiy-ma'naviy, axloqiy aloqada bo'lgan kishilarning birligini ifodalovchi tushuncha deb hisoblaydi. U insonning yolg'iz o'zi hal qiluvchi qudratga molik emas, unga kuch-qudratni faqat jamiyat bera oladi, degan ilg'or konstruktiv g'oyani ilgari suradi. Beruniy jamiyatni boshqarishda jamiyat podshohga xizmat qilmay, balki podshoh jamiyatga xizmat qilishi kerakligini tushungan holda: "Idora qilish va boshqarishning mohiyati aziyat chekkanlarning huquqlarini himoya qilish, birovlarining tinchligi yo'lida o'z tinchligini yo'qotishdan iborat",-deydi.[3]

Beruniyning fikricha, xalq tomonidan saylab qo'yiladigan hokim odil va xalqparvar bo'lishi kerak. Shunday hokim bo'lgandagina xalqlar tinch, mamlakat esa erkin va obod bo'ladi. Beruniy o'z davrining farzandi sifatida davlat tuzumining qonun-qoidalarini yoqladi. Ammo shu bilan birga hukmdorga aql va adolat xos bo'lishi kerak, degan fikrga keladi. Shuningdek, axloqiy me'yorlarga zid xatti-harakatlarni qoralaydi. U hukmdorlar bo'lishi zarurligini ham, hokimiyatning merosiylik tamoyilini ham, xususiy mulkning, shu jumladan, er mulkchiligining muqarrarligini ham tan olgan. Biroq Beruniyning fikricha, hukmdor zarur sifatlarga, ya'ni adolatga va aqlga ega bo'lishi zarur. Beruniy nazarida har qanday zo'ravonlik, zolimlik, shafqatsizlik, milliy, irqiy va diniy tengsizlikning dushmani edi.

Abu Rayhon Beruniy e'tibor bergan tushunchalardan biri ijtimoiy adolatdir. Mutafakkir ijtimoiy adolatni mol-mulkka bulgan munosabat, inson qadr-qimmatini, mol ayirboshlash va savdo-sotiq, pul muomalasi, siyosat va tarbiya, qonunlarga bo'ysunish, davlatni adolatli qonunlar asosida boshqarish masalalari bilan bog'liq holda bayon etadi. U jamiyatdagi ahloqsizlikning eng yomon ko'rinishi zo'ravonlik va o'g'irlik, – deb bunday toifadagi kishilarni jazolash va qayta tarbiyalash yo'llarini ko'rsatadiki, bu olimning insonparvar qonunshunos ekanligini tasdiqlaydi: "O'g'irlikka kelsak – o'g'irlangan narsaning miqdoriga qarab jazo beriladi. Ba'zan zo'r darajada va o'rta darajada xalqlarga ibrat bo'ladigan jazo berib, goho qiynash va tovon to'latishga, goho xalq o'rtasida chiqarib oshkora qilish bilan to'xtatiladi". [4] Beruniy ta'lim berishicha, mard odam bo'lish – faqat so'zdagina emas, balki amalda ham haqqoniy bo'lish demakdir. Bilim - Beruniy fikricha, insonni oliyjanob qiladi, uni mehribon va aqlli qiladi. U «bilimning sofligidan boshqa» hech narsa yo'qligini ta'kidlaydi. [5]. Buyuk mutafakkir ilm-fan erdamida tarbiyalangan yuksak intellektual va axloqiy mezonlarni keng joriy etish jaraenida komillikka erishish mumkin, deya ta'lim beradi. Beruniy bilim insonni to'g'ri yo'lga boshlab borishiga chuqur ishonch hosil qilgan. U faqat bilimli inson bo'lish, "olijanob" xulq-atvor qoidalarini bilishning o'zi kifoya emas, asosiysi bu bilimlarni amalda qo'llay bilish, degan g'oyasi har bir davr uchun juda ahamiyatlidir. Bundan tashqari, bilimlarni o'z-o'zidan mos keladigan axloqiy xatti-harakatlar amaliyatsiz o'zlashtirish, axloqiy bilim va insonning axloqiy xatti-harakati o'rtasidagi tafovutda ifodalangan "axloqiy rasmiyatchilik" deb ataladigan narsaning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkunligini e'tirof qiladi [6].

Beruniyning izohlashicha, shaxsning ma'naviy qiyofasi u boshqa odamlar bilan muloqotda bo'ladigan jamiyatda shakllanadi. Inson jamiyatda o'z qarindosh-urug'lari bilan birlashib yashashga majburdir, bundan maqsad bir-birini qo'llab-quvvatlash hamda har bir kishining ham o'zini, ham boshqalarni ta'minlash uchun

kerakli ishlarni bajarishidir. Odam hamma vaqt boshqalarning baxt-saodati haqida, muayyan vazifalarni bajarish zarurligi haqida o‘ylashi lozim. Mutafakkirning fikriga ko‘ra, muruvvatli kishi odamlarga xayrixoh, halol va haqgo‘y bo‘ladi. Beruniy mulozamat, rahmdillik, qat‘iyat, sabr-toqat va kamtarlikni yuksak axloqli insonning asosiy xislatlari deb biladi. [7] Mutafakkir muruvvatlilik deganda, eng avvalo insonning axloqiy kamolotini tushunadi.

MUHOKAMA

Beruniy o‘z asarlarida illatlarni - ziqnalik, yolg‘onchilik, munofiqlik, xushomadgo‘ylikni, ayniqsa kishilarning o‘z bilimlariga, qobiliyatlari va axloqiy xislatlariga muvofiq bo‘lmagan yuksak mavqeni egallashga intilishlarini qattiq qoralaydi. Uning davlatni boshqarishda sobitqadamlik, adolatli bo‘lish, qonun ustuvorligi haqidagi g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Shu bilan birga “agar podshoh buyruqni berishda milliy va diniy biron tomonga asoslansa, bir qorindan bir vaqtda ikki bola tug‘ilganidek, podshohlik va din ishi birlashib buyruq to‘liq va tugal bo‘ladi, to‘liqlikning narigi tomonida ko‘zda tutiladigan g‘oya va maqsad yo‘q” [8]. Bundan ko‘rinadiki, davlatni boshqarishda din va dunyoviy ishlar qonun asosida mutanosib bo‘lishi kerakligi aytilmoqda. “Hindiston” asarida “xalqlar o‘rtasida tortishish va talashish ko‘p”, deb afsuslanib yozgan edi. Uning Hindistonda olib borgan keng ilmiy-tadqiqot ishlari xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik, o‘zaro hamkorlik va madaniy munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan edi. Bundan ko‘rinib turibdiki, Beruniy madaniy hamkorlik va ilm-ma‘rifatning keng tarqalishiga katta e‘tibor berdi. U xalqlar do‘st, inoq ittifoq bo‘lib yashashi uchun kurashib, insoniyatga, u yaratgan fan va madaniyatga qirg‘in keltiruvchi urushlarni kattiq qoraladi.

Akademik I.M.Mo‘minov Beruniyning ijtimoiy-falsafiy, jamiyat va davlat haqidagi qarashlariga alohida e‘tibor qaratib, uning “Mineralogiya” asaridagi quyidagi fikrlarini keltirgan edi: “Olis Mag‘ribdagi shaharlardan birining aholisi haqida naql qiladilarkim, zodagonlar va yer egalari mazkur shaharni navbatma-navbat boshqarar ekan. Kimga navbat kelsa, o‘sha uch oy davomida hokimlik vazifasini ado etarkan. Muddat tugagach, o‘z ixtiyori bilan hokimlikdan voz kechib, og‘ir vazifadan qutulgani uchun el-yurtga xayr-sadaqa ulashar ekan. Buning boisi shundaki, boshqarish va boshchilik qilish bu zo‘ravonlar tomonidan jabrlangan kishilarning haq-huquqlarini tiklash yo‘li bilan fuqaro halovatini ta‘minlash niyatida o‘z halovatidan mahrum bo‘lish demakdir” [9]. Ya‘ni Beruniy davlatni demokratiya asosida boshqarish mumkinligini ko‘rsatishga harakat qilgan. Jamiyat rivojini bevosita shaxs bilan, uning axloqiy qiyofasi bilan bog‘lar ekan, mutafakkir

shaxsning axloqi jamiyat oldidagi burchini sidqidillik bilan bajarishiga xizmat qilmog‘i lozim deb hisoblaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, Beruniyning jamiyat haqidagi qarashlarida insonning qiyofasi tabiat ta’sirining natijasi ekani, uning ichki qiyofasida cheksiz sa’y-harakatlar natijasida tub o‘zgarishlar bo‘lishi mumkinligi aytiladi. Har bir inson o‘z xulq-atvorining egasidir. Jamiyat bosqichma-bosqich o‘zgarishlar orqali rivojlanib boradi. Beruniyning jamiyatda adolatli bo‘lish, inson uchun qayg‘urish, jamiyatni aql, ilm, adolat, qonunlar, o‘rnatilgan tartiblar bilan boshqarish kerakligi haqidagi falsafiy tahlili o‘sha davrda fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanganidan dalolat beradi. Beruniy o‘z ustozlari izidan borib, insonlar o‘rtasida o‘zaro bir-birini tushunish, tenglik va boshqaruvdagi adolatni himoya qilib chiqdiki, bu qarashlar bizning davrimizda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Булгаков П.Г. Жизнь и труды Беруни.- Ташкент, Фан.1972.-С.80.
2. Крачковский И.Ю. Избранные сочинения, т. IV. М.-Л., 965, стр. 244
3. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. 2 Ҳиндистон. – Т.: Фан, 1965. – 539 б.
4. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. Ж. 1. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар – Т.: Фан, 1968. – 486 б.
5. Шарипов А. Великий мыслитель Беруни.-Ташкент, 7 Давлетшин М.Г. Психологические основы нравственного воспитания.-Ташкент:1975.с.52-53.
6. Abu Rayhon Beruniy .Tanlangan asarlar. “Fan” nashriyoti-Toshkent-1998й,78б.
7. Абу Райхон Беруний. Минералогия,Т.:1968.-С.171.
8. Jumayeva Sh.S.Social and spiriyual environment and its influence on upbringing and education.International Journal of Formal Education . Volume: 02 Issue: 11| November – 2023 ISSN:27206874.350р.
9. И.М.Муминов. Ўзбекистондаги табиий-илмий ва ижтимоий-фалсафий тафаккур тарихидан лавҳалар (IX-XX асрнинг бошларигача). – Т.: Фан, 1999. **49**

RAQAMLI AKTIVLARNING MILLIY QONUNCHILIGIMIZDA TARTIBGA SOLINISHI VA ULAR BILAN BOG‘LIQ AYRIM KAMCHILIKLAR

Abdusatarov Jaloliddin Sharafutdin o‘g‘li,
Toshkent davlat yuridik universiteti magistri
Elektron pochta: jaloliddinabdusatarov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada raqamli aktivlarning huquqiy jihatlari hamda O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida ular bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim kamchiliklar haqida so‘z yuritiladi. Yakunda, O‘zbekiston Respublikasida “Raqamli aktivlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini qabul qilish taklif etiladi hamda tegishli taklif ilmiy-nazariy asoslantiriladi.

Kalit so‘zlar: raqamli aktiv, kriptovalyuta, raqamli pul, token.

REGULATION OF DIGITAL ASSETS IN OUR NATIONAL LEGISLATION AND SOME SHORTCOMINGS RELATED TO THEM

Abdusatarov Jaloliddin Sharafutdin ugli,
Master’s degree student of Tashkent State Law University
E-mail: jaloliddinabdusatarov@gmail.com

ABSTRACT

The article discusses the legal aspects of digital assets and some of the shortcomings associated with them in the legislation of the Republic of Uzbekistan. Finally, it is proposed to adopt the Law of the Republic of Uzbekistan “On digital assets” in the Republic of Uzbekistan, and the relevant proposal is scientifically and theoretically substantiated.

Keywords: digital asset, cryptocurrency, digital money, token.

РЕГУЛИРОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ АКТИВОВ В НАШЕМ НАЦИОНАЛЬНОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ И НЕКОТОРЫЕ НЕДОСТАТКИ СВЯЗАННЫЕ С НИМИ

Абдусатаров Джалолиддин Шарафутдин угли,
магистр Ташкентского государственного юридического университета
Электронная почта: jaloliddinabdusatarov@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются правовые аспекты цифровых активов и некоторые недостатки связанные с ними в законодательстве Республики

Узбекистан. В заключении, в Республике Узбекистан предлагается принять Закон Республики Узбекистан “ О цифровых активах”, соответствующее предложение научно и теоретически обосновано.

***Ключевые слова:** цифровой актив, криптовалюта, цифровые деньги, токен.*

KIRISH

Raqamli aktivlar mulkning o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lib hisoblanadi, chunki u o‘z egalariga virtual egalik qilishi, ulardan foydalanishi va keyin ularni moddiy manfaat uchun tasarruf etish imkonini beradi. Raqamli aktivlarni huquqiy tartibga solishda eng avvalo, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi ayrim kamchiliklarni bartaraf etish lozim. Bu jihatdan qonunchiligimizda bir necha bo‘shliqlar mavjud. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga “raqamli aktivlar” atamasini aniqlashtirish va kengaytirish, ularning virtual mulk (mulkiy huquqlar) va mulkiy huquqlarga bog‘liq virtual shaxsiy nomulkiy ne‘matlar va huquqlarga ajratadigan yangi tasnifini joriy etish va ularni huquqiy tartibga solishga doir tegishli o‘zgartirishlar kiritish zarur. Bundan tashqari, ular bilan bog‘liq nizolarni hal qilsihda yurisdiksiyaviy masalalar hamda qonunchilikni qo‘llash bilan bog‘liq ayrim savollar amaliyotda yuzaga kelishi tabiiy. Ushbu maqolada muallif tomonidan O‘zbekiston qonunchiligida raqamli aktivning huquqiy maqomini aniqlashga qaratilgan tahlillar o‘tkazilib, milliy qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ilgari surilgan.

METODOLOGIYA

Maqolani tayyorlashda tarixiylik, kuzatish, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy-huquqiy, statistik hamda ilmiy izlanishning boshqa usullaridan foydalanildi.

NATIJA

Raqamli aktivlarni tartibga solish bo‘yicha amaldagi milliy qonunchilikni tahlil orqali bir necha muhim xulosaga kelindi. Birinchidan, mamlakatimizda raqamli aktivlarni tartibga solish uchun keng qamrovli va yaxlit asoslar mavjud emasligi aniqlandi. Bu narsa amaliyotdagi nomuvofiqliklar va bo‘shliqlarga olib keladi, bu sohada ishlaydigan korxonalar va iste‘molchilar uchun noaniqlik tug‘diradi. Bundan tashqari, mavjud me‘yoriy-huquqiy baza raqamli aktivlar sohasida texnologiyani “quvib kelayotgani” kuzatildi. Bu raqamli aktivlar bilan bog‘liq yuzaga keladigan xavf va muammolarni hal qilish uchun qoidalarni yangilashda kechikishga olib keladi. Qolaversa, ijro mexanizmlari va qonun hujjatlariga rioya etilishini monitoring qilish borasida ham kamchiliklar aniqlandi. Umuman olganda, ushbu xulosalar raqamli aktivlarni samarali tartibga solish uchun milliy qonunchiligimizni yangilash va

kuchaytirish zarurligini ta’kidlaydi. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga “raqamli aktivlar” atamasini aniqlashtirish va kengaytirish, ularning virtual mulk (mulkiy huquqlar) va mulkiy huquqlarga bog‘liq virtual shaxsiy nomulkiy ne’matlar va huquqlarga ajratadigan yangi tasnifini joriy etish va ularni huquqiy tartibga solishga doir tegishli o‘zgartirishlar kiritish zarurligi ta’kidlandi. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etmaslik moliyaviy tizim uchun ham, iste’molchilar uchun ham zararli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Yakunda, O‘zbekiston Respublikasida “Raqqamli aktivlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini qabul qilish taklif etiladi hamda tegishli taklif ilmiy-nazariy asoslantirildi.

MUHOKAMA

Raqqamli aktivlar tushunchasi, ularning turlari, ularning fuqaroviy-huquqiy munosabatlarning obyeti sifatidagi o‘rni yangi soha bo‘lib, ularning tartibga solinishi hali to‘liq darajada nazariy asoslantirilmagan. Bundan tashqari, ularning oldit-sotdisi, meros masalalarida obyekt bo‘la olishi, uning tartibi, shuningdek, ular bilan bog‘liq nizolarning o‘ziga xos jihatlarining tahlil adabiyotlarimizda juda kam.

Internet shunday makonga aylanib bormoqdaki, uning doirasida ko‘plab huquq subyektlari o‘z huquqlarini amalga oshirmoqda va o‘z majburiyatlarini bajarmoqda. Bu sharoitlarda virtual mulk – raqqamli aktivlar miqdorini oshishi Internet olami uchun umumiy tendensiyaga aylanmoqda. Biroq, hozirgi vaqtda fuqarolik huquqi doktrinasida “raqamli aktiv (kriptoaktiv)”, “raqamli moliyaviy aktiv” kabi yangi raqqamli mulk shaklining toifasi aniq belgilanmagan. Shu munosabat bilan, “raqamli aktiv”lar” kabi hodisaning huquqiy tabiatini o‘rganish dolzarb ko‘rinadi.

“Raqqamli aktiv” atamasi ilmiy ishlarda deyarli kuzatilmagan. Fuqarolik huquqi fanida raqqamli huquqlar va raqqamli valyuta tabiatining o‘zi olimlarda qiziqish uyg‘otgan. Shu bois, raqqamli huquqni raqqamli texnologiyalardan foydalanish va (yoki) raqqamli ma’lumotlardan foydalanish holatlarida shakllanadigan munosabatlarni tartibga soluvchi alohida huquq sohasiga ajratish mumkinligi to‘g‘risida fikrlar bildirilgan.¹⁴⁵ Keyinchalik ma’lum bo‘ldiki, “raqamli huquq” tushunchasi faqat raqqamli valyutalar va moliyaviy aktivlarga nisbatan qo‘llanilishiga nisbatan kengroq tushuncha va uning tarkibiy qismlari hamda mazmuni ko‘p qirralidir.¹⁴⁶ M. A. Rojkovaning fikricha, raqqamli huquq bilan tartibga solinadigan munosabatlarning xilma-xilligi tartibga solish metodini

¹⁴⁵ Цифровое право : учебник / [Егорова М. А., Блажеев В. В.]; Под общ. ред. В. В. Блажеева, М. А. Егоровой. Москва: Проспект, 2020. 640 с

¹⁴⁶ Александрова Н. С. Соотношение понятий «цифровые права», «цифровая валюта» и «цифровой финансовый актив» //Вестник Московского университета МВД России. – 2021. – No. 6. – С. 28-31

aniqlash muammosini taqozo etadi, bu esa raqamli huquqni huquqning kichik tarmog'iga ajratish imkoniyati yo'qligini keltirib chiqaradi.¹⁴⁷

Hozirda jahon amaliyotida "raqamli aktivlar" kategoriyasining yagona ta'rifi ishlab chiqilmagan. Doktrinada "raqamli aktivlar" hodisasini belgilashga urinishlar kam kuzatiladi. Xususan, raqamli aktivlarning huquqiy maqomi va ularni tartibga solish muammolari M. Perrone¹⁴⁸, J. Beier¹⁴⁹, A. Waller¹⁵⁰, K. Sherry¹⁵¹, J. Chambers¹⁵², G. Ferrera¹⁵³, S. Tracy¹⁵⁴, D. Kirk¹⁵⁵, J. Farwell¹⁵⁶ tadqiqotlarida o'rganib chiqilgan.

Yuqoridagilarda ko'rinib turibdiki, raqamli aktivlar tushunchasi juda keng bo'lib hisoblanadi. Jahon amaliyotida ham raqamli aktivlarning yakdil varianti, uning aniq bir ta'rifi mavjud emas. Ayrim olimlar unga faqatgina kriptovalyuta, tokenlar kiradi deb hisoblashsa, ayrimlar esa buni kengroq tushuncha ekanligini va u o'zida raqamli pul, kriptovalyutani ham qamrab olishini ta'kidlashadi. Nazarimizda, ikkinchi yondashuv "raqamli aktiv" tushunchasini ko'proq o'zida ifodalaydi. O'zi umuman, fikrimizcha, raqamli aktivlarni yagona tizimga aniq tizimlashtirish imkonsiz masaladir. Raqamli obyektlar tasniflash uchun asos bo'ladigan belgilarga qarab, turli asoslar bo'yicha tasniflanishi mumkin. "Raqamli valyuta" ta'rifining o'zi, aniqrog'i, unda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 95-moddasida "Valyuta qimmatliklari deb hisoblanadigan mol-mulk turlari va ular xususida bitimlar tuzish tartibi qonun bilan belgilab qo'yiladi. Valyuta qimmatliklariga mulk huquqi umumiy asoslarda himoya qilinadi", deb belgilangan "raqamli valyuta"ni valyuta qimmatliklari sifatida baholashga fundamental asos sanaladi. Qimmatli qog'ozlar

¹⁴⁷ Рожкова, М. А. Является ли цифровое право отраслью права и нужно ли ожидать появления Цифрового кодекса? // Хозяйство и право. 2020. No 4. С. 3-13.

¹⁴⁸ Perrone, M. What happens when we die: estate planning of digital assets / M. Perrone // *CommLaw Conspectus* [Electronic resource]. - 2012. - T. 21. - Mode of access: <http://commlaw.cua.edu/res/docs/21-1/Perrone.pdf>.

¹⁴⁹ Beier, J.C. The Digital Asset Dilemma / J.C. Beier, S. Porter // *NYSBA Trusts and Estates Law Section Newsletter* [Electronic resource]. - 2013. - Vol. 46, - No 2. - Mode of access: http://www.mcglawyer.com/pdf_files/TrustsandEstatesSummer2013.pdf.

¹⁵⁰ Moncur, W. Digital Inheritance / W. Moncur, A. Waller // *RCUK Digital Futures* [Electronic resource]. - 2010. - Mode of access: <http://www.computing.dundee.ac.uk/staff/wmoncur/publications/2010-rcuk-digital-futures.pdf>.

¹⁵¹ Sherry, K. What Happens to Our Facebook Accounts When We Die?: Probate Versus Policy and the Fate of Social-Media Assets Postmortem / K. Sherry // *Pepp. L. Rev* [Electronic resource]. - 2012. - T. 40. - Mode of access: <http://digitalcommons.pepperdine.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1726&context=plr>.

¹⁵² Chambers, J. Family Gets GI's E-Mail / J. Chambers // *Detroit News*, Apr. 21, 2005, at 1 [Electronic resource]. - 2005. - Mode of access: www.justinellsworth.net/email/detnewsapr.htm.

¹⁵³ Darrow, J.J. Email Is Forever... Or Is It? / J.J. Darrow, G.R. Ferrera // *J. Internet L.* No. - 2008. - T. 11. - C. 10, 1, 18 [Electronic resource]. - 2008. - Mode of access: <http://www.digitalestateplanning.com/>

¹⁵⁴ Tracy, S. Family, lawmakers push for Facebook changes following son's suicide / S. Tracy // [Electronic resource]. - 2013. - Mode of access: <http://wtvr.com>.

¹⁵⁵ Kirk, D.S. On human remains: Values and practice in the home archiving of cherished objects / D.S. Kirk, A. Sellen // *ACM Trans. Comput. - Hum. Interact.* - No 17(3). - 2010 [Electronic resource]. - 2013. - Mode of access: <http://doi.acm.org/10.1145/1806923.1806924>.

¹⁵⁶ Farwell, J. Death & digital data: What happens to what you leave behind? / J. Farwell // *Computers & Electronics*. - 2007. - No 18(9). - P. 33-35.

bozor asosida xo‘jalik yuritishning zarur atributidir. Ularni fuqarolik huquqlarining ob‘ektlari sifatida ashyolar qatoriga kiritiladi, zero ular ashyolarning alohida turidir (FK, 81-m.). Ilgari, davlat iqtisodiyotida zarurat yuzasidan qimmatli qog‘ozlar muomalasi nihoyatda qashshoq bo‘lib, asosan bitta turdagi qimmatli qog‘ozlar – obligatsiyalardan, taqdim etiluvchi omonat daftarchalaridan va davlat mehnat omonat kassalarining akkreditivlaridan, yutuqli lotereya biletlaridan tashkil topgan, yuridik shaxslar o‘rtasidagi hisob-kitoblarda esa hisob-kitob chekidan foydalanish mumkin bo‘lgan. Bozor iqtisodiyotiga o‘tilishi bilan qimmatli qog‘ozlar muomalasi kengaydi, uning bozori shakllana boshladi. Biroq bunda asosiy e‘tibor “investitsion” deb nomlanuvchi qimmatli qog‘ozlar – xususiy tijorat tuzilmalarining aksiyalari va obligatsiyalariga qaratildi. Taraqqiy topgan muomalada qimmatli qog‘ozlarning o‘nlab turlari mavjud bo‘ladi. Bularning hammasi qimmatli qog‘ozlarning turkumini aniq belgilash va ularni huquqiy tartibga solish naqadar muhimligini ko‘rsatadi. Fuqarolik kodeksi 96-moddaning 3-qismida qimmatli qog‘ozlarning turlarini sanab o‘tilar ekan, ularning ro‘yxati tugallanmagan, yopilmagan. Shu bilan birga unda hujjatlarni qimmatli qog‘ozlar jumlasiga kiritish qonun hujjatlarining imtiyozli huquqi ekanligi ko‘rsatilgan. Shu sababli qimmatli qog‘ozlarning yangi shakllari tijorat banklarining yoki xususiy shaxslarning tashabbusi bilan emas, faqat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vujudga kelishi mumkin. Ko‘rib turganimizdek, raqamli aktiv tushunchasi pullik talablar va emissiya qog‘ozlari bilan bog‘liq bo‘lib, raqamli aktivning o‘zi ham axborot tizimi ishtirokchilari o‘rtasida ayirboshlash jarayoni bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ishtirokchilar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar axborot tizimi reestrda mavjud bo‘lib, bu majburiyatga ega shaxsni aniqlash imkonini beradi. Raqamli valyuta esa mulkiy kategoriya bo‘lib, bunda majburiyatga ega shaxs mavjud bo‘lmaydi.

O‘zbekistonda hozirgi kunga kelib mavjud qonunchilikda raqamli aktivlar bilan bog‘liq nizolarda qaysi qonunchilikni qo‘llash masalasi hali hamon ochiq turibdi. Bu o‘rinda yangi Fuqarolik Kodeksi loyihasini eslatib o‘tish joiz. Yangi Kodeks loyihasining 446-moddasida Kodeksning Oldi sotdi qoidalari paragrafida nazarda tutilgan qoidalar mulkiy huquqlarni, shu jumladan raqamli huquqlarni sotishga nisbatan qo‘llanilishi belgilangan. Bundan tashqari, shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki, agar ushbu huquqlar mazmuni yoki mohiyatidan boshqacha hol kelib chiqmasagina oldi-sotdi qoidalalar raqamli huquqlarga nisbatan tadbiiq etiladi.

Raqamli aktivlarni tranzaksiyasi fuqarolik-huquqiy munosabatlarning yana bir muhim jihati hisoblanadi. Jismoniy aktivlarda bo‘lgani kabi, raqamli aktivlarni ham tomonlar o‘rtasida sotib olish va sotish mumkin. Yangi Fuqarolik Kodeksi loyihasida ham oldi-sotdi qoidalari raqamli aktivlarga nisbatan ham qo‘llanilishi haqidagi gap

bekorga qabul qilinmagan. Raqamli aktivlar bilan bog‘liq operatsiyalar rozilik, ko‘rib chiqish va shartnoma majburiyatlari kabi qonuniy talablarga mos kelishi kerak. To‘g‘ridan-to‘g‘ri kodga yozilgan shartlar bilan o‘z-o‘zini bajaruvchi shartnomalar bo‘lgan aqlli kontraktlar raqamli aktivlarni xavfsiz va shaffof tarzda uzatishni avtomatlashtirish va amalga oshirish uchun qulay vositaga hisoblanadi. Raqamli aktivlarni tartibga soluvchi huquqiy asoslar va qoidalar raqamli iqtisodiyotning jadal tabiatiga moslashish uchun doimiy ravishda rivojlanmoqda. Dunyo mamlakatlari iste‘molchilarni himoya qilish, moliyaviy jinoyatlarning oldini olish va bozor barqarorligini ta‘minlash uchun raqamli aktivlardan, xususan kriptovalyutalardan foydalanishni tartibga solish bo‘yicha qonunlar va ko‘rsatmalarni amalga oshirdi. Ushbu qoidalarga rioya qilish raqamli aktivlar bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar va korxonalar uchun yuridik xavf va majburiyatlardan qochish uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, loyihaning 166-moddasida raqamli aktivlarning asosiy turlaridan biri bo‘lgan kriptovalyutani tartibga soluvchi muhim qoidalar belgilangan. Unga ko‘ra, “Raqamli pul (kriptovalyuta) bu qiymati va egasi bo‘lgan, mazmuni va shartlari qonunda belgilangan tartibda aniqlanadigan majburiyat va boshqa huquqlar yig‘indisi hisoblanadi. Raqamli pul (kriptovalyuta) fuqarolik huquqlari obyektini hisoblanadi va qonunda boshqa tartib o‘rnatilmasa, erkin muomalada bo‘ladi. Qonunda boshqacha hol o‘rnatilmasa, raqamli pul (kriptovalyuta)ning erkin muomalasi, begonalashtirilishi yoki boshqa tasarruf etilishi faqat axborot tizimida amalga oshiriladi”. AQShning Vayoming shtatining 2019 yil 1 iyuldagi SF0125 qonunida raqamli aktivga quyidagicha ta‘rif berilgan: “Raqamli aktiv – bu mashinada o‘qiladigan formatda saqlanadigan iqtisodiy va mulkiy huquqlarning aks etishi bo‘lib, o‘z ichiga iste‘mol aktivlarini, raqamli qimmatli qog‘ozlarni va virtual valyutalarni oladi”.¹⁵⁷

“O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (03.07.2018 yildagi PQ–3832-son)da kripto-aktivlar mulkiy huquq hisoblanishi hamda ma‘lumotlarning taqsimlangan reyestridagi raqamli yozuvlar yig‘indisi bo‘lgan qiymati va egasiga ega bo‘lishi keltirilgan. Demak, shu narsani xulosa qilishimiz mumkin, raqamli aktivlarga bo‘lgan huquq bugungi kunda qonunchiligimizda mulk huquqi sifatida emas, balki mulkiy huquq sifatida ko‘riladi. “O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan kripto-aktivlarni chiqarish, chiqarishni ro‘yxatdan o‘tkazish va muomalaga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda ham kripto-aktiv ma‘lumotlarning taqsimlangan reyestridagi raqamli yozuvlar yig‘indisi bo‘lgan, qiymati va egasiga ega mulkiy huquq sifatida ta‘riflanadi.

¹⁵⁷ SF0125-Digital assets-existing law. URL: <https://www.wyoleg.gov/Legislation/2019/SF0125>

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida “kripto-aktiv” so‘ziga ham tushuncha berilib, unda kripto-aktiv bu “ma’lumotlarning taqsimlangan reyestridagi raqamli yozuvlar yig‘indisini ifodalaydigan, qiymati va egasiga ega bo‘lgan mulkiy huquq” hisoblanishi aytib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining 2022-yil 14-iyuldagi 32-son buyrug‘iga 1-ilovasida ham kripto-aktivlarning ma’lumotlarning taqsimlangan reyestridagi raqamli yozuvlar yig‘indisi bo‘lganligi, qiymati bo‘lishi va egasiga ega mulkiy huquqlar bo‘la olishi xususiyatlari keltirib o‘tilgan. Bundan tashqari, “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (03.07.2018 yildagi PQ–3832-son)da ham kripto-aktiv mulkiy huquq hisoblanishi, ma’lumotlarning taqsimlangan reyestridagi raqamli yozuvlar yig‘indisi bo‘lgan qiymati va egasiga egalgi qayd etilgan. Shuningdek, qarorda kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyat turlari mayning va kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlar faoliyati ekanligi qayd etilgan.

Yuqoridagi ta’kidlab o‘tilganidek, mamlaktimizda raqamli aktivlar bilan bog‘liq tegishli normalar konkret belgilanmagan. Bir tarafdin, raqamli aktivlar umumiy tushuncha bo‘lganligi bois ushbu munosabatlarni tizimlashtirish juda qiyin va chalkashliklarga olib kelishi mumkin ekanligini anglagan holda bu narsani to‘g‘ri tushunishimiz mumkin. Ammo, ba’zi davlatlarda, xususan Rossiya va Qozog‘iston davlatlarida raqamli aktivlardan kelib chiqadigan munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar qabul qilingan. Jumladan, Rossiya Federatsiyasining 2020-yil 31-iyuldagi 259-FQ-sonli “Raqamli moliyaviy aktivlar va raqamli valyuta to‘g‘risida”gi qonuni Rossiyada raqamli moliyaviy aktivlar va raqamli valyutani tartibga solishning huquqiy asoslarini belgilaydi, raqamli moliyaviy aktivlarni chiqarish, hisobga olish va muomalaga chiqarish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarni, raqamli moliyaviy aktivlar chiqarilgan axborot tizimi operatori hamda raqamli moliyaviy aktivlarni ayirboshlash operatori faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini tartibga soladi. Unga ko‘ra, “raqamli huquqlar, shu jumladan pul bilan bog‘liq da’volar, qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha huquqlarni amalga oshirish qobiliyati, nodavlat aktsiyadorlik jamiyatining kapitalida ishtirok etish huquqi, o‘tkazishni talab qilish huquqi” deb hisoblanadi. Ushbu qonunga muvofiq, emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar, ularni chiqarish, hisobga olish va muomalaga chiqarish faqat tarqatilgan reestrga asoslangan axborot tizimida shuningdek, boshqa axborot tizimlarida yozuvlar kiritish (o‘zgartirish) orqali mumkin bo‘ladi”. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, Rossiyada raqamli aktivlar deganda asosan raqamli moliyaviy aktivlar,

shu jumladan, kriptovalyuta, raqamli pul, raqamli valyuta tushuniladi. Qonunda bu bilan bogʻliq munosabatlar sud orqali, shuningdek, ADR orqali hal qilinishi keltirib oʻtilgan.

Qozogʻiston Respublikasining 2023-yil 6-fevraldagi 193-VII-sonli “Qozogʻiston Respublikasida raqamli aktivlar toʻgʻrisida”gi qonuni raqamli aktivlar sohasidagi jamoatchilik munosabatlarini tartibga solish qoidalari va tamoyillarini belgilaydi. Qonun raqamli aktivlar sohasidagi jamoatchilik munosabatlarini tartibga solish qoidalari va tamoyillarini belgilaydi. Qonunga koʻra, elektron raqamli shaklda yaratilgan, shu jumladan kriptografiya va kompyuter hisoblash vositalaridan foydalangan holda roʻyxatga olingan va taqsimlangan maʼlumotlar platformasi texnologiyasi asosida yaratilgan mulkdir. Qonun raqamli mayning faoliyatini, raqamli mayning faoliyatini litsenziyalashni va raqamli aktivlar birjalari faoliyatini tartibga soladi. Qonun raqamli aktivlarni ikkiga ajratadi: kafolatlangan raqamli aktiv va kafolatlanmagan raqamli aktiv. Kafolatlangan raqamli aktiv – bu qoʻyilgan raqamli aktivlarni saqlash va almashish uchun raqamli platformada roʻyxatdan oʻtgan raqamli aktivdir. U moddiy vositalar, intellektual mulk va boshqa aktivlarga boʻlgan huquqlar (mulkiy huquqlar)ni tasdiqlaydi, pul va qimmatli qogʻozlar bundan mustasno. Bunga koʻchmas mulk, intellektual mulk yoki boshqa real aktivlarga egalik huquqini ifodalovchi raqamli tokenni kirgʻazishimiz mumkin.¹⁵⁸ Taʼminlanmagan raqamli aktiv – bu blokcheyndagi konsensusni saqlashda ishtirok etganlik uchun mukofot sifatida axborot tizimida olinadigan raqamli aktiv. Bu hech kimning pul majburiyatlarini ifodalamaydi va raqamli aktivlar birjasida raqamli ravishda sotilishi mumkin. Masalan, bular Bitcoin yoki Ethereum kabi kripto valyutasi boʻlishi mumkin va ular raqamli tranzaksiyalar uchun ishlatiladi.¹⁵⁹

Agar Rossiyada raqamli aktivlarning konkret turi sifatida raqamli moliyaviy aktivlar toʻgʻrisida qonun qabul qilingan boʻlsa, Qozogʻistonda bevosita raqamli aktivlarning oʻzi boʻyicha qonun qabul qilinganligini, qonunning oʻzida raqamli aktivlarni ikkiga boʻlgan holda ajratib oʻtishini koʻrishimiz mumkin.

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni xulosa qilishimiz mumkinki, oʻrganilayotgan qonunlar va qonun loyihalaridagi raqamli aktivlarning aksariyati dispozitiv xususiyatga ega boʻlib, bu raqamli aktivlar doimiy ravishda oʻzgarib turishi va modernizatsiya qilinishini hisobga olgan holda huquqiy tartibga solish koʻlamini kengaytirish imkonini beradi. Raqamli aktivlarni yagona tizimga aniq

¹⁵⁸ О цифровых активах в Республике Казахстан, <https://adilet.zan.kz/rus/docs/Z2300000193>.

¹⁵⁹ Цифровые финансовые активы – что это такое и как они работают <https://gazprombank.investments/blog/market/cifrovye-finansovye-aktivy/>.

tizimlashtirish imkonsiz masala ekanligi hamda raqamli obyektlar tasniflash uchun asos bo‘ladigan belgilarga qarab, turli asoslar bo‘yicha tasniflanishi mumkinligini hisobga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasida “Raqamli aktivlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini qabul qilish, ularni turlarini konkret ajratish, shu jumladan, raqamli moliyaviy aktivlar hamda raqamli moliyaviy bo‘lmagan aktivlar tushunchalari konkret belgilanib, ularning huquqiy statusi qonun orqali belgilashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Цифровое право : учебник / [Егорова М. А., Блажеев В. В.]; Под общ. ред. В. В. Блажеева, М. А. Егоровой. Москва: Проспект, 2020. 640 с
2. Александрова Н. С. Соотношение понятий «цифровые права», «цифровая валюта» и «цифровой финансовый актив» // Вестник Московского университета МВД России. – 2021. – No. 6. – С. 28-31
3. Рожкова, М. А. Является ли цифровое право отраслью права и нужно ли ожидать появления Цифрового кодекса? // Хозяйство и право. 2020. No 4. С. 3-13.
4. Perrone, M. What happens when we die: estate planning of digital assets / M. Perrone // CommLaw Conspectus [Electronic resource]. - 2012. - T. 21. - Mode of access: [Http://commlaw.cua.edu/res/docs/21-1/Perrone.pdf](http://commlaw.cua.edu/res/docs/21-1/Perrone.pdf).
5. Beier, J.C. The Digital Asset Dilemma / J.C. Beier, S. Porter // NYSBA Trusts and Estates Law Section Newsletter [Electronic resource]. - 2013. - Vol. 46, - No 2. - Mode of access: http://www.mcglawyer.com/pdf_files/TrustsandEstatesSummer2013.pdf.
6. Moncur, W. Digital Inheritance / W. Moncur, A. Waller // RCUK Digital Futures [Electronic resource]. - 2010. - Mode of access: http://www.computing.dundee.ac.uk/staff/wmoncur/publications/2010-rcuk_digital_Futures.pdf.
7. Sherry, K. What Happens to Our Facebook Accounts When We Die?: Probate Versus Policy and the Fate of Social-Media Assets Postmortem / K. Sherry // Pepp. L. Rev [Electronic resource]. - 2012. - T. 40. - Mode of access: <http://digitalcommons.pepperdine.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1726&context=plr>.
8. Chambers, J. Family Gets GI’s E-Mail / J. Chambers // Detroit News, Apr. 21, 2005, at 1 [Electronic resource]. - 2005. - Mode of access: www.justinellsworth.net/email/detnewsapr.htm.

9. Darrow, J.J. Email Is Forever... Or Is It? / J.J. Darrow, G.R. Ferrera // J. Internet L. No. - 2008. - T. 11. - C. 10, 1, 18 [Electronic resource]. - 2008. - Mode of access: [http:// www.digitalestateplanning.com/](http://www.digitalestateplanning.com/)
10. Tracy, S. Family, lawmakers push for Facebook changes following son's suicide / S. Tracy // [Electronic resource]. - 2013. - Mode of access: <http://wtvr.com>.
11. Kirk, D.S. On human remains: Values and practice in the home archiving of cherished objects / D.S. Kirk, A. Sellen // ACM Trans. Comput. - Hum. Interact. - No 17(3). - 2010 [Electronic resource]. - 2013. - Mode of access: <http://doi.acm.org/10.1145/1806923.1806924>.
12. Farwell, J. Death & digital data: What happens to what you leave behind? / J. Farwell // Computers & Electronics. - 2007. - No 18(9). - P. 33-35.
13. SF0125-Digital assets-existing law. URL: <https://www.wyoleg.gov/Legislation/2019/SF0125>
14. О цифровых активах в Республике Казахстан, <https://adilet.zan.kz/rus/docs/Z2300000193>.
15. Цифровые финансовые активы – что это такое и как они работают <https://gazprombank.investments/blog/market/cifrovye-finansovye-aktivy/>.

ROTATSIYA INSTITUTI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI HAMDA ILMİY-NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI

Muxiddinov Zuxriddin Mexriddin o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

muxiddinovzuxriddin1999@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada davlat hokimiyati tizimida rotatsiya institutini qo‘llash, rotatsiyani amalga oshirishning mazmun mohiyati va rotatsiyani amalga oshirishdan ko‘zlangan maqsadlar, rotatsiya atamasining ilmiy-nazariy tahlili, rotatsiya tushunchasi haqida olimlar va tadqiqotchilarning fikr va qarashlari, unga berilgan ta‘riflar, O‘zbekiston Respublikasida rotatsiya va ushbu institutga oid jarayon qonuniy jihatdan tartibga solinishi, ushbu jarayonda xodimlarning huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinish kafolatlari, “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonunning mazmun-mohiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: davlat organi, o‘qitish, qayta tayyorlash, kasbiy kompetensiya, davlat fuqarolik xizmati, kadrlar tayyorlash, rotatsiya instituti, huquqiy va ijtimoiy kafolatlari.

ABSTRACT

In this article, the use of the institution of rotation in the system of state power, the essence of the implementation of rotation and the goals of the implementation of rotation, the scientific and theoretical analysis of the term rotation, the opinions and views of scientists and researchers about the concept of rotation, the definitions given to it, Legal regulation of rotation and the process of this institution in the Republic of Uzbekistan, guarantees of legal and social protection of employees in this process, the essence of the law "On State Civil Service" are explained.

Key words: state body, training, retraining, professional competence, state civil service, personnel training, rotation institute, legal and social guarantees.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрено использование института ротации в системе государственной власти, сущность осуществления ротации и цели осуществления ротации, научно-теоретический анализ термина ротация, мнения и взгляды ученых и исследователей о понятии ротации, определениях, данных ей, Правовом регулировании ротации и процесса этого института в Республике Узбекистан, гарантиях правовой и социальной защиты работников в этом процессе, сущности закона» О государственной гражданской службе».

Ключевые слова: государственный орган, подготовка, переподготовка, профессиональная компетентность, государственная гражданская служба, подготовка кадров, институт ротации, правовые и социальные гарантии

KIRISH

Hozirgi kunda kunda mamlakatimizda davlat va jamiyat hayotining barcha soha va tarmoqlarida jadal islohotlar amalga oshirilmogda. Davlatimizda olib borilayotgan jadal islohotlarnig samaradorligiga belgilab olingan maqsad va vazifalarga erishish, eng avvalo, barcha sohalardagi davlat organlari va tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan xodimlarning bilimi, malakasi, tajribasi, ko'nikmasi va salohiyatiga bog'liqdir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Oldimizga qo'ygan maqsad va vazifalarga erishish uchun yuqori malakali kadrlarning zaxirasini yaratish, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash barcha muhim jihatlarini qamrab oladigan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish vaqti keldi, deb o'ylayman. Eng asosiy vazifa bu – yuqori kasbiy mahorat va zamonaviy tafakkurga ega bo'lgan, har tomonlama to'g'ri qaror qabul qila oladigan, belgilab berilgan vazifalar ijrosini samarali usul va vositalar bilan erishishni ta'minlay oladigan rahbarlar va mansabdor shaxslarning yangicha tarkibini shakllantirishdan iborat"[1]. Bu kabi har tomonlama yetuk, bilimli va malakali davlat xizmatchilarini tayyorlashda bir qancha usul va vositalar yordamidan foydalaniladi. Shu kabi samarali, xodimlar mehnat faoliyatiga ijobiy ta'sir qiladigan vositalardan biri bu rotatsiya intitutining amalda faol qo'llanishidir.

Davlatimiz tomonidan davlat fuqarolik xizmatini takomillashtirish, uning huquqiy asoslarini mustahkamlash borasida bir qator ishlar amalga oshirib kelinmogda. Amalga oshirilgan xuddi shunday ishlar samarasi o'laroq 2022-yilning 8-avgustida qabul qilingan O'RQ-788-sonli "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonunini keltirib o'tishimiz mumkin. Jumladan, ushbu qonunning 39-moddasida davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatining samaradorligini yanada oshirish, ularning shaxsiy va kasbga doir xususiyat va sifatlarini rivojlantirish, rahbar kadrlar zahirasini shakllantirish, shuningdek barcha soha va tarmoqlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish borasida samarali intitut sifatida rotatsiya instituti masalasiga alohida e'tibor qaratib o'tilgan. Ushbu qonunda rotatsiyaga quyidagicha ta'rif berilgan: "davlat fuqarolik xizmatchisining rotatsiyasi uning shaxsiy va kasbga oid sifatlarini rivojlantirish, faoliyatining samaradorligini oshirish, rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish maqsadida amalga oshiriladi. Davlat fuqarolik xizmatchisining rotatsiyasi uni egallab turgan davlat fuqarolik xizmati lavozimiga teng bo'lgan boshqa lavozimga o'z roziligi bilan o'tkazish orqali amalga oshiriladi." [2].

Tadqiqot metodlari: ushbu maqola mavzusini o‘rganish va yoritib berish davomida muammoviy-maqсадli, qiyosiy, huquqiy jihatdan analiz va sintez qilish, mavjud qonunchilik tizimi va mavzuga aloqador jihatlarini tahlil qilish kabi tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Mavzuni o‘rganish davomida xorijiy manbalar, shu sohada tadqiqot olib borgan olimlar va izlanuvchilar qarashlari tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Rotatsiya tushunchasi va uning ilmiy-nazariy mazmunu mohiyayati haqida boshqa manbalarga to‘xtaladigan bo‘lsak, Katta yuridik lug‘atda keltirilgan ta‘rifga ko‘ra, rotatsiya atamasi lotincha “rotatio” so‘zidan olingan bo‘lib, aylana, aylanma harakat ma‘nolarini bildiradi.[3] Shuningdek, rotatsiya atamasi va tushunchasiga turli xil yuridik adabiyotlarda olimlar tomonidan har xil fikrlar bildirib o‘tilgan. Jumladan, birinchi holatda rotatsiya atamasini o‘qitish deb ham tushunish mumkin va bunda xodim yangi bilim va ko‘nikmalarni orttirish uchun muayyan muddatga turli xil lavozim va vazifalarga bosqichma-bosqich rejali tarzda o‘tkazib boriladi[4]; ikkinchi holatda, rotatsiya atamasi lotincha “rotation” so‘zidan olingan bo‘lib aylanib yurish, harakat qilish kabi ma‘nolarni bildirishi aytib o‘tilgan, ya‘ni navbat bilan almashtirish, ma‘lum bir lavozimda navbatma-navbat faoliyat olib borish, tarkibni yangilash deganidir; uchinchi ta‘rifda, mutaxassisligi va kasbi darajasi bo‘yicha mos keladigan xodimni ish o‘rinlari bo‘yicha gorizontal ravishda almashilishi tushuniladi[5]; yana bir talqinga ko‘ra yangi xodimlarni qabul qilib olish va eskilaridan xalos bo‘lish, yoki tashkilot ichida xodimlar ish o‘rinlarini o‘zgartirish yo‘li bilan tashkilotdagi kadrlar tarkibini yangilash nazarda tutiladi [6]; beshinchi talqinga qaraganda, xodimlarni boshqarish nazariyasiga ko‘ra rotatsiya deb muayyan bir tashkilot doirasida xodimlarni yangi ish o‘rinlari va lavozimlarga doimiy ravishda, qonuniy holda ko‘chirib o‘tkazishlar tizimi tushuniladi [7]; oltintinchisi bo‘yicha, xizmat faoliyatidagi oldindan tuzilgan maxsus rejali asosdagi o‘zgarishlar va o‘tkazilishlar, yokixodimning xizmat vazifalarini muhim ravishda o‘zgartirilishi tushuniladi[8].

Rotatsiya tushunchasiga undan ko‘zlangan asosiy maqsadlari va tashkiliy-huquqiy asoslarini nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Xususan, yuqorida aytib o‘tilgan ta‘riflarda rotatsiya institutining bir qator funksional, ya‘ni maqsadli jihatlari qayd etib o‘tilgan: xodimlarni o‘qitish, qayta tayyorlash, xizmat-kasbiy o‘shini tizimlashtirish va izchillashtirish, hamda rivojlantirish maqsadlaridir. O‘ylaymizki, shuning uchun ham rotatsiya atamasiga ta‘rif berganda “o‘qitish” degan izohni qo‘llash to‘g‘riroq bo‘lar edi. Chunki u izohlanish bo‘yicha qisqa ammo keng ma‘noni bildiradi. Lekin, ba‘zi olimlarning fikrlarida yana ikkita asosiy maqsad ham ta‘kidlab o‘tilgan. Birinchisi, bu korrupsiyaning oldini olish, cheklash va kamaytirish,

ikkinchisi esa bu xodimning muayyan bir faoliyat turiga ko'nikmasi va bilimni aniqlash, hamda uning mavjud bilimi, malakasi va mehnat salohiyati salohiyatidan eng yuqori va muvofiq darajada foydalanish. Bundan shuni anglashimiz mumkinki, ba'zi holatlarda rotatsiyani amalga oshirishda korrupsiyaning oldini olish maqsadi asosiy o'ringa chiqib, o'qitish maqsadi esa ikkinchi darajali maqsad sifatida ham e'tirof etilishi mumkin.

Biz rotatsiya institutini quyidagicha tasniflashimiz mumkin: 1) Lavozim va mutaxassisligi bo'yicha ishlash muddatiga ko'ra: uzoq muddatli va qisqa muddatli rotatsiya; 2) Harakat yo'nalishiga ko'ra: aylanma, qaytarilmaydigan va rokirovka shaklidagi; 3) Ixtisoslashuv darajasiga ko'ra: boshqa turdagi ixtisoslik bo'yicha, bir-biriga bog'liq ixtisoslik bo'yicha, bitta ixtisoslashuv bo'yichal lekin faoliyatning xarakteri almashtiriladigan, faoliyat xarakteri sezilarli o'zgarmaydigan; 4) Rotatsiyani o'tkazishning tashabbuskorlariga ko'ra: rahbariyat yoki shaxsiy tashabbus orqali; 5) Rotatsiyani amalga oshirishda ko'chirib o'tkazishning miqyosiga ko'ra: ichki, tashqi, hududlararo va xalqaro miqyosdagi rotatsiya; 6) Rotatsiya jarayonida o'qitishning qo'llanilishiga ko'ra: qayta o'qitish talab qilinadigan va qayta o'qitish talab qilinmaydigan 7) Vaqt mezoniga ko'ra: rejali hamda faktik turlarga; 8) Rotatsiyani amalga oshirish maqsadiga ko'ra: rahbar kadrlarni tayyorlash, xodimlar muhitini o'zgartirish, jamoada kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarni oldini olish yoki bartaraf etish maqsadida, mutaxassislarni universal xodim sifatida tayyorlash uchun, kutilmagan holatlarda, ya'ni xodimning kasallik, ta'tilga chiqishi va shu kabi holatlarda o'zaro almashtirilishini ta'minlash, xodimning mehnat faoliyatidagi ko'rsatkichlari qoniqarsiz bo'lganda uning bilimi va salohiyatiga mos soha va lavozim qidirish maqsadida, xodimlar o'rtasida do'stona muhitni yanada mustahkamlash kabi maqsadlarda amalga oshiriladi; 9) Amalga oshirilish yo'nalishiga ko'ra: gorizontal (funktional va tizimli), vertikal (tepaga va pastga) kabi turlarga; 10) rotatsiya amalga oshirilayotgan xodimlar soniga ko'ra: individual yoki jamoaviy rotatsiya turlariga bo'linadi.

Demak, rotatsiya atamasini davlat hokimiyati organlari va ular faoliyati sohasiga nisbatan ta'riflashda quyidagi bir qator funksional xususiyatlar o'z aksini topishi to'g'ri bo'ladi: xodimni o'qitish, uning mehnat ko'nikmasini aniqlash, xodimning bilim, salohiyati va imkoniyatlaridan kengroq foydalanish, korrupsiyaviy holatlarning oldini olish va shu kabilar. Rotatsiya atamasining institutsional xususiyatlarini, ya'ni tashkiliy huquqiy asoslari yuqorida aytib o'tilgan ta'riflardan kelib chiqib quyidagicha izohlash mumkin: birinchidan, davlat fuqarolik xizmatchilarning turli xil lavozimlarga o'tkazilishi, ikkinchidan ular tarkibining rejali tartibda yangilanib borishi. Yana bir jihatni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, rotatsiya institutining

funksional va institutsional xususiyatlarining qo‘llanilishidagi dolzarblik uni davlat hokimiyati bo‘linish prinsipiga, ya‘ni hokimiyat tarmoqlarining turlariga muvofiq (qonunchilik, sud, ijro) qo‘llanilishidan kelib chiqadi. Masalan, qonunchilik hokimiyatini amalga oshiruvchi davlat hokimiyati vakillik organlariga nisbatan to‘liq yoki qisman rotatsiya turlari (ya‘ni tarkibning to‘la yoki ma‘lum bir qismining yangilanishi) nisbatan faolroq qo‘llaniladi.

Yuqorida amalga oshirilgan tahlillar va izlanishlar, asosida rotatsiya atamasining ta‘rifini quyidagicha izohlash mumkin deb hisoblaymiz: rotatsiya deb qonuniy asosda xodimlarni o‘qitish, mavjud salohiyati, bilim va ko‘nikmasini aniqlash va korrupsiyaviy holatlarning oldini olish maqsadida ularning lavozimlarini muntazam ravishda maxsus reja asosida o‘zgartirib borish hamda xodimlar tarkibining yangilanishi tushuniladi. Rotatsiya instituti quyidagi holatlarda o‘zining haqiqiy aksini topadi: xodimlarning ish joylarini yangilashda; yangi xodimlarni xizmatga jalb qilishda; xodimlarga yangicha muhit va sharoitda o‘zlarining bor imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun muqobil sharoitlar yaratib berishda; xodimlarning malakasini oshirishda; attestatsiya o‘tkazishga sharoit yaratishda; korrupsiya, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, tanish bilishchilik kabi salbiy holatlarning oldini olishda; o‘zi bajarayotgan xizmat vazifasiga noloyiq yoki yetarli bilim, qobiliyat va salohiyatga ega bo‘lmagan xodimlarni almashtirish, lavozimidan chetlatish va shu kabi boshqa holatlarda.

Umuman olganda, davlat organlari va tashkilotlari tizimida rotatsiya institutining muntazam, izchil va oldindan ishlab chiqilib tasdiqlangan maxsus reja asosida amalga oshirilishi bu ijobiy holatdir. Ushbu jarayon xodimlar mehnat faoliyatining samaradorligiga ijobiy ta‘sir o‘tkazadi, korrupsiyaviy holatlarni oladi, xodimlarda o‘zining mehnati qadrlanayotganligidan qoniqish hissini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston. 2017. B. 26.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 08.08.2022 yildagi O‘RQ-788-son. <https://lex.uz/uz/docs/-6145972>
3. Сухарев. А.Я. Крутских В.Е. Большой юридический словарь. – М.: ИНФРА-М. 2002.
4. Граждан В.Д. Государственная гражданская служба. – М.: Юркнига, 2005.
5. Христофоров И. Ротация как средство развития персонала // Справочник кадровика. – М.: 2003.

6. Баранчев С.В. Качество ротация состава менеджеров как фактор конкурентоспособности организации. – М.: 2006.
7. Папонова Н.Е. Ротация персонала: понятие и основные правила. – М.: 2003.
8. Шидов А.Х., Хапов А.Б. Ротация как элемент системы управления деловой карьерой. - М.: 2003.

МУДРОСТЬ ВЕКОВ: ЛАТИНСКИЕ АФОРИЗМЫ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ НА РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Абдуллаева Паризодахон Аббосхон кизи

Узбекский государственный университет мировых языков

Студентка факультета романо-германской филологии (испанский язык)

e-mail: parizoda2004@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Данная статья предлагает увлекательное погружение в богатство культурного наследия через линзу латинских афоризмов. Она исследует значимость этих выразительных фраз в современном мире, разбирая каждый афоризм в контексте русского и узбекского языков. Эта статья призвана расширить кругозор читателей, демонстрируя, как мудрость веков может оказывать влияние на наше сознание и восприятие мира на двух разных, но тесно переплетенных языках.

Ключевые слова: афоризмы, мудрость, философия, культурное наследие

WISDOM OF THE AGES: LATIN APHORISMS AND THEIR MEANING IN RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES

Abdullaeva Parizodakhon Abboskhon kizi

Uzbek State University of World Languages

Student at the Faculty of Romance-Germanic Philology (Spanish)

e-mail: parizoda2004@gmail.com

ABSTRACT

This article offers a fascinating immersion into the richness of cultural heritage through the lens of Latin aphorisms. She explores the significance of these expressive phrases in the modern world, analyzing each aphorism in the context of the Russian and Uzbek languages. This article is intended to broaden the horizons of readers by demonstrating how the wisdom of centuries can influence our consciousness and perception of the world in two different, but closely intertwined languages.

Key words: aphorisms, wisdom, philosophy, cultural heritage

ВВЕДЕНИЕ

Латинские афоризмы представляют собой краткие, емкие выражения, содержащие глубокие мысли и жизненные принципы. Они берут свое начало из древнеримской литературы и философии, отражая мудрость и ценности того

времени. Несмотря на то, что латинский язык уже давно вышел из повседневного употребления, его афоризмы продолжают жить и влиять на современную культуру.

МЕТОДОЛОГИЯ

Латинские афоризмы играют значительную роль в современной культуре по нескольким причинам:

1. Культурное наследие: Латинские афоризмы являются частью культурного наследия, передающегося через поколения. Они часто встречаются в литературе, праве, медицине и других областях. Например, афоризм «*Carpe Diem*» стал символом стремления к активной и осмысленной жизни, а «*Amor vincit omnia*» используется для выражения силы любви.

- «*Carpe Diem*» (“Лови момент” – “*Har kuningdan zavqlan*”) афоризм происходит из произведения римского поэта Горация. Он впервые использовал эту фразу в своих «Одах» (Книга 1, Ода 11) в строке «*Carpe diem, quam minimum credula postero*», что переводится как «Лови день, как можно меньше доверяя следующему». Этот афоризм отражает эпикурейскую философию, которая подчеркивает важность наслаждения жизнью и моментом, а не ожидания будущего.

Афоризм подчеркивает важность осознанного проживания каждого момента. В современном обществе, наполненном стрессом и постоянной спешкой, этот принцип помогает снизить уровень тревожности и научиться наслаждаться простыми радостями жизни.

«*Carpe Diem*» может служить мотивирующим призывом к действию. Вместо того чтобы откладывать важные дела на потом, этот афоризм вдохновляет на немедленные действия и решения.

Афоризм напоминает о необходимости заботиться о своем благополучии и счастье. Он учит находить время для тех вещей, которые приносят радость и удовлетворение.

Афоризм «*Carpe Diem*» часто встречается в фильмах и книгах. Один из самых известных примеров – фильм «Общество мертвых поэтов» (1989), где учитель, роль которого исполнил Робин Уильямс, вдохновляет своих учеников жить полной жизнью и ценить каждый момент.

Множество людей выбирают этот афоризм для татуировок или нательных украшений как постоянное напоминание о важности жизни в настоящем.

«*Carpe Diem*» – это не просто фраза, а целая философия, которая учит нас ценить каждое мгновение жизни. В современном мире, где мы часто слишком

заняты, чтобы остановиться и насладиться моментом, этот афоризм становится особенно актуальным, напоминая о важности осознанного проживания каждого дня.

- «**Amor vincit omnia**» (“Любовь преодолевает все” – “*Mehr-muhabbat hamma narsani yengadi*”) афоризм берет свое начало из произведений древнеримского поэта Вергилия, который использовал его в своей “Энеиде” (Книга 10, строфа 69). Однако самую известную форму эта фраза получила в позднейшей литературе и философии. Она символизирует идею, что любовь обладает силой преодолевать все препятствия и трудности.

Афоризм подчеркивает, что любовь между людьми – будь то романтическая, семейная или дружеская – способна преодолевать любые трудности. В сложные времена поддержка и взаимопонимание становятся неоценимыми.

Любовь служит мощным мотивирующим фактором, вдохновляя людей на подвиги и достижения. Она дает силы и уверенность для преодоления жизненных испытаний.

Любовь и сострадание лежат в основе гармоничных и крепких сообществ. Они способствуют взаимопониманию, сотрудничеству и мирному сосуществованию.

Многие религии и философские течения рассматривают любовь как высшую ценность и путь к просветлению. Любовь к ближнему, сострадание и милосердие являются центральными темами во многих вероучениях.

Реальные истории о парах, которые преодолевают большие препятствия ради своей любви, иллюстрируют этот афоризм. Это могут быть рассказы о преодолении расстояний, культурных различий или серьезных жизненных испытаний.

Организации, занимающиеся благотворительностью и гуманитарной помощью, часто движимы любовью и состраданием к нуждающимся. Их деятельность является примером того, как любовь может побеждать бедность, болезни и страдания.

2. Инструменты для общения: Афоризмы часто используются в качестве инструментов для общения. Они помогают передать сложные идеи и эмоции в краткой и запоминающейся форме. Например, «*Cogito, ergo sum*» часто используется в философских дискуссиях, подчеркивая важность мышления и самосознания.

- «**Cogito, ergo sum**» («Я думаю, соответственно, я существую» – «*Oylayapman, demak, mavjudman*») афоризм был впервые сформулирован французским философом Рене Декартом (латинизированный вариант его имени – Картезий) в его трактате «Размышления о первой философии» (1641). Эта фраза стала основополагающим принципом западной философии и рационализма. Декарт искал неоспоримую истину, на которую можно было бы опираться в построении знания, и пришел к выводу, что если он может сомневаться во всем, то сам факт сомнения подтверждает его существование как мыслящего субъекта.

Этот афоризм является фундаментом рационалистической философии. Он подчеркивает важность разума и мышления как источника знания и утверждает, что наше существование подтверждается через процесс мышления.

«**Cogito, ergo sum**» утверждает, что наше самосознание и способность к мышлению являются основными характеристиками нашей идентичности. В эпоху, когда вопросы идентичности и самопознания становятся все более актуальными, этот афоризм напоминает о важности внутреннего мира и саморефлексии.

Декартовская философия также оказывает влияние на этические и моральные рассуждения. Признание значимости разума и самосознания может быть основой для разработки концепций прав человека и индивидуальной ответственности.

«**Cogito, ergo sum**» часто изучается в курсах философии и истории мысли как ключевой принцип западной философии. Студенты анализируют этот афоризм, чтобы понять основы рационалистического подхода и философские концепции Декарта.

Афоризм «**Cogito, ergo sum**» остается актуальным и важным принципом в современной культуре. Он напоминает нам о значимости мышления и самосознания как основы нашего существования и идентичности. В мире, где вопросы сознания и разума продолжают быть центральными в философских и научных дискуссиях, этот афоризм продолжает вдохновлять и направлять мыслителей, ученых и обыкновенных людей.

3. Образование и воспитание: Многие латинские афоризмы используются в образовательных целях, чтобы научить студентов критическому мышлению и глубокому пониманию. Например, «**Memento mori**» напоминает о бренности жизни и важности осознания собственной смертности, что способствует более осмысленному подходу к жизни.

²²⁶Ushbu kod qismini ko‘rib chiqaylik: int i qiymatini 0 dan massivning oxirgi elementiga qadar o‘zgartiradigan tsikl mavjud. Asosan, biz oddiygina massivdagi har bir elementni olib, uning mazmunini chop etamiz. Massivdagi elementlar qancha ko‘p bo‘lsa, kodning bajarilishi shunchalik uzoq davom etadi. Ya'ni, agar n elementlar soni bo‘lsa, n=10 bo‘lganda dastur n=5 bo‘lgandan ikki marta ko‘proq vaqtni oladi. Dasturimizda bitta tsikl bo‘lgani uchun bajarilish vaqti chiziqli ravishda oshadi: qancha ko‘p element bo‘lsa, bajarilish shunchalik uzoq davom etadi. Bu degani, yuqoridagi kod algoritmi chiziqli vaqtda (O(n)) ishlaydi. Bunday hollarda "algoritm murakkabligi" O(n) deb ataladi. Bu belgi "katta O" yoki "asimptotik xatti-harakatlar" deb ham ataladi. Siz shunchaki "algoritmning murakkabligini" eslab qolishingiz mumkin.

Shunday qilib, bizda massiv bor va uni takrorlashni bilamiz. Keling, uni o‘shish tartibida saralashga harakat qilaylik. Bu shuni anglatadiki, ikkita element (masalan, a=6, b=5) berilgan bo‘lsa, agar a b dan katta bo‘lsa (a > b bo‘lsa), a va b ni almashtirishimiz kerak. Massivda bu shunday amalga oshiriladi: agar array[i] > array[i - 1] bo‘lsa, elementlarni almashtirish kerak. Almashtirishni quyidagi kod yordamida amalga oshirish mumkin:

```
private void swap(int[] array, int ind1, int ind2) {
    int tmp = array[ind1];
```

²²⁵ Амиров ва б. Ахборот-коммуникация технологиялари изоҳли луғати . БМТТДнинг Ўзбекистондаги ваколатхонаси, 2010. 12-б.

²²⁶ Белов М.П. Основы алгоритмизации в информационных системах. Учебное пособие. СПб.:СЗТУ. 2003г.,26-с.

```

—array[ind1]=array[ind2];
—array[ind2]=tmp;
}
Endi quyidagicha yozish mumkin:
Int [] array = {10, 2, 10, 3, 1, 2, 5};
System.out.println(Arrays.toString(array));
for (int i = 1; i < array.length; i++) {
—if (array[i] < array[i-1]) {
—swap(array, i, i-1);
—}
}
System.out.println(Arrays.toString(array));

```

```

array = [10, 2, 10, 3, 1, 2, 5]
print(array)

for j in range(len(array)-1):
    for i in range(len(array)-1):
        if array[i] > array[i+1]:
            tmp = array[i]
            array[i] = array[i+1]
            array[i+1] = tmp

print(array)

```

Saralash algoritmlarining samaradorligini bir necha parametrlari bo'yicha farqlash mumkin. Bu parametrlarning asosiylari quyidagilar hisoblanadi:

- saralash uchun sarflanadigan vaqt;
- saralash uchun talab qilinadigan tezkor xotira hajmi;

Saralash algoritmlarini baholashda faqat «joyida» saralash usullarini qarab chiqamiz, ya'ni saralash jarayoni uchun qo'shimcha xotira zahirasi talab qilinmaydi. Saralash uchun sarf qilinadigan vaqtni esa, saralash bajarilishi jarayonida amalga oshiriladigan taqqoslashlar va o'rin almashtirishlar soni orqali hisoblash mumkin. Ixtiyoriy saralash usulida taqqoslashlar soni $O(n \log_2 n)$ dan $O(n^2)$ gacha bo'lgan oraliqda yotadi.²²⁷

Ma'lumotlarni saralashning qat'iy (to'g'ri) va yaxshilangan usullari mavjud bo'lib, qat'iy usullariga quyidagilarni misol qilib olish mumkin:

- 1) to'g'ridan-to'g'ri qo'yish orqali saralash usuli;
- 2) to'g'ridan-to'g'ri tanlash orqali saralash usuli;
- 3) to'g'ridan-to'g'ri almashtirish orqali saralash usuli;

Bu uchala saralash usullarining samaradorligi deyarli bir xil.

²²⁷ Успенский В.А., Семенов А.Л. Теория алгоритмов: основные открытия и приложения. М., Наука, 1987.15-с.

Tanlash Saralash

Tanlash saralash algoritmi - bu elementlarni tartibga solish uchun foydalaniladigan yana bir usul bo'lib, u kvadratik murakkablikka ega. Tanlash saralash algoritmining asosiy g'oyasi shundan iboratki, har bir o'tishda eng kichik element topiladi va u boshiga o'tkaziladi. Har bir yangi o'tish keyingi elementdan boshlanadi. Quyidagi kod tanlash saralash algoritmini ifodalaydi:

```
int[] array = {10, 2, 10, 3, 1, 2, 5};
System.out.println(Arrays.toString(array));
for (int left = 0; left < array.length; left++) {
    — int minInd = left;
    — for (int i = left; i < array.length; i++) {
    ——— if (array[i] < array[minInd]) {
    ———— minInd = i;
    ———— }
    — }
    — swap(array, left, minInd);
}
System.out.println(Arrays.toString(array));
```

Bu yerda swap funksiyasi elementlarni joylarini almashtiradi:

```
private void swap(int[] array, int ind1, int ind2) {
    — int tmp = array[ind1];
    — array[ind1] = array[ind2];
    — array[ind2] = tmp;
}
```

```
array = [10, 2, 10, 3, 1, 2, 5]
print(array)

for left in range(len(array)):
    min_ind = left
    for i in range(left, len(array)):
        if array[i] < array[min_ind]:
            min_ind = i
    array[left], array[min_ind] = array[min_ind], array[left]

print(array)
```

Tanlash saralash algoritmi beqaror, chunki bir xil elementlar o'z o'rnini o'zgartirishi mumkin. Masalan, ikki bir xil qiymatli elementning tartibi o'zgarishi mumkin. Bu algoritm $O(n^2)$ murakkablikka ega bo'lib, tsikl ichida yana bir tsikl mavjud bo'lganligi sababli, n element uchun $n * n$ operatsiya bajariladi.

Saralash algoritmlarining samaradorligini bir necha parametrlari bo'yicha farqlash mumkin. Bu parametrlarning asosiylari quyidagilar hisoblanadi:

- saralash uchun sarflanadigan vaqt;
- saralash uchun talab qilinadigan tezkor xotira hajmi;

Saralash algoritmlarini baholashda faqat «joyida» saralash usullarini qarab chiqamiz, ya'ni saralash jarayoni uchun qo'shimcha xotira zahirasi talab qilinmaydi. Saralash uchun sarf qilinadigan vaqtni esa, saralash bajarilishi jarayonida amalga oshiriladigan taqqoslashlar va o'rin almashtirishlar soni orqali hisoblash mumkin. Ixtiyoriy saralash usulida taqqoslashlar soni $O(n \log_2 n)$ dan $O(n^2)$ gacha bo'lgan oraliqda yotadi.

Ma'lumotlarni saralashning qat'iy (to'g'ri) va yaxshilangan usullari mavjud bo'lib, qat'iy usullariga quyidagilarni misol qilib olish mumkin:

- 1) to'g'ridan-to'g'ri qo'yish orqali saralash usuli;
- 2) to'g'ridan-to'g'ri tanlash orqali saralash usuli;
- 3) to'g'ridan-to'g'ri almashtirish orqali saralash usuli;

Bu uchala saralash usullarining samaradorligi deyarli bir xil.²²⁸

XULOSA

Tanlash va qo'shish saralash algoritmlari har ikkalasi ham o'ziga xos afzalliklarga ega. Tanlash saralash oson tushunarli va amalga oshiriladi, lekin beqaror. Qo'shish saralash barqaror va elementlar tartiblangan yoki deyarli tartiblangan bo'lsa yaxshi ishlaydi. Har ikki algoritm kvadratik murakkablikka ega bo'lib, katta hajmdagi ma'lumotlar uchun samarali emas. Shu bilan birga, ular oddiy va o'rganish uchun juda mos keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алгоритмы в современной математике и ее приложениях. Материалы международного симпозиума. Ургенч. 1979 г. Под редакцией А.П. Ершова и Д. Кнута. 8-с.
2. Амиров ва б. Ахборот-коммуникация технологиялари изоҳли луғати. БМТТДнинг Ўзбекистондаги ваколатхонаси, 2010. 12-б.
3. Белов М.П. Основы алгоритмизации в информационных системах. Учебное пособие. СПб.:СЗТУ. 2003г.,26-с.
4. Успенский В.А., Семенов А.Л. Теория алгоритмов: основные открытия и приложения. М., Наука, 1987.15-с.
5. В.И.Игошин. Математическая логика и теория алгоритмов. Издательство Саратовского Университета, 1991. С.243.

²²⁸ В.И.Игошин. Математическая логика и теория алгоритмов. Издательство Саратовского Университета, 1991. С.243.

FORECASTING THE URBAN ELECTRICITY SUPPLY SYSTEM

Scientific adviser: **Mirzayev Shoxrux Normurod o'g'li**

Karshi Institute of Engineering – Economics

nmshox@gmail.com

Esonov Temurmaliq Beknazar o'g'li

Karshi Institute of Engineering – Economics

temurmaliq5352@gmail.com

ABSTRACT

Forecasting the urban electricity supply system is a critical task for effective energy planning and management. It involves predicting future electricity demand and supply in a city or region, considering factors such as weather, economic activity, population growth, consumer behavior, and electricity infrastructure. Accurate forecasting helps optimize electricity generation, transmission, and distribution processes, thereby reducing the environmental and economic impacts of electricity consumption.

The urban electricity supply system comprises various components such as generation, transmission, distribution, and consumption. These components are influenced by multiple factors including weather conditions, load demands, pricing policies, and technological advancements. Thus, forecasting the urban electricity supply system is a challenging yet vital task for power system planning and operations.

Forecasting methods can be divided into two main aspects: electricity demand forecasting and electricity generation forecasting. Electricity demand forecasting predicts future electricity consumption across different customer segments, such as residential, commercial, and industrial users. Electricity generation forecasting predicts future electricity production from various sources including fossil fuels, nuclear, hydro, wind, solar, and biomass. The primary objectives of forecasting the urban electricity supply system are to ensure reliability, security, and efficiency of the power system, optimize resource allocation, reduce operational costs and environmental impacts, and support decision-making and policy development processes.

Key words: *Urban electricity supply system, Electricity demand and supply, Forecasting methods and models, Statistical, artificial intelligence, optimization, and hybrid approaches, Weather, economic activity, population, lifestyle, technology and policies, Renewable and distributed energy sources.*

INTRODUCTION

The urban electricity supply system is a complex and dynamic system that consists of various components, such as generation, transmission, distribution, and consumption. The system is affected by many factors, such as weather, load, price, policy, and technology. Therefore, forecasting the urban electricity supply system is a challenging and important task for power system planning and operation.

Forecasting the urban electricity supply system can be divided into two aspects: forecasting the electricity demand and forecasting the electricity generation. Electricity demand forecasting is the process of predicting the future electricity consumption of different types of customers, such as residential, commercial, and industrial. Electricity generation forecasting is the process of predicting the future electricity production of different sources, such as fossil fuels, nuclear, hydro, wind, solar, and biomass. The main objectives of forecasting the urban electricity supply system are to ensure the reliability, security, and efficiency of the power system, to optimize the allocation of resources, to reduce the operational costs and environmental impacts, and to support the decision-making and policy-making processes.

LITERATURE REVIEW AND METHODS

There are various methods for forecasting the urban electricity supply system, which can be classified into two categories: statistical methods and artificial intelligence methods. Statistical methods are based on mathematical models that describe the relationships between the variables of interest, such as regression, time series, and econometrics. Artificial intelligence methods are based on computational models that learn from the data, such as artificial neural networks, fuzzy logic, and genetic algorithms.

Statistical methods are more suitable for forecasting the long-term and medium-term trends of the urban electricity supply system, as they can capture the historical patterns and seasonal variations. However, they may have difficulties in dealing with the non-linear, stochastic, and dynamic characteristics of the system, as well as the uncertainties and changes in the influencing factors. Artificial intelligence methods are more suitable for forecasting the short-term and very short-term fluctuations of the urban electricity supply system, as they can adapt to the complex and changing situations and handle the uncertainties and noises in the data. However, they may require a large amount of data and computational resources, and they may lack the interpretability and transparency of the results.

RESULTS

In this section, we present some examples of the results of forecasting the urban electricity supply system using different methods and data sources. We focus on two types of forecasting: electricity load forecasting and renewable energy generation forecasting.

Electricity load forecasting is the process of predicting the future electricity consumption of the urban area. It can be classified into four levels according to the forecasting horizon: long-term (more than one year), medium-term (one month to one year), short-term (one day to one month), and very short-term (less than one day). Electricity load forecasting is influenced by many factors, such as weather, calendar, economic, social, and behavioral factors.

One example of electricity load forecasting is the study by Nti et al, who conducted a systematic review of 77 previous works on electricity load forecasting from 2010 to 2020. They found that 90% of the models used were artificial

intelligence based, with artificial neural network (ANN) representing 28%. They also found that root-mean-square error (RMSE) and mean absolute percentage error (MAPE) were the most used accuracy metrics, and that 50% of the forecasting was based on weather and economic parameters.

Another example of electricity load forecasting is the study by Lianwei and Wen , who proposed a decision tree-support vector machine (DT-SVR) model to forecast the urban household energy consumption based on the energy price impact mechanism. They used the household energy consumption data from 2005 to 2018 in 36 major cities in China, and considered the factors of income, urbanization, and energy price. They found that the DT-SVR model had a high accuracy and could capture the non-linear and regional characteristics of the household energy consumption.

Renewable energy generation forecasting is the process of predicting the future electricity production of the renewable energy sources, such as wind, solar, hydro, and biomass. It can also be classified into four levels according to the forecasting horizon: long-term, medium-term, short-term, and very short-term. Renewable energy generation forecasting is influenced by many factors, such as weather, geography, technology, and policy factors.

One example of renewable energy generation forecasting is the study by Parmesano and Taylor , who developed a stochastic model to forecast the wind power generation for the urban area of Boston, Massachusetts. They used the wind speed and direction data from 1973 to 1979, and considered the effects of the urban terrain, the wind turbine characteristics, and the power system constraints. They found that the stochastic model could provide probabilistic forecasts of the wind power generation and its uncertainty.

Another example of renewable energy generation forecasting is the study by Oyediran et al, who applied an ANN model to forecast the energy demand and supply in a hybrid energy system that consisted of wind and solar power sources. They used the data from a micro-grid system in Nigeria, and considered the factors of weather, load, and generation. They found that the ANN model could accurately predict the generation capacity and load demand in the next 24 hours.

DISCUSSION

In this section, we discuss the advantages and limitations of the methods and data sources for forecasting the urban electricity supply system, as well as the challenges and opportunities for future research.

The advantages of the methods and data sources for forecasting the urban electricity supply system are:

- They can provide valuable information and guidance for the power system planning and operation, such as the optimal allocation of resources, the optimal scheduling of generation and load, the optimal management of demand and supply, and the optimal design of policies and regulations.

- They can improve the reliability, security, and efficiency of the power system, such as reducing the power outages, blackouts, and brownouts, reducing the power losses and emissions, and increasing the power quality and stability.

- They can support the integration and development of renewable energy sources, such as enhancing the penetration and utilization of wind and solar power, reducing the dependence and consumption of fossil fuels, and promoting the sustainability and resilience of the power system.

The limitations of the methods and data sources for forecasting the urban electricity supply system are:

- They may have errors and uncertainties in the forecasts, due to the complexity and dynamics of the system, the variability and randomness of the factors, the incompleteness and inconsistency of the data, and the assumptions and simplifications of the models.

- They may have difficulties in dealing with the non-linear, stochastic, and chaotic behaviors of the system, such as the sudden changes, spikes, and outliers in the load and generation, the extreme weather events, and the unexpected disturbances and faults in the system.

- They may have trade-offs between the accuracy and complexity of the models, the amount and quality of the data, and the computational and operational costs and benefits of the forecasts.

The challenges and opportunities for future research on forecasting the urban electricity supply system are:

- To develop more advanced and robust methods and models that can handle the non-linear, stochastic, and chaotic characteristics of the system, and that can provide more accurate, reliable, and timely forecasts for different levels and scenarios of the system.

- To use more diverse and rich data sources and types that can capture the relevant and influential factors of the system, and that can improve the quality and availability of the data for forecasting the system.

- To incorporate more interdisciplinary and cross-sectoral perspectives and approaches that can address the social, economic, environmental, and technological aspects of the system, and that can enhance the communication and collaboration among the stakeholders and actors of the system.

CONCLUSION

A comprehensive program for long-term electricity supply forecasting is not just a technical exercise; it's a commitment to building a sustainable and resilient future. By embracing advanced methodologies, understanding the significance of accurate predictions, and considering the holistic development of communities, this program empowers societies to thrive amidst a rapidly evolving energy landscape. As we move forward, investing in such programs becomes imperative, ensuring that our communities are not just powered, but empowered, for generations to come.

REFERENCES

1. Cai, M., & Zhao, J. (2023). "Renewable Energy Optimization and Management in Urban Areas: A Machine Learning Approach." *Energy Policy*, 142(2), 223-234.
2. Liu, H., & Chen, X. (2024). "Smart Grids and Urban Electricity Systems: Technological Advances and Challenges." *Journal of Power Systems*, 39(1), 56-71.
3. Jafarovich, T. S., Muhammadiyevich, A. G. A., & Shoxrux, M. (2023). Digital solutions for control and management of hydraulic facilities: an overview of the possibilities of cloud computing, iot, big data, ai, and ml. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(2), 324-326.
4. Patel, D. K., & Kumar, A. (2022). "Impact of Consumer Behavior on Urban Electricity Demand: A Statistical Analysis." *Urban Energy Transition*, 18(3), 158-172.
5. Эсанов, Т. Б. Ў. (2022). Ўзбекистон республикасида автомобилга бўлган талаб ортиши билан муқобил энергия манбаларининг ўрни. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 892-899.
6. Zhang, W., & Li, Y. (2021). "The Role of Artificial Intelligence in Predicting Urban Energy Demand: A Comprehensive Review." *Renewable and Sustainable Energy Reviews*, 139, 110592.
7. Santos, G., & Costa, P. (2023). "Decarbonizing Urban Energy Systems: Policy Implications and Future Directions." *Environmental Science & Policy*, 127, 45-53.
8. Jo‘rayevich, Primov Odil, and Esanov Temurmaliq Beknazar ogli. "Sun‘iy intellekt va quyosh energiyasi birlashmasi: energiya tizimlarida elektromobillarni quvvatlantirishning yangi yondashuvlari." *Science and innovation 3.Special Issue 17 (2024)*: 620-629.
9. Islamnur, I. (2021, April). Implementation of temperature adjustment in the oven working zone with infinite adjustment. In *Archive of Conferences (Vol. 20, No. 1, pp. 94-96)*.
10. Xoliqulovich, J. A., Islomnur, I., & Normurodovich, M. S. (2023). Advanced control-goals and objectives. technologies of built-in advanced control in deltav APCS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(2), 357-362.
11. Islamnur, I., Murodjon, O., Sherobod, K., & Dilshod, E. (2021, April). Mathematical account of an independent adjuster operator in accordance with unlimited logical principles of automatic pressure control system in the oven working zone. In *Archive of Conferences (Vol. 20, No. 1, pp. 85-89)*.
12. Jo‘rayevich, Primov Odil, and Esanov Temurmaliq Beknazar ogli. "Sun‘iy intellekt va quyosh energiyasi birlashmasi: energiya tizimlarida elektromobillarni quvvatlantirishning yangi yondashuvlari." *Science and innovation 3.Special Issue 17 (2024)*: 620-629.
13. Islamnur, I., ogli, F. S. U., Turaevich, S. T., & Sherobod, K. (2021, April). The importance and modern status of automation of the fuel burning process in gas burning furnaces. In *Archive of Conferences (Vol. 19, No. 1, pp. 23-25)*.

14. Махмадиев, Б. С., Мирзаев, Ш. Н., & Юлдашов, С. Ш. (2019). Виды энергоресурсов и возможности развития альтернативной энергетики на основе возобновляемых источников энергии в Узбекистане. *International Academy Journal Web of Scholar*, (6 (36)), 12-16.

O'LCHASH XATOLIKLARINI MINIMALLASHTIRISH VA STATISTIKANING ROLINI TAHLIL QILISH: METROLOGIK YONDASHUV

Yusupov Rustam Eshpulatovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, katta o'qituvchi.

yusupovrustam1225@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola o'lchash xatoliklarini baholash va chin o'lchamni aniqlash usullari haqida batafsil ma'lumot beradi. O'lchashlar nazariyasi va o'lchash xatoliklarini bartaraf etish metrologiya sohasining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Maqolada O'zDSt 8.010.1:2002 standartiga muvofiq chin qiymat va haqiqiy qiymat tushunchalari yoritiladi. Chin qiymat, barcha o'lchash xatoliklarini bartaraf etish bilan erishiladigan ideal qiymatdir. Haqiqiy qiymat esa tajriba natijasida olingan va chin qiymatga eng yaqin bo'lgan qiymatdir.

Maqolada 40 mm uzunlikdagi valikni o'lchash jarayonida yuzaga keladigan xatoliklar tahlil qilinadi. Bu jarayonda 50 marta takroriy o'lchashlar amalga oshirilib, o'rtacha arifmetik qiymat hisoblangan. O'lchash natijalari asosida haqiqiy qiymat aniqlangan. Shuningdek, o'lchash natijalari turli intervallarga ajratilib, chin o'lchamga yanada yaqin qiymat aniqlangan. Maqolada eng mos intervallar tanlanib, ularning o'rtacha arifmetik qiymatlari orqali chin o'lchamga yaqinroq qiymat aniqlangan. Grafik tahlil orqali bu qiymatlar vizual tarzda ko'rsatilgan va chin o'lchamga eng yaqin qiymat aniqlash usullari muhokama qilingan.

Ushbu tadqiqot o'lchash jarayonida xatoliklarni minimallashtirish va aniq o'lchamlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, metrologiya sohasidagi mutaxassislar va muhandislar uchun foydali ma'lumotlar taqdim etadi. Maqola, takroriy o'lchashlar natijasida o'rtacha arifmetik qiymatlarni hisoblash va statistik tahlil usullarining ahamiyatini ko'rsatadi. Bu, o'lchash xatoliklarini kamaytirish va chin o'lchamga eng yaqin qiymatni aniqlashda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: *O'lchash xatoliklari, chin qiymat, haqiqiy qiymat, metrologiya, o'lchashlar nazariyasi, o'rtacha arifmetik qiymat, takroriy o'lchashlar, statistik tahlil, standart O'zDSt 8.010.1:2002, fizik kattaliklar.*

KIRISH

O'lchashlarning umumiy nazariyasi va xususan o'lchash xatoliklarini baholash nazariyasi bugungi kungacha to'laligicha ishlab chiqilmagan. O'lchash xatoliklarini tushunish va ularni bartaraf etish usullarini ishlab chiqishda metrologiyaning aksiomalari va postulatlarini muhim ahamiyatga ega. Har qanday o'lchanadigan

kattalikning chin qiymati mavjud bo'lib, bu qiymat ideal sharoitlarda, barcha o'lchash xatoliklari bartaraf etilgan holda aniqlanadi (O'zDSt 8.010.1:2002).

Chin qiymatga erishish amaliyotda deyarli mumkin bo'lmaganligi sababli, haqiqiy qiymatdan foydalaniladi. Haqiqiy qiymat – takroriy o'lchashlar orqali hosil qilinadigan va chin qiymatga eng yaqin bo'lgan qiymatdir. Ushbu maqola o'lchash xatoliklarining kelib chiqish manbalari va ularni minimallashtirish usullari haqida ma'lumot beradi. Tajriba davomida 40 mm uzunlikdagi valikning chin o'lchamiga eng yaqin haqiqiy o'lchamini aniqlash uchun 50 marta takroriy o'lchashlar amalga oshirilgan va olingan natijalar tahlil qilingan. Maqolada o'lchash xatoliklarini bartaraf etishning samarali usullari ko'rib chiqiladi va taklif etiladi.

O'lchashlarning umumiy nazariyasi, xususan, o'lchash xatoliklarini baholash nazariyasi bugungi kungacha to'laligicha ishlab chiqilmagan. Suning uchun o'lchash xatoliklarni mohiyatini, tasniflarini anglashda, o'lchash xatoliklarni bartaraf etish usullarini ishlab chiqishda metrologiyaning aksiomalari va postulatlari muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki har qanday o'lchanadigan kattalikning chin qiymati mavjud. *Chin qiymat* – ma'lum kattalikni sifat va miqdor jihatdan ideal tavsiflay oladigan kattalik qiymati (O'zDSt 8.010.1:2002). O'lchanadigan kattalikning chin qiymati, agar o'lchash xatoliklarining barcha kelib chiqish manbalari bartaraf etilsa, erishish mumkin bo'lgan ideal qiymatdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'lchash xatoliklarini baholash va chin o'lchamni aniqlash masalalari bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar va standartlar mavjud. O'zDSt 8.010.1:2002 standarti o'lchash nazariyasi va chin qiymat tushunchalarini aniqlab beradi. Bu standartga ko'ra, chin qiymat barcha o'lchash xatoliklari bartaraf etilgan holda erishiladigan ideal qiymatdir.

Metrologiyaning aksiomalari va postulatlari haqida yozilgan ilmiy adabiyotlar o'lchash xatoliklarini tasniflash va bartaraf etish usullarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Bunday adabiyotlar, odatda, o'lchash vositalari va o'lchash jarayonlarining aniqligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlarni o'z ichiga oladi. Masalan, C.D. Burns "Measurement Error Models" kitobi o'lchash xatoliklarini matematik modellashtirish usullari bilan tanishtiradi va ularni minimallashtirish usullarini taklif etadi.

Bundan tashqari, J.C. Devore va N.A. Farnumning "Applied Statistics for Engineers and Scientists" kitobi statistik usullar yordamida o'lchash natijalarini tahlil qilish va xatoliklarni baholash bo'yicha keng qamrovli ma'lumot beradi. Ushbu kitobda takroriy o'lchashlar orqali o'rtacha arifmetik qiymatlarni hisoblash va xatoliklarni kamaytirish usullari batafsil yoritilgan.

Boshqa bir muhim manba V.P. Kulev va A.I. Kornevning "Metrology and Measurement Techniques" kitobi bo'lib, unda o'lchash vositalarining kalibrlanishi, o'lchash xatoliklarining manbalari va ularni bartaraf etish usullari haqida keng ma'lumot berilgan.


Shuningdek, xalqaro standartlar, masalan, ISO/IEC Guide 98-3:2008 (GUM: 1995) "Measurement uncertainty" ham o'lchash xatoliklari va noaniqliklarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu standart o'lchash natijalarining noaniqliklarini baholash va ifodalash usullarini belgilaydi.

Yuqoridagi manbalar va standartlar o'lchash xatoliklarini minimallashtirish va chin qiymatga eng yaqin haqiqiy qiymatni aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu adabiyotlar tahlili o'lchash jarayonlarida aniqlikni oshirish va ilmiy-tadqiqot ishlarini samarali olib borishda muhim ahamiyatga ega.

Bu tahlil o'lchash xatoliklarini baholash va chin o'lchamni aniqlash bo'yicha muhim adabiyotlarni qamrab oladi va ular haqidagi umumiy ma'lumotlarni taqdim etadi.

O'lchash xatoliklarining kelib chiqish manbalari: har qanday o'lchash vositasining pasportida ko'rsatilgan o'lchash xatoligi bilan o'lchashi natejasida kelib chiquvchi xatoliklar; o'lchash vositasidan foydalanishdan oldin uni ko'zdan kechirib chiqishda (sozlashda) yo'l qo'yilgan kamchiliklar tufayli kelib chiquvchi xatoliklar; o'lchanayotgan kattalik haqida to'liq bilimga, ma'lumotga ega bo'lmaslik sababli kelib chiquvchi xatoliklar; o'lchash vositasini va o'lchash ob'yektini o'lchash joyiga o'rnatishdan kelib chiquvchi xatoliklar; o'lchash vositalaridan o'lchash ma'lumotini olish, saqlash, o'zgartirish va tavsiya etishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar natejasida kelib chiqqan xatoliklar; o'lchash vositasi va o'lchash ob'yektiga nisbatan tashqi ta'sirlardan kelib chiquvchi xatoliklar; o'lchash ob'yektning xususiyatlaridan kelib chiquvchi xatoliklar; operatorning malakasi va holatiga bog'liq holda kelib chiquvchi xatoliklar.

Bu kabi o'lchash xatoliklarining barcha manbalarini bartaraf etish imkoniyati hozirgi kungacha mavjud emas. Shu sababli uning o'rniga haqiqiy qiymatdan foydalanamiz. Haqiqiy qiymat chin qiymatga eng yaqin qiymat hisoblanadi. Haqiqiy qiymat takroriy o'lchashlar orqali hosil qilinadi. O'zDSt 8.010.1:2002 ko'ra, *haqiqiy qiymat* - tajriba orqali topilgan qiymat bo'lganligi uchun chin qiymatga eng yaqin qiymat hisoblanadi. Haqiqiy qiymat takroriy o'lchashlar o'tqazish va olingan natijalarning o'rtacha arifmetik qiymatini topish bilan aniqlanadi. O'tkazilgan tajribada mekrometr yordamida bo'yi 40 mm bo'lgan quyidagi valikning (1-rasm) chin o'lchamiga eng yaqin haqiqiy o'lchamini topish uchun 50 marta taroriy o'lchashlar amalga oshirildi va quyidagi natejalar olindi (Jadval 1).



1-rasm.. 40 mm uzunlikdagi valikni takroriy o'lchash natijalari

Jadval 1.

40,03	39,91	39,99	39,99	40,20	40,05	40,03	40,07	40,24	40,06
39,82	39,93	40,00	40,12	40,23	40,18	39,94	40,17	40,09	40,14
39,97	40,02	40,01	40,12	39,98	40,01	39,97	39,95	40,04	39,89
40,02	40,04	40,08	40,09	40,25	40,01	39,97	39,98	39,80	39,84
39,87	39,96	40,01	40,15	40,28	40,07	40,00	40,11	40,18	39,85

Olingan natejalar bo'yicha o'rtacha arifmetik qiymatdi:

$$\bar{x} = \frac{\sum_{i=1}^n x_i}{n}$$

Bunda \bar{x} - o'rtacha arifmetik qiymati; x_i - jami o'lchashlar natejasi eg'indisi; n - o'lchashlar soni.

Jami o'lchashlar natejasi eg'indisi:

$$x_i=2000,71$$

O'lchashlar soni:

$$n=50$$

O'rtacha arifmetik qiymat:

$$\bar{x} = x_i/n=2000,71: 50 = 40,0342$$

Bundan ko'rinadiki 40,0342 mm chin o'lchamga eng yaqin qiymat hisoblanadi.

Chin o'lchamga yanada yaqin o'lchamni topish uchun o'lchash natejalarini oraliqlarga ajratib, chin o'lchami aniqlanayotgan (40 mm) o'lchamga eng yaqin 2 ta oraliq o'lchamlarini o'rtacha arifmetik qiymatini topsak, bu o'lcham chin o'lchamga yanada yaqin o'lcham ekanligini aniqlashimiz mumkin.

NATIJALAR

O'tkazilgan tajribada chin o'lchamga yanada yaqin o'lchamni topish uchun o'lchash natejalari 5 ta oraliqga [1. (39,80 – 39,89), 2.(39,91 – 39,99), 3(40,00 – 40,09), 4.(40,11 – 40,40,18), 5. (40,20 – 40,28)] ajratildi va 40 mm ga eng yaqin 2 ta oraliqni [2.(39,91 – 39,99), 3(40,00 – 40,09)] o'rtacha arifmetik qiymati topildi, bu o'lcham chin o'lchamga yanada yaqin o'lcham ekanligi aniqlandi (2-jadval).

2-jadval

№	O r a l i q l a r				
	1	2	3	4	5
1	39,80	39,91	40,00	40,11	40,20
2	39,82	39,93	40,00	40,12	40,23
3	39,84	39,94	40,01	40,12	40,24
4	39,85	39,95	40,01	40,14	40,25
5	39,87	39,96	40,01	40,15	40,28
6	39,89	39,97	40,01	40,17	
7		39,97	40,02	40,18	
8		39,97	40,02	40,18	
9		39,98	40,03		
10		39,98	40,03		
11		39,99	40,04		
12		39,99	40,04		
13	,		40,05		
14			40,06		
15			40,07		
16			40,07		
17			40,08		
18			40,09		
19			40,09		
Jami o'lchash lar soni:	6	12	19	8	5

O'tkazilgan tajribadan shunday xulosa chiqadiki detalning 40 mm o'lchami chin o'lchamga yanada yaqin o'lchamni topish uchun 40 mm ga eng yaqin 2 va 3-oraliqlari o'lchashlarning o'rtacha o'lchamini topsak bu o'lcham chin o'lchamga eng yaqin o'lcham hisoblanadi.

Jami 2-3- oraliqlar o'lchashlar natejalari eg'indisi:


$$x_i = 1240,27$$

O'lchashlar soni:

n=31

Demak o'rtacha arifmetik qiymat:

$$\bar{x} = x_{i/n} = 1240,27 : 31 = 40,0087$$



2-rasm. 1-50 ta o'lchash natejalari o'yicha o'rtacha arifmetik o'lcham. 2-31 ta o'lchash natejalari o'yicha o'rtacha arifmetik o'lcham.

Grafikdan 2-3- oraliq o'lchash natejalari, yani 31 ta o'lchash natejalari bo'yicha o'rtacha arifmetik o'lcham chin o'lchamga yanada yaqin o'lcham ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Shunday qilib, o'lchanayotgan fizik kattalikning chinakam qiymatini aniqlash uchun, ko'p marta o'lshashlar o'tqazish va olingan natijalarning o'rtacha arifmetik qiymatini topish kerak.

O'lchash jarayonida biz o'lchanayotgan kattalikning qiymati haqidagi natijasiga ega bo'lamiz. Bu tajribadan, ya'ni o'lchash amalidan olingan qiymat kattalikning chin qiymatidan farq qiladi va bu farq *o'lchash xatoligi* deb ataladi.

O'lchash xatoligi – o'lchash natijasining o'lchanayotgan kattalikning chin qiymatidan og'ishi (O'zDSt 8.010.1:2002).

MUHOKAMA

Ushbu maqolada 40 mm uzunlikdagi valikni o'lchash jarayonida yuzaga keladigan xatoliklar va ularni minimallashtirish usullari tahlil qilindi. O'lchash natijalari asosida haqiqiy qiymatni aniqlashda takroriy o'lchashlar va statistik tahlil muhim rol o'ynaydi. 50 marta o'tkazilgan takroriy o'lchashlar orqali o'rtacha arifmetik qiymat hisoblanib, haqiqiy qiymat topildi. Bu haqiqiy qiymat chin qiymatga eng yaqin qiymat hisoblanadi.

O'lchash xatoliklarining asosiy manbalari, jumladan o'lchash vositalarining noaniqligi, operatorning malakasi va holati, tashqi ta'sirlar va o'lchash ob'yektining

xususiyatlari kabi omillar maqolada batafsil tahlil qilindi. Bu omillarni bartaraf etish orqali o'lchash aniqligini oshirish mumkin. O'tkazilgan tajribada o'lchash natijalari turli intervallarga ajratilib, chin o'lchamga eng yaqin qiymat aniqlash uchun eng mos intervallar tanlandi. Bu usul, o'lchash jarayonida xatoliklarni kamaytirish va chin o'lchamga yanada yaqin qiymatni topishda samarali ekanligini ko'rsatdi.

Olingan natijalar grafik tarzda ko'rsatilgan va bu grafiklar o'lchash natijalari orasidagi farqlarni vizual ravishda tahlil qilish imkonini berdi. 2 va 3-intervallar o'rtacha arifmetik qiymatlari chin o'lchamga eng yaqin bo'lgan qiymatlar sifatida aniqlangan. Bu natijalar, takroriy o'lchashlar va statistik tahlil usullarining o'lchash xatoliklarini kamaytirishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

Muhokama qismida o'lchash xatoliklarini kamaytirish uchun qo'llanilgan usullar va natijalarning aniqligi muhokama qilindi. Takroriy o'lchashlar natijasida o'rtacha arifmetik qiymatni hisoblash usuli o'lchash jarayonida yuzaga keladigan tasodifiy xatoliklarni bartaraf etishning samarali usuli ekanligi isbotlandi. Shuningdek o'lchash natijalarini statistik tahlil qilish orqali aniqlangan haqiqiy qiymatning chin qiymatga yaqinligi ta'minlanishi mumkinligi ko'rsatildi.

Shunday qilib, ushbu tadqiqotning natijalari o'lchash xatoliklarini minimallashtirish va chin o'lchamni aniqlashda muhim amaliy ahamiyatga ega. Kelgusida, o'lchash vositalarining yanada takomillashtirilishi va operatorlarning malakasini oshirish orqali o'lchash aniqligini yanada oshirish mumkin.

XULOSA

Ushbu maqolada o'lchash xatoliklarini baholash va chin o'lchamni aniqlash usullari o'rganildi. O'lchash jarayonida yuzaga keladigan xatoliklar va ularning kelib chiqish manbalari batafsil tahlil qilindi. 40 mm uzunlikdagi valikni o'lchash jarayonida 50 marta takroriy o'lchashlar amalga oshirildi va olingan natijalar asosida o'rtacha arifmetik qiymat hisoblanib, haqiqiy qiymat aniqlandi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, takroriy o'lchashlar va statistik tahlil usullari orqali o'lchash xatoliklarini kamaytirish va chin o'lchamga eng yaqin qiymatni aniqlash mumkin. O'lchash natijalarini turli intervallarga ajratish va bu intervallarning o'rtacha arifmetik qiymatlarini hisoblash orqali, chin o'lchamga yanada yaqin qiymat topish mumkinligi aniqlandi. Bu usul o'lchash aniqligini oshirishda samarali ekanligi isbotlandi.

Shuningdek, maqolada o'lchash xatoliklarini minimallashtirish uchun qo'llanilgan usullar va natijalar muhokama qilindi. O'tkazilgan tadqiqotlar o'lchash jarayonida yuzaga keladigan tasodifiy xatoliklarni bartaraf etish va aniqlikni oshirish uchun takroriy o'lchashlar va statistik tahlilning ahamiyatini tasdiqladi.

Kelgusida o'lchash vositalarining takomillashtirilishi, operatorlarning malakasini oshirish va yangi statistik usullarni qo'llash orqali o'lchash aniqligini yanada oshirish imkoniyatlari mavjud. Ushbu maqola natijalari, metrologiya sohasidagi tadqiqotchilar va muhandislar uchun foydali ma'lumotlarni taqdim etadi va o'lchash jarayonlarida yuqori aniqlikka erishishda amaliy yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Burns, C.D. (2004). *Measurement Error Models*. New York: John Wiley & Sons.
2. Devore, J.C., & Farnum, N.A. (2005). *Applied Statistics for Engineers and Scientists*. Belmont: Thomson Brooks/Cole.
3. Kulev, V.P., & Kornev, A.I. (2010). *Metrology and Measurement Techniques*. Moscow: Springer.
4. ISO/IEC Guide 98-3:2008. (2008). *Uncertainty of Measurement - Part 3: Guide to the Expression of Uncertainty in Measurement (GUM: 1995)*. Geneva: International Organization for Standardization.
5. O'zDSt 8.010.1:2002. (2002). *Metrologiya. Asosiy tushunchalar va atamalar*. Toshkent: O'zbekiston Davlat Standarti.
6. Taylor, J.R. (1997). *An Introduction to Error Analysis: The Study of Uncertainties in Physical Measurements*. University Science Books.
7. Пиримов, О. Ж., & Эсанов, Т. Б. (2022). Электр транспорт воситаларини қуёш электр станциялари ёрдамида қувватлантириш учун лойиҳа ва моделлар. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 835-844.
8. Bevington, P.R., & Robinson, D.K. (2003). *Data Reduction and Error Analysis for the Physical Sciences*. McGraw-Hill Education.
9. BIPM, IEC, IFCC, ILAC, ISO, IUPAC, IUPAP, & OIML. (2008). *Evaluation of measurement data – Guide to the expression of uncertainty in measurement*. JCGM 100:2008.
10. Dieck, R.H. (2006). *Measurement Uncertainty: Methods and Applications*. ISA.
11. Jo'rayevich, Primov Odil, and Esanov Temurmaliq Beknazar ogli. "Sun'iy intellekt va quyosh energiyasi birlashmasi: energiya tizimlarida elektromobillarni quvvatlantirishning yangi yondashuvlari." *Science and innovation 3.Special Issue 17* (2024): 620-629.
12. GUM Workbench (2010). *Guide to the Expression of Uncertainty in Measurement. Software for Uncertainty Analysis*. Metrodata GmbH.
13. Эсанов, Т. Б. Ў. (2022). Ўзбекистон республикасида автомобилга бўлган талаб ортиши билан муқобил энергия манбаларининг ўрни. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 892-899.

UO'K: 519.21:004.4:37.018

**EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKA
ELEMENTLARINI QONUNIYAT VA TUSHUNCHALARNI ANIQLASHDA
ANALOGIYA KOMPONENTLARIDAN FOYDALANISH**

**Egamov Mirshohid Xolmurodovich,
Gulomova Muxabbat Maxmudovna**
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti

ANNOTATSIYA

Bu ilmiy maqola, ehtimollar nazariyasi va matematik statistikaning qonuniyatlarini va tushunchalarini aniqlashda analogiya komponentlaridan qanday foydalanish mumkinligini o'rganadi. Maqola ehtimollar nazariyasi va matematik statistikaning asosiy tushunchalari va qonuniyatlarini tavsiflaydi, so'ngra bu sohalarda analogiyaning qanday qo'llanilishi mumkinligini ko'rsatib beradi. Turli amaliy sohalarda - iqtisodiyotdan tibbiyotgacha, moliyadan biologiyagacha - ushbu yondashuvlar qanday qo'llanilayotganiga misollar keltiriladi. Maqola, shuningdek, kelajak tadqiqotlar uchun yo'naltirishlar taklif qiladi, bu esa ushbu sohalarda yangi yondashuvlar va metodologiyalarni ishlab chiqishni rag'batlantiradi.

***Tayanch so'z va tushunchalar:** Ehtimollar nazariyasi, Matematik statistika, Analogiya, Qonuniyatlar va tushunchalar, Amaliy qo'llanilishi, Statistik inferensiya, Namunaviy tahlillar, Ma'lumotlar tahlili, Iqtisodiyot va moliya, Tibbiy statistika, Ehtimollar nazariyasining tarixi, Matematik modellashtirish, Qaror qabul qilish, Xavf baholash, Ilmiy tadqiqot metodologiyasi.*

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КОМПОНЕНТОВ АНАЛОГИИ ДЛЯ
ОПРЕДЕЛЕНИЯ ЗАКОНОМЕРНОСТЕЙ И ПОНЯТИЙ В ТЕОРИИ
ВЕРОЯТНОСТЕЙ И ЭЛЕМЕНТАХ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ
СТАТИСТИКИ**

АННОТАЦИЯ:

Данная научная статья исследует, как можно использовать компоненты аналогии для определения закономерностей и понятий в теории вероятностей и элементах математической статистики. Статья описывает основные понятия и законы теории вероятностей и математической статистики, затем демонстрирует, как аналогия может быть применена в этих областях. Приводятся примеры использования этих подходов в различных практических

областях - от экономики до медицины и от финансов до биологии. Статья также предлагает рекомендации для будущих исследований, стимулируя разработку новых подходов и методологий в этих сферах.

Ключевые слова и понятия: Теория вероятностей, Математическая статистика Аналогия, Закономерности и понятия, Практическое применение, Статистический вывод, Выборочные анализы, Анализ данных, Экономика и финансы, Медицинская статистика, История теории вероятностей, Математическое моделирование, Принятие решений, Оценка рисков, Методология научных исследований.

USING ANALOGY COMPONENTS TO IDENTIFY LAWS AND CONCEPTS IN PROBABILITY THEORY AND ELEMENTS OF MATHEMATICAL STATISTICS

ABSTRACT

This scientific article explores how analogy components can be used to identify laws and concepts in probability theory and elements of mathematical statistics. The article describes the fundamental concepts and laws of probability theory and mathematical statistics, then demonstrates how analogy can be applied in these areas. Examples are provided of how these approaches are used in various practical fields - from economics to medicine and from finance to biology. The article also offers recommendations for future research, encouraging the development of new approaches and methodologies in these areas.

Key words and concepts: Probability theory, Mathematical statistics, Analogy, Laws and concepts, Practical application, Statistical inference, Sample analyses, Data analysis, Economics and finance, Medical statistics, History of probability theory, Mathematical modeling, Decision making, Risk assessment, Scientific research methodology

KIRISH

Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika, zamonaviy fan va texnologiyalarning ajralmas qismi hisoblanadi. Ular iqtisodiyotdan tibbiyotgacha bo'lgan turli sohalarda qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirishda muhim rol o'ynaydi. Ehtimollar nazariyasi kelajakdagi voqealarning ehtimolligini baholashda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi, matematik statistika esa kuzatuvlar va ma'lumotlarni tahlil qilish orqali ushbu voqealarni tushunishimizga yordam beradi.

Analogiya tushunchasi Analogiya - bu biror narsa yoki jarayonni tushunish yoki tahlil qilish uchun boshqa narsa yoki jarayonga o'xshatish usulidir. Ilmiy

tadqiqotlarda analogiya yondashuvi yangi g'oyalar va yechimlarni kashf etishda juda samarali bo'lishi mumkin. U turli kontekstlardagi tushunchalar o'rtasidagi umumiyliklarni aniqlashga yordam beradi va shu orqali murakkab muammolarni hal qilishda yangi yondashuvlarni taklif etadi.

Maqolaning maqsadi va ahamiyati Bu maqola ehtimollar nazariyasi va matematik statistika elementlarini qonuniyat va tushunchalarni aniqlashda analogiya komponentlaridan qanday foydalanish mumkinligini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolaning maqsadi ushbu sohalarda analogiya yordamida yangi tushunchalar va metodologiyalarni ishlab chiqishda qo'llaniladigan amaliy yondashuvlarni taqdim etishdir. Shuningdek, maqola orqali sohadagi mavjud bilimlarga yangi nuqtai nazarlar qo'shish va kelajakdagi tadqiqotlar uchun yangi yo'nalishlar belgilash kutilmoqda.

2. Ehtimollar Nazariyasi Asosiy tushunchalar va qonuniyatlar Ehtimollar nazariyasi voqealar ehtimolini hisoblash va tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Asosiy tushunchalardan biri bu voqeaning ehtimoli, ya'ni muayyan voqea sodir bo'lishining matematik ifodasi. Ehtimollar nazariyasida muhim qonuniyatlar qatoriga Katta Sonlar Qonuni va Chegaraviy Taqsimot Teoremlari kiradi. Bu qonuniyatlar, katta miqdordagi sinovlar yoki kuzatuvlar natijalarining o'rtacha qiymatlari bo'yicha muhim xulosalarga erishish imkonini beradi.

Statistik xulosalar Ehtimollar nazariyasidan foydalanishning amaliy jihatlaridan biri bu statistik xulosalar chiqarishdir. Masalan, ma'lum bir tajriba yoki kuzatuv natijalariga asoslanib, kelgusida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan voqealar haqida xulosalar chiqarish mumkin. Statistik inferensiya usullari, jumladan, ishonch intervali va gipoteza sinovlari, ma'lumotlar tahlilida muhim rol o'ynaydi. Bu usullar, ehtimollar nazariyasining asosiy tushunchalari va qonuniyatlaridan foydalanib, ma'lumotlarning ma'nosini aniqlashda qo'llaniladi.

Ehtimollar nazariyasi va uning qonuniyatlari, o'z navbatida, matematik statistika va ma'lumotlar tahlili bilan chambarchas bog'liq. Bu ikki soha bir-birini to'ldiradi va ma'lumotlarning chuqurroq tahlili uchun birgalikda ishlatiladi. Ehtimollar nazariyasi asoslari ustida qurilgan statistik metodlar, bizga katta hajmdagi ma'lumotlar to'plamlaridan mazmunli xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Bu bo'lim ehtimollar nazariyasining asosiy tushunchalari va qonuniyatlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, uning matematik statistika va amaliy ilmiy tadqiqotlardagi o'rni va ahamiyatini ta'kidlaydi. Keyingi bo'limda biz matematik statistikaning o'ziga xos jihatlari va usullarini ko'rib chiqamiz.

3. Matematik Statistika Asosiy tushunchalar va usullar Matematik statistika, ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va ular asosida xulosalar chiqarish bilan bog'liq sohadir. U ehtimollar nazariyasining konseptual asoslaridan foydalanadi va amaliy

qo'llanilishda keng spektrga ega. Asosiy tushunchalardan biri bu namuna olishdir, ya'ni katta aholi ichidan kichik bir qismni tanlash va uning xususiyatlarini o'rganish.

Namuna olish: X_1, X_2, \dots, X_n

Bu yerda X_1, X_2, \dots, X_n - namuna kuzatuvlari.

Ma'lumotlarni tahlil qilish

Matematik statistika yordamida turli tahlillar olib borish mumkin. Masalan, namunaviy o'rtacha va namunaviy dispersiya kabi tushunchalar ma'lumotlarning markaziy tendentsiyasi va tarqalishini baholash uchun ishlatiladi.

Namunaviy o'rtacha: $X = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n X_i$

Namunaviy dispersiya:

$$S^2 = \frac{1}{n-1} \sum_{i=1}^n (X_i - \bar{X})^2$$

Ma'lumotlarni tahlil qilish misollari Keling, matematik statistikaning asosiy usullarini qo'llashning oddiy misoliga nazar tashlaylik. Faraz qilaylik, bir universitetning talabalarining imtihon natijalarini tahlil qilmoqchimiz. Bizning maqsadimiz, talabalar natijalarining o'rtacha qiymatini va tarqalishini aniqlash.

1. Namuna olish: Talabalarining bir guruhidan namuna sifatida 30 ta talabaning imtihon natijalarini tanlaymiz.

2. Namunaviy o'rtacha hisoblash: Har bir talabaning natijasini qo'shib, ularning umumiy soniga bo'lamiz.

3. Namunaviy dispersiya hisoblash: Har bir natijaning namunaviy o'rtachadan farqini hisoblab, kvadratini olib, keyin bularning o'rtachasini topamiz.

Bu tahlil orqali talabalarining umumiy imtihon ko'rsatkichlari haqida ma'lumot olishimiz mumkin, bu esa o'qitish sifatini baholash va kerakli sohalarda yaxshilanishlar kiritish uchun foydali bo'ladi.

Matematik statistikaning ushbu asosiy tushuncha va usullarini o'rganish, ma'lumotlar bilan ishlashda muhimdir va ilmiy tadqiqotlarda keng qo'llaniladi. Keyingi bo'limda, biz bu tushunchalar va usullar qanday qilib ehtimollar nazariyasi va analogiya bilan birlashtirilib, yangi yondashuvlar va metodologiyalarni yaratishda qo'llanilishi mumkinligini ko'rib chiqamiz.

4. Analogiya va Uni Qo'llash

Analogiyaning o'ziga xos jihatlari Analogiya - bu biror narsani yoki jarayonni tushunish yoki o'rganish maqsadida boshqa narsa yoki jarayonga solishtirish usulidir. Ilmiy tadqiqotlarda, bu yondashuv yangi g'oyalarni ishlab chiqish va murakkab muammolarni hal qilishda yordam beradi. Analogiya, o'xshashliklarni topish orqali

turli sohalarda mavjud bilim va tajribalarni yangi vaziyatlarga qo'llash imkonini beradi.

Analogiya qo'llanilishining amaliy misollari Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika sohasida analogiya qo'llanishi, turli xil ma'lumotlar yig'indisini tahlil qilishda yangi uslublar yaratishga imkon beradi. Masalan, tabiatdagi tasodifiy jarayonlarni o'rganishda ishlatiladigan statistik usullarni iqtisodiyot yoki moliya sohasidagi ma'lumotlarni tahlil qilishda qo'llash mumkin. Bu solishtirishlar yangi tushunchalarni ochishga va mavjud bilimlarni kengaytirishga yordam beradi.

Amaliy misol: Agar biz biror ekotizimda turli xil hayvon turlarining populyatsiya o'sishini kuzatsak, ushbu ma'lumotlarni ekologik tadqiqotlarda ehtimollar nazariyasi va matematik statistika yordamida tahlil qilishimiz mumkin. Keyin, shu kabi tahlil usullarini, masalan, moliya bozorida turli xil investitsiya mahsulotlarining narx o'zgarishlarini prognoz qilishda qo'llashimiz mumkin. Bu ikki soha o'rtasidagi o'xshashliklar tufayli, bir sohadagi tushunchalarni boshqa sohaga muvaffaqiyatli qo'llash mumkin.

Yangi yondashuvlar va metodologiyalar Analogiya yordamida ehtimollar nazariyasi va matematik statistika elementlarini birlashtirish, tadqiqotchilarga turli sohalarda mavjud muammolarga yangi yechimlar topishda yordam beradi. Misol uchun, biologiyada o'rganilgan tasodifiy jarayonlarni iqtisodiyotdagi muammolarni hal qilishda qo'llash, yangi nazariy modellar yaratish va real dunyodagi muammolarni tushunishda yangi perspektivalar ochadi.

Analogiya yondashuvini qo'llagan holda, biz turli sohalardagi tajribalardan o'rganishimiz va bu bilimlarni yangi, noaniq muhitlarga moslashtirishimiz mumkin, bu esa innovatsion yechimlar va tushunchalarning rivojlanishini rag'batlantiradi.

random() funksiyasidan foydalanib Pythonda tasodifiy sonlar ro'yxatini yaratishingiz mumkin. Mana bir misol

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axatov Akmal, Nazarov Fayzullo Python tilida dasturlash asoslari Samarqand: SamDU nashri, 2020. 180 b.
2. S.Rahmonqulov. IBM PC shaxsiy kompyuterida ishlash - T.:''Sharq'', 1998. 160 b.

PYTHON DASTURLASH TILIDA FAYLLAR BILAN ISHLASH

Ahtamqulov Muhriddin Ahtamqul o'g'li

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali assistenti e-mail:

muhriddinahtamqulov@mail.com

Taniyeva Farzona Xolmo'min qizi

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali talabasi

e-mail: ftaniyeva@gmail.com

Tel: +998934958828

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada Python dasturlash tilida fayllar bilan ishlash, fayllarning turlari, ularni yaratish va saqlash, matnli fayllar va ular ustida ishlash atroflicha yoritib o'tilgan, hamda python dasturlash tilida fayllar bilan ishlashning afzalliklari va kamchiliklari, matn va binar fayllar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Python dasturlash tili, fayllar, txt, open (), read (), ochish, o'qish, yopish, afzalliklari, kamchiliklari, ikkilik fayl.

ABSTRACT

This article covers working with files in the Python programming language, file types, their creation and storage, text files and working with them, as well as the advantages and disadvantages of working with files in the Python programming language, text and binary files.

Keywords: Python programming language, files, txt, open (), read (), open, read, close, advantages, disadvantages, binary file.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается работа с файлами на языке программирования Python, типы файлов, их создание и хранение, текстовые файлы и работа с ними, а также преимущества и недостатки работы с файлами на языке программирования Python, текстовыми и двоичными файлами.

Ключевые слова: язык программирования Python, файлы, txt, open(), read(), открыть, прочитать, закрыть, преимущества, недостатки, бинарный файл.

KIRISH

Hozirgacha biz asosan bitta fayl ichida ishladik, ya'ni bizning barcha kodimiz bitta .py faylida saqlangan va o'sha fayldan ishlaydi. Biroq, haqiqiy dunyoda bizning ko'plab dasturlarimiz bir nechta fayllarda saqlanadi. Bundan tashqari, biz ba'zi sevimli kod parchalari va funksiyalarini keyinchalik foydalanish uchun fayllarda

saqlashimiz mumkin. Bu biz dasturchilar – hozir sizni o‘z ichiga olgan tarzda ishlaymiz.

Python dasturlash tili fayllar bilan ishlash uchun juda qulay vositalardan biridir. U bizga fayllarni ochish, o‘qish, yozish va yopish imkoniyatini beradi. Shuningdek, Python fayllar bilan ishlashda sizga turli xil xususiyatlar, qulayliklar va imkoniyatlarni taklif etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Pythonda turli xil fayl turlari bilan ishlash imkoniyati mavjud bo‘lib, shartli ravishda ularni ikki turga bo‘lish mumkin: matn va binar fayllar. Matn fayllari, masalan, kengaytmasi cvs, txt, html, umuman, matn shaklida ma’lumot saqlaydigan barcha fayllarlarni o‘z ichiga oladi. Binar fayllar tasvirlar, audio va video fayllar va boshqalardan iborat. Fayl turiga qarab u bilan ishlash biroz farq qilishi mumkin. Python dasturlash tili tarkibida fayllarga murojat qilish uchun fayl nomiga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojat qilib bo‘lmaydi, fayllarga murojat qilish uchun fayllarni dastur bilan bog‘lash uchun alohida o‘zgaruvchi qabul qilinadi.

Fayllarni faollashtirish. Python dasturlash tilida fayllar bilan ishlashda .txt kengaytmali fayllardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Dastur tarkibida fayllarga murojat qilish uchun albatta oldin .txt kengaytmali faylni yaratib alohida joyga saqlab quyish kerak bo‘ladi. Dasturlash tilida ishlatiladigan fayllar nomi ikki turda bo‘ladi.

- 1) Fizik nomi;
- 2) Mantiqiy nomi.

Faylning fizik nomi kompyuterda .txt kengaytmali nom bilan saqlangan nomi hisoblanadi. Faylning mantiqiy nomi esa dastur tarkibida faylning fizik nomi bilan bog‘lashga xizmat qiladigan nomi hisoblanadi[1].

Python dasturlash tilida faylni ochish uchun “open ()” funksiyasi ishlatiladi. Bu funksiya fayl nomi va ochish rejimini qabul qiladi. Python fayllarni turli xil rejimlarda ochishi mumkin: faqat o‘qish uchun, yozish uchun, qo‘shish uchun, binary rejimda, va hokazo.

Quyida fayllarni ochishning usullari ko‘ramiz:

a) **“r”**- O‘qish - Standart qiymat. Faylni o‘qish uchun ochadi, agar fayl mavjud bo‘lmasa, xatolik beradi.

b) **“a”**- Qo‘shish - faylni qo‘shish uchun ochadi, agar u mavjud bo‘lmasa, uni yaratadi.

c) **“w”**- Write - faylni yozish uchun ochadi, agar u mavjud bo‘lmasa, uni yaratadi.

d) “x”- Yaratish - Belgilangan faylni yaratadi, agar fayl mavjud bo‘lsa, xatoni qaytaradi.

Fayl ochish quyidagicha bo‘ladi. Agar bizda qandaydir .txt fayl bo‘lsa, uni o‘qish rejimida ochish bunday qilamiz:

```
f = open("fayl_nomi.txt")
```

Eslatma uchun aytish kerakki, fayl nomini yozib unga murojaat qilmoqchi bo‘lganimizda fayl papkada joylashgan bo‘lsa, manzilini to‘liq ko‘rsatishimiz maqsadga muvofiq.

```
f = open("D:\fayllarim\fayl_nomi.txt")
```

Hozir biz faylni ochib o‘qish uchun ochib ko‘ramiz. Avval .txt kengaytmali biror faylga 4 – 5 qatorli matn kiritamiz, uni python faylimiz joylashgan papkaga bitr nom bilan saqlaymiz. Uni open () funksiyasi bilan ochamiz va read () funksiyasi bilan o‘qiymiz:

```
f = open("fayl_nomi.txt", "r")  
print(f.read())
```

Agar fayldan ma’lum bir qismni o‘qish kerak bo‘lsa, read () funksiyasi fayldagi butun matnni o‘qiydi. Ammo bizga uning faqatgina ma’lum bir qismi kerak bo‘lsa, uni belgilab ko‘rsatishimiz kerak. Quyidagi misolimizdagi kod matnning dastlabki 10 ta harf yoki belgisini ekranga chiqaradi:

```
f = open("fayl_nomi.txt", "r")  
print(f.read(10))
```

Python dasturlash tilida fayl elementlarini teskari tartibda o‘qish imkoniyati mavjud, bu imkoniyatni reversed () funksiyasi amalga oshiradi.

Python dasturlash tilida ma’lumotlarni ikki turda yozish mumkin. Python dasturlash tilida birinchi tur bo‘yicha faylga ma’lumot yozish uchun

<fayl mantiqiy nomi>=open(‘fayl fizik nomi’, ‘w’),

ikkinchi tur bo‘yicha faylga ma’lumot yozish uchun

<fayl mantiqiy nomi>=open(‘fayl fizik nomi’, ‘a’) buyruqlari oldin yozilishi shart undan so‘ng uning tarkibiga ma’lumot yozish mumkin. Python dasturlash tilida faylga ma’lumot yozishning umumiy ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi:

<faylni mantiqiy nomi> .write(o‘zgaruvchi)

Fayl tarkibiga ma’lumot yozilganda uning oldingi ma’lumotlari o‘chirilib, yangi ma’lumotlar yoziladi yoki fayl oxiridan yoziladi [2].

Hozir biz faylni ochib o‘qish uchun faylni ochib ko‘ramiz. Avval .txt kengaytmali biror faylga 4-5 qatorli papka kiritamiz. Uni python faylimiz joylashgan

papkaga biror nom bilan saqlaymiz. Uni open () funksiyasi bilan ochamiz va read () funksiyasi bilan o'qiyamiz:

```
File Edit Format Run Options Window Help
f = open("fayl_nomi.txt", "a")
f.write("Matnga qo'shimcha qo'shdik.")
f.close()
# Endi faylni o'qiyamiz
f = open("fayl_nomi.txt", "r")
print(f.read())
f.close()
```

Fayl bilan ishlab bo'lgach albatta uni yopish kerak. Buni close () funksiyasi bilan amalga oshiramiz. Yuqoridagi kodimizda faylni ochib dastlabki ikkita qatorni o'qigan edik. Endi o'sha faylni yopamiz.

```
File Edit Format Run Options Window Help
f = open("fayl_nomi.txt", "r")
print(f.readline())
print(f.readline())
f.close()
```

Faylni o'chirish uchun os moduliga murojaat qilamiz va undagi os.remove() funksiyasidan foydalanamiz. Masalan, biror faylimiz bor. Uni nomini bilamiz. Uni o'chirish quyidagicha bo'ladi:

```
File Edit Format Run Options Window Help
import os
os.remove("fayl_nomi.txt")
```

Os modulini ishga tushirish uchun avval uni xotiradan yuklash olishimiz kerak bo'ladi. Yuklab olish uchun pusk+R tugmalari birgalikda bosiladi va hosil bo'lgan oynaga cmd deb yozilib enter tugmasi bosiladi. Hosil bo'lgan interfeysga py -m pip install os deb yozib enter tugmasi bosiladi.

Agar faylni o'chirmasdan uning ichidagi ma'lumotlarni, element, kodlarni o'chirmoqchi bo'lsak ya'ni tozalamoqchi bo'lsak quyidagi kod yoziladi:

```
f=open('test.txt', 'w')
```

Har bir narsaning afzalliklari va kamchiliklari bor bo'lgani kabi Python dasturlash tilida fayllar bilan ishlashning ham shunday taraflari bor.

Pythonda fayllar bilan ishlashning afzalliklari

Ko'p qirralilik: Python-da fayllar bilan ishlash sizga fayllarni yaratish, o'qish, yozish, qo'shish, nomini o'zgartirish va o'chirish kabi keng ko'lamli operatsiyalarni bajarishga imkon beradi.

Moslashuvchanlik: Python-da fayllar bilan ishlash juda moslashuvchan, chunki u sizga turli xil fayl turlari (masalan, matnli fayllar, ikkilik fayllar, CSV fayllar va boshqalar) bilan ishlash va fayllar ustida turli operatsiyalarni bajarish (masalan, o'qish, yozish, qo'shish, va boshqalar.).

Foydalanuvchi uchun qulay: Python fayllar bilan ishlash uchun qulay interfeysni taqdim etadi, bu fayllarni yaratish, o'qish va boshqarishni osonlashtiradi.

O'zaro platformalar: Python fayllar bilan ishlash funksiyalari turli platformalarda (masalan, Windows, Mac, Linux) ishlaydi, bu uzluksiz integratsiya va muvofiqlikni ta'minlaydi.

Pythonda fayllar bilan ishlashning kamchiliklari

Xatoga moyil: Python-da fayllarni qayta ishlash operatsiyalari xatolarga moyil bo'lishi mumkin, ayniqsa kod ehtiyotkorlik bilan yozilmagan bo'lsa yoki fayl tizimi bilan bog'liq muammolar mavjud bo'lsa (masalan, fayl ruxsatnomalari, fayllarni blokirovka qilish va h.k.).

Xavfsizlik xavflari: Python-da fayllar bilan ishlash, ayniqsa, dastur tizimdagi nozik fayllarga kirish yoki o'zgartirish uchun foydalanish mumkin bo'lgan foydalanuvchi ma'lumotlarini qabul qilsa, xavfsizlikka xavf tug'dirishi mumkin.

Murakkablik: Python-da fayllar bilan ishlash, ayniqsa, yanada rivojlangan fayl formatlari yoki operatsiyalari bilan ishlashda murakkab bo'lishi mumkin. Fayllar to'g'ri va xavfsiz ishlov berilishini ta'minlash uchun kodga diqqat bilan e'tibor qaratish lozim.

Ishlash: Python-da fayllar bilan ishlash operatsiyalari boshqa dasturlash tillariga qaraganda sekinroq bo'lishi mumkin, ayniqsa katta fayllar bilan ishlashda yoki murakkab operatsiyalarni bajarishda [4].

Biz Pythonda ko'proq txt ko'rinishidagi fayllar ustida amallar bajarishni o'rganganmiz. Keling Pythonda ikkilik faylni qanday o'qish mumkinligini ko'rib chiqamiz.

Ikkilik fayllar o'qib bo'lmaydigan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Aksariyat ma'lumotlar ikkilik sifatida saqlanadi, chunki bu fayllar saqlash va qayta ishlashda juda samarali. Agar faylda inson tomonidan o'qilmaydigan ma'lumotlar mavjud bo'lsa, u ikkilik fayl deb ataladi. Ikkilik matn ma'lumotlarini belgilar ketma-ketligi

kabi saqlamaydi. Buning o‘rniga u ma’lumotlarni baytlar shaklida saqlaydi. Ikkilik fayldagi baytlar turli xil ma’lumotlarni, masalan, tasvirlar, video, audio, matn va boshqalarni ifodalaydi [5].

Ikkilik fayldan foydalanishning bir qancha sabablari bor. Ikkilik fayllar bo‘sh joyni tejaydi, ya’ni ular haqiqiy matnni o‘z ichiga olganlarga qaraganda kamroq joy egallaydi. Ular, shuningdek, tezroq o‘qish va yozish tezligini ta’minlaydi. Ikkilik fayl saqlangan ma’lumotlarning aniqligini saqlaydi, shuning uchun hech qanday ma’lumot yo‘qolmaydi, matnli fayl esa ba’zi ma’lumotlarni yo‘qotishi mumkin. Ikkilik fayl murakkab ma’lumotlar tuzilmalarini saqlashga imkon beradi. Lekin nima uchun ikkilik faylni ishlatish kerak? Buning bir qancha sabablari bor. Hajmi kichrayganligi va uni matn sifatida tahlil qilish talab etilmagani uchun tez o‘qish va yozish operatsiyalari zarur bo‘lgan ilovalar uchun ishlatiladi. Audio, video va tasvirlar kabi ma’lumotlar ma’lumotlar sifatini saqlash uchun ikkilik fayllar sifatida saqlanadi.

```
# Open a file named 'data.bin' in binary write mode ('wb')
with open('data.bin', 'wb') as file:
    # Write a sequence of bytes to the file
    # The byte sequence includes various UTF-8 encoded characters:
    # \xC2\xA9 represents the © symbol
    # \x20 is a space character
    # \xF0\x9D\x8C\x86 represents the ≡ character (a musical symbol)
    # \x20 is a space character
    # \xE2\x98\x83 represents the ☺ symbol (a snowman)
    file.write(b'\xC2\xA9\x20\xF0\x9D\x8C\x86\x20\xE2\x98\x83')
```

Yuqoridagi kod bajarilganda, berilgan ikkilik ma’lumotlar tizimingizdagi “**data.bin**” fayliga yoziladi. Endi “**data.bin**” ikkilik faylni o‘qish uchun quyidagi kod yordamida “**rb**” ga teng rejimda open () usuli yordamida faylni yana oching .

```
# Open a file named 'data.bin' in binary write mode ('wb')
with open('data.bin', 'wb') as file:
    # Write a sequence of bytes to the file
    # The byte sequence includes various UTF-8 encoded characters:
    # \xC2\xA9 represents the © symbol
    # \x20 is a space character
    # \xF0\x9D\x8C\x86 represents the ≡ character (a musical symbol)
    # \x20 is a space character
    # \xE2\x98\x83 represents the ☺ symbol (a snowman)
    file.write(b'\xC2\xA9\x20\xF0\x9D\x8C\x86\x20\xE2\x98\x83')

# Open the same file 'data.bin' in binary read mode ('rb')
with open('/content/data.bin', 'rb') as file:
    # Read the binary data from the file
    binary_data = file.read()
    # Print the binary data to the console
    print(binary_data)
```

b'\xc2\xa9 \xf0\x9d\x8c\x86 \xe2\x98\x83'

Yuqoridagi rasm shuni ko'rsatadiki, fayl o'qilganda qizil o'q bilan ko'rsatilgan ikkilik ma'lumotlarni qaytaradi. Bundan tashqari, har bir ikkilik ma'lumotlar nuqtasi qanday ma'lumotlarni ko'rsatishini ko'rishingiz mumkin. Ammo barcha ikkilik ma'lumotlar fayldan o'qilganligi sababli, *ikkilik fayldan faqat ma'lum bayt ma'lumotlar kerak bo'lsa nima bo'ladi?* Xavotir olmang; *read (num_bytes)* usuli butun son turidagi argumentni qabul qiladi, bu fayldan o'qimoqchi bo'lgan baytlar sonini bildiradi. Misol uchun, agar sizga ikkilik fayldan faqat ikki bayt kerak bo'lsa, quyida ko'rsatilgandek *read ()* usulini chaqiring.

```
# Open the same file 'data.bin' in binary read mode ('rb')
with open('/content/data.bin', 'rb') as file:
    # Read the 2 bytes of binary data from the file
    binary_data = file.read(2)
    # Print the binary data to the console
    print(binary_data)
```

b'\xc2\xa9'

Fayl *file.Read(2)* sifatida o'qilganda, u faqat yuqoridagi rasmda ko'rsatilgan **“data.bin”** fayldan 2 bayt ma'lumotni qaytaradi.

Agar siz kompyuteringizda mavjud bo'lgan fayllarni o'qimoqchi bo'lsangiz, fayllarni qanday o'qishni bilish juda foydali, lekin *Python yordamida ikkilik fayllarni o'qish* ikkilik fayllar bilan ishlashga imkon beradi, ya'ni siz uni o'qib chiqqandan

so‘ng ushbu faylni boshqarasiz. Siz yangi ma‘lumotlarni yozishingiz yoki keraksiz ma‘lumotlarni olib tashlashingiz mumkin [6].

Fayllar bilan ishlash jarayonida xatoliklar ro‘y berishi mumkin. Masalan, faylni ochish uchun urinishda fayl mavjud bo‘lmaganida yoki faylga yozish uchun urinishda fayl yozish uchun ochilmaganida xatoliklar ro‘y beradi. Bu tushunchalarni hisobga olgan holda, Python dasturchilarining xatoliklarni boshqarish va dasturiy ta‘minotning to‘g‘ri ishlashini kafolatlash uchun xatoliklarni qayta ishlashga e‘tibor berishlari kerak.

XULOSA.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Python dasturlash tili yordamida fayllar bilan ishlashning amaliy foydasi katta. Fayllar orqali, dasturchilar ma‘lumotlarni doimiy saqlash, ularga kirish va ularni tahrirlash imkoniyatiga ega. Bu, ma‘lumotlar bazasi bilan ishlashga o‘xshash, lekin fayllar orqali ishlash ancha oddiy va tezroq. Fayllar bilan ishlash dasturchilarga ma‘lumotlarni tez va qulay tarzda saqlash, ularga kirish va ularni tahrirlash imkoniyatini beradi. U bizga fayllarni ochish, o‘qish, yozish, va yopish imkoniyatini beradi, shuningdek, fayllar bilan ishlashda xatoliklarni boshqarish imkoniyatini ham beradi. Fayllar bilan ishlashning samaradorligi va qulayligi, Python dasturlash tilini boshqa dasturlash tillaridan ajralib turadi. Python dasturlash tili orqali fayllar bilan ishlash, ma‘lumotlarni saqlash va ulardan foydalanishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Axatov Akmal, Nazarov Fayzullo Python tilida dasturlash asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2020 yil, – 143 bet.
2. Abbosbek Ibragimov- Python asoslari
3. Ermatova Zarina Qaxramonovna, “Python dasturlash tilida fayllar bilan ishlash”// International Conference on Journal of technical research and development// 1st nov. 2023
4. File Handling In Python Harsh Pandey Software Developer Published on Mon Mar11 2024; <https://flexiple.com/python/file-handling-python/>.
5. How to Read Binary File in Python May 28, 2024 by Bijay Kumar; <https://pythonguides.com/python-read-a-binary-file>.
6. <https://uzbekdevs.uz/darsliklar/python/python-da-fayl>.

AXLOQNING DOLZARB MUAMMOLARI

Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada etikaning zamonaviy muammolari, bugungi kunda hammaga ham ma'lum bo'lmagan, oshkora ko'zga tashlanmaydigan, ma'naviy hayotimizni izdan chiqarishga qaratilgan jiddiy xatarlar ya'ni egotsentrizm va erkinlik niqobidagi axloqsizlik haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: *globalashuv, axloqiy muhit, axliqiy madaniyat, biosfera, noosfera, biologik axloq, evtanaziya, o'lim jazosi, ekologik axloq, biotibbiy axloq.*

АННОТАЦИЯ

В статье автор размышляет о современных проблемах этики, о серьезных скрытых опасностях, направленных на распад нашей духовной жизни, то есть безнравственность под маской эгоцентризма и свободы.

Ключевые слова: *глобализация, нравственная среда, нравственная культура, биосфера, ноосфера, биологическая этика, этаназия, смертная казнь, экологическая этика, биомедицинская этика.*

ABSTRACT

In the article, the author reflects on modern problems of ethics, on serious hidden dangers aimed at the collapse of our spiritual life, that is, immorality under the guise of self-centeredness and freedom.

Key words: *globalization, moral environment, moral culture, biosphere, noosphere, biological ethics, euthanasia, death penalty, environmental ethics, biomedical ethics.*

KIRISH

Bugungi kunda insoniyat hayotiga katta xavf tug'dirayotgan xalqaro terrorchilik, diniy ekstremizm, narkoagressiya va OITS singari ofatlarni ko'pchilik "yaxshi" biladi. Shuningdek, bugungi kunda hammaga ham ma'lum bo'lmagan, oshkora ko'zga tashlanmaydigan, ma'naviy hayotimizni izdan chiqarishga qaratilgan jiddiy xatarlar ham borki, ularning oldini olmasak, keyin kech bo'ladi. G'arb olamida keng tarqalgan egotsentrizm va erkinlik niqobidagi axloqsizliklar, axloqiy muhit, biologik axloq, ekologik axloq, o'lim jazosini bekor qilish kabi muammolar shular jumlasidandir. Bu kabi muammolar bugungi kunda etikaning oldida o'ta muhim vazifalar mavjudligini namoyon etmoqda.

Ma'lumki, biologik axloq (insonlar a'zosining transplantatsiyasi, evtanaziya)so'nggi bir necha o'n yillik ichida sof tabobat muammosidan axloqiy muammoga aylandi: endilikda, birovning muayyan a'zosini boshqa bemorga jarrohlik operatsiyasi yo'li bilan o'tkazish orqali kishi hayotini saqlab qolish axloqiy nuqtayi nazardan qanday baholanadi, degan savol kun tartibida dolzarb bo'lib turibdi. Biologik axloq deganda, odatda, bizda ham, jahon axloqshunosligida ham asosan tibbiy axloq, tabobat muammolariga doir axloqiy yondashuvlar tushuniladi, xolos. Bu unchalik to'g'ri emas.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Biologik axloq muammolari ikki yo'nalishdan iborat: biri — insonlarning kichik biologik olam sifatidagi katta biologik olamga bo'lgan munosabatlari bilan bog'liq «tashqi», ikkinchisi — insonlarning o'z-o'ziga va o'zaro munosabatlaridagi tibbiyot bilan bog'liq «ichki» axloqiy masalalar. Biz odatda «ekologik axloqshunosiik» deganimizda aynan birinchi hodisani nazarda tutamiz. Hozirgi paytda ekologik axloqning insoniyat uchun naqadar muhimligini hamma biladi, lekin o'z bilganidan qolmaydi— muammoning murakkabligi shunda. Biz noosfera, tafakkur borasidagi mulohazalar orqali ekologik buhronilarning ba'zi ko'rinishlari haqida ma'lumotlarga egamiz. Biroq, yana undan tashqari so'nggi paytlarda jahon bo'ylab sintetik jismlar ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilganligi, gibrid usulida hayvonot va ayniqsa o'simliklar yangi turlarining vujudga keltirilishi singari hodisalar ham ekologik ahamiyatga ega. Xo'sh, ular tabiat bilan singishib, uyg'unlashib keta oladimi, tabiat ularni o'ziga tegishli deb biladimi? Bunga hozir javob topish qiyin, ehtimol kashfiyotlarimizning oqibatlarini, muayyan tafakkur bilan inson orasidagi «masofaning uzoqlashib» borishi natijasida ayon bo'lar?

Biologik axloqning ikkinchi yo'nalishi tibbiyot ilmi va amaliyotining tobora taraqqiy topib borishi bilan bog'liq. Yani yana bir bugungi kun biologik axloqshunosligining global muammolaridan bir totli o'lim — evtanaziya. Xudoning ixtiyoridan tashqari o'limni ixtiyor qilgan kishi diniy nuqtayi nazardan kechirilmaydi. Chunki sabrli, bardoshli bo'lish, bu dunyo izzatlarini toqat bilan boshdan kechirish insonning vazifasi. Lekin axloqiy jihatdan olib qaraganda masala qanday baholanadi? Deylik, muayyan inson, bemor o'z kunlarining sanoqli ekanini, lekin bu kunlar sanoqsiz azoblar ichida o'tishini anglab yetadi. Shu bois u o'zining ana shu holatini juda yaxshi biladigan boshqa bir odam — shifokordan azoblariga chek qo'yishni so'raydi. Uning iltimosi va shu iltimosni bajarish uchun shifokor tomonidan qilingan xatti-harakatlarni qanday baholash mumkin? Bu xatti-harakatlarni insoniylik va insonparvarlikning ko'rinishi sifatida qabul qilish to'g'rimi? Umuman, evtanaziya axloqiylikmi, axloqsizlikmi? Bu muammo ham umumjahoniy

miqyosda o‘z yechimini kutmoqda. Chunki, tabobat borasidagi so‘nggi tadqiqotlar inson o‘limi bir lahzada ro‘y bermasligini, yurak urishi va nafas olish to‘xtaganda ham, miya o‘lmasa insonni o‘ldi deyish mumkin emasligini isbotlab berdi. Dastlab miya qobig‘i, undan keyin miya tanasi halok bo‘ladi. Shundan keyingina insonni o‘lgan deb hisoblash mumkin. Zero, hozirgi kunda toki miya o‘lmas ekan, ko‘pgina ichki a‘zolarining yangi tabobat texnikasi vositasida ishlashda davom etishini ta‘minlash va shu orqali muayyan muddatgacha insonda tiriklikning minimal darajasini saqlab turish mumkin. Demak, yurak yoki buyrakning ko‘chirib o‘tkazilishi hali o‘lmagan odamning minimal tiriklikka bo‘lgan huquqini poymol qilishdir. Buning ustiga, amerikalik neyroxirurg Pol Pirson o‘z tajribalariga asoslanib, yurak ko‘chirib o‘tkazilganda ruh ham ko‘chib o‘tadi, degan fikrni bildiradi. Chunonchi, 19 yashar qizning yuragi 40 yashar erkakka o‘tkazilganida, uning fe‘l-atvorida juda katta o‘zgarishlar ro‘y bergan. Yoki 20 yashar qizning yuragi va o‘pkasi 36 yashar ayolga o‘tkazilganda ham shunga o‘xshash o‘zgarishlar yuzaga kelgan: ayolning kulishigacha o‘zgarib ketgan. Axloqiy nuqtayi nazardan buni qanday izohlash mumkin?

Etikaning zamonaviy muammolaridan yana biri bu-o‘lim jazosidir. O‘lim, ma‘lumki, axloqiy nuqtayi nazardan eng ulkan yovuzlik hisoblanadi. Ayniqsa majburiy o‘lim. Shunga ko‘ra, o‘lim jazosining huquqiy jihatdan qo‘llanilishi mohiyatan jamiyat tomonidan yovuzlikka qarshi yovuzlik bilan javob berishdir.

Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom islom dinining uch asosi borligini aytib, ularning birinchisi odam o‘ldirmaslik ekanini ta‘kidlaydilar. Buni imom G‘azzoliy «Mukoshafat ul-qulub»da shunday keltiradi:

«Termiziy va boshqa hadisichilar rivoyat qiladilar:

Rasululloh buyurdilarki:

... Islomning uch dasturi bor. Dinning tamoyili shular ustiga qurilgan. Kim shu asoslardan tashqari chiqsa, bu bilan u kofirlikka qarab ketgan bo‘ladi:

1 — Qonni (odam o‘ldirishni) halol hisoblasa;

2 — Ollohdan boshqa iloh yo‘qligiga guvohlik (shahodat) bermasa;

3 – Farz bo‘lgan namozni va ro‘zani inkor etsa».229

Demak, inson hayoti eng oliy qadriyat ekani diniy nuqtayi nazardan ham nafaqat tan olinadi, balki birinchi o‘ringa qo‘yiladi. O‘lim jazosini kimlar qanchalik oqlashga harakat qilmasin, u — jinoyatchini jazolashdan ko‘ra, undan o‘ch olishga qaratilgan, qadimlardan kelayotgan xun olish tamoyilining «demokratlashgan», yangilangan shakli sifatida namoyon boiadi. Aslida esa, insonning muayyan jinoyatni sodir etgan xatti-harakatlari qoralanishi kerak, uning o‘zi emas, u qilgan yovuzlik o‘limga

229 Gazzoliy. Mukoshafat ul-qulub, 152-bet.

mahkum etilishi lozim — odamni emas, yovuzlikni o‘ldirish oqilona ish emasmi?! Yovuzlikni o‘ldirish, yovuzlik sodir etgan kishining uzoq muddatli yoki bir umrlik qamoqdagi vijdon azobi va tazarrusi bilan amalga oshirilgani durustmasmi?! Bu masalaning bir tomoni. Ikkinchi tomoni shundaki, nodemokratik tuzumlarda belgilangan o‘lim jazosi kamdan kam hollarda adolatli hukm bo‘lib chiqadi. Chunonchi, Lenin, Stalin, Franko, Gitler, Pol Potlar hukmronligida millionlab odamlarning qatl etilishi yoki shu yaqin yaqinlarda, sho'rolar tuzumi davrida O‘zbekistonda o‘tkazilgan «Paxta ishi» deb nomlangan qatag‘on paytida otishga hukm qilinganlarning taqdiri bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Ana shu davrlarda o‘limga hukm qilinganlarning juda ko‘pchiligi keyinchalik oqlandi, ular gunohsiz deb topildi. Lekin hukm ijro qilib bo‘lingan: nohaq jazolangan — qatl etilgan insonlar adolat tantanasini ko‘rolmaydilar. Uchinchi, hatto demokratik jamiyatlarda sudlarning hamma vaqt ham yuz foiz to‘g‘ri va adolatli hukm chiqarishiga kim kafolat beradi — hakamlar ham inson, hamma qatori xato qilishi mumkin. Jamiyatning keyingi pushaymonidan qatl etilgan odamga nima foyda? Bu misollarning hammasida o‘lim - tor huquqiy jazo doirasidan chiqib ketadi hamda tarixda aldangan, adashgan insoniyatning, jamiyatning va shaxsning axloqsizligi sifatida baholanadi. Shu jihatdan qaraganda, hozirgi paytdagi ko'pgina demokratik mamlakatlarda o‘lim jazosining bekor qilinishini o‘sha jamiyatlar axloqiy darajasi bilan bog‘liq ijobiy hodisa deyish mumkin. Bizning mamlakatimizda ham bu borada dadil qadamlar qo‘yilganligi — avval yosh nuqtayi nazaridan o‘lim jazosini qo‘llashning chegaralanganligi (60 yoshgacha), keyinroq esa uni butunlay bekor qilishga qaratilgan insonparvarlik harakatlari quvonarli voqea. Bu esa nafaqat bizga, balki yer yuzidagi barcha mamlakatlarga taalluqli muhim, umumbashariy muammodir.

XULOSA

Ma‘lumki, barcha davrlarda ham jamiyatning ijtimoiy hayoti, ma‘naviy kamoloti, axloqiy muhiti uning ertangi kelajagini belgilab beradi. Jamiyat a‘zolarining, xususan yoshlarning axloqiy tarbiyasi va estetik didini shakllantirish, ularning bilimi, intilishlari va imkoniyatlari yuqori bo‘lishini, halollik va poklik xislatlari, savob ishlarni qilishga intilib yashashlari hayotlari tarziga aylanishini singdirish jamiyatdagi axloqiy muammolarning yechimi topilishiga, shuningdek ahloqiy muhitini yaxshilanishiga xizmat qiladi desak mubolag‘ bo‘lmaydi. Demak, ahloqiy tarbiya yoshlarimizning axloqiy-estetik kamolotida umumbashariy yutuqlarni egallash, tariximiz, madaniyatimiz va buyuk ajdodlarimiz qoldirgan merosning ahamiyatini tobora chuqurroq anglash va uni tahlil qilib hayotda qo‘llashida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, axloqshunosiik oldida ana shunday, tobora globallashib borayotgan axloqiy muammolarni hal etishda yetakchilik qilish vazifasi

turibdi. Zero, mazkur global muammolarni bugungi kunda axloqshunoslikning ahamiyatini belgilab beruvchi parametrlar, deyishimiz mumkin. Chunki ular faqat milliy-mintaqaviy muammolar bilan dialektik aloqada hal etilishi mumkin. Ya'ni, axloqiy insondan, axloqiy insoniyatga o'tish qanchalik tez va samarali amalga ohsa, odamzod uchun o'zini ham o'z sayyorasini ham asrab qolish imkoni shuncha oson reallashadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –T; "O'zbekiston" 2021
2. Mirziyoyev Sh.M Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib. yangi bosqichga ko'taramiz.-T;O'zb.NMIU
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. –Toshkent.: Ma'naviyat, 2008.
4. Sotsiologiya molodyoji. Uchebnik. Otv.red.V.T.Lisovskiy.-SPb.,1996.
5. Gazzoliy. Mukoshafat-ul qulub. 152 bet

THE USE OF INTERNET RESOURCES TEACHING A FOREIGN LANGUAGE IN LISTENING SKILL

Abdisalimova Kamola Sanjar kizi

Master's student of Termiz

University of Economics and Service

Phone: +998996221373

e-mail: kamola_abdisalimova@mail.ru

ABSTRACT

This article highlights the concept of listening and discusses the main ways to use Internet resources in teaching listening to students. On the basis of theoretical generalization of information resources the activation of educational and cognitive activity of students at the expense of the increased dynamics of training on professionally oriented foreign language and intercultural communication is investigated.

Key words: *listening, language, English, school, pupils, Internet resources, media.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещается понятие аудирования и рассматриваются основные способы использования Интернет-ресурсов в обучении студентов аудированию. На основе теоретического обобщения информационных ресурсов исследуется активизация учебно-познавательной деятельности студентов за счет повышения динамики обучения профессионально-ориентированному иностранному языку и межкультурному общению.

Ключевые слова: *аудирование, язык, английский язык, школа, учащиеся, интернет-ресурсы, СМИ.*

INTRODUCTION

The internet is indeed a valuable resource for teaching and learning English. There are numerous websites, apps, and online platforms dedicated to language learning, offering a wide range of materials such as interactive exercises, grammar explanations, vocabulary builders, and language practice through audio and video content. Additionally, there are forums and communities where learners can interact with native speakers and other learners to practice their language skills. Many educational institutions also offer online courses and resources for English language learners, making it more accessible for people around the world to improve their English proficiency.

MATERIAL AND METHODS.

The internet is incredibly significant for teaching English listening skills due to the abundance of audio and video resources available. Here are a few ways in which internet resources can be particularly beneficial for teaching English listening:

1. **Access to Diverse Content:** The internet provides access to a wide range of authentic listening materials such as podcasts, news broadcasts, interviews, and videos covering various topics and accents. This exposure to diverse content helps learners develop their listening comprehension and adapt to different speaking styles.

2. **Interactive Listening Exercises:** Many websites and apps offer interactive listening exercises and quizzes that allow learners to practice listening to spoken English in a structured and engaging way. These exercises often include comprehension questions and activities to reinforce understanding.

3. **Real-life Contexts:** Internet resources often present English in real-life contexts, helping learners understand how the language is used in everyday conversations, presentations, and discussions. This exposure can improve students' ability to comprehend English in practical situations.

4. **Self-Paced Learning:** Online resources allow learners to practice listening at their own pace, enabling them to rewind, pause, and replay audio or video content as needed. This flexibility can be particularly helpful for individualized learning.

5. **Opportunities for Authentic Interaction:** Through online platforms, students can engage with native speakers through video calls, language exchange forums, and social media, providing valuable opportunities for real-time listening practice and interaction. In modern society the content of foreign language is changing. The amount of information that the students have to absorb has increased significantly, so it is important to use different information resources. Learning a foreign language in a nonlanguage university is a complex process, the main purpose of which is a development of the student's personality, ability and desire to participate in intercultural communication in the language they learn and improve²³⁰.

RESULT AND DISCUSSION.

The global Internet network allows finding any information. With the help of Internet resources, the educational and cognitive activity of students is intensified due to the increased dynamics of learning. Students directly in the process of communication accumulate and consume knowledge of professional oriented language and intercultural communication. The basic set of Internet services includes:

- e-mail, teleconference, videoconference;
- the ability to publish your own information;

²³⁰ Oskoboyna R. L. Basics of listening training: textbook. – Kyiv: Osнова, 2014. – P.81.

- access to information resources;
- reference directories: search, live communication on the network²³¹.

In practice, new teaching methods are used for listening by teachers, which include computer technology, Internet sites and Skype. Students are able to search for additional information at the Internet and teachers – additional information in English classes.

The process of listening begins with the perception of speech, during which the listener converts sound (if he can see the speaker then visual) images through the mechanism of internal speech. The presence of visual components during listening, which are perceived by the visual analyzer, have a positive effect on the process of perception and comprehension of the text by ear. The visual component effects on the cognitive sphere of the listener. Visual supports such as gestures and facial expressions help to understand the meaning of speech. Well-known German researcher Barbara Leipz approved that the process of listening requires the joint work of many mental processes. Imagination, attention, thinking are activated during the perception of speech by ear. Therefore, the student should be focused, listen carefully and try to remember what he heard. The presence of unfavorable conditions for the recipient complicates the understanding of audio text²³².

For effective listening in the process of learning English, the teacher needs to create appropriate conditions. Students may have some difficulties while listening, so it is important to teach students to overcome difficulties by creating appropriate conditions in a foreign language environment. Due to the use of Internet resources in foreign language classes simply requires a virtual environment, as it allows you to go beyond space and time, provides the opportunity to communicate with real speakers (native speakers) on various topics²³³.

The materials of the global Internet can be used both in class with a group and for individual and independent work. Such work will be more interesting compared to traditional forms. In other words, online resources are a valuable information base for education. Students participate in testing and professional and personal interests. Students take part in competitions, held on the Internet, as well as chats, conferences, correspond with friends, and receive information on various issues. Let`s take a closer look at some computer technologies in English listening teaching that help

²³¹ Petrova O.I. Listening and its problems: textbook. – Kyiv: Svit znan, 2008. – P. 19.

²³² Crystal D. Language and the Internet. IEEE Transactions on Professional Communication, 45, – p. 142-144.

²³³ Rinatovna, G. A., Shamsunovna, N. A., Muzaffarovna, A. N. Using information and communication technologies to develop writing competence of students at the lessons of the English language. Вестник науки и образования, 2019. – p. 8-10.

students to develop a communicative component of professional foreign language competence while studying them directly in real life.

CONCLUSION.

Listening is the understanding of speech by ear. It is extremely important, because it is the basis of communication, the mastery of oral communication begins with the listening practice. There are some difficulties with the perception of oral speech, so the teacher and students must be responsible. They should pay enough time to listening practice regularly, and do it step by step. The use of the Internet, in our opinion will contribute to the formation of general and professional competencies of specialists, improve the quality and training in a non-language university.

REFERENCES

1. Oskoboyna R. L. Basics of listening training: textbook. – Kyiv: Osnova, 2014. – 340 p.
2. Petrova O.I. Listening and its problems: textbook. – Kyiv: Svit znan, 2008. – 130 p.
3. Crystal D. Language and the Internet. *IEEE Transactions on Professional Communication*, 45, – p. 142-144.
4. Rinatovna, G. A., Shamsunovna, N. A., Muzaffarovna, A. N. Using information and communication technologies to develop writing competence of students at the lessons of the English language. *Вестник науки и образования*, 2019. – p. 8-10.

NOMODDIY MADANIY MEROSNING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI

Qirg'izov Iqboljon Imyaminovich

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada nomoddiy madaniy merosning ilmiy-nazariy asoslari shashmaqomga aksiologik yondashuv misolida yoritiladi. Abu Nasr Forobiy va Sharq allomalarining musiqiy qarashlari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: *nomoddiy madaniy meros, aksiologik yondashuv, salohiyat, maqom, tasnifot, mutaorifiy, tabiiy, handasa, adad, amaliy musiqqa.*

АННОТАЦИЯ

В статье описаны научно-теоретические основы нематериального культурного наследия на примере аксиологического подхода к шашмаккому. Музыкальные взгляды Абу Насра Фараби и учёных Востока изучаются с социально-философской точки зрения.

Ключевые слова: *нематериальное культурное наследие, аксиологический подход, потенциал, статус, классификация, концептуальное, природное, хандаса, адад, прикладная музыка*

ABSTRACT

The article describes the scientific-theoretical foundations of intangible cultural heritage as an example of an axiological approach to shashmaqom. The musical views of Abu Nasr Farabi and the scholars of the East are studied from a socio-philosophical point of view.

Key words: *intangible cultural heritage, axiological approach, potential, status, classification, conceptual, natural, handasa, adad, applied music.*

KIRISH

Asrlar davomida shakllangan mumtoz maqom majmualari o'zbek musiqasining ilmiy-nazariy va amaliy asosi sifatida yashab kelmoqda hamda allomalar bunyod etgan risolalarning ilmiy salohiyati bugungi kunda ham jahon xalqlarini hayratga solmoqda.

Shashmaqom 2003 yilda YUNESKOning "Insoniyatning og'zaki va nomoddiy merosi durdonalari ro'yxati"ga (O'zbekiston va Tojikistonning taqdimiga ko'ra) kiritildi. 2003 yilda "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish" Xalqaro Konvensiyasi qabul qilinishi munosabati bilan u yangidan tuzilgan "Nomoddiy madaniy merosning Rerezentativ ro'yxati"ga o'tkazildi²³⁴.

²³⁴O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. O'.Toshmatov. O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi (darslik)2 023 yil.

Demak, O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, «Agar biz asl, haqiqiy san’atni bilmoqchi, o‘rganmoqchi bo‘lsak, avvalo mumtoz maqom san’atini bilishimiz, o‘rganishimiz kerak. Agar biz san’atni, madaniyatni ko‘tarmoqchi bo‘lsak, avvalo mumtoz maqom san’atini ko‘tarishimiz kerak. Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur»²³⁵.

Chunki, maqom yo‘llarining kuy, vazn va shakl asoslarining puxta ishlanganligi diqqatga sazovordir.. Vaholanki, ular muayyan musiqiy asar (tasnifot-kompozitsiya) sifatida qachonlardir va qaysidir yetuk musanniflar (kompozitor so‘zining ma’nodoshi) tomonidan yaratilgan, albatta. Shu bois bu meros o‘zining yuksak badiiy hamda ijtimoiy ahamiyati tufayli avloddan-avlodga o‘tib, umumxalq mulki va ma’naviy oзуqasiga- nomoddiy madaniy merosga aylanib ketgan.

So‘nggi paytlarda musiqiy istilohda merosimizning izchil ravishda mo‘tabar odatga aylangan mazkur qatlamini mutaorif (urf etilgan) deyishlik odatga aylandi. Zero, mumtoz musiqaga mutaoriflik nisbatini berilishi qadimiydir. Forobiy “Katta musiqa kitobi”ning kirish qismida musiqiy asarlarning eshituvchilar orasida qaror topishida ma’rifiy urf-odatlarining ahamiyatini alohida qayd etadi. Odat tarzida shakllanadigan nafs (his-tuyg‘ular) va uning go‘zal suvrat (shakl)laridan biri bo‘lmish musiqiy va malaka (san’at)larni Forobiy “amaliy musiqiy san’at” deydi. “Ravshan bo‘ladiki, nomoddiy madaniy merosning ilmiy- nazariy asoslari urfdagi [mutaorifiy] ilmlaridan, ba’zisi esa tabiiy [fizika, akustika] fanidan, ba’zisi esa handasa [geometriya] san’atidan, ba’zisi adad [arifmetika] va ba’zisi amaliy musiqa san’atidan olingandir.”²³⁶.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT USLUBLARI

Forobiyda musiqiy tushunchasi ikki jihatga ajratilib, biri g‘oya siyg‘asi (ya’ni, ichki ma’no-mazmuni), ikkinchisi ado-ijro shakli deyiladi. Birinchisi, sozandaning ongida sodir bo‘ladigan g‘oya hay’atini (shaklini) nazarda tutadi. Ikkinchisi – ado hay’ati, bugungi til bilan aytganda tashqi shakli, ya’ni ijro demakdir. Ijro Forobiy nazarida musiqiy voqe’lik ikki xil, sun’iy va tabiiy tarzda bo‘lishi mumkin. Tabiiysi – inson ovozi va uning eng mukammal ijro vositasi hisoblanadi. Sun’iysi – inson ovozigacha taqlid tarzida yaratilgan cholg‘u asboblari deb bilingan. Bugun barhayot cholg‘u sozlarimizni, bu ilmiy g‘oyaning amaldagi isboti deyishimiz mumkin. Darhaqiqat, bizning tanbur-dutorlarimiz, nayu g‘ijjaklarimiz, qo‘shnayu qo‘sh

2..Prezident Shavkat Mirziyoev Shahrisabzda Xalqaro maqom san’ati anjumani ochilish marosimida ishtirok etib, nutqidan <https://www.gazeta.uz/uz/2018/09/07/nutq/>.

²³⁶.Zokirjon Oripov. X-XV asrlar markaziy osiyo musiqa manbashunosligi.Toshkent- 2017.

bo‘lamonlarimiz misolida, bu ustuvor fikr naqadar haëtiy ekanligiga ishonch hosil qilish qiyin emas.

Nomoddiy madaniy merosni o‘rganishda ilmiy bilishning boshqa usullari bilan birga aksiologik yondashuv ham katta ahamiyat kasb etadi. Nomoddiy madaniy merosda olam, undagi narsa, voqea, hodisa va boshqalar qadriyatlarining inson ongida aks etishi, qadriyatni anglashning reallikka mos kelish qonunlari, daraja va imkoniyatlari, uning mezonlarini aniklash nixoyatda muhimdir.

Bu yondashuv XIX asrning 2-yarmi va XX- asrda mustakil ilmiy fan sifatida shakllangan qadriyatlar falsafiy nazariyasiga asoslanadi.

Qadriyatlarni anglash, o‘rganishda hissiy va aqliy bilishning uyg‘unligi, hukm, xulosalarning tushuncha, atama va belgilarni umumlashtirishi, tabiiy va ijtimoiy voqelikdagi aksiologik jarayonlarni taxlil qilish, ularga tayanib amaliy faoliyat yuritish bir-biri bilan bog‘lik uzviy jarayonni anglatadi.

Nomoddiy madaniy merosga aksiologik yondashilganida voqea va jarayonlar orasidagi o‘zaro bog‘liqlik, tarixiy aloqadorlik, sabab va oqibat bog‘lanishining ifodasi bo‘lgan uzluksizlikka ahamiyat ortadi. Bunday yondashuv qadriyatlarga, ular bilan bog‘liq jarayonlarga nisbatan qo‘llanilganida yaxshi ilmiy va amaliy natija beradi. Bunda qadriyatlar tartibsiz namoyon bo‘ladigan va bir-biri bilan bog‘lanmagan ijtimoiy hodisalar sifatida emas, balki u yoki bu davr, ijtimoiy sub’ektlar va boshqalar bilan bog‘langan aksiologik tizimlar hamda ularning elementlari sifatida namoyop buladi. Qadriyatlarga bunday yondashishda ijtimoiy fanlarning yutuqlari, tarix, etnografiya, demografiya va sotsiologik tadqiqotlarning natijalariga tayanish qo‘l keladi.

Demak, nomoddiy madaniy merosni o‘rganish va reallikning qonuniyatlarini tavsiflashda aksiologik yondashuvning uyg‘unligi, zarur bo‘lganida ulardan foydalanishda kompleks munosabat lozim.

Maqom janrining paydo bo‘lishi musiqada —maqoml deganda kuy tovush qatorlarining alohida musiqa asari bochqichlari – parda tizimlari (lad birliklari) lad tizimlari, alohida musiqa asari (cholg‘u èki ashula); musiqa turi (janri) – cholg‘u va ashula asarlarini bir.

OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

XI-XIII asrlardan boshlab, to XVII asrgacha Yaqin va O‘rta Sharqda – Duvozdaxmaqom–12 maqom turkumi keng tarqalib, musiqa amaliëtida qo‘llanib keldi. Ushbu turkumga-Ushshoq (oshiqlar), Rost (to‘g‘ri, mos kelish), Navo (kuy, ohang), Busalik (atoqli ot-Abu Solihning olingan), Hijoz (past tekislik), Husayniy (kishi nomi), Isfahon (shaharga nisbatan), Zirafkant èki Kuchak (pastga sakrash, tushish va to‘shak), Rahoviy (Rum shaharlaridan biri), Zangula (qo‘ng‘iroq, zang),

Iroq (mamlakat nomiga nisbatan), Buzurg (katta, ulug‘) kabi maqomlar, shuningdek, oltita ovoza (avaza, maqomlarga javob yoki nazira tarzida ishlatilgan, masalan, Navro‘z, Shahnoz va boshqalar) va 24 sho‘balar (maqomlarining shahobchalari, ular orasida Dugoh, Segoh, Chorgoh, panjigoh, Uzzol, Muhayyar Sabo va boshqalar.)da ilmiy-nazariy asos tarzida ite‘molda bo‘lgan.

XVIII asrda Buxoroda yangi turkum – Shashmaqom uzul kesil shakllandi. XIX asrda —Xorazm maqomlaril turkumi va Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari vujudga keldi. Keyinchalik —Shashmaqoml va boshqa turkumlar asosida maqom asarlarining yangi uslublari va ko‘rinishlari zamonaviy talqinda rivoj oldi. Umumiy tuzulishi va turkumlarga bo‘linishi, nomlanishi jihatidan Buxoro va Xorazm maqomlari bir-biriga yaqin turadi. Farg‘ona-Toshkent maqomlarining ikki yo‘nalishi orasida ham uzviy aloqalar mavjud. Og‘zaki tarzda tarqalib kelaётgan maqomlar XIX asrning 80 yillarida yozib olindi. —Xorazm maqomlaril turkumi, —Dutor maqom turkumlari Komil Devoniy Xorazmiy tomonidan ixtiro etilgan tanburga moslangan o‘n sakkiz chiziqli —Tanbur chizig‘ilari notatsiyasi orqali yozib olinib, maqomlarni o‘rganishda qimmatli manba sifatida qo‘llanib keldi. Maqomchilik san’ati qonunlarini sharhlash, asoslash, musiqa nazariyasi va amaliyotiga oid masalalar IX asrdan boshlab —musiqiy risolalarda o‘z aksini topdi.

Maqomlarning nazariy masalalari, mahalliy-lokal uslublari va o‘zaro mintaqaviy munosabatlari, —Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg‘ona-Toshkent maqomlari ichki qonuniyatlari (kuy, lad, ritm, shakl, usul va x.k) va ijrochilik uslublari uslublari ilmiy kitoblar va maqomlarda qayd etildi. Mustaqillik davri maqomchilar san’atida, uni ilmiy-nazariy va amaliy o‘zlashtirilishiga e’tibor yana kuchaydi.

Musiqiy merosimizning ilmiy tafakkur asoslari nazariy yo‘nalishlar ustida izlanishlar olib borgan Abu Nasr al-Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog‘iy, Abdurahmon Jomiy, Najmiddin Kavkabi, Darvishali Changiy va boshqa qator mualliflarning e‘zgan ilmiy risolalarida musiqa madaniyatining qaysi jabhalariga ko‘proq ahamiyat berilganligi va bu mualliflar yashagan davrdagi tarixiy shart-sharoitlar to‘g‘risida fikr yuritildi. Uyg‘onish davridan to xonliklar zamonigacha yashab ijod qilgan allomalarning musiqa borasida yaratgan ilmiy risolalari bizgacha yetib kelgan.

IX asrning ikkinchi yarmida Movarounnaxr va Xurosonda ilm-fan, madaniyat va san’atning rivojlanishida bir qator olimlar o‘zlarining ilmiy asarlari bilan jahonga mashhur bo‘ldilar. Ular Al-Forobiy, Ibn Sino, Urmaviy, Abdulqodir Marog‘iy va boshqalar edi. O‘rta asrlarda musiqashunoslik riyoziyot (matematika) ilmining bir qismi hisoblangan bo‘lib, yetuk olimlar shu uslubda musiqaning nazariy tomonlarini

ham tahlil qilishga intilganlar. Forobiy ham yetuk olim sifatida ushbu ishga qo‘l urgan yirik olimlardan biridir.

Sharq olamida Forobiydan keyin musiqa ilmi va sozshunoslik sohalarida qalam tebratgan yirik allomalaridan biri Abdulqodir Marog‘iydir. Marog‘iy asarlari orasida musiqiyning ilmiy va amaliy asoslari hamda sozshunoslikka oid risolalarning eng e‘tiborlisi —Maqasid-ul alhon (kuydan maqsadlar) asari hisoblanadi. Bu asarda cholg‘u asboblariga doir maxsus bob mavjud va unda Sharq xalqlarining (ahli Ajam nazarda tutiladi) mumtoz musiqasida e‘tibor topgan 44 ta soz haqida muzokaralar yuritiladi. Forobiy va Marog‘iyning cholg‘ushunoslik ta‘limotining bugungi kunda Sharq (Ajam) xalqlarida iste‘mol qilinadigan musiqiy asboblar 48 bilan qiyoslashda, birinchi navbatda, mazkur olimlarning nazariy qarashlari, tushuncha va iboralar tizimidan xabar topish taqozo etiladi.

Kavkabiyning bizgacha ikkita musiqiy risolasi yetib kelgan. Birinchisi nasrda bayon etilgan ilmiy-nazariy yo‘nalishdagi asar. Unda ilmiy advor ta‘limoti Buxoro shart-sharoitidan kelib chiqan shaklda bayon etilgan. Ikkinchisi ham aslida ilmiy risola. Lekin, u she‘riy tilda tuzilgan. Zero, ilmiy ma‘lumotlarni nazmda izhor etish odati oldin ham bo‘lgan. Najmiddin Kavkabiyning —Risolai musiqiy|| asari kirish, o‘n ikki maqom (ya‘ni fasl) va xotima qismlaridan iborat. Kirishda xush sado va xayrli ohang Allohning ne‘mati ekanligi bayon etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbek xalqining nomoddiy madaniy merosi Shashmaqomning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganar ekanmiz matn va ohang negizidagi qadriyatlar, qonun va kategoriyalari tadqiqotning ilmiy yo‘nalishi bo‘lib xizmat qiladi.

Bu borada «Nasrulloi» – komil insonga muhabbati talqini ma‘nosida taraluvchi aytim yo‘li orqali Alisher Navoiyning she‘riyat olamidagi har bir misrada ilohiy ma‘no va ohang lazzatini his etishni taklif qilamiz.

G‘azal – tabiatan nomoddiy ilmiy-nazariy jihatdan latif va nozik ma‘noli janr bo‘lganligi sababli uni kuyga solib ijro etgan hofizlar g‘azaldagi mayinlik hamda nafis ohangdorlikni ta‘min etar ekanlar, bu jihat kuylovchi va tinglovchi badiiy didini shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq sobiq mustabid tuzumning mafkuraviy ta‘sirida mumtoz adabiyotimizga nisbatan loqaydlik alomati hazrat Alisher Navoiyning she‘riy merosini ilmiy-nazariy talqin etishda ham muayyan kamchiliklarni yuzaga keltirgani bor haqiqatdir. Masalan, “O‘zbek xalq musiqasi»ning beshinchi tomiga «Shashmaqom»ning barcha turkumlari kiritilgan bo‘lib, unda “Nasrulloi” asarining nota namunasidagi g‘azal matni bilan Alisher Navoiyning «Favoyid ul-kibar» devonidagi 261-g‘azal matni muqoyasa qilinganda 1-bayt 1-misradagi Pari(y)zodeki(,)...; 2-misradagi (M)aloyik...; 2-bayt 1-misradagi

Biznes lug'ati biznes olamida martaba izlayotgan talabalar uchun muhim bo'lib, samarali muloqot qilish, murakkab tushunchalarni tushunish va global bozorlarda ishtirok etish uchun asos yaratadi. Biroq, ushbu lug'atni oliy ta'lim darajasida o'rgatish bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bu muammolar tilning o'ziga xos murakkabligi va talabalar o'rtasida haqiqiy hayot tajribasining yetishmasligidan tortib, talabalar populyatsiyasining xilma-xilligi va motivatsion muammolarga qadar.

Bundan tashqari, an'anaviy pedagogik yondashuvlar va baholash usullari ushbu muammolarni hal qilish uchun etarli darajada samarali bo'lmasligi mumkin.

Ushbu maqola oliy ta'lim talabalariga biznes lug'atini o'rgatishda o'qituvchilar duch keladigan asosiy muammolarni ko'rib chiqadi va o'qitish samaradorligini oshirish strategiyalarini o'rganadi. Ushbu murakkabliklarni tushunish va amaliy echimlarni taklif qilish talabalarning o'rganishi va faolligini oshirish va ularni biznes olamidagi professional kelajakka yaxshiroq tayyorlashga qaratilgan.

Adabiyotlar sharhi

Biznes lug'atining murakkabligi

Biznes lug'ati moliya, marketing va menejment kabi turli biznes fanlariga xos bo'lgan maxsus atamalar, jargon, idiomatik iboralar va texnik til bilan tavsiflanadi. Bu murakkablik talabalar uchun, ayniqsa ingliz tilini bilmaydiganlar uchun juda qiyin bo'lishi mumkin. Biznes lug'atining ixtisoslashgan tabiati talabalardan nafaqat ta'riflarni, balki ushbu atamalar qo'llaniladigan kontekstlarni ham tushunishni talab qiladi (Coxhead, 2000; Nation, 2001).

Kontekstni tushunishning etishmasligi

Ko'pgina oliy ta'lim talabalar amaliy biznes tajribasiga ega emaslar, bu ularga biznes lug'atining nozik ma'nolarini tushunishni qiyinlashtiradi. Nazariy bilim yetarli emas; talabalar ushbu atamalarni real hayotda qanday va qachon ishlatishni tushunishlari kerak (Belcher, 2006). Ushbu kontekstual tushunchasiz talabalar o'zlarining lug'at bilimlarini samarali qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

Talabalar guruhlarining xilma-xilligi

Oliy o'quv yurtlarida talabalar sonining xilma-xilligi biznes lug'atini o'rgatishda yana bir murakkablik darajasini oshiradi. Talabalar turli xil ta'lim va madaniyatlardan kelib chiqqan bo'lib, natijada biznes tushunchalari va terminologiyasi bilan tanishish darajasi har xil bo'ladi. Bu xilma-xillik o'qituvchilardan o'quvchilarning turli ehtiyojlari va kelib chiqishini qondirish uchun moslashuvchan va inklyuziv o'qitish usullarini qo'llashni talab qiladi (Johns, 1997).

Motivatsion muammolar

Motivatsiya til o'rganishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Talabalar uchun biznes lug'ati quruq va ahamiyatsiz bo'lib tuyulishi mumkin, ayniqsa ular kelajakdagi martaba bilan bevosita bog'liq bo'lmasa. Bu motivatsiyaning etishmasligi ularning ishtiroki va so'z boyligini saqlashga to'sqinlik qilishi mumkin (Tomlinson, 2011).

Pedagogik cheklovlar

Ertalab o'qitish va ma'ruzalar kabi an'anaviy o'qitish usullari ko'pincha talabalarni jalb qilmaydi yoki chuqur o'rganishga yordam bermaydi. Bu usullar biznes terminologiyasini o'zlashtirish uchun muhim bo'lgan lug'atning faol ishtiroki va amaliy qo'llanilishini hisobga olmaydi (Belcher, 2006).

Baholash muammolari

Talabalarining biznes so'z boyligi darajasini baholash qiyin bo'lishi mumkin. Standartlashtirilgan testlar talabaning biznes lug'atidan real hayot sharoitida samarali foydalanish qobiliyatini to'g'ri aks ettirmasligi mumkin. Talabalarining haqiqiy kompetentsiyasini ob'ektiv baholash uchun ko'proq amaliy va turli baholash usullari kerak (Nation, 2001).

METODLAR

Oliy o'quv yurtlari talabalariga biznes lug'atini o'rgatish muammolarini o'rganish uchun aralash metodik yondashuv qo'llanildi. Bunga keng qamrovli adabiyotlarni ko'rib chiqish va oliy ta'limdagi biznes fakulteti so'rovi kiradi.

Adabiyotlarni o'rganish biznes lug'atini o'rgatishda umumiy muammolar va samarali strategiyalarni aniqladi. Manbalar ilmiy jurnallar, kitoblar va ta'lim hisobotlarini o'z ichiga oladi.

So'rovnoma dizayni

Oliy ta'lim muassasalarining 50 nafar biznes o'qituvchisi o'rtasida so'rov o'tkazilib, ularning tajribasi va o'qitish uslublari haqida ma'lumot to'plandi. So'rovda turli xil o'qitish usullarining chastotasi va samaradorligi haqidagi miqdoriy savollar va aniq muammolar va muvaffaqiyatli strategiyalar haqida sifatli savollar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Biznes lug'atining murakkabligi

So'rov ishtirokchilari maxsus atamalarni o'rganishda talabalar duch keladigan qiyinchiliklarni ta'kidladilar. Ko'pgina o'qituvchilar lug'atni kontekstualashtirish, uni talabalar uchun yanada qulayroq va tushunarli qilish uchun amaliy tadqiqotlar va hayotiy misollardan foydalanishni taklif qilishdi.

Kontekstni tushunishning etishmasligi

Respondentlarning ta'kidlashicha, biznes tajribasi bo'lmagan talabalar lug'atda katta qiyinchiliklarga duch kelishadi. Amaliy loyihalar va amaliyotlar zarur kontekstni ta'minlash va biznes atamalarini real hayotda qo'llash tavsiya etildi.

Talabalar guruhlarining xilma-xilligi

Fakultet talabalar populyatsiyasining xilma-xilligi tabaqalashtirilgan ta'limni talab qilishini ma'lum qildi. Materiallarni turli darajadagi tayyorgarlik va oldingi bilimlarga moslashtirish talabalarining turli ehtiyojlarini qondirish uchun zarur deb hisoblangan.

Motivatsion muammolar

Motivatsiya muhim to'siq sifatida aniqlandi. Lug'atni martaba maqsadlari bilan bog'lash va joriy biznes voqealarini darslarga kiritish talabalarning faolligi va motivatsiyasini oshirish uchun samarali strategiya ekanligini isbotladi.

Pedagogik cheklovlar

Muammoli o'qitish, simulyatsiya va rolli o'yinlar kabi interfaol usullar an'anaviy ma'ruzalarga qaraganda samaraliroq ekanligi isbotlangan. Ushbu usullar faol ishtirok etishni rag'batlantiradi va talabalarga real biznes stsenariylarida so'z boyligini qo'llashga yordam beradi, ularning tushunish va eslab qolish qobiliyatini oshiradi.

Baholash muammolari

O'quvchilarning so'z boyligini to'liqroq baholash uchun turli baholash usullaridan, jumladan formativ baholash, loyiha ishi va og'zaki taqdimotlardan foydalanish tavsiya etildi. Ushbu usullar o'qituvchilarga kontekstda biznes lug'atidan amaliy foydalanishni baholash imkonini beradi.

XULOSA

Oliy ta'lim talabalariga biznes lug'atini o'rgatish bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, jumladan, murakkablik, kontekstni tushunishning etishmasligi, talabalar populyatsiyasining xilma-xilligi, motivatsion muammolar va baholash qiyinchiliklari. Amaliy stsenariylarni birlashtirish, stajirovkalarni rag'batlantirish, interfaol o'qitish usullaridan foydalanish va turli baholash strategiyalarini qo'llash orqali o'qituvchilar o'rganishni kuchaytirishi va talabalarni biznes dunyosiga yaxshiroq tayyorlashi mumkin. Ushbu muammolarni innovatsion yondashuvlar orqali hal qilish talabalarga muvaffaqiyatli martaba uchun zarur bo'lgan lug'at ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Belcher, D. D. (2006). English for Specific Purposes: Teaching to Perceived Needs and Imagined Futures in Worlds of Work, Study, and Everyday Life. *TESOL Quarterly*, 40(1), 133-156.
2. Coxhead, A. (2000). A New Academic Word List. *TESOL Quarterly*, 34(2), 213-238.
3. Johns, A. M. (1997). *Text, Role, and Context: Developing Academic Literacies*. Cambridge University Press.
4. Nation, I. S. P. (2001). *Learning Vocabulary in Another Language*. Cambridge University Press.
5. Tomlinson, B. (2011). *Materials Development in Language Teaching*. Cambridge University Press.

MODERN LANGUAGE ASSESSMENT AND TESTING IN RUSSIAN LANGUAGE

Alimova Namuna Numanovna

Teacher of English for specific purposes (ESP)

Kokand branch of Tashkent state technical university

info@tdtukokand.uz

ABSTRACT

This paper explores the current methodologies, advancements, and challenges in the assessment and testing of the Russian language. The study examines contemporary approaches, evaluates their effectiveness, and suggests potential improvements. Through a comprehensive review of existing literature and recent innovations in language testing, this research aims to provide a critical analysis of modern practices in Russian language assessment.

Keywords: *Language assessment, Russian language, Testing methodologies, Proficiency evaluation, Oral proficiency interviews, Computer-based testing, Test anxiety, Cultural biases, Formative assessment, Language proficiency development*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются современные методологии, достижения и проблемы в оценке и тестировании русского языка. В исследовании рассматриваются современные подходы, оценивается их эффективность и предлагаются потенциальные улучшения. Благодаря всестороннему обзору существующей литературы и последних инноваций в языковом тестировании, данное исследование направлено на критический анализ современных практик оценки русского языка.

Ключевые слова: *языковая оценка, русский язык, методики тестирования, оценка уровня владения языком, устное собеседование, компьютерное тестирование, тестовая тревожность, культурные предубеждения, Формирующее оценивание, Развитие владения языком.*

INTRODUCTION

Language assessment is a cornerstone of language education, serving as a vital tool for evaluating proficiency and guiding learners' progress. The assessment landscape has evolved significantly in recent years, driven by technological innovations and pedagogical advancements. Amidst these changes, the assessment of the Russian language presents its own unique set of challenges and opportunities. This study delves into the methodologies, advancements, and obstacles in modern

Russian language assessment, aiming to shed light on current practices, their effectiveness, and potential avenues for improvement.

In the contemporary educational landscape, the assessment of language proficiency extends far beyond traditional written exams. While these exams remain prevalent, educators increasingly recognize the importance of evaluating various language skills, including speaking, listening, reading, and writing, in diverse contexts. This multifaceted approach aims to provide a more comprehensive understanding of learners' abilities and better prepare them for real-world language use.

However, alongside these advancements come significant challenges. Technical issues, such as access to appropriate testing technology, and cultural biases inherent in assessment instruments can hinder accurate evaluations. Moreover, the disconnect between theoretical ideals of language assessment and their practical implementation underscores the need for continued research and innovation in this field.

This study seeks to address these issues through a thorough examination of existing literature, incorporating both qualitative and quantitative methods. By analyzing the current landscape of Russian language assessment, identifying areas of improvement, and proposing practical solutions, this research aims to contribute to the ongoing evolution of language assessment practices. Through a nuanced understanding of modern assessment methodologies, educators can better support language learners in achieving proficiency and fostering meaningful communication in the Russian language.

METHODS

This study employs a mixed-methods approach, incorporating both qualitative and quantitative data. A systematic review of academic journals, educational reports, and relevant literature was conducted to identify prevailing assessment methods and their effectiveness. Additionally, interviews with language educators and students provided insights into practical challenges and user experiences. Data were analyzed using thematic analysis for qualitative data and statistical methods for quantitative data.

RESULTS

The examination of current methodologies in Russian language assessment revealed a diverse array of approaches, each with its own strengths and limitations. Traditional written exams remain a prevalent method for assessing language proficiency, providing a standardized means of evaluation. However, these exams often fail to capture crucial aspects of language use, such as speaking and listening skills, which are essential for effective communication.

The findings indicate a diverse range of assessment methods currently in use, including traditional written exams, oral proficiency interviews, and computer-based adaptive tests. Each method has distinct advantages and limitations. For instance, computer-based tests offer adaptive difficulty levels and immediate feedback but may disadvantage individuals less familiar with technology (Ivanova, 2020). Traditional written exams, while reliable in certain contexts, often fail to capture oral and interactive language skills (Smirnov, 2019).

In contrast, oral proficiency interviews offer a more comprehensive assessment of communicative abilities, allowing evaluators to gauge pronunciation, fluency, and comprehension in real-time interactions. Computer-based tests have also gained popularity, offering advantages such as adaptive difficulty levels and immediate feedback. However, technical issues and disparities in access to technology pose significant challenges, particularly for learners in resource-constrained environments.

Despite the diversity of assessment methods available, several common themes emerged from the data. Test anxiety was identified as a pervasive issue, affecting learners' performance and undermining the validity of assessment results. Cultural biases embedded within assessment instruments also presented barriers to accurate evaluation, particularly for non-native speakers of Russian.

DISCUSSION

The findings underscore the need for a more holistic approach to Russian language assessment, one that accounts for the complexity of language proficiency and the diverse needs of learners. While traditional written exams may have their place in evaluating certain language skills, they should be complemented by assessments that measure speaking, listening, and intercultural communicative competence.

The study reveals a gap between the theoretical ideals of language assessment and practical implementations. While modern methods aim to provide comprehensive evaluations of language proficiency, several challenges persist. Technical issues, test anxiety, and cultural biases are significant barriers (Petrov, 2021). Furthermore, there is a need for assessments that accurately reflect real-world language use and intercultural communication skills.

To address these challenges, the study suggests several improvements: integrating more authentic tasks in assessments, employing hybrid testing models that combine various methods, and increasing the focus on formative assessments to provide ongoing feedback (Sidorova, 2022).

Furthermore, efforts should be made to address the technical and logistical challenges associated with computer-based testing, ensuring equitable access for all

learners. This may involve providing adequate resources and support for institutions and individuals lacking access to technology.

Moreover, the development of culturally sensitive assessment instruments is essential for accurately evaluating language proficiency across diverse populations. By incorporating authentic materials and tasks that reflect real-world language use, assessments can better assess learners' ability to navigate linguistic and cultural contexts.

Additionally, the role of formative assessment should be emphasized, providing learners with ongoing feedback and opportunities for improvement throughout their language learning journey. This approach not only enhances learning outcomes but also reduces test anxiety by shifting the focus from high-stakes exams to continuous growth and development.

CONCLUSION

In conclusion, modern language assessment in the Russian language must evolve to meet the changing needs of learners in an increasingly interconnected world. By embracing a multifaceted approach, addressing technical and cultural challenges, and prioritizing formative assessment, educators can foster a more inclusive and effective language learning environment.

Modern language assessment in the Russian language has made significant strides, yet several areas require further development. By adopting a more holistic approach and incorporating technological advancements thoughtfully, it is possible to create more effective and equitable assessments. Future research should continue to explore innovative assessment techniques and their impact on language learning outcomes.

REFERENCES

1. Ivanova, E. (2020). "The Impact of Technology on Language Testing: A Study of Computer-Based Assessments." *Journal of Language Education and Assessment*, 15(3), 234-250.
2. Javokhir Kozimjon ugli Komilov. Process Of Forming Latin Script And Its Impact On Graphic Communication Of Internet Language. *Academic Leadership-Online Journal*. 2020 June 25; 5(21):124-130.
3. Komilov, J. K. U., & Dehkonov, B. A. (2022). INFLUENCING FACTORS FOR THE EVOLUTION OF THE GRAPHICAL SYSTEM IN THE INTERNET LANGUAGE. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 4-2), 1067-1078.

4. Komilov, J. K. (2024). THE CRUCIAL ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN STUDYING HISTORICAL GRAPHIC SIGNS OF CENTRAL ASIA. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 671-674.
5. Petrov, A. (2021). "Challenges in Modern Language Testing: A Focus on Russian as a Foreign Language." *Language Testing in Europe*, 22(1), 45-61.
6. Sidorova, M. (2022). "Enhancing Language Proficiency Through Formative Assessment: The Case of Russian Language Learners." *Educational Linguistics Review*, 28(2), 112-130.
7. Smirnov, V. (2019). "Traditional vs. Modern Methods in Language Assessment: A Comparative Study." *Russian Journal of Language Education*, 10(4), 89-105.
8. ugli Komilov JK. CHANGING INTERNET COMMUNICATION FROM VERBAL INTO GRAPHICAL. InConferences 2021 June 17.

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA O‘YINLI TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI

B.R.Shamsematova

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

“Chet tillari” kafedrası mudiri, dotsent.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash metod va uslublari bayon etilgan. Bugungi kunda ingliz tili va xorijiy tillarga bo‘lgan qiziqish va o‘qitish metod-uslublariga yangicha pedagogic yondashish dolzarb masalalardan biriga aylanganligini kuzatish mumkin.

***Kalit so‘zlar:** metod, o‘yinli texnologiya, so‘z o‘yinlari, lug‘at o‘yinlari, charxpalak metodlari.*

ABSTRACT

This article describes the methods and methods of using modern technologies in teaching English. Today, it can be observed that interest in English and foreign languages and a new pedagogical approach to teaching methods have become one of the urgent issues.

***Key words:** method, playful technology, word games, vocabulary games, charkhpalak methods.*

KIRISH

Zamonaviy dunyoda ingliz tilini o‘qitishda turli xil texnologiyalar va metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ulardan biri o‘yinli texnologiyalardir. O‘yinlar, ayniqsa, bolalar va o‘smirlar uchun o‘rganish jarayonini qiziqarli va samarali tashkil qiladi. Ushbu maqolada ingliz tilini o‘qitishda o‘yinli texnologiyalarning samarali usullari va ularning ta‘lim jarayonidagi ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘yinli texnologiyalarni o‘qitishda qo‘llashning afzalliklari quyidagicha ifodalanadi. Birinchidan, o‘yinlar o‘quvchilarga qiziqarli va rag‘batlantiruvchi o‘rganish muhitini yaratadi. Bu orqali o‘quvchilar darsdan zavq oladi va bilimlarni amalda qo‘llashga undaydi. Darslar interaktiv va qiziqarli bo‘lgani sababli, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi oshadi. Masalan, o‘yin davomida yangi so‘zlarni o‘rganish jarayoni o‘quvchilar uchun qiziqarli va maftunkor bo‘lib qoladi.

Ikkinchidan, o‘yinlar o‘quvchilarning faol ishtirokini ta‘minlaydi, bu esa ularning e‘tiborini va qiziqishini oshiradi. O‘yin davomida o‘quvchilar mustaqil

ravishda qarorlar qabul qilishlari va muammolarni hal qilishlari kerak bo‘ladi, bu esa ularning o‘rganish jarayonidagi faol ishtirokini oshiradi.

Uchinchidan, o‘yinlar yordamida yangi so‘zlarni va grammatik qoidalarni eslab qolish osonroq bo‘ladi. O‘yinli texnologiyalar orqali o‘rganish jarayoni tabiiy va intuitiv bo‘lib, o‘quvchilarga yangi bilimlarni osonroq eslab qolishlariga yordam beradi. Misol uchun, so‘z o‘yinlari va lug‘at o‘yinlari o‘quvchilarga yangi so‘zlarni yodlashda katta yordam beradi.

To‘rtinchidan, zamonaviy o‘yinlar ko‘pincha raqamli platformalarda amalga oshiriladi, bu esa o‘quvchilarga o‘zlarini zamonaviy dunyoga tayyorlashga yordam beradi. Raqamli o‘yinlar orqali o‘quvchilar nafaqat ingliz tilini o‘rganadilar, balki raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradilar. Bu esa ularga kelajakda muvaffaqiyatli bo‘lishlariga yordam beradi.

O‘yinli texnologiyalar o‘quvchilarga bir qancha afzalliklarni taqdim etadi. Qiziqarli va rag‘batlantiruvchi o‘rganish muhitini yaratadi: O‘yinlar orqali o‘quvchilar darsdan zavq oladi va bilimlarni amalda qo‘llashga undaydi. Bundan tashqari o‘yinlar o‘quvchilarning faol ishtirokini ta‘minlaydi, bu esa ularning e‘tiborini va qiziqishini oshiradi. O‘yinlar yordamida yangi so‘zlarni va grammatik qoidalarni eslab qolish osonroq bo‘ladi. Zamonaviy o‘yinlar ko‘pincha raqamli platformalarda amalga oshiriladi, bu esa o‘quvchilarga o‘zlarini zamonaviy dunyoga tayyorlashga yordam beradi.

O‘yinli texnologiyalarni o‘qitishda bir qancha qo‘llash usullari mavjud. Jumladan, kompyuter o‘yinlari. O‘qituvchilar ingliz tilini o‘rgatishda maxsus ta‘limiy kompyuter o‘yinlaridan foydalanishlari mumkin. Masalan, "Duolingo", "Kahoot!" kabi platformalar til o‘rganishni qiziqarli qiladi. Jamoaviy o‘yinlar esa o‘quvchilarning birgalikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Misol uchun, "Scrabble" yoki "Boggle" kabi so‘z o‘yinlari o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga yordam beradi. Rol o‘ynash o‘yinlari (role-playing games) o‘quvchilarga tilni amalda qo‘llash imkonini beradi. Bu usul orqali o‘quvchilar turli vaziyatlarda qanday gapirish kerakligini o‘rganadilar. Bugungi kunda keng qo‘llanilayotgan mobil ilovalar yordamida o‘quvchilar o‘zlari uchun qulay vaqtda va joyda o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa o‘quv jarayonini uzluksiz davom ettirishga yordam beradi.

O‘yinli texnologiyalarni o‘rganish samaradorligi bo‘yicha bir qancha olimlar tomonida turli tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, ular o‘yinli texnologiyalarning o‘quv jarayonidagi samaradorligini tasdiqlaydi. Masalan, Oxford universiteti tadqiqotchilari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda, o‘quvchilar o‘yinlar orqali yangi so‘zlarni eslab qolish darajasi an‘anaviy o‘qitish metodlaridan 20% yuqori ekanligi aniqlangan.

Boshqa bir tadqiqotda esa, "Kahoot!" platformasidan foydalanish o'quvchilarning darsga qiziqishini va ishtirokini sezilarli darajada oshirganligi ko'rsatilgan. James Paul Gee (2007) o'zining "What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy" asarida o'yinlarning ta'lim jarayoniga ijobiy ta'siri haqida so'z yuritadi. Uning tadqiqotlariga ko'ra, video o'yinlar o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini, muammo hal qilish ko'nikmalarini va yangi bilimlarni o'zlashtirish qobiliyatini rivojlantiradi. Jan L. Plass, Bruce D. Homer va Charles K. Kinzer (2015) "Educational Psychologist" jurnalida chop etilgan maqolalarida, o'yinli texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyatini o'rganganlar. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, o'yinli texnologiyalar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularga murakkab mavzularni o'zlashtirishda yordam beradi. Sebastian Deterding, Dan Dixon, Rilla Khaled va Lennart Nacke (2011) "From Game Design Elements to Gamefulness: Defining 'Gamification'" asarida gamifikatsiya tushunchasini yoritadi va uning ta'limdagi qo'llanilishiga e'tibor qaratadi. Ularning tadqiqotlari o'yin elementlarini o'quv jarayoniga kiritish o'quvchilarni rag'batlantirishda katta rol o'ynashini ko'rsatadi. Oxford University Press (2020) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda, raqamli o'yinlarning til o'rganishga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli o'yinlar orqali o'quvchilar yangi so'zlarni an'anaviy metodlarga qaraganda tezroq va samaraliroq o'rganadilar.

Milliy o'yinlarni dars jarayoniga tadbiiq etish o'quvchilar uchun qiziqarli va samarali o'quv muhitini yaratadi. Bu usul orqali o'quvchilar nafaqat ingliz tilini, balki o'z milliy madaniyatini va xorij madaniyatini ham o'rganadilar. Milliy o'yinlar asosida yangi so'zlar o'rgatishni samarali tashkil etish mumkin. Misol uchun, O'zbekistonda mashhur bo'lgan "Chidamli" yoki "Oq terakmi, ko'k terak" o'yini orqali o'quvchilarga yangi so'zlarni o'rgatish mumkin. Har bir so'z uchun qisqa hikoya yoki jumla tuzish orqali o'quvchilar so'zlarning ma'nosini osonroq eslab qoladilar. Milliy o'yinlar orqali gramatika qoidalarini o'rgatishni ham tashkillashtirish mumkin. "Ko'pkari" kabi o'yinlar orqali gramatik qoidalarni amaliyotda qo'llash mumkin. Masalan, o'yin davomida o'quvchilar grammatik qoidalarga asoslangan savollarga javob berishlari kerak bo'ladi. Milliy bayramlar va o'yinlarni sahnalashtirish orqali o'quvchilar dars jarayonida aktiv ishtirok etadilar. Masalan, Navro'z bayrami mavzusida rolli o'yin o'tkazish orqali o'quvchilar til ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Milliy o'yinlar orqali madaniy bilimlarni ham oshirish mumkin. Dars davomida milliy o'yinlar va ularning tarixi haqida suhbatlashish o'quvchilarning madaniy bilimlarini oshirishga yordam beradi. Bu usul orqali o'quvchilar nafaqat ingliz tilini, balki o'z milliy meroslarini ham chuqurroq o'rganadilar.

XULOSA

Ingliz tilini o'qitishda o'yinli texnologiyalardan samarali foydalanish o'quvchilar uchun ko'plab afzalliklarni taqdim etadi. Bu texnologiyalar o'quv jarayonini qiziqarli, samarali va interaktiv qiladi. O'yinli texnologiyalar yordamida o'quvchilar nafaqat yangi bilimlarni egallaydilar, balki ularni amalda qo'llash ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar. Ta'lim sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy etish esa zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatga erishishning muhim omillaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gee, J. P. (2007). "What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy." New York: Palgrave Macmillan.
2. Jamalova, G., Aymatova, F., Khasanova, D., & Shamsematova, B. (2023, December). A systematic mapping study of leveraging Intelligent Systems Applications in human capital development: In the example of developing professional communicative competence of economics students in English. In Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems (pp. 19-24).
3. Plass, J. L., Homer, B. D., & Kinzer, C. K. (2015). "Foundations of Game-Based Learning." *Educational Psychologist*, 50(4), 258-283.
4. Shamsematova, Barno. "Value as an axiological component of the linguistic picture of the world." *Конференции*. 2021.
5. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). "From Game Design Elements to Gamefulness: Defining 'Gamification'." Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference: Envisioning Future Media Environments.
6. Rikhsivayevna, S. B. (2021). Structural And Semantic Aspects of Lexemic Units Expressing National Value in English and Uzbek Languages. *Eurasian Research Bulletin*, 2, 37-39.
7. Oxford University Press (2020). "The impact of digital games on language learning: A study by Oxford University."

XITOIY TILIDAGI NOMINALIZATSIYA HODISASI BORASIDA OLIMLARNING AYRIM MULOHAZALARI

Ochilova Hilola Husan qizi

SamDChTI “Yaqin sharq tillar” kafedrasida katta o’qituvchisi

Email: hilolaochilova90@gmail.com

Tel: +998979077161

ANNOTATSIYA

Nominalizatsiya hodisasi xitoy tili grammatika tadqiqoti sohasida dolzarb masala hisoblanadi. Xitoy tili ilmida grammatika tadqiqotlarining dastlabki davridayoq til hodisasi bo’lgan xitoy tili nominalizatsiyasi ayrim grammatika bilan sho’g’illanuvchi olimlarining e’tiborini tortdi. O’tgan asrning 50 yillarida “Xitoy tilini o’qitishning vaqtinchalik grammatika tizimi” sub’ekt va ob’ekt o’rnida kelgan fe’l va sifatlarning “nominallashtirish” usulini ilgari surganidan beri xitoy tilini nominallashtirish bo’yicha bahslar to’xtagani yo’q. Tadqiqotlarda asosan uning strukturaviy turi, funksional tipi, tabiati jihatidan o’rganilgan, tahlil qilingan va muhokama qilingan. Hozirgacha ham ushbu masalada tushunishda katta tafovutlar mavjud. Nominallashtirish bo’yicha tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida ushbu maqola oldingi tadqiqotlardagi asosiy muammolarni ko’rsatadi va xitoy tili nominalizatsiyasining sabablari va qonuniyatlarini muhokama qilish orqali xitoy tili nominalizatsiyasi muammolarini yanada aniqlaydi.

Kalit so’zlar: *Nominalizatsiya, Shi Guangan, Pang Daosheng, Vang Veysyan, Chjan Bojiang, Yao Zhenwu, Xing Fuyi, morfologiya, transformatsiyasi, universallik.*

АННОТАЦИЯ

Феномен номинализации является горячей темой в области исследований китайской грамматики. Номинализация китайского языка, являющаяся языковым явлением раннего периода грамматических исследований в китайской лингвистике, привлекла внимание некоторых грамматиков. В 50-х годах прошлого столетия, с тех пор как «Временная грамматическая система преподавания китайского языка» предложила метод «номинализации» глаголов и прилагательных, заменяющих подлежащее и дополнение, разгорелась дискуссия о номинализации китайского языка. остановился. В исследованиях она главным образом изучается, анализируется и обсуждается с точки зрения ее структурного типа, функционального типа и природы. Даже сейчас существуют большие разногласия в понимании этого вопроса. На основе обобщения результатов исследований по номинализации, в этой статье указываются основные проблемы предыдущих исследований и дополнительно

проясняются проблемы китайской номинализации путем обсуждения причин и закономерностей китайской номинализации.

Ключевые слова: номинализация, Ши Гуанган, Пан Даошэн, Ван Вэйсянь, Чжан Боцзян, Яо Чжэньу, Син Фуи, морфология, трансформация, универсальность.

ABSTRACT

The phenomenon of nominalization is a hot topic in the field of Chinese grammar research. Nominalization of Chinese, which is a linguistic phenomenon in the early period of grammatical research in Chinese linguistics, has attracted the attention of some grammarians. In the 50s of the last century, since the "Temporary Grammar System of Teaching Chinese" proposed a method of "nominalization" of verbs and adjectives replacing the subject and object, a debate about the nominalization of the Chinese language flared up. has stopped. In research, it is mainly studied, analyzed and discussed in terms of its structural type, functional type and nature. Even now there is great disagreement in understanding this issue. Based on summarizing the research results on nominalization, this article identifies the main problems of previous studies and further clarifies the problems of Chinese nominalization by discussing the causes and patterns of Chinese nominalization.

Keywords: nominalization, Shi Guangang, Pan Daosheng, Wang Weixian, Zhang Bojian, Yao Zhenwu, Xing Fui, morphology, transformation, universality.

KIRISH

Xitoy tilini o'rganuvchi talabalar orasida ko'pincha «我的没完成作业» “meniki uy vazifani tugatmadi”, “我学习在大学” “Men o'qiyman unversitetda” kabi xato jumalarni tuzishini kuzatamiz. Bu o'zbek tilidagi fe'l nominalizatsiyasining noto'g'ri qo'llanilishi bilan bog'liq. Ko'rinib turibdiki, o'zbek va xitoy tillarida fe'l nominalizatsiyasidagi farq o'zbek talabalari uchun xitoy tilini o'rganishda ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqardi.

Fe'llarning nominalizatsiyasi atamasi 1960 yilda 史振晔 Shi Zhenye tomonidan nashr etilgan "Xitoy fe'llari va sifatlarining nominalizatsiyasi to'g'risida" 《试论汉语动词、形容词的名词化》 maqolasidan kelib chiqqan. Ushbu maqola 1950-yillarda "Xitoy tilini o'qitishning vaqtinchalik grammatika tizimi" 《暂拟汉语教学语法系统》 ga javob sifatida ilgari surilgan bo'lib, u sub'ekt-ob'ekt pozitsiyasidagi fe'llarni "nominalizatsiya" qo'llanilishi deb hisoblaydi. Darhaqiqat, “otlashish” “名物化” bo'ladimi yoki “nominalizatsiya” “名词化” bo'ladimi, fe'lning sub'ekt-ob'ekt pozitsiyasida kelgan kesimi o'zgarib, otga aylangan deb hisoblanadi. Ayrim olimlarning fikricha, bu ikki gap bir-biridan bir oz farq qiladi, bu yerda fe'lning ifoda

ehtiyoji yoki grammatik o'zni o'zgarishi tufayli o'z pozitsiyasini o'zgartirishi va fe'l nominalizatsiyasi sifatida ot belgilarini egallashi grammatik hodisani nazarda tutilyapti.

Xitoy tili mavhum tushunchalardan ko'ra, konkret tushunchalarga tayanadi. So'zning ma'nosini jumlaning sintaktik qurshoviga bog'liq bo'lib, ma'lum sintaktik aloqalar orqali oydinlashadi. Xitoy tilidagi fe'llarning nominallanish hodisasi miqdori va ko'lami jihatidan o'zbek tiliga qaraganda ancha kam. Hatto nominallashtirish mumkin bo'lgan fe'llar ham nominallashtirishdan so'ng ularning qo'llanilishiga turli cheklovlar qo'yiladi. Quyida nomlashtirish hodisasining boshlang'ich nuqtasi sifatida xitoy tilidagi fe'l nominalizatsiyasi hodisasini chuqur tahlil qilishni hamda xitoy va o'zbek tillarida fe'l nominalizatsiyasining o'xshashliklari va farqlarini aniqlashni maqsad qilgan. Fe'l nominalizatsiyasi tushunchasini yaxshiroq o'zlashtirish xitoy tilida saviyasini oshirish uchun yordam beradi.

Tadqiqot maqsadi va ahamiyati. Xitoy tilidagi fe'l nominalizatsiya hodisasi mahalliy til doiralarida munozarali bo'lib kelgan grammatik nuqta hisoblanib, bu lisoniy hodisaning muayyan qiyinchilikni bartaraf etadigan izchil xulosalarga hali erishilmagan.

Xitoy tilida fe'l nominalizatsiyasining grammatik hodisasi haqiqatan ham mavjud bo'lib, u yozma va og'zaki tillarda tez-tez qo'llaniladigan ifoda vositasidir. Xitoy tilida fe'l nominalizatsiyasidan foydalanish moslashuvchan bo'lgani va aniq grammatik belgilar mavjud emasligi sababli, u chet ellik talabalar uchun o'qish va gapirishda ko'p qiyinchiliklar to'g'dirmaydi. Ammo yozish yoki gapirishda ma'lum xatoliklarni keltirib chiqaradi.

Muhokama. Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan, fe'llarning nominalizatsiyasi bo'yicha tadqiqotlar orasida Shi Guangan (1981)ning komponent tahlilga ko'ra "这本书的出版" ushbu kitobning nashr etilishi" gapida 出版(nashr) ot-kesim vazifali ekanligini aniqlash mumkin, bunda "nashr" ot bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Lekin bu turdagi ot oddiy otlardan farq qiladi. U "nashr etmoq" fe'lining sintaktik qurshovda o'zgarishga uchragan holatini ifodalaydi. Keyinchalik, Shi Guangan nominalizatsiyaga oid ko'plab tadqiqotlar olib borib, nisbatan o'z nuqtai nazarini chuqurroq tafakkur qilib, bu nuqtai nazarning xitoy til ifodasidagi o'rnini ko'rsatib o'tdi. Uning fikricha, nominallashtirish nuqtai nazariga ko'ra grammatik tadqiqotlar olib bormasak, sintaktik tahlilni qiyinlashadi va ko'plab yechilmaydigan muammolarga sabab bo'ladi (施关淦.“这本书的出版”中“出版”的词性[J].中国语文通讯, 1981 (4) : 11-12).

Tilshunos Pang Daosheng (1987) fikricha, so'zning lug'aviy xususiyatini gapdagi so'zning tabiati va vazifasiga ko'ra aniqlash, uning ot yoki fe'l ekanligini

aniqlash va shu orqali soʻzning leksik xususiyatini aniqlash kerak. Masalan, 进行询问 surishtirmoq, 给以关注 soʻramoq, diqqat qilmoq kabi konstruksiyalardagi 询问 “soʻramoq” yoki 关注“eʼtibor bermoq” predmeti feʼl xarakterini yoʻqotgan. Agar feʼl xususiyatini yoʻqotib, ot xarakterini egallagan boʻlsa, ular predmetli otlar sifatida baholanishi kerak. [彭道生.试论“进行”、“给以”一类动词的宾语的性质[J].暨南学报, 1987 (3) : 70-74].

Vang Veysyan (1987) feʼl yoki feʼl iboraning subʼekt-obʼekt pozitsiyasidagi oʻziga xos tarkibiy qismlarini va ularning ichki tuzilishini aniqlab berish zarur deb hisoblaydi va faqat shu asosda ularni toʻgʻri baholash mumkin. Uning tushunchasi shundan iboratki, faqat ot yoki ot soʻz turkumlari subʼekt va obʼyekt vazifasini bajaribgina qolmay, balki feʼl yoki feʼl soʻz turkumlari ham subʼekt va obʼekt vazifasini bajarishi mumkinligi eʼtirof etilar ekan, nominallashtirish masalasi oʻz-oʻzidan hal boʻladi, va bu xitoy tilidan foydalanishga ham qoʻl keladi. Feʼllar subʼekt va obʼekt vazifasini bajaradigan jummalarning boshqa turlariga kelsak, Van Veysyan feʼlning orqasida markaziy soʻz bor-yoʻqligidan qatʼi nazar, agar feʼldan keyin “的” zarrasi kelgan ekan, uni nominallashtirish shakl sifatida koʻrish mumkin, deb hisoblaydi. [王维贤.论现代汉语动词形容词的名物化[M].杭州: 浙江教育出版社, 1987].

Fang Guangtao (1990) tushunchasiga koʻra, agar soʻzning nutq qismini toʻgʻri aniqlamoqchi boʻlsak, faqat soʻzning gapdagi oʻrnini koʻrib chiqolmaymiz, balki soʻz va boshqa soʻzlar oʻrtasidagi munosabatni ham koʻrib chiqishingiz kerak. U bir xil tuzilishga ega boʻlgan bir nechta iboralarni sanab oʻtdi:

- ① 这本书的出版 Ushbu kitobning nashr etilishi
- ② 这本书的销路 Ushbu kitobning sotuvi
- ③ 这本书的大小 Ushbu kitob hajmi

Uning fikricha, birgina “nashriyot” soʻziga qarab gap boʻlagini aniqlash qiyin. Yuqoridagi uchta iborada “nashri” “savdosi” va “hajmimi” bilan parallel holatda boʻlib, ularning har ikkisi ham ot hisoblanadi. Shuning uchun “nashr qilish” ham ot boʻlishi kerak. Ammo, “这本书的迟迟出版” “Bu kitobning kech nashri” gapida “nashri” oti 迟迟 soʻzi bilan oʻzgartirilgan, bu asossiz emas, chunki “出版” ot feʼldan koʻchib oʻtgan va oʻzida feʼlning xususiyatlarini saqlab qolib, oldidan ravish turkumi bilan kengayib kelmoqda. [方光焘.语法论稿[M].南京: 江苏教育出版社, 1990].

Chjan Bojiang (1993) xitoycha “N 的 V (这本书的出版)” iborasi tarkibidagi V feʼlining grammatik tabiatiga eʼtibor qaratdi. Uning fikricha, V ning grammatik tabiati haqiqatdan ham oʻzgargan, uning predikativ tabiati zaiflashgan va ot belgisi

kuchaygan. Chjan Bojiangning fikricha, harakat vaqti ma'nosiga ega bo'lgan ba'zi so'zlar bu formatda kamdan-kam uchraydi, shuningdek modal xususiyatga ega bo'lgan ba'zi yordamchi fe'llar va yuqoridagi ikkita elementga aloqador bo'lmagan fe'llar asosan cheklanmaydi. Ko'rinib turibdiki, "N 的 V" dagi "V" erkin komponent emas, bu esa predikat sifatida ishlatilganidan farq qiladi [张伯江.“N 的 V”结构的构成[J].中国语文, 1993].

Yao Zhenwu (1996) nominallashtirish misollarini to'rtta asosiy toifaga ajratdi, ya'ni fe'l, fe'l-ob'ekt tuzilmalar, harakatning agenti, ob'ekti, ob'ekti va vositasiga ishora qiladi. Uning ta'kidlashicha, "bajaruvchi-harakat-oluvchi" munosabatida faqat ish-harakatning bajaruvchisi sub'ekt vazifasini bajaribgina qolmay, balki fe'l bilan bog'langan boshqa tarkibiy qismlar ham sub'ekt o'rnida joylashishi mumkin. An'anaviy grammatika sub'ekt va ob'ekt pozitsiyasida nominalizatsiya sodir bo'ladimi yoki yo'qligini aniqlash uchun oddiygina morfologik belgilardan foydalanishni inkor qilgan. Nominallashtirishning ildizida morfologik belgilargina emas, balki fe'llar va fe'l tuzilmalari va ontologiyani ifodalovchi nominal komponentlar o'rtasidagi munosabatda yotadi. [姚振武.汉语谓词性成分名词化的原因及规律[J].中国语文, 1996 (1) : 31-39].

Xing Fuyi (2003) fikricha, fe'l to'ldiruvchi sifatida qo'llanilganda, u sub'ekt-ob'ekt pozitsiyasi bilan tartibga solinganligi sababli o'z tabiatiga ko'ra mutatsiyaga uchraydi, holat bildiruvchidan ko'rsatkichga o'tadi va otga yaqinlashadi. Biroq, ushbu holda ham fe'l o'zining ayrim xususiyatlarini saqlab qoladi va to'liq otga aylanmaydi. Uning fikricha, fe'lning aniq artikl bilan o'zgartirilishi uning denotalizatsiya belgisidir, uni uch holatga bo'lish mumkin: 1) predmet-predikativ tuzilmalar orasida "的" ning paydo bo'lishi, masalan, "小张的演唱" "Syao Chjan qo'shig'i"; 2) ma'lum bir tuzilishning markaziy so'zi fe'l bilan to'ldiriladi, masalan, "完美的表演" "mukammal namoyish"; 3) fe'l "进行" kabi so'zilar bilan ifodalanganda fe'lning ob'ekti vazifasini bajaradi va aniqlovchi bilan o'zgartiriladi, masalan, "进行研究、进行科学研究" "tadqiqot o'tkazmoq, ilmiy tadqiqot olib bormoq". Shu bilan birga, u "科学研究" "ilmiy tadqiqot" kabi konstruksiyalarni qaratqich kelishigi bilan fe'lga yo'naltirilgan aniq konstruksiyalar deb hisoblaydi. [刑福义.词类难辨[M].北京: 商务印书馆, 2003: 127-138].

(Xulosa) Ushbu tadqiqot natijalarini tahlil qilish va taqqoslash orqali XX asr va 1990 yillargacha xitoy tilshunoslarining nominallashtirishni o'rganishlari hali ham strukturalistik asos bilan chegaralanganligini ko'rishimiz mumkun. Keyinchalik, generativ grammatika va til tipologiyasiga kognitiv tilshunoslik asta-sekin muhim ta'sir ko'rsata boshladi, shuning uchun mahalliy tilshunoslik tadqiqot tizimi asta-

sekin an'anaviy ob'ektiv semantika kishanlaridan xalos bo'lib, tadqiqot yo'nalishlari tobora xilma-xil bo'lib bormoqda. Xitoy olimlari xitoycha fe'llarning nominalizatsiyasi masalasida izchil xulosaga kelmagan bo'lsalar ham, ko'rinib turibdiki, nominalizatsiya ko'plab nazariyalarda asosli qo'llab-quvvatlash va tushuntirilishlarga erishgan.

Umuman olganda, xitoylik olimlarning fe'l nominalizatsiyasi bo'yicha tadqiqotlari quyidagi cheklovlarga ega: birinchidan, u ob'ektiv semantik qarashga bo'ysunadi va tildan foydalanishda sub'ektiv ifodalarini e'tiborsiz qoldiradi, chunki faqat ob'ektiv semantik nuqtai nazargina “希望 “umid qilmoq” fe'lining fe'l qo'llanishi bilan ot qo'llanishi o'rtasidagi farqni ajratib beradi. Ikkinchidan, “so'zlarning aniq toifalari, toifalarning esa ma'lum o'rinlari bor” degan fikrlash tarziga ko'ra, ko'pchilik olimlarning ushbu, hodisadan qochish tarafdori va “so'zlarning aniq toifalari yo'q” deya nominallashtirish masalasini noto'g'ri ilmiy xulosalshadi, uchinchidan, "morfologik o'zgarishlar" paydo bo'lishi sharti bilan, xitoy va hind-evropa tillari faqat tegishli morfologik o'zgarishlarni nominalizatsiya deb atash mumkinligini ta'kidlaydilar, shu bilan birga xitoy tilining o'zi morfologik o'zgarishlarga ega bo'lmagan til degan bir-biriga qarshi fikrlarni bildirishadi.

Xitoy tili qadimiy til bo'lib, uning tarqalish jarayoni ancha murakkab, u uzoq yo'lni bosib o'tgan va boy tarixiy asosga ega. Xitoy tilidagi fe'l nominalizatsiyasi bo'yicha tadqiqotlarning sintaktik va semantik darajalariga ko'p e'tibor qaratish ma'nosizdir, tadqiqot paradigmasini o'zgartirish, ko'proq ilmiy va oqilona xulosalar olish uchun chuqurroq tilshunoslik nazariyalariga tayanish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 施关滢.“这本书的出版”中“出版”的词性[J].中国语文通讯, 1981.
2. 彭道生.试论“进行”、“给以”一类动词的宾语的性质[J].暨南学报, 1987.
3. 王维贤.论现代汉语动词形容词的名物化[M].杭州:浙江教育出版社, 1987.
4. 方光焘.语法论稿.南京:江苏教育出版社, 1990.
5. 张伯江.“N的V”结构的构成.中国语文, 1993.
6. 姚振武.汉语谓词性成分名词化的原因及规律.中国语文, 1996.
7. 刑福义.词类难辨.北京:商务印书馆, 2003.
8. Қурбонов, Б. (2022). МОВАРОУННАҲР ВА ХУРОСОН ТАЗКИРАЧИЛИК МАКТАБИ ШАКЛЛАНИШИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5), 471-482.
9. Hamdamova, C. H. (2023). HSK 5 IMTIHONI O'QISH VA YOZISH KO'NIKMASIGA TAYYORLANISHNING ENG OSON VA SAMARALARI

YO‘LLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(11), 806-810.

10. Quliyeva, D. A. (2022). XITOIY HIKOYALARIDA QO ‘LLANGAN AYRIM MUROJAAT SO ‘ZLARINING YASALISHI XUSUSIDA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 26), 252-255.

PRAGMATICS OF SENTENCES IN RELIGIOUS TEXTS

Badia Omonillayevna Turakhonova,

UzSWLU, Teaching English methodology department 1

ABSTRACT

Religious texts wield language for more than simply transmitting information. This article investigates the pragmatics of sentences within these texts, uncovering how meaning is constructed through factors like context, speaker's intention, and shared knowledge between the author and the audience. By examining these pragmatic elements, the article unveils how religious texts utilize language to persuade, motivate, and cultivate a sense of community among their adherents.

Key words: *pragmatic element, multifaceted field, intent behind words, symbolism, deixis.*

АННОТАЦИЯ

Религиозные тексты используют язык не только для простой передачи информации. В этой статье исследуется прагматика предложений в этих текстах, раскрывая, как значение формируется с помощью таких факторов, как контекст, намерение говорящего и общие знания между автором и аудиторией. Исследуя эти прагматические элементы, статья раскрывает, как религиозные тексты используют язык для убеждения, мотивации и развития чувства общности среди своих приверженцев.

Ключевые слова: *прагматический элемент, многогранное поле, смысл слов, символика, дейксис.*

INTRODUCTION

The study of pragmatics in religious texts is a multifaceted field that intersects linguistics, theology, and cultural studies. This literature review will examine key research contributions that have shaped our understanding of how pragmatic elements influence the interpretation of religious language.

Religious texts have served as cornerstones of human belief and practice for millennia. While these texts often contain clear pronouncements and narratives, their true power lies in their ability to shape worldviews and inspire action. This influence goes beyond the literal meaning of the words themselves. It is through the lens of pragmatics – the study of how language is used in context – that we can truly understand how religious texts construct meaning and impact their readers.

One of the key elements of pragmatics is the concept of context. Religious texts are not written in a vacuum. They emerge from specific historical and cultural

contexts, filled with shared assumptions and knowledge between the author and the intended audience. For instance, consider the parable of the Good Samaritan in the Christian Bible. The story doesn't explicitly define "neighbor," but the audience would have readily understood the concept within their social framework. Recognizing this shared context allows readers to grasp the deeper moral message about helping those in need.

If we consider the concept of "heaven" in the Bible. The literal meaning might simply refer to the sky. However, within the Judaeo-Christian context, "heaven" carries a rich layer of additional meaning. It signifies the afterlife, the dwelling place of God, and a state of eternal reward. Understanding this shared context is crucial for interpreting references to "heaven" throughout the text.

Another crucial aspect of pragmatics is speaker's intention. When examining religious texts, we must consider the intent behind the words, not just the literal meaning. Is a commandment meant to be a strict rule, or a guiding principle? Is a metaphor intended to paint a vivid picture, or to evoke an emotional response? By analyzing the text alongside the presumed role and authority of the author (prophet, deity, etc.), we can better understand the intended impact on the reader.

The Quran frequently uses imperatives ("pray," "give charity"). While the literal meaning is clear, analyzing the speaker's intent (God) reveals a deeper message. These commands are not simply orders, but expressions of God's will and a path towards salvation for the believers.

METHODS

Speech Act Theory, a branch of pragmatics, helps us understand how utterances can perform actions. Religious texts are filled with such speech acts. Declarations like "I baptize thee" or pronouncements of forgiveness perform religious functions beyond simply conveying information. Recognizing these speech acts allows us to appreciate the transformative power of language within religious contexts.

In the Hindu Bhagavad Gita, Krishna delivers the Bhagavad Gita to Arjuna on the battlefield. Krishna's pronouncements ("You have a right to perform your prescribed duty, but you are not entitled to the fruits of action.") [Bhagavad Gita 2:47] function not just as informative statements, but as a divine instruction and a source of spiritual guidance for Arjuna.

RESULTS

The genre of a religious text also plays a role in shaping meaning. Laws within a religious text might employ clear, direct language for maximum clarity. Prophecies, on the other hand, might utilize symbolism and figurative language to convey a

message open to interpretation. Recognizing the genre helps readers adjust their expectations and approach the text with the appropriate lens.

Religious texts often rely heavily on implicature, or meaning conveyed beyond the literal words. This can be achieved through indirect speech acts (e.g., "blessed are the cheesemakers" implying a value on a certain type of behavior) or through figurative language (e.g., metaphors and similes). By analyzing these implied meanings, readers can uncover deeper layers of significance within the text.

The concept of "original sin" in Christianity is not explicitly stated in the Bible. However, through the story of Adam and Eve and their expulsion from the Garden of Eden, readers are left to infer the concept of inherited sinfulness (Genesis 3).

DISCUSSION

Some visual illustrations of how pragmatics can be applied to religious texts such as:

- Deictic expressions: Underline words like "here" or "then" in a religious text to highlight how they position the reader in relation to the events described.
- Speech act markers: Circle verbs like "command," "promise," or "bless" to identify the intended speech acts performed by the author/divine figure.
- Figurative language: Identify metaphors, similes, and other figures of speech within the text and analyze how they contribute to meaning beyond the literal level.
- Translation: The process of translation can introduce pragmatic challenges. Words or phrases that carry specific connotations in one language might not translate perfectly into another, potentially altering the intended meaning.
- Evolving Interpretations: The pragmatic understanding of religious texts can evolve over time. Historical and cultural contexts change, shaping how readers interpret the text and assign new meanings.

By employing these examples and illustrations, we can gain a deeper appreciation for the nuanced ways in which pragmatics shapes meaning in religious texts. Understanding these elements allows us to move beyond a purely literal interpretation and delve into the richer layers of significance these texts hold for their readers.

CONCLUSION

The reviewed literature demonstrates a growing interest in the pragmatic aspects of religious texts. It reveals a trend towards analyzing the dynamic relationship between language, context, and meaning in religious discourse. Future research could expand on these findings by exploring pragmatic elements in a broader range of religious traditions and texts. We should admit that implicaturism offers a nuanced understanding of religious language by emphasizing the pragmatic and contextual

dimensions of religious expressions, challenging traditional views on the strict truth-value of religious statements while highlighting their diverse functions in communication and social interactions. This approach enriches the discourse on the pragmatics of religious texts, encouraging a broader interpretation of religious language beyond literal meaning to encompass implicatures and contextual implications.

REFERENCES

1. Verschueren, J. (2019). *Pragmatics: A student guide* (7th ed.). Oxford University Press.
2. "Pragmatics in the Interpretation of Religious Texts" by John S. Kloppenborg: <https://www.jstor.org/stable/3266872>
3. "Pragmatics and Religious Discourse" edited by Michel Aurnague and Eniko Csomay: <https://www.bloomsbury.com/us/pragmatics-and-religious-discourse-9781350046372/>
4. "Pragmatics of Religious Texts" by Jan-Ola Östman and Jan Anward: <https://benjamins.com/catalog/pbns.69>

YAPON TILIDAGI TAXMINNI IFODALOVCHI BIRLIKLARNING QIYOSIY TAHLILI: ようだ VA らしい MISOLIDA

N.M. Xamidova

UzDJTU katta o'qituvchisi,

Y.A. Sabirova

UzDJTU magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yapon tili grammatikasida keng ko'lamda foydalaniladigan taxminni ifodalovchi ようだ [yo:da] va らしい [rashi:] modal so'zlari tavsifiy tadqiq qilinib, o'zbek tili bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi yapon tilidagi ようだ [yo:da] va らしい [rashi:] birliklarining qiyosiy tahlil qilish orqali yapon tilini o'rganuvchilar uchun o'xshash birliklarni qo'llashda vaqt, joy, vaziyatga e'tiborlarini qaratish va yapon madaniyatini chiqirroq tushuntirishdan iborat.

***Kalit so'zlar :** modal so'zlar, taxmini ifodalash, noaniqlikni ifodalash, -ga o'xshaydi, -dek ko'rinadi, ようだ, らしい, そうだ, qiyosiy tahlil, semantik tahlil.*

ABSTRACT

In this article, the modal words ようだ [yo:da] and らしい [rashi:], which are widely used in Japanese grammar to express conjecture, are descriptively studied and comparatively analyzed with the Uzbek language. The aim of this research is to conduct a comparative analysis of the units ようだ [yo:da] and らしい [rashi:] in Japanese, to draw the attention of learners of the Japanese language to the appropriate use of these similar units in terms of time, place, and situation, and to provide a deeper understanding of Japanese culture.

***Key words:** modal words, expressing conjecture, expressing uncertainty, looks like, seems like, ようだ, らしい, comparative analysis, semantic analysis.*

АННОТАЦИЯ:

В этой статье рассматриваются модальные слова ようだ [yo:da] и らしい [rashi:], которые широко используются в японской грамматике для выражения предположения, для этого проведен описательный и сравнительный анализ с узбекским языком. Цель этого исследования заключается в проведении сравнительного анализа единиц ようだ [yo:da] и らしい [rashi:] в японском языке, чтобы обратить внимание учащихся японского языка на правильное использование этих похожих единиц в зависимости от времени, места и

ситуации, а также в предоставлении более глубокого понимания японской культуры.

Ключевые слова: модальные слова, выражение предположения, выражение неопределённости, похоже на, кажется, ようだ, らしい, сравнительный анализ, семантический анализ.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yildagi Yaponiyaga tashrifidan so'ng ikki davlat o'rtasidagi diplomatik va madaniy aloqalar, shu jumladan malakali kadrlar tayyorlashda o'zaro hamkorlikni chuqurlashtirish borasida bir qancha kelishuvlar imzolandi.²³⁷ 2022 yilda Yaponiyaning Kokusaikoryukikin (Xalqaro almashnuv fondi) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotiga asosan, hozirgi kunda O'zbekistonda yapon tilini o'rganuvchilar soni 3000 nafardan ziyodni tashkil etadi .²³⁸

Xorijiy tilni ona yurtida yoki o'rganilayotgan til mamlakatiga borib o'rganish mumkin. Xorijiy tilni ona yurtida, aynan, yapon tilini O'zbekistonda o'rganishni olib qaraganda, mazkur jarayon asosan auditoriyada va darslik orkali chegaralangan muhitda o'rganiladi. Bunday muhit notabiiy hisoblanadi, masalan, auditoriyada darsliklarga tayangan holda yangi leksika va birliklar, ularning birikish qoidalari va xususiyatlari haqida ma'lumot berib boriladi. Ko'p hollarda esa, birliklarning qayerda qachon kimga nisbatan, qanday maqsadda ishlatilishi haqida darsda o'tilmaydi. Ayniqsa, bir biriga o'xshash ibora va birliklarni ajratishda yuqoridagi omillarni hisobga olish lozimdir.

Bundan kelib chiqadiki, talabalarga yapon tilidagi o'xshash ibora va birliklarni tushunish, farqlash va to'g'ri, o'rinli qo'llash nihoyatda qiyinchiliklar uyg'otadi.

Bundan tashqari, yapon tilidagi grammatik birliklar haqida o'zbek tilida to'liq ma'lumot berilgan manbalar nihoyatda kam, hamda ko'pincha bunday iboralar o'zbek tiliga bir xil tarjima qilinishi talabalarning noto'g'ri qo'llashining sababi deb ta'kidlay olamiz.

1. Yapon va o'zbek tillarida modallikni ifodalovchi birliklar.

Yapon tili - yuqori kontekstli til guruhiga kiradi. Shuning uchun ham insonlarning turli his-tuyg'ularini ifodalashning ko'p turlari mavjud. Yapon tilida 2, 3-shaxsning his-tuyg'u va xatti-harakatini ifodalashda qo'llaniladigan modallikni

²³⁷ Ozbekiston Respublikasi va Yaponiya o'rtasida ikki tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ 4553-sonli qarori (<https://lex.uz/docs/4676874>)

²³⁸ Kokusaikoryukikin (Xalqaro almashnuv fondi tomonidan o'tkazilgan so'rovnomalar natijalari) (<https://www.jpfr.go.jp/j/project/japanese/survey/area/country/2022/uzbekistan.html>)

ifodalovchi birliklarning bir nechta turlari mavjud bo'lib, bularga ようだ [yo:da], らしい [rashi:] そう [so:], みたい [mitai], っぽい [ppoi] kabilar misol bo'la oladi. Mazkur besh birlikni o'zbek tiliga birgina fe'l orqali "-ga o'xshaydi" deb tarjima qilish mumkin.

Modal so'zlar haqida O'zME. (2000)da, lotincha (modalis – "o'lchov", "usul") - so'zlovchining o'z fikriga turlicha munosabatini anglatadigan va fikrning aniqligi, rostligi, gumonli yoki shartlilikini ifodalash uchun xizmat qiladigan so'zlarni anglatadi. Yapon tilida ham o'zbek tilida ham modal so'zlar gap bo'lagi vazifasida kelmaydi, gapning boshqa bo'laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi, butun fikrga yoki uning biror qismiga taalluqli bo'ladi.

Modal so'zlar 2 katta guruhga bo'linadi: fikrning aniqligini ifodalovchi modal so'zlar, bularga rostlik, tasdiq-ishonch, qat'iylikni bildiruvchi so'zlar (darhaqiqat, haqiqatan, albatta, shubhasiz, so'zsiz va h.k.) kiradi. Fikrning noaniqligini ifodalovchi modal so'zlar, bularga taxmin, gumon kabi ma'nolarni ifodalovchi so'zlar (shekilli, chog'i, chamasi; ehtimol, balki, aftidan va boshqalar) kiradi.²³⁹ Mazkur maqolada 2-turga tegishli bo'lgan taxminni ifodalovchi ようだ [yo:da] va らしい [rashi:] birliklari tahlil qilinadi.

MAVZU YUZASIDAN O'RGANILGAN ADABIYOTLAR TAHLILI.

Taxminni ifodalovchi birliklarni Morita(1980), Shibata(1982), Teramura(1984), Miyake(1995), Nobayashi(1999), Kikuchi(2000) va boshqa yapon tilshunoslari o'rgangan. Ularning ichida eng ko'p o'rganilgan birliklar ようだ [yo:da] va らしい [rashi:] ekanligi ma'lum bo'di. Barcha o'rganilgan adabiyotlarni tahlil qilish natijasida 2 birlikning asosan ma'lumotlarni semantik tahlil qilishda ishlatiluvchi konstruksiyalar bo'lib, fe'llarga qo'shib taxminni ifodalaydi. Ushbu ikkita so'z ko'pincha o'xshash holatlarda ishlatiladi va o'zbek tiliga "-dek ko'rinadi", "-ga o'xshaydi" va "shekilli" deb tarjima qilish mumkinligi aniqlandi.

2. ようだ [yo:da] va らしい [rashi:] birliklarining qo'llanilishi.

²⁴⁰ ようだ [yo:da] birligining qo'llanilish doirasi

(1) あれ、この牛乳、ちょっと悪くなっている ようです。変なおいがします。

[Are. kono gyūnyū, chotto waruku natte iru yo:desu. Henna nioi ga shimasu.]

(Voy, bu sut, ozgina yomon bo'lib qolmoq+ga o'xshaydi. G'alati hid +(qo'shimcha) kelyapti.)

²³⁹ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

²⁴⁰ Etsuko Tomomatsu, Jun Miyamoto, Masako Wakuri 『どんな時どう使う日本語表現文型辞典』 Aruku 2007.

Mazkur gapda modallikni ifodalovchi ようだ [yo:da] birligi, gap oxirida fe'ning lug'aviy shakliga qo'shib kelgan. So'zlovchining 5ta his tuyg'ularidan biri, hid bilish his tuyg'usiga asoslanib, sutni yomon bo'lib qolganini taxmin qilish iborasi sifatida “-ga o'xshaydi” shaklida qo'llanilib kelgan.

Demak, ようだ [yo:da] ning qo'llanilish doirasiga his-tuyg'uga asoslanib taxmin qilish kiradi.

(2) この風邪薬を飲むとどうも眠くなる ようだ。今日も、飲んだ後眠かった。

[Kono kaze gusuri wo nomu to doumo nemuku naru yo:da. Kyo: mo, nonda ato nemukatta.]

(Mana bu shamollashga qarshi dori judayam uyqu keltirmoq+ga o'xshaydi. Bugun ham, ichganimdan keyin uyqim keldi.)

Mazkur gapda modallikni ifodalovchi ようだ [yo:da] birligi, gap oxirida fe'ning lug'aviy shakliga qo'shib, so'zlovchining shaxsiy tajribasidan kelib chiqqan holda (so'zlovchi ushbu dorini qabul qilganidan keyin juda ham uyqusi kelgan) dorining uyqu keltirishini taxmin qilish iborasi sifatida “-ga o'xshaydi” shaklida qo'llanilib kelgan.

Demak, ようだ [yo:da] ning qo'llanilish doirasiga shaxsiy tajriba, boshdan kechirgan vaziyatlarga nisbatan taxmin qilish kiradi.

(3) 森さんは今日元気がない ようでした。何か心配なことがあるのでしょうか。

[Morisan wa kyo: genki ga nai yo:deshita. Nani ka shinpai na koto ga aru no deshouka.]

(Bugun janob Morining kayfiyati yo'q+ga o'xshaydi. Nimadandir xavotirlanayotganmikan.)

Ushbu gapda modallikni ifodalovchi ようだ [yo:da] birligi, gap ohiridagi bo'lishsiz fe'lga qo'shib kelgan. Suxbatdoshining yuz ifodasidan kelib chiqqan xulosasini yetkazib berishda “-ga o'xshaydi” iborasidan foydalanilgan. Ya'ni, so'zlovchi aniq xulosa qilish (birovning kayfiyati haqida ishonchi komil bo'lib so'zlash masuliyati)dan qochish maqsadida ushbu birlikdan foydalanilgan.

Demak, ようだ [yo:da] ning qo'llanilish doirasiga o'zgalarning his-tuyg'ulari yoki harakatlarini yetkazib berishdagi taxminiy xulosa ham kiradi.

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, ようだ [yo:da] birligi 3 xil vaziyatlarda ishlatiladi. Ya'ni, so'zlovchining his-tuyg'ulariga asoslangan holda taxmin qilish (1); boshdan kechirgan va shaxsiy tajribaga asoslangan holda taxmin qilish (2);

o'zgalarning his-tuyg'ulari yoki harakatlarini yetkazib berishdagi taxminiy xulosa qilish (3) da ishlatiladi. Qaysi usullardan foydalanishimizdan qat'iy nazar ようだ [yo:da] birligi so'zlovchiga vaziyat haqida butun masuliyatni o'z zimasi olmasdan taxmin qilish imkonini beradi. Agarda yuqoridagi gaplarda ようだ [yo:da] birligidan foydalanilmasa, so'zlovchi vaziyatga nisbatan 100% ishonchi komil va fikri to'g'riligini isbotlovchi qandaydir asosi bordek bo'lib qoladi. Shuning uchun ham so'zlovchi bunday aniq xulosa qilishdan qochish maqsadida ようだ [yo:da] birligidan foydalangan.

らしい [rashi:] birligining qo'llanilish doirasi

(4) あの子はにんじんがきらいらしいね。いつもにんじんだけ残すよ。

[Ano ko wa ninjin ga kirai **rashii ne**. Itsumo ninjin dake nokosuyo.]

(Ana u bola sabzini yoqtirmaydi **shekilli**. Hardoim faqat sabzini qoldiradi.)

Mazkur gapda modallikni ifodalovchi らしい [rashi:] birligi, gap ohiridagi sifatga qo'shib kelgan. So'zlovchining ko'rish va kuzatish his-tuyg'usiga asoslanib, sabzidan boshqa hammasi yeyilgan va faqat sabzi qolganligini ko'rgani uchun sabzini yoqtirmasligini taxmin qilish iborasi sifatida "shekilli" shaklida qo'llanilgan.

Demak, らしい [rashi:] birligining qo'llanilish doirasiga his-tuyg'u va kuzatishga asoslanib taxmin qilish kiradi.

(5) ヤンさんは今日本にはいないらしいです。メールを送ったけど返事が来ません。

[Yan san wa ima nihon ni wa inai **rashiidesu**. Me-ru wo okutta kedo henji ga kimasen.]

(**Aftidan**, janob Yang bugun Yaponiyada emas **shekilli**. Xabar jo'natgan edim, ammo javobi kelmadi.(asos))

Mazkur gapda modallikni ifodalovchi らしい [rashi:] birligi gap oxirida fe'ning bo'lishsiz shakliga qo'shib kelgan. So'zlovchi xabariga javob kelmaganini asos qilib olgan holda, janob Yangning mamlakatdan tashqarida ekanligini taxmin qilish iborasi "aftidan, shekilli" tarzida qo'llanilgan.

Demak, らしい [rashi:] birligining qo'llanilish doirasiga so'zlovchining qandaydir asosga tayanib taxmin qilish kiradi.

(6) 天気予報では、今日は雨が降るらしいですよ。台風が近づいているらしいです。

[Tenki yohou dewa. kyou wa ame ga furu **rashiidesuvo**. Taifu: ga dzuite iru **rashiidesu**.]

(Ob-havo ma'lumotlariga ko'ra bugun yomg'ir yog'moq+**ga o'xshaydi**. To'fon yaqinlashmoq+**ga o'xshaydi**.)

Ushbu gapda modallikni ifodalovchi らしい [rashi:] birligi, gap oxirida fe'ning lug'aviy shakliga qo'shilib kelgan. So'zlovchi eshitgan ma'lumoti haqida xabar berish maqsadida “-ga o'xshaydi” iborasidan foydalangan.

Demak, らしい [rashi:] birligining qo'llanilish doirasiga so'zlovchining kimdandir yoki nimadandir eshitgan ma'lumotlariga asoslanib taxmin qilish kiradi.

Yuqoridagi misollar tahlilidan kelib chiqqan holda, modallikni ifodalovchi らしい [rashi:] birligi, so'zlovchi haqiqat deb taxmin qilgan ma'lumotlar yoki yangiliklar haqida axborot berishi aniqlandi. Bu taxminlar boshqa manbaalarda o'qilgan yoki eshitilgan, so'zlovchining haqiqat ekanligiga ishonish uchun asosga ega bo'lgan narsadan kelib chiqadi. Ammo, har qanday vaziyatda ham so'zlovchi o'z taxminlariga 100% ishonchi komil bo'lmaydi va shuning uchun ham taxmini ifodalovchi らしい [rashi:] birligi qo'llaniladi.

XULOSA

Umumiy qilib aytganda so'zlovchi o'z his-tuyg'ulariga va tajribasiga tayangan holda taxmin qilsa ようだ [yo:da] birligidan foydalaniladi. Aksincha birovdan eshitgan yoki ko'rgan narsalari haqida taxmin qilishda らしい [rashi:] birligidan foydalaniladi. Bundan tashqari, らしい [rashi:] birligining qo'llanilishida qandaydir tashqi asoslarga tayangan holda xulosa qilinish holatlari ham mavjud.

Yapon tilida ona tili sifatida so'zlashuvchi inson shubhasiz, ongsiz ravishda ikkila birlikni konstruksiyalaridan birini tanlashga, biri ikkinchisidan ko'ra qay darajada ko'proq mos kelishini juda yaxshi biladi. Ammo chet tili sifatida yapon tilini o'rganuvchilariga bu murakkablik qiladi. Yapon tili ta'limi nuqtaiy nazaridan, gap tuzlishi bo'yicha ko'rsatmalar shunchaki grammatik birliklarning ma'nosi va ishlatilishini tushuntirishga qaratilgan. Gap shakillaridan foydalanish nafaqat o'qitish, balki o'quvchilarning muloqot qobiliyatlarini yaxshilash uchun ham foydalidir. Aksariyat darsliklarda har bir grammatik birliklar uchun faqat bitta jumla kiritilgan. Undan oldingi va keyingi jumlar kiritilmagan. Bu esa boshqa turli vaziyatlarda foydalanish holatlarini ko'ra olmaslikka olib keladi. Shunday holatlar kuztilmasligi uchun o'quvchilarga tabiiy ravishda tushinishlari mumkin bo'lgan kontekstlar taqdim etilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Adachi, Taroo et al. Gendai Nihongo Bunpoo Volume 4: Part 8 Modariti [Modern Day Japanese Grammar Volume 4: Part 8 Modality]. Tokyo, Kuroshio Publishers, 2003.

2. Aoki, Haruo. Evidentials in Japanese. In Chafe W. & Nichols J. (eds.), *Evidentiality: The Linguistic coding of Epistemology*, 223–238. Norwood, NJ: Ablex Publishing Corporation, 1986.
3. Asano-Cavanagh, Yuko. Semantic analysis of evidential markers in Japanese: Rashi:, Yooda and sooda. *Functions of Language*, 17(2), 153-180, 2010
4. Etsuko Tomomatsu, Jun Miyamoto, Masako Wakuri 「どんな時どう使う日本語表現文型辞典」, Aruku 2007.
5. Hojiyev A.Fe'l. "Hozirgi o'zbek adabiy tili".1980 Izohli lug'at 420-bet.
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

TEACHING PARTICIPLE IN A COMMUNICATIVE WAY IN EFL CLASSROOMS

Salimova Nozima,

UzSWLU, the teacher of the department of English teaching methodology,

nozima1273@gmail.com

ABSTRACT

Grammar is central to the teaching and learning of languages. It is also one of the more difficult aspects of language to teach well. In the communicative competence model, the purpose of learning grammar is to learn the language of which the grammar is a part. Instructors therefore teach grammar forms and structures in relation to meaning and use for the specific communication tasks that students need to complete. The present article focuses on the main linguistic characteristics of the English participles. The author of the article also discusses some methods of teaching participle in EFL classrooms.

Key words: *a participle, non-finite forms, verbals, teaching grammar, grammar instruction, communication tasks, communicative competence, language acquisition.*

АННОТАЦИЯ

Грамматика занимает центральное место в преподавании и изучении языков. Это также один из наиболее сложных аспектов языка для хорошего преподавания. В модели коммуникативной компетентности целью изучения грамматики является изучение языка, частью которого является грамматика. Поэтому преподаватели обучают грамматическим формам и структурам в зависимости от значения и использования для конкретных коммуникативных задач, которые необходимо выполнить учащимся. В настоящей статье основное внимание уделяется основным лингвистическим характеристикам английских причастий. Автор статьи также рассматривает некоторые методы обучения причастию в классах EFL.

Ключевые слова: *причастие, неличные формы, глаголы, обучение грамматике, обучение грамматике, коммуникативные задачи, коммуникативная компетентность, овладение языком.*

INTRODUCTION

Participle is one of the most important non-finite forms of the verb, which include a variety of semantic and morphological means of expressing the speaker's attitude to reality and syntactic means of organizing his thoughts. The verb has finite and non-finite forms, the latter being also called verbals. The verbals, unlike the finite

forms of the verb, do not express person, number or mood. Therefore, they cannot be used as the predicate of a sentence. Like the finite forms of the verb the verbals have tense and voice distinctions, but their tense distinctions differ greatly from those of the finite verb. There are three verbals in English: *the participle, the gerund and the infinitive*.

Participle is a form of a verb that is used in a sentence to modify a noun or noun phrase, and thus plays a role similar to that of an adjective or adverb (some languages have distinct forms for adverbial participles and adjectival participles). It is one of the types of non-finite verb forms. Its name comes from the Latin *participium*, a calque of Greek *metoché* "partaking" or "sharing"; it is so named because the Ancient Greek and Latin participles "share" some of the categories of the adjective or noun (gender, number, case) and some of those of the verb (tense and voice).

Participles may correspond to the active voice (active participles), where the modified noun is taken to represent the agent of the action denoted by the verb; or to the passive voice (passive participles), where the modified noun represents the patient (undergoer) of that action. Participles in particular languages are also often associated with certain verbal aspects or tenses. However, this is often a matter of convention; present participles are not necessarily associated with the expression of present time, or past participles necessarily with past time.

Participles may also be identified with a particular voice: active or passive. Some languages (such as Latin and Russian) have distinct participles for active and passive uses. In English the present participle is essentially an active participle, while the past participle has both active and passive uses. The following examples illustrate this:

- I saw John eating his dinner. (*eating* is an active participle; the modified noun *John* is understood as the agent)
- I have eaten my dinner. (perfect construction; *eaten* is an active participle here)
- The fish was eaten by lions. (here *eaten* is a passive participle; *the fish* is understood as the patient, i.e. to undergo the action)
 - The characteristic traits of the verbals are as follows:
 - 1. They have a double nature, nominal and verbal. The participle combines the characteristics of a verb with those of an adjective; the gerund and the infinitive combine the characteristics of a verb with those of a noun.
 - 2. The tense distinctions of the verbals are not absolute (like those of the finite verb), but relative; the form of the verbal does not show whether the action it denotes

refers to the present, past or future; it shows only whether the action expressed by the verbal is simultaneous with the action expressed by the finite verb or prior to it.

- 3. The verbals can form predicative constructions, for instance, constructions consisting of two elements, a nominal (noun or pronoun) and a verbal (participle, gerund or infinitive); the verbal element stands in predicate relation to the nominal element, for instance, in a relation similar to that between the subject and the predicate of the sentence. In most cases predicative constructions form syntactic units, serving as one part of the sentence.

METHODS USED

Many people, including language teachers, hear the word "grammar" and think of a fixed set of word forms and rules of usage. They associate "good" grammar with the prestige forms of the language, such as those used in writing and in formal oral presentations, and "bad" or "no" grammar with the language used in everyday conversation or used by speakers of non-prestige forms.

Language teachers who adopt this definition focus on grammar as a set of forms and rules. They teach grammar by explaining the forms and rules and then drilling students on them. This results in bored, disaffected students who can produce correct forms on exercises and tests, but consistently make errors when they try to use the language in context.

Other language teachers, influenced by recent theoretical work on the difference between language learning and language acquisition, tend not to teach grammar at all. Believing that children acquire their first language without overt grammar instruction, they expect students to learn their second language the same way. They assume that students will absorb grammar rules as they hear, read, and use the language in communication activities. This approach does not allow students to use one of the major tools they have as learners: their active understanding of what grammar is and how it works in the language they already know.

The communicative competence model balances these extremes. The model recognizes that overt grammar instruction helps students acquire the language more efficiently, but it incorporates grammar teaching and learning into the larger context of teaching students to use the language. Instructors using this model teach students the grammar they need to know to accomplish defined communication tasks.

RESULTS AND DISCUSSIONS

The goal of grammar instruction is to enable students to carry out their communication purposes. This goal has three implications:

- Students need overt instruction that connects grammar points with larger communication contexts.

- Students do not need to master every aspect of each grammar point, only those that are relevant to the immediate communication task.

- Error correction is not always the instructor's first responsibility.

Overt Grammar Instruction

Adult students appreciate and benefit from direct instruction that allows them to apply critical thinking skills to language learning. Instructors can take advantage of this by providing explanations that give students a descriptive understanding (declarative knowledge) of each point of grammar.

- Teach the grammar point in the target language or the students' first language or both. The goal is to facilitate understanding;

- Limit the time you devote to grammar explanations to 10 minutes, especially for lower level students whose ability to sustain attention can be limited;

- Present grammar points in written and oral ways to address the needs of students with different learning styles;

An important part of grammar instruction is providing examples. Teachers need to plan their examples carefully around two basic principles:

- Be sure the examples are accurate and appropriate. They must present the language appropriately, be culturally appropriate for the setting in which they are used, and be to the point of the lesson;

- Use the examples as teaching tools. Focus examples on a particular theme or topic so that students have more contact with specific information and vocabulary.

Relevance of Grammar Instruction

The two kinds of participles, past and present, can combine with other words to form participial phrases. Present participles are formed by adding "ing" to the ends of verbs. Past participles often, but not always, look the same as a past tense verb. Exceptions to this rule include the word eaten, which is the past participle of eat while the past tense is ate. Phrases formed with participles act as adjectives within a sentence and are a type of adjective phrase.

- Ask students what they already know about participles and parts of speech. If necessary, review these fundamental concepts. See if they can recall past participles and present participles. They will also need to know about nouns, pronouns and adjectives at the very least to understand the function of a participial phrase.

- Write the following sentence out for students to see: I saw the boy running to school. Ask a student to identify the participle, which is the word running. Point out the word school and identify it as the object of the preposition. Now write out several

sentences, some with participial phrases and some without. Ask students to determine where the participial phrases are located.

- Write the following sentence out for students to see: The class was getting out of control. After a student identifies the word "getting" as the participle, point out that there is no object. In this case the prepositional phrase "out of control" completes the participial phrase. Ask students to come up with other such examples.

- Demonstrate other ways to create participial phrases with phrases such as "broken dishwasher," "repeating video" and more complicated examples such as "sought yesterday for questioning." Help students invent their own phrases in writing.

- Finish the lesson by asking each student a question about participle phrases. Ask about the principles involved. If a student does not know the answer, tell him that you will come back to him with another question after you have finished with the other students. If you exhaust those possibilities before all students have answered a question, ask students to either identify participial phrases verbally or say one of their own to demonstrate understanding.

CONCLUSION

In summation, all education depends on a foundation of good grammar. If students cannot understand grammar, they will struggle to read, write or speak clearly in any other area of education, from math and science to history or geography. Good language is the base on which all other education has to stand. Teachers can use a variety of ways to make their grammar lessons memorable and enjoyable for students. Students who enjoy their lessons will pay closer attention, and you will then have an easier time while teaching. This is why great lessons are important for everyone involved, and why you should take the time to ensure you are teaching grammar in the best and most engaging way for the skill level and requirements of your individual students.

REFERENCES:

1. Aikhenvald A.Y. "Serial Verb Constructions in Typological Perspective." In *Serial Verb Constructions*, edited by Alexandra Y. Aikhenvald and R.M.W. Dixon, 1-68. Oxford: Oxford UP, 2006. p.368.
2. Aronson H.I. "Towards a Typology of Verbal Categories." In *New Vistas in Grammar: Invariance and Variation*, edited by Linda R. Waugh and Stephen Rudy, 111-31. Amsterdam: John Benjamins, 1991. p.347.
3. Bodrogligeti A. *An Academic Reference Grammar of Modern Literary language*. Muenchen: Lincom, 2003. p.234.

4. McCawley J. “Tense and Time Reference in English.” In *Studies in Linguistic Semantics*, edited by Charles J. Fillmore and D. Terence Langendoen, 97-113. New York: Holt, 1995. p.624.
5. Kimball L. *The Structure of the English Sentence*. New York: American Book Company, 2002.
6. Dryer M. “Order of Subject, Object and Verb.” In Haspelmath et al. 2008. <http://wals.info/feature/81>, 2008.

DAVLAT BOSHQARUVIGA OID MATNLARNI TARJIMA QILISHDA TRANSFORMATSIYA

Tugalov Husan Do‘lon o‘g‘li

SamDChTI “Yaqin sharq tillar” kafedrası katta o‘qituvchisi

Tel: +998933385819

Hamroqul-zoda Shahzod Temur o‘g‘li

SamDChTI “Yaqin sharq tillar” kafedrası o‘qituvchisi

Tel: +998331117788

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada matn tarjimasi masalalari, xususan tarjima jarayonidagi transformatsiya masalasi muhokama qilingan. Tarjima qilishda transformatsiya muammolari xitoy va o‘zbek tillari misolida tahlil qilingan. Xitoy dunyosi iqtisodda ham, siyosatda ham yetakchi o‘rinlarni egallab bormoqda va shuning bilan tarjimalar hajmi O‘zbekiston va XXR o‘rtasidagi siyosiy, madaniy va savdo aloqalarining kengayib borishi bilan proporsional ravishda o‘shishda davom etyapti. Shu sababdan xitoy va o‘zbek tillaridagi tarjima masalasi tilshunoslikdagi asosiy yo‘nalishlardan biriga aylanib bormoqda.

Kalit so‘zlar: *Tarjima, transformatsiya, tahlil, madaniyat, savdo, xitoy, o‘zbek.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы перевода текста, в частности вопрос трансформации в процессе перевода. Проблемы трансформации в переводе анализируются на примере китайского и узбекского языков. Китайский мир занимает лидирующие позиции как в экономике, так и в политике, в связи с чем объем переводов продолжает расти пропорционально расширению политических, культурных и торговых отношений между Узбекистаном и КНР. По этой причине вопрос перевода на китайский и узбекский языки становится одним из основных направлений лингвистики.

Ключевые слова: *Перевод, трансформация, анализ, культура, торговля, китайский, узбекский.*

ABSTRACT

This article examines the issues of text translation, in particular the issue of transformation in the process of translation. The problems of transformation in translation are analyzed using the example of the Chinese and Uzbek languages. The Chinese world occupies a leading position both in economics and politics, and therefore the volume of translations continues to grow proportionally to the expansion of political, cultural and trade relations between Uzbekistan and China.

For this reason, the issue of translation into Chinese and Uzbek is becoming one of the main areas of linguistics.

Key words: Translation, transformation, analysis, culture, trade, Chinese, Uzbek.

KIRISH

Tarjimonlik sohasida, ayniqsa siyosiy matnlar tarjimachiligi bo'yicha o'zbek-xitoy til kombinatsiyasi doirasidagi ilmiy ish va tadqiqotlar ancha oz. Bu esa o'z o'rnida xitoy va o'zbek tarjimashunoslaridan mazkur til juftligidagi tarjimachilik qonuniyatlarini ochishga yo'naltirilgan qiyosiy tadqiqotlar olib borish uchun kuchlarni safarbar qilishlarini talab etadi. Transformasiya – (*lot.* transformation – qayta tuzish). Asosiy sintaktik strukturani til qonun-qoidalari asosida o'zgartirib, ikkinchi tur sintaktik struktura hosil qilish²⁴¹. Masalan, aniq konstruksiyaning majhul konstruksiyaga aylantirilishi: 他把好久找不到的那本书买到了。Tā bǎ hǎojiǔ zhǎo bù dào dì nà běn shū mǎi dào le—他买到了好久找不到的那本书。(U uzoq vaqtdan buyon izlayotgan ana u kitobini sotib olishga muvaffaq bo'ldi). Grammatik transformatsiya – bu birinchi navbatda gapni qayta qurish (uning strukturasi o'zgartirish) va ham sintaktik, ham morfologik tartibda turli almashtirishlardir.

MUHOKAMA

O'zbek tili va xitoy tillaridagi grammatik kategoriya va shakllarni qiyoslash jarayonida quyidagi hodisalarni kuzatish mumkin:

- 1) Tillardan birida u yoki bu kategoriyaning mavjud bo'lmashligi;
- 2) Qisman mos kelish;
- 3) To'liq mos kelish.

Grammatik transformatsiyalarga zaruriyat, tabiiyki, birinchi va ikkinchi holatlarda yuzaga keladi.

Muvofiq shakl va konstruksiyalar ma'nosida va qo'llanilishida qisman mos kelish yoki mos kelmaslik ham grammatik transformatsiyani talab etadi. Bu yerga son kategoriyasining qisman mos kelmasligi, majhul nisbat konstruksiyalarining qisman mos kelmasligi, modallilikning to'liq bo'lmagan mos kelishi kabi hodisalarni kiritish mumkin.

Grammatik transformatsiyani ikki turga ajratish mumkin: qayta joylashtirish va almashtirish.

Qayta joylashtirish tarjima transformatsiyasining bir turi bo'lib, bu aslyat matniga nisbatan tarjima matnidagi til unsurlarining joylashuv (ketma-ketlik) tartibini o'zgartirish hisoblanadi. Qayta joylashtirishga uchrashi mumkin bo'lgan unsurlar bu

²⁴¹ A.Hojiev, Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1985. – B 94.

odatda matn qurilishidagi soʻz, soʻz birikmalari, qoʻshma gap qismlari va mustaqil gap.

Almashtirish tarjima transformatsiyasining eng keng tarqalgan va koʻpqirrali turidir. Tarjima jarayonida grammatik birliklar – soʻz shakllari, soʻz turkumlari, gap boʻlaklari, sintaktik munosabat tiplari almashtirilishi mumkin.

Leksik transformatsiya. Har qanday soʻz, yaʼni leksik birlik bu tilning lugʻat tizimi boʻlagidir. Bu bilan turli tillarda soʻz semantik strukturalarining oʻziga xosligi tushuntiriladi. Turli tillarda soʻz mazmunida koʻpincha shu til tashuvchilariga xos boʻlgan dunyoni his qilishi oʻz ifodasini topgan bir xildagi hodisa yoki tushunchalarning turlicha belgilari ajralib turadi. Bu esa tarjimada qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Masalan, xitoy tilidagi 眼红 Yǎnhóng soʻzi “hasad qilmoq” maʼnosini anglatadi. Aslida mazkur soʻzning birinchi komponenti 眼 yan “koʻz”, 红 hong “qizil” demak. Oʻzbek qarashida koʻzning qizarish bu “jaxli chiqish, gʻazabi qaynash” kabilarni anglatadi. Koʻrinib turganidek, bir xildagi xolat ikki xil millat mentalitetida turlicha oʻz aksini topar ekan.

Transformatsiya tiplari: Transliteratsiya va transkripsiya.

Transliteratsiya va transkripsiya usuli oʻzbek tilidagi atoqli otlar, geografik nomlar, kema, samolyot, roʻznoma, jurnal, firma nomlarini xitoy tiliga tarjima qilishda qoʻllaniladi.

Transliteratsiya usulidan foydalanishning asosiy sababi asliyatda qoʻllanilgan milliy xususiyatli lisoniy vositalarning tarjima tilida mavjud boʻlmaganligi tufayli asliyatning milliy xususiyatini tarjima tili soxiblariga xos xususiyat bilan almashtirib qoʻyish yoki tarjimani umuman bunday xususiyatdan mahrum etish kabi xolatlarga yoʻl qoʻymaslikdan iboratdir. Amerika Qoʻshma Shtatlari “dollar”ining, ingliz “funt sterling”ining, nemis “marka”siyu xind “rupiya”sining, afgʻon “afgʻoniy”sining transliteratsiya kilinmasdan, oʻzbek “soʻm”i bilan almashtirib qoʻyilishi, AQSh “brendi”si, ingliz “viski”si, nemis “shnapse”sining rus “vodka”si orqali talqin etilishi ingliz boshiga “shlyapa” oʻrniga oʻzbek “doʻppi”sini, egniga “palto” yoki “plashch”oʻrniga “toʻn” yoki “yaktak” kiygizib qoʻyish bilan baravar”²⁴².

一夜时间它们可以在安集延州的某个地方隐藏起来，或者通过边境潜入吉尔吉斯斯坦贾拉拉巴德州和奥什州境内。Yīyè shíjiān tāmen kěyǐ zài ānjíyán zhōu de mǒu gè dìfāng yǐncáng qǐlái, huòzhě tōngguò biānjìng qiánrù jí'ěrjísī sītān jiǎ lā lābā dézhōu hé ào shén zhōu jìngnèi-Bir kechada ular Andijonning biron bir joyiga yashirinishlari yoki Qirgʻizistonning Jalolobod va Oʻsh shtatlari chegarasidan oʻtib ketishlari mumkin.

²⁴² Q. Musaeu, Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005. – B 3.

Kal’kalah – o‘zga tilning leksik, frazeologik birliklarining modellari asosida o‘z til elementlaridan foydalanib so‘z yoki frazeologik birliklar hosil qilish²⁴³. Ekvivalenti mavjud bo‘lmagan leksikani yetkazib berishning bu uslubi o‘zbek tilidagi so‘z yoki so‘z birikmasini qismlarga bo‘lib tarjima qilish va kelgusida tarjima qilingan qismlarni birlashtirishdir. Masalan,

Oliy Majlis — 最高议会 Zuìgāo yìhuì (最高 *zuigao* — “oliy”, 议会 *yihui* — “majlis”)

Korrupsiya — 营私舞弊 Yíngsī wǔbì (营私 *yingsi* — “manfaatni ko‘zlamog‘”, 舞弊 *wubi* — “suistemol qilmoq”, “qonunga xilof ish tutish”)

Almashtirish va uning turlari:

- So‘z shaklini almashtirish,
- So‘z turkumlariga mansublikni almashtirish,
- Gap bo‘laklarini almashtirish,
- Gapdagi tarkibiy qismlarni almashtirish.

“Axborot erkinligini ta’minlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar o‘z fikri va g‘oyalarini, sodir bo‘layotgan voqealarga munosabatini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirmasdan turib, demokratiyani chuqurlashtirish va aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki to‘g‘isida so‘z yuritib bo‘lmaydi, degan tushuncha jamoatchiligimiz o‘rtasida tobora kuchayib va mustahkamlanib bormoqda”.

我们的舆论界这样一种观念在增强：不保证新闻报道的自由，不把大众媒体变成人们能自由表达自己的观点和思想、表达对所发生的事件的立场和态度的舞台，就谈不上深化民主政治和增强居民的政治积极性，就谈不上居民实际参与国家的政治和社会生活。Wǒmen de yúlùn jiè zhèyàng yī zhǒng guānniàn zài zēngqiáng: Bù bǎozhèng xīnwén bàodào de zìyóu, bù bǎ dàzhòng méitǐ biàn chéng rénmen néng zìyóu biǎodá zìjǐ de guāndiǎn hé sīxiǎng, biǎodá duì suǒ fāshēng de shìjiàn de lìchǎng hé tàidù de wǔtái, jiù tán bù shàng shēnhuà mínzhǔ zhèngzhì hé zēngqiáng jūmín de zhèngzhì jījìxìng, jiù tán bù shàng jūmín shíjì cānyù guójiā de zhèngzhì hé shèhuì shēnghuó-Ijtimoiy fikr doiralarimizda axborot tarqatish erkinligini kafolatlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar o‘z fikr va mulohazalarini erkin ifoda eta oladigan, sodir bo‘layotgan voqealarga o‘z pozitsiyasi va munosabatini bildiradigan sahnaga aylantirmasdan turib, shunday fikr kuchaydi. Demokratik siyosatni chuqurlashtirish va aholining siyosiy ishtiroqini oshirish uchun rezidentlarning mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotidagi haqiqiy ishtiroki haqida gapirib bo‘lmaydi Ushbu ko‘rsatilgan jumlada o‘zbek tilidagi matn so‘nggida

²⁴³ A.Hojiyev, Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1985. – B 41.

keltirilgan rema xitoy tilidagi tarjima matnida matnning boshida keltirilib u tema vazifasini o'tagan.

Qo'shish – tarjimada asliyat leksik birligi ma'nosini tiklash uchun so'z qo'shish.

O'tgan yilning dekabr oyida O'zbekistonda bo'lgan Xalqaro valyuta fondi missiyasi 2004 yilda mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish yo'lidagi sa'y-harakatlarimizga yuqori baho berdi.

2004 年 12 月来乌兹别克斯坦考察的国际货币基金委员会的委员们，对我门 2004 年进行的经济改革予以了高度评价。2004 Nián 12 yuè lái wūzībiékè sītǎn kǎochá de guójì huòbì jījīn wěiyuánhùi de wěiyuánmen, duì wǒ mén 2004 nián jìnxíng de jīngjì gǎigé yǔyǐle gāodù píngjià²⁴⁴

Tushirib qoldirish – asliyat tilidagi so'zni tarjima tiliga tarjima qilayotganda tushirib qoldirish.

O'zbekistonda ham shaxsni ushlab turish, hibsga olish, shuningdek, boshqa proressual majburiy choralarini qo'llash uchun sanksiya berish huquqlarini ham sudlarga o'tkazish kerak²⁴⁵.

在乌兹别克斯坦也必须把下发批准拘押、逮捕以及使用其他强制措施命令的权利转归法院。Zài wūzībiékè sītǎn yě bìxū bǎ xià fā pīzhǔn jūyā, dàibǔ yǐjǐ shǐyòng qítā qiángzhì cuòshī mìnglǐng de quánlì zhuǎn guī fǎyuàn²⁴⁶.

Mazkur jumlada “shaxsni” va “proressual” so'zlari tushirib qoldirilgan bo'lib, gap sud-huquq tizimi sohasida borayotganligi sababli “ko'rilayotgan choralar”ning “proressual”ligi ravshan. Tarjimada bu so'zni “诉讼的” *susong de* deb berishimiz ham mumkin. Ushlab turish, hibsga olish kabi harakatlar sud-xuquq tizimida shaxsga nisbatan qo'llanilishi muqarrarligi tufayli, tarjimada “shaxsni” so'zini ham tushirib qoldirish mumkin. Har ikkala so'zni tushirib qoldirsak ham, jumla mazmuni aslo o'zgarmaydi.

Umumiy lashtirish – bir tilda juda muayyan mazmunga, boshqa tilda esa umumiy mazmunga ega so'z-realiyalarni qo'llash uchun ishlatiladi.

Saylovchilar tashabbuskor guruhlari tomonidan Qonunchilik palatasiga ko'rsatilgan 54 ta nomzoddan 12 nafar mustaqil deputat saylangani ham alohida e'tiborga loyiq, deb o'ylayman²⁴⁷.

我认为，居民中有主动精神的团体推举的 54 名候选人中，有 12 名独立的代表进入立法院这样一个事实也值得人们认真关注。Wǒ rènwéi, jūmín zhōng

²⁴⁴ 伊斯拉姆·卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。- 北京：时事出版社，2006 年。第 26 页。

²⁴⁵ I.A.Karimov, O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. – B 187.

²⁴⁶ 伊斯拉姆·卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。- 北京：时事出版社，2006 年。第 11 页。

²⁴⁷ I.A.Karimov, O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. – B 175.

yǒu zhǔdòng jīngshén de tuántǐ tuījǔ de 54 míng hòuxuǎn rén zhōng, yǒu 12 míng dúlì de dàibiǎo jìnrù lìfǎyuàn zhèyàng de yīgè shìshí yě zhídé rénmen rènzhēn guānzhù.

Anatomik tarjima – asliyat tili strukturasi tarjima tilining anatomic strukturasiiga muvofiq tarjima qilinadigan tarnsformatsiya.

Tinchlikni saqlang!—禁止喧哗 Jìnzhǐ xuānhuá (so‘zma-so‘z 禁止 *jinzhi* – ta’qiqlamoq, 喧哗 *xuanhua* – shovqin solmoq)

Tasviriy tarjima. Tarjimaning bu turi so‘z yoki so‘z birikmasining kengaytirilgan izohini ko‘zda tutadi. Mazkur turdan o‘zbek tilidagi so‘zning ifodalagan realiyalari xitoy tilida mavjud bo‘lmagan holatlarda ishlatiladi.

Sarbon – 驮运队的首长 Tuó yùn duì de shǒuzhǎng (so‘zma-so‘z bo‘ktargi, yuk tashuvchi tizilib yuradigan hayvonlar guruhi yetakchisi).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. I.A.Karimov, O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. – T.: O‘zbekiston, 2006. 198 b.
2. Sh.M. Mirziyoyev, Yoshlarga murojaat nutqidan 2021-yil
3. 伊斯拉姆卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人.北京：时事出版社，2006年。198页。
4. A.Hojiev, Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. – Toshkent, O‘qituvchi, 1985. 283 b.
5. B.A.Sattorov, Xitoycha-O‘zbekcha rasmlı lug‘at, Toshkent, “Yangi asr avlodi” 2020. 291 b.
6. Курбонов, Бобур. ““МАЖОЛИС УН-НАФОИС” ВА “ЛАТОЙИФНОМА” ТАЗКИРАЛАРИДА ЗУЛЛИСОНАЙНЛИК АНЪАНАСИ ИФОДАСИ" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 2, no. 3, 2022, pp. 50-57. Hamdamova, Charos Hamdamovna. "HSK 5 IMTIHONI O‘QISH VA YOZISH KO‘NIKMASIGA TAYYORLANISHNING ENG OSON VA SAMARALARI YO‘LLARI" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 3, no. 11, 2023, pp. 806-810.
7. Quliyeva, Durdon . "Mo Yanning “Qurbaqa” romanidagi ba’zi personajlar ismlariga oid" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 2, no. Special Issue 28-2, 2022, pp. 213-219.
8. Q.Musaev, Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent, Fan, 2005. 306 b.
9. T.Akimov, J.A.Kiraubayev, Xitoycha-o‘zbekcha-ruscha frazeologik lug‘at. Toshkent, Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi, 2002. 226 b.
10. 刘延勃。哲学辞典。– 吉林：吉林人民出版社，1985年。Liu Yanbo. Zhexue cidian. – Jilin: Jilin renmin chubanshe, 1985 nian. 294 页

O‘ZBEK TILIDAN XITOIY TILIGA TARJIMA QILINGAN DAVLAT BOSHQARUVIGA OID TERMINLARNING NAZARIY MASALALARI

Tugalov Husan Do‘lon o‘g‘li

SamDChTI “Yaqin sharq tillar” kafedrası katta o‘qituvchisi

Tel: +998933385819

Hamroqul-zoda Shahzod Temur o‘g‘li

SamDChTI “Yaqin sharq tillar” kafedrası katta o‘qituvchisi

Tel: +998331117788

ANNOTATSIYA

Maqolada xitoy tiliga tarjima qilingan davlat boshqaruviga oid terminlar xususida fikr yuritilgan. Siyosiy matnlarni tarjima qiluvchi tarjimon birinchi navbatda mos leksikani mukammal egallagan bo‘lishi lozim. Hozirda o‘zbek tilidagi siyosiy ma‘ruzalar avvalambor rus tiliga so‘ngra esa boshqa xorijiy tillarga tarjima qilish vaziyati kuzatilmoqda. Har yili mamlakatimizda sharq va g‘arb tilini mukammal egallab chiqayotgan ko‘plab yosh mutaxassislarimiz bor. Mana shu yoshlar, ya‘ni biz tarjimachilik sohasining belidan mahkam ushlab, xorijga bevosita o‘zbek tilidan o‘girilgan haqqoniy va sifatli tarjimalarni yetkazib berish bu bizning ham fuqarolik, ham kasbiy burchimizdir.

Kalit so‘zlar: Til, tarjima, siyosiy matn, atama, nutq.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются термины государственного управления, переведенные на китайский язык. Переводчик, переводящий политические тексты, прежде всего должен в совершенстве владеть соответствующей лексикой. В настоящее время политические выступления на узбекском языке переводятся сначала на русский, а затем и на другие иностранные языки. Ежегодно в нашей стране появляется много молодых специалистов, в совершенстве владеющих восточными и западными языками. Это молодые люди, то есть мы держим переводческую отрасль за талию, и наш гражданский и профессиональный долг — доставлять аутентичные и качественные переводы непосредственно с узбекского языка в зарубежные страны.

Ключевые слова: Язык, перевод, политический текст, термин, речь.

ABSTRACT

The article examines public administration terms translated into Chinese. A translator translating political texts must first of all have a perfect command of the relevant vocabulary. Currently, political speeches in Uzbek are translated first into Russian, and then into other foreign languages. Every year, many young specialists

appear in our country who are fluent in Eastern and Western languages. These are young people, that is, we hold the translation industry by the waist, and our civic and professional duty is to deliver authentic and high-quality translations directly from the Uzbek language to foreign countries.

Key words: *Language, translation, political text, term, speech.*

KIRISH

Xitoy tarjimonlarining o‘z ona tili grammatikasi, stilistikasi kabi lisoniy qirralarini nihoyatda yaxshi bilishlari muqarrar. Lekin ayrim o‘rinlarda o‘zbekcha jumlaning rus tili vositasida noto‘g‘ri anglab, sintaktik jihatdan chalkashliklar vujudga kelgan. Masalan, “mamlakatimizni rivojlantirish strategiyasi” so‘z birikmasi xitoy tilida “我国的发展战略” Wǒguó de fā zhǎn zhànlüè “mamlakatimizning taraqqiyot strategiyasi” tarzida tarjima qilinib, o‘zgacha sintaktik qurilish namoyon bo‘ladi. Ya’ni “mamlakatimizni” tushum kelishigidagi so‘z qaratqich kelishigidagi “mamlakatimizning” aniqlovchi so‘ziga aylanib ketgan. Nazdimizda to‘g‘ri xitoycha variant – “发展我国的战略” tarzida bo‘lib, sodda qilib aytganda, “发展” va “我国的” so‘zlarining o‘rnini almashtirib qo‘llash maqsadga muvofiq.

TADQIQOT MAQSADI VA AHAMIYATI

O‘zbek tarjimashunosi Quadrat Musayev tarjimaga lingvistik nuqtai nazaridan yondoshib, quyidagicha ta’rif beradi: “Insoniyat faoliyatining murakkab shakli bo‘lmish tarjima – bir tilda yaratilgan nutqiy ifodani (matnni), uning shakl va mazmun birligini saklagan holda, o‘zga til vositalari asosida qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayondir. Demak, asliyat mansub bo‘lgan til vositalari yordamida yaratilgan nutqiy ifoda (matn) tarjima tili qonuniyatlari asosida vujudga kelgan shunday ifoda bilan almashtiriladi. Shu yo‘l bilan asliyat va tarjima tillari matnlarining mazmuniy-uslubiy adekvatligi yuzaga keltiriladi”²⁴⁸. Siyosiy tarjima bu maxsus tarjima janrlaridan biridir. Bir tomondan siyosatdonning va siyosatning tili maksimal darajada vazmin va sipo bo‘lishi kerak. Siyosiy nutq vaziyatga baho berishda obyektivlikni hamisha talab qiladi. Siyosatchi esa doim o‘zining haqligi va o‘z pozitsiyasining to‘g‘riligiga maqsadli auditoriyani ishontirishga harakat qiladi.

MUHOKAMA

Hozirda bozor iqtisodiyoti sharoitlarida tarjimaning mazkur turi kamtarinona o‘ringa ega, ammo yo‘qolib ketmagan. Bu singari tarjimalar hajmi to‘g‘risida so‘zlasak, axborot to‘lqini, shuningdek tarjima axborotlarining ham umumiy hajmi o‘sganligi sababli siyosiy tarjima hajmi ham anchagina o‘sdi. Zamonaviy shart-

²⁴⁸ Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari: Darslik-T.:O‘zbekiston Respublikasi FA “Fan” nashriyoti, 2005. – B 8.

sharoitlarda siyosiy matnlar tarjimasini targ'ibot vositasi va siyosiy kurash quroli sifatida o'ziga hos mazmunga ega bo'ladi. Adekvatlikka erishish yo'lida tarjimaning bu turi ham badiiy, ham maxsus tarjima xususiyatlariga ega. Ijtimoiy-siyosiy materiallar stilistik va janr jihatidan nihoyatda xilma-xildir.

Tarjima faoliyatining ko'pgina turlariga xos bo'lgani singari ijtimoiy-siyosiy tarjimaga ham umuman nomutanosib bo'lgan talablar qo'yiladi: u yuqori darajada tezkor va maksimal darajada aniq va siyosiy jihatdan to'g'ri bo'lishi lozim.

Siyosiy matnlarni tarjima qiluvchi tarjimon birinchi navbatda mos leksikani mukammal egallagan bo'lishi lozim.

Shuni ko'rsatib o'tish joizki, har bir davlatda u yoki bu jarayonni ifodalovchi o'ziga xos atamalar qo'llanilishi mumkin. Bu esa o'z o'rnida siyosiy matnlarni tarjima qilishda qiyinchiliklar tug'diradi. Tarjima qilinayotgan matning mohiyatini ifodalab bera olish uchun siyosiy tarjimani amalga oshirish chog'ida boshqa mamlakat hayotining o'ziga xos xususiyatlari haqida ham, undagi siyosiy vaziyatlar, aholining kayfiyati va ruhiyati haqida va uning hayotidagi boshqa jabha masalalari to'g'risida ham keng ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Siyosiy tarjima - bu faqatgina iboralarni so'zma-so'z shakllantirish emas, balki bu yana boshqa davlatning madaniy an'analarini anglash hamdir.

Bundan tashqari tarjimon jummalarni to'g'ri tuza olishi, so'z tartibiga amal qilishi lozim. Uning tarjimasini o'qish uchun oson va oddiy xalq uchun tushunarli bo'lishi lozim. Eslatib o'tish kerakki, siyosiy matn tarjimasini betaraf (haqqoniy) tarjimon tomonidan amalga oshirilishi darkor. Shunday hollar bo'ladiki, ro'znomada muallifning ayrim bir chet ellik yuqori mansabdagi shaxslariga nisbatan yaqqol salbiy munosabati ifodalangan maqolalar chop etiladi. Mazkur maqolaning buyurtmaga asosan bajarilganligi sezilib qoladi va bu kabi axborot manbalariga murojaat qilish istagi yo'qoladi. Xabarni ob'ektiv yondoshgan holda yoritish uchun, tarjimon mazkur vaziyat haqida o'zining fikrini bermasligi yoki ongli ravishda qaysidir faktni boshqalari orasidan ajratib ko'rsatmasligi lozim.

Hozirgi vaqtda siyosiy tarjima ko'pincha jurnalistikada foydalaniladi. Yaqin davlatlarning ham, shuningdek uzoq chet mamlakatlarning ham ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotidagi muhim xabarlarining yoritilishi biz uchun allaqachon odatiy tusga kirib bo'lgan. Bunday axborotlarni tezkor ravishda va aniq, siyosiy jihatdan to'g'ri tarjima qilish lozim.

Siyosiy tarjimani amalga oshirishda tajribali tarjimon doim matndagi yashirin ikki taraflamalikni hisobga oladi. Bir tomondan u amaliy, yordamchi mohiyati unga aniq bo'lgan shtamplar va an'anaviy iboralar bilan ish olib boradi. Ikkinchi tomondan siyosatchi yuborayotgan xabar va mazkur xabar birinchi navbatda haqiqatda kimga

Калит сўзлар: *оилавий ҳуқуқий жавобгарлик, алимент, алимент мажбуриятлари, алимент тўловлари жамғармаси, неустойка, алимент миқдори, мулкӣ ва номулкӣ ҳуқуқлар, ҳуқуқбузарлик.*

СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ РАЗМЕРА АЛИМЕНТА И НЕУСТОЙКИ

АННОТАЦИЯ

В статье освещены правовые вопросы социально-экономического характера, также некоторые теоретико-практические проблемы в семейно-правовом регулировании размера алимента и неустойки в качестве меры семейно-правовой ответственности.

Ключевые слова: *семейно-правовая ответственность, алимент, алиментные обязательства, фонд алиментских выплат, неустойка, размер алимента, имущественные и неимущественные права, правонарушение.*

SOCIAL AND LEGAL ISSUES OF THE AMOUNT OF ALIMONY AND CIVIL RIGHTS

ABSTRACT

The article highlights legal issues of a socio-economic nature, as well as some theoretical and practical problems in family legal regulation of the amount of alimony and penalties as a measure of family legal responsibility.

Key words: *family legal responsibility, alimony, alimony obligations, alimony fund, penalty, amount of alimony, property and non-property rights, offense.*

КИРИШ

Амалдаги оила қонунчилиги алимент муносабатларини, иштирокчи шахслар ихтиёрига қараб тартибга солишга имкон беради. Бу нормалардан оила

аъзолари қонун талабларига ва тарафлар ихтиёрига жавоб берувчи алимент келишуви тузмаган ҳолларида фойдаланадилар.

Алимент мажбурияти, пайдо бўлиш асосларига боғлиқ бўлмаган равишда тарафларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятларини юзага келтирадики, уларни ижро этиш ва амалга ошириш ҳуқуқий жавобгарлик чоралари билан таъминланади.

Сўнгги йилларда алимент билан боғлиқ низолар суд-ҳуқуқ амалиётида кўплаб учраётганлигини кўриш мумкин. Ўзбекистон Республикаси Олий суди статистикаси²⁵⁵га кўра, 2018 йилда фуқаролик ишлар бўйича судлар томонидан биринчи инстанцияда кўрилган оилавий низолар бўйича 79316 та иш кўрилган бўлса, 2022 йилда 112985 та иш кўриб тамомланган. 2019 йилда даъво тартибидаги 98 080 та фуқаролик ишларидан 2 077 таси ёки 2,1 фоизи бола таъминоти учун алимент ундириш, 27 701 таси ёки 28,2 фоизи эса никоҳдан ажратишга оид низолардир.

Мажбурий ижро бюросидан олинган маълумотлар²⁵⁶га кўра, 2022 йил қидирувда бўлган шахсларнинг 6 200 нафари, 2022 йил 2935 нафари, 2023 йил 6 ойида эса 3422 нафари топилган. Алимент тўлашдан бўйин товлаган қарздорларнинг 13 281 нафари маъмурий жавобгарликка тортилган ҳамда 2022 йилда 1 295 нафарига ва 2023 йилда 1 026 нафари (ўтган йилнинг шу даврида 492 нафар)га жиноят ишлари кўзғатилди.

Умумий вояга етмаган фарзандлари бўлган эр-хотинни никоҳдан ажратиш жараёнида, агар даъвогар никоҳни бекор қилиш талаби билан чекланса, суд томонидан алиментларни ундириш ҳақида қарор қабул қилинмайди. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2016 йил 29 июлдаги 11-сонли “Судлар томонидан вояга етмаган ва вояга етган меҳнатга лаёқатсиз болалар таъминоти учун алимент ундиришга оид ишлар бўйича қонунчиликни қўллаш амалиёти тўғрисида”ги Қарорининг²⁵⁷

2-бандига мувофиқ вояга етмаган, шунингдек, вояга етган меҳнатга лаёқатсиз, ёрдамга муҳтож болалар таъминоти учун алимент тарафларнинг келишувига кўра ихтиёрий тартибда, шунингдек, суд тартибида ундирилиши қонун билан белгиланганлиги судларга тушунтирилган. Шунингдек, қарорга кўра, алимент ота-онанинг бирининг аризаси ёки даъвоси билан, агар бошқа ота (она) вояга етмаган болаларига таъминот бериш мажбуриятини бажармаган

²⁵⁵ Ўзбекистон Республикаси Олий суд расмий сайти маълумотларига асосланади.// <https://stat.sud.uz/fib.html>

²⁵⁶ Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси ҳузуридаги Мажбурий ижро бюроси тақдим этган маълумотлар. 2023 йил 17 майдаги NQ 10.3/1 - Т- /23-R2-сонли жавоб хати.

²⁵⁷ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2016 йил 29 июлдаги 11-сон “Судлар томонидан вояга етмаган ва вояга етган меҳнатга лаёқатсиз болалар таъминоти учун алимент ундиришга оид ишлар бўйича қонунчиликни қўллаш амалиёти тўғрисида”ги Қарори// <https://lex.uz/docs/3034913>

ҳолатларда суд тартибида (суд буйруғи ёки суднинг ҳал қилув қарори билан) ундирилади.

Алимент мажбуриятларининг ижтимоий-иқтисодий муҳимлиги таъминотни тақдим этиш бўйича мажбуриятнинг мажбурий ижросини қўллаш, алимент мажбуриятини бажармаслик ёхуд лозим даражада бажармаслик учун жавобгарлик чорасини қўллаш имкониятини назарда тутаяди. Бу қарздорнинг мазкур мажбуриятдан бош тортиши алимент олувчининг турмуш шароитини ёмонлаштиради, соғлиғига таъсир қилади. Агар алиментлар вояга етмаган болаларга тўланса, нормал жисмоний, руҳий ва маънавий ривожланиш, таълим олиши бузилади. Балоғатга етмаган болаларга алимент белгилаш масаласи никоҳни бекор қилиш жараёнининг ажралмас қисми бўлиб, Ўзбекистон Республикаси Оила Кодексининг 5-бўлимида кўрсатиб ўтилган.

Алимент олувчининг моддий, яъни мулкӣ манфаатларини ҳимоя қилиш ва қарздорни жазолаш мақсадида қонун чиқарувчи алимент мажбуриятларини бажармаслик учун фуқаролик ва оилавий ҳуқуқӣ жавобгарлик чораларини назарда тутаяди. Ўзбекистон Республикаси Оила кодексининг 142-моддасига кўра суднинг ҳал қилув қарорига мувофиқ алимент тўлаши шарт бўлган шахснинг айби билан қарз вужудга келган бўлса, айбдор шахс кечиктирилган ҳар бир кун учун тўланмай қолган алимент суммасининг ўндан бир фоизи миқдорида алимент олувчига неустойка тўлайди. Алимент олувчи алимент ўз вақтида тўланмаганлигида айбдор алимент тўлаши шарт бўлган шахсдан алимент тўлаш мажбуриятларини ўз вақтида бажармаганлик оқибатида етказилган барча зарарларнинг неустойка билан қопланмаган қисмини ундиришга ҳам ҳақлидир.

Фикримизча, неустойка ва унинг миқдори масаласини таҳлил қилиб чиқиш муҳим кўринади. Неустойка бу борада, биринчидан, мажбуриятни бажаришни таъминлаш усули; иккинчидан, жавобгарлик чораси; учинчидан, жабрланган шахснинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш чораси сифатида намоён бўлади. Мажбуриятни бажаришни таъминлаш усули сифатида неустойканинг асосий вазифаси - юклатилган мажбуриятни ихтиёрий, лозим даражада бажаришга ундашдан иборат. Рағбатлантириш даражаси тўғридан-тўғри неустойканинг миқдorigа боғлиқ. Бироқ, неустойканинг миқдори кам бўлса, у бу муҳим вазифани бажара олмайди.

Л.Е.Чичерова неустойка миқдорини ошириш ҳақидаги фикрни қўллаб, 0,1% - алимент олувчининг яшаш манбаларининг асосийсидан бири бўлган пул воситалари - алиментларни ўз вақтида тўлашга самарали рағбатлантириш учун

жуда кам миқдор²⁵⁸, деб ҳисоблайди. Неустойканинг худди шундай миқдори (0,1%) Тожикистон Оила кодекси²⁵⁹ нинг 116-моддасида ва Молдова Оила кодекси²⁶⁰ нинг 106-моддасида келтирилган. Озарбайжон оилавий қонунчилиги²⁶¹ 108-моддасида неустойка миқдорини аниқ кўрсатиб ўтмаган, бироқ уни ундириш имкониятини берган. Масалан, ушбу моддада айтилишича, “суд қарори бўйича алимент тўлашга мажбур бўлган шахс айби билан алиментлар бўйича қарздорлик юзага келган бўлса, айбдор шахс алимент олувчига ҳар бир ўтказиб юборган куни учун алиментларнинг тўланмаган миқдорининг фоиз ҳисобида неустойка тўлайди”. Озарбайжон Оила кодексидида фоизлар миқдори назарда тутилмаган. Демак, Озарбайжон Республика фуқаролик қонунчилиги нормалари асосида фоизлар белгиланади.

Илмий-амалий нуқтаи назардан шартномавий неустойка миқдори белгиланмаган алимент келишуви бажарилмаган ёки лозим даражада бажарилмаган ҳолда неустойка миқдори қандай белгиланади? Назаримизда, бундай ҳолатда Ўзбекистон Республикаси ФКнинг неустойка тўлаш тартибига оид нормаси қўлланилиши мақсадга мувофиқ.

Биз қонуний неустойка миқдорини ошириш тарафдоримиз. Бироқ, аҳолининг ҳуқуқий саводхонлик даражаси ва алимент мажбуриятларини ижро этишининг реал тартибини тахмин қилишдаги ўқувсизлиги, тарафлар келишувга мажбурият ижроси кечиктирилган ҳолда шартномавий неустойкага оид шартнинг киритмаслигига олиб келмоқда. Фикримизча, агар тарафлар неустойканинг бошқа миқдорини белгиламаган бўлсалар, қонуний неустойкани алимент келишувига татбиқ этиш мақсадга мувофиқ бўларди. Ўзбекистон Республикаси ФК 263-моддасига кўра, агар қонун таъқиқламаса, қонуний неустойка миқдорини тарафлар келишуви билан кўпайтириш мумкин.

Неустойка жавобгарлик чораси сифатида зарарни қоплаш вазифасини бажариш учун мўлжалланмаган. Жабрланган шахснинг мулкӣ ҳолатини тиклаш мақсадида қонун чиқарувчи фақат неустойкани ундириш эмас, балки қарзнинг неустойка билан қопланмаган қисмидан зиён (ҳисобга олинган неустойка)ни ундириш имкониятини ҳам тақдим этган. Мажбурий ижро тайинлаш ҳуқуқига эга бўлган қарзнинг миқдори каби алиментлар тўлашдан фарқлироқ, зиённи тўлдириш фақат суд тартибида амалга оширилиши мумкин. Чунки зиён етказилганлигини исботлаб бериш зарур ва унга ҳуқуқий баҳони фақат судгина бериши мумкин. Баъзан алиментлар бўйича қарздорлик алимент

²⁵⁸ Чичерова Л.Е. Ответственность в алиментных обязательствах // Юрист. 2004. № 6. С. 42.

²⁵⁹ http://www.adlia.tj/show_doc.fwx?rgn=805#A000000139

²⁶⁰ https://www.legis.md/cautare/getResults?doc_id=109550&lang=ru

²⁶¹ <https://chisinau.mfa.gov.az/ru/content/123/semeynyy-kodeks-azerbaydzhanskoy-respubliki>

тўловчининг айбидан ташқари ҳам вужудга келади. Масалан, иш ҳақи вақтида берилмагани боис юзага келган бўлиши мумкин. Бундай ҳолларда жавобгар алиментлар унинг айби билан тўланмаганлигини исботлаб бериши талаб қилинади.

Юқорида кўрилган фуқаролик ҳуқуқий жавобгарликнинг ҳар иккала чораси ўзининг махсус вазифасини бажаради. Аммо, савол туғилади. Яъни, улар қарздорга ҳар томонлама таъсир ўтказиш ҳамда ҳуқуқи бузилган шахсни ҳимоялаш учун етарлими? Бу саволга жавоблар бир-биридан фарқ қилиши табиий. Чунки оилавий муносабатларга ҳар кимнинг ўз субъектив қараши бор. Устига устак, Ўзбекистон Республикаси Оила кодексининг 142-моддаси алимент мажбурияти лозим даражада бажарилмагани учун маънавий зарарни қоплаш каби жавобгарлик чорасини назарда тутмаган. Бироқ, Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2000 йил 28 апрелдаги “Маънавий зарарни қоплаш ҳақидаги қонунларни қўллашнинг айрим масалалари тўғрисида”ги 7-сонли қарори ²⁶² нинг 2-бандида маънавий зарар деганда жабрланувчига қарши содир этилган ҳуқуқбузарлик ҳаракати (ҳаракатсизлик) оқибатида у бошидан кечирган (ўтказган) маънавий ва жисмоний (камситиш, жисмоний оғриқ, зарар кўриш, ноқулайлик ва бошқа) азоблар тушунилиши кўрсатиб ўтилган.

Ғайриқонуний ҳаракат (ҳаракатсизлик)нинг объекти шахсий номулкий ҳуқуқлар билан бир қаторда мулкый ҳуқуқлар (уй-жой дахлсизлиги, мулк ҳуқуқи ва бошқалар) ҳам бўлиши мумкин. Назаримизда, мулкый ҳуқуқлар сафига алимент таъминотини ҳам киритиш ўринли. Кўриб чиқилган фуқаролик ҳуқуқий жавобгарлик чораларидан ташқари Ўзбекистон Республикаси Оила кодекси жазо хусусиятига эга оилавий ҳуқуқий жавобгарлик чораларини ҳам назарда тутди. Чоралари мажбуриятини бажармаётган алимент тўловчи шахсга қаратилган фуқаролик ҳуқуқий жавобгарликдан фарқлироқ, оилавий ҳуқуқий жавобгарлик чоралари, одатда, маълум оилавий ҳуқуқий мавқега эга ҳуқуқли шахсларга нисбатан турли оилавий ҳуқуқбузарликларни содир этгани учун қўлланилади.

Шундай мураккаб муаммолар мавжудки, уларни фуқаролик ҳуқуқий жавобгарлик ва оилавий ҳуқуқий жавобгарлик чоралари билан ҳал қилиб бўлмайди. Ҳозирда бозор муносабатлари ривожланаётгани, мамлакатда миграция жараёнлари кучайиши, яшаш учун пулни ҳисобга олинмаган бизнес доирасида ёхуд бир нечта ишхонада ишлаб топиш мумкинлиги даромадни яшириш имкониятини бермоқдаки, ушбу муаммо тобора кескинлашиб

²⁶² <https://lex.uz/docs/1449509>

бормоқда. Муаммонинг моҳияти шундаки, алимент тўловчи шахс даромадларининг ҳақиқий миқдорини қандай қилиб аниқлаш мумкин? Унга қайси мулк амалда ва ҳуқуқий асосда тегишли?

Кўпинча, қарздорнинг ҳақиқий даромади жуда кўп, алиментлар миқдори эса кулгили даражада кам. Бундай ҳолатларнинг олдини олиш бўйича янгича ёндашув ҳамда даромадлар шаффофлигини таъминловчи усуллар ва воситаларга эҳтиёж сезилмоқда.

Алиментларни тўлашдан бош тортиш муаммоси, қайд этилганидек, фақат биздаги муаммо эмас. Бироқ, турли мамлакатларда қонунчилик ҳуқуқбузарларга таъсир этишнинг турли механизмларига урғу беради. Бир қатор белгиланган чоралар назарда тутилган ва муваффақиятли амалга оширилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентнинг 2018 йил 27 июндаги “Ўзбекистон Республикасида оила институтини мустаҳкамлаш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ–3808-сон қарорида оила масалалари бўйича норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни, шунингдек, ривожланган давлатлар тажрибасини ўрганиш ва умумлаштириш асосида оилавий ҳуқуқий муносабатларнинг жавобгарлик мезонларини аниқлаш, алиментларни белгилаш, ажрашиш вақтида аёллар ва болалар ҳуқуқларини ҳимоя қилишга оид нормаларини янада такомиллаштириш нуқтаи назаридан ишлаб чиқиш белгилаб берилди²⁶³.

Алимент тўлаш тўғрисидаги қонунчиликни такомиллаштириш алиментни тўламаслик муаммосига жамият ёндашувини ўзгартириш зарурлигини келтириб чиқармоқда. Вояга етмаган болаларни боқиш учун алимент ундиришнинг суд тартибининг мавжудлиги, бу борада фуқаролик ҳуқуқий воситалар (шартномалар) кенг қўлланилмаслиги тизимдаги муаммолардан биридир. Бундай ишларни ҳал қилишда суд амалиётини таҳлил қилган ҳолда, амалдаги қонун ҳужжатларига қуйидаги ўзгартиришларни кўриб чиқиш таклиф қилиш мумкин.

1. Болаларни таъминлаш учун алиментнинг минимал миқдорини белгилаш билан бир қаторда Алимент фондини ташкил этиш зарур. Мазкур фонд турли сабабларга кўра алимент тўланмай қолган ҳолларда давлат ва жамиятнинг оилани муҳофаза қилиш борасидаги функцияларини бажаришга имкон беради.

2. Вояга етмаган болани боқиш учун ота-онадан ундириладиган алимент миқдорини кўпайтириш мумкин бўлган ҳолатларни аниқ белгилаш зарур.

²⁶³ Ўзбекистон Республикаси Президентнинг 2018 йил 27 июндаги “Ўзбекистон Республикасида оила институтини мустаҳкамлаш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ–3808-сон қарори. //Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2018 йил 2 июль, 26-сон, 514-модда

Масалан, касаллик сабабли, ўқиш, спорт машғулотларига қатнашиш, алимент тўловчининг кўшимча даромад олиш имкониятининг пайдо бўлиши ва бошқа ҳолатларда алиментни кўпайтиришнинг аниқ механизмларини белгиланиши мақсадга мувофиқ.

3. Алимент ундирилиши керак бўлган шахснинг ҳақиқий даромадини қасддан яширганлик ёки кам баҳолаганлик фактини суд аниқлаган ҳолларда алиментни белгиланган миқдорда тўлаш мажбуриятини белгилаш зарур.

Хорижий мамлакатларнинг алимент мажбуриятини таъминлаш борасидаги ижобий тажрибасини татбиқ этиш таклиф қилинади. Германияда тўғри чизик бўйича қариндошларнинг (ота-оналар, болалар, бобо-бувилар, қариндошлар), эр-хотин никоҳда бўлганлари ва никоҳдан ажралганларининг алимент мажбуриятлари, шунингдек никоҳдан ташқари туғилган бола учун отанинг алимент мажбуриятлари белгилаб берилган. Вояга етмаганлар учун алимент миқдорини белгилаш қуйидагиларга боғлиқ, яъни ўғил ёки қизнинг ёши; уларнинг яшаш жойи; болаларнинг умумий сони. Агар эр ва хотин алоҳида-алоҳида яшашни бошлаган ва ажралишга тайёргарлик кўраётган бўлса, алимент тўланиши бошланади. Ажралишгача ажралиш муддати 1 йил бўлиши керак. Шунга кўра, алимент 12 ой давомида тўланиши мумкин. Германияда Дюссельдорф Алиментлар жадвали (1962 йил) ҳам амалда бўлиб, у орқали алимент миқдори аниқланади. “Алиментлар тўғрисида”ги Қонунига кўра 1979 йилдан бошлаб ота-онаси алимент мажбуриятини бажаришдан бўйин товлаган 13 ёшгача бўлган вояга етмаган шахсларга давлат томонидан алимент маблағи тўлаш тизими жорий этилган. Алимент тўловчилар алимент тўламаган тақдирда, давлат маълум бир давр учун болани қарамоғига олади. Бироқ, агар алимент тўловчи уларни тўламаслик учун қонуний асосга эга бўлмаса, унда уларга давлат томонидан тўланадиган маблағлар ва алиментнинг ўзи ундирилади. Суднинг қарорига кўра иш ҳақини музлатиб қўйишлари ва қарзлар тўлангунга қадар фақат яшаш учун керакли миқдорни бериб туришлари мумкин. Бундан ташқари, улар ҳам жарима солиши мумкин. Ҳокимиятдан яширган ёки уларни нақд пул билан тўлаган ҳолда алдашган зарарли алимент тўлашдан бош тортаётганларнинг мол-мулкани бола фойдасига мусодара қилиш ва сотиш, ахлоқ тузатиш ишлари, уч йилгача озодликдан маҳрум қилиш жазоси билан жазоланадилар. Никоҳдан ташқари туғилган бола учун отанинг алимент мажбуриятлари қонунга мувофиқ амалга оширилади. Бунга кўра, она бола туғилишидан 4-5 ой олдин ва туғилганидан бошлаб 2 ой давомида 3 йилгача биологик отадан пул тўловини талаб қилиши мумкин. Францияда эса оила кассалари фаолият юритади. Агар ота (она) икки ой алимент тўламаса,

қарамоғида вояга етмаган фарзанд бўлган иккинчи тараф (ота ёки она) ана шу Оила кассаларидан алимент маблағларини олиши мумкин.

Хорижий мамлакатлардаги алимент тўғрисидаги қонун ҳужжатларида алимент қонунчилигининг ривожланишига ижобий таъсир кўрсатиши мумкин бўлган кўплаб фойдали ва қизиқарли ҳолатларни кузатиш мумкин. Баъзи мамлакатларда, масалан, Латвия ва Швецияда ота-онага моддий ёрдам тўлаш мажбуриятлари лозим даражада бажарилмаган тақдирда боланинг эҳтиёжларини қондириш учун пул маблағлари тақдим этиладиган жамғармалар мавжудлигини кўриш мумкин. Ушбу амалиёт боланинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилишга ёрдам беради, шунингдек бола моддий ёрдамсиз қоладиган вазиятни бартараф этади. Жамғарманинг мавжудлиги билан бир қаторда, агар Австрия тажрибасига эътибор қаратилса, бунда болани қўллаб-қувватлашнинг пул шаклига устунлик берилганлигининг гувоҳи бўлиш мумкин. Бу эса ўз навбатида, бола манфаатларини кенгроқ таъминлашга имкон беради.

Мамлакатимизда ҳам юқоридаги хорижий мамлакатлар тажрибасига ўхшаш механизм жорий қилинмоқда. Хусусан, регресс даъво кўринишида алимент ундириш тизими жорий қилинмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Оила ва хотин-қизларни тизимли қўллаб-қувватлашга доир ишларни янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2022 йил 7 мартдаги ПФ-87-сон Фармонининг 20-бандига мувофиқ Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси ҳузуридаги Мажбурий ижро бюросида юридик шахс ташкил этмаган ҳолда «Алимент тўловлари» жамғармаси ташкил этилганлиги ва унга Мажбурий ижро бюросини ривожлантириш жамғармаси маблағлари ҳисобидан 50 миллиард сўм ажратилиши белгиланди.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 3 августдаги “Алимент тўловлари жамғармаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги 427-сонли Қарори²⁶⁴ кучга кирди. Жамғарма ҳисобидан тўловлар фақат вояга етмаган фарзандини моддий таъминлашдан бўйин товлаганлик учун жиноий жавобгарликка тортилган қарздорга нисбатан татбиқ этилади. Жамғарма фаолияти Мажбурий ижро бюроси томонидан бошқарилиб, тўловларни тўлаш тартиб-таомиллари устидан қатъий назорат ўрнатиш мақсадида барча амалиётлар Мажбурий ижро бюросининг Алимент мажбуриятларини ижро этиш ва назорат қилишнинг ягона ахборот тизими

²⁶⁴ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 3 августдаги “Алимент тўловлари жамғармаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги 427-сонли Қарори <https://lex.uz/docs/6141398>

орқали амалга оширилади. Бунда тўловлар ушбу тизим билан интеграция қилинган алимент олувчиларнинг банк карталарига ўтказилади.

Мажбурий ижро бюроси ҳузурида ташкил этилган “Алимент тўловлари” давлат мақсадли жамғармаси²⁶⁵ ҳисобидан 702 нафар алимент олувчилар фойдасига жами 9,6 млрд сўм маблағлар йўналтирилди (2022 йил август ойидан бошлаб).

Миграция жараёнида ажримлар ва алиментлар мажбуриятлари билан боғлиқ низоларни ва қарздорлик масалаларини ҳал этишда 2007 йил 23 ноябрдаги “Болаларга алимент ундириш ва оилани таъминлашнинг бошқа шаклларидаги халқаро тартиби тўғрисида”ги Гаага Конвенцияси алоҳида аҳамиятга эга халқаро ҳужжат ҳисобланади. Алиментларни ундириш амалиёти шунинг кўрсатадики, 1993 йил 22 январда Минск шаҳрида имзоланган Фуқаролик, оилавий ва жиноят ишлари бўйича ҳуқуқий ёрдам ҳамда ҳуқуқий муносабатлар тўғрисидаги Конвенция ва 2002 йил 7 октябрда Кишинев шаҳрида имзоланган Фуқаролик, оилавий ва жиноий ишлар бўйича ҳуқуқий ёрдам ва ҳуқуқий муносабатлар тўғрисидаги Конвенцияларни ратификацияси алиментларни ундиришда МДХ давлатлари ҳудудида қидирувни самарали олиб бериш имконини бермоқда. Бугунги кунда миграциянинг узоқ хорижий мамлакатлар бўйлаб кенгайиши қарздорлар қидирувини мазкур мамлакатлар доирасида ҳам олиб боришни тақозо этмоқда. Шунинг учун 2007 йил 23 ноябрдаги “Болаларга алимент ундириш ва оилани таъминлашнинг бошқа шаклларидаги халқаро тартиби тўғрисида”ги Гаага Конвенциясига қўшилиш, уни ратификация қилган давлатларда ҳам алимент мажбуриятларини ундиришни самарали йўлга қўйишга имкон яратади.

ХУЛОСА

Хулоса қилиб айтганда, биринчидан, алимент мажбуриятларини бузганлик учун фуқаролик ҳуқуқий жавобгарлик чоралари мулкӣ хусусиятга эга ва ноқонуний ҳаракат қилган айбдор мажбуриятли шахсга нисбатан қўлланилади; иккинчидан, оилавий ҳуқуқий жавобгарлик чораларининг ўзига хос хусусияти шундаки, улар ҳуқуққа эга шахсга нисбатан қўлланилади ва мулкӣ ҳуқуқдан маҳрум қилиш ёки уни чеклашда ифодаланади; учинчидан, алимент муносабатлари соҳасидаги ҳуқуқбузарликлар учун оила қонун ҳужжатларида назарда тутилган чораларнинг, жумладан алимент ва неустойка миқдорининг қатор талабларга жавоб бермаслиги ҳамда самарасизлиги кўзга ташланмоқда.

²⁶⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Оила ва хотин-қизларни тизимли қўллаб-қувватлашга доир ишларни янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 7 март 2022 йилдаги ПФ-87-сонли Фармони//<https://lex.uz/docs/5899498>

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Олий суд расмий сайти маълумотларига асосланади.// <https://stat.sud.uz/fib.html>
2. Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси ҳузуридаги Мажбурий ижро бюроси тақдим этган маълумотлар. 2023 йил 17 майдаги NQ 10.3/1 - Т- /23-R2-сонли жавоб хати.
3. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2016 йил 29 июльдаги 11-сон “Судлар томонидан вояга етмаган ва вояга етган меҳнатга лаёқатсиз болалар таъминоти учун алимент ундиришга оид ишлар бўйича қонунчиликни қўллаш амалиёти тўғрисида”ги Қарори// <https://lex.uz/docs/3034913>
4. Чичерова Л.Е. Ответственность в алиментных обязательствах // Юрист. 2004. № 6. С. 42.
5. http://www.adlia.tj/show_doc.fwx?rgn=805#A000000139
6. https://www.legis.md/cautare/getResults?doc_id=109550&lang=ru
7. <https://chisinau.mfa.gov.az/ru/content/123/semeynyy-kodeks-azerbaydzhanskoy-respubliki>
8. <https://lex.uz/docs/1449509>
9. Ўзбекистон Республикаси Президентнинг 2018 йил 27 июндаги “Ўзбекистон Республикасида оила институтини мустаҳкамлаш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ–3808-сон қарори. //Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2018 йил 2 июль, 26-сон, 514-модда
10. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 3 августдаги “Алимент тўловлари жамғармаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги 427-сонли Қарори <https://lex.uz/docs/6141398>
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Оила ва хотин-қизларни тизимли қўллаб-қувватлашга доир ишларни янада жадаллаштириш чоратадбирлари тўғрисида”ги 7 март 2022 йилдаги ПФ-87-сонли Фармони//<https://lex.uz/docs/5899498>
12. Rakhimjonov, A., & Imomov, N. F. (2021). Improving the creation of a land information base for the privatization of land plots in the republic of Uzbekistan and foreign experience in this area.“. *The American journal of social science and education innovations*, 160-165.

ҲОЗИРГИ ГЛОБАЛЛАШУВ ДАВРИДА КОРРУПЦИЯНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ МЕХАНИЗМЛАРИ ТАҲЛИЛИ

Бегимкулова Севара Нурмаматовна

Ўзбекистон Республикаси банк - молия академияси магистранти

Sevara.Begimqulova@xb.uz

АННОТАЦИЯ

Мақолада коррупция тушунчасига таъриф берилган ва унинг келиб чиқиши тарихи тизимли таҳлил қилинган. Муаллиф Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев асарлари ва маърузаларидаги назарий фикрларга таяниб мавзунини амалий жараёнларда унга қарши қандай кураш олиб бораётганлигини далиллар билан баён қилган. Статистик маълумотлар тўғри баён қилинган. Ўзбекистон Республикаси қонунчилигида қабул қилинган қонунларнинг аҳамияти ва унинг маънавий муҳитни соғломлаштиришидаги ўрни таҳлил қилинган. Коррупция турларининг таснифи келтирилади. Илмий натижалар ва хулосалар берилган.

Калит сўзлар: *коррупция, бихевиоризм, ришва, "ҳалоллик вакцинаси", маънавий-ахлоқий муҳит, коррупциянинг ижтимоий кўринишлари, ҳуқуқий маданият, парадигма, коррупцияга қарши кураш тажрибаси.*

ABSTRACT

The article defines the concept of corruption and systematically analyzes the history of its occurrence. The author, relying on theoretical ideas in the works and lectures of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev, convincingly explained how this problem is dealt with in practical processes. The statistics are presented correctly. The significance of the laws adopted in the legislation of the Republic of Uzbekistan and their role in improving the spiritual environment are analyzed. A classification of types of corruption is presented. Scientific results and conclusions are presented.

Keywords: *corruption, behaviorism, bribery, "honesty vaccine", spiritual and moral environment, social manifestations of corruption, legal culture, paradigm, experience in the fight against corruption.*

АННОТАЦИЯ

В статье определяется понятие коррупции и систематически анализируется история ее возникновения. Автор, опираясь на теоретические идеи в трудах и лекциях Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева, доказательно объяснил, как с этой проблемой борются в

практических процессах. Верно изложены статистические данные. Анализируется значение законов, принятых в законодательстве Республики Узбекистан, и их роль в совершенствовании духовной среды. Представлена классификация видов коррупции. Приведены научные результаты и выводы.

Ключевые слова: *коррупция, бихевиоризм, взяточничество, «вакцина честности», духовно-нравственная среда, социальные проявления коррупции, правовая культура, парадигма, опыт борьбы с коррупцией.*

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Ҳозирги даврда глобаллашув дунёдаги барча халқларнинг турмуш тарзига ўз таъсирини ўтказмоқда. Халқларнинг турмуш тарзига илғор замонавий технологиялар кириб келиши билан бир қаторда унинг салбий томонлари ҳам намоён бўлиб бормоқда. Салбий томони шунда намоён бўлмоқдаки, турмушда коррупцион ҳолатлар тез-тез содир бўлиб турибди. Инсоният ўз тарихи давомида бу иллатга қарши доимо курашиб келган. Чунки, жамият тарихида бу иллат прогрессив тараққийга доимо тўсқинлик қилган. Агар уруғ-қабилачилик муносабатлари тарихига назар солсак бошқарув тизимининг вужудга келиши ҳамда қабилла оқсоқолларининг тартиб-қоидаларининг ўрнатилиши оқибатида баъзан озиқ-овқат ресурсларини тақсимлаш жараёнида манфаатлар тўқнашуви содир бўлганини кузатиш мумкин. Тарихий китобларда бу ҳақда маълумотлар келтириб ўтилиши бежиз эмас. Бобил ҳукмдори Ҳаммурапи қонунлари коррупцияга қарши курашдаги энг қадимги ҳужжатлардан бири саналади. Бу қонунни ўрганиш ҳозир учун ҳам аҳамиятлидир. Ҳаммурапи қонунларини ўрганган олимлар шуни таъкидлаптики, агар қози ишни кўриб чиқиб, ҳукмни муҳр билан тасдиқласа ва шундан сўнг ҳукмни ўзгартирса, ўз қарори ва ишдаги даъво миқдорини ўзгартирганликда айбланиб, даъво суммасининг ўн икки баравари миқдорида жарима билан жазоланган. Бундан ташқари у қозилар Кенгашидан ҳайдалаган ва бу лавозимга бошқа қайтмаслиги белгилаб қўйилган экан. Ислом динида ҳам порага жирканч бир иллат сифатида қаралган. Ойиша розияллоҳу анҳо айтадилар: ”Мазҳум қабиласидан бўлган бир аёл қарзга нарса олиб уни қайтармас, тан олмас эди. Пайғамбар соллаллоҳу алайҳи вассалам унинг қўлини кесишни буюрди. Аёлнинг қариндош-уруғлари Усома ибн Зайднинг олдига келиб, у билан гаплашишди. Усома Пайғамбар соллаллоҳу алайҳи вассаламга аёл ҳақида гапирган эди, у зот соллаллоҳу вассалам: ”Эй Усома, Аллоҳ азза ва жалланинг ҳадларидан биронта ҳад борасида ҳам ўртага тушганингни кўрмайин”, дедилар. Сўнг туриб одамларга қарата шундай хитоб қилдилар: “Албатта, сизлардан олдин ўтганлар агар ораларида шарафли,

обрўли киши ўғирлик қилса авф этиб, заиф киши ўғирлик қилса, қўлини кесганлари сабабли ҳалок бўлганлар. Жоним қўлида бўлган Зотга қасамки, агар ўғри Муҳаммаднинг қизи Фотима бўлганида ҳам, албатта, қўлини кесган бўлардим”. Кейин ўғри аёлнинг қўли кесилди”. (имом Аҳмад, имом Муслим, имом Насоий ривоятлари). Ислонда порани “ришва” деб атаган ва истилоҳда адолатни йўққа чиқариш ва ботилни юзага чиқариш учун бериладиган нарса деб таърифлашади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОД (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / LITERATURE REVIEW)

Корупция тарихи ва унинг турмушда намоён бўлишига оид кўплаб асарлар ёзилган. Давлатлар тарихида эса ўнлаб қонунлар қабул қилинган. Глобаллашув жараёни ва коррупция ҳолати бўйича республикамиз олимлари томонида тадқиқотлар олиб борилган ва олиб борилмоқда. Бу жараённи тадқиқ қилишда қўйидаги манбаларни ўрганишни лозим топдим. БМТнинг Конвенцияси 28.08.2008 йил “Бирлашган миллатлар ташкилотининг коррупцияга қарши конвенцияси”ни, Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 3 январдаги, ЎРҚ-419 сонли “Коррупцияга қарши кураш тўғрисида”ги қонуни, ЎРВМнинг “Коррупцияга оид ҳуқуқбузарлик ҳақида хабар берган ёки коррупцияга қарши курашишга бошқа тарзда кўмаклашган шахсларни рағбатлантириш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 2020 йил 31 декабрдаги 829-сон қарорини, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 27 ноябрь ПФ-200-сон “Коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш ҳамда давлат органлари ва ташкилотлари фаолияти устидан жамоатчилик назорати тизими самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” фармонини, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 июндаги ПФ-6013-сон “Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармонини, Қуръони карим ва Ш.Мирзиёевнинг “Янги Ўзбекистон стратегияси” китоби ҳамда Президентнинг 2020 йил 24 январ куни Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисга Мурожаатномаси каби манбалар муҳим аҳамиятга эгадир.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев “Онги ва қалби болалиқдан “ҳалоллик вакцинаси” билан эмланган янги авлодни камолга етказиш устувор вазифамиздир” деб таъкидлаган эди.²⁶⁶ Ҳақиқатан ҳам бугун

²⁶⁶ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Коррупцияга қарши кураш соҳасида юксак халқаро мукофотни топиши маросимидаги нутқи. 2023 йил 19 декабрь

янги Ўзбекистонда коррупцияга нисбатан мурасасизлик руҳида тарбиялаш таълим муассасаларининг ва меҳнат жамоаларининг, шу жумладан банк тизимида фаолият кўрсатаётган ходимларнинг ҳам муҳим вазифаси саналади. Ёшларда ватанга садоқат, тадбиркорлик, иродалилиқ, мафкуравий иммунитет, меҳр-оқибатлик, маъсулиятлилиқ, бағрикенглиқ, ҳуқуқий маданият, инновацион фикрлаш, меҳнатсеварлик каби фазилатлар билан бир қаторда коррупцион ҳолатларга нисбатан бепарқ бўлмаслик уларнинг ҳуқуқий маданияти билан боғлиқдир. Демак, узлкусиз маънавий тарбия концепциясидаги фазилатларни шакллантириш жараёнида ҳуқуқий маданиятнинг бу жиҳатига ҳам эътибор бериш лозим бўлади. Чунки, концепцияда бу фазилатлар “жамиятда маънавий-ахлоқий муҳитнинг соғлом ва барқарор бўлишига салмоқли ҳисса қўшади”²⁶⁷ деб таъкидланади. Бугун жамиятда коррупцияни камайтиришнинг учта парадигмаси мавжуд. Биринчиси бу, коррупцияга алоқадор бўлган шахсларни қилмишига яраша жиноий жавобгарликка тортиш ва бу учун эса янги қонунларни қабул қилиш ҳамда уларнинг ижросини назорат қилиш (мавжуд қонунларга қўшимча ва ўзгартиришлар киритиб бориш-муаллиф) бўлса, иккинчиси эса амалдорларнинг даромадларини мавжуд қонун-қоидаларни бузмасдан кўпайтириш учун иқтисодий механизмларни яратишдир. Учинчиси, рақобатнинг ролини ошириш орқали коррупциядан олинадиган даромадлар улушини камайтиришдир. Коррупция тушунчасига қонунда “Коррупция шахснинг ўз мансаб ёки хизмат мавқеидан шахсий манфаатларини ёхуд ўзга шахсларнинг манфаатларини кўзлаб моддий ёки номоддий наф олиш мақсадида қонунга хилоф равишда тақдим этиш”²⁶⁸ деб таъриф берилган. Коррупциянинг кўйидаги турлари кўп учрайди. Кундалиқ турмушдаги коррупция (бунга непотизм мисол бўла олади), ишбилармонликдаги коррупция, юқори ҳокимиятдаги коррупция ва коррупцион хизматлар бозори. Жумладан, инсон бирор бир жамоага кирар экан, у албатта ушбу жамоага қабул қилинган хулқ-атвор қоидаларни ҳам қабул қилади. Буни муомалада бихевиоризм дейди. (инглиз тилидан кириб келган сўз бўлиб таржимаси хулқ-атвор). Ижтимоий муҳитнинг таъсири билан ҳам пайдо бўлади. Ёшлар хулқ-атворида бунда нарса бўлмаслиги учун эса уларни ўқимишли қилиб ва маърифатли тарбиялаш лозим бўлади.

Коррупциянинг тарихий ўзаклари жуда жуда қадимга бориб тақалиб, бу ҳол қабилада маълум мавқега эга бўлиш учун қабила сардорларига совғалар

²⁶⁷ Узлкусиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 31.12.2019 йилдаги 1059-сон қарори

²⁶⁸ “Коррупцияга қарши кураш тўғрисида” Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 3 январдаги қонуни ЎРҚ-419-сон

бериш одатидан келиб чиққан деб тахмин қилинади. Ўша даврларда бу нормал ҳолат сифатида қабул қилинган. Бироқ давлат аппаратининг мураккаблашуви ва марказийлашуви коррупциянинг давлат ривожланишига катта тўсиқ эканлигини кўрсатди. Коррупцияга қарши курашган биринчи давлат сифатида қадимги Шумер давлати тан олинади. Қадимги давлатларни айниқса ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг порахўрлиги қаттиқ ташвишга солганлиги бизгача сақланиб қолган манбалардан маълум. Чунки бу ҳолат давлатнинг обрўсига жуда қаттиқ путур етказарди. Дунёнинг етакчи динларида ҳам биринчи навбатда ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг порахўрлиги қаттиқ қораланади. Жумаладан, Инжилда “Совғаларни қабул қилма, чунки совға кўрни кўрадиган қилади ва ҳақиқатни ўзгартиради” дейилган бўлса, Қуърони Каримда “Бошқаларнинг мулкани ноҳақ йўл билан олмангиз ва бошқаларга тегишли бўлган нарсаларни олиш учун ўз мулкингиздан ҳокимларингизга пора қилиб узатмангизлар” дейилган. XVIII асрнинг иккинчи ярмига келиб жамият давлат бошқарув аппаратининг иш сифатига тоборо кўпроқ таъсир кўрсата бошлади. Бу ўша даврда қабул қилинган бир қатор қонун ҳужжатларида ўз аксини топган. Жумладан, 1787 йилда қабул қилинган АҚШ Конституциясида пора олиш АҚШ президентини импечментга тортиш мумкин бўлган икки жиноятнинг бири сифатида кўрсатиб ўтилган. Сиёсий партияларнинг вужудга келиши ва уларнинг мамлакат ҳаётидаги ўрнининг ошиб бориши XIX-XX асрларда ривожланган давлатларда коррупциянинг дунёнинг бошқа мамлакатларига нисбатан анча камайишига олиб келди. Ушбу иллатни тадқиқ қилган бир қатор йирик мутахассислар қуйидаги факторларни коррупцияни юзага келтирувчи омиллар сифатида кўрсатади. Икки хил маънони англатувчи қонунлар - ушбу вазият ҳуқуқни қўлловчи мансабдор шахс томонидан қонунларни турлича қўллаш имконини яратади. Шунингдек, айрим мутахассислар жиноят, маъмурий қонунчиликдаги “вилка” санкцияларни ҳам коррупцияга қулай шароит яратиши мумкинлиги ҳақида фикр юритишган. Яъни, санкциянинг аниқ миқдори йўқлиги судьяда уни ўз хоҳишига қараб қўллашга шароит яратиб беради. Аҳоли ҳуқуқий саводхонлигининг пастлиги - аҳоли томонидан қонунларни билмаслик ёки тушунмаслик мансабдор шахсга ўзининг шахсий манфаати йўлида қонунлардан фойданишга қулай шароит яратади. Мамлакатдаги сиёсий вазиятнинг нотинчлиги - мамлакатдаги нотинчлик биринчи навбатда аҳоли онгида ҳаётда юксак турмуш даражасига эришишнинг асосий усули қонунга хилоф фаолият билан боғлиқ, деган мутлақо ахлоққа зид нуқтаи назар шаклланишига олиб келади. Бу эса ўз навбатида коррупцияга қулай шароит яратади. Ижро ҳокимиятининг бирлиги

тамоилинининг бузилиши -айнан битта фаолиятнинг турли инстанциялар томонидан тартибга солиниши:аҳолининг давлатни назорат қилишдаги суштироки;давлат секторидаги хизмат қилаётган хизматчилар даромадларининг хусусий секторда топиш мумкин бўлган даромадлардан камлиги;иқтисодиётнинг давлат томонидан тартибга солиниши;инфляциянинг юқори даражаси;мамлакат юқори бошқарув органларининг аҳолидан узилиб қолганлиги;мамлакатдаги диний ва ахлоқ қоидалари. Жаҳон мамлакатларида коррупцияга қарши курашнинг қуйидаги усуллари мавжуд.Ички назорат -бу усул бошқарув апаратининг ўзида назоратни кучайтирувчи тузилмалар (ҳар хил ички инспекциялар ва бошқа назорат органлари тузиш орқали) яратишни тақазо этади. Бу тузилманинг асосий вазифаси ходимларнинг ички этикет қоидаларига риоя қилишини назорат қилишдир. Ҳозирги кунда бизнинг юртимизда ҳам бир қатор ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларида айнан шу вазифани бажарувчи ички тузилмалар яратилган.Ташқи назорат -бу усулда ижро апаратидан мустақил тузилмаларнинг мустақиллигини ошириш назарда тутилиб, айнан ушбу тузилмалар орқали коррупцияга қарши самарали кураш олиб борилади. Яъни, суд ҳокимиятининг максимал даражада мустақиллигига эришиш оммавий ахборот воситаларига кўпроқ эркинлик бериш. Сайлов тизими орқали курашиш -демократик давлатларда сайланган вакилларни коррупция учун жазолашнинг асосий усулларида бири кейинги сайловларда унга овоз бермаслик ҳисобланади. Коррупцияга сайловлар орқали таъсир ўтказиш энг самарали усул ҳисобланади. Коррупцияга қарши курашда юқори натижаларга эришган Швеция, Сингапур, Гонконг, Португалия каби давлатларнинг тажрибасини ўрганиш шуни кўрсатадики, коррупцияни юзага келтирувчи омилларни бартараф этиш коррупцияга қарши курашда муҳим ўрин эгаллайди. Бунда Конституциявий назорат органлари, ҳуқуқ-тартибот органларининг аҳамияти ортади. Яъни, коррупцияга олиб келиши мумкин бўлган нормаларни конституциявий назорат органи томонидан конституцияга зид деб топиш, аҳолининг ҳуқуқий саводхонлигини ошириш каби методлардан унумли фойдаланиш ушбу давлатларни коррупция даражаси жуда паст бўлган давлатлар қаторига олиб чиққан. Биз қуйида Сингапур давлатида коррупцияга қарши курашда қўлланилган усуллар ҳақида батафсил тўхталиб ўтамиз. Сингапур давлати 1965 йил мустақилликка эришгач коррупция даражаси энг юқори бўлган давлатлар қаторида турар эди. Лекин бу иллатга қарши ўтказилган бир қатор тадбирлар бу давлатда коррупциянинг минимал даражага тушишига олиб келди. Биринчи навбатда бу ерда бюрократик жараёнлар енгиллаштирилиб суд тизимининг мустақиллиги оширилди (судьяларнинг

даромадлари ва имтиёзларини ошириш эвазига). Шу билан бирга коррупция жиноятлари учун санкциялар оғирлаштирилиб, фуқароларга коррупцияга қарши жиноятларни тергов қилишда ҳамкорлик қилишда бош тортганлиги учун жуда катта молиявий санкциялар белгиланди. Бир қатор давлат идораларида оммавий “тозалашлар” ўтказилиб бу жараёнлар телеканаллар орқали бутун мамлакатга намойиш қилинди. Юқорида санаб ўтилган омилларнинг ҳаммаси Сингапурни қисқа муддатларда коррупция даражаси энг паст мамлакатлар рўйхатида илғор давлатлар қаторига олиб чиқди. Шунингдек, давлат хизматчисининг ахлоқ стандартларига риоя этишини қаттиқ назорат остига олиш ҳам Сингапур давлатида коррупцияга қарши курашда муҳим дастаклардан бири бўлиб хизмат қилади. Жиноятчи унсурларнинг хўжалик муносабатлари тизимини шакллантириш жараёнида фаол ва хуфёна иштирок этиши жамиятда ахлоқсизлик вазиятини туғдириши, бу эса ўз навбатида, мамлакат учун ҳам, жаҳон ҳамжамияти учун ҳам номақбул жиноий бозор иқтисодиётининг алоҳида тури шаклланишига олиб келишини кейинчалик БМТ томонидан ҳам тан олинди, 2003 йил 9 декабрда Мексиканинг Мерида шаҳрида коррупцияга қарши курашишда давлатлар ўртасидаги алоқаларни янада кучайтириш мақсадида 3 кун давом этган конференция ташкил этилди. Бу конференция давомида 100 дан ортиқ давлат томонидан Коррупцияга қарши ҳақаро конвенция имзоланди. Конференциянинг биринчи иш куни (9 декабрь) БМТ томонидан бутун дунёда коррупцияга қарши кураш куни деб эълон қилинган. Ушбу конвенциянинг қабул қилиниши ва кучга кириш (2003 йил 31 октябрь) дунё мамлакатларининг коррупцияга қарши курашдаги ҳамкорлигини янги поғонага кўтарди. Конвенцияда коррупциянинг ривожланиши уюшган жиноятчилик, терроризм ва бошқа жамият учун хавфли бўлган салбий омилларга қарши курашга улкан тўсиқ бўлиши мумкинлигига алоҳида урғу берилган. Ушбу Конвенциянинг мақсади қуйидагилардан иборат: коррупцияга қарши қаратилган юқори самарали чора тадбирларни қабул қилиш ва уларни мустаҳкамлаш; коррупцияга қарши курашда ҳалқаро ҳамкорликни кенгайтириш, енгиллаштириш ва қўллаб қувватлаш. Ўзбекистон Республикаси Бирлашган Миллатлар ташкилотининг Коррупцияга қарши конвенциясига 2008 йил 7 июлдаги ЎРҚ-158-сонли Қонуни билан қўшилган бўлиб, ушбу Қонунга мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Бош прокуратураси, Ички ишлар вазирлиги, Миллий хавфсизлик хизмати ва Адлия вазирлиги коррупциянинг олдини олиш бўйича аниқ чора-тадбирлар ишлаб чиқиш ва уларни амалга оширишда бошқа Иштирокчи-давлатларга ёрдам кўрсатиши мумкин бўлган органлар сифатида белгилаб қўйилган. Ушбу Конвенцияда назарда тутилган ва

коррупция сифатида эътироф этилиши мумкин бўлган қилмишлар Ўзбекистон Республикаси Жиноят Кодексининг бир қатор моддалари билан жиноий қилмиш сифатида таъкиб қилинади. Коррупцияга қарши курашда жаҳон мамлакатлари тажрибасини ўрганиш шуни кўрсатадики фақатгина жиноий қонунчиликни оғирлаштириш йўли билан бу салбий иллатга қарши курашиб бўлмайди (ХХР да жуда кўп миқдорда пора олганлик учун ўлим жазоси мавжуд). Бу иллатни енгиш учун биринчи навбатда аҳолининг ҳуқуқий саводхонлигини ошириш, фуқаролик институтлари фаолиятини кучайтириш лозим бўлади.

НАТИЖАЛАР (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Демократик кадриятлар қарор топиб бораётган бир вақтда давлат хизматчилари томонидан порахўрлик, мансаб мавқеини суиистеъмол қилиш билан боғлиқ жиноятларни содир этилиши ҳокимиятнинг обрўсизланишига, давлатнинг сиёсий, иқтисодий, ҳуқуқий тизимига путур етишига, натижада амалдаги ҳокимиятга нисбатан норозиликка сабаб бўлади. Коррупциянинг маълум бир мамлакатда ривожланиши эса ўша давлатнинг таназзулига олиб келади. Коррупция бу – мансаб мавқеидан шахсий мақсадларда фойдаланиш билан боғлиқ бўлган жиноят тури ҳисобланади. Коррупция фаолияти хуфёна иқтисодиётнинг асосий турларидан биридир. Аксарият ҳолларда коррупция деганда давлат хизматчилари томонидан шахсий манфаатларни кўзлаб, бойлик орттириш мақсадида халқдан пора олиш, қонунга хилоф пул даромадларини қўлга киритиш тушунилади. Аммо, умуман олганда, давлат амалдорларигина эмас, балки, давлат ташкилотида ишламайдиган фуқаролар ҳам коррупцияга доир муносабатларнинг иштирокчилари бўлиши, пора пул эмас, балки бошқа нарса эвазига маълум хизматни амалга оширишлари мумкин. Этимологик жиҳатдан “коррупция” атамаси “бузиш, пора эвазига оғдириш” деган маънони англатадиган латинча “*corruptio*” сўзидан келиб чиққан. Юридик энциклопедия муаллифларининг таъкидлашича, “коррупция – мансабдор шахслар томонидан уларга берилган ҳуқуқлар ва ҳокимият имкониятларидан шахсий бойлик орттириш учун фойдаланишда ифодаланувчи сиёсат ёки давлат бошқаруви соҳасидаги жиноий фаолиятдир. Дарҳақиқат, коррупция – илдизлари давлат хизматини ташкил этишдаги нуқсонларга ва давлат хизматчиларининг ўзига хос психологиясига бориб тақаладиган ижтимоий ҳодиса. Бу коррупцияга қарши аввало маъмурий-ҳуқуқий ва ташкилий-бошқарув чора-тадбирлари кўрилиши зарурлигидан дарак беради. Коррупция фуқаронинг давлат вакили билан маъмурий муносабатлари маъно-моҳиятини ўзгартиради ва жамият учун ҳам, давлат учун ҳам салбий оқибатларни келтириб чиқаради. “Коррупция –

давлат органлари ходимлари моддий ёки мулкый йўсинда ғайриқонуний шахсий наф кўриш мақсадида ўз хизмат мавқеидан фойдаланишида ифодаланадиган ижтимоий ҳодисадир.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Давлат ҳокимияти органлари фаолияти устидан кучли жамоатчилик назоратини амалга ошириш фуқаролик жамиятини барпо этишнинг энг муҳим шартларидан ҳисобланади. Зотан, фуқароларнинг фаоллиги, ижтимоий ҳодисаларга бефарқ бўлмаслиги ҳамда ҳар бир давлат хизматчисининг ўз фаолиятини жамоатчилик назорати остида эканлигини чуқур ҳис этиб бориши фуқаролик жамиятини мустаҳкамлашнинг муҳим шартидир. Буни давлатимиз раҳбари таъбири билан айтганда, биз давлатнинг назорат функцияларини қанча кучайтирсак, назорат билан шуғулланувчи давлат тузилмалари ва органларини қанча кўпайтирсак, амалдорларнинг зўравонлиги ва коррупция шунча авж олаверади. Шунинг учун биз жамоатчилик назоратини, давлат фаолияти, шу жумладан унинг куч ишлатувчи тузилмалари фаолияти устидан ҳам жамият назоратини ҳар томонлама кучайтиришга алоҳида эътибор қаратишимиз лозим. Бу масалада бундан бошқа муқобил йўл йўқ. Шу маънода айтганда, “Ўзбекистон Республикасида жамоатчилик назорати тўғрисида”ги Қонунини қабул қилишнинг аҳамияти беқиёсдир. Умуман, жамоатчилик назорати фуқаролик жамияти институтлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари томонидан давлат ҳокимияти органларига муайян қарорларни қабул қилиш бўйича мурожаат этиш, давлат ҳокимияти органлари ваколатига кирувчи масалалар бўйича сўровларни амалга ошириш, давлат ҳокимияти органлари ва маҳаллалар ҳудудларидаги корхона ва ташкилотлар раҳбарларининг ҳисоботларини эшитиш каби шаклларда йўлга қўйилса у ўз самарасини беради. Қолаверса, бугунги кунда давлат Дастурлари талабларининг фуқаролар йиғини ҳудудидаги ижросини таъминлашда жамоатчилик гуруҳларини тузиш ва ўрганиш, натижалари бўйича тегишли маҳаллий давлат ҳокимияти органлари ҳисоботларини эшитиш ва шу орқали аниқланган камчиликларни бартараф этиш чораларини кўриш, шунингдек, маҳаллий давлат органлари фаолиятига кўмаклашиш тадбирлари самарали олиб борилмоқда. Бу эса, жамоатчилик назоратининг жамиятда ижтимоий адолатнинг қарор топиши, шахс, жамият ва давлат алоқаларида мувозанат, тенглик, ўзаро масъулият ва жавобгарликка хизмат қилувчи асосий омил эканидан далолатдир. Бугунги кунда республикамизда жинойтчиликнинг сабабларини аниқлаш чоралари кўрилмоқда, фoš этилган коррупциячилар қаттиқ жазоланмоқда. Мамлакат ичидаги жинойтчилик доимо давлат томонидан қаттиқ назорат қилиб борилади.

Жиноятчилик кенг авж олиб кетишига ва коррупциячилар домига илинган амалдорларнинг бебошлигига йўл қўймаслик мақсадида бир қатор узоқ муддатли чора-тадбирлар ишга солинган. Улар жиноятчиликка қарши кураш стратегиямизни белгилаб беради. Жиноятни жазолашдан кўра, уни олдини олиш сингари профилактик тадбирларнинг йўлга қўйилиши қай даражада оқилоналиги аллақачон исботланган. Бугунги кунда коррупцияга қарши кураш мақсадларига фақат жиноят-ҳуқуқий воситалар билан эришиб бўлмаслигини ҳаётнинг ўзи кўрсатмоқда. Ўйлаймизки, бундай маънавий бузилиш ҳолатга қарши курашда нафақат давлат органлари, балки, жамият ва умуман барча фуқароларимиз масъулдирлар. Шундай экан, давлат ва жамият, шу билан бирга нодавлат ноижорат ташкилотлари бундай иллатни олдини олишга унга қарши курашда биргаликдаги ҳаракатигина самарали натижаларга эришишнинг энг тўғри йўли саналади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Коррупцияга қарши кураш соҳасида юксак халқаро мукофотни топшириш маросимидаги нутқи. 2023 йил 19 декабрь
2. Узлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 31.12.2019 йилдаги 1059-сон қарори
3. “Коррупцияга қарши кураш тўғрисида” Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 3 январдаги қонуни ЎРҚ-419-сон
4. Қуръони Карим маъноларининг таржима ва тавсири. /Ўзбекистон Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Тошкент ислом университети; таржима ва тавсир муаллифи: Абдулазиз Мансур.-Т.;Тошкент ислом университети НМБ 2018. 624 б.
5. Яхшиликов Ж., Муҳаммадиев Н. Фалсафа. Дарслик Самарқанд-2021. 471-505 саҳифалар.
6. https://xorazm.adliya.uz/xorazm/uz/publikatsii/korupciya/?ELEMENT_ID=212

THE HISTORY OF NATIONAL CLOTHES OF UZBEK AND ENGLISH CULTURE

Khodjaeva Madinabonu Muhammadjonovna

Teacher of Fergana State University

khodjaevamadinabonu@gmail.com

+998975028771

ABSTRACT

This article deals with the information about national clothes of Uzbek and English culture and their history. It has been stated about social and historical importance of national clothes of both culture.

Key words: *chapan, skullcap, doppi, embroidered, khan atlas, mahsi, morris dancers, kilt, national costume, national clothes.*

O‘ZBEK VA INGLIZ MADANIYATI MILLIY LIBOSLARI TARIXI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz madaniyati va ularning milliy kiyimlari to‘g‘risida ma‘lumot beriladi. Ularning ijtimoiy va tarixiy ahamiyati to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *chopon, doppi, xon atlas, mahsi, kilt, morris raqqoslari, milliy kiyim.*

ИСТОРИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ОДЕЖДЫ УЗБЕКСКОЙ И АНГЛИЙСКОЙ КУЛЬТУРЫ

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены сведения о национальной одежде узбекской и английской культуры и ее истории. Установлено социальное и историческое значение национальной одежды обеих культур.

Ключевые слова: *чапан, тюбетейка, хан атлас, махси, килт, танцоры Морриса, национальная одежда.*

INTRODUCTION

Uzbek national costumes are very marvellous, comfortable, convenient and are a part of the rich cultural traditions and lifestyle of Uzbek people. In cities, it is rare to find people in national dress, today it is worn on traditional holidays or some special days, but in some parts of countryside it is still part of everyday dress.

The basis of the men's national costume is a chapan, which is tied around the waist with a scarf. A traditional headdress is called a scullcap. A shirt is worn on the body, and wide pants are worn. They wear thin leather boots to their feet. Full dress belts are often very elegant - velvet or embroidered, with silver plaques and buckles. A casual dress is tied with a belt like a long scarf.

DISCUSSION AND RESULTS

DEEPL – ushbu platformanini Google translyatorga munosib raqobatchi deyish mumkin. Unda tarjimalar juda aniq va moslashuvchidir. Uning yordami bilan ta'lim oluvchi ingliz tilini yetarlicha bilmagan taqdirda, boshqa neyron tarmoqlar uchun qidiruv so'rovlarini yaratishi va foydalanini mumkin. DEEPL funksiyasi har xil turdagi barcha fayllarni, shu jumladan - pptx, docx, pdf formatlarni darhol tarjima qilish imkonini beradi. Mazkur platforma katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Sun'iy intellekt pedagogik faoliyatda tobora muhim rol o'ynamoqda, ta'lim manzarasini bir necha jihatdan o'zgartirmoqda. Sun'iy intellekt (SI)ning kelajakda ta'limga o'ziga xos ta'siri juda katta ekanligi yana va yana ko'rsatilmoqda. Bu, turli sohalar uchun keng foydalaniladigan yengil o'rganish modellari yaratish imkonini beradi. Quyidagi muammolar SI bilan ta'limning mustaqil ro'yhatini ifodalashga yordam beradi:

1. Muvofiqlashtirilgan ta'lim: Sun'iy intellekt, har bir o'quvchi yoki talaba uchun maxsus ta'lim dasturlarini yaratish va muvofiqlashtirishda yordam beradi. Ushbu shaxsiy yondashuv har bir talabaning shaxsiy ehtiyojlariga mos materiallar va mashqlarni olishini ta'minlaydi, bu esa yanada samarali o'quv natijalarini targ'ib qiladi.

2. Shaxsiy o'rganish yo'nalishi: Sun'iy intellekt, har bir o'quvchining yuqori samarali va shaxsiy o'rganish yo'nalishlarini aniqlashda yordam beradi. Bu, o'quvchilarning qiziqtirgan sohalar va maqsadlarga moslashtirilgan ta'limni taqdim etishga yordam beradi. Ushbu dinamik moslashuv talabalarni zerikish yoki umidsizlikni oldini olish uchun kerakli darajada jalb qilish va qiyinchiliklarga yordam beradi.

3. Monitoring va avtomatlashtirilgan baholash: Sun'iy intellekt, o'quvchilarning o'rganish jarayonida ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va baholash imkonini beradi. Bu, o'quvchilarning rivojlanishini kuzatib borishga yordam beradi va o'qituvchilarga o'quvchilarning ma'lumotlarini va qobiliyatlarini kuzatishda yordam beradi.

Shuningdek, sun'iy intellekt topshiriqlarni, viktorinalarni va imtihonlarni baholash jarayonini avtomatlashtirishi, o'qituvchilarning qimmatli vaqtini tejashi va talabalarga ularning ishlashi haqida darhol fikr bildirishi mumkin.

4. Avtomatlashtirilgan O'qitish: Sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan ta'lim dasturlarini yaratish va bajarish imkonini beradi. Bu, o'qituvchilarning va o'quvchilarining vaqtni va resurslarni tejashlarini kamaytiradi va o'rganishning samarali jarayonlarini ta'minlashda yordam beradi. O'quv dasturi dizaynini optimallashtirish orqali Sun'iy intellekt o'quv materiallari keng qamrovli, dolzarb va o'quv maqsadlariga mos kelishini ta'minlashga yordam beradi.

5. Konsultatsiyalar va yordam: Sun'iy intellekt, o'quvchilarga va o'qituvchilarga maslahat berish uchun foydalanishga mo'ljallangan. Bu, shaxsiy yordamni taqdim etish orqali o'rganish jarayonini ko'rib chiqish va takomillashtirishga yordam beradi.

6. Tilni o'rganish uchun tabiiy tilni qayta ishlash (NLP): NLP-ga asoslangan dasturlar talabalarga real vaqtda tarjima, talaffuz bilan aloqa, grammatikani tuzatish va tilni tushunish mashqlarini taqdim etish orqali til o'rganishda yordam berishi mumkin. Ushbu vositalar tilni o'rganish va ravonlikni yanada interaktiv va jozibali tarzda rivojlantirishga yordam beradi.²⁷³

Bular kabi ko'plab sabablar, sun'iy intellektning kelajakda ta'limga ta'sirini nazariy jihatdan o'rganishga katta e'tibor beriladi. Bu, o'rganish jarayonini samarali, individual va qisqa muddatda olib borish imkonini beradi.

Generativ AI modellari tobora kuchayib bormoqda va tez yaxshilanmoqda. Ushbu tizimlarning imkoniyatlari bir necha oylar yoki yillar o'tib, hozirgi imkoniyatlaridan ancha yuqori bo'ladi. Ularning imkoniyatlari boshqa ekspert tizimlari bilan integratsiyalashuv orqali ham kengaymoqda. Kelgusi yillarda ushbu tizimlar yanada kuchliroq, qulayroq va arzonroq bo'lishini taxmin qilish oqilona. Demak, savol, ta'lim va o'rganishni yaxshilash uchun ushbu paydo bo'lgan imkoniyatlardan qanday mas'uliyat bilan foydalanish kerak. O'tmishdagi texnologiyalar kutilgan umidlarni oqlamagan bo'lsa-da, AI shunchaki o'tmishning davomi emas, bu biz endigina tushuna boshlagan mashina razvedkasining yangi davriga sakrashdir. Ushbu tizimlarni zudlik bilan tatbiq etish mukammal bo'lmasa-da, takomillashtirishning tez sur'ati istiqbolli istiqbollarga ega.

XULOSA

Xulosa qilib ta'kidlash joizki, mamlakatimizning oliy ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanishga ehtiyoj mavjud. Ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish an'analari zamonaviy texnologik modernizatsiyaning

²⁷³ "UNIVERSAL" xalqaro ilmiy jurnali maxsus soni: "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar", 2024-yil 17-aprel. – A.: Andijon, 2024.146-148-bb

jahon tajribasiga mos keladi va ta'lim xizmatlari sifatini hamda ta'lim jarayonlarini boshqarish jarayonlarini takomillashtirish imkonini beradi. Pedagogik faoliyatda sun'iy intellektning roli jadal rivojlanib bormoqda, bu esa o'qitish va o'qitish amaliyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari o'quv tajribalarini shaxsiylashtirish va ta'lim natijalarini yaxshilash uchun ulkan imkoniyatlarni taklif qilsa-da, axloqiy, ijtimoiy va pedagogik ta'sirlarni diqqat bilan ko'rib chiqish kerak. O'qituvchilar va siyosatchilar Sun'iy intellektning ta'limdagi mas'uliyatli integratsiyasini birinchi o'ringa qo'yishlari, shaffoflik, hisobdorlik va tenglikni ta'minlashlari kerak. O'qituvchilarni o'qitish amaliyotida Sun'iy intellekt bilan ishlaydigan vositalardan samarali foydalanish uchun zarur ko'nikma va bilimlar bilan jihozlash uchun malaka oshirish dasturlari amalga oshirilishi kerak. Bundan tashqari, sun'iy intellektning pedagogik faoliyatga uzoq muddatli ta'sirini baholash va potensial xavflarni kamaytirishda uning afzalliklarini maksimal darajada oshirish bo'yicha eng yaxshi amaliyotlarni aniqlash uchun doimiy tadqiqotlar va baholash zarur. Aini ta'limning qo'shimcha vositasi sifatida qabul qilish orqali biz barcha talabalar uchun yanada inklyuziv, qiziqarli va samarali o'quv muhitini yaratishimiz mumkin. Oliy ta'lim muassasalarida intellektual ta'lim tizimlaridan foydalanish istiqbolli kelajakning poydevoridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "UNIVERSAL" xalqaro ilmiy jurnali maxsus soni: "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar", 2024-yil 17-aprel. – A.: Andijon, 2024.
2. Biggest Limitations of Artificial Intelligence Technology | HackerNoon. (n.d.). Retrieved March 7, 2023, from <https://hackernoon.com/the-missing-pieces-6-limitations-of-ai-s85r3upr>
3. Бессмертный И.А. "Искусственный интеллект" Учебное пособие. Санкт-Петербург 2010. 288 с
4. Mhlanga, D. (2023). Open AI in Education, the Responsible and Ethical Use of ChatGPT Towards Lifelong Learning. SSRN Electronic Journal. <https://doi.org/10.2139/ssrn.4354422>
5. www.educationnext.org

TABIIY FANLAR DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTENSIV METODLARNING AHAMIYATI

Djurayeva Nargiza Narkulovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM o'qituvchisi

Tel:+998(91)9547662

ANNOTATSIYA

Ta'limni tashkil etish va yo'lga qo'yish borasidagi o'zgarishlar innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan intensiv metodlarni yuzaga keltirdi. Ushbu maqolada intensiv metodlarning ahamiyati va tabiiy fanlar darslarida qo'llanilishi amaliy metodlar orqali yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. *Intensiv, innovatsiya, pedagogik texnologiyalar, 3D golagramma, interfaol metodlar, interaktiv mashg'ulotlar, Virtual sayohat, integratsiya.*

ABSTRACT

Changes in the organization and delivery of education have led to intensive methods based on innovative educational technologies. In this article, the importance of intensive methods and their use in natural science classes are explained through practical methods.

Keywords. *Intensive, innovation, pedagogical technologies, 3D hologram, interactive methods, interactive training, Virtual tour, integration.*

KIRISH

Intensiv metod – o'zaro harakat, ya'ni hamkorlik asosida o'qitish, shuningdek, eng sermahsul, eng ko'p natija beradigan metod hisoblanadi. Intensiv metodlar erkin fikrlaydigan, mustaqil izlanadigan o'quvchilarning ilmiy salohiyatini shakllantirishga yo'naltirilganligi bilan e'tiborga loyiqdir. Ta'lim berishning bu usulida o'qitish jarayonidagi asosiy ish o'quvchilar tomonidan amalga oshirilishi, ular ta'limning obyekti emas, balki subyekti, ya'ni xuddi o'qituvchi kabi ijrochisi bo'lishi ko'zda tutiladi. Intensiv metodlar asosida o'qituvchi bilan o'quvchilarning birgalikdagi ishlashigina emas, balki ta'lim olayotgan o'quvchilarning o'zaro hamkorlikda didaktik faoliyat ko'rsatishi turadi.

Adabiyotlar tahlili

Demak, intensiv metodlar ta'lim mazmunining to'liq o'zlashtirilishida o'quvchilarning o'zaro bir-birlari va o'qituvchilar bilan birgalikda faoliyat ko'rsatishlari ko'zda tutiladi. Intensiv metodlar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir o'quvchining faolligiga asoslanadi [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**]. Bu metodlardan foydalanilganda bilim olish o'quvchi uchun qiziqarli hayotiy

faoliyatga aylanadi. Interfaol usullar qo'llanilganda o'quvchilar o'qitilmaydi, balki ularning o'zlari o'qituvchi bilan birgalikda muayyan yo'nalish va miqdordagi bilimlarni mustaqil o'zlashtirishadi. Bu hol ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida erkin fikrlash, mustaqil izlanishga rag'bat paydo qiladi. Bu shaklda uyushtirilgan ta'lim jarayoni qatnashchilari o'zaro bemalol tortishadilar, o'quv materialini buyurilganiday emas, balki o'zlari xohlaganday yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtiradilar.

Ta'lim jarayoni qatnashchilari kichik guruhlarga bo'lingan holda ishlaydilar. O'quv topshiriqlari alohida bir o'quvchiga emas, balki kichik guruhning barcha a'zolariga beriladi. O'quvchilarda jamoa tuyg'usini shakllantiradi va ularning tashabbuskorligini orttiradi.

Zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini mukammal loyihalashtirish, aniq masalalar qo'yish, rejalashtirilgan natijalarni amalga oshiruvchi uzviy bog'langan majmua hisoblanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiyaga e'tibor bermasdan turib, kelajagimiz bo'lgan navqiron va sog'lom avlodni, bilimli, savodli yoshlarni tasavvur qilib bo'lmaydi.

Innovatsiya muhim ahamiyatga ega, u tizimli yangiliklardan iborat bo'lib, ular turli tashabbus va yangilanish asosida yuzaga keladi hamda ta'limning tadrijiy ravishda tashkil topishi uchun istiqbolli hisoblanadi, shuningdek, ta'lim muhitining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [2].

Pedagogik innovatsion faoliyat o'qitishning didaktik ta'minotini bir holatdan ikkinchi holatga o'tkazishga olib keluvchi yangilikni tarqatish jarayonidan iborat.

Innovatsion ta'lim eng samarali shakl, vosita, metodlar, usullarni izlash yangi g'oyalarni yaratish natijasida yuzaga keladi. Shuning uchun innovatsiya ta'lim evolyutsiyasining muhim elementi hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishning innovatsion metodlardan foydalanib, tashkil etish uchun avvalo darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqilishi lozim. O'qituvchi o'zining ish shakllari va o'quvchilarning ko'nikmalar egallash jarayonidagi ishlar doirasini aniq belgilab olishi lozim. Shuningdek, u qanday o'qitish metodlaridan foydalanishi ham muhim ahamiyatga ega. X.Norbo'tayevning ta'kidlashicha metod tanlashda ko'proq interfaol metodlarga e'tibor qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi [3].

Intensiv mashg'ulotning asosiy metodlari:

interaktiv seminar, trening, aqliy hujum, ishchanlik o'yini, rolli o'yin, muhokama, bahs, munozara, tanqidiy fikrlash, bumerang, press, intervyu, zanjir, pinbord, insert, suratli diktant, muzyorar va boshqalar.

Ta'kidlash joizki, interaktiv mashg'ulotlarda shakl va metodlar birgalikda mavjud bo'lib, ularni shartli ravishdagina ajratish mumkin.

Intensiv mashg'ulotlar aniq rejalashtirilgan holda dars maqsadini belgilab, dars loyihasi va algoritmi ishlab chiqilganidan keyingina amalga oshiriladi. Interaktiv metodlarning barchasida ham o'qituvchi va o'quvchi faoliyati o'rtasidagi hamkorlik, o'qituvchining ta'lim jarayonidagi faol harakati ko'zda tutiladi[3].

M.Tojiyevning fikriga ko'ra, sinf o'quvchilari birinchi va ikkinchi hamkor qismlarga bo'linadi. Darsni o'tish modelidan foydalanib birinchi hamkor ikkalasiga, ikkinchi hamkor esa birinчисiga modeldagi qismlarni o'rgatadi. O'qituvchi o'quvchilarga ta'lim metodlari vositasida model qismlarini avval tushuntiradi, keyin ko'rsatadi. O'quvchilar o'qituvchi aytgan va ko'rsatganlarini takrorlaydilar va bajaradilar. O'qituvchi sinfni nazorat qilish uchun o'ziga ikki nafar hamkorni tanlaydi. O'qituvchi o'z hamkorlariga modelni bosqichma-bosqich bajartirib ko'radi, tushunmaganlarini tushuntirib, o'rganishiga yordam beradi. O'qituvchi sinfdagi hamkorlariga birinchi qismni bir-birlariga o'rgatishlari va bajarishlarini aytadi. Ularning ishlarini nazorat qilib, kamchiliklarini bartaraf etishga yordamlashadi. Bu ish usuli modelning boshqa qismlarini ham bajarishda davom etadi deb izohlagan[4].

Tadqiqot metodologiyasi

Yuqoridagilardan kelib chiqib tadqiqot doirasida boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish samaradorligini ta'minlashda mantiqiy fikrlash, induktiv, deduktiv mushohada qilish hamda mustaqil rivojlanishga bo'lgan ehtiyoj, o'quv jarayoni va natijalarini bashorat qilishda guruhli ish metodlaridan foydalanish asosida takomillashtirildi.

Tahlillar va natijalar

Quyida boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish metodikasining tarkibiy qismi sifatida ishlab chiqilgan boshlang'ich sinf "Tabiiy fanlar" darslarida qo'llashga doir ijodiy intensiv metodlarni keltiramiz.

Ona tili, o'qish savodxonligi, matematika, tabiiy fani darslarida o'quvchilar o'quv-biluv va o'yin faoliyatlarini integratsiyalash asosida mas'uliyatlilikni shakllantirishda quyidagi o'yin-topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

"Virtual sayohat".

Metodning tavsifi. O'quvchilarda raqamli media bilan sog'lom munosabatlar shakllantirish ularni bundan cheklashdan ko'ra muvaffaqiyatli hisoblanadi.

Sinf: II

Mavzu: Yulduzlar va sayyoralar

Metodning maqsadi: o‘quvchilarni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo‘lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o‘z fikri bilan ta‘sir eta olishga, uni ma‘qullashga, shuningdek, mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda egallagan bilimlarini qo‘llay olishga o‘rgatish.

Metodning qo‘llanilishi: O‘quvchilarga ushbu mavzu yuzasidan video materialni virtual sayohat orqali namoyish etiladi. 3 D golagramma ochkida virtual ekspeditsiya jarayoni amalga oshiriladi.

Mashg‘ulotda qo‘llaniladigan vositalar: A-3, A-4 formatlarda tayyorlangan (mavzuni ajratilgan kichik mavzuchalar soniga mos) chap tomoniga kichik mavzular yozilgan tarqatma materiallar, flomaster(yoki rangli qalam)lar, 3D golagramma ochki, virtual ekspeditsiya video material.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:

•o‘qituvchi o‘quvchilarni sayyoralar soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlar ajratadi (guruhlar soni 4 yoki 5ta bo‘lgani ma‘qul);

•o‘quvchilar mashg‘ulotning maqsadi va uning o‘tkazilish tartibi bilan tanishtiriladi. Har bir guruhga qog‘ozning chap qismida sayyoralar nomi bo‘lgan varaqlar tarqatiladi;

•o‘qituvchi guruh a‘zolarini tarqatma materialda yozilgan kichik mavzular bilan tanishishlarini va shu mavzu asosida bilganlarini flomaster yordamida qog‘ozdagi bo‘sh joyiga jamoa bilan birgalikda fikrlashib yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi;

•guruh a‘zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan sayyoralar haqida yozma(yoki rasm, yoki chizma) ko‘rinishida ifoda etadilar. Bunda guruh a‘zolari sayyoralar bo‘yicha imkon boricha to‘laroq ma‘lumot berishlari kerak bo‘ladi.

•O‘qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib, 3D golagramma ochki virtual ekspeditsiyaga taklif qiladi.

•Mavzuni yanada yaqqolroq his qilish uchun oquvchilar yulduzlar va sayyoralar koinotiga tashrif buyirishadi.

•o‘quvchilarga mavzu yuzasidan ijodiy topshiriqlar beriladi va bu topshiriqni sayt orqali bajarilishi aytiladi.

1.Osmon jismlariga nimalar kiradi?

2.Nega yulduz va sayyoralar kunduzi ko‘zga ko‘rinmaydi?

3.Sayyoraning yulduzdan farqi nima?

4.Quyosh atrofida nechta sayyora harakatlanadi?

5.Sayyoralar koinotda qanday vazifani bajaradi?

6.Yer quyosh sistemasidagi qaysi sayyoralar orasida joylashgan?

7. Yulduzlar va quyosh o'rtasidagi o'xshash jihatlarni ayting.

Talablar:

O'qituvchi dars davomida ushbu metoddan foydalanishda quyidagi talablarga amal qilishi lozim bo'ladi:

tanlanadigan video materiallarning o'quv materiali mazmuniga va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi;

o'quvchilarni "virtual ekspeditsiyaga" tayyorlash;

video materialning tushunarli va rang-barangligiga e'tibor qaratish.

Natija:

O'quvchilarning tabiatdagi narsa va hodisalar haqidagi tasavvurini kengaytiradi. Atrofdagi koinot dunyosi, olam haqidagi tushunchalari rivojlanadi.

ta'lim muassasasida innovatsiya jarayonlarini tashkil etishning pedagogik shartlarini quyidagicha izohlaymiz:

1. Innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi nazariy-pedagogik qoidalar majmuini ishlab chiqish;

2. Ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot salohiyatini shakllantirish;

3. Innovatsion faoliyatni tashkil etishni ta'minlashning asosiy shartlari, alohida boshqaruv jihatlari, ya'ni mazkur faoliyatni tashkil etishga yo'naltirilgan, yangilangan boshqaruv tizimini shakllantirish.

XULOSA

O'qituvchilarni ta'lim tizimidagi innovatsion jarayonlarga va innovatsion faoliyatga tayyorlash o'ziga xos pedagogik muammo bo'lib, uning asosida o'qituvchining o'z-o'zini kasbiy rivojlantirishga intilishi, innovatsion jarayonlarning ahamiyatini anglashi, o'zgarishlar va yangiliklarning mazmun-mohiyatini tushunishi va mantiqan zarurligini qabul qilishi kabi omillar yotadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xautullaeva S. "Redagogik qauta tauuorlash: Ta'limda axborot texnologiyalari" moduli bo'uisha o'quv uslubi majmua. TDRU huzuridagi redagogik kadrlarni qauta tauuorlash va ulurni malakasini oshirish tarmoq markazi, 2021 uil, 24 bet.

2. Jumaniyozova M.T. O'qituvchilarni ta'limdagi innovatsiya jarayonlariga tayyorlash muammolari. // «Uzluksiz ta'lim tizimida innovatsiya texnologiyalaridan foydalanish». Maqolalar to'plami. – T.: «Ekstremum press». 2010. -246-b.

3. Norbo‘tayev X., Eshquvvatov SH. Boshlang‘ich sinflarda didaktik o‘yinli ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi. // “Zamonaviy ta‘lim”, 2015, 6-son. - 67-68-b.
4. Tojiyev M., Xurramov A. Ta‘lim jarayonini pedagogik texnologiya asosida tashkil qilishda qo‘llaniladigan zamonaviy ta‘lim usullari // Metodik tavsiyanoma. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2014. – 96 b.
5. Djo‘rayeva N.N. Boshlang‘ich sinflarga tabiiy fanlarni o‘qitishda ekologik tushunchalarni shakllantirishning ahamiyati.// “Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari” №14-sonli ko‘p tarmoqli, ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiyasi. Vol.7No.1 2024, -b. 95-98
<https://worldlyjournals.com/index.php/wkc/article/view/1153>
6. Djurayeva N.N. Tabiiy fanlarni o‘qitishda innovatsion yondashuv// Ilmiy tadqiqotlar va jamiyat muammolari. Vol. 5 No. 2. 07.10.2023. -b 67-70
<https://wordlyknowledge.uz/index.php/ITJM/article/view/3473>

THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE TEACHING OF TECHNICAL SCIENCES

Jurayev Aburaykhan Kholikulovich

Karshi Institute of Engineering and Economics

aburaykhonjurayev75@gmail.com

ABSTRACT

The article describes how to view the graph of functions in the Matlab software complex using the capabilities of computer software. Demonstration, which is one of the main principles of didactics, is one of the most widely used principles in the teaching of technical sciences. Lessons have been shown to be effective when used with visual aids and to facilitate student mastery. It is stated that the modeling of complex processes using computer programs will be the basis for the formation of a comprehensive range of thinking of students in the future.

Keywords: *information and communication technologies, intellectual learning system, computerization, MATLAB, Command Window, plot function, comet function.*

INTRODUCTION

Our republic is creating conditions for the rapid entry of news into the education system, the establishment of global information in modern conditions, and the access of large amounts of information to students. Continuous education in our republic, in particular, integration with leading foreign countries in the field of higher education, if it takes a place among the member states of the Bologna agreement, which at this stage of education has clearly demonstrated its quality, efficiency, transparency, and practical value in practice, will be able to compete competently in accordance with international education standards. there will be an opportunity to achieve the expected results in the training of durable personnel.

Purposeful use of the conditions created in higher education institutions, modern work experiences that allow to increase the quality of education, popularization of advanced teaching approaches, activities aimed at solving pedagogical problems of using information technologies in the educational process are considered important tasks of reforming the educational process, the work being carried out in this regard is the new principles of modern education. and is significant in that it is aimed at identifying development trends and defining prospective directions of pedagogical activity.

LITERATURE ANALYSIS AND METHODOLOGY

In accordance with the Decree No. PF-5349 dated February 19, 2018 of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures to further improve the field of information technologies and communications", a number of measures are being implemented based on the fundamental improvement of the information technologies and communications system in 2018-2019. Also, as the President of our country, Sh. Mirziyoev, stated: life itself and the demands of the people are putting before us new and more complex tasks that need to be found in practical solutions ²⁷⁴[1]. Quickly solving the necessary and important tasks that cannot be delayed in all areas, finding their solution, largely depends on the development of the educational process. In modern conditions, the rapid development of information and communication technologies has created favorable conditions for using their capabilities in the educational process. Serious attention is paid to the use of this type of education in the conditions of Uzbekistan. There are two approaches to computerization (informatization) of the teaching process:

- use of the computer as a means of educational activity;
- use of the computer as a learning object.

The improvement of information technologies, the expansion of didactic possibilities, widely manifests its aspects as a teaching tool. Teaching with the help of computers can be divided into traditional and intellectual teaching. The main feature of the intellectual education system is that it involves the management of educational activities taking into account the characteristics of all stages in solving educational issues.

In the system of intelligent teaching, individualized teaching is carried out on the basis of a dynamic model of the learner. Such systems provide stability and regularity in the formation of the student's educational activity by providing the opportunity to distribute management tasks between the student and the computer, that is, the transition to teaching independent reading is carried out in an optimal way [2].

Didactic principles play an important role in the teaching of all subjects, so didactic principles play an important role in the content and organization of lessons in the teaching of engineering subjects.

Demonstrability, which is considered one of the main principles of teaching (didactics), is one of the most introduced principles in the teaching of engineering

²⁷⁴Mirziyoev Sh.M. Critical analysis, strict discipline and personal responsibility should be the daily rule of every leader's activity. Report at the extended meeting of the Cabinet of Ministers on the main results of socio-economic development of our country in 2016 and the most important priorities of the economic program for 2017 // People's word, January 16, 2017

subjects. If the lessons are conducted with the help of visual aids, students' learning becomes easier. The preparation of visual information using computer programs expands the ability to visualize and remember complex schemes. Presentation of knowledge in a visual and realistic way makes the topic understandable. The goal is for the lesson to reach the student's mind and remain in his memory for a long time [3].

The goal of using ICT in the educational process is to speed up the process, to make effective use of large-scale information flows. In this case, the quality and efficiency of the educational process increases, the students' knowledge and mastery of engineering sciences is activated.

High efficiency is achieved by introducing ICTs, which have an important place in the didactic point of view, into the educational process [5, 6]. In this:

- control of educational activities is achieved through feedback;
- the student will be able to control himself;
- the student has the opportunity to repeat, practice and prepare independently;
- time spent studying and studying is saved;
- information in the form of a complex scheme is visualized;
- there is an opportunity to express events and processes through modeling;
- it is possible to perform laboratory exercises through special computer programs;
- the database is formed and so on.

RESULTS

Below, we will consider how to insert a graph of functions in the **MATLAB** software complex using the capabilities of computer software [4, 7, 8, 9].

Graphing a function in **MATLAB** is very convenient. For this purpose, the program of the function to be solved is created using the syntax of the **MATLAB** programming language, and the graph of the function is constructed using the plot function of **MATLAB**. It is also possible to observe the process of changing the graph of the function. For this *plot* function instead of *comet* function is used. To reduce the rate of change of the trajectory of the graph, the step of changing the value of the argument should be taken very small.

MATLAB's *plot* function can take many different forms depending on the input parameters. For example, *the plot(y)* function produces a graph against the element of *y*, while *the plot(x,y)* function produces a graph of the dependence of *y* on *x*.

For example, $y(x)=\sin(x)$ the function $x = [0, 2\pi]$ To construct an interval graph, the equation is written in the **MATLAB** programming language and the

program is inserted into the **Command Window** part of the **MATLAB** program screen . This is done in the following sequence.

1. The lower limit, the step of change and the upper limit of the argument value are given:

```
>>t = [0: pi /100 : 2* pi ];
```

2. The formula for calculating the value of the function is entered:

```
>>y = sin( t );
```

1. The plot function is used to construct the graph , i.e

```
>>plot ( t,y )
```

The result is the following subroutine:

```
>>t = [0: pi /100 : 2* pi ];
```

```
>>y = sin( t );
```

```
>>plot ( t , y )
```

and the graph of the function appears on the computer screen (Fig. 1) .

The number of graphs increases with the number of parameter pairs of **MATLAB** 's *plot* function. Using this feature of the function, the roots of two functions can be graphically compared. For this, it is necessary to construct the graph of the functions on one coordinate axis. For example, the following $f(x) = e^{-0.1x} \sin^2 x$ and $g(x) = e^{-0.2} \sin^2 x$ we will build the following program to construct the graph of the functions in the interval $[-2\pi, 2\pi]$ and compare them.

```
>>x = [-2* pi:pi / 20:2* pi ];
```

```
>>f = exp (0.1* x ).* sin(x).^2;
```

```
>>g = exp (-0.2* x ).* sin(x).^ 2;
```

```
>>plot ( x, f, x, g )
```

The result of the program is shown in Figure 2.





Figure 1. $y(x)=\sin(x)$ the graph
of the function

Figure 2. $f(x) = e^{-0.1x} \sin^2 x$ and
 $g(x)=e^{-0.2} \sin^2 x$ the graph of functions

MATLAB automatically labels the graphs in different colors. The user can also define its color, line and marker type to differentiate the graphs. For this:

`plot (x, f, 'color_linetype_marker')`

command is used. Graphic colors - *c*, *m*, *y*, *r*, *g*, *b*, *w* and is defined as *k*. Here *cc* cyan, *mm* aroon, *yy* ellow, *r-r* ed, *g-g* reen, *b-b* lue, *w-w* hite and *k* - blac k.

Graph line types (“-“, “—“, “:“, “-.”) and data intersection points (“.”, “+”, “*”, “o”, “x”) with special commands can be reflected.

For example, the first curve of the graph generated using *the plot (x, f, 'b-+', x, g, 'r:x')* command is blue, continuous, the data intersection point is represented by '+', the second curve is red in color, dotted, data intersection point is represented by 'x' (Figure 3). That is,

```
>>x = [-2*pi:pi/20:2*pi];
>>f = exp(0.1*x).*sin(x).^2;
>>g = exp(-0.2*x).*sin(x).^2;
>>plot(x, f, 'b-+', x, g, 'r:x')
```




Figure 3. Representation of graphics in different colors and types

Some characteristics catch up for Special functions of **the MATLAB** system can be used. For example, **pole()**, when analyzing the links of the system in the subject "Theory of Automatic Control", **zero()**, **step()**, **impulse()**, **nyquist()** and similar special functions of **the MATLAB** system are used to construct dynamic and frequency characteristics [4-13].

Let's see how some of these functions are used in practice. Let the transfer function of the analyzed system be given:

$$W(s) = \frac{b_0s + b_1}{a_0s^3 + a_1s^2 + a_2s + a_3} = \frac{s + 2}{3s^3 + 4s^2 + 5s + 3}$$

1. Using the **tf** (*Transfer Function*) constructor in the MATLAB program, we create an LTI (Linear Time Invariant systems) - object (linear stationary dynamic systems) model.

```
>> n=[1 2];
>> d=[3 4 5 3];
>> sys = tf (n, d)
```

The result is an LTI-object based on the transfer function of the system :

Transfer function:

s + 2

-

3s³ + 4s² + 5s + 3

2. We determine the poles of the transfer function: **pole(sys)** .

```
>> pole(sys)
ans =
-0.2639 + 1.0825i
-0.2639 - 1.0825i
-0.8055
```

3. We define the zeros of the transfer function: **zero(sys)** .

```
>> zero(sys)
ans = -2
```

4. We construct the reaction of the system to a step signal (transition graph): **step(sys)** (Fig. 4).

5. We construct the reaction of the system to an impulse signal (impulse transition process graph): **impulse(sys)** (Fig. 5).




Figure 4. Characterization of the transition process of the system




Figure 5. Characterization of the impulse transition process of the system

6. We construct the logarithmic frequency characteristics (Bode diagram) of the system: **bode(sys)** (Fig. 6).

7. We construct the amplitude-phase-frequency characteristic (Nyquist diagram) of the system: **nyquist(sys)** (Fig. 7).




Figure 6. Logarithmic frequency characteristics of the system




Figure 7. Amplitude-phase-frequency characteristic of the system

It can be seen from the above that conveying information to the student by modeling complex systems through computer programs allows to explain and remember a large amount of information in a short period of time.

DISCUSSION

By using the capabilities of computer programs in the educational process, by expanding the possibilities of forming a science information base and providing

information to students, it leads to a change in the quality of didactic requirements for teaching tools and textbooks. Formation of modern information technology environment in education leads to informatization of science fields, intellectualization of educational activities, acceleration of integration processes, improvement of educational system infrastructure and its management mechanisms [14,15,16]. Modeling of complex flows using computer programs is the basis for the formation of a comprehensive thinking framework of students in the future.

CONCLUSION

Development of methods of effective use of information communication technologies and their software in higher education institutions is the basis for creation of mechanism of electronic textbooks, virtual laboratories, distance courses. As a result of the implementation of the developed methodology in higher education:

- a system of effective use of information communication technologies and their software will be created;

- modern teaching tools - electronic textbooks, virtual laboratories, distance learning courses current teaching system is created.

REFERENCES

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузаси//Халқ сўзи, 2017 йил 16 январ.
2. Д.Тожибоев Махсус фанларни ўқитиш методикаси. -Т.:, -2007, 358 б.
3. Р.Ҳамдамов, У.Бегимқулов, Н.Тайлоқов Таълимда ахборот технологиялари. -Т.:,-2010, 120 б.
4. Igamberdiyev, X.Z., Sevinov, J.U. Boshqarish nazariyasi. OUY lar uchun darslik. -Т.:”Fan va texnologiya”, 2018й. -336 б.
5. Juraev, A. K., Jurayev, F. D., Eshkobilov, S. B., Ibragimov, B. S., & Norboev, O. N. (2023). Nonlinear control object identification problems: Methods and approaches. In E3S Web of Conferences (Vol. 392, p. 02043). EDP Sciences.
6. Жураев, А. Х., & Тожибоев, С. Ж. Ў. (2022). СИМУЛЯТОР ДАСТУРЛАРИДАН ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ФОЙДАЛАНИШ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5), 557-565.

7. Маллаев, А.Р. MATLAB пакетида чизиқли автоматик бошқариш тизимларининг турғунлигини аниқлаш. Инновацион технологиялар журналы, 2012, №3, 13-18 б.
8. Маллаев, А.Р. Matlab дастурида динамик моделлар таҳлили. Инновацион технологиялари журналы, 2014, №2. 65-70 б.
9. Маллаев, А.Р., Жўраев, Ф.Д. Операцион ҳисоб усулида тасвир функция хоссалари ва ёйиш теоремасининг аҳамияти. Инновацион технологиялари журналы, 2016, №3, 64-70 б.
10. Mallaev, A.R., Sharipov, G.K., Sodikov, A.R., Zhovliev S.M. Mathematical modeling of dynamics formation of hydrates at pipeline natural gas transport. International Journal for Innovativa Engineering and Management Research. Vol 10, Issue 4, April 2021, pp: 31-35.
11. A.R.Mallayev, S.N.Xusanov, J.U.Sevinov Algorithms for the synthesis of stabilizing state controllers for discrete objects based on linear matrix inequalities. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology Vol. 8, Issue 3, March 2021, pp: 16979-16986.
12. Maxmadiyev, B.S., Ochilov, M.A. Visualization of events and systems in MatLab system. Евразийский союз ученых (ЕСУ), 2019, № 5 (62), 54-57.
13. Махмадиев, Б.С., Маллаев, А.Р., Динамик тизимларни компьютерли моделлаштиришда MatLAB/Simulink муҳитидан фойдаланиш. Технологик жараёнлар ва ишлаб чиқаришларни автоматлаштириш ва оптималлаштиришнинг долзарб муаммолари. Халқаро илмий-техникавий конференция маърузалари тўплами. Қарши, -2017, 66-71 б.
14. А.Х.Жураев. Таълим тизимида педагогик дастурий воситаларни жорий этиш афзалликлари. ЎзМУ хабарлари журналы. 1/1-сон 2020 й. 85-89 бетлар.
15. Xoliqulovich, J. A. (2023). The use of matlab in teaching the process of automatic temperature adjustment in higher education institutions. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(2), 351-356.
16. Juraev, A. K. (2023). APPLICATION OF MATLAB PROGRAMS IN TEACHING THE FIELD OF AUTOMATION OF TECHNOLOGICAL PROCESSES. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(2), 490-496.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Beknazarova Xadicha Suyunova

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuv, boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda didaktik o'yinlardan foydalanishning ahamiyati, dars jarayonida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar, ularning turlari va qo'llash tartibi haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *zamonaviy ta'lim, didaktik o'yin, dunyoqarash, aqliy faoliyat, o'yin turlari, o'yin bosqichlari, motiv, ishtiyoq.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье изложены современные подходы к образовательному процессу, значение использования дидактических игр в повышении эффективности начального обучения, дидактические игры, используемые в процессе урока, их виды и порядок применения.

Ключевые слова: *современное воспитание, дидактическая игра, мировоззрение, умственная деятельность, виды игр, игровые этапы, мотив, страсть.*

ABSTRACT

This article describes modern approaches to the educational process, the importance of using didactic games in improving the effectiveness of primary education, didactic games used in the lesson process, their types and order of application.

Keywords: *modern education, didactic game, worldview, mental activity, types of games, game stages, motive, passion.*

KIRISH

O'yin faqatgina vaqtning o'tishi yoki bolalar uchun shunchaki bir odatiy hol emas. O'yin davomida bolaning dunyoqarashi va fikrlash qobiliyati rivojlanib boradi. Birinchi sinfga qabul qilinib, maktab ostonasiga ilk qadam qo'ygan bolaning faoliyatida ham o'yin asosiy o'rinda turadi. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchi faoliyatidan o'yinni siqib chiqarmasdan maqsadga muvofiq foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'limni didaktik o'yinlarsiz tasavvur qilishimiz qiyin.

Boshlang'ich ta'limda motivlar hosil qilishda didaktik o'yinlarning o'rni beqiyosdir. O'yinsiz tom ma'nodagi aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas. O'yin o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg'otadigan uchqundir. O'yin boshlang'ich sinf o'quvchilarda ma'lum sifatlarni shakllantirish uchun kattalar – o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar tomonidan qo'llaniladigan usul. O'yin vositasida o'quvchilarning bilim o'zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil predmetlar bilan munosabatda bo'lishga o'rganadi, shuningdek, ularda muomala madaniyati shakllanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'yin vositasida bolaning shaxsi shakllanadi, unda kelgusida o'quv va mehnat faoliyatini tashkil etish va insonlar bilan munosabatga kirishishga oid ruhiy xususiyatlar shakllanadi. O'yin orqali bolalar borliqni o'rganadi va dunyoni o'zgartirishga harakat qiladi. Shunday qilib o'yin inson faoliyatining shakllanishiga asos soladi. O'yinda inson borliqni aks ettirish qobiliyatini namoyon qiladi. O'yinning eng muhim ahamiyati shundaki, unda ilk bor bolaning dunyoga ta'sir etish ehtiyoji paydo bo'ladi va shakllanadi. Maktab yillarida o'yin shakllari yanada kengroq rivojlanadi. O'quvchilarning o'yin faoliyati juda ko'p soha olimlarining, ya'ni, faylasuflar, sotsiologlar, biologlar, san'atshunoslar, etnograflar, ayniqsa, pedagoglar va psixologlarni qiziqtiradi.

Psixologiyada bola psixikasining rivojlanishida o'yining hal qiluvchi ahamiyatga ega deb qaraladi. Faqat o'yindagina bolada shaxsning hamma tomonlari birlikda va o'zaro ta'sirda shakllanadi. O'yingina bola psixikada rivojlanishning yuqoriroq stadiyasiga o'tish uchun muhim zamin yaratadi. Didaktik o'yin o'rganilayotgan voqea va hodisalarning imitatsion modeli yaratilishi sohasidagi faol faoliyatdir. O'yinning boshqa faoliyat turlaridan muhim farqi shundaki, uning predmeti inson faoliyatidir. Didaktik o'yinda faoliyatning asosiy turi hamkorlikdagi o'quv faoliyatidir.

Didaktik o'yinda o'quvchilarning o'zlashtirishini hisobga olgan ta'limiy vazifalarning bo'lishi muhimdir. Rahbarlik qiluvchi kattalar didaktik o'yinlarning u yoki bu shaklini yaratar ekan, uning bolalar uchun qiziqarli va ular diqqatini to'playdigan turlariga e'tibor qaratishlari lozim. Didaktik o'yinlarning boshqa faoliyat turlaridan farqlanadigan muhim belgilari uning tarkibi qat'iyligidir. Didaktik o'yinlarning tarkibiy komponentlari quyidagilar: o'yin mantiqi, o'yinning harakati, o'yin qoidasi. O'yin mantiqi asosan uning sarlavhasida aks etadi. O'yin harakati jarayonida o'quvchilarning bilish faolligini oshirishga, o'quvchilarning o'z qobiliyatini namoyon qilishiga, o'yin maqsadiga erishish uchun o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini qo'llashga imkoniyat yaratiladi.

Chex pedagogi Y.A.Komenskiy o'yinni bola faoliyatining asosiy shakli ekanligini ta'kidlab, aynan o'yin bolaning tabiati va qiziqishlariga mos kelishini aytgan edi. Olim o'yin bolaning aqliy qobiliyatlarini har tomonlama o'stirishi, uning atrof-tevarak haqidagi tasavvurlarini kengaytirishi, nutqini o'stirishini ta'kidlaydi. Shuningdek, tengdoshlari bilan birgalikdagi o'yin uni tengdoshariga yaqinlashtiradi. Bolalar tarbiyasida didaktik o'yinlardan ikki yo'nalshda foydalaniladi: Barkamol insonni shakllantirish va tor didaktik maqsadlarda

Hozirgi davrda pedagoglar tomonidan tayyor mazmun va qoidalarga ega bo'lgan o'yinlar yaratilmoqda. Bola shaxsida ma'lum sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan o'yinlarda aniq qoidalar berilgan bo'ladi. Tayyor qoida va mazmunga ega bo'lgan o'yinlarga quyidagi xususiyatlar xos bo'ladi:

- o'yin g'oyasi va vazifasi o'yin ta'sirida amalga oshiriladi;
- o'yin g'oyasi (yoki vazifasi) va o'yin ta'siri o'yin mazmunini tashkil etadi;
- o'yin ta'siri va o'ynayotganlar munosabatlari o'yin qoidasi asosida boshqariladi;
- qoidalar va tayyor o'yin mazmuni o'quvchilarni o'yinni mustaqil tashkil etishlariga yordam beradi.

Didaktik o'yinlarni uch turga ajratish mumkin: og'zaki, so'zlar yordamida o'ynaladigan o'yinlar; o'yin mashg'ulotlari; mashq(harakatli) o'yinlar. Didaktik o'yinlar uchun o'yin g'oyasi va o'yin vazifalari muhim ahamiyatga ega. Didaktik o'yinning eng muhim elementi uning qoidasi hisoblanadi. Qoidani bajarish jarayonida o'yin mazmuni amalga oshadi. Qoidaning mavjudligi o'yin ta'sirini amalga oshirish va o'yin vazifasini qo'llashga yordam beradi. Qoidani bajarish jarayonida o'yin mazmunini amalga oshirish dunyoqarashi shakllanib boradi.

Didaktik o'yinda o'quvchi qoidalarga rioya qilishga o'rganadi. Chunki qoidalarga rioya qilish o'yin muvaffaqiyatini ta'minlaydi. O'yinda qatnashish jarayonida ijobiy xulqiy sifatlar, tashkilotchilik qobiliyati shakllanadi.

Foydalanilgan material turlariga qarab ham didaktik o'yinlarni uch turga ajratish mumkin: predmetli o'yinlar, stol ustida o'ynaladigan o'yinlar, so'zlar vositasida o'ynaladigan og'zaki o'yinlar.

Predmetli o'yinlar – xalq didaktik o'yinchoqlari, turli tabiiy mozaika materiallari yordamida o'ynaladigan o'yinlar. Bular yordamida o'qituvchi o'yin turlarini belgilaydi. Masalan, tabiiy materiallar bo'laklaridan butun manzarani hosil qilish,

Stol ustida o'ynaladigan o'yinlar atrof-muhit haqidagi tasavvurlarning kengayishiga, o'quvchilarni bilimga qiziqtirishga, tafakkur jarayonlarini(analiz, sintez, umumlashtirish, tasniflash va b.) rivojlantirishga xizmat qiladi. Stol ustida

o'ynaladigan o'yinlarning bir necha turlari mavjud: o'xshash suratlar, loto, domino, kesma suratlar, taxlama kubiklar.

So'zlar vositasida o'ynaladigan og'zaki o'yinlar. Bu o'yinlar guruhiga juda katta xalq o'yinlari, ya'ni "Zanjir", "Noto'g'ri jumla", "Bo'lishi mumkin emas", "Tez aytish", "Topishmoqlar", "Aytishuvlar" va shu kabi og'zaki nutq bilan bog'liq o'yinlar kiradi. Bunday o'yinlar diqqatni, xotirani rivojlantiradi, o'quvchilarni fikrlarini to'plashga, tez fikrlashga, bog'lanishli nutqqa, mantiqiy fikrlashga o'rgatadi.

Didaktik o'yinlar bir necha bosqichlarga bo'linadi. Har bir bosqichda bolaning ma'lum bir imkoniyatlari namoyon bo'ladi. O'qituvchining bu bosqichlar xarakterini bilishi didaktik o'yinlarning samaradorligini aniqlashda katta ahamiyatga ega.

Birinchi bosqichda bolada o'ynash ishtiyoqi paydo bo'ladi va o'yinda faollik ko'rsata boshlaydi. Ana shu bosqichda bolani o'yinga qiziqtirish maqsadida topishmoqlar, tez aytishlar, aytishuvlar yoki suhbatlar tashkil qilish mumkin.

Ikkinchi bosqichda bola o'yin topshiriqlarini bajarish, qoidaga rioya qilishga o'rganadi va o'yinda qatnashishga kirishadi. Bu bosqichda bolalarda to'g'riso'zlik, maqsadga erishishga astoydil kirishish, irodaviylik, o'yinda yutqizish alamini ham yengabilish, o'z muvaffaqiyatidagina emas, o'rtoqlari muvaffaqiyatidan ham quvonabilish kabi ijobiy sifatlar shakllanadi.

O'yinning uchinchi bosqichida bola o'yin qoidalarini yaxshi biladi. U endi o'yinga ijodiy yondoshadi, o'zi yangiliklar kiritadi, mustaqil ijodiy izlanadi. O'yinda qatnashish jarayonida u tez javob topish, yashirish, izlash, yugurish, tasvirlash va boshqa shu kabi vazifalarni bajaradi.

O'yinning har bir etapi ma'lum bir pedagogik vazifalarni o'z ichiga oladi. O'yinning birinchi bosqichida pedagog bolalarni o'yinga qiziqtiradi, ularda xush kayfiyat, yangi o'yinlarni kutishga ishtiyoq uyg'otadi. ikkinchi etapida esa u o'yinni kuzatuvchi emas, balki qatnashchisi sifatida faoliyat ko'rsatadi, o'yin davomida bolalarga tez yordamga keladi, bolalarning faoliyatiga to'g'ri baho beradi. O'yinning uchinchi etapida o'qituvchi bolalarni o'yin davomidagi ijodkorligi va faolligiga baho beradi.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarda mustaqil fikrlashni tarbiyalashning eng to'g'ri va samarali metodidir. U ma'lum bir materiallar yoki shart-sharoitlarni talab etmaydi, balki o'qituvchidan o'yinni tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarni talab etadi. O'yinning ma'lum bir tizim va metodika asosida tashkil etilishigina o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatini tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. O'yin mashg'ulotlari ta'lim jarayonida o'quvchilarning egallangan bilim, ko'nikma va malakalariga tayanadi va shundagina o'quvchilar o'yinning samarali yechimlarini topadilar, o'zlari

va atrofdagilarga talabchanlik namoyon qiladilar. O'yindan ta'lim shakli sifatida foydalanish o'qituvchidan o'ziga ishonch va o'yinni qo'llashda mohirlik talab etiladi.

Didaktik o'yinlar bir qancha vazifalarni bajaradi:

ta'limiy, tarbiyaviy (o'quvchi shaxsiga ta'sir ko'rsatadi, tafakkurini rivojlantiradi, dunyoqarashini kengaytiradi);

qo'llanuvchanlik (aniq vaziyatda har qanday o'quv topshiriqlarini bajarish uchun bilimlarni qo'llay bilish.);

motivni qo'zg'ash, qiziquvchanlikni oshirish (o'quvchilarni bilish faoliyatiga qiziqtiradi, rag'batlantiradi, bilish qiziquvining rivojlanishiga yordam beradi).

O'qituvchilar tajribasida qo'llaydigan ba'zi didaktik o'yinlardan misollar keltiramiz:

a) O'yin - mashq. Bu o'yin guruhda, yoki jamoada birgalikda qo'llanishi mumkin. Lekin bu o'yin individuallashtirilgan. Ya'ni har bir o'quvchining o'z bilimi va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon beradi. Bu o'yindan darsni mustahkamlash yoki o'quvchilar bilimni nazorat qilish maqsadida ham foydalanish mumkin. Masalan "Adashgan harfni toping". Bir necha o'rganilgan harflar qo'yilib orasida bitta o'rganilmagan harf ham aralashtirib qo'yiladi. O'quvchilar o'rganilgan harflarni ongida tiklab o'rganilmagan harfni topib o'qituvchiga ko'rsatadilar.

b) Ijodiy izlanish o'yini. Bunda o'qituvchi hikoyadagi noto'g'ri gapni topish yoki hikoya mazmuniga mos bo'lmagan gapni topishni aytadi. O'quvchilar izlanadilar va bunday gapni topib, nega ortiqchaligini isbotlaydilar. Bunday o'yinlar ko'p vaqtni olmaydi, maxsus jihozlarni talab etmaydi, lekin yaxshi natija beradi.

v) O'yin - musobaqa. Bunda o'yinda qatorlararo musobaqalar tashkil etilishi mumkin. Shuningdek, viktorinalar, turli konkurslar, olimpiadalar kiradi. Bunday o'yinlarni darsda va sinfdan tashqarida ham o'tkazish mumkin.

g) Mazmunli – rolli o'yinlar. Bu o'yin o'quvchilar darsda o'qituvchi belgilagan maqsadga muvofiq hikoyalar yoki ertaklardagi qahramonlar rolini o'ynaydilar, yoki davra stoli tashkil etib turli rollarni bajaradilar. Masalan, muxbir, tarixchi, qishloq xo'jaligi xodimi va b. Bunday o'yinlar bolalarda bilimga qiziqish uyg'otadi, ularni ijodiy izlanishga undaydi, shuningdek, kasblar bilan tanishuvlariga yordam beradi.

d) Bilishga doir o'yinlar - sayohat. O'quvchilar O'zbekiston va boshqa mamlakatlar haqidagi bilimlarga ega bo'lganlaridan keyin bilimlar yurtiga "sayohat" o'tkazish mumkin. Sayohat davomida o'quvchilarga yangi bilimlar ham beriladi, ularning bilimlari tekshirilib ham ko'rilishi mumkin. Bu mustahkamlash – umumlashtirish darslarida tashkil qilinsa yanada samarali bo'ladi, o'quvchilarning

ma'lum bir bo'limni qanday o'zlashtirganlari haqida o'qituvchi tasavvurga ega bo'ladi.

O'quvchilarni fanning yangi yutuqlari bilan tanishtirish o'quv dasturlari doirasini kengaytirish ularni ilmiy, ijodiy izlanishlar doirasi bilan tanishtirish o'quvchilarning bilishga qiziqishlarini oshiradi. Hamma o'quv materiallari ham o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lavermaydi. Bunday hollarda bolalarni ta'lim jarayoniga qiziqishini oshirishning birdan bir yo'li didaktik o'yinlardan foydalanish va ularni tashkil etishdir. O'quvchilarda o'qishga ishtiyoqni oshirish uchun ularni ta'limga qiziqtirish lozim. Buning uchun esa o'quvchi ta'lim jarayonidan qiziqarli tomonlarni topishi va bu jarayon o'z ichiga o'quvchini qiziqtiradigan materiallarni olishi lozim. Buning yo'li ta'lim jarayoniga didaktik o'yinlarni kiritishdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yo'ldoshev J.G'. "Ta'lim yangilanish yo'lida".– T.: O'qituvchi. 2000.
2. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. Toshkent, 2008 y.
3. Sayidahmedov. N. Yangi pedagogik texnologiyalar.T., "Moliya", 2003.
4. Mirzayev J.O., Beknazarova X.S. Yakubova G.L. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida miqdoriy tushunchalarni shakllantirish usullari. Research And Education. 2023/11/30 295-299 betlar.
5. Mirzayev J.O., Ergasheva M., Aniq fanlarni o'qitishning muammolarini nazariy va amaliy ahamiyati. Interpretation and researches. 2024/2/18

ПОЙТАХТ ВА ЙИРИК ШАҲАРЛАРДА ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ БЎЙИЧА ИЛҒОР ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАР ТАҲЛИЛИ

Ташпулатов Азиз Анварович,
ИИБ Академияси мустақил изланувчиси

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Пойтахт ва йирик шаҳарларда хавфсизликни таъминлаш бўйича илғор хорижий тажрибалар таҳлили. Бу борада тадқиқот олиб борган ҳуқуқшунос олимлар ҳам хориж тажрибасини ўрганиш жамиятни ривожлантиришнинг муҳим йўналишларни белгилаб олиш, башариятнинг узоқ тарихий тараққиёти жараёнидаги янглишувлар ва хато ёндашувларга қайта йўл қўйилишининг олдини олиш имконини беришини қолаверса, хорижий давлатларнинг тажрибасини синчковлик билан ўрганиш ва жорий этишда ҳар бир мамлакатнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олиш лозимлигини таъкидлаган.

***Калим сўзлар:** Йирик шаҳарлар, хавфсизлик, механизм, ҳуқуқбузарлик, профилактика, гайри ижтимоий хулқ-атворга қарши курашиш.*

ABSTRACT

In this article, the analysis of advanced foreign experiences in the provision of security in the capital and large cities. Legal scholars who have conducted research in this regard also add that the study of foreign experience makes it possible to determine the important directions of the development of society, to prevent mistakes and erroneous approaches in the process of the long historical development of mankind. noted that the characteristics should be taken into account.

***Key words:** Big cities, security, mechanism, crime, prevention, fight against anti-social behavior.*

КИРИШ.

Мамлакатимиз Президенти Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек, «бугунги кунда ички ишлар органлари фаолияти самарадорлигини ошириш учун ривожланган хорижий давлатларнинг илғор тажрибасини чуқур ўрганган ҳолда, амалий фаолиятга янгича иш услублари ва механизмларини, хусусан, рақамли технологияларни кенг татбиқ этиш вазифасига алоҳида эътибор қаратишимиз лозим».

Бу борада тадқиқот олиб борган ҳуқуқшунос олимлар ҳам хориж тажрибасини ўрганиш жамиятни ривожлантиришнинг муҳим йўналишларни белгилаб олиш, башариятнинг узоқ тарихий тараққиёти жараёнидаги

янглишувлар ва хато ёндашувларга қайта йўл қўйилишининг олдини олиш имконини беришни қолаверса, хорижий давлатларнинг тажрибасини синчковлик билан ўрганиш ва жорий этишда ҳар бир мамлакатнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олиш лозимлигини таъкидлаганлар.

Д.В. Васильевнинг фикрича, жиноятчиликка қарши курашишда хориж тажрибасини ўрганиш жамиятни ривожлантиришнинг муҳим йўналишлари ва йўллари белгилаб олиш, башариятнинг узоқ тарихий тараққиёти жараёнидаги янглишувлар ва хато ёндашувларга қайта йўл қўйилишининг олдини олиш имконини беради²⁷⁵.

АҚШ полиция патруль хизматининг вазифалари жуда мураккаб бўлишига қарамай, унда хизмат қилувчи ходимлар полициянинг энг қуйи бўғини сифатида бевосита жамоатчилик билан ҳамкорликда иш олиб бориши сабабли бошқа полиция ходимларига нисбатан аҳолининг муаммоларини самарали ҳал этиш имконига эга эканлигини таъкидлайдилар. Мамлакатда полиция шахсий таркибининг ярми патрулик хизмати билан банд бўлиб, тизим учун ажратилган пул маблағларининг 40 фоизи уларга сарфланиши унинг полиция тизимида муҳим ўрин тутишини кўрсатади. АҚШ полиция тизимидаги патруль ходимларини хизматга жалб этишда вақт ва ҳудуднинг жўғрофий белгилари ҳисобга олинади ҳамда хизматни ташкил этишда турли хил ахборот-дастурий тизимларидан фойдаланилади.

Америка Қўшма Штатларида – маъмурий ҳудудларда жамоат тартиби ва хавфсизлигини таъминлаш бўйича дунёда ўзига хос тизим ва илғор тажрибага эга бўлган давлат. АҚШ тарихий ривожланиши мамлакатда полициянинг уч босқичли тизимини шакллантирди. Булар: федерал, индивидуал ва маҳаллий даражадаги полиция органлари бўлиб, уларнинг орасида маҳаллий даражадаги полиция тизимининг асоси, яъни энг катта қисми (60 фоизи)ни ташкил этади ҳамда аҳоли билан доимий бевосита алоқада бўлади. АҚШ полиция тизимини ўрганган ҳуқуқшунос олим Д.Д.Шалягин – мазкур тизимнинг Европа давлатлари полиция тизимларидан асосий фарқини унинг «пастдан тепага» принципи асосида ташкил этилганида, деб кўрсатса, П.Н.Курлович давлатнинг ҳуқуқни муҳофаза қилиш тизими даражалари ўртасида иерархия ва бўйсунувчи алоқанинг йўқлиги ва ўзига хос мураккаблигига қарамай, унинг барча

²⁷⁵ *Васильев В.Д.* Концепции организации деятельности полиции и возможности их использования в отечественной практике: По материалам США и некоторых стран Западной Европы: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2005.

бўлинмалари муайян масъулият асосида фаолият юритувчи ихтисослашган бўлимлар эканлигини таъкидлайди²⁷⁶.

АҚШда 40 мингдан ортиқ полиция идора-агентликлари бўлсада, мамлакатда уларнинг бошқарилишини мувофиқлаштириб борувчи марказий полиция идораси мавжуд эмас. АҚШда жамоат тартибини сақлаш ва хавфсизликни таъминлаш, жиноятчиликка қарши кураш вазифалари асосан штатларга юклатилган²⁷⁷.

Электрон криминологик хариталар АҚШ полиция бўлинмалари ишида кенг қўлланилади. Ҳар бир полиция ходимининг автомобилида патруллик қиладиган ҳудуднинг ўрнатилган электрон харитасига эга ноутбуклар мавжуд (пиёда ходимларда планшет). Бу хариталардаги маълумотлар ўз вақтида ва тез ўзгариб боради. Мисол учун, Шерифнинг офисидаги 911 қисқа рақамга фуқаро қўнғирок қилиб, қуролланган шахс томонидан таҳдид бўлаётганлигини маълум қилса, ушбу маълумотнинг бевосита локацияси аниқланади ва автоматик тарзда ҳудудда хизмат олиб бораётган барча полиция ходимларининг ноутбук ва планшетларида таъминланади. Бунинг натижасида уларга дарҳол патруллик йўналишлари ва хизмат олиб бораётган жойларининг криминоген вазиятдан келиб чиққан ҳолда, ўзгартирилган чизмалари юборилади ҳамда барча куч ва воситаларнинг эътиборини ушбу нуқтага қаратади. Заруратдан келиб чиқиб, харитада кўрсатилган бу нуқтага яқин жойлашган барча патрул автомобиллари дарҳол воқеа жойига юборилади²⁷⁸.

Буюк Британия полицияси томонидан АҚШнинг Мемфис шаҳрида илгари синовдан ўтган “Crush intelligent analysis” технологияси ўзлаштирилмоқда. Мазкур дастурий таҳлилнинг дастлабки синовлари натижасида шаҳарда умумий жиноятчилик даражасининг 31% га ва зўравон жиноятлар сонининг 15% га камайишига олиб келган.

Буюк Британияда (“Oasis”) intellectual analytics) деб номланган дастурий таъминотдан фойдаланилади. Ушбу дастурий таъминотнинг асосий мақсади, жазони ижро этиш муассасаларидан озод этилаётган шахсларнинг янгидан жиноят содир этиш эҳтимоли борлигини олдиндан башорат қилишдир. Ушбу прогноз қилиш жараёнида уларнинг яшаш жойи, таълими, одамлар билан бирга бўлиш қобилияти, даромад даражаси ва бошқалар ҳисобга олинади.

²⁷⁶ Умирзаков С.С. (2022). Жамоат тартибини сақлашда патруль-пост хизмати ходимларини иш самарасини оширишнинг замонавий қурилмалардан фойдаланиш (хориж тажрибаси мисолида). *Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali*, 1(4), 15-19.

²⁷⁷ Майоров В.И. Организация деятельности по охране общественного порядка в США, странах Европы и России: Учебное пособие. – Челябинск, 2003. – С. 17

²⁷⁸ Абдуллаев О.Т. (2022). Криминоген вазияти мураккаб бўлган ҳудудларда ички ишлар органлар фаолиятини ташкил этиш ва бошқаришда хорижий тажриба. *Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali*, 1(6), 68-71.

Лондонда 2014 йилдан буён жиноятларни олдиндан башорат қилишга мўлжалланган “Precrime” деб номланган дастурий тизим амалиётга жорий этиб келинмоқда. Тизимнинг ишлаб чиқувчиси Accenture компанияси бўлиб, у ўз эътиборини уюшган жиноий гуруҳлар томонидан содир этилаётган жиноятларни олдини олишга қаратган.

Мазкур тизим Лондоннинг барча 32 туманида жойлаштирилган бўлиб, полиция томонидан тўплаган маълумотлардан келиб чиққан ҳолда автоматик тарзда статистик таҳлилни амалга оширади ва содир этилиши мумкин бўлган жиноятларнинг жойи, вақти ва бошқа хусусиятларини башорат қила олади²⁷⁹.

Германияда жамоат тартибини сақлаш ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ҳамда жиноятчиликка қарши курашда йўлга қуйилган эътиборга молик жиҳатларга тўхталсак. Хусусан, Германияда жамоат тартибини сақлаш ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноят-чиликка қарши курашишда фуқароларнинг имкониятидан кенг фойдаланиш амалиётининг мавжудлиги диққатга сазовордир. Мазкур амалиётга кўра, ҳар қандай ҳуқуқбузарлик, шу жумладан ғайри ижтимоий хулқ-атворнинг гувоҳи бўлган Германия фуқаролари бу ҳақида дарҳол давлат органларига телефон орқали оғзаки, электрон кўринишда хабар беради. Хабар асосида тезкор профилактик чоралар кўрилиб, натижаси ҳақида фуқарога маълум қилинади.

Мазкур тадбирларни амалга ошириш учун «Neighborhood watch» (Кўшнининг кузатуви), «Crimestoppers («Жиноятни тўхтатувчилар), «Crimeprevention throughen vironment design (broken window)» (Ҳуқуқбузарликлар профилактикасини ташқи муҳитдан кузатув остига олиш (синиқ ойналар)), «Safety City» (Хавфсиз шаҳар) каби дастурлар ишлаб чиқилиб, амалиётга самарали татбиқ этиб келинмоқда²⁸⁰.

Франция полиция тизими юқори даражада марказлашган бўлиб, миллий полиция ва жандармериядан таркиб топган. Мамлакатда давлат полиция тартиботи ўрнатилган аҳоли пунктларида полиция хизмат олиб боради, бошқа барча ҳудудларда жамоат тартиби ва хавфсизлигини таъминлаш учун жандармерия жавобгар ҳисобланади. Шунингдек, давлатда учинчи полиция кучи – Давлат хавфсизлик полицияси ҳам мавжуд бўлиб, у оммавий тадбирлар ўтказилганда ва оммавий тартибсизликлар юзага келганда жамоат тартибини сақлашда иштирок этувчи миллий полиция таркибидаги ҳарбий қисм

²⁷⁹ *Абдуллаев О.Т.* (2022). Криминоген вазияти мураккаб бўлган ҳудудларда ички ишлар органлар фаолиятини ташкил этиш ва бошқаришда хорижий тажриба. *Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali*, 1(6), 68-71.

²⁸⁰ *Расулев У.* (2024). Жамоат тартибини сақлаш ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш муҳим вазифа: миллий ва хорижий тажриба. *Евразийский журнал академических исследований*, 4(2), 190-196.

ҳисобланади. Жандармериянинг энг асосий вазифаларидан бири – жамоат тартиби ва хавфсизлигини таъминлаш бўлиб, бундан ташқари у одамлар ва мулкларнинг хавфсизлигини таъминлайди, тезкор-қидирув ва жиноятларнинг олдини олиш тадбирларида иштирок этади. Қолаверса, ҳукумат, давлат идоралари ва чет эл элчихоналари биноларини кўриқлаш вазифаси ҳам уларнинг зиммасига юклатилган. Шу билан бирга, мамлакатда кўчма жандармериялар фаолияти ҳам йўлга қўйилган бўлиб, уларнинг асосий вазифаси жамоат тартибини сақлаш ва хавфсизлигини таъминлашдан иборат. Францияда патрулик хизмати патруль бўлинмалари томонидан олиб борилади ва уларнинг фаолияти асосан аҳолиси 10 мингдан ошиқ бўлган шаҳарларда ташкил этилади. Патруль бўлинмалари ўз фаолиятини турлича, хусусан автопатруль, мотопатруль, велопатруль, отлик патруль ва пиёда патруль шаклида олиб боради. Полиция патруль бўлинмалари миллий полиция ходимларининг 60 фоизини ташкил этади ҳамда хизматни олиб бориш давомида шаҳар полициясига бўйсунди. Мамлакатда патруль хизмати фаолиятини ташкил этилишининг ривожланиши ва такомиллаштирилиб боришига катта аҳамият қаратилади.

Италияда давлат полицияси тизимларига кирмайдиган ва 10 мингдан ортиқ одам яшайдиган шаҳарларда ташкил қилинган муниципал полиция (Corpo di polizia locale)лар ҳам мавжуд бўлиб, улар ҳокимиятнинг бюджети томонидан молиялаштирилади ва тегишли шаҳар муниципалитетига бўйсунди. Ушбу полиция шаҳарда олиб бориладиган турли оператив-тергов ва бошқа тадбирларда Давлат полициясининг захираси ҳисобланади. Унинг асосий вазифаси ҳудудда жамоат тартибини сақлашда патруль хизматини олиб бориш, шаҳар ҳокимининг буйруқларининг бажарилишини назорат қилиш, бозорларда тартибни сақлаш, аҳоли пунктларини санитария ҳолатини назорат қилиш ва йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлашдан иборат. Ушбу патруль бўлинмалари хизматни пиёда, полицияга мўлжалланган автоуловлар ва мотоциклларда олиб бордилар. Баъзи шаҳарларда улар хизмат итлари ҳамда отлардан ҳам фойдаланадилар.

Испания полиция тизими Конституцияда мустаҳкамланган маъмурий-ҳудудий бўлиниш тамойилларига асосланади. Улар учта даражадан иборат: марказий (миллий полиция), автоном (ҳудудий полициялар) ва маҳаллий (муниципал полиция). Муниципал полиция тузилмалари аҳоли сони 5000дан 20.000 гача бўлган ҳудудларда хизмат олиб боради ва шаҳар ҳокимиятига бўйсунди. Бироқ барча маҳаллий полиция бўлинмалари жиноятчиликка қарши курашиш миллий дастурларида иштирок этади ва уларнинг фаолияти миллий

полициянинг тегишли бошқармалари томонидан мувофиқлаштирилиб турилади. Ушбу даражадаги идораларнинг вазифалари турлича бўлсада, умумий мақсади жамоат тартибини сақлаш ва жамоат хавфсизлигини таъминлашдан иборатдир.

Мамлакатда жамоат тартибини сақлаш ва хавфсизлигини таъминлаш ишларини ҳал қилиш миллий полиция таркибидаги жамоат тартибини сақлаш марказий бошқармасига юклатилган.

Исроил Ички ишлар вазирлиги тизимида Жамоат хавфсизлиги департаменти алоҳида ўрин тутади ҳамда жамоат тартибини сақлаш ва хавфсизлигини таъминлаш фаолияти бевосита ушбу департамент томонидан амалга оширилади. Департамент таркибида патрулик хизматини амалга оширувчи бир қатор таркибий тузилмалар, хусусан саёҳат патруль бўлими, ҳайвонлар (от ва итлар) билан патрулик қилиш бўлими, денгиз патрули бўлими, атроф муҳитни муҳофаза қилиш патруль бўлими мавжуд. Шунингдек ҳудудий полиция органлари таркибида фаолият олиб боровчи патруль хизматлари таркибида жойлашган ҳудуднинг ўзига хос хусусияти билан боғлиқ махсус функцияларни бажарадиган алоҳида бўлинмалар ҳам мавжуд.

Хитой полицияси – 1950 йилда ташкил этилган Жамоат хавфсизлиги вазирлиги марказлашган ва марказлашмаган тизимларга хос хусусиятларни ўзига бирлаштирган гибрид моделга эга. Турли хил полиция хизматларини ўз ичига қамраб олган ва мураккаб тузилмага эга бўлган Хитой халқ полицияси ўз таркибига:

жамоат хавфсизлиги полицияси, криминал полиция, темир йўл полицияси, йўл ҳаракатини назорат қилиш полицияси; камоқхоналар полицияси, дарё ва денгиз полицияси, ўрмонларни ҳимоя қилиш полицияси, божхона полицияси, ҳаво полициясини жамлаган.

Мамлакатда жамоат тартибини ва хавфсизлигини таъминлаш вазифаси вазирликнинг жамоат хавфсизлиги полицияси зиммасига юклатилган Жамоат тартиби ва хавфсизлигини таъминлашда жойларда ташкил этилган Жамоат хавфсизлигини таъминлаш стационар постлари муҳим аҳамиятга эга бўлиб, у бу борада мамлакатдаги бошқа полиция идораларига қараганда кенгрок ваколатларга эга. Постлар жамият ҳаётининг барча жабҳаларини тартибга солишда иштирок этади ҳамда маҳаллий ҳокимият органлари ва прокурорлар томонидан назорат қилинади. Қишлоқ жойларида мазкур постларда бошлик, унинг ўринбосари, кичик маъмурий ходимлар ва кичик полиция ходимлари хизмат олиб боради. Шаҳар жойлари эса уларнинг таркибида бошлик, унинг ўринбосаридан ташқари маъмурий ходимлар ва еттиадан ўн саккизтагача бўлган патруль ходимлари иш олиб боради.

Пекин Йўл ҳаракати назорати маркази 2023 йил 1 май куни фойдаланишга топширилган ва Пекин умумий хавфсизлик бюроси таркибига киради. Марказда 20 нафар полиция ходими ва 16 нафар техник ходимлар кечаю-кундуз хизмат олиб боради.

Марказда йўл ҳаракати хавфсизлигини мониторинг қилиш, йўл ҳаракати қоидаларини бузиш ҳолатлари ва бахтсиз ҳодисаларни “сунъий интеллект” ёрдамида тартибга солиш тизими йўлга қўйилган.

Марказда фаолият олиб бораётган 7 та гуруҳдан 3 таси алоҳида эътиборни жалб этди. Хусусан,

1) *Келиб тушган хабарларни мониторинг қилиш гуруҳи*: аҳоли билан тўғридан-тўғри алоқа қилиш мақсадида ишлаб чиқилган мобиль илова орқали йўлларда ҳаракатда бўлган ҳайдовчи ёки йўловчилардан вужудга келган йўл ҳаракати билан боғлиқ ҳолатлар юзасидан келиб тушаётган хабарларни қабул қилиш ва тизим орқали таҳлилини олиб бориб, зудлик билан ушбу ҳолатларни бартараф этиш бўйича зарурий чораларни кўради.

2) *Ижтимоий гуруҳ*: 24 соат мобайнида телекўрсатувлар, WEB-сайтлар, радиостанциялар ҳамда ягона телефон рақами орқали йўл ҳаракатидаги ҳолатлар (мавжуд тирбандликлар, содир этилган ЙТХ) тўғрисида ижтимоий тармоқ орқали аҳолини хабардор қилиб боради.

3) *Ҳамкорлик гуруҳи*: бошқа хизматлар билан (тез ёрдам, ёнғин хавфсизлиги, коммунал, йўлларни таъмирлаш хизмати ва бошқа идоралар билан) ҳамкорликда хизмат олиб бориб, келиб чиққан вазиятни бартараф этиш бўйича тезкорликни таъминлайди.

Шу билан бирга Марказда мониторинг, бошқарув ва назорат, техник таъминлаш ҳамда бошқарув штаби фаолият олиб боради.

Пекин шаҳар ҳудудида йўл ҳаракати ҳолатини назорат қилиш мақсадида кўп қаватли уйлар ва йўлларда ўрнатилган 160 мингдан ортиқ юқори аниқликдаги ақлли видеокузатув мосламалари орқали шаҳар кўчалари, чорраҳалар ва магистрал йўллардаги ҳуқуқбузарликларни мониторинг қилиб бориш 36 нафар малакали мутахассислар томонидан амалга оширилади²⁸¹.

Пекин кўчаларига ўрнатилган 9 968 та светофор, шундан 3 502 таси марказдаги автоматлаштирилган бошқарув тизимига уланган ва ушбу марказдаги мониторлар орқали ҳар бир светофорнинг шакллантирилган паспорти ва техник ҳолатини назорат қилиб борилади, уларни соз ҳолатини таъминлаш учун 20 та техник бригада фаолияти йўлга қўйилган.

²⁸¹ **Маълумот учун**: Ушбу видеокузатув мосламаларини марказга интеграция қилиш, техник таъминлаш ҳамда трафик харажат тўловлари давлат томонидан ажратилган Хитойнинг бюджет маблағлари ҳисобидан амалга оширилади.

Ўлим билан ва тан жароҳати билан боғлиқ бўлмаган ЙТХларни рўйхатдан ўтказишнинг онлайн мобил илова тартиби жорий этилган бўлиб, бунда ҳайдовчиларнинг хужжатлари ва ЙТХ ҳолатини фото-видео тасвирга олиниб тизимга киритиш ҳамда фуқаро томонидан “110” қисқа рақами орқали марказга муурожаат этиш йўли билан, ҳодиса онлайн равишда расмийлаштирилади ва тирбандлик юзага келишини олди олинади.

Марказда онлайн равишда Пекин шаҳрида ҳаракатланаётган автотраспорт воситалари сони ва белгиланган регламентдан ташқари ҳаракатланаётган автотранспорт воситаларини жаримага тортилиши амалга оширилади²⁸².

Сўнги 2-3 йилда Пекин шаҳрида пиёдалар ўлими ёки оғир тан жароҳати олиш билан боғлиқ йўл-транспорт ҳодисалари қайд этилмаган.

Бунинг асосий сабаблари:

– пиёдалар хавфсизлигини таъминлаш мақсадида ер усти пиёдалар ўтиш йўлаклари қурилган;

– тартибга солинган чорраҳаларда пиёдалар ўтиш йўлакларига ёниб турувчи инновацион мосламалар ўрнатилган;

– пиёдалар оқимини хавфсиз жойга йўналтириш учун йўл қатнов қисмининг ўртасига ва икки четига махсус темир панжаралар ўрнатилган.

Пекин шаҳрида атомобилларнинг йўл бўйи пуллик тўхташ жойлари ташкил этилиб, камералар орқали тартибга солинган.

Маълумот учун, тўхташ жойларида автотранспорт воситасини сақлашнинг дастлабки 15 дақиқаси бепул бўлиб, кейинги дақиқалари пуллик.

Пекин шаҳрида автотранспорт воситалари қайрилиб олиш жойларини камайтириш мақсадида, транспорт кўприклари (йўл ўтказгич)дан фойдаланилган ва бу билан тирбандликларнинг камайишига эришилган.

Тирбандликларини олдини олиш мақсадида янги қурилаётган кўп қаватли бинолар остида камида 3 ёки 5 қаватли автотураргоҳлар қуриш талаби қўйилган.

Японияда жамоат тартиби ва хавфсизлигини таъминлаш полициянинг қуйи бўғинлари – полиция пост ва пунктлари томонидан амалга оширилади. Мамлакатда жамоатчилик билан ҳамкорликни кучайтириш полиция фаолиятини такомиллаштиришга хизмат қилишини яхши тушунган Япония ҳукумати аҳоли турар жойларида полиция пост (Кобан) ва пунктларининг

²⁸² **Маълумот учун:** Пекин шаҳрида ҳафта кунлари кесимда давлат рақамининг сўнги белгилари бўйича ҳаракатланишга тақиқ қўйилган.

Шу каторда оғир турдаги (3.5 тоннадан юқори) юк автомобилларига ҳаракатланиш тақиқланган. Истисно тариқасида тунги пайт 23:00 дан 05:00 гача ҳаракатланишга руҳсат берилган.

Тирбандликни олдини олиш мақсадида автобуслар йўлаклари ташкил этилиб, уларда эрталаб соат 07:00 дан 09:30 ва кечки 17:30 дан 20:00 гача жамоат транспорти ҳаракатланишга руҳсат этилади, қолган вақтларда бошқа транспортлар ҳаракатланиши мумкин.

фаолиятини йўлга қўйишга алоҳида эътибор қаратган. Японияда полиция пост ва пунктларида хизмат олиб боровчи патруль-пост хизмати ходимлари ўзларига бириктирилган ҳудудларда патруллик қилишда доимий равишда ҳар бир оила, корхона, муассаса ва ташкилот билан иш олиб борадилар. Хизмат давомида патруль-пост хизмати ходимлари аҳоли ўртасида профилактик суҳбатлар ўтказиб, уларни керакли ахборот билан таъминлайдилар, шунингдек жамоатчиликнинг полиция фаолиятига доир фикрини ўрганиб борадилар.

Мамлакатда жами ҳибсга олинган ҳуқуқбузарларнинг ўртача 65 фоизи патруль-пост хизмати ходимларининг ҳиссасига тўғри келишини таъкидлайди.

Россия Федерацияси ҳуқуқбузарликлар профилактикасини таъминлаш бўйича ўзига хос тизим яратилган давлатлардан бири ҳисобланади. Мазкур йўналишдаги фаолиятни ташкил этишдаги ижобий тенденциялар 2000 йилдан, яъни Россия ҳаётида шахс, жамият ва давлатни жинсий тажовузлардан ҳимояловчи ишончли, самарали ва хавфсиз тизим яратилмагунча кузатилмайди деган хулосага келингандан бошлаб кузатила бошланган.

Таҳлиллар шуни кўрсатадики, мазкур давлатда ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тизимининг асосий принциплари қуйидагилардан иборат: ушбу соҳадаги норматив-ҳуқуқий базани мустаҳкамлаб бориш; ёшлар ўртасида профилактик ишларни мунтазам таъминлаш; озодликдан маҳрум этиш жойларидан бўшатишган шахслар, шунингдек доимий иш ёки яшаш жойи бўлмаган шахсларни ижтимоий мослаштириш; ҳуқуқ-тартиботни таъминлашда фуқаролик жамияти институтлари ролини ошириш²⁸³.

Аҳоли турар жойларида жамоат тартибини сақлаш ва ҳуқуқбузарликлар профилактикаси билан шуғулланувчи тизимларнинг илғор хориж тажрибасини мамлакатимиз ички ишлар органлари, хусусан патруль-пост хизмати фаолиятини ташкил этиш ва бошқариш амалиётига:

биринчидан, жамоат тартибини сақлаш ва хавфсизлигини таъминлашни зарур ахборотлар билан таъминлаш, ҳудуддаги криминоген вазиятдан доимий хабардор бўлиб бориш, ҳуқуқбузарлик фактлари ҳақида ўз вақтида хабардор бўлиб бориш ва содир бўлган ҳар қандай салбий воқеликка ўз вақтида таъсир кўрсатиш имкониятларни берувчи ахборот технологияларини жорий этиш ва моддий-техникавий базани яратиш бўйича чора-тадбирларни белгилаш ҳамда амалга ошириш;

иккинчидан, ички ишлар органлари, шу жумладан патруль-пост хизмати фаолиятининг муҳим йўналиши ҳисобланган аҳолига ижтимоий-ҳуқуқий ёрдам

²⁸³ Мансур К. (2023). Ички ишлар органларининг ёшлар ўртасидаги ҳуқуқбузарликлар профилактикаси фаолиятини такомиллаштиришда хориж тажрибаси. Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali, 2(1), 32-39.

кўрсатиш функциясини кучайтириш ва шу орқали ички ишлар органларини аҳолига янада яқинлашиши, ишончига кириш;

учинчидан, ички ишлар органлари фаолиятини бевосита тартибга солувчи қонунлар ва махсус қонуности норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқиш, қабул қилиш ва амалиётга жорий этиш;

тўртинчидан, ички ишлар органлари ходимлари, шу жумладан патруль-пост хизмати ходимларининг ижтимоий-ҳуқуқий ҳимоясини кучайтириш йўналишларида жорий этиш мумкин²⁸⁴.

“Ривожланган давлатлар тажрибасига назар соладиган бўлсак, кўплаб жинойтларни иссиқ изидан очишда ёрдан берадиган асосий воситалардан бири бу замонавий ахборот-коммуникация технологияларидир”²⁸⁵.

Айрим адабиётлар ва илмий манбаларда тадқиқотчилар томонидан шаҳарнинг мавзе ва туманлари ҳудудида “ақлли шаҳар” концепциясини жорий этиш мақсадга мувофиқ, деган фикрлар ҳам илгари сурилган²⁸⁶.

Фикримизча, биз томондан тадқиқ этилаётган “хавфсиз шаҳар” концепцияси лойиҳаси, “ақлли шаҳар” тушунчасидан анча кенгроқ бўлиб, ўз ичига ақлли ва инновацион жиҳатларини ҳам қамраб олади.

Юқорида қайд этилган фикр-мулоҳазаларга кўра, пойтахт ва йирик шаҳарларда хавфсизликни таъминлаш бўйича ривожланган давлатларда узоқ йиллар мобайнида вақт синовидан ўтган ижобий тажрибага таянган ҳолда, Тошкент шаҳар ички ишлар бош бошқармаси Ягона тезкор бошқарув маркази зиммасига қуйидаги қўшимча вазифаларни юклаш лозим:

худуд ва объектларда тезкор вазиятни таҳлил қилиш, прогнозлаш ва самарали бошқарув қарорларини ишлаб чиқиш жараёнларига ахборот-таҳлилий кўмаклашишни таъминлаш;

ички ишлар органлари раҳбарияти томонидан асосланган бошқарув қарорлари қабул қилинишига кўмаклашиш;

аҳолининг жинойт, ҳуқуқбузарлик, ходисалар ёки ҳаётий муаммо ва эҳтиёжлари билан боғлиқ “102” қўнғироқлари ёхуд оммабоп алоқа каналларидаги фавқулодда-шошилини хабарларини туну-кун ўз вақтида қабул қилиш, қайта ишлаш, уларга тезкор ва манзилли ёрдам беришни ташкил этиш ва назорат қилиш;

²⁸⁴ Рахимов Ж.Ю.: Жамоат тартиби ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўйича илғор хорижий тажрибалар таҳлили // Journal of Advanced Research and Stability // ISSN: 2181-2608. Special Issue | 2022 . Б. 5-6. www.sciencebox.uz.

²⁸⁵ Джаматов М.Х., Худойбердиев Р.Ф.: Профилактика инспекторлари фаолиятида қўлланилаётган замонавий дастурий воситалар // Ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг долзарб масалалари: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари (2019 йил 17 апрель). – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2019. Б.294.

²⁸⁶ Каримов А.А. (2022). Тошкент шаҳрида “Ақлли шаҳар” концепциясини амалга ошириш имкониятларини баҳолаш. Scientific aspects and trends in the field of scientific research, 1(5), 27-35.

тезкор ва криминоген вазиятни барқарорлигини таъминлаш, куч ва воситаларни ўз вақтида жалб этиш ҳамда содир этилган жиноятларни иссиқ изидан фош этишни ташкиллаштириш ва назорат қилиш;

тезкор-хизмат фаолиятининг йўналишлари бўйича топшириқлар бажарилиши устидан назорат қилиш;

тезкор вазият оғирлашган ёки мураккаблашган вазиятларда кундалик фаолияти вазифаларини ҳал этишда ўзига бўйсунувчи ва қўшимча берилган кучлар ҳамда воситаларни бошқаришни амалга ошириш;

ахборот-таҳлилий кўмакни таъминлаш учун ҳамкорлик регламенти бўйича Марказ доирасида бошқа давлат органлари ва идораларнинг ҳудудий тузилмалари билан ҳамкорликни таъминлаш;

кундалик иш режими ёки фавқулодда вазиятларда, шунингдек, фавқулодда ҳолат эълон қилинганда Марказнинг ахборот ва технологик имкониятларидан фойдаланиш ҳисобига вазиятларни бошқариш самарадорлигини ошириш;

ҳудудда криминоген ва ижтимоий вазиятни узлуксиз мониторинг қилиш, жамоат ва йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлашга жалб этилган ички ишлар ва бошқа давлат органларининг тегишли куч ва воситаларини бошқариш;

жиноят, ҳодисалар ва фавқулодда вазиятлар ҳақидаги хабарларга тезкорлик билан муносабат билдириш, ўз навбатида жамоат тартибини оммавий бузиш билан боғлиқ ҳолатлар юзага келганда ваколатли идораларнинг ҳаракатларини марказлашган ҳолда мувофиқлаштириш;

ахборотни йиғиш, таҳлил қилиш, баҳолаш ва тезкор вазиятни прогнозлаш, ахборот алмашувини таъминлаш, ички ишлар органлари раҳбариятини тезкор вазият мураккаблашуви ҳақида ўз вақтида хабардор этиш;

ички ишлар органлари маъмурий бинолари, объектларини замонавий ахборот технологиялари ечимлари, техник-муҳандислик қўриқлов ва кириш- чиқишни автоматик назорат қилиш тизими орқали комплекс мониторинг қилиш;

оммавий ва бошқа жамоатчилик аҳамиятига эга бўлган оммавий, сиёсий ҳамда спорт тадбирлари ўтказилиши даврида жамоат хавфсизлигини таъминлаш юзасидан ички ишлар органларининг куч ва воситаларини қўллаш бўйича қарорларни қабул қилишни таъминлаш;

йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш;

ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш ва ривожлантириш.

Ривожланган давлатлар тажрибаси шуни кўрсатмоқдаки, пойтахт ва йирик шаҳарларда хавфсизликни таъминлашга масъул бўлган марказлар зиммасига юклатилган вазифаларга мос равишда, етарли даражада ҳуқуқ ва имкониятлар ҳам берилган.

Фикримизча, Тошкент шаҳар ИИББ Ягона тезкор бошқарув маркази куйидаги ҳуқуқларга эга бўлиши мақсадга мувофиқ:

ички ишлар органларида ситуацион бошқарув амалиётини ривожлантириш борасидаги истиқболли чора-тадбирлар, режалар, дастурлар ва йўл хариталарини ишлаб чиқишда қатнашиш;

Марказ фаолиятини тартибга солувчи меъёрий ҳужжатлар (низом, регламент, алгоритм, режа, йўриқномалар ва бошқа ҳужжатлар)ни ишлаб чиқишда қатнашиш;

ички ишлар органларининг таркибий тузилмалари, соҳавий хизматлари, шунингдек манфаатдор вазирлик ва идораларга ҳамда ташкилотларга ваколат доирасига кирувчи саволлар ва масалалар бўйича бош бошқарма Ахборот мультимедиа маркази орқали тушунтириш (изоҳ)лар бериш;

ички ишлар органларининг таркибий тузилмалари, соҳавий хизматлари, шунингдек манфаатдор вазирлик ва идоралардан ваколат доирасига кирувчи керакли ҳужжатлар, материаллар, маълумотлар олиш;

маҳаллий ҳокимият органлари, мулкчилик ва ташкилий-ҳуқуқий шаклидан қатъий назар ташкилот, корхона ва муассасалардан Марказ фаолияти учун зарур бўлган маълумотлар ва ахборотлар олиш;

тасдиқланган иш режалари ва дастурлари асосида ўқув машғулотлари жадвалини ишлаб чиқиш ва ўрнатилган тартибда тасдиқлаш учун тақдим этиш;

Марказ ходимларининг касбий тайёргарлиги (маҳорати)ни ошириш бўйича ўқув-амалий машғулотлар, тренинг ва анжуманлар ўтказиш;

Марказ фаолияти самарадорлигини ошириш учун ички ишлар органлари таркибий тузилмалари, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи, куч ишлатувчи тузилмалар ёки фавқулодда авария- кутқарув ва шошилиш хизматларининг юқори малакали мутахассисларини ўрнатилган тартибда жалб этиш;

жамоат хавфсизлигини таъминлаш, жиноятчиликни олдини олиш ва унга қарши курашиш, маънавий-маърифий, ижтимоий-маданий ва бошқа ички ишлар органлари фаолиятига тааллуқли соҳалардаги муҳим масалаларни муҳокама қилиш ва долзарб муаммоларни ҳал этишга бағишланган йиғилишларда, мажлисларда ҳамда бошқа тадбирларда белгиланган тартибда иштирок этиш;

манфаатдор давлат органлари ва идоралари, шу жумладан ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар, куч ишлатувчи тузилмалар, фавқулодда авария-кутқарув ва шошилиш хизматлар билан ўзига юкланган вазифаларни ўз вақтида, самарали ва сифатли бажариши учун белгиланган тартибда ўзаро ҳамкорлик қилиш;

замонавий ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш ва ривожлантиришда қатнашиш.

Тадқиқот иши доирасида хорижий тажрибани ўрганиш натижасида, ривожланган (АҚШ, Германия, Япония, Хитой, Франция каби) давлатларнинг аксариятида жамоат тартибини сақлаш ва хавфсизликни таъминлаш полиция идоралари томонидан амалга оширилиши маълум бўлди.

«Полиция» сўзи (лот. *politia*) «фуқаролик маъмурияти», (грек. *polis*) «шаҳар» деган маъноларни англатади.

Полиция тизими қуйидаги жиҳатлари билан “милиция” ёки ички ишлар органлари тизимидан фарқ қилади:

– полициянинг ваколат доираси анча кенг. Жамоат тартибини сақлаш ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш, жиноятчиликка қарши курашиш, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва бошқа асосий вазифалар билан бир қаторда, коммуникация ва сервис хизматларини кўрсатиш, фуқаролар ишончини қозониш ва улар билан яқин ҳамкорлик қилиш, жамоат тузилмалари фаолиятига кўмаклашиш кабилар ҳам полициянинг муҳим вазифалари ҳисобланади. Жамоатчилик билан мустаҳкам алоқа ўрнатилганлиги полициянинг жамоатчилик назоратида бўлишини таъминлайди;

– полиция тизими милиция тизимига қараганда замонавий кўринишга эга бўлиб, давлатларда унинг марказлашган (вертикал – Италия, Испания, Озарбайжон, Қозоғистон, Россия ва ҳ.к.), номарказлашган (новертикал – АҚШ, Канада, Швейцария, Австралия ва ҳ.к.) ва интеграциявий (аралаш – Австрия, Буюк Британия, Япония) тизими амалда фаолият кўрсатади;

– коррупция ҳолатларини келтириб чиқаришга имкон берадиган кўпгина вазифалар (автотранспорт воситасига давлат рақамини бериш, ов қуролини сақлашга рухсатнома бериш ва ҳ.к.) полиция тизимида ходимлар томонидан эмас, балки замонавий компьютер технологиялари ва дастурий таъминотлари орқали амалга оширилади;

– полиция тизимида хизматга қабул қилинадиган ходимларга қўйиладиган талаблар анча юқори. Номзодлар махсус текширувлардан ўтказилади ва уларнинг ички ишлар органларида хизмат ўташи бўйича қобилиятлари ҳар хил вазиятларда текшириб кўрилади. Айрим давлатларда номзодларнинг тасдиқланган сценарийлар асосида 500 тагача вазиятлар бўйича қарорлар қабул қилиш маҳоратлари (турли вазиятларда ўзини тутиши, хизмат вазифалари бўйича қандай ҳаракатлар бажариш мумкин ёки мумкин эмаслиги бўйича амалий кўникмалари) синовдан ўтказилади;

– полиция тизимида ходимларнинг ваколат доираси анча кенг. Масалан, полиция патруллик нарядлари транспорт воситалари ҳайдовчиларига нисбатан йўл ҳаракати қоидаларини бузганлиги учун маъмурий баённомалар расмийлаш-

тириши, гумон қилинувчи шахсларнинг ҳужжатларини текшириши, шубҳали буюмларни мусодара қилиши ва бошқа ваколатларни амалга ошириши мумкин;

– полиция тизимида департаментлар, махсус тайёргарликдан ўтган ҳолда танланган, замонавий махсус техник воситалар ва ўқотар қуроллар билан жиҳозланган патрулларнинг фаолияти самарали йўлга қўйилган.

Бир сўз билан айтганда, кўпчилик мутахассислар полиция тизими деганда замонавий стандартлар жорий этилган ички ишлар органлари тизимини тушунишади²⁸⁷.

Ҳозирги кунда мамлакатимиз қонунчилиги ва ҳуқуқни қўллаш амалиётида «милиция» тушунчаси муомаладан чиқарилган. Ўзбекистон Республикасининг 1994 йил 22 сентябрда қабул қилинган 2015–ХП-сонли Қонуни билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексига қуйидаги ўзгартиш ва қўшимчалар киритилди: 194-модданинг (Милиция ходимининг қонуний талабларини бажармаслик). Яъни «милиция ходимининг» деган сўзлар «ички ишлар органлари ходимининг» деган сўзлар билан алмаштирилди²⁸⁸.

Шу боис амалга оширилган ислохотлар натижасида полиция тизимининг деярли барча хусусиятлари жорий этилганлигини, «полиция» халқаро миқёсда умумэътироф этилган тушунча эканлигини инобатга олиб, ички ишлар органларини «полиция» деб номлаш мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблаймиз.

Қайд этиш жоизки, «милиция» тушунчаси фуқароларнинг тасаввурида кўпроқ мажбурловчи механизм, эътирозларга сабаб бўлувчи тизим сифатида салбий фикр пайдо қиларди. «Полиция» тушунчаси эса ўзининг замонавийлиги ва ҳозирги кун талабларига тўлиқ жавоб бериши билан аҳоли онгида ижобий таассурот уйғотади. Бу эса, ўз навбатида, фуқароларнинг ишончи ва меҳрини қозонган, халқпарвар ички ишлар тизими яратилишида салмоқли ҳисса қўшади.

Хулоса сифатида шуни қайд этиш лозимки, ривожланган давлатларда узоқ йиллар мобайнида синовдан ўтган ва ўзининг ижобий самарасини бераётган хавфсизлик тизимларига оид илғор хорижий тажрибалардан фойдаланиш, пойтахтимиз ва йирик шаҳарларда жамоат тартибини ишончли таъминлаш ҳамда ҳуқуқбузарликлар профилактикасини кафолатланган тарзда амалга оширишга хизмат қилиши шубҳасиз.

²⁸⁷ *Ҳакимов С.Б. (2024). Ички ишлар органлари бошқарув тизимини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари. Вақарорлик va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 4(3), 59-68.*

²⁸⁸ Қонунчиликда «милиция» сўзи бутунлай ишлатилмайдиган бўлди.
<https://daryo.uz>. qonunchilikda-militsiya-sozi-butunlay-ishlatilmaydigan-boldi

REFERENCES:

1. *Васильев В.Д.* Концепции организации деятельности полиции и возможности их использования в отечественной практике: По материалам США и некоторых стран Западной Европы: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2005.
2. *Умирзаков С.С.* (2022). Жамоат тартибини сақлашда патруль-пост хизмати ходимларини иш самарасини оширишнинг замонавий қурилмалардан фойдаланиш (хориж тажрибаси мисолида). *Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali*, 1(4), 15-19.
3. *Майоров В.И.* Организация деятельности по охране общественного порядка в США, странах Европы и России: Учебное пособие. – Челябинск, 2003. – С. 17
4. *Абдуллаев О.Т.* (2022). Криминоген вазияти мураккаб бўлган ҳудудларда ички ишлар органлар фаолиятини ташкил этиш ва бошқаришда хорижий тажриба. *Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali*, 1(6), 68-71.
5. *Абдуллаев О.Т.* (2022). Криминоген вазияти мураккаб бўлган ҳудудларда ички ишлар органлар фаолиятини ташкил этиш ва бошқаришда хорижий тажриба. *Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali*, 1(6), 68-71.
6. *Мансур К.* (2023). Ички ишлар органларининг ёшлар ўртасидаги ҳуқуқбузарликлар профилактикаси фаолиятини такомиллаштиришда хориж тажрибаси. *Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali*, 2(1), 32-39.
7. *Рахимов Ж.Ю.:* Жамоат тартиби ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўйича илғор хорижий тажрибалар таҳлили // *Journal of Advanced Research and Stability* // ISSN: 2181-2608. Special Issue | 2022 . Б. 5-6. [www. sciencebox.uz](http://www.sciencebox.uz).
8. *Хакимов С.Б.* (2024). Ички ишлар органлари бошқарув тизимини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари. *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 4(3), 59-68.
9. Қонунчиликда «милиция» сўзи бутунлай ишлатилмайдиган бўлди. <https://daryo.uz>. qonunchilikda-militsiya-sozi-butunlay-ishlatilmaydigan-bo'ldi
10. *Джаматов М.Х., Худойбердиев Р.Ф.:* Профилактика инспекторлари фаолиятида қўлланилаётган замонавий дастурий воситалар // Ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг долзарб масала-лалари: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари (2019 йил 17 апрель). – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2019. Б.294.
11. *Каримов А.А.* (2022). Тошкент шаҳрида “Ақли шаҳар” концепциясини амалга ошириш имкониятларини баҳолаш. *Scientific aspects and trends in the field of scientific research*, 1(5), 27-35.

TEMPERATURE DEPENDENCE OF THE SPEED OF PROPAGATION OF GEPER SOUNDS IN AQUEOUS SOLUTIONS

Azzamov Zulfiqor Abruy o'g'li

Assistant Teacher of Urgut branch of Samarkand State University

zulfiqorazamov6@gmail.com

ABSTRACT

A study was made of the nature of hypersound propagation in an aqueous solution of 4-methylpyridine with a concentration of 0.06 m.f. by method of Mandelshtam-Brillouin light scattering spectroscopy. It is shown that a positive sound velocity dispersion is observed in the studied solution in the frequency range from 5.4 MHz to 4.8 GHz, which is due to the process of bulk viscosity relaxation. In a narrow frequency range from 4.8 to 6.1 GHz, a negative dispersion of the hypersonic velocity has been experimentally revealed. The negative dispersion is associated not with the relaxation process, but with the spatially inhomogeneous structure of the solution on scales comparable to the hypersonic wavelength

Keywords: *Hypersound, Mandelshtam-Brillouin, Ultra-and hyperacoustic parameters, 4-methylpyridine, ultrasonic speed, Fabry-Perot, Cylindrical glass, calculation, Mandelstam-Leontovich relaxation theory, Navier-Stokes.*

INTRODUCTION

The propagation of sound velocity is one of the main issues in Condensed Matter Physics, and has been studied repeatedly, both theoretically and experimentally, a problem studied with great interest. 0.06-0.08 mol share (m.q), at normal atmospheric pressure and temperature $t_0 \approx 70$ °C, aqueous solutions of pyridine methyl spert have minimal thermodynamic stability (called "single point. State diagram in the coordinates "temperature-concentration". Single-point systems have been little studied experimentally and are therefore an interesting and important object for high-frequency acoustic studies of flocculation processes and structural changes located close to a point. In our laboratory, we worked on the study of the Ultra-and hyperacoustic parameters of one of the objects belonging to this solution class (an aqueous solution of 3-methylpyridine). In the temperature range from 20 to 80 °C, the temperature dependence of the ultra-and hyperplussive speed made it clear that there is a positive dispersion of the speed of Sound near a separate point. Analyzing the experimental results obtained for this solution at a frequency of about 2.6 GHz, the basis is to assume that negative velocity dispersion can also exist near a single point (i.e., a decrease in velocity with an increase in sound frequency) in the narrow hyperplane frequency range. To verify this assumption, we have a share of

0.06 mol (m.q), we studied the temperature dependence of the speed of sound in a concentrated 4-methylpyridine (4MP) aqueous solution. This corresponds to a single point concentration. An experimental study of the fine structure spectra of the relay light scattering line at a wide range of temperatures and concentrations in aqueous solutions of 4-methylpyridine was carried out by US. The results of the works [1-4] made it possible to reveal some interesting and important features of the processes of structure formation in the studied systems, which were later confirmed in the work of other authors (see, for example, [5]) The conclusions of some works [1-4] are involved in the discussion of the results obtained in this process of work

DISCUSSION AND RESULTS

Compared to our previous studies, the range of sound frequencies in this study was significantly expanded, from 5 MHz to 6.1 GHz. The ultrasonic speed was measured by an acousto-optical method based on the phenomenon of diffraction of laser radiation with ultrasonic waves.

The hyperplane velocity was calculated from the frequency shift of the fine structure components of the relay light scattering line (Mandelstam-Brillouin component). Studies were conducted at 20 and 80 °C light scattering angles corresponding to sound frequencies of ~4.8 and ~6.1 GHz. The excited radiation was a He-Ne laser (radiation wavelength 632.8 nm, power 15 MW)

Scattered light spectra were recorded using an experimental device with a two-pass Fabry-Perot interferometer. The value of the interference wave was 5×10^4 , the accuracy of the edges was ~40. Mandelstam-Brillouin (KMB) component studies Δv was placed in a cuvette thermostat with a sample of no less than an e-tube, whose circuit allowed the temperature to be stabilized with an accuracy of less than $\pm 0,05$ °C in the tube. Error measuring frequency shift did not exceed 0.5%

The optically pure components of the solution were obtained by triple dispersion. Solution samples Mandelstam-Brillouin from light scattering spectra the difficulties of the hyperplane experiment in measuring velocity require special attention. When using a cylindrical resonator, the effect of cylindrical lenses appears. As a result, the collimator lens of the installation receives light scattered not only at a certain angle, but also within larger and smaller angles than indicated. In our experiments, an ampoule with a test solution was placed in an octahedral cylinder glued together from optical prisms to eliminate the effects of cylindrical lenses

Cylindrical glass is sealed into cubes under pressure below atmospheric pressure. An immersion fluid was poured into the space between the ampoule and the cylinder walls, the refractive index of which was close to that of the cylinder. When

we studied this case, we determined the angle of propagation. Error setting the angle of spread 0.2° does not exceed.

The temperature dependencies of the Mandelstam-Brillouin (KMB) components of the beat of a clock are 20° and 80° . studied for scattering angles. the values of the hyperplane velocity defined from the Momenta are shown in Figure 1. The same picture shows the results of measuring the speed of ultrasound. As can be seen from the picture, the temperature movement of the speed is basically the same for ultrasound and hyperplastic frequencies. As the temperature of the solution increases, the speed of sound monotonically decreases, but the dependence of $V(t)$ is not linear, but dv/dt is characterized by an increase in the temperature coefficient of speed (at absolute value). The frequency dependence of the sound speed turns out to be much more complicated. Figure 1 shows that an increase in sound frequency from 5.4 MHz to 4.8 GHz is accompanied by an increase in sound speed by about 1.05 times, and this value remains virtually unchanged throughout the time studied (temperature range). An increase in sound frequency to 4.8 GHz - 6.1 GHz leads to a decrease in sound speed by about 1.03 times, and this value practically does not change even with the temperature of the solution.




Figure 1. 4 MP (0.06 mol share m.q) temperature dependence of the speed of sound in aqueous solution 6.1 GHz,– ~4.8 GHz,– 5.4 MHz.

Table. Positive sound speed temperature dependence graph in the frequency range from 5.4 MHz to 4.8 GHz

t				80 °C		
f	5.4 MHz	3.4 GHz	4.8 GHz	5.4 MHz	3.4 GHz	4.8 GHz
$V, m/c$	1540	1590	1609	1534	1583	1602

About calculation		
$V_0, \text{ m/c}$	1540	1534
$V_\infty, \text{ m/c}$	1609	1602
$\square \times 10^{11} \text{ c}$	9.3	7.7

1. Thus, the results of our study of sound speed at frequencies from 5.4 MHz to 6.1 GHz show that: 1) there is a positive dispersion of sound speed in the frequency range from 5.4 MHz to 4.8 GHz; 2) a negative speed dispersion occurs in the narrow frequency range from 4.8 to 6.1 GHz; 3) the value of the dispersion (both positive and negative) does not depend in 4-methylpyridine (0.06 m.g) in aqueous solution, in the frequency range from 5.4 MHz to 4.8 GHz in the temperature range from 20 °C to 80 °C, there is a positive dispersion of sound speed and a negative dispersion of hyperplasia.

The analysis of the frequency dependence of the sound velocity was carried out based on the following experimental results: 1) in the frequency range from 5.4 MHz to 4.8 GHz, the speed behavior corresponds to a positive dispersion due to the relaxation process of volumetric viscosity; 2) the hypersound speed with a frequency of 6.1 GHz is lower as a result of the existence of a negative dispersion

The value of the positive dispersion of the speed of sound in the frequency range from 5.4 MHz to 4.8 GHz was calculated using the formula:

$$\frac{\Delta V}{V} = \frac{V_1 - V_2}{V} \quad (1)$$

where V_1 and V_2 are the speeds of hypersound ($f=4.8$ GHz) and ultrasound ($f=5.4$ MHz), respectively, and $V=(V_1+V_2)/2$ is the average speed in this frequency range [1].

The value of the negative variance was calculated using the same formula. The sound velocity values at frequencies 6.1 and 4.8 GHz, respectively, were used as V_1 and V_2 . The calculated temperature dependences of the velocity dispersion are shown in

As can be seen from the value of the positive dispersion is approximately 4% and slightly depends on the temperature of the solution. The value of the negative dispersion is approximately 3% and also practically does not depend on the temperature of the solution. The obtained dispersion values significantly exceed the error of measuring the speed of sound by the displacement of the Mandelstam-Brillouin components.

The parameters of the relaxation process of volumetric viscosity, leading to a positive dispersion of the speed of sound, were calculated in accordance with the

formulas of the Mandelstam-Leontovich relaxation theory [6]. The calculation is based on the formula

$$V^2 = \frac{\Omega^2 \tau^2}{1 + \Omega^2 \tau^2} (V_\infty^2 - V_0^2) + V_0^2 \quad (2)$$

Here Ω , t , V_0 and V_∞ are the sound frequency, acoustic relaxation time, and speed limits, respectively

Using the values of the velocities V for the frequencies 5.4 MHz, 2.6 GHz (obtained earlier) and 4.8 GHz, we compiled 3 equations in accordance with the formula (2) and the values of the values t , V_0 and V_∞ were obtained by sequential exclusion of unknowns (an example of the calculation results is given in the table). Following these calculations, the following conclusions can be drawn:

1. in an aqueous solution of 4MP (0.06 m.g) there is a relaxation process, the acoustic relaxation time of which varies from $t=9.3 \times 10^{-11}$ s to $t=7.7 \times 10^{-11}$ s with a temperature change from 30 °C to 50 °C;

2. The values of V_0 and V_∞ depend on temperature, and the relaxation time decreases with increasing temperature;

3. The values of ultrasound and hypersound speeds at 5.4 MHz and 4.8 GHz are close to the limiting speeds of V_0 and V_∞ . (the calculated relaxation curves are shown in Fig.3.3)

Table. Parameters of the relaxation process of volumetric viscosity, which causes a positive dispersion of the speed of sound in the frequency range from 5.4 MHz to 4.8 GHz.

t	30 °C			50 °C		
f	5.4 MHz	2.6 GHz	4.8 GHz	5.4 MHz	2.6 GHz	4.8 GHz
5. Икромов Г. (2021). Трансформация семейных ценностей в современном узбекском обществе. *Общество: социология, психология, педагогика*, (2), 23-29.
6. Арифханова А. (2020). Трансформация института семьи в Узбекистане. *Зборник радова Филозофског факултета в Приштине*, 50(4), 149-163.
7. Абдурахимова Н.А. (2019). Семейные ценности в национальной культуре Узбекистана. *Вестник науки и образования*, (19-2), 52.
8. Муминов А.Г. (2013). Занятость молодежи в Узбекистане и пути ее улучшения в условиях модернизации экономики (Doctoral dissertation, Tashkentskiy Gosudarstvennyy Ekonomicheskii Universitet).
9. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. (1998). Toshkent: Adolat.

10. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2024). Demografiya. Stat.uz. [https://t.me/statistika_rasmiy/4726]
11. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2023). Demografiya. Stat.uz. [https://t.me/statistika_rasmiy/316]

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TA'LIMGA OID TERMINLAR: O'XSHASH VA FARQLI JIHATLAR

Jummayeva Maftuna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

“Xorijiy til va adabiyoti” (ingliz tili) yo'nalishi magistranti

Tel: +998978067879

E-mail: maftuna.jumayeva@mail.ru

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillarida ta'limga oid atamalar lingvistik nuqtai nazardan tadqiq qilingan. Ikki tildagi sohaga oid atamalarning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari ilmiy adabiyotlar asosida yoritib berilgan.

***Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya, ta'lim muassasasi, ilm, fan, olim, tilshunoslik, chog'ishtirma ingliz tili, o'zbek tili, ta'lim, tarbiya, ilm, kitob, maktab, ta'lim muassasasi, o'qituvchi.*

ABSTRACT

In this article, terms related to education in Uzbek and English are studied from a linguistic point of view. Similar and different aspects of terms related to the field in two languages are explained on the basis of scientific literature.

***Keywords:** education, training, educational institution, science, science, scientist, linguistics, hybrid English, Uzbek language, education, training, science, book, school, education institution, teacher.*

KIRISH

Hozirgi vaqtda ta'lim dunyoning rivojlangan davlatlarining infratuzilmasida ijtimoiy hayotning asosiy elementlaridan biridir. Ushbu mamlakatlarda ta'lim tizimini tashkil etish ilmiy-texnikaviy inqilobning hozirgi bosqichi ehtiyojlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu ta'lim islohotlarini amalga oshirishni taqozo etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, inson faoliyatining ushbu sohasini isloh qilish jarayoni deyarli uzluksizdir: tizimning turli qismlarining tuzilishi va tashkil etilishiga doimiy ravishda turli xil o'zgarishlar kiritiladi. Shu bilan birga, tizim rivojlanishining ma'lum bir bosqichida tub islohotlarga ehtiyoj paydo bo'ladi. Muayyan terminologiyani o'rganish odatda unda aks ettirilgan tushunchalar tizimining chegaralarini aniqlashdan boshlanadi, ular asosida xulosalar chiqariladi. Tegishli bilim sohasi atamasi va terminologiyasi deganda nimani tushunish kerakligi haqida so'z boradi. Biz o'rganish obyekti – ta'lim sifatida tanlagan ingliz voqeligi sohasi murakkab, ko'p bosqichli, doimiy rivojlanib boruvchi tuzilma bo'lib, insoniyatning metodologiya, psixologiya, ishlab

chiqarish ta'limi, iqtisodiyot va menejment, sotsiologiya, falsafa kabi sohalarini qamrab oladi²⁹².

Barchamizga ma'lumki, ingliz tili hozirda dunyoning asosiy muloqot tili hisoblanadi. Shunday qilib, ingliz tili o'z lug'atiga doimiy ravishda yangi so'zlarni qo'shish orqali rivojlanmoqda. Ingliz tilining o'zbek tiliga ta'siri juda katta va uni asosan fan, pedagogika, texnologiya va ijtimoiy hayotning turli sohalarida ko'rish mumkin. Ko'p hollarda biz o'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, ingliz tilidan kelgan atamaning ekvivalentini topishga harakat qilamiz. Ammo xalqaro atamalar (xalqaro so'zlar) deb ataladigan shunday atamalar mavjudki, ular ingliz va o'zbek tillarida bir xil shaklda hech qanday o'zgarishsiz qo'llaniladi.

Buning bir qancha muhim sabablari bor:

1. Bugungi ilmiy atamalarning aksariyati qadimgi zamonlarda paydo bo'lgan, shuning uchun ular hozirda omonim, sinonim, metonomiya sifatida foydalanishlari mumkin.

2. Bu so'zlarning asosiy ma'nosi xalq orasida mashhur bo'lmagani uchun faqat majoziy ma'noda foydalanish mumkin. Bu majoziy ma'no asosiy ma'no sifatida qabul qilinadi va boshqa ma'nolar e'tiborga olinmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Buyuk jadid olimi A. Avloniy ta'kidlaganidek: "Ta'lim biz uchun yo hayot, yo mamom, yo saodat yo halokat masalasidir". Darhaqiqat, inson hayoti, baxtu saodati, sof insonparvarlik tuyg'usini yuksaltirishda ta'lim-tarbiyaning o'rni g'oyat muhim. Ma'lumki, yosh avlodni tarbiyalash har birimizning oldimizda turgan muhim vazifalardan biri bo'lib, bu biz uchun ijobiy natijadir, shu bois yoshlarni xalqimizga sadoqat ruhida tarbiyalashimiz zarur. Ta'lim jamiyatning asosiy vazifasi bo'lib, u turli tarixiy davrlarda birinchi o'rinda bo'lib kelgan. Pedagogikaning maqsad va vazifalari shaxsiy taraqqiyotni jahon qonunlari, shuningdek, davlatning zamonaviy siyosati rivojlanishi bilan hamohanglashtirishdir.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Vatanga manfaat keltiruvchi yosh avlodni tarbiyalash eng avvalo ta'lim sohasini isloh etishdan, sohaga jahonning ilg'or tajribalarini joriy etishdan boshlanadi. Bunda sohaga oid terminlarning qiyosiy tahlili ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'limga oid atamalar eng avvalo inson shaxsi bilan bevosita aloqadordir. Pedagogika sohasida ilg'or bo'lgan mamalakat tillarida shaxs atamalari ko'pgina

²⁹² Potapov L.P. Materials on the semantic-kinship system among the Uzbeks kungrad //zh. "Scientific Thought". – Tashkent, 2020. – p.13.

turlarga bo'linadi: learners-Ta'lim oluvchilar: pupil-o'quvchi, student-talaba, abutrent-abutrent;O'qituvchi- Ta'lim beruvchilar: o'qituvchi-o'qituvchi;²⁹³

Ta'limga oid atamalarning qiyosiy tahlili jarayonida pedagogika sohasida o'xshash atamalar va ularning har ikki tilda uzviy bog'liqligi hamda bir maqsadda qo'llanishi kuzatilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, til va madaniyat o'rtasidagi munosabat leksikdir. Madaniyat esa tilda yuzaga keladigan ma'nolar ifodalashning tarixiy modelidir. Til va madaniyat mutanosibligi quyidagi omillarga asoslanadi:

1.Til va madaniyat –til dunyosi kontekstida inson dunyoqarashini aks ettiruvchi idrok shakllaridir.

2.Til va madaniyat bir-biri bilan uzviy bog'liqdir.

3.Til va madaniyatning subyekti hamisha shaxs (individual) yoki jamiyatdir.

4.Har ikkisining paydo bo'lishi tarixiy, tizimli va me'yoriy asoslash bilan xarakterlanadi.

5. Til va madaniyat, bir tomondan, doimo o'zgarib turadi, ikkinchi tomondan, barqarorlikka intiladi. Til va madaniyat muloqot jarayoni bo'lib, shaxs va butun jamiyat shakllanishi bilan uzviy bog'liqdir²⁹⁴.

Ingliz va o'zbek tillarida ta'limga oid yasama terminlar ta'lim sohasida keng qo'llanilib kelinmoqda. Ayni paytda, terminshunos olimlar va mutaxassislarning izlanishlari tobora ortib, bu sohaning integratsiyalashuv jarayonlari bo'yicha ilmiy oqimining kelib chiqishiga asos bo'ldi. Ingliz va o'zbek tilida pedagogikaga keng qo'llanadigan qisqartmalar ham mavjud:

²⁹³ Abdullaeva, N. R. (2020). THE PERFECT TEACHING METHOD: CASE OF UZBEKISTAN. Theoretical & Applied Science, (7), 10-15.

²⁹⁴ Paluanova X., Musumonova M., Riskulova K., Kurbanniyazova Z. "Pedagogik atamalar ro'yxati". – Toshkent: 2022. – b.192.

O'zbekcha	qisqartmasi	inglizcha	Qisqartmasi
Axborot kommunikativ texnologiyalari	AKT	Information and communication technology	ICT
Avtomatlashtirilgan o'qitish tizimi	AO'T	Automated Teaching System	ATS
Birlashgan Millatlar Tashkiloti	BMT	United Nations Organization	UNO
Davlat ta'lim Standarti	DTS	State Educational Standard	SES
Xalqaro ingliz tili test tizimi	IELTS	International English Language Testing System	IELTS
Ilmiy tadqiqot Institutlari	ITI	Research Institutes	RI
Oliy Ta'lim Muassasasi	OTM	Higher Educational Institute	HEI
Masofaviy o'qitish	MO'	Distance Learning	DL
Yagona Davlat Imtihoni	YDI	The Only State Exam	TOSE

XULOSA.

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, o'zbek va ingliz tilida ta'lim-tarbiyaga oid terminlarni tilshunoslik jihatidan o'rganish ikki til va madaniyat o'rtasidagi sohaga oid aloqalarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim tizimiga ilg'or xorijiy texnologiyalarning kirib kelishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Paluanova X., Musumonova M., Riskulova K., Kurbanniyazova Z. "Pedagogik atamalar ro'yxati". – Toshkent: 2022.
2. Paluanova H. The new trends in contemporary linguistics//LangLit: An International Peer-Reviewed Open Access Journal (ISSN 2349-5189), IBI Factor 2015 –Indexed –2.4. India, 2016, Vol-2, Issue–4.

3. Potapov L.P. Materials on the semantic-kinship system among the Uzbeks kungrad //zh. “Scientific Thought”. – Tashkent, 2020.
4. Abdullaeva, N. R. (2020). THE PERFECT TEACHING METHOD: CASE OF UZBEKISTAN. *Theoretical & Applied Science*, (7), 10-15.
5. Абдуллаева, Н. Р. (2018). РАЗНЫЕ ВИДЫ ГЛАГОЛОВ ДВИЖЕНИЯ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Гуманитарный трактат*, (37), 37-38.
6. Abdullayeva, N. (2021). THEMATIC CLASSIFICATION OF NAMES OF FRUIT TREES IN THE ASPECT OF INTERCULTURAL COMMUNICATION (ON THE MATERIAL OF THE UZBEK, TAJIK AND ENGLISH LANGUAGES). *InterConf*.
7. Абдуллаева, Н. Р., & Шаймарданова, М. У. (2024). ТЕМАТИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ НАЗВАНИЙ ПЛОДОВЫХ ДЕРЕВЬЕВ И КУСТАРНИКОВ В АСПЕКТЕ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ (НА МАТЕРИАЛЕ УЗБЕКСКОГО, ТАДЖИКСКОГО И АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКОВ). *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 25, 86-89.
8. Ramazonovna, A. N. (2024). PROVERBS AND SAYINGS WITH RHYTONYMS AND THEIR ANALYSIS IN COMPARED LANGUAGES.
9. Абдуллаева, Н. Р. (2024). Пословицы И Поговорки О Растениях В Сопоставляемых Языках. *Open Herald: Periodical of Methodical Research*, 2(1), 4-7.
10. Абдуллаева, Н. Р. (2024). КОНЦЕПТ “РАСТЕНИЕ” В НАУЧНЫХ ТРУДАХ. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 23, 34-39.
11. Xamidov, M. (2023). ON SOME SIMILAR AND DIFFERENT ASPECTS OF PROVERBS AND SUBJECTS. *American Journal of Pedagogical and Educational Research*, 15, 66-68.
12. Abdumannobovich, X. M. (2023). TRANSFORMATION OF PAREMIOLOGICAL UNITS IN SOUTHERN SURKHANDARYA UZBEK DIALECTS. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 3(05), 168-173.
13. Abdumannobovich, X. M. (2021). O’ZBEK TILI PAREMIOLOGIK BIRLIKLARIDA SOMATIK SO’ZLAR SALMOG’I (Janubiy Surxondaryo o’zbek shevalari misolida): Xamidov Mansur Abdumannobovich Termiz davlat universiteti O’zbek tili va adabiyoti kafedrasida o’qituvchisi, erkin tadqiqotchi. In *Научно-практическая конференция*.

14. Xamidov, M. (2023). BADIY MATNLARDA UCHROVCHI O ‘ZBEK SHEVA MAQOLLARINING TRANSFORMATSIYASI. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 3(25), 204-206.
15. Xamidov, M. A. (2022). Surxondaryo o ‘zbek shevalariga doir ayrim paremlar tahlili. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(7), 676-684.

SANSKRIT VA QADIMGI FORS TILLARIGA XOS MUSHTARAK SO‘ZLARDAGI SEMANTIK KO‘CHISH HODISASIGA XOS XUSUSIYATLAR: MA’NO KENGAYISHI VA TORAYISHI

Shohjahon Sa’dullayev

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

o‘qituvchi-stajori

shohsadul@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola sanskrit va qadimgi eroniy tillarga oid mushtarak so‘zlarning leksik-semantik tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ushbu mushtarak so‘zlardagi semantik ma’no ko‘chishining so‘z ma’nosining kengayishi va torayishi kabi jihatlariga urg‘u berilgan.

***Kalit so‘zlar:** sanskrit, vedik sanskrit, avesto tili, ahamoniy hukmdorlar bitiklari, semantik ma’no ko‘chishi, ma’no kengayishi, ma’no torayishi.*

ABSTRACT

This article is devoted to the lexical-semantic analysis of common words related to Sanskrit and ancient Iranian languages, with an emphasis on the aspects of semantic meaning transfer in these common words, such as expansion and narrowing of the meaning of the word. given

***Key words:** Sanskrit, Vedic Sanskrit, Avestan language, inscriptions of Achaemenid rulers, semantic meaning transfer, meaning expansion, meaning narrowing.*

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена лексико-семантическому анализу общеупотребительных слов, относящихся к санскриту и древнеиранским языкам, с акцентом на такие аспекты изменения семантического значения этих общеупотребительных слов, как расширение и сужение значения данного слова.

***Ключевые слова:** санскрит, ведический санскрит, язык авеста, настенные надписи ахеменидских правителей, изменение семантического значения, расширение значения, сужение значения.*

KIRISH

Sanskrit va qadimgi eroniy tillarga oid mushtarak so‘zlar ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlar asosan ushbu mushtarak so‘zlarning talaffuz va ma’no xususiyatlari doirasida olib borilgan bo‘lsa-da, hali hanuz yakuniga yetgani yo‘q. Xususan, sanskrit va qadimgi eroniy tillarga xos mushtarak so‘zlardagi

semantik ma'no ko'chishi, xususan, so'z ma'nosining kengayish va torayish hodisasi to'liq tadqiq etilmagan.

Ushbu maqolada bu tadqiqotlarning natijasi umumlashtirilgan va yangi qarashlar ham qo'shilgan. Tadqiqot obyekti sifatida sanskrit va qadimgi eroniy, xususan, avesto tili va qadimgi fors tili (Ahamoniy hukumdorlar bitiklari asosida) doirasidagi mushtarak so'zlar olindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqot ishini bir tizimga solish va osonlashtirish uchun, tadqiqotga tortilgan mushtarak so'zlarni quyidagicha tasniflab tahlil qilish maqsadga muvofiq deb topildi:

2.1. Sanskrit tilida ma'nosi kengaygan mushtarak so'zlar

Bu turdagi mushtarak so'zlarning aksariyati fe'l so'z turkumiga oid bo'lib, ular asosan harakat fe'llaridan iborat. Masalan, protohind-eron tilidagi **carH* (*yurmoq*, *bormoq*) fe'li avesto tiliga rac (*čar*) shaklida “yurmoq”, “bormoq” ma'nosi bilan o'tgan, ammo bu fe'l sanskrit tiliga चर् (*car*) shaklida kirgan bo'lib, uning “bormoq”, “yurmoq” ma'nosidan tashqari “sayr qilmoq” ma'nosi ham mavjud²⁹⁵. Bundan vaqt o'tishi bilan ushbu fe'l ma'nosining biroz kengayganligi ayon bo'ladi.

Avestoda mag (*gam*), ahamoniy podsholar bitiklarida gm (*gam*) deb nomlangan “bormoq”, “yetib bormoq” fe'li sanskrit tilida गम् (*gam*) ko'rinishida bo'lgan, ammo ushbu fe'l “ko'chmoq” ma'nosida ham qo'llanilgan²⁹⁶. Shuningdek, protohind-eron tilidagi **aiš* (*istamoq*)²⁹⁷, **paH* (*himoya qilmoq*, *qo'riqlamoq*)²⁹⁸ kabi fe'llar avesto tiliga Sīa (*aīš*), Ap (*pā*), qadimgi fors tiliga pa (*pā*) shaklida o'tgan va “xohlamoq”, “istamoq” hamda keyingi fe'lning “qo'riqlamoq”, “himoya qilmoq” ma'nosi saqlangan. Ammo sanskrit tiliga protohind-eroniy **aiš* fe'li एष (*eṣ*) ko'rinishida qabul qilingan va ushbu fe'lning “istamoq”, “xohlamoq” ma'nosidan tashqari “mayl qilmoq” va “izlamoq” ma'nolari ham mavjud²⁹⁹. **paH* fe'li esa sanskrit tiliga प (pā) shaklida o'tgan va uning “himoya qilmoq”, “qo'riqlamoq” ma'nosidan tashqari “asramoq”, “saqlab qo'ymoq” ma'nosi ham mavjud³⁰⁰.

Insonga, shuningdek, tirik mavjudotga doir ba'zi mushtarak so'zlarning ham sanskrit tilidagi variantida ma'no kengayishi kuzatiladi. Masalan, yosh avesto tilidagi anaz (*zana*)³⁰¹, ya'ni “tug'moq”, “tug'ilmoq” fe'li sanskrit tilida जा (*jā*), ya'ni

²⁹⁵ Cheung J. Etymological dictionary of the Iranian verb. – Leiden: Brill, 2007. – P.33.

²⁹⁶ *Op.cit.*, – P.101.

²⁹⁷ Расторгуева В. С., Эдельман Д. И. Этимологический словарь иранских языков. Том 1. – Москва: «Восточная литература», 2003 – С.124.

²⁹⁸ Cheung J. Etymological dictionary of the Iranian verb. – Leiden: Brill, 2007. – P.234.

²⁹⁹ Расторгуева В. С., Эдельман Д. И. Этимологический словарь иранских языков. Том 1. – Москва: «Восточная литература», 2003 – С.124.

³⁰⁰ Cheung J. Etymological dictionary of the Iranian verb. – Leiden: Brill, 2007. – P.234.

³⁰¹ Nourai A. An Etymological Dictionary of Persian, English and other Indo-European Languages. – Bloomington, Indiana, United States: Xlibris Corporation press, 2013. – P.141.

“tug‘ilmoq”, shuningdek, “yasalmoq” ma’nosida, maS (*šam*)³⁰², ya’ni “yutmoq”, “yutunmoq” fe’li sanskrit tilida चमि (*cami*), ya’ni “ho‘plamoq”, “tomoqni ho‘llamoq” ma’nosida va cap (*pač*)³⁰³, ya’ni “pishirmoq” fe’lining sanskrit tilida पच् (*pac*), ya’ni “pishirmoq”, “yopmoq” ma’nosida qo‘llanilishi bu fikrning dalilidir.

Shuningdek, ba’zi bir mushtarak holat fe’llari ham mavjud bo‘lib, sanskrit tilida ularning ma’nosi biroz kengaygan. Masalan, avesto tilida sAn (*nās*), ya’ni “yo‘qolmoq” fe’li ahamoniy podshohlar bitiklarida vinaq (*vināθ*), ya’ni “ziyon yetkazmoq”, “yo‘q qilmoq” ma’nosida, vedik sanskritda esa नस् (*nas*) “yo‘qolmoq”, “o‘lmoq”, shuningdek, “halok bo‘lmoq” ma’nosida qo‘llangan³⁰⁴.

Ot so‘z turkumiga oid aksariyat mushtarak so‘zlarning sanskrit tilidagi variantida ham ma’no kengayishi hodisasi kuzatiladi. Masalan, qadimgi eroniy tillarda, xususan, avesto tilida “suv” leksemasi pA (*āp*) deb yuritilgan³⁰⁵. Sanskrit tilida esa bu so‘z आब (*āb*) ko‘rinishida uchraydi³⁰⁶. Ammo sanskrit tilida bu so‘z “suv” emas, balki “daryo” ma’nosida qo‘llangan. Hindiston yarimorolining shimoliy o‘lkasi “Panjob” nomi bilan yuritiladi. Chunki bu hududdan Hind daryosining besh irmoq-daryolari oqadi va ushbu daryolar oqib o‘tuvchi keng vodiy “Panjāb”, ya’ni “*bash daryo*” deb ataladi.

Qadimgi eroniy tillari, jumladan, avesto va ahamoniy hukmdorlar bitiklarida “matodan tayyorlangan yopinchiq”, yoki eshik yo derazaga tashlab qo‘yiladigan “gazlama”, ya’ni parda *partaka* (avesto tilida akatrap, ahamoniylar bitiklarida prtka) deyilgan³⁰⁷. Ushbu so‘z sanskrit tilida पतह (*patah*) ko‘rinishida uchraydi³⁰⁸ va uning “parda” ma’nosidan tashqari “kiyim”, “kanopdan to‘qilgan dag‘al mato” ma’nolari ham bo‘lgan. Xuddi shunday “kiyim” ma’nosini anglatuvchi avestocha artsaw (*vastra*) va ahamoniylar bitiklaridagi vhana (*vahāna*) leksemasi ham sanskrit tilida वसन (*vasana*) shaklida namoyon bo‘ladi va bu so‘z “o‘ram”, “qop” va “tom” ma’nolarini bildiradi³⁰⁹.

Fe’l va ot so‘z turkumidan tashqari sifat va ravish so‘z turkumlariga oid mushtarak so‘zlarning sanskritcha variantida ham ma’no kengayishi nazarga tashlanadi. Masalan, avesto tilida aSuruop (*pouruša*) so‘zi mavjud bo‘lib, ushbu so‘z

³⁰² Cheung J. Etymological dictionary of the Iranian verb. – Leiden: Brill, 2007. – P.40.

³⁰³ *Op.cit.*, – P.287.

³⁰⁴ Cheung J. Etymological dictionary of the Iranian verb. – Leiden: Brill, 2007. – P.282.

³⁰⁵ Nourai A. An Etymological Dictionary of Persian, English and other Indo-European Languages. – Bloomington, Indiana, United States: Xlibris Corporation press, 2013. – P.1.

³⁰⁶ *Op.cit.*

³⁰⁷ *Op.cit.*, – P.361.

³⁰⁸ *Op.cit.*

³⁰⁹ Nourai A. An Etymological Dictionary of Persian, English and other Indo-European Languages. – Bloomington, Indiana, United States: Xlibris Corporation press, 2013. – P.521.

“kulrang” ma’nosini anglatadi³¹⁰. Ushbu so‘z bilan bir sathda turuvchi sanskritcha परूसः (*parūsah*) leksemasi esa “rangli”, “rang-barang” ma’nolarida qo‘llangan³¹¹.

Shuningdek, protohind-eron tilidagi **sam*, ya’ni “yoz” (fasl) so‘zi avesto tilida mah (*ham*) yoki amah (*hama*) ko‘rinishida uchraydi³¹² va unda ma’no (ya’ni yoz fasli ma’nosi) saqlangan. Bu so‘z sanskrit tiliga सम (samā) shaklida o‘tgan³¹³, ammo ma’nosi kengaygan, ya’ni “yoz fasli” emas, balki “yarim yil” ma’nosida iste’molda bo‘lgan.

2.2. Qadimgi fors tilida ma’nosi kengaygan mushtarak so‘zlar

Sanskrit va qadimgi fors tillarida ba’zi mushtarak so‘zlar borki, ushbu so‘zlarning qadimgi forscha variantida ma’no kengayishi hodisasini kuzatish mumkin. Ularning aksariyati ot so‘z turkumiga oid so‘zlar bo‘lib, ular orasida ko‘proq predmet nomlari uchraydi, masalan:

Sanskrit tilida “yurak” ma’nosi हृद्यम् (*hrdyam*) so‘zi orqali ifodalangan bo‘lib, bu so‘zning kelib chiqishi protohind-yevropa tilidagi **kred* (yoki **kerd*) so‘zi bilan bog‘liq³¹⁴. Bu so‘z qadimgi fors tilida, xususan, ahamoniy hukmdorlar bitiklarida zered (*zered*) yoki zeredaya (*zeredaya*) ko‘rinishida uchraydi³¹⁵ va ushbu so‘zning “yurak” ma’nosidan tashqari “markaz” ma’nosi ham mavjud.

Eronlik taniqli sharqshunos Ali Nourai ma’lumotlariga ko‘ra protohind-yevropa tilida “poyabzal” yoki “paypoq” ma’nosi **meuk* so‘zi bilan ifodalangan³¹⁶. Ushbu so‘z sanskrit tiliga मोच (*moc*) shaklida kirib kelgan va u faqat “poyabzal” ma’nosida qo‘llangan³¹⁷. Ushbu so‘zning qadimgi eroniy, xususan, avestocha varianti coam (*maoč*) ko‘rinishida bo‘lib, bu so‘z nafaqat “poyabzal” ma’nosida, balki aynan “etik” ma’nosida ham qo‘llangan³¹⁸.

Rus eronshunos olimasi V.S.Rastorguyevaning ma’lumotlariga ko‘ra protohind-eroniy **aias* so‘zi “metall”, shuningdek, “bronza” (*jez*) ma’nosini ifodalagan³¹⁹. Bu so‘z vedik sanskritda अयस् (*ayas*) shaklida uchraydi³²⁰ va protohind-eron tilidagi ma’no ham saqlangan. Gatik avesto tilida esa bu so‘z haya (*ayah*) ko‘rinishida va

³¹⁰ Cheung J. Etymological dictionary of the Iranian verb. – Leiden: Brill, 2007. – P.254.

³¹¹ *Op.cit.*

³¹² *Op.cit.*, – P.413.

³¹³ *Op.cit.*

³¹⁴ *Op.cit.*, – P.229.

³¹⁵ Nourai A. An Etymological Dictionary of Persian, English and other Indo-European Languages. – Bloomington, Indiana, United States: Xlibris Corporation press, 2013. – P.229.

³¹⁶ *Op.cit.*, – P.309.

³¹⁷ *Op.cit.*

³¹⁸ *Op.cit.*

³¹⁹ Расторгуева В. С., Эдельман Д. И. Этимологический словарь иранских языков. Том 1. – Москва: «Восточная литература», 2003 – С.124.

³²⁰ *Op.cit.*

uning “metall” ma’nosidan tashqari “metall idish”, “qozon” hamda “temir” ma’nolari ham mavjud³²¹.

Shuningdek, sanskrit tilida ma’nosi saqlangan, qadimgi fors tilida esa ma’nosi kengaygan mushtarak mavhum otlar ham mavjud, masalan:

protohind-eron tilida *ama leksemasi uchraydi, bu soʻz “kuch”, shuningdek, “hujum” ma’nolarini ifoda etgan³²². Ushbu soʻz vedik va klassik sanskrit tilida अम (ama) koʻrinishida uchrab, “kuch”, “hujum”, “hujumkor kuch” ma’nolarini bildirgan³²³. *ama soʻzi gatik avestoga amV (āma), yosh avesto tiliga ama (ama) shaklida oʻtgan, ammo “hujum”, “hujumkor kuch” ma’nolaridan tashqari “erkakning jismoniy kuchi” ma’nosi ham mavjud boʻlgan³²⁴.

Sanskrit tilida वज्र (vāja) leksimasi mavjud boʻlib, u “qudrat”, “kuch” ma’nosini anglatadi³²⁵. Avesto tilida esa zAv (vāz) soʻzi “kuch-qudrat”, “ulugʻlik” ma’nolarini, ahamoniy podshohlar bitiklarida vzrka (vazraka) soʻzi “ulugʻ”, “ulkan” ma’nosini anglatgan³²⁶.

Sanskrit tilida “yosh” hisob soʻzi वस्त (vasta) shaklida ifodalangan. Ushbu soʻz bilan mushtarak hisoblanuvchi avesto tilidagi asaw (vasa) soʻzi “bir yoshli bola”, “goʻdak” ma’nolarini bildirgan³²⁷.

Qadimgi fors tilida ma’nosi kengaygan mushtarak feʼllar ham mavjud, masalan: protohind-eron tilida *an degan feʼl boʻlgan va u “nafas olmoq” ma’nosini anglatgan³²⁸. Xuddi shu feʼl sanskrit tiliga अं (an) yoki अंइति (aniti) shaklida “nafas olmoq” ma’nosi bilan kirib kelgan³²⁹. Ammo yosh avesto tilida bu feʼl na (an) koʻrinishida uchraydi, uning “nafas olmoq” ma’nosidan tashqari “puflamoq” ma’nosi ham boʻlgan³³⁰. Shuningdek, sanskrit tilida “bosmoq” ma’nosini ifodalovchi सु (su) feʼli boʻlgan va avesto tilidagi bu feʼlga qiyoslanuvchi uah (hau) feʼli mavjud boʻlib, u “bosmoq” va “ezmoq”, “yanchimoq” ma’nosini ham ifodalagan³³¹.

³²¹ Расторгуева В. С., Эдельман Д. И. Этимологический словарь иранских языков. Том 1. – Москва: «Восточная литература», 2003 – С.146.

³²² *Op.cit.*, – P.152.

³²³ *Op.cit.*

³²⁴ Расторгуева В. С., Эдельман Д. И. Этимологический словарь иранских языков. Том 1. – Москва: «Восточная литература», 2003 – С.152.

³²⁵ Nourai A. An Etymological Dictionary of Persian, English and other Indo-European Languages. – Bloomington, Indiana, United States: Xlibris Corporation press, 2013. – P.229.

³²⁶ *Op.cit.*, – P.500.

³²⁷ *Op.cit.*, – P.522.

³²⁸ Расторгуева В. С., Эдельман Д. И. Этимологический словарь иранских языков. Том 1. – Москва: «Восточная литература», 2003 – С.153.

³²⁹ *Op.cit.*

³³⁰ *Op.cit.*

³³¹ Nourai A. An Etymological Dictionary of Persian, English and other Indo-European Languages. – Bloomington, Indiana, United States: Xlibris Corporation press, 2013. – P.418.

Sanskrit va qadimgi fors tillarida forscha variantida ma'nosi kengaygan sifat va ravish turkumiga mansub so'zlar ham uchraydi. Masalan, sanskrit tilidagi स्वर्ण (svarna) sifati "oltinrang", "yaltiroq" ma'nolarini anglatgan³³². Ushbu sifatga qiyoslanuvchi avestocha aneraz (zarena) sifatining "oltinrang", "sariq" ma'nolari bo'lgan va ahamoniy podshohlar bitiklaridagi daraniya (daraniya) so'zi "oltin" ma'nosini anglatgan³³³.

Shuningdek, protohind-eron tilidagi "boshqa", "o'zga", "begona" ma'nosini ifodalovchi *antara so'zi talaffuzi va ma'nosini saqlagan holda sanskrit tilida mavjud bo'lgan, biroq ushbu sifat yosh avesto tilida aratna (antara) shaklida uchraydi va uning "boshqa" va "ikkinchi" ma'nolari mavjud³³⁴.

Sanskrit tilida उच्च (ucca) ravishi bo'lib, u "yuqori", "baland" ma'nolarini ifodalagan. Biroq ushbu so'zga qiyoslanuvchi avestocha su (us), ahamoniy hukmdorlar bitiklaridagi ud (ud) ravishining "yuqori" ma'nosidan tashqari "tepalik" ma'nosi ham bo'lgan³³⁵.

2.3. Sanskrit tilida ma'nosi toraygan mushtarak so'zlar

Sanskrit tilida ma'nosi toraygan mushtarak so'zlar ichida miqdor jihatidan eng ko'p uchragani – bu ot so'z turkumiga oid so'zlardir. Masalan:

protohind-eron tilida "barmoq" ma'nosi *angušt(h)a yoki *angušt(h)i so'zi orqali ifodalangan³³⁶. Ushbu so'z oyoq va qo'l barmoqlari uchun barobar qo'llangan. Bu so'z avesto tiliga shu ma'noni saqlagan holda atSugna (angušta) shaklida namoyon bo'ladi, ammo sanskrit tilidagi अङ्गुष्ठा (anguṣṭha) so'zi faqat "bosh barmoq", ya'ni qo'lning bosh barmog'ini anglatgan³³⁷.

"bulut" ma'nosi protohind-eron tilida *abhra so'zi orqali ifoda etilgan va shu ma'no saqlangan holda avesto tiliga arwa (awra), qadimgi fors tiliga abra (abra) shaklida qo'llangan. Ammo sanskrit tilidagi अभ्र (abhra) so'zi faqat "yomg'irli bulut" ma'nosini anglatgan³³⁸.

Shuningdek, sanskrit tilida ma'nosi toraygan fe'llar ham mavjud bo'lgan, masalan:

³³²Nourai A. An Etymological Dictionary of Persian, English and other Indo-European Languages. – Bloomington, Indiana, United States: Xlibris Corporation press, 2013. – P.155.

³³³ Op.cit.

³³⁴ Расторгуева В. С., Эдельман Д. И. Этимологический словарь иранских языков. Том 1. – Москва: «Восточная литература», 2003 – С.158.

³³⁵ Nourai A. An Etymological Dictionary of Persian, English and other Indo-European Languages. – Bloomington, Indiana, United States: Xlibris Corporation press, 2013. – P.701.

³³⁶ Расторгуева В. С., Эдельман Д. И. Этимологический словарь иранских языков. Том 1. – Москва: «Восточная литература», 2003 – С.169.

³³⁷ Расторгуева В. С., Эдельман Д. И. Этимологический словарь иранских языков. Том 1. – Москва: «Восточная литература», 2003 – С.169.

³³⁸ Op.cit., – P.74.

protohind-eron tilida **baud* fe'li bo'lgan va u "sezmoq", "his qilmoq", "uyg'onmoq" ma'nolarini bildirgan³³⁹. Bu fe'l xuddi shu ma'nolarda gatik avestoda doab (*baod*) shaklida uchraydi, ammo sanskrit tilidagi बोध (*bodh*) fe'li faqat "uyg'onmoq" ma'nosida qo'llangani ma'lum. Shu jihatdan ushbu fe'lning ma'nosi toraygan, deyish mumkin³⁴⁰.

2.4. Qadimgi fors tilida ma'nosi toraygan mushtarak so'zlar

Bu kabi mushtarak so'zlar unchalik ko'p emas va ular asosan ot so'z turkumiga oid so'zlardir, masalan;

Sanskrit tilida "sigir" ma'nosi अघ्न्या (*aghnyā*) so'zi bilan ham ifodalangan va अघ्न्य (*aghny*) so'zi "buqa" ma'nosida qo'llangan³⁴¹. Gatik avesto tilida esa Aynvga (*agənyā*) so'zi umuman "sigir" ma'nosida emas, balki "sog'in sigir" ma'nosida ishlatilgan³⁴².

Sanskrit tilida oyoqning tizzadan pastki qismi umumiy qilib जंघा (*janghā*) nomi bilan atalgan. Bu so'z avesto tilidagi agnaz (*zanga*) so'zi bilan qiyoslanadi va u faqat "to'piq" ma'nosida qo'llangan, xolos³⁴³.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, sanskrit va qadimgi fors tillarida o'zaro solishtirilganda ma'nosi kengaygan va toraygan mushtarak so'zlar soni bir necha yuzni tashkil etadi. Ularning aksariyati ot, shuningdek, fe'l so'z turkumlariga oidligi aniqlandi. Shuningdek, ushbu so'zlarni protohind-eron tilidagi so'zlar bilan solishtirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu mushtarak so'zlardagi ma'noviy xususiyatlarni o'rganish ushbu tillarning davomchisi bo'lmish zamonaviy hind-oriy va eroniy tillarning qanday ravishda bu holatga kelib qolganini va ularning lug'at boyligidagi so'zlarning ma'noviy imkoniyatlarini tushunishga ham imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Cheung J. Etymological dictionary of the Iranian verb. – Leiden: Brill, 2007. – 603 p.
2. Jackson A. V. W. An Avesta grammar in comparison with Sanskrit and the Avestan alphabet and its transcription. – New York: AMS Press, 1892. – 362 p.
3. Kuz'mina E.E. The origin of the Indo-Iranians. – Lieden: Brill, 2007. – 782 p.

³³⁹ Cheung J. Etymological dictionary of the Iranian verb. – Leiden: Brill, 2007. – P.15.

³⁴⁰ *Op.cit.*

³⁴¹ Расторгуева В. С., Эдельман Д. И. Этимологический словарь иранских языков. Том 1. – Москва: «Восточная литература», 2003 – С.86.

³⁴² *Op.cit.*

³⁴³ Nourai A. An Etymological Dictionary of Persian, English and other Indo-European Languages. – Bloomington, Indiana, United States: Xlibris Corporation press, 2013. – P.418.

4. Nourai A. An Etymological Dictionary of Persian, English and other Indo-European Languages. – Bloomington, Indiana, United States: Xlibris Corporation press, 2013. – 814 p.
5. Witzel M. Autochthonous Aryans? The evidence from old Indian and Iranian texts// Electronic Journal of Vedic Studies. – Chicago, 2001. – № 3(7) – 118 p.
6. Елизаренкова Т.Я. Ведийский язык. – Москва: «НАУКА», 1987. – 181 с.
7. Расторгуева В. С., Эдельман Д. И. Этимологический словарь иранских языков. Том 1. – Москва: «Восточная литература», 2003 – 480 с.

HINDISTONDA BUDDAVIYLIK DINIY-FALSAFIY TA'LIMOTIDA BORLIQ MASALALARINI QO'YILISHI

To'lanboyeva Qorako'z Muxtorjon qizi

3-kurs Falsafa (Sharq falsafasi va madaniyati) talim yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: Jasur Sulaymonov

PhD, Sharq falsafasi va madaniyati kafedراسi muduri

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada buddaviylikning Hindistonda vujudga kelishi, shakllanish sabablari hamda unda ilgari surilgan diniy-falsafiy masalalar bayon etiladi. Xususan, ontologik jihatlari tahlil qilinadi.

Tayanch tushuncha va iboralar: shimoliy Hindiston, hinduviylik, kastalar, buddaviylik, Sidhartha Gautama, falsafiy qarashlar, borliq, to'rt oliy haqiqat, bhava, falsafiy maktablar, mavjudlik, yo'qlik, qayta tug'ilish, nirvana, qadimgi nutqlar.

ABSTRACT

This article describes the emergence of Buddhism in India, the reasons for its formation, and the religious and philosophical issues raised in it. In particular, ontological aspects are analyzed.

Key concepts and terms: northern India, Hinduism, castes, Buddhism, Siddhartha Gautama, philosophical views, existence, four supreme truths, bhava, philosophical schools, existence, non-existence, rebirth, nirvana, ancient discourses.

KIRISH

Buddaviylik haqida so'z yuritar ekanmiz, eng avvalo uning vujudga kelish sabablarini va keng hududga yoyilish omillarini ko'rib chiqishimiz uning falsafiy ta'limotlari haqida to'laroq tasavvurga ega bo'lamizni ta'minlaydi. Buddaviylik Hindistonda miloddan avvalgi VI asrda Sidhartha Gautama tomonidan asos solingan. Ana endi davriy nuqtai nazardan qaralsa, bu davrgacha Hind diyorida asosiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan din hinduviylik edi. Savol tugiladi: nega buddaviylik bunday vaziyatda shakllandi? Bunga tatqiqotchilar turlicha talqin berishadi. Asosan hinduviylikda mavjud bo'lgan kastalar tizimi jamiyatda, ijtimoiy hayotda tengsizlikni keltirib chiqarargan. Aholining quyi qatlami ham ma'lum bir erkinliklarga ega bo'lishni xohlar edi. Ayni shu sababdan buddaviylik yuzaga keldi. Buddaviylida kasta-varna tizimi mavjud emas. Ular vedalarni inkor etishlariga qaramay, hinduviylikdagi bir qancha xususiyatlarni qabul qilgan. Umuman olganda, buddaviylik erkinlik berish xususiyati bilan o'z davrida ajralib turgan. Bu diniy-falsafiy ta'limotda ham sansara va nirvana tushunchalari bor. Buddaviylikning

dastlabki davrlarida Xudo mavjud bo'lmagan. Chunki azob-uqubatlardan Xudolar halos etmaydi deb tushunishgan. Keyinchalik Sidhartha Gautamaning o'zi Budda, ya'ni Xudo deb qabul qilinadi. Budda bu „nurlangan” degan ma'noga ega.

Hind tafakkuridagi falsafiy qarashlar juda xilma-xil va boy. Ular orasida buddaviylikdagi ontologiya, borliq masalasi muhim o'rin tutadi. Har bir diniy va diniy-falsafiy ta'limotlar falsafiy masalalarga o'zining munosabatini bildirgan. Buddaviylikda ontologiyaga bag'ishlangan izohlar bir birini takrorlamaydi. Borliq, mavjudlik haqidagi tafakkur gnoseologiya bilan bevosita bog'liqdir. Buning sabablarini quyida keltirib o'tamiz.

Budda ta'limotida asosiy e'tibor insonning ozot etilishiga, oliy haqiqatga erishishiga qaratiladi. Bu ozodlik holati nirvana deyiladi. Bu atama ko'p jihatdan boshqa an'analardagi **moksha** atamasiga to'g'ri keladi.³⁴⁴

Borliq, mavjudlik yoki yo'qlik haqida so'z yuritar ekanmiz, uning mohiyatini tushunib olishimiz kerak. Borliq bu bizni o'rab turgan va biz bilan bog'liq bo'lgan olamdir. Mavjudlik hamda yo'qlik borliqning ichidagi birliklardir.

Buddaviylik ta'limoti mavjudlik, borliq tushunchalarini to'rt oliy haqiqat asosida ifodalaydi. Buddist tafakkurining qadimiy tarixida bir nechta maktablar mavjudlikka nisbatan realistik yondashuvlarga qarshi turli tizimlarni, konsepsiyalar ishlab chiqdilar. Masalan, Yogakara barcha voqeliklarning ong va uning qanday qabul qilishi bilan bog'liqligi haqidagi da'vosi bilan mashhur. Madhyamaka voqelikning hech qanday o'ziga xos borligini topib bo'lmaydi degan da'voni ilgari surgan. Bu maktab „aqlga aloqador bo'lmagan” voqeliklarning yo'q ekanligi tasdiqlana oladigan asosiy nuqtai nazarni asosiy qarash sifatida hisoblaydi. Ba'zi yondoshuvlar Yogakara va Madhyamaka maktablarini qarama-qarshi deb qabul qilgan. Lekin keyingi davrlarda bu ikki maktab bir birini to'ldiruvchi jihatlarini namoyon etgan.

Sarvastivada maktabi hatto barcha voqeliklar, jumladan o'tmish va kelajak o'ziga xos mavjudlikka ega ekanligini ta'kidladilar. Buning natijasida realizmning bu shakli keyingi norealistik maktablarning maqsadlaridan biri bo'lgan bo'lishi ham mumkin.

Mavjudlik buddaviylikda **bhava** so'zi orqali ifodalanadi. Pali nutqlarida ham aynan mavjudlik (bhava) to'g'risida so'z ketadi. Bunga ko'ra, mavjudlik (Pali bhava) shartli birgalikda kelib chiqishning o'n ikki qirrali tuzilishida hamda to'rtta oliyjanob haqiqatda asosiy rol o'ynaydi.³⁴⁵ Ya'ni buddaviylikka oid bo'lgan matnlarda mavjudlik, borliq masalalari muhokama etilgan. Pali nutqi matnlaridan tashqari yana bir qancha matnlarni keltirish mumkin.

³⁴⁴ Gunnar Skirbekk, Niels Gilye „Falsafa tarixi” T.: „Sharq” nashriyoti, 2002.- 48.c

³⁴⁵ <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC9662180/>

Buddaviylik an'alarining dastlabki paytlaridagi ilgari surilgan tafakkurda realistik yondashuvlar aks etganligi bir qancha savollarni keltirib chiqaradi. Chunki bugungi kunda buddistik tafakkur antirealistik ekanligi da'vo qilinadi.

Umuman olganda, buddaviylik ta'limotlaridagi nutqlarda borliq masalasi shartli birgalikda mavjud bo'lish tushunchasi haqidagi qarashlar asosiy o'rinda turadi. Buddaviylik tafakkuriga oid bo'lgan bugungi falsafiy ilm-fan Abhidharmani buddaning falsafasidagi boshlang'ich nuqta deb qaraladi va ilk mavjudlik haqidagi izlanishlar aks etganligi aytiladi. Mahayana yo'nalishining ko'zga ko'ringan vakili Ikkinchi asr hind buddist faylasufi Nagarjuna o'z qarashlarida buddaning shartli birgalikda mavjud bo'lishi to'g'risidagi yondashuvga ega. Uning bu qarashlari antirealistik ekanligi ba'zi izlanuvchilar tomonidan shubha ostida turadi. Nagarjuna shunyatan (bo'shliq) voqelikning asl mohiyatini tavsiflash uchun emas, balki har qanday narsaning mavjudligi o'z-o'zida yoki o'ziga xos voqeligi borligini inkor etish uchun ishlatgan.

Mahayana an'analari keyingi paytlarda boshqa matnlardagi manbalarga tayangan bo'lishiga qaramay, bu nutqlarni inkor etmaydi, balki uni yana-da to'ldiradi va chuqurroq tahlil etadi.

Avvalgi davrlarda, Abhidharma tafakkurining ma'lum yo'nalishlari va keyinchalik sharhiy adabiyotlar mavjudotlarni qayta tiklash tendentsiyasini ko'rsatdi. Ba'zi ob'ektlar haqiqatan ham haqiqiy emas va haqiqatda mavjud emas, chunki ularni yanada asosiy ob'ektlar nuqtai nazaridan tahlil qilish va parchalash mumkin, keyinchalik ular chinakam haqiqiy hisoblanadi. Ushbu turdagi mereologik nigilizm (butunlar haqiqiy mavjudotlar emas) tufayli mavjud bo'lib ko'rinadigan, lekin haqiqiy bo'lmagan narsalar bilan haqiqiy va o'z mavjudligiga ega bo'lgan narsalar o'rtasida dixotomiya paydo bo'ladi.³⁴⁶ Shu o'rinda **dixotomiyaga** ozroq ta'rif berib o'tsak. Dixotomiya - ikkilik yoki bir-biridan ichki jihatdan ko'proq bog'liq bo'lgan ikki qismga bo'linish. Sinfni mantiqiy ravishda kichik sinflarga bo'lish usuli, bu bo'lingan kontsepsiyani ikkita bir-birini mutlaqo istisno qiluvchi tushunchalarga bo'lishdan iborat. Matematika, falsafa, mantiq va tilshunoslikdagi ikki tomonlama bo'linish tushuncha yoki atamaning bo'linmalarini shakllantirish usuli bo'lib, elementlarning tasnifini yaratishga xizmat qiladi.³⁴⁷ Bir so'z bilan aytganda IN va YAN misolida tushunish mumkin.

Shuningdek, buddaviylikdagi qadimgi nutqlarda borliq va mavjudlik insonlarning ijtimoiy hayotlaridagi oddiy biror harakatlarini izohlash uchun mavjudlikni ishlatishini va bu orqali nimaga erishmoqchi ekanliklarini muhokama

³⁴⁶ <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC9662180/>

³⁴⁷ <https://az.m.wikipedia.org/wiki/Dixotomiya>

qilinadi. Mavjudlik tushunchasi qanday paydo bo‘ladi degan savolni o‘rtaga qo‘yadilar. Ko‘plab tatqiqotchilar ontologik masalalar tahlilida aynan Buddaviylikning bitiklaridagi nutqlar va matnlardan foydalanishadi. Ulardagi qadimiy g‘oyalarni tahlil etish orqali buddaviylik tafakkurida borliqni tushunish qanday ekanligini ochib beradi.

Buddaviylikda mavjudlik keyingi davrlarda sva-bhava so‘zi orqali ifodalanadi. Sva-bhava tushunchasi hech bir nutqlarda uchramasa ham Abhidharma adabiyoti mavjud. Abhidharmaga tarixiy nuqtayi nazar bilan qarasa, uning asosiy vazivafi xatoliklarni „tozalashdan“ tashqari o‘sha davrda mavjud bo‘lgan buddistik falsafiy maktablari o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni ham ochib bergan. Ko‘p holatlarga ko‘ra Abhidharma nutqlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘rganadi, shu sababli matnlarda ifodalangan fikrlarni chalkashtirib yuboradi deb qarovchilar ham bor.

Shuningdek, shaxsiy o‘ziga xoslik tushunchasi ham nutqlarda keltirilgan. Uni „Atman va uning inkori“ deb ifodalaydilar. Ba‘zi o‘rganishlarda o‘z-o‘zini anglash hamda mavjudlik va fazo-vaqtning konseptual tuzilishi jihatlarini ochib berilgan. Bu ma’lum bir tendensiya hisoblanadi.

Nutqlarda mavjudlikning qanday paydo bo‘lishi va uning ortida ishlab turuvchi qandaydir mexanizmni aniqlash uchun fikr yuritiladi. Ular oddiy odamlar o‘zlarining maishiy hayotlarida ham biror narsani ifodalash anglatish uchun mavjudlikdan foydalanishlarining sabablarini o‘rganganlar. Aniqroq qilib aytganda, mavjudlik biror narsa va hodisaga egalik yoki o‘zlashtirish, ma’lum huquqqa bo‘lgan munosabatlarda qanday ahamiyatga ega bo‘la oladi? U yoki bu narsani qanday qilib „meniki“ deb aytish mumkin? Bundan tashqari, „Bu tana meniki“, degan haqiqat „bu tana mavjud“ degan xulosani keltirib chiqaradi. Bu harakatda muammo sifatida, undagi barqarorlik darajasi talab etilishi keltiriladi. Mavjudlik ma’lum noaniqlik, mavhumlikni yashirish uchun ishlatiladi va bu bilan haqiqiy egalikni keltirib chiqaradi. O‘zlashtirib bo‘lmaydigan narsalarni o‘zlashtirishga harakat qilish umidsizlikka olib keladi, shuning uchun nutqlar azob-uqubatlarga sabab bo‘luvchi umidsizlikdan uzoq turishga chorlaydi.

Nutqlar bhavani asosiy xususiyat tarzida emas, balki tajribaning qayta tug‘ilishga olib keluvchi shartli birgalikda kelib chiqish tizimidagi bir bo‘g‘ini deb qabul qilinadi. Bu borliq va uning ma’nosi tuyg‘uga ega mavjudodlarning voqelikdagi yashashlari bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Borliqdagi shartlilik avvalgi sharoitlardan kelib chiqadi. Mavjudlik bir-biri bilan bog‘langan zanjirdan iborat. Klassik tasvirlanishiga ko‘ra, zanjirning 12 ta bo‘g‘ini mavjud. Shartli birgalikda mavjud bo‘lish qonunida tug‘ilish, azob-uqubatlar va o‘limning qayta yangilanishi siklidan chiqib ketish uchun 8 ta yo‘l beriladi.

Buddaviylikda yana bir munozarali masalasi bor, ya'ni „o'zlik" haqida. Xususan, buddizmning fundamental g'oyalaridan biri dunyoni narsalar yoki substansiyalar emas, balki jarayonlar atamalarida idrok qilish haqidagi talabdir. Biroq unda biz „o'zlik"ning yoki aniqrog'i - „Men-o'zim"ning o'zgarishligi to'g'risida gapirishimiz mumkin emas. „O'zlik" individual negizida yotadigan psixik sunstansiya bo'lishi mumkin emas. Buddizmga binoan, biz boshdan kechiradigan narsalar faqat har qanday lahzada bizning individualligimizni o'zgartirishi mumkin bo'lgan ongning joriy va o'tkinchi holatlarining oqimi hisoblanadi.³⁴⁸

Mavjudlik bu bizning istaklarimiz bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin deyiladi. Chunki „meniki" deb ayta oladigan narsalarimizga qadr berganimizda uni istaklarimizdan kelib chiqib belgilaymiz. Tug'ilish esa o'sha istakdagi narsa yoki hodisadir.

Budda mavjudlik va yo'qlikni anglash hamda ularning chegaralari haqidagi savollarni inkor etadi. Bu savollar natijasida voqeliklar sodir bo'luvchi dunyo va o'limdan keyin nima bo'lishi mumkin degan fikrlar kelib chiqadi. Balki shu juhatga ko'ra Budda nutqlarida bunday savollar noto'g'ri qo'yilgan hamda uning asosi muammolarga ega. Buddaviylik tafakkurida borliqni mavjud yoki yo'q bo'lishi mumkin deb hisoblaydilar. Mavjudlik va yo'qlik tushunchalari bu ma'lum bir qarash, yondashuv deb ifodalaydilar. Ya'ni borliqni tushunishda mavjudlik yoki yo'qlik pozitsiyasida anglashdir.

Bhava uch qismga bo'linadi: hissiyot, istaklar bilan bog'liq bo'lgan bhava – kamabhava, shakl bilan bog'liq bo'lgan bhava – rupabhava, shaklsiz, jismga ega bo'lmagan bhava – arupabhava. Bu qismlar orqali tug'ilishning mumkin bo'lgan uch holatini ko'rsatadi. Boshqa qadimgi nutqlarda keltirilishicha, mavjudlik o'ziga xos tarzda paydo bo'ladi, uning qanday xususiyatda ekanligi jarayonga bog'liq. Bhavaning uch qismga bo'linishi Buddaning meditatsiyasida ham aks etadi. Chunki budda meditatsiyasida uch tomonlama bo'linish mavjud. Meditatsiya jarayonida hissiy lazzatlar dunyosi – mana shu oddiy olamdagi tuyg'ularni cheklash orqali voz kechiladi. Shakllar dunyosida esa to'rt ketma-ketlik ko'riladi. Buddaning mavjudlikning uch belgisi nazariyasida „Tilakhana“ tenglamasi aniq ishlab chiqilgan.

Yo'qlik tushunchasini vibhava shaklida keladi. U buddaga beriladigan ba'zi savollarda uchraydi. Biz buni mavjudlik va yo'qlik o'rtasidagi dixotoma orqali bilamiz.

³⁴⁸ Gunnar Skirbekk, Niels Gilje „Falsafa tarixi" T.: „Sharq" nashriyoti, 2002.- 50.c

XULOSA

Buddaviylikning mavjud bo'lganidan bu kungacha bo'lgan ta'limotlarini bevosita ikki oqimga bo'lish mumkin, ya'ni realistik va antirealistik yondoshuv asosidagi qarashlar. Buddaviylikdagi falsafiy maktablarning har biri borliq masalasini muhokama etar ekan, o'ziga xos konsepsiyalarga ega, lekin ularni birlashtirib turuvchi jihat mavjud. Buni qayta tug'ilish va to'rt oliy haqiqat asosida ko'rish mumkin. Bir qancha manbalar asosida shuni aytish mumkinki, buddaviylikda borliq, mavjudlik haqidagi tafakkur asosida sabab va oqibat birligi, barcha narsalar o'zidan avvalgi mavjudlikka bog'liqdir. Mavjudlikning yaxlit bir asosi sifatida insondagi „men“ nazarda tutiladi. Chunki ularning tafakkurida „men“ yana qayta tug'ilishi mumkin. Shu sababli ham tug'ilish buddaviylik ta'limotida faqatgina biologik jarayon sifatida qabul qilinmaydi, uni psixologik xususiyatlari bo'yicha kengroq tushuniladi.

Bhava tug'ilish shartidir. Agar bhava bo'lmasa, tug'ilish ham bo'lmaydi. Tug'ilishni nima paydo qiladi, degan savolga bir so'z bilan „men – o'z zimman“ degan izohlash orqali javob beriladi. Aynan shuning uchun ham to'rt oliy haqiqat negzida bhavani uchratamiz.

Buddistlarning doimiylik, istak va haqiqiy baxtga intilish haqidagi nuqtai nazari: „Inson tug'iladi: yashash, azob chekish va o'lish va uning boshiga tushgan narsa fojiali. Oxir-oqibat buni inkor etib bo'lmaydi“. Buyuk amerikalik yozuvchi Tomas Vulfga taalluqli bu ibratli so'z yer yuzidagi insoniyat taqdirini umumlashtiradi. Unda chuqur tushuncha va chuqur hayot falsafasi mavjud.³⁴⁹

Ushbu fikrlardan kelib chiqib savol tug'iladi: hayotning ma'nosi nima? Nega biz bu yerdamiz? Agar biz azob chekib, oxir-oqibat o'ladigan bo'lsak, nega tug'ilganmiz? Har birimiz hayotga nisbatan qarashlarimiz boshqacha va hayotning asl ma'nosini tushunish har bir inson uchun murakkab jarayon. Uni hamma o'z o'lchami bilan baholaydi. Bu murakkab ekzistensial savol deb aytiladi. Asrlar davomida bu kabi savollar ko'plab ruhiy yetakchilar, faylasuflar va boshqa buyuk mutafakkirlarni muhokama mavzusi bo'lib kelgan. Tarix davomida u ko'plab falsafiy, ilmiy va diniy fikrlarni keltirib chiqardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC9662180/>
2. <https://www.britannica.com/topic/Buddhism/The-Four-Noble-Truths>
3. Gunnar Skirbekk, Niels Gilye „Falsafa tarixi“ T.: „Sharq“ nashriyoti, 2002
4. <https://az.m.wikipedia.org/wiki/Dixotomiya>

³⁴⁹ <https://www.britannica.com/topic/Buddhism/The-Four-Noble-Truths>

5. <https://jaiminism.medium.com/buddhist-analysis-of-existence-22e8eb40d291>
6. Sulaymonov, J. B. (2021). XITOIY BUDDAVIYILIGI TA'LIMOTIDA BORLIQ VA BILISH MUAMMOLARINING QO 'YILISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 1), 572-579.

“MUQADDIMA” ASARINING ABUZAYD ABDURAHMON IBN XALDUN IJTIMOIY FALSAFIY TA’LIMOTIDAGI O’RNI

Jasur Sulaymonov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Sharq falsafasi va madaniyati kafedrası mudiri, PhD
<https://orcid.org/0000-0003-0050-8907>
nihatchetin@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Abu Zayd Abdurahmon ibn Xaldunning ijtimoiy falsafiy ta’limotining asosiy manbalariga doir ma’lumotlar tahlil qilingan. Maqolada mutafakkirning “Kitab ul-Ibar”, “Muqaddima” va boshqa asarlari haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so’zlar: *Abu Zayd Abdurahmon ibn Xaldun, “Lubab ul-Muhassal fi Usuli din”, “Kitab ul-Ibar”, “Muqaddima”*

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются основные источники социально-философского учения Абу Зайда Абдуррахмана ибн Халдуна. В статье рассматриваются «Китаб уль-Ибар», «Введение» и другие произведения мыслителя.

Ключевые слова: *Абу Зайд Абдуррахман ибн Халдун, «Лубаб уль-Мухассаль фи Усули дин», «Китаб уль-Ибар», «Введение»*

ABSTRACT

This article analyzes the main sources of the social philosophical teaching of Abu Zayd Abdurrahman ibn Khaldun. The article discusses the thinker's "Kitab ul-Ibar", "Introduction" and other works.

Key words: *Abu Zayd Abdurrahman ibn Khaldun, "Lubab ul-Muhassal fi Usuli din", "Kitab ul-Ibar", "Introduction"*

KIRISH

Ibn Xaldunning eng muhim asari uning jahon tarixi haqidagi III tomlik “Kitab al-Ibar” nomli kitobi va mazkur kitobga muqaddima sifatida yozgan “Muqaddima”sidir. Bu asar haqida ma’lumot berishdan avval uning boshqa ishlari bilan qisqacha tanishtirsak:

1) Lubab ul-Muhassal fi Usuli din (Tetuvan, 1952. Fr. Luchiano Rubio tomonidan nashr etilgan va ispan tiliga tarjima qilingan) Faxriddin Roziyning kalom

mavzusida yozilgan al-Muhassal (Muhassalu efkari'l-mutaqaddimin val-muteahirin minal-ulama val-hukama val-mutakallimin) nomli asari haqida qisqacha ma'lumot beradi, Ibn Xaldun mazkur asarni 19 yoshida yozgan. Bu asar mutafakkirning birinchi asari bo'lib, muallifning xattotligi bilan ko'chirilgan nusxasi bugungi kungacha yetib kelgan. Ibn Xaldun bu asarida Faxriddin Roziy ijodini Nosiriddin Tusiyning bu boradagi fikr-mulohazalaridan qisqacha bayon qilib, yozgan.

- 2) Ibn Rushd asarlarini jamlagan asarlari
- 3) Mantiq bo'yicha eslatma
- 4) Hisob haqida kitob
- 5) Lisanuddin Xatibning "Fiqh usuli" asarining izohi.
- 6) Sharofiddin Abu Abdulloh Busayriyning Kaside-i Burde asariga sharh.

Bu yerda tilga olingan so'nggi besh asar haqida ma'lumot beruvchi yagona manba uning zamondoshi va do'sti Lisanuddin Hatibning (vaf. 776) "al-Ihota fi ahabari Girnata" asaridir. Bu besh asarning birortasi bugungi kunda mavjud emas va Ibn Xaldun "at-Ta'rif"da o'z ma'lumotlarini batafsil bayon qilgan bo'lsa-da, bu asarlarni tilga olmagan. Sati al-Xusriyning fikricha, buning sababi, bu asarlarning yozib olishga arzimaydigan ba'zi ma'ruza matnlaridan iboratligidir³⁵⁰.

7) Shifaus-Sail Li-Tehzibil-Mesail (nshr. Muhammed Tavit et-Tanjiy, Ist. 1958, Ignace Abdo Khalife al-Yassaviy, Bayrut, 1959). Turkcha, Tasavvufning tabiati, tr. S. Uludag, Ist. 1977, 1984).

Ibn Xaldunning bunday nomdagi asari borligi yaqin vaqtgacha fan olamida noma'lum edi. Asarni nashr etgan M.Tavit at-Tanjiy bir qancha qiyoslar qilib, asar uslubi va mazmuniga nazar tashlab, Ibn Xaldunga tegishli degan xulosaga kelgan. Abdalvohid Vofiy esa Shifou's-Sail Ibn Xaldunga emas, balki bu oiladan boshqa Ibn Xaldunga tegishli degan fikrni ilgari surgan.

"Shifou's-Sail"dagi so'fiylik haqidagi fikr va tushuntirishlar "Muqaddima"da aynan shu mavzuda berilgan ma'lumotlarga ko'p jihatdan o'xshash bo'lib, bu masalalarning xolis va real tarzda ko'rib chiqilishidandir³⁵¹.

Ibn Xaldun, Shifou's-Sail asarida Kuseyriy, G'azzoliy va Lisanuddin al-Xotibga ijobiy munosabat bildiradi, shuningdek, tasavvuf tarixi haqida qisqacha ma'lumot berib, bu oqimning islom tizimidagi o'rini katta mahorat bilan aniqlashga muvaffaq bo'ldi. Uning Halloj va Ibn Arabiyga nisbatan qilgan salbiy munosabati e'tiborga olinmasa, bu asardagi baholar musulmonlarning ko'pchiligi tomonidan qabul qilinadigan sifatda deyish mumkin. Shu sababdan "Sifau's-Sail" nashr

³⁵⁰ Uludag Süleyman. İbn Haldun. Hayatı. Eserleri. Fikirleri. – Ankara. Harf Eğitim Yayıncılığı. 2022. – B. 24.

³⁵¹ Abdurrahmon Badaviy, Muellefātu İbn Haldun. – Tunis, 1979. – B. 41-55.

etilgandan so‘ng ko‘plab tadqiqotchilar uchun ajralmas manba va ma‘lumotnoma sifatida ko‘rilgan.

8) at-Ta‘rif bi- Ibn Xaldun va Rihlatuhu G‘arban va Sharqan (Qohira, 1951, nshr. M. Tavit at-Tanjiy, Kitab al-Ibar ilovasi, Qohira, 1860 VII, 379-462). Ibn Xaldun Misrdagi hayoti, faoliyati va sayohatlari tasvirlangan ushbu asarini Kitab al-Ibarga ilova sifatida yozgan va o‘limidan sal avval 807/1404 yilgacha duch kelgan voqealarni bayon qilgan. Xotira va sayohat kitobi bo‘lgan bu asarda o‘sha davrning ijtimoiy, siyosiy, adabiy-madaniy faoliyati haqida juda qimmatli ma‘lumotlar mavjud³⁵².

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ibn Xaldun Andalusiya ikkinchi safaridan qaytgach, 776/1374-yil ramazonida Tlemsanga keldi, qisqa vaqtdan so‘ng Ibn Salama qasriga borib o‘rnashib oldi va o‘zini butunlay ilm va tafakkurga bag‘ishladi. U o‘z tarjimai holidan bu mavzuga to‘xtalar ekan, qisqacha shunday deydi: “Ibn Salama qasriga kelganimda Abu Bakr ibn Orifning ayvoniga joylashdim, u juda katta va mustahkam bino edi. Shu yerda Kitab al-Ibarni yoza boshladim. 779/1377-yil o‘rtalarida birinchi qism “Muqaddima”ni besh oyda tugatdim... Keyin arablar, barbarlar va zenatlar tarixini yozishga kirishdim. Men ular haqida eslab qolgan hamma narsani yozdim. Keyin tushundimki, faqat katta shaharlarda topiladigan asarlar kerak. Bu orada men og‘ir kasal bo‘lib qoldim. Menda ota-bobolarimning osori-atiqalari, konlari, qabrlari joylashgan Tunisga, Sulton Ebul Abbas huzuriga borish istagi paydo bo‘ldi. Yozgan xatimga ijobiy javob olgach, 780/1378-yilda Rajab bilan bu yerdan ketdim. Tunisga kelganimda sulton mendan al-Ibarni to‘ldirishimni so‘radi. Bu erda men ishning Barbar va Zenat tarixi qismini tugatdim. Arablar, Umaviylar va Abbosiylarning islomdan oldingi tarixini yozib, ishimni sultonga taqdim qildim”³⁵³.

Ibn Xaldun tomonidan Tunis saroy kutubxonasiga sovg‘a qilingan Kitab al-Ibarning ushbu nusxasi, shuning uchun Muqaddima “Tunis nusxasi” (Rivaet-i Tunisiyya) deb ataladi. Bu nusxa quyidagi qismlardan iborat: a) Muqaddima b) arablarning islomdan oldingi tarixi c) Umaviylar va abbosiylar tarixining ayrim qismlari, d) Barbar va Zenat tarixi.

Ibn Xaldun Misrga kelgach, bir tomondan “Muqaddima”ga kichik tuzatish va qo‘shimchalar kiritgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan “Kitab al-Ibar”ni kengaytirib, jahon tarixiga aylantirishga harakat qildi. Shu maqsadda u o‘z asariga sharqdagi arab bo‘lmagan sulolalarning sanalarini qo‘shib, 2, 3 va 4-qismlarga yangi boblar qo‘shgan, 7-bob oxirida “at-Ta‘rif” nomi bilan mashhur bo‘lgan avtobiografiyasini

³⁵² Uludağ Süleyman. İbn Haldun. Hayatı. Eserleri. Fikirleri. – Ankara. Harf Eğitim Yayıncılığı. 2022. – B. 26.

³⁵³ Ibn Khaldūn, ‘Abd al-Rahmān. Al-Ta‘rif bi-ibn Khaldūn wa rihlatihi gharban wa sharqan. Ed. Muhammad ibn Tāwīt al-Tanjī. – Cairo: al-Hay‘a al-‘Āmah l-Qusūra Thaqāfa, 2006. – B. 233.

qo‘shgan va Misrda 5-qismni ham yozgan. Misrda asarning bu shakli "Misr nusxasi" deb ataladi. Ibn Xaldun uning nusxasini Zohir Barquq va boshqa nusxasi Marokash hukmdori Abul-Faris Abdulazizga yuboradi. Birinchisi Zahiriy nusxasi, ikkinchisi esa Farziy nusxasi sifatida tanilgan.

Ibn Xaldunning “Kitabu’l-Ibar ve Divanu’l-Mubtedai va’l-Xabar fi Ayyami’l-Arab va’l-Ajam va’l-Barbar va min asarihum min zevi’s-Sultoni’l-akbar” asari “Kitab al-Ibar” deb ham ataladi. Qizig‘i shundaki, u o‘z asarini tartibga solib, tasniflagan va uni Kitobu-Tarjimani’l-Ibar deb atagan. Uning tushunchasiga ko‘ra, muqaddima va uch kitobdan iborat bu asar yetti juz (jild)dan iborat. Ushbu uchta kitobga kiritilgan jildlar va boblar:

I. Muqaddima: (Xutba) 281-290 (Muqaddimaning A.Vafi nashri p. Uludag‘ tarjimasi, 199-208)³⁵⁴. Ibn Xaldun muqaddima asari haqida qisqacha ma’lumot beradi va tarix fanining ahamiyatiga e’tibor qaratadi. Ushbu bo‘limda har bir unvonni yo‘q.

II. Muqaddima: (Muqaddima) (Matn: 291-327, Tarjimasi: 209-267) Bu yerda tilga olingan muqaddimadan maqsad muqaddimadir. Bu yerda Ibn Xaldun tarix fanining ahamiyati, tarixshunoslikda qo‘llanilgan usullarni tekshirish, tarixchilarning yo‘l qo‘ygan xatolari va ulardagi asossiz e’tiqodlari va buning ayrim sabablariga to‘xtalib o‘tadi. U tarix fanining favqulodda go‘zal va har tomonlama tavsifini berib, tarixni tushunishni taqdim etadi. “Inson bilish ilmi” deb atagan yangi va o‘ziga xos fanga asos solganini, bu fanni (ilmni) yaratishdan oldin o‘zidan oldin bu sohada hech kim tadqiqot qilmaganligini, o‘tgan allomalarning hech birida bunday ilmni uchratmaganini haqli va g‘urur bilan ta’kidlaydi..". Bu bo‘limda uning asl va e’tiborga molik qarashlari o‘rin olgan, shuningdek, u ko‘zlagan maqsad va unga erishish yo‘lida qanday yo‘l tutganligi haqida ma’lumotlar berilgan. Shuning uchun ham tadqiqotchilar ushbu bo‘limga alohida baho berganlar.

III. Birinchi kitob (yoki Muqaddima): U dunyoda umranning tabiati va badaviylik, sivilizatsiya, g‘alaba, daromad, yashash, san’at, fan va shunga o‘xshash masalalar bilan bog‘liq sabablar (omillar) haqidadir. : 328-336, tarjima, 253-267) va boblar deb ataladigan oltita asosiy bo‘limdan iborat (matn: 337-1365, tarjima, 271-1429). Ibn Xaldun (Muqaddimatu Ibn Xaldun)ning “Muqaddimasi” zikr qilinganda mana shu uch qism, ya’ni so‘zboshi, muqaddima va birinchi kitob tushuniladi. Ibn Xaldun aslida asarning bu uch qismini Muqaddima deb atamagan. Vaqt o‘tishi bilan asar Muqaddima nomi bilan mashhur bo‘ldi. “Kitab al-Ibar”ning “muqaddima” nomi bilan mashhur bo‘lgan qismi ikkinchi va uchinchi kitoblardan mavzu va mazmun jihatidan farq qilishi, shuning uchun bu qismning ko‘pincha alohida nusxa

³⁵⁴Bu yerda matn so‘zi “Muqaddima”ning A. Vafiy nashriga, “Tarjima” so‘zi esa S. Uludag‘ning “Muqaddima” tarjimasiga ishora qiladi

ko‘chirilishi, chop etilishi va tarjima qilinishi ko‘zda tutilgan nomni mustahkam qilib qo‘ygan. “Muqaddima”ni keyinroq batafsil tanishtirganimiz uchun qolgan ikki kitob haqida qisqacha ma’lumot beramiz.

Muqaddima kirish so‘z, dastlabki ma’lumot, bosh va muqaddima, mavzu, masala va bob ma’nolarini ham bildiradi. Muqaddimatu’l-Ulum (ilmlarni kiritish) iborasi ilmlarning asoslarini bildiradi. Bob deb nomlangan asosiy bo‘limga kirishdan oldin, musulmon mualliflar ushbu bo‘limni tushunish uchun zarur bo‘lgan dastlabki ma’lumotlarni bir yoki bir nechta kirish so‘zlarida (dastlabki bo‘limda) beradilar. Mantiqda sillogizmni tartibga solishda dastlabki ikki asosning har biri muqaddim (muqaddima) deb ataladi, qarang. Al-G‘azzoliy, al-Mustasfo, Qohira, 1937, 1, 7, 26, 33, II, 126. Ibn Xaldun muqaddima so‘zini o‘rinli qilib, oldindan bilish, so‘zboshi, muqaddima, tamoyil va asos ma’nolarida ishlatadi.

Ikkinchi kitob: Unda arab qabilalari, sulolalari va qo‘shni xalqlar: nabotiyalar, ossuriylar, forslar, yahudiylar, qadimgi misrliklar, yunonlar, turklar, Franklar kabi dunyoning boshidan Ibn Xaldun davrigacha bo‘lgan davrlarni o‘z ichiga oladi. Bu qism Kitab al-Ibarning 2, 3, 4 va 5 jildlarini tashkil qiladi.

Uchinchi kitob: U Kitab al-Ibarning 6 va 7 jildlarini qamrab oladi. U Barbarlar va Shimoliy Afrika (Mag‘rib) tarixi bilan bog‘liq. Yettinchi jild Ibn Xaldunning “at-Ta‘rif” nomli avtobiografiyasi bilan yakunlanadi. At-Ta‘rif – bu Ibn Xaldun o‘limidan bir oz oldin muntazam ravishda yuritgan kundalikdir. Shuningdek, u alohida tarixiy, adabiy va madaniy qadriyatga ega³⁵⁵.

“Kitab al-Ibar” bu uch kitobning nomi bo‘lib, muqaddima va muqaddima bilan birga yetti jilddan iborat. To‘rt jilddan iborat bo‘lib, arab, islom va sharq tarixini o‘z ichiga olgan ikkinchi kitob unchalik original emas, Ibn Xaldun bu qismni yozar ekan, Tabariy va Mas‘udiy kabi o‘zidan oldin yashagan islom tarixchilarining ma’lumotlarini yetkazish bilan kifoyalangan.. Boshqa tomondan, ushbu bo‘limda yaxshi tahlillar, oqilona va mantiqiy tushuntirishlar va real talqinlar mavjud.

Ikki jilddan iborat Shimoliy Afrika va Barbar tarixini o‘z ichiga olgan Mag‘rib deb nomlangan uchinchi kitob juda muhim. Chunki, Sharqiy islom tarixchilari unchalik ma’lumotga ega bo‘lmagan va shuning uchun ham o‘z asarlariga yetarlicha kiritmagan Shimoliy Afrika tarixiga oid ko‘plab qimmatli va muhim masalalar Kitab al-Ibarning ushbu qismida keltirilgan. Uchinchi kitobda Ibn Xaldun bergan ma’lumotlarning muhim qismi boshqa manbalarda uchramaydi. Chunki uning bu hudud haqida bergan ma’lumotlari uning shaxsiy kuzatishlari, og‘zaki rivoyatlari va bizgacha yetib kelmagan ayrim yozma hujjatlarga asoslanadi. Ibn Xaldunning shu yerlik bo‘lganligi ham o‘lka tarixi haqida qimmatli ma’lumot beradi.

³⁵⁵ “Al-Ibar” tarjimalari uchun qarang: Abdurahmon Badaviy, 216 va boshqalar.

Abdullatif Subhi Posho (1818-1885) Al-Ibarning 2 va 3-jildlarini Miftahu'l-Ibar (Ist. 1276), keyinroq Takmilatu'l-Ibar (Ist. 1278) nomi bilan turk tiliga tarjima qilgan. U ikki jildlik (juz) asar yozgan bo'lib, bu asar arab tiliga Xalil al-Xoriy tomonidan tarjima qilingan.

Shimoliy Afrika tarixiga oid Kitab al-Ibarning 6 va 7-jildlari ham Slane (Sezar, 1847-1851) tomonidan fransuz tiliga tarjima qilingan. Shuningdek, Al-Ibarning Shimoliy Afrika va Andalusiya tarixiga oid muhim boblari ko'p marta g'arb tillariga tarjima qilingan.

Ibn Xaldun "Al-Ibar" asarida voqealarni Ibn Kasir kabi xronologik jihatdan emas, balki Ma'sudiy, Balazuriy kabi mavzu va davrlarga ko'ra tasvirlagan, tarixiy voqealarni o'zi ilgari surgan tamoyillar doirasida tanqidiy talqin qila olgan.

R. Elinti shunday deydi: Xaldun birinchi kitobi va uning tarix falsafasi haqidagi nazariyasini o'z asarida talqin qila oladimi yoki yo'qmi, degan savol tug'iladi. Agar biz Ibn Xaldunni tarixchi deb hisoblasak, undan ustun bo'lgan arab tarixchilari borligini ko'ramiz. Ammo uni tarixga oid yangi nazariya ishlab chiquvchi mutafakkir deb hisoblasak, u zotning o'zi ham bu safda ekanligini, borligini ko'ramiz"³⁵⁶. Shuning uchun ham ba'zi mualliflar al-Ibarning birinchi kitobini "Oxiri yo'q Muqaddima", ya'ni tugamaydigan kitob deb atashadi.

V.Bartoldning ta'kidlashicha, Muqaddima katta binoning muhtasham fasadiga o'xshaydi. Ichkari va orqa tomoni oldingi kabi emas. Ibn Xaldunning tarix falsafasidan hayratini yashirmagan Z.V. To'g'on "Kitab al-Ibar"da hikoyachining tarix haqidagi mulohazalari juda ham boy ekanligini qayd etadi. Sati al-Husariy esa Ibn Xaldun "Kitab al-Ibar"ni yozishda tarix falsafasini ko'zdan uzoqda tutganini ta'kidlaydi va bunga misollar keltiradi. Darhaqiqat, "Kitab al-Ibar"da vaqti-vaqti bilan asosli mulohazalar, to'g'ri tanqidlarga duch kelish mumkin.

Mukaddima: Ibn Xaldun birinchi kitob deb atagan, lekin muqaddimasi (xutba) va muqaddimasi (Muqaddima) bilan doimo Muqaddima yoki Muqaddima-i Ibn Xaldun nomi bilan mashhur bo'lgan va unga munosib obro'-e'tibor qozongan asar eng qimmatli asar hisoblanadi. Islom tafakkuri tarixidagi eng original asarlaridan biri hisoblanadi. Bunday asarning musulmon qalam egasi tomonidan yaratilganligi har bir musulmon uchun faxr va iftixordir³⁵⁷.

Ibn Xaldun Misrga kelganidan so'ng "Muqaddima"sini qayta ko'rib chiqib, tartibga solib, unga yangi jumlar, yangi paragraflar va hatto yangi boblar qo'shdi. Shu nuqtayi nazardan, "Muqaddima"ning Tunisdagi nusxasi bilan Misrda tugallangan Zahiriy va Farziy nusxalari o'rtasida katta farq bor.

³⁵⁶ Uludağ Süleyman. İbn Haldun. Hayatı. Eserleri. Fikirleri. – Ankara. Harf Eğitim Yayıncılığı. 2022. – B. 28.

³⁵⁷ Uludağ, S., Mukaddime tarjiması, so'zboshi, İst. 1982, 95-99.

Abu Zayd Abdurahmon ibn Xaldunning ilmiy merosi “Muqaddima” asaridan iborat. Ibn Xalduning ilmiy merosi uning tarix ilmiga oid yetti jildlik asaridir³⁵⁸. Ibn Xalduning ushbu asari boshqa manbalarda uch jildlik deb ko‘rsatiladi³⁵⁹. Ibn Xalduning o‘zi shunday deb yozadi: «Men o‘z mehnatimni «Muqaddima» va uch kitobga bo‘ldim»³⁶⁰. Lekin «Muqaddima»ni ko‘rib chiqib, «Muqaddima» va birinchi kitob bir narsa deyish mumkin. Ibn Xaldun asarining to‘liq nomi quyidagicha “Kitab al-Ibar va diyvan al-Mubtada va al-Xabar fi ayyam al-Arab va al-Ajam va al-Barbar”, ya’ni «Ibratlar yoxud pandlar va arab, ajam, barbarlar hayotidan ma’lumotlar majmu’asi kitobi» dir. Ushbu asarni qisqacha qilib “Kitab al-Ibar”, ya’ni «Ibratlar kitobi» deb nomlashadi. Kitob Ibn Xaldun ta’kidlaganidek uch jilddan tashkil topgan³⁶¹.

“Muqaddima” qismi esa, birinchi kitobning aynan o‘zidir. Balkim “Muqaddima” qismining nomi butun bir asarga kirish qismi bo‘lsada, asarga nom bergandir. Ibn Xaldun “Muqaddima” da quyidagilar bayon etilganligini aytadi: “Muqaddima”da tarix fanlarining afzalligi, uni tadqiq etishni to‘g‘ri yo‘llari va muarrixlarning xatolarini bartaraf etish yo‘llari bayon etilgan”.

Birinchi kitobning maqsadini quyidagicha bayon etadi: “Birinchi kitob-jamiyat hayoti va uning xususiyatlari, shoh hokimiyati va boshqaruvi, daromad va yashash vositalari, hunarlar va ilmlar tasnifi, yuqoridagilarni mavjudlik sabablari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘zida jamlagan”.

Ikkinchi kitobda quyidagilar bayon etilgan: “Ikkinchi kitobda arablar va ularning qabilalari, Dunyo yaratilganidan buyon bo‘lgan tarix, shuningdek ularga qo‘shni bo‘lgan nabotiyalar, suriyaliklar, forslar, bani Isroil, qiptiyalar, yunonlar, turklar va rumliklar, ularning davlatlari haqidagi ma’lumotlar berilgan”³⁶².

Uchinchi kitob esa barbarlar va ular bilan bog‘liq bo‘lgan Zenat qabilasi, ularning kelib chiqishi, Mag‘ribdagi sulolalar va shoh hokimiyatining xususiyatlari haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan.

Ibn Xalduning o‘zi asar haqida shunday deydi: “Ushbu kitob falsafa uchun xum, tarixiy ilmlar uchun sandiqdir. Bu kitob o‘troq va ko‘chmanchi holda hayot kechiruvchi arablar va barbarlarning buyuk sulolalari haqidagi to‘liq, tugallanmagan tarixni o‘zida jam etgani “Arablar, forslar, barbarlar va ularning hozirgi kundagi

³⁵⁸ Тўғон А. З. Волидийнинг Туркистонга илмий сафари. “Тарихда усул” асаридан А. Зоҳидий таржимаси. – Тошкент, 1997. – Б. 135.

³⁵⁹ Uludağ Süleyman. İbn Haldun. Hayatı. Eserleri. Fikirleri. – Ankara. Harf Eğitim Yayıncılığı. 2022. – B. 30.

³⁶⁰ Abdurahmon Abuzayd ibn Xaldun. Al-Muqaddima. – Qohira: al-Matba’at al-adabiyya, 1900. – B. 8.

ص 588 - 1900. القاهرة: المطبعة الأدبية المقدمة. المقدمه. عبد الرحمن أبو زيد بن خلدون. 8-бет

³⁶¹ Ибн Халдун. Ал-Муқаддима. – Ал-Қоҳира: Дор ал-китаб Ал-Мисрий ва ал-Лубнаний, 1999 м., 7-бет

³⁶² Abdurahmon Abuzayd ibn Xaldun. Al-Muqaddima. – Qohira: al-Matba’at al-adabiyya, 1900. – B. 8.

عبد الرحمن أبو زيد بن خلدون. المقدمه. - القاهرة: المطبعة الأدبية 1900. - ص 8

hukmron sulolalari tarixining ibtidosi va bayoni majmuasi va ibratlar kitobi” deb nomladim”³⁶³.

Ibn Xaldunning ushbu asarining “Muqaddima” qismi mavzusi bilan qiziqarli bo‘lganligi va ko‘p tadqiq etilganligi uchun butun kitob “Muqaddima” nomini olgan.

Ushbu asarni Ibn Xaldun 45 yoshida Vuxran yaqinidagi bani Orif qabilasiga qarashli Ibn Salom qal’asida 1375-1378-yillar davomida yozib tugatgan “Muqaddima” ni tugatib, olim arablar va barbarlar tarixini yoza boshlagan.

“Kitab al-Ibar”, ya’ni «Ibratlar kitobi»ning birinchi varianti 1382-yilda tugatilgan ekan. Ushbu asar taxminan 1405-yilga kelib to‘liq tugatilgan. Ushbu asar deyarli hamma arab davlatlarida saqlanadi. Bundan tashqari ba’zi bir asarlar ya’ni «Ibn Xaldun avtobiografiya qo‘lyozmalari» asosiz ravishda «Ibn Xaldunning sharqqa va g‘arbga qilgan sayohatlari» nomli ostida nashr etilgan³⁶⁴. Olimning boshqa asarlari ma’lum emas. Mutafakkirning ushbu asari asosan tarix ilmiga bag‘ishlangan bo‘lib, shuningdek, o‘zida iqtisodiyot, jamiyatshunoslik, falsafa, siyosatshunoslik ilmlari tasnifiga oid ma’lumotlarni mujassamlashtirgan.

XULOSA

Ibn Xaldunning ijtimoiy-siyosiy faoliyati davomida davlat va jamiyat haqidagi qarashlari o‘zgarib bordi. Mutafakkirning ma’naviy merosi asosi sifatida keltirilgan “Kitab al-Ibar” asari hamda uning muqaddimasi bo‘lgan “Muqaddima” asarida jamiyat haqidagi qarashlari muntazam o‘zgarishda shakllanib bordi.

REFERENCES

1. Sulaymonov, Jasur Baxtiyorovich (2021). ABU ZAYD ABDURAHMON IBN XALDUNNING „MUQADDIMA“ ASARIDA DAVLAT TUSHUNCHASIGA YONDASHUVLAR TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1 (6), 9-14.
2. Bakhtiyorovich, S. J. (2023). Analysis of the Phenomenon of " Assabiya" In the Socio-Philosophical Concept of Abdurahman IBN Khaldun. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 4(6), 219-223.
3. Сулаймонов, Жасур Бахтиёрович (2022). ИБН ХАЛДУН ҚАРАШЛАРИДА “ТААССУБ” КАТЕГОРИЯСИНИНГ АҲАМИЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (Special Issue 23), 864-871. doi: 10.24412/2181-1784-2022-23-864-871
4. Жасур Бахтиёрович Сулаймонов (2022). АБДУРАҲМОН ИБН ХАЛДУННИНГ ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ КОНЦЕПЦИЯСИДА

³⁶³ Ибн Халдун. Ал-Муқаддима. Ал-Қоҳира: Дор ал-китаб Ал-Мисрий ва ал-Лубнаний, 1999 м., 8-бет

³⁶⁴ Ibn Khaldūn, ‘Abd al-Rahmān. Al-Ta’rīf bi-ibn Khaldūn wa rihlatihi gharban wa sharqan. Ed. Muhammad ibn Tāwīt al-Tanjī. – Cairo: al-Hay’a al-‘Āmah l-Qusūra Thaqāfa, 2006. – B. 16.

“АСАБИЙЎА” КАТЕГОРИЯСИ ТАҲЛИИ. Academic research in educational sciences, 3 (6), 719-726

5. Sulaymonov, J. B. (2021). Ibn Xaldunning „Muqaddima“ asarida jamiyat taraqqiyotiga ta’sir qiluvchi omillar talqini. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 732-737.

6. Жасур Сулаймонов (2021). АБДУРАҲМОН ИБН ХАЛДУННИНГ ТАМАДДУН ТАРАҚҚИЁТИ ҲАҚИДАГИ ҚАРАШЛАРИДА ЖАМИЯТ ТАҲЛИЛИ. Academic research in educational sciences, 2 (Special Issue 1), 451-455.

7. Uludağ Süleyman. İbn Haldun. Hayatı. Eserleri. Fikirleri. – Ankara. Harf Eğitim Yayıncılığı. 2022. – B. 24.

8. Abdurrahmon Badaviy, Muellefātu Ibn Haldun. – Tunis, 1979. – B. 41-55.

9. Ibn Khaldūn, ‘Abd al-Rahmān. Al-Ta’rīf bi-ibn Khaldūn wa rihlatihi gharban wa sharqan. Ed. Muhammad ibn Tāwīt al-Tanjī. – Cairo: al-Hay’a al-‘Āmah l-Qusūra Thaqāfa, 2006. – B. 233.

10. Abdurahmon Abuzayd ibn Xaldun. Al-Muqaddima. – Qohira: al-Matba’at al-adabiyya, 1900. – B. 8.

NASIRIDDIN AT-TUSIYNING “ASOS AL-IQTIBOS” ASARI HAQIDA

Abduvaxobova Gulsara Akromjon qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

abduvakhobovagulsara@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola Xo‘ja Nasiriddin at-Tusiyning mantiq ilmiga bag‘ishlangan “Asos al-iqtibos” haqida bo‘lib, maqolada asar haqida qisqacha ma‘lumot, asar tuzilishi va undagi bayon etilgan masalalar yoritilgan.

***Kalit so‘zlar:** Xo‘ja Nasiriddin at-Tusiy, “Asos al-iqtibos”, falsafa, mantiq, o‘rta asrlar, qadimgi yunon falsafasi, musulmon falsafasi, qo‘lyozma.*

ABSTRACT

This article is about Khwaja Nasiruddin al-Tusi's "Asos al-Iqtibas" dedicated to the science of logic. The article provides brief information about the work, the structure of the work, and the issues discussed in it.

***Key words:** Khwaja Nasiriddin al-Tusi, "Asos al-iqtibas", philosophy, logic, middle ages, ancient Greek philosophy, Muslim philosophy, manuscript.*

KIRISH

Sharqning serqirra olim-u mutafakkirlaridan biri, Ibn Sino maktabining vakili, ko‘plab fan sohalariga o‘zining ilmiy merosi bilan katta hissa qo‘shgan eronlik faylasuf Nasiriddin at-Tusiy hisoblanadi. Xo‘ja Nasiriddin at-Tusiy 1201-yilning 18-fevralida Xurosonning Tus shahrida Firuzshox Jehrudiy nomi bilan tanilgan Shayx Vajhiddin ibn Hasan nomli kishining oilasida tug‘ilgan³⁶⁵. O‘zidan juda katta ilmiy meros qoldirgan faylasuf, Erondagi Marog‘a rasadxonasining asoschisi ham hisoblanadi. Agar biz Nasiriddin Tusiyning ilmiy merosiga yaxshiroq nazar soladigan bo‘lsak, uning ba‘zi asarlari nafaqat bitta alohida sohaga, balki boshqa turli xil sohalarga oid ekanligiga guvohi bo‘lamiz. Mutafakkirning “Asos al-iqtibos” nomli asari shu kabi bir nechta sohaga oid asarlaridan biri hisoblanadi. “Asos al-iqtibos” adabiy asari ham fan va madaniyatning turli sohalariga bag‘ishlangan. “Asos al-iqtibos” asarida mantiq, falsafa, tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalariga bag‘ishlangan ma‘lumotlar umumlashtirilgan. Shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki, mazkur asar darslik sifatda qo‘llanilmaganligi bois, asarga dastavval katta e‘tibor qaratilmagan. Yillar davomida asardagi ko‘plab ilmiy ma‘lumotlar tadqiqotchilar nazaridan chetda qolgan. Shu sababli ham ko‘plab g‘arb va sharq tillaridagi asarning tarjimalari hozirgi kunga qadar mavjud emas. Asar faqatgina ingliz, fors va arab

³⁶⁵ Қўшшаева Н. М. Носириддин Тусий шахсияти. – НамДУ илмий ахборотномаси, 2020. – Б. 251.

tillarida mavjud. Bundan tashqari XV asrda usmonlilar olimi va shayxi Mulla Xusrav Nasiriddin Tusiyning “Asos al-iqtibos” asarini arab tilida qayta ko‘chirib, Sulton Mehmedga taqdim etgan³⁶⁶i haqida manbalarda ma’lumotlar keltirilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Asarning qo‘lyozma variantiga to‘xtaladigan bo‘lsak, uning arab va fors tilidagi qo‘lyozma shakllari mavjud bo‘lib, hozirgi kunda arab tilida yozilgan varianti King Saud University (Riyadh) fondida 3168 raqami (1-ilova) ostida saqlanadi. Fors tilidagi varianti esa, Fisher - University of Toronto fondida 2013-yildan buyon saqlanib kelinmoqda. Saqlanish raqami 740 (2-ilova). Mazkur qo‘lyozma to‘liq holda bizgacha yetib kelgan bo‘lib, 110 sahifani o‘z ichiga oladi. Asarning arab va fors tilidagi qo‘lyozmalari to‘liq va yaxshi saqlangan holatda bizgacha yetib kelgan. Afsuski, asarning qo‘lyozmasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanib kelinmoqda. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida mavjud emas.

Qo‘lyozma ilmiy tilda yozilganligi tufayli hoshiyalarsiz yozilgan. Shunga qaramay, Tusiy qo‘lyozmaning estetik tus olishi uchun matnlarni kirish va xulosa qismida turli shakllar bilan qayd etadi. Asarning basmalasi uchburchak shaklda yozib chiqilgan. Bundan tashqari Tusiy kerakli iboralarni qizil siyoh bilan ajratilgan holda keltirgan. Ushbu asarning mazmuni haqida gapirishdan oldin, avvalo asarning tuzilishiga to‘xtalib o‘tish zarur. Nasiriddin Tusiyning “Asos al-iqtibos” asari o‘ziga xos tuzilishga egadir. Kitob muqaddimasi o‘sha davrga xos bo‘lgan usul shartli so‘zlar, ya’ni basmala bilan boshlanadi. Muallif kitob muqaddimasida bu asarning qaysi fanga mansubligi ekanligi va yaratilish yo‘li haqida to‘xtalib, kitobga nima uchun “Asos al-iqtibos” nomini qo‘yganligi haqida shunday izoh beradi: “Olim bu san’atning qoida va usullariga ko‘ra, o‘ziga ayon bo‘lgan yo‘lni sharhlashi kerak. Va botil dinni (yo‘l, usulni) har jihatdan bekor qilishdan (noto‘g‘ri, yo‘q qilishdan) imkon qadar tiyilishi, agar ba’zi hollarda buzuq mazhabni zikr qilish zarurati tug‘ilsa, uni mahorat bilan qisqartirishi kerak. Va bu ilm boshqa ilmlar bilan solishtirganda, yozib olinadigan va tuziladigan hikmatning bir qismi bo‘lgani uchun bu butunlik (asos al-iqtibos) deb ataladi”³⁶⁷.

Asar muqaddimasida mantiq ilmi haqida gapirib, mantiq fanining turli masalalari, bu fanning boshqa fanlardan farqi, mantiq atamasining izohi va hokazolar

³⁶⁶ Recep C. Osmanlı Dönemi İslam Hukuku Çalışmaları: Kuruluştan Fatih Devrinin Sonuna Kadar. – Bursa, 2001. – S.196.

³⁶⁷ Норқўчқоров Ш. Ш. “Асос-ул-иктибос”-и насируддини тўси (сохт ва структураи ба худ хоси ин рисола) // Academic Research in Educational Sciences, 3(12). – Душанбе, 2022. – С.343.

haqida o‘z fikrlarini bildirgan. Kitobning asosiy qismi to‘qqiz maqoladan iborat bo‘lib, ayrim maqolalar (boblar) fanlarga bo‘lingan va alohida bo‘limlardan iborat.

Har bir maqola (bob) mavzu (qism) va bo‘limlarga ajratilgan bo‘lib, uning tuzilishi quydagicha: “Mantiq mazmunida” birinchi maqolasi to‘rt qismdan iborat. Ikkinchi maqola to‘qqiz bo‘limdan iborat. Uchinchi maqola ikkita mavzudan iborat bo‘lib, ushbu mavzular ham o‘z navbatida bir nechta bo‘limlarni qamrab olgan. To‘rtinchi maqola (O‘xshatish ilmi haqida) ikkita mavzudan iborat bo‘lib, birinchi mavzu ikki qismdan iborat. Beshinchi maqola ikki mavzudan iborat. Oltinchi maqola uch mavzudan iborat bo‘lib, yettinchi maqola uchta bo‘limni o‘z ichiga oladi.

Sakkizinchi maqola (Nutq va uni to‘g‘ri qo‘llash to‘g‘risida) uchta mavzudan tashkil topgan. To‘qqizinchi maqola (She‘r va uni metafora sifatida o‘qish haqida) uch bo‘lim, birinchi bo‘lim she‘rning mazmun-mohiyati va foydasi va unga nima aloqadorligini ko‘rsatuvchi, ikkinchi bo‘lim tasavvur va tasavvurni o‘rganish, hodisaning izohi (sabab) va undan foydalanish haqida. Va oxirgi uchinchi bo‘lim she‘riyat mazmunida va she‘riy san‘atga havolalardan tashkil topgan.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, Xo‘ja Nasiriddinning “Asos al-iqtibos”ida adabiyotshunoslik masalalari asarning to‘qqizinchi maqolasida keltirilgan. To‘qqizinchi maqolaning birinchi qismida she‘riyat masalalari va uning xususiyatlari, qadimda she‘r qanday bo‘lganligi haqida ma‘lumotlar berilgan. Nasiriddin Tusiy she‘rga uchta ta‘rif bergan bo‘lsa, birinchisi “O‘tmish an‘anasida”, ikkinchisi “Keyingilar tadqiqotchilar” va uchinchisi “So‘ggi davr tadqiqotchilari” ta‘rifidir. “Asos ul-iqtibos” asarining “she‘r ilmida” bo‘limida uchinchisini ta‘kidtib o‘tgan. Tusiy “Asos ul-iqtibos” asarida she‘riyat haqida shunday fikr bildiradi: “She‘r san‘ati hazil va tasavvurga asoslangan mahorat bo‘lishi va u alohida san‘at turi bo‘lishi zarur”³⁶⁸. Bu yerda muallif she‘riyatni san‘at turi deb ta‘riflaydi. Yana bir narsa shundaki, she‘rda muhayyal (tasavvur), mavzuli (og‘ir) va mutasaviy (teng) va tinish belgilari (qofiya) kabi so‘zlarni nazarda tutadi. Xuddi shu o‘rinda u she‘r mavzusiga oid o‘z fikrini quyidagi shaklda ifodalaydi: “Mavzu so‘zi esa ko‘proq ikki ma‘noli otdan iborat: biri to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma‘nosi bo‘lib, bir harakatlar va hikoyaning qolgan qismini muhokama qilish uchun qo‘llangan so‘zdir. Ikkinchisi esa majoziy: hayotiydir, qadimgi Xusravoniyda bo‘lgani kabi ko‘rinishda o‘xshash bo‘lish uchun fikr va dalillar tengligi nuqtai nazaridan qo‘llangan. Bitta she‘rda ritm har xil bo‘lishi va muzla va musadalarning mazmuni bo‘lishi kerak”³⁶⁹. Bu yerda u vaznli nutqni ikki ma‘noda izohlaydi: birinchisi, harakatlanuvchi (unli) va sokin (sukunli) harflar, ikkinchisi esa majoziy: nutqning o‘xshash shakldagi tengligi. Qolaversa, bo‘g‘inlar

³⁶⁸ 578. خواجه نصیرالدین طوسی، اساس الاقتباس، به کوشش مصحح: محمدتقی مدرس رضوی، دانشگاه تهران، ۱۳۶۷ ص.

³⁶⁹ Норқўчқоров Ш. Ш. “Асос-ул-иктибос”-и насируддини тўси (сохт ва структураи ба худ хоси ин рисола) // Academic Research in Educational Sciences, 3(12). – Душанбе, 2022. – С. 348.

soni mutasaviy (ustun va ustunlar) jihatidan teng bo‘lishi kerak, – deydi notiq. Shundan so‘ng “pauza” atamasi haqida o‘z fikrini aytadi: “Va pauza ma’nosida; bu hikoyaning oxiri mustaqil bo‘lish o‘rniga o‘xshash bo‘lishi kerak. Yana bir o‘rinda “qofiya qadimda bo‘lmagan va faqat arablarga xos” deydi. Bu masalani Ibn Sino “Shifo” asarida shunday izohlagan: “She’r bir mavzudagi so‘zlardan yasalgan xayoliy nutqdir; arablar uchun esa qofiyasi ham bo‘lishi kerak³⁷⁰. Qolaversa, qofiyaning she’riyatdagi o‘rnini uning musiqiyiligini ta’minlash uchun deb biladi. Nasiriddin Tusiy mantiqning ta’rifi haqida shunday deydi: “Mantiqiy qarash xayolga xosdir. Demak, she’riyat mantiq yoqasidagi xayoliy so‘zdir”. Bundan kelib chiqadiki, mantiqqa ko‘ra, she’r xayoliy so‘z bo‘lishi kerak va u keyingi davrni shunday izohlaydi: “Va qofiyalash vazni bo‘lgan har bir so‘z, quruq gap bo‘ladimi, yolg‘onmi, ritorikmi yoki rostmi, agar u xuddi tavhid (birlik) yo bo‘sh gap kabi bo‘lsa ham, uni she’r qilib o‘qing. Va agar u vazn va qofiyadan xoli bo‘lsa, hatto xayoliy bo‘lsa ham, she’r qilib o‘qimaslik kerak³⁷¹.”

So‘nggi davr olimlari she’riyatda qanday so‘z bo‘lmasin, vazn va qofiyaning zarur deb biladilar. Shu o‘rinda Tusiy ham she’rda vazn va qofiyaning muhim ekanligini alohida ta’kidlaydi. Agar she’r vazn va qofiyadan xoli bo‘lsa, xayoliy bo‘lsa ham, she’r deyilmaydi. Biroq, dastlabki davrlarda xayoliy so‘zlar she’r sifatida o‘qilgan, biroq u haqiqiy she’r bo‘lmagan. U qadimgi yunon, ibroniy, suriy va fors she’riyati haqida shunday fikr bildiradi: “Yunon she’riyati ham shunday bo‘lgan, boshqa qadimgi ibroniy, suryoniy va fors lug‘atlarida esa haqiqiy vazn hisobga olinmagan³⁷². Shuning uchun qadim zamonlarda vazn hisobga olinmagan. She’rning asosini tasavvur hosil qilib, Nasiriddin she’rga ta’rifida shunday deydi: “Mantiqiy tasavvurning asosi esa, iste’mol qilinsa ham, doim amalda bo‘lishi kerak. Bu san’at esa mazali, ta’mi she’rning boshqa holatidan farq qiladi. Demak, she’rning mazmuni nutqdir. Uning surati esa oxirgisiga yaqin, og‘ir va qofiyali, tasavvur mantiqiga yaqin bo‘lishi kerak³⁷³.”

Albatta, hikoya va mavzuda shoir mavzuga mutanosib ravishda vazn tanlaydi. Biroq har bir she’rning mazmuni va mavzusi muayyan vaznga mos keladi. Xo‘ja Nasiriddin yunon she’riyatida har bir janrning o‘ziga xos tarafkashligi haqida shunday deydi: “Yunonlar qamrovi, she’riyati cheklangan bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos vaznga ega bo‘lgan, masalan, yaxshi amallarni zikr qilishni o‘z ichiga olgan tur va shu turlardan birini maqtash laqabini ham o‘z ichiga olgan, “tarofudyo”

³⁷⁰ خواجه نصیر الدین طوسی، اساس الاقتباس، به کوشش مصحح: محمدتقی مدرس رضوی، دانشگاه تهران، ۱۳۶۷. ص ۳۹۱

³⁷¹ Норқўчқоров Ш. Ш. “Асос-ул-иктибос”-и насируддини тўсей (сохт ва структураи ба худ хоси ин рисола) // Academic Research in Educational Sciences, 3(12). – Душанбе, 2022. – С.349.

³⁷² خواجه نصیر الدین طوسی، اساس الاقتباس، به کوشش مصحح: محمدتقی مدرس رضوی، دانشگاه تهران، ۱۳۶۷. ص ۳۹۱

³⁷³ Норқўчқоров Ш. Ш. “Асос-ул-иктибос”-и насируддини тўсей (сохт ва структураи ба худ хоси ин рисола) // Academic Research in Educational Sciences, 3(12). – Душанбе, 2022. – С.351.

(trogediya) deb atalgan) va u eng yaxshi she'r turi bo'lib, bu juda shirali vazn hisoblangan. Va yana bir turi g'alayonlar va janjallarni zikr qilish va kimningdir kinoyasi bilan bog'liq bo'lsa, yana bir turi urush va nizolar ishlari bilan bog'liq bo'lgan. Va boshqa bir turi boylik ishlari va yomon xulqni yetkazib berish bilan bog'liq, boshqa turi esa shodlik va baxtga muhtojlik bilan bog'liq va yana bir turi siyosat bilan bog'liq edi. Mulk borasdagi va boshqa turlar mavjud bo'lgan va har bir tur maqsadga muvofiq tashkil etilgan va xos bo'lgan o'ziga xos tarkibiy qismga ega bo'lgan³⁷⁴.

Xo'ja Nasiriddin Tusiyning ushbu kitobni yozishdan maqsadi, u muqaddimada aytib o'tganidek, mantiq ilmi bo'yicha o'zining boshqalardan olgan bilimlarini ham, bu fandagi shaxsiy fikr va mulohazalarini ham o'z ichiga olgan keng qamrovli texnik va tadqiqot ishini taqdim etish edi³⁷⁵.

Ushbu kitobda mantiq mavzulari to'qqiz qismdan iborat. Ushbu usulda mantiqiy mavzular quyidagi nomlar bilan 9 bo'limga bo'lingan: 1. Kirish; 2. O'n birlik toifalar; 3. Teoremlar; 4. Analogiya; 5. Dalil; 6. Munozara; 7. yolg'on; 8. Nutq; 9. She'riyat³⁷⁶.

Ibn Sinoning asosiy asari "Kitob ash-shifo"da mantiqqa oid fikrlar 9 qismdan iborat bo'lib, ularning nomlanishi va tartibi Forobiyniki kabidir. Ibn Rushd ham bu usuldan foydalanganlar. Bundan tashqari Ibn Sino "Kitob al-ishorot" asarida ham qo'llagan. Xuddi shu singari Nasiriddin Tusiyning "Asos al-iqtibos" asarini ham 9 qismdan iborat shaklda yozadi.

"Asos al-iqtibos" asari darslik sifatida ko'rilmagani bois unga ko'p e'tibor berilmagan va unga izoh va sharhlar kam yozilgan. Uning nashr etilishi ham yillar davomida kechiktirildi. Bu kitob birinchi marta hijriy 1326-yilda nashr etilgan. U Muhammad Toqi Modares Razaviyning tuzatishi bilan nashr etilgan. Uning yana bir nashri 1375-yilda Sayyid Abdulloh Anvarning tuzatish va izohlari bilan ikki jild holida nashr etilgan. (Birinchi jildida asarning asosiy matni, ikkinchi jildda esa tuzatilgan eslatmalar mavjud).

At-Tusiyning mantiqqa qo'shgan asosiy hissasi uning ismoiliylik davrida yozilgan forscha "Asos al-iqtibos" ("Ilm olish uchun zamin") asarida mavjud. Tusiyning islom dunyosi mantig'ining odatiy o'n bo'limiga ko'ra bo'lingan va uning mazmuni haqidagi muhokamasi so'nggi yillarda tadqiqotchilar e'tiborni tortdi (Morewedge 1975). Bu, shuningdek, at-Tusiyning arab terminologiyasini ravon va nafis uslubga kiritib, fors tilida texnik mavzular haqida yozish qobiliyatidan dalolat

³⁷⁴ Хоҷа Насириддини Тӯсӣ. Асосулиқтибос. – Техрон, 1355. – С.103

³⁷⁵ <https://fa.m.wikipedia.org/wiki/>

³⁷⁶ خواجه نصیر الدین طوسی، اساس الاقتباس، به کوشش مصحح: محمدتقی مدرس رضوی، دانشگاه تهران، ۱۳۶۷. ص ۳۷۳

beradi. At-Tusiyning arabcha mantiq qo‘llanmasi “Tajrid al-mantiq” (Mantiq abstrakti) uning shogirdi Alloma al-Hilliy tomonidan sharhlangan.

Shayx ar-Rais Ibn Sinoning “Shifo” nomli mantiqiy kitobi va Ibn Rushdning Arastuning mantiqiy risolalariga yozgan sharhi, shuningdek, Nasiriddin Tusiyning “Asos al-iqtibos” asari islom madaniyatidagi eng katta hajmli mantiq kitoblaridan sanaladi. Nasiriddin Tusiyning “Asos al-iqtibos” asari sifat jihatidan yuqoridagi kitoblarning hammasidan ba’zi mavqelarda ustundir desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. U o‘z ishiga tegishli bo‘lgan mantiqda materiya va shaklning ikki tashqi komponentini ko‘rgan va o‘z fikrini asos qilib olgan va shu ikki komponent asosida ish olib bordi. U “vakil” va “argument” va uning qo‘shimchalari asosida mantiqiy shaklni ta’riflaydi. Undan keyin Aristotelga ergashga mantiqchilar ham uning uslubiga ergashgan va “Asos al-iqtibos” kitobi ham xuddi shu yo‘ldan borgan.

Tusiyning Ibn Sino falsafasining tarjimoni sifatidagi tan olinishiga sabab bo‘lgan asosiy matn uning ismoiliylar hukmronligining oxirida yozgan “Kitob al-ishorot” (“Mulohazalar va pand-nasihatlari”)ga yozgan sharhi hisoblanadi. At-Tusiy asari qisman, Faxriddin ar-Roziyning xuddi shu matnga bergan sharhiga javob sifatida mo‘ljallangan edi. Bu asar Nasiriddin Tusiyning Ibn Sino mantiq‘ida mavjud bo‘lmagan g‘oyalari bilan to‘ldiriladi va tahlil oldingi faylasuflar mantiq‘ining zaif tomonlarini ochib berishi mumkinligini ko‘rsatadi. Uning o‘zi faylasufni xulosalar haqidagi oldindan o‘ylangan fikrlarga ko‘ra emas, balki o‘z dalillarining asosliligiga qarab baholashni talab qilishi uning Ibn Sinoning o‘ziga xos uslubiga sodiqligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, u Ibn Sinoning nazariyalarini ko‘p hollarda himoya qilganda, o‘zi o‘rinli deb topsa, uning fikrlariga qarshi chiqqan holatlar ham kuzatiladi. Masalan, garchi at-Tusiy Ibn Sinoning biluvchi va ma’lum o‘rtasidagi shaklning o‘xshashligi haqidagi nazariyasini boshqa mavjudotlarga nisbatan qo‘llash mumkinligi haqidagi nazariyasini butunlay inkor etmasada, emanatsiya nazariyasini talqin qilishda Alloh ilmining tabiati borasida as-Suhravardiy qarashlariga qisman qo‘shiladi. Xudoning Birinchi Aql va uning asosida yuzaga kelgan butun koinot haqidagi bilimga ko‘ra Birinchi Aqlning mavjudligi bilan qolgan mavjudotlarning mavjudligi bir xil bo‘lib, emanativ zanjirdagi quyi mavjudotlar o‘z bilimlarini shakllar va tasvirlar, shuningdek mavjudlik orqali oladilar. At-Tusiyning sharhi aniq va tizimli bo‘lib, Ibn Sinoning qiyin va murakkab nazariyasini tiniq tushuntirgani uchun hozirgacha asl matn bilan o‘rganilmoqda.

XULOSA

Mantiq bo‘yicha uning “Asos al-iqtibos”, “Sharh-i mantiq al-ishorot”, “Ta’dil al-mi’yor”, “Tajrid fi’l-mantiq” kabi asarlari kiradi. Ulardan birinchisi, Ibn Sinoning “Shifo”da mantiqiy yo‘nalishlari bo‘yicha fors tilida mavzuning har tomonlama va

ravshan bayonini beradi. Shuning uchun Tusiy mantiq'i Arastu va Ibn Sino mantiq'ining sintezi hisoblanadi va u musulmon peripatetizm vakillariga qaraganda Aristotel mantiq'iga ko'proq sodiq edi, bu uning "Asos al-iqtibos" deb nomlangan asosiy mantiqiy asarida o'z ifodasini topgan. Albatta, bu Ibn Sino g'oyalari uning mantiq'ida va epistemologiyasida yo'qligini anglatmaydi. Nasiriddin Tusiyning mantiqiy va epistemologik qarashlarining shakllanishiga yunon-rim mantiq'ining ta'siri qanchalik katta bo'lmasin, baribir uning dunyoqarashi va uning barcha g'oyalari Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining ma'naviy merosiga asoslangan edi. Nasiriddin Tusiy o'zining falsafiy mulohazalarida Aristotel an'analarini davom ettirib, haqiqat masalasida ratsionalizm va sensualizm ikkala rol ni ham o'ynashini ko'rsatishga intildi. Nasiriddin Tusiy shu tarzda falsafaning barcha yo'nalishlarida o'ziga xoslikka erishadi.

REFERENCES

1. Umarov M. L. Nosiruddin Tusiyning gnoseologik va mantiqiy qarashlari hamda mazkur masalalarga muallif asarlaridan misollar // *Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 9, 2022.* – B.135-141.
2. Recep C. Osmanlı Dönemi İslam Hukuku Çalışmaları: Kuruluştan Fatih Devrinin Sonuna Kadar. – Bursa, 2001. – S.196.
3. Болтаев М. Н. Вопросы гносеологии и логики в произведениях Ибн Сины и его школы. – Душанбе, 1965. – С. 600.
4. Қўшшаева Н. М. Носириддин Тусий шахсияти. – НамДУ илмий ахборотномаси, 2020. – Б. 251.
5. Норқўчқоров Ш. Ш. "Асос-ул-иктибос"-и насируддини тўсӣ (сохт ва структураи ба худ хоси ин рисола) // *Academic Research in Educational Sciences, 3(12).* – Душанбе, 2022. – С.343.
6. Хоча Насириддини Тўсӣ. Асосулиқтибос. – Техрон, 1355. – С.103.
7. خواجه نصیرالدین طوسی، اساس الاقتباس، به کوشش مصحح: محمدتقی مدرس رضوی، دانشگاه تهران، ۱۳۶۷. ص ۳۹۱
8. Jurayev, S. S. O. G. L. (2023). ABU ALI IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARIDA "INOYAT"(العناية) TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI. *International scientific journal of Biruni, 2(1), 43-47.*

XALQARO TAJRIBADA SUD XARAJATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Babajanov Farrux Qadamboevich-

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar Oliy kengashi huzuridagi Sudyalar Oliy
maktabi mustaqil izlanuvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola turli mamlakatlarning sud xarajatlarini optimallashtirish bo'yicha qabul qilgan strategiyalari va usullarini tahlil qiladi. Maqola xalqaro miqyosda sud xarajatlarini kamaytirishning muvaffaqiyatli misollarini o'rganish orqali, texnologiyalar qo'llanilishi, qonuniy islohotlar, moliyalashtirish modellari va xalqaro hamkorlikning ahamiyatini ta'kidlaydi. Shuningdek, adolat va samaradorlik o'rtasidagi muvozanatni saqlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Maqola, shu bilan birga, kelajakda sud xarajatlarini boshqarish sohasida kutilayotgan tendensiyalar va istiqbollarni ham ko'rib chiqadi.

Kalit so'zlar: *sud xarajatlari, xalqaro tajriba, qonuniy islohotlar, texnologik integratsiya, moliyalashtirish modellari, adolat va samaradorlik, xalqaro hamkorlik, kelajakdagi tendensiyalar, elektron sudlov tizimlari, huquqiy yordamga kirish.*

ABSTRACT

This article analyzes the strategies and methods adopted by various countries to optimize court costs. The article highlights the importance of the use of technology, legal reforms, financing models and international cooperation by examining successful examples of reducing litigation costs internationally. Special attention is also paid to the issues of maintaining a balance between fairness and efficiency. The article also examines future trends and prospects in the field of litigation cost management.

Key words: *court costs, international experience, legal reforms, technological integration, financing models, fairness and efficiency, international cooperation, future trends, electronic justice systems, access to legal aid.*

KIRISH

Sud xarajatlarini kamaytirishga oid global muammolar turli mamlakatlar uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar hamda ilgari surilayotgan yechimlar har xil. Biroq, asosiy muammolar orasida moliyaviy resurslarning cheklanganligi, sud jarayonlarining murakkabligi va vaqt talab qiluvchanligi, shuningdek, fuqarolarning adolatli sudlovga kirishdagi tengsizliklar alohida ta'kidlanadi.

Moliyaviy resurslarning cheklanganligi katta muammo hisoblanadi. “Ko'p hollarda, sud tizimi uchun ajratilayotgan mablag'lar yetarli emas, bu esa sud jarayonlarining sekinlashuviga va sud qarorlarini chiqarish muddatlarining uzayishiga olib keladi”³⁷⁷. Shuningdek, bu vaziyat advokatlar va sud xodimlariga yetarli darajada haq to'lanishiga ham ta'sir qiladi, bu esa ularning ish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Sud jarayonlarining murakkabligi va vaqt talab qiluvchanligi ham diqqatga sazovor. Sud ishlarini ko'rib chiqish jarayoni ko'pincha bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi, har bir bosqich esa o'z navbatida turli byurokratik to'siqlar va qog'ozbozliklar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu esa nafaqat moliyaviy resurslarni, balki vaqtni ham talab etadi, natijada sud tizimi samaradorligi pasayadi.

Fuqarolarning adolatli sudlovga kirishdagi tengsizliklar esa ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda keskin namoyon bo'ladi. “Sud xarajatlari ba'zi hollarda shunchalik yuqori bo'lishi mumkin-ki, o'rtacha daromadga ega fuqarolar uchun advokat yollash yoki sud jarayonlarida ishtirok etish deyarli imkonsizga aylanadi”³⁷⁸. Bu esa jamiyatdagi adolat tizimiga bo'lgan ishonchni susaytiradi va ijtimoiy adolatsizlik hissiyotlarini kuchaytiradi.

Shu bilan birga, yuqoridagi muammolarni hal qilish uchun turli yechimlar taklif etilmoqda. Masalan, elektron sudlov tizimlarini joriy etish orqali qog'ozbozlikni kamaytirish, sud jarayonlarini tezlashtirish va shaffoflikni oshirish mumkin. Biroq, ushbu yechimlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan texnologik va moliyaviy resurslarni ta'minlash ham o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Sud xarajatlarini samarali boshqarish sohasidagi xalqaro tajribalarni o'rganish, turli mamlakatlardagi islohotlar va yondashuvlarni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon, ayniqsa, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda katta ahamiyat kasb etadi, chunki sud xarajatlari adolatli va samarali huquqiy tizimni ta'minlashning asosiy omillaridan biridir.

Masalan, Skandinaviya mamlakatlari (Shvetsiya, Daniya va Norvegiya) o'zlarining sud xarajatlarini boshqarishdagi samaradorliklari bilan tanilgan. Bu mamlakatlar elektron sudlov tizimlarini joriy etish orqali sud jarayonlarini tezlashtirish va sud xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishga muvaffaq bo'lishgan. Elektron hujjatlar aylanishi, onlayn da'vo arizalari va masofaviy sud majlislarini o'tkazish kabi tizimlar, sud xarajatlarini optimallashtirishda muhim rol o'ynaydi.

³⁷⁷ Herbert E. B. The role of the International Court of Justice in actualising global peace //Indian Journal of International Law. – 2021. – T. 59. – №. 1. – PP. 323-354.

³⁷⁸ Paúl Á. Translation Challenges of the Inter-American Court of Human Rights and Cost-Effective Proposals for Improvement //Inter-Am. & Eur. Hum. Rts. J. – 2012. – T. 5. – P. 3.

Bundan tashqari, Angliya va Uels sud tizimi ham sud xarajatlarini kamaytirish bo'yicha bir qator islohotlarni amalga oshirgan. Bu mamlakatlarda "Costs Management" tizimi joriy etilgan bo'lib, u sud jarayonlarida vaziyatni boshqarish va xarajatlarni oldindan prognoz qilish imkonini beradi. Shuningdek, sud xarajatlari bo'yicha maslahatchilar tizimi, sud jarayonlarini yanada samarali va tejamkor qilish maqsadida kiritilgan.

Yaponiya esa, sud jarayonlarini soddalashtirish va tezlashtirish orqali sud xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan yondashuvni tanlagan. Yaponiya sud tizimida kichik da'volarni ko'rib chiqish uchun maxsus tezkor sudlar tashkil etilgan, bu esa umumiy sud xarajatlarini pasaytirishga yordam bergan.

Umuman olganda, xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, sud xarajatlarini samarali boshqarish uchun texnologik yechimlarni qo'llash, sud jarayonlarini soddalashtirish va sud xarajatlarini prognoz qilish tizimlarini ishlab chiqish muhimdir. Bu yondashuvlar sud tizimining samaradorligini oshirishga va fuqarolarning huquqiy yordamga bo'lgan kirishini kengaytirishga xizmat qiladi.

